



Choliqushi (roman).

Rashod Nuri Guntekin

Turkchadan Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi

Birinchi qism

B..., 19... yil, sentyabr.

To'rtinchi sinfda edim. Yoshim o'n ikkilarda bo'lishi kerak. Frantsuz tili muallimamiz Aleksi opa bir kun bizga inshodan vazifa topshirdi. "Hayotdagi ilk xotiralaringizni yozishga harakat qiling. Ko'raylik-chi, nimalarni eslar ekansizlar. Sizlar uchun bu ajoyib xayol mashqi bo'ladi", — degan edi u.

Hech esimdan chiqmaydi: sho'xligimdan, sergapligimdan bezor bo'lgan murabbiyalrim meni o'rtoqlarimdan ayirib, sinf burchagidagi bir kishilik kichkina partaga o'tqazib qo'yishgan edi.

Mudira aytgandek, men "dars paytida qo'shnilarimni gapga tutmaslikni, o'qituvchimizning so'zlarini odob bilan tinglashni o'rgangunimga qadar" u yerda surgun hayot kechirishga mahkum edim.

Bir yonimda kattakon yog'och ustun bor: nimaiki qilinsa pinagini buzmaydigan va orasira pakkimning uchi bilan u yer-bu yeriga ozor berganimda mardona chidab turadigan vazmin, uzun, gung qo'shni.

Narigi yonimda esa monastir tarbiyasiga mos salqin va g'amgin olaqorong'ilikni saqlash uchun yasab qo'yilganga o'xshagan, darpardalari hech mahal ochilmaydigan uzun deraza. Men soz narsa kashf qildim: ko'ksimni partaga suyab, iyagimni bir oz ko'tarsam, deraza darpardalari tirqishidan osmonning bir bo'lagi-yu, akatsiya shoxlari orasidan bitta uy derazasi bilan balkon panjarasi ko'rinar edi.

To'g'risini aytganda, manzara unchalik chiroyli emasdi. Deraza hamisha yopiq turar, balkon panjarasida esa har doim chaqaloqning yo'rgaklari yoyib qo'yilgan bo'lar edi.

Lekin men shu narsalarni ko'ra olganim uchun ham xursand edim.

Dars paytlarida qo'llarimni iyakka tirab, o'qituvchilarimga nihoyatda xudojo'y ko'rinish uchun lozim bo'lgan bir alfovza ko'zlarimni ko'kka — deraza eshigi tirqishidan ko'ringan haqiqiy osmonga tiksam, ular meni insofga kira boshlabdi, deb suyunishardi. Men murabbiyalrimni shu zaylda aldar, ular bizdan yashirmoqchi bo'lgan hayotni tomosha qilayotgan kishiday quvonar, aldaganim va intiqom olayotganim uchun huzur qilardim.

Aleksi opa vazifani tushuntirib bo'lgandan so'ng bizni yozishga qo'yib berdi.

Oldingi partalarga husn berib turgan og'ir tabiatli peshqadam o'quvchi qizlar al-laqachon ishni boshlab yuborishdi. Ularning yonida o'tirmasam ham, nimalar yozayotganlarini kiftlari ustidan ko'rib turganday bo'lar edim: "Ilk xotiramda qolgan bir-dan-bir narsa mehribon onajonimning kichkina karavotcham ustiga egilgan oltin sochli aziz boshi, menga mehru muhabbat bilan kulimsiragan havorang ko'zlaridir..." tarzida shoirona yolg'on... Aslida esa onalar oltin va havoranglardan boshqa ranglarda ham bo'ladilar. Faqat so'rilar*ning o'quvchilari qalamidan shunday ranglarga bo'yalib chiqish u bechoralar uchun bir majburiyat, biz uchun esa odat edi.

Menga kelsak, men butunlay boshqacha qiz edim. Juda yoshligimda ayrilgan onamdan esimda nihoyatda oz narsa qolgan. Lekin onamning oltin sochli, havorang ko'zli bo'lmanini aniq bilaman. Shunday bo'lgandan keyin, asl qiyofasini o'zgartirib tushuntirishga va bundan mammun bo'lishga hech qanday kuch meni majbur qilolmaydi...

* * *

"Nima yozsam ekan?" degan o'y meni qiyndardi. Devorda Bibi Maryamning bo'yoqli surati tagiga osib qo'yilgan kakkuli soat tinmay yurib turibdi, men esa hali ham anqayib turibman. Boshimdagi lentani yechdim, sochlarni sekin-asta ko'zimga tushira boshladim. Bir qo'llim bilan qalamni og'zimga tiqib, uni tilim bilan aylantirib o'tirdim.

Faylasuflarning, shoirlarning bir narsa yozib turganda burun qashish, bag'baqalarini cho'zish kabi g'alati odatlari bor-da axir... Qalam tishlab sochimni ko'zimga tushirib o'tirishim ham mening chuqur xayol surayotganligimni bildirishi kerak.

Xayriyatki, menda xayolotga berilish paytlari juda kam bo'lardi. Aks holda, hayotim ertaklardagi Chorshanba ayol o'choq onasining hayoti singari chigal-butal bo'lib o'tar edi.

Oradan yillar o'tdi. Mana endi begona bir shaharda notanish bir mehmonxona nomerida o'tirib xotiralarimni yozyapman... Sira tongi yorishmaydigandek tuyulgan tun azobidan qutulish uchun xotiralarimni yozib turgan shu soatimda bir qo'llim yosh bolalik chog'larimdagи singari yana sochlarni to'zg'itib, ko'zlarim ustiga tushirish bilan mashg'ul.

Buning sababi atrofdagi hayot oqimiga o'zini qo'yib yuboradigan yengiltak, beparvolik ekanligimdan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Og'ir kunlarda o'z-o'zim, o'z fikrlarim bilan tanho qolish uchun ko'zlarim bilan dunyo orasiga shu sochlarni parda qilib qo'yishga tirishardim.

Qalamni kabob sixiday tishlarim orasida aylantirishimga kelsak, to'g'risini aystsam, buning hikmatini o'zim ham bilmayman. Butun bilganim shuki, lablarimdan binafsha siyoh dog'lari arimas edi. Hatto bir kun, endi ko'zga ko'rinish kelayotgan qizlik chog'larimda, maktabimga meni ko'rgani kelgan bir odamning oldiga mo'ylov qo'ygan kishiday chiqdim-u, uyaganimdan yerga kirib ketayozdim.

Nima to'g'rida gapirayotgan edim? Ha... Aleksi opaning ilk xotiralarni yozdirmoqchi bo'lgan inshosi to'g'risida...

O'sha kuni har qancha o'ylasam ham, faqat shu narsalarnigina yozganim esimda:

"Men baliqlar singari ko'l ichida tug'ilganga o'xshayman. Onamni es-es bilaman... Otam, enagam, xizmatkorimiz Husayn ham esimda... Bir kun meni ko'chada quvgan qora laychani... Bir kun to'la savatdan yashiriqcha uzum olayotganida barmog'imni chaqib olgan arini... Ko'zim og'riganda tomizilgan qizil dorini... Mehribon Husayn bilan Istambulga kelganimizni... Ha, shularga o'xshash ko'p narsalarni eslayman... Lekin bulldan hech biri ilk xotira emas... o'zim yaxshi ko'rgan ko'lda, quyuq yaproqlar orasida qip-yalang'och bo'lib cho'milib yurgan vaqtlarimdagiday eski xotiralar emas... Dengizday poyonsiz bir ko'l... "Ichida katta-katta yaproqlar, atrofida daraxtlar bo'lsa, bu ko'l qanday qilib dengizday katta bo'lishi mumkin?" deyarsizlar... Xudo haqqi, yolg'on

so'zlayotganim yo'q, o'zim ham sizlarga o'xshab hayronman... Ammo, aslida shunday bo'lgandan keyin ilojim qancha?.."

Inshom sinfda o'qilganda, dugonalarim men tomonga o'girilishib, qahqaha urib kulib yuborishdi. Bechora Aleksi opa ularni tinchitish uchun anchagina zahmat chekdi.

* * *

Qizig'i shuki, Aleksi opa qora kiyimi ichida kosov singari bo'yi, ohorli oppoq yoqasi, saroy xonimining peshonaga tortilgan chorshafiga o'xshab bosh kiyimi tagidan ko'rinish turgan seckilli qonsiz yuzi va anorgul singari qip-qizil lablari bilan hozir ro'paramda paydo bo'lib, yana o'sha savolni bersa, hozir ham o'shandan boshqa javob topolmasam kerak, yana baliqday ko'lida tug'ilganimni ayta boshlayman.

Keyinchalik u yoq-bu yoqdan surishtirib bilsam, bu ko'l Musul atrofida, oti doim esimdan chiqib qoladigan bir kichkina qishloq yonboshida ekan; mening poyonsiz dengizim chakalak orasidagi quruq irmoqdan qolgan bir hovuch suvdan iborat ekan.

* * *

Otam u mahallar Musulda xizmat qilar ekan. Men ikki yarim yoshlari chamasida ekanman. Yoz shu qadar issiq kelibdiki, shaharda turishning iloji qolmagandan ke- yin, otam meni onam bilan qishloqqa keltirib qo'yishga majbur bo'libdi. O'zi esa har kuni ertalab otda Musulga tushar, kechqurunlari, kun botgandan keyin yana qaytib kelar ekan.

Onam menga qaray olmaydigan ahvolda qattiq kasal ekan. Shuning uchun ancha vaqtlargacha qarovsiz qolibman... Oylab xizmatkorlar uyida sarson bo'libman. Ke- yin qishloqlarning biridan Fotima degan kimsasiz bir arab xotinni topishgan. Fotima meni yangigina o'lgan chaqalog'i o'rnida ko'rib, undan qolgan siynasi bilan onalik mehrini menga beribdi.

Dastlabki yillarda sahro bolasiday o'sibman... Fotima meni orqasiga qopchiqday osib olib, jazirama oftoblarda ko'tarib yurar, xurmo daraxtlariga ham ko'tarib chiqar ekan.

Shunday qilib, o'sha paytlar men hali aytgan qishloqqa kelibmiz. Fotima meni har kuni ertalab oziq-ovqatimiz bilan shu chakalakka keltirar; meni qip-yalang'och qilib suvgalar ekan... Kechqurungacha yumalanishib o'ynashar, ashulalar aytishar, birga ovqat qilishar ekanmiz... Keyin, uyqumiz kelganda, qum yig'ib yostiq qilar, gavdalarimiz sunda, boshlarimiz qumda quchoqlashib, betlarimizni betlarimizga qo'yishib uyquga ketar ekanmiz...

Suv hayoti tanu joninga shunchalik singib ketgan ekanki, Musulga qaytganimizda dengizdan chiqqan baliqday qiynalib qolibman. Fe'llim buzilib, har zamon tipirchilar, payti keldi deguncha ust-boshimni yechib tashlab, ko'chaga qip-yalang'och yugurib chiqib ketar ekanman...

Fotimaning burnidan, betlaridan, qo'llaridan g'urralar arimas edi. Men bu xil g'urralariga shunchalik odatlanib qolgan edimki, g'urrasiz yuzlar menga hamisha xunuk ko'rindi.

Mening uchun eng katta motam Fotimadan ajralishim bo'ldi.

Shaharma-shahar yura-yura axiyri Karbaloga keldik. U vaqt to'rt yoshlarda edim. Bunday yoshda ko'p narsalarni uncha-muncha esda olib qolish mumkin. Fotimaga yaxshigina yerdan kuyov chiqdi. Enamning kelin bo'lgani, go'shangaga kirgani bugungiday ko'z o'ngimda.

Yuzlari Fotimaniki singari g'urra bo'lgani uchun menga nihoyatda go'zal ko'ringan xotinlar bilan to'la uyda meni quchoqdan quchoqqa olishar, keyin Fotimaning yoniga o'tqazishardi.

So'ngra o'rtaga qo'yilgan barkashlardan hovuchlab ovqatlar yeganimizni eslayman. Nihoyat, kun horg'inligidan va hardam xurmacha singari yumalayverishdan charchab enagamning tizzasida yana barvaqt uxbol qolibman.

Fotima onamiz o'g'li Husayn Karbaloda shahid bo'lganda hayotmidi-yo'qmidi — bilmayman. Bechora ayol o'sha qora kungacha yashab, jigargo'shasi dog'ida har qancha faryod ko'targan bo'lmasin, lekin uning faryodi to'y kechasingning ertasiga begona bir xotin quchog'ida yotganimni ko'rib, men ko'targan dodu faryod oldida hech narsa bo'lma-gandir..

Xullas, Karbalo Karbalo bo'lib bunday shovqinli motamni ko'rmagandir, deb o'ylayman. Faryod urib yig'lashdan, ohu vohdan ovozim bo'g'ilgach, katta odamlar singari ochlik e'lon qilib, necha kungacha ovqat yemadim.

Enagamdan ayrilib, hasrat ichida qoldim, lekin bu hasratni bir necha oylardan so'ng Husayn nomli bir suvori askargina unuttira oldi. Husayn ta'lim paytida otdan yiqlilib, mayib bo'lgan askar edi. Otam uni uyga xizmatkor qilib oldi. Husayn devonaroq odam edi. Meni jonidan ortiq yaxshi ko'rardi. Men esam uning sevgisini oyoq osti qilib, tuzatib bo'lmaydigan bir vafosizlik bilan xorlardim. Men Fotima bilan birga yotib o'rganib qolgan bo'lsam ham, bu bilan birga yotmas edim. Lekin saharda xo'rozlar qichqirdi deguncha ko'zlarimni ochib uning xonasiga yugurib kirar, ot minganday ustiga minib olib, barmoqlarim bilan qovoqlarini yirib ochardim.

Ilgari Fotima meni bog'larga, dalalarga o'rgatgan bo'lsa, Husayn kazarmaga, askarlar muhitiga olib kirdi. Bu uzun mo'ylovli yo'g'on odamning har xil o'yinlarga ustaligini hech kimda ko'rgan emasman. O'yinlarining asl go'zalligi xavfli, hayajonli kiliqlarida edi. Massalan, meni rezinka to'pday osmonga irg'itib ushlab olar yoki qalpog'iga o'tqazib oyoqlarimdan ushlardi-da, turgan yerida sakrar, gir aylanar edi. Sochlarmi to'zg'ir, ko'zlarim tinar, maza qilganimdan shunday qiyqirib-qichqirardimki, bunday lazzatni keyin hech qaerda topmadim.

Ba'zan yomon oqibatlar ham bo'lardi. Lekin men, oramizdag'i ahdga binoan, o'yinda jonom achisa yig'lamasligim, undan hech kimga shikoyat qilmasligim kerak. Men katta odamlarday sir saqlashga o'rgandim. Meni bunga insofdan ko'ra ko'proq, u men bilan o'ynamay qo'yadi, deb qo'rqqanligim majbur qilardi.

Kichikligimda meni qilig'i sovuq deyishardi. Balki bu to'g'ridir ham. Nimagaki, kim bilan o'ynasam jonini og'ritar, dodlatar edim. Bu fe'l harholda Husayn bilan bo'lgan o'yinlarimning oqibati bo'lsa kerak.

Jonom har qancha og'riganda ham falokatni oh-voy qilmay, ochiq chehra bilan qarshilashim undan menga bir yodgordir.

Husayn ba'zan kazarmada anatoliyalik askarlarga cholg'u chaldirar, meni yana xurma-chaday boshiga o'tqazib olib, qiziq o'yinlar qilardi.

Bir payt u bilan otda ham sayr qiladigan bo'ldik. Otam uyda yo'qligida Husayn og'ildan otni olib chiqar, meni quchog'iga olib dalalarda soatlarcha o'ynatib yurardi. Biroq bu ermagimiz uzoqqa bormadi. Ishqilib, gunohiga qolmayin-u, oshpaz xotin bo'lsa kerak, u bir kun bizni otamga chaqdi, bechora Husayn otamdan ikki tarsaki yedi-yu, shu-shu otga yaqinlashmay qo'ydi.

Asl muhabbat g'avg'osiz, shovqinsiz bo'lmaydi, deyishadi. Biz ham Husayn bilan kunda eng ozi to'rt-besh marta urishib olardik.

Bir qiziq odatim bor edi. Xonaning bir burchagida cho'kkalab, yuzimni devorga o'girib olardim. Husayn uch-to'rt minutcha meni o'z holimga tashlab qo'yar, keyin rahmi kelib, birdan ko'tarib olardi-da, chinqirtirib yuqoriga irg'itar edi.

Quchog'ida bir oz tixirlik qilib o'tirganimdan so'ng axiyri betidan o'pishga rozi bo'lardim. Shu taxlit yarashib olardik.

Husayn bilan qadrdonligimiz ikki yil davom etdi. Lekin u yillar hozirgiga hech o'xshaydi. Shu qadar uzun, shu qadar uzun ediki ular!..

* * *

Yoshlik xotiralarimni so'zlab turib, nuqlul Fotima bilan Husayndan bahs etishim bir oz ayl bo'lmasmikan?

Mening otam Nizomiddin nomli bir suvori mayori edi. Onamga uylangan yili uni Diyorbakirga jo'natishgan. Shu ketganicha Istambulga boshqa qaytib kelmagan. Diyorbakirdan Musulga, Musuldan Xonikinga, u yerdan Bag'dodga, Karbaloga* o'tgan... Bir yerda aqalli bir yil ham turmagan.

Onamni menga o'xshatishadi. Onam otamga tushgan yili oldirgan bir rasmi bor, xuddi mening o'zginam. Faqat bechora onam sog'liq jihatidan menga hech o'xshamas edi. Juda zaif ekan. Bitmas-tuganmas yo'llarga, tog'larning qattiq havosiga, dalalarning jazira-masiga chidash beradigan sog'lig'i yo'q ekan. Keyin, aftidan, tag'in bir kasali ham bo'lgan. Bechoraning er bilan bo'lgan butun hayoti shu kasallikni yashirish bilan o'tgan... Nima qilsin, otamni juda yaxshi ko'rар ekan. Meni zo'r lab erimdan ajratishadi, deb qo'rqar ekan...

Otam Istambuldan hamon uzoqlashib borar, har bir safari oldidan onamga:

— Seni hech bo'lmasa bir mavsumgina, mayli, ikki oygina onangni yoniga yuborib turay. Onang bechora ham qarib qoldi... Kim bilsin seni ko'rgisi kelib, yuragi ezilib o'tir-gandir, — desa, onam:

— Shu yog'ini ham pisanda qilibmidik? Istambulga birga qaytamiz, demabmidik? — deyarkan.

Gap kasaliga borib taqalsa:

— Mening hech qanaqa dardim yo'q... Picha charchadim, xolos... Tunov kuni havo bir oz o'zgardi-da, shundan bo'ldim, o'tib ketadi... — deyar ekan.

Ammo Istambulni ko'rgisi kelganini otamdan hamisha yashirib kelar ekan. Tavba, yashirib bo'larmidi.

Uyquga ketganidan ikki minut o'tar-o'tmas otamni uyg'otar, Qalandardagi chor-bog'imizni, naryoqdagi chakalakni yoxud Bosfor suvlarini ko'rganligini aytar ekan... Jindakkina uyqu ichida o'tgan bir necha minutga shu qadar uzun tushni sig'dirish — u yer-larni odam juda ham ko'rgisi kelgan bo'lishidan emasmikan?

Buvim harbiy ministrlikka, saroy mulozimlarining oldiga borib, otamni Istambulga qaytarishlarini har qancha iltimos qilsa ham, har qancha yig'lab-siqtasa ham, bu yolvorishlari hech qanday naf bermagan.

Nihoyat, onamning kasali og'irlashgandan so'ng otam hech bo'lmasa uni Istambulga olib borib qo'yish uchun bir oyga ruxsat so'rigan-u, javobni ham kutib o'tirmasdan yo'lga chiqqan.

Tuyalarga ortilgan kajavalarda o'tirib cho'lidan o'tganimiz xuddi bugungiday esimda.

Bayrutga yetib, dengizni ko'rishimiz bilanoq onam bir oz jonlanganday bo'ldi. Qo'ngan uyimizda onam meni ko'rpasiga o'tqazib, sochlarimni taradi, qo'llarimning kirligini, tug-malarimning tushganligini ko'rib xafa bo'ldi, boshini bag'rimga bosib yig'ladi.

Bir-ikki kundan keyin o'rnidan turdi. Sandig'idan yangi kiyimlarini olib yasandi. Kechqurun otamni kutib olgani pastga tushdik. Otam menda qo'rs tabiat askar taassurotini qoldirgan edi. Lekin o'shanda onamning turib yurganini ko'rib, suyunganidan yugurib keldi-da, onamni endigina yura boshlagan go'dak boladay qo'llaridan ushlab yig'ladi — men buni hech esimdan chiqarmayman....

Bu bizning birga kechirgan so'nggi kunimiz bo'ldi. Onamni ertasi kuni ochiq sandiq yonida, boshi kiyimlar bo'xchasi ustiga qo'yilgan, lablarida qon qotib qolgan holda topishdi — onam o'lib qolgan edi.

Olti yashar bolaning ancha-muncha narsaga aqli yetishi kerak. Lekin men hech nimani uqmaganday parvosiz yuraverdim.

Biz tushgan uyda odam ko'p edi. Hali ham esimda, bir necha kungacha kattakon bog'da bolalar bilan bo'g'ishib yurdim, Husayn bilan ko'chalarda, dengiz bo'ylarida aylan-dim, jome hovlisiga kirib qubbalarni tomosha qildim.

Onamni begona yerga qo'yganimizdan so'ng, Istambulga qaytish otamning yuragiga sig'madi.... Innaykeyin, buvim, xolalarim bilan ko'rishishdan qochdi shekilli ham... Shunga qaramay, meni ularning oldiga yuborishni o'z burchi deb bildi. Nazarimda, kun sayin o'sib borayotgan qiz bolani kazarmada, askarlar qo'lida tarbiyalash yaxshi bo'lmaydi, deb o'ylagan bo'lsa ham kerak.

* * *

Meni Istambulga xizmatkor askarimiz Husayn eltib qo'ydi.

Lyuks paroxodni va ust-boshi xarob bir arab askari qo'lidagi jajji chaqaloqni ko'z oлdingizga keltiring... Kim biladi, bu manzara paroxoddagi odamlarga qiziq, balki ayanch ko'ringandir. Lekin yo'lga Husayndan boshqa odam bilan chiqsam bunchalik baxtiyor bo'lomasdim.

Chorbog'imizning orqasidagi butazorda bir tosh hovuz, bu hovuz labida qo'llari yag'ri-nidan sinib tushgan yalang'och bola haykali bor edi.

Dastlabki kelgan kunlarimda bu siniq haykal oftobdan, yog'ingarchilikdan qoraygan rangi bilan menga mayib, sahroyi boladay xarob ko'ringan edi. Hovuzdag'i zilol suvlar us-tiga to'kilgan qizg'ish yaproqlarga qaraganda kech kuz payti edi. Shu barglarni tomosha qilib turib, uning tagida suzishib yurgan bir qancha qizil baliqn'i ko'rdim-u, buvim ne azobda dazmollab kiydirgan uzun shoyi ko'ylagim va yangi botinkalarim bilan to'g'ri hovuzga sakradim.

Atrofdan qiy-chuv ko'tarildi. Nima bo'lganini bilgunimcha bo'lmay, xolalarim meni yuqoriga quchoqlab olib chiqishdi-da, ham o'pib, ham koyib, kiyimlarimni o'zgartirishdi.

Bu oh-vohlar, bu koyishlardan tilim kuygani uchun hovuzga tushishga ortiq yuragim betlamay qoldi. Endi uning chetidagi qumlar ustida cho'zilib, boshimni suvga tiqib yot-digan bo'ldim.

Bir kun hovuz bo'yida baliqlarni tomosha qilib yotgan edim. Bu voqeа xuddi shu bu-gungiday esimda. Buvim bir oz orqada, egnidan hech tushmaydigan qora chorshafiga* o'ralib, bog'chadagi skameykada o'tirgan edi. Husayn esa namoz o'qiyotganday, buvim yonida cho'kkalab olgan edi.

Sekin-sekin gaplashayotganlarini eshitdim. Har holda turkcha so'zlashayotgan bo'lissa kerak, nima deyishayotganlarini tushunmadim. Faqat ovozlardan, dam-badam men-ga qarab-qarab qo'yishlaridan shubhalandim. Quloqlarimni quyonday ding qilib oldim. Men chaynab hovuzga tashlayotgan teshikkulchalarga to'planayotgan qizil baliqlar g'oyib bo'lib, buvim bilan Husaynning suvdagi akslari ko'zimga ko'rina boshladi. Husayn menga qarab-qarab, kattakon dastro'molchasi bilan ko'zlarini artardi. Bolalarning ba'zan yosha-riга mos kelmagan g'alati sezgilarini bo'ladi.

Bu gaplardan bir suiqasd hidini sezdim: Husaynni mendan ayirishmoqchi!

Nega endi? Lekin mayda sabablarga aqlim yetadigan yoshda emas edim... Faqat bu ayriliq vaqt-soati kelganda, kunning botishini... yomg'irning yog'ishini to'sib bo'limgani kabi, bu ham hech bir yo'sin bilan oldini olib bo'lmaydigan bir falokat ekanini juda yaxshi tushunardim.

O'sha kechasi buvimming yotog'iga juftlashtirib qo'yilgan kichkina karavotchamda bir-dan ko'zlarim ochilib ketdi. Boshimizdag'i qizil qalpoqli chiroq o'chiq bo'lsa ham, derazalardan tushib turgan oy nurida xona yop-yorug' edi. Uyqum qochdi. Yuragimda chidab bo'lmaydigan bir alam paydo bo'ldi. Bilaklarimga tiranib, sekin buvimga qaradim, uning uxlayotganiga ishonganimdan keyin karavotimdan asta tushdim, oyoq uchida yurib xo-nadan chiqdim. Boshqa bolalar singari qorong'ilikdan, yolg'izlikdan qo'rmas edim. Zina

pog'onalari g'ijirladi deguncha, katta odam ehtiyotkorligi bilan turgan yerimda to'xtab, sekin-asta dahlizga tushdim.

Eshiklarni qulflab qo'yishibdi. Lekin bog'cha eshigi yonidagi deraza ochiq ekan, joni-maga shu ora kirdi. Derazadan bir sakrab tashqariga tushdim. Husayn bog'chaning narigi chetidagi bog'bon hujrasida yotardi. Kechasi kiyadigan oq ko'ylagimning uzun etaklarini oyoqlarimga o'ralashtira-o'ralashtira o'sha yoqqa chopib ketdim. Hujraga kira solib, Husaynning karavotiga chiqib oldim.

U juda qattiq uxlardi. Arabistonda ekanimizda ham ertalab uni uyg'otish uchun oz-muncha mehnat sarf qilmasdim. Ko'zlarini ochishga unamagandan keyin, otga minayotganday qorniga minib olib qistash, uzun mo'ylovlarini tizgin qilib tortish, "chux"lash kerak bo'lardi. Lekin bu kecha uni uyg'otishdan qo'rqedim. Uyg'onsa, meni ilgarigiday yoniga o'tkazishga ko'nmaydi, yalinib yolvorishimga qaramay, buvimga eltib beradi, deb o'yladim.

Asli birdan-bir tilagim oxirgi kechani uning yonida o'tkazish edi.

O'sha kechasi qilgan nojo'ya harakatim yaqin vaqtlargacha oilamiz og'zidan tushmay keldi.

Buvim saharga yaqin uyg'onganda yonida yo'qligimni ko'rib, shaytonlab qolayozibdi... Bir necha minut ichida butun chorborg' oyoqqa turibdi... Chiroq, shamlar ko'tarishib bog'chani, dengiz bo'ylarini axtarishibdi. Bo'g'ot orasidan ko'chagacha, qayiqxonadan hovuzning ikki qarich suvigacha hammayoqni ostin-ustin qilishibdi. Qo'shni poliz qudug'iga chiroq tushirib qarashibdi...

Bir mahal buvimming esiga Husayn tushibdi-yu, u yotgan hujraga qarab chopibdi. Ke-lib qarasa, men askarning bo'yndidan mahkam quchoqlab uxbab yotgan emishman.

Ayriliq kunining fojiasini hali-hali eslab kulaman. Men umrimda o'sha kungiday xokisorlik qilganimni bilmayman. Husayn eshik yonida tiz cho'kib olib, shopday mo'ylovleri borligidan ham uyalmay yig'ladi, men esa Bag'dodda, Suriyada arab tilanchilaridan o'rganib olgan duolarim bilan buvimming, xolalarimning etaklarini o'pib, undan ajratmasliklarini so'rab yalindim.

* * *

Romanlarda qayg'uga uchragan odamlar yelkasi cho'kkani, ko'zlari so'ngan, harakatsiz, unsiz, yana ham ochiqrog'i, g'arib qilib tasvirlanadi.

Menda doimo buning aksi bo'ladi. Qachon og'ir qayg'uga cho'ksam, ko'zlarim porlaydi, chehram ochiladi, terimga sig'may ketaman. Dunyoni pisand qilmaganday, qahqaha urib kulaman, turli sho'xliklar, telbaliklar qilaman. Shu bilan birga ohu zorini yaqin odamiga, boshqalarga aytolmaydigan kishilar uchun buni juda yaxshi odat deb hisoblayman.

Husayndan ayrliganimdan keyin ham shunday qilganim esimda. Yaramasliklardan quturar, meni yupansin deb olib kelishgan qarindosh bolalarni urib-surib jonlarini olardim.

Yotu begonalar ko'zida ayb bo'ladiqan bir vafosizlik bilan Husaynni ko'nglimdan chiqarib tashladim. Ammo yaxshi bilmayman, balki undan chinakam xafa bo'lqanim uchun shunday qilgandirman. Oldimda nomi tilga olingan hamono yuzimni teskari o'girib olar, men endi-endi o'rgana boshlagan turkcha so'zlar bilan: "Husayn pis, Husayn chirkin, edepsiz... oo" *, — deb yerga tupurardim.

Shunday bo'lsa ham, bechora "yomon, yaramas" Husaynning Bayrutga yetar-etmas menga yuborgan bir quti xurmosi jahlimni pasaytirganday bo'ldi. Xurmolarning tugashidan falokatdan qo'rqqanday qo'rqqanim holda bir o'tirishda hammasini pok-pokiza tushirdim. Xayriyat, danaklari qoldi. Ular menga bir necha haftalik ermak bo'ldi. Bir qismini xachirlarga taqiladigan munchoqlar bilan aralashtirib ipga tizdim, yovvoyi odamlarniki-

ga o'xshagan shoda munchoq yasab, bo'ynimga ilib oldim. Qolganlarini bog'chaning har yer-har yeriga ekdim. Necha oygacha har kuni ertalab kichkina idishda ularga suv quyar, bog'chada xurmozor bo'lishini kutar edim.

Bechora buvim esini yo'qotib qo'ydi. Meni yo'lga solish chindan ham imkonsiz edi. Sahar g'ira-shirasida uyg'onar, kechqurun charchab, horib-tolgunimga qadar beboshliklar qilar edim. Ovozim o'chguday bo'lsa, chorbog'da xavotirga tushishardi. Chunki bu mening biror yerimni kesib olib, ovozimni chiqarmay qonimni tindirish, yo bir yerga yiqilib ketib, og'riqdan to'lg'anish, yoxud stul oyoqlarini arralash, to'shak jildlarini bo'yash kabi zararli ishlar bilan mashg'ul ekanligimni bildirar edi.

Bir kuni qushlarga latta, payrahalardan uya yasash uchun daraxtlarning qir uchiga chiqar, boshqa bir kun o'choq mo'risidan tosh otib, oshpaz xotinni qo'rqtish uchun toonga tirmashar edim.

Chorboqqa ora-sira bir doktor kelib turardi. Bir kun shu doktorni eshik oldida kutib turgan bo'sh izvoshga chiqdim-u, jonivorlarni qamchiladim. Boshqa bir kun esa kattakon kir tog'orani sudrab borib dengizga tushirdim-da, unga o'tirib olib o'zimni oqinga topshirdim. Bilmayman, boshqalarda ham shundaymi, lekin bizning oilamizda yetim bolani urish gunoh hisoblanardi. Juda haddimdan oshib ketgan kezlarimda qo'lidan yetaklab borib biror uyga qamab qo'yishardi. Beradigan jazolari shu edi, xolos.

Hamma bolalar "soqolli amaki" deb chaqiradigan g'alati tabiatli bir qarindoshimiz bor edi. Ana shu soqolli amaki mening qo'llarimni "Avliyo panja" derdi. Chunki barmoqlarim biror kun ham yara-chaqadan xoli bo'lmas, xina qo'ygan xotinlarnikiga o'xshab, undan latta, bintlar arimas edi.

Tengqurlarim bilan bir xil muomalada bo'lmas edim. Yoshi ancha katta bo'lgan qarindosh bolalar ham mendan bezillardi. Menda, qalbimda sevgi olovi uchqunlaguday bo'lsa, bu ham bir falokat bo'lardi. Odamlarga o'xshab sevishni, sevganimni mehru shafqat bilan e'zozlashni o'rganmagan edim. Yaxshi ko'rgan odamim ustiga hayvon bolasiday otilar, quloqlarini cho'zar, yuzini tirnar, itarib-turtib jonidan bezor qilardim.

Qarindosh bolalar orasida faqat bittasidan tortinar, o'shandangina hayiqar edim.

U Basima xolamning o'g'li Komron edi. Ammo uni bola deyish uncha to'g'ri kelmaydi. Avvalo yoshi mendan ancha ortiq, qolaversa, juda odobli, vazmin. Bolalarga qo'shilishni yoqtirmaydi. Qo'llarini cho'ntaklariga suqib olib, yo dengiz bo'yida o'zi yolg'iz aylanib yuradi, yo bo'lmasa daraxtlar soyasida kitob o'qib o'tiradi.

Komronning sochlari jingalak, sarg'ish yuzi esa nozik, oppoq, yarqiroq. Shunchalar yarqiroqliki, yuragim chopsa-yu quloqlariga yopishib olib, yaqindan betlariga qarasam xuddi oynadagi kabi o'zimni ko'rishimga ishonaman.

Undan tortinsam ham, baribir janjallahdim. Dengiz bo'yidan savatda xarsangtosh tashiyotgan edim, shulardan bittasini oyog'iga tashlab yubordim. Bilmayman, tosh og'irmidi yo u anchagina nozikmidi, birdaniga chinqirib voy-voylab yubordi. Esim chiqib ketdi. Bog'chadagi kattakon chinorga maymundek chaqqon tirmashib chiqib ketdim. Meni u yerdan na ozor, na do'q va na yolvorishlar tushira oldi. Oxiri bog'bonni orqamdan chiqardilar. U ko'tarilgan sari men ham daraxt uchiga chiqib ketaverdim. Ammo u, og'irimni ko'tara olmaydigan ingichka shoxlarga chiqishdan toymaydigan bir alfozda ekanligimni, agar orqamdan chiqaversa falokat ro'y berishi mumkinligini ko'rib, pastga tushib ketdi.

* * *

Xullas, o'sha kecha qorong'i tushguncha daraxt shoxida qushday o'tirdim.

Mening dastimdan bechora buvimming uyqusida halovat qolmadi. Boyoqish xotin mening telbaligimga kun sayin ko'proq ishona bordi. Goho saharda, kechagi sho'ru

g'avg'omdan boshi tinchishga ulgurmay, buvim mening shovqin-suronim bilan uyg'onar, ko'rpasida to'lg'anar, mening qo'llarimdan ushlab olib: "O'zi o'lib, qarigan chog'imda bu maxluqni boshimga balo qilib tashlab ketdi-ya?" deydigan bo'lqa, buvim albatta meni degan, uni kelgan yeriga qaytarib yuborgan bo'lardi.

Albatta, kasalmand bir kampirning kechasi horg'inligi bosilmasdan uyg'onishi jabr. Lekin shunisi ham borki, kechasi bilan tinib-tinchigan taqdirda ham yolg'izlik ruhi bilan uyg'onish, judoliklar alamida azob chekish yanada og'irroq bo'ladi.

Xullas, shuncha zahmat yetkazganimga qaramay, buvimning men bilan ovunganiga, men bilan baxtiyor bo'lqaniga ishonaman.

* * *

Buvimdan judo bo'lqanimizda to'qqiz yoshlarda edim. Otam ham ittifoqo Istambulda edi.

Otam bechorani bu safar Tripolidan Albaniyaga ishga o'tkazishibdi. Shuning uchun Istambulda atigi bir hafta qolishi mumkin edi.

Buvimning o'limi uni mushkul ahvolga solib qo'ydi. Beva ofitser to'qqiz yashar qizini yetaklab tog'u toshlar orasida sargardon bo'lib yurolmas edi. Meni siqilib qoldi deb qo'rqbmi, xolalarimga tashlab ketishga negadir ko'ngli chopmadi. Nimani o'ylagan bo'lqa o'ylagandir, har holda bir kun meni yetaklab borib kemaga o'tqazdi. Istambulga o'tdik. Ko'priksida yana aravaga tushib, uchi-keti ko'rinnagan o'rlardan oshdik, bozorlardan o'tdik, ke-yin bitta kattakon g'ishtin bino oldiga kelib to'xtadik.

Bu yer umrimning o'n yilini qamoqda o'tkazishim kerak bo'lqa so'rlar (soeur) maktabi edi. Bizni eshik yonidagi pardalari, derazalari yopiq, olaqorong'i bir xonaga olib kirishdi.

Hamma narsa avvaldan gaplashib qo'yilgan bo'lqa kerak, bir ozdan keyin qora kiyimli bir xotin kirdi-yu, to'g'ri mening ustimga kelib engashdi. Boshidagi oq ro'molining uchlari g'alati bir qushning qanotlari singari sochlarimga tegizib turib, yaqindan yuzimga ti-kildi, betlarimni siladi.

Maktabga qo'ygan birinchi qadamim yangi bir bema'nilik, yana bir yaramaslik bilan boshlanganini eslayman.

Otam mudira opa bilan gaplashib turganida, men xonani aylanib uni-buni kovlashtira boshladim. Bir vazanining rangli rasmlariga barmog'imni tegizib ko'rmoqchi bo'luvdim, u tushib chil-chil bo'ldi.

Otam qilichini sharaqlatib o'rnidan sapchib turdi, jahl bilan qo'limdan tortdi.

Singan vazanining egasi mudira opa esa, aksincha, kulardi. Qo'llarini silkitib, otamni tinchlantirishga harakat qildi.

* * *

Maktabda bu vazaga o'xhash yana qancha narsalarni sindirishim turgan gap. Uydag'i beboshligim u yerda ham davom etdi. Murabiyalarni chindan ham malak kabi sabrli xotinlar edi yoki mening yaxshi tomonlarim bor edi. Yo'qsa, mening dastimdan bu qadar ozor chekishlari mumkinmi, qalay?

Sinfda sira timmay to'polon qilar, u yoqdan-bu yoqqa o'tib yurardim.

Hamma singari zinadan tushish mening odamat emas edi. Albatta biror burchakka biqinib olib, sinfdoshlarimning tushishlarini poylar, keyin panjara yog'ochiga otga minganday sakrab chiqib olib, o'zimni pastga qo'yib yuborardim. Yoki oyoqlarimni juftlashtirib zinalardan sakrardim.

Bog'da qurigan daraxt bo'lardi. Payti keldi deguncha o'shangan tirmashib chiqib olganimni, po'pisalarga quloq solmay tanaffus oxirigacha shoxdan-shoxga irg'iganini ko'rgan muallimam: "Bu odam bolasi emas, choliqushi"*, — deb koyigan edi.

Ana shunday qilib, o'sha kundan boshlab asl nomim unutildi-yu, hamma meni "Choliqushi" deb ataydigan bo'ldi.

Bilayman, bu ism keyinchalik qanday qilib oilamizga ham o'tdi-yu, Farida otim bayram kiyimi singari juda kam qo'llanadigan rasmiy ot bo'lib qoldi.

"Choliqushi" mening o'zimga ham yoqardi, nimagaki bu nom ko'p mahal joninga ora kirardi. Biron nojo'ya harakatimdan shikoyat qilishsa, bahuzur yelkalarimni uchirib: "Na chora... Choliqushining qo'lidan boshqa nima kelardi", — deyardim.

Ba'zan mакtabimizga echkinikiga o'xshagan kichkina soqol qo'yib olgan ko'zoynakli pop kelib-ketib yurardi. Bir kun sochimning uchidan qaychi bilan jindak kesib, yelim bilan iyagimga yopishtirib oldim. O'qituvchimiz men tomonga qaraganda jag'imni hovuchimning ichiga yashirar, nari yoqqa qarashi bilan qo'llarimni olardim-u, soqolimni selkilatib, popga taqlid qilar, bolalarni kuldirar edim. O'qituvchimiz bu qahqahalarning sabbini bilolmay, tomog'i yorilguday bo'lib baqirar edi.

Nimayam bo'ladi-yu, bir mahal yuzimni sinfimizning yo'lakka ochiladigan derazasi tomonga o'girib qolmaymanmi? Qarasam, oyna orqasidan mudira opa menga qarab turidi-da!

Shoshib qolganimdan nima qilsam bo'ladi? Bo'ynimni egdim, barmog'imni labimga keltirib "jim!" ishorasini qildim, keyin esa barmoqlarim bilan unga bir bo'sa yubordim.

Maktabning kattasi ana shu mudira opa edi. Eng keksa muallimlargacha hamma uni xudoday hurmat qilardi. Shunday bo'lgani holda, undan muallimnga nisbatan sir saqlashni so'rashim xotin boyoqishga nasha qildi. Sinfga kirsa salobatini saqlab qololmasligidan qo'rpayotganday kuldi, keyin qo'li bilan menga po'pisa qilib, yo'lak qorong'iligida ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Mudira opa bir kuni meni ovqatxonada qo'lga tushirdi. Sinfdan o'g'irlab chiqqan qog'oz savatimga ovqat sarqitlarini solib turgan edim. Mudira dag'al tovush bilan:

— Bu yoqqa kel, Farida, nima qilyapsan? — dedi.

Qilayotgan narsamning yomonligini bilmas edim. Yuziga tik qarab:

— Itlarga ovqat berish ham yomon narsami, maso'r? — dedim.

— Qanaqa itlarga? Qanaqa ovqat?

— Vayronadagi itlarga... Oh, ma soeur*, men borganimda qanchalik suyunishganini bir ko'rsangiz edi... Kecha kechqurun bo'lsa, burchakda kutib olishdi, oyoqlarimga yopishishdi... "Sabr qilinglar... vayronaga eltib beraman... ungacha o'lib qolmassizlar...", desam ham zolimlar qulq solishmadı. Osilishib meni yerga yiqitishyapti... Mening ham o'jarligim tutib ketdi. Savatga etagimni mahkam yopib oldim... Sal bo'lmasa meni tilkapora qilib tashlashardi... Xayriyatki, bir teshikkulchachi o'tib ketayotgan ekan, qutqazib oldi.

Mudira ko'zlarimga tikilib turib eshitdi.

— Juda soz, xo'sh, maktabdan qanday qilib chiqding? — deb so'radi u.

Men hech tap tortmay:

— Kirxonaning orqasidagi devordan oshib tushdim,— dedim.

Mudira katta bir falokat xabarini eshitganday boshini qichib:

— Qanday botingding? — dedi.

Men yana to'g'risini aytdim:

— Ajablangmang, ma soeur... Devor juda past... Innaykeyin, qanday qilib eshikdan chiqishim mumkin?.. Qorovul meni chiqarib qo'yarmidi? Birinchi chiqqanimda: "Seni ma soeur Terez chaqiryapti", — deb aldab qochgan edim... Iltimos qilaman, siz ham menga xalaqit bermang... Chunki itlarning och qolish xavfi bor...

Murabbiyalarmiz xo'p g'alati xotinlar edi-da. Boshqa biron maktabda shu narsalarni qilsam yo meni qamab qo'yishar, yo bo'lmasa birorta jazo berishar edi, deb o'ylayman.

U men bilan pachakilashib o'tirmaslik uchun o'zini bosdi.

— Itlarni, hayvonlarni parvarish qilish yaxshi narsa, lekin itoatsizlik qilish yaramaydi... Savatni menga tashlab ket... Sarqitlarni itlarga qorovul eltid beradi, aytaman, — dedi.

Umrimda hech kim meni shu xotinchalik yaxshi ko'rmagan bo'lsa kerak.

Murabbiyalimizning shunga o'xhash harakatlari u vaqt yelning toqqa ta'siriga o'xhash bir narsa bo'lib, mening sho'xligimni, intizomsizligimni daf etishdan ojiz ko'rnardi. Faqat bular asta-sekin tanamga singib, o'chmas izlar, shifosiz zaifliklar, nazokat zamzamasi qoldirmaganmikan, deb qo'rqaman...

* * *

Shunday, men haqiqatdan ham tushunib bo'lmaydigan g'alati qiz edim. O'qituvchilarimning zalf tomonlarini bilib olardim. Har bir o'qituvchining jig'iga nima ko'proq tegishi ni osongina topib olar, shunga qarab mujda tayyorlardim.

Masalan, Matild opa nomli qari, nihoyatda mutaassib bir musiqa o'qituvchimiz bor edi. U devordagi Bibi Maryam surati olidida ko'zlaridan yosh to'kib ibodat qilib turganda, men surat tevaragida uchib yurgan pashshalarni ko'rsatardim-da, "ma soeur, maloyikalar aziz onamizni ziyorat qilgani kelishibdi", degan so'zlar bilan jon tomirini uzib olardim.

Boshqa bir o'qituvchimizning haddan tashqari toza, pokizaligiga e'tibor qildim. U yonimdan o'tib ketayotganda ruchkamning yomon yozishidan shikoyat qilmoqchi bo'lar, bechoraning oppoq yoqasiga siyoh sachratib yuborar edim.

Yana bir o'qituvchimiz bor edi, bunisi gazandalardan juda qo'rqardi. Kitoblarning birlida rangli chayon rasmini topdim-u, avaylab atrofini kesdim, keyin ovqatxonadan bitta kattakon so'na tutib kelib, haligi qog'oz parchasini yelim bilan so'na ustiga yopishtirdim-da, kechqurun dars tayyorlayotgan paytimizda bir bahona bilan o'qituvchimizning yoniga borib so'nani stol ustiga qo'yib yubordim.

Men uni savolga tutib turgan edim. So'na birdan o'rmalay boshladi. Bechora xotin kerrosin lampaning yorug'ida qo'rqinchli bir chayon bo'g'inlarini, nishlarini titratib stolda o'rmalab kelayotganini ko'rdi-yu, birdan dodlab yubordi. Darhol yonida turgan lineykani olib, bir urishda so'nani stolga qapishtirdi. Keyin orqasini devorga suyab, qo'llari bilan yuzini to'sib, anchagacha hushiga kelolmay turdi.

O'sha kecha o'zim yotoqda bir soatcha u yoqdan-bu yoqqa ag'anab, yuragim ezildi.

Men u vaqtida o'n ikki yoshga chiqqan, ko'nglimda or, hayo tuyg'ulari anchagina uyg'onib qolgan edi. O'qituvchimga qilgan muomalamdan uyaldim. Bu aybim osongina kechirib yuboriladigan ayb emasligini anglar, ertaga, albatta qiyonoq-qistovga olinishimga aqlim yetar edi. Kim biladi, oqibati nima bo'ladi?

Mudira opani tushimda bir necha bor ko'rdim, yonimga g'azablanib kelar, ko'zlarini olaytirib baqirardi.

Ertasi kun birinchi dars voqeasiz o'tdi. Lekin ikkinchi darsning oxirrog'ida sinf eshigi ochilib, murabbiyalardan biri kirdi-yu, o'qituvchimga bir nimalar degandan so'ng meni tashqariga imo qildi. Naqadar qo'rqinchli!

Men yelkalarimni qisib, tilimni cho'chchaytirib sekin tashqariga chiqib borayotganimda bolalar kulishar, o'qituvchim esa lineyka bilan stolni sekin-sekin taqillatib ularni jim bo'lishga, shovqin solmaslikka chaqirar edi.

Bir nafasda mudira kabinetiga yetib keldim, keldimu, taajjubda qoldim. Mudiraning chehrasi tushimda ko'rgan chehraga sira o'xshamas edi. Shundayki, chayon surati yopishtirilgan so'na o'yinini o'ylab chiqargan, o'qituvchini hushidan ketkazgan yaramas qiz men emas-u, u ekaniga ishonar darajada hayratda qoldim.

Chehrasida g'am, lablarida titroq bor edi. Meni qo'limdan ushlab bag'riga bosmoqchi bo'lganday bir harakat qildi, lekin qo'yib yubordi.

— Farida bolam... Senga bir xabar aytmoqchiman... Og'ir xabar... Otang picha betob

emish... Picha deyapman, lekin anchagina bo'lsa ham ehtimol....

Mudira opa qo'lidagi bir parcha qog'ozni buklar, so'zini ulashtirishga qiyalar edi.

Meni sinfdan chaqirib kelgan murabbiyaning birdan yuziga ro'molcha to'sib tashqariga chiqib ketganini ko'rdim.

Tushundim. Bir nima demoqchi bo'ldim, lekin mudira opa singari mening ham tilim tutilib qoldi. Boshimni o'girib, ochiq derazadan daraxtlarga qaradim. Ularning oftob nuri tushgan tepalarida qaldirg'ochlar uchishib yurardi.

Birdan men ham o'shalar singari jonlanib ketdim.

— Tushundim, ma soeur, kuyunmang... Nachora? Hammamiz ham o'lamiz... — dedim.

Bu safar mudira opa boshimni ko'ksiga bosdi, ancha vaqtgacha qo'yib yubormadi.

Maktabimizda begonalar kiritilmaydigan kun bo'lishiga qaramay, bir ozdan so'ng xolalarim meni ko'rgani kelishdi. Ruxsat so'rab uyga olib ketmoqchi bo'lishgan edi, men ko'nmadim. Imtihonlar juda ham yaqinlashib qolgani o'sha kuni har mahaldagidan ham ziyodroq sho'xlik qilishimga xalaqit bermadi. Shu darajada sho'xlik qildimki, kechki dars tayyorlash paytida badanim o't bo'lib yondi, tanballarga o'xshab qo'llarimni partaga qo'yib uxladim va o'sha kecha ovqat ham yemadim.

* * *

Yozgi ta'tilimni Basima xolaning Qo'zyotog'idagi chor bog'ida o'tkazdim.

Bu yerdagi bolalar bilan ko'nglim ovunmas edi. Basima xolamning qizi Najmiya onasining etagidan ajralmaydigan kamgap, xastahol qizaloq edi. Komron akasining xuddi o'ziginasi desa bo'ladi.

Xayriyatki, atrofda Bolqondan ko'chirma qilinganlarning bolalari bor ekan. Ularni bog'chaga to'plab olib, qiy-chuv solar, kechga qadar to'polon qillardim.

Bir oz vaqtidan keyin bechora o'rtoqlarim quvg'inga uchrashdi, chor bog' bog'boni ularni ko'chaga quvdi.

O'rtoqlarim ko'ngilchan bolalar edi; ko'rgan haqoratlarini pisand qilmay, meni chor bog'dan olib qochgani kelishardi. Necha soatlab dalalarda beboshlik qilar, polizlarning chetanlaridan oshib o'tib yegulik o'g'irlardik.

Kechqurun yuzim oftobda po'rsillab, etaklarimning yirtiqlarini tilingan qo'llarim bilan yashirishga tirishib uyga kirib kelanimda, xolam sochlarni yular, bir tutam yaltiroq tuk ostidagi pushti og'zini ochib ora-sira esnab o'tirgan, shu holida esi past yalqov mushukka o'xshagan Najmiyani menga ibrat qilib ko'rsatardi. Suluvgi, bilimdonligi, nozikligi, tarbiyasi, bilmayman yana nima balosi bilan nuql boshimga taqillab uriladiganlardan yana biri Komron edi.

Najmiya bo'lsa... Gapning qisqasi, onasining etaklari ostida o'sgan, yumshoq, mo'min uy mushugi edi. Lekin qizlarning shunaqa bo'lishi kerakligini ichimda ma'qullar ham edim.

Lekin yigirmaga yaqinlashib qolgan, tarovatl yupqa lablari ustida mayin miyiqlar sabza ura boshlagan kap-katta Komronga nima bo'ldi? Qizlarnikiga o'xshagan zaifona oyoqlarida oppoq charm tuflisi, ipak paypoqlari, yurganda yosh novdaday tebranuvchi sarv qomati, shohi ko'ylaginiq ochiq yoqasidan chiqib turgan uzun, oq bo'yni bilan erkakdan ko'ra ko'proq qizga o'xshagan bu yigitga juda yomon jahlim chiqardi.

Erkak qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar uni yaxshi yigit deb maqtashguday bo'lishsa, qonim qaynab ketardi.

Necha bor yugurib kelib, oyog'im lat yeganday o'zimni ustiga tashlaganimni, kitoblarni yirtganimni, bekorchi bahonalar bilan janjal chiqarmoqchi bo'lganimni eslayman. "Hoy, ollohning quli, qiz bolaga o'xshab o'tirmay bir oz jonlansang-chi, biron narsa de-

sang-chi, ana shunda misoli mushukday bo'yningga osilib, seni tuproqqa bulab tashlay, sochlaringni yulay, ilon ko'zlariga o'xshagan yashil ko'zlariningga chang solay!" deb o'ylayman.

Oyoqlariga tosh yumalatib yuborib, g'ujanak qilgan klinikni ich-ichimdan zavq bilan titrab turib eslayman. Lekin u o'zini yetilgan erkak kishiday hisoblab, menga yuqorida qaraydi, ko'zlarini jilmaytirib: "Bolaliging qachon qoladi, a, Farida?" — deydi.

"Juda soz, lekin senda ham qachongacha davom etadi bu pismiqlik, busovchi oldiga chiqqan qari qizning nozu karashmasi?..."

Bu so'zlarni har nima bo'lganda ham aytolmayman, albatta. Xudoga shukur, yoshim o'n uch-o'n to'rtlarda... Shu yoshdagi bir qizning qo'rsligini shu qadar bir nazokat bilan qarshilagan xushmuomala kishidan ortiqcha xafa bo'lish yarashmaydi. Beixtiyor nojo'ya so'z chiqib ketishidan qo'rpayotgandek, og'zimni qo'lim bilan yopib olaman, uni bemalol so'kib olish uchun bog'chaning xilvat burchaklariga qochib ketaman.

Yomg'ir quyib turgan kunlarning birida qarindosh xotinlar kiyim-kechak haqida gaplashib o'tirishgan edi. Xotinlar tiktirmoqchi bo'lishgan qishki kiyimlarining rangi to'g'risida Komronning fikrini so'rab qolishdi.

Men bir burchakda tilimni chiqarib, ko'zlarimni olaytirib, ko'ylagimning yengini yamash bilan mashg'uł edim. O'zimni tutolmadim, qahqaha urib kulib yubordim.

Xolavachcham:

— Nimaga kulyapsan? — deb so'radi.

— O'zim... — dedim. — Esimga bir narsa tushib ketdi...

— Nima tushdi?

— Aytmayman...

— Ko'p noz qilaverma. Darvoqe, sening ichingda gap turarmidi... baribir aytasan bir kun....

— Unday bo'lsa xafa bo'lma... Sen xonimlar bilan kiyim to'g'risida gaplashib turganingda, men seni xudo yanglish yaratgan deb o'yladim... Qiz bo'lganiningdam... lekin hozirgi yoshingda emas... Masalan, o'n uch-o'n to'rt yoshlaringda....

— Juda soz, keyin....

— Boyatdan beri atigi bir qarich yirtiqni yamaguncha barmoqlarimni ilma-teshik qilib olganim uchun ham men yigirma-yigirma ikki yoshlardagi bir erkak....

— E, keyin....

— Keyin nima bo'lardi, ollohnning amri, payg'ambarning qavli bilan seni o'zimga olardim, vassalom.

Uydgilarning hammasi sharaqlab kulib yubordi. Boshimni ko'tardim-u, hammaning ko'zi menga tikilib turganini ko'rdim.

Mehmonlardan biri beadabgarchilik qildi:

— Juda soz, buni hozir ham qilish mumkin, Farida, — dedi.

Esim og'di. Ko'zlarimni olaytirib:

— Qanday qilib? — deb so'radim.

— Qanday qilib? Komronga tegasan qo'yasan-da... U sening bezaklaring g'amin yeydi, yirtiqlaringni tikadi. Sen ham ko'cha ishlariga qaraysan.

Achchig'im chiqib turib ketdim. Lekin bu gal ko'proq o'zimdan achchig'langan edim. Nima qilay, gap-so'zni o'zim boshlab bergen edim. Men bema'ni gaplar aytishda bu qadar haddimdan oshib ketgan emasdim, chamamda shu xoin yirtiq ko'ylak es-hushimni olib qo'ygan bo'lsa kerak.

Shunday bo'lsa ham, qo'rqqoq oldin musht ko'taradi, degandek yana hujumga o'tdim.

— Bo'ladi, lekin Komronbey uchun zararli bo'lar deb o'ylayman, — dedim, — chunki xudo ko'rsatmasin, uyda janjal chiqquday bo'lsa xolavachchamning holi nima bo'lar

ekan. Bir mahallar nozik oyoqlariga tushgan toshni eslaridan chiqarmagan bo'lsalar kerak, deb o'ylayman... — Kulgilar orasida g'alati bir jiddiyat bilan xonamga chiqib ketayotgan edim, ammo eshikka yetganimda yana qayrildim. — Beadablik qildim, — dedim, — o'n to'rtga kirib qolgan bir qiz uchun juda uyat ish bo'ldi, aybga buyurmanglar.

Tovonlarimni zina taxtalariga urib, eshiklarni lang ochib xonamga kirib ketdim. O'zmini karavotga to'pday tashladim. Pastda qahqahalar davom etardi. Qaydam, balki meni ermak qilishayotgandir. Baraka topishsin.

Komronga tegsam haqiqatan ham yaxshi bo'lsa kerak. Chunki yoshlarimiz kun sayin ortib, u bilan janjallahish bahonalari kamayib borar edi. Bir marta bo'lsa ham soch yulishib, bosh urishib alamimni chiqarib olish uchun unga tegishdan boshqa chora yo'qday ko'rindirdi.

* * *

Yozgi ta'til oxirida maktabimiz birmuncha vaqt qaynab toshar, bu toshqinlik faqat birinchi chorak imtihonlarigacha davom etardi.

Sababi shuki, o'n uch-o'n to'rt yoshga kirgan katolik dugonalarim bahorgi Paxsa bayramida dastlabki marosimlarni qilishar, etaklari yerga tegadigan oq shohi ko'yylaklar kiyishib, kelinchak yuz pardasiga o'xshagan ro'mollar o'rabb olib, Iso payg'ambarni eslashardi.

Cherkovda mum shamlar yoqiladi, organ chalinib, duolar o'qiladi; hammayoqni to'ldirgan bahor gullarining muattar bo'ylari bilan aralashib ketgan isiriq, aloy tutunlari ichida qilinadigan bu marosim juda chiroyli bo'ladi. Shunisi yomonki, kanikul kunlarida qilinadigan bu marosimda xoin dugonalarim unashib qo'yilgan yigitlariga vafosizlik qiladilar, asal mumi rangli, moviy ko'zli Isoni ro'para kelgan bir, hatto bir necha erkak bilan bo'lib aldaydilar.

Maktab ochilganda dugonalarim chamadonlarining bir burchagiga yashirib maktublar, rasmlar, esdalik qilib berilgan gullar, nevlay, yana qanday narsalar keltiradilar.

Bog'chada ikkitadan yo uchtadan bo'lib qo'l ushlashib yurganlarida gaplashgan gaplarini bילדارىم. Qizlarning eng ma'sumasiga, eng dindorlariga hadya qilingan rangli, zarli payg'ambar yo malak suratlarining tagida saqlanadigan rasmlar yigitlarniki ekanini osongina bilib olardim. Bog'chaning bir burchagida biror qizning tevaragida uchgan chivinlar ham uqolmaydigan bir shipshish bilan dugonasi qulog'iga aytgan gapidan ham bexabar qolmasdim.

Bu mavsumda qizlar ikkitadan-uchtadan bo'lib olishib, bir-birlariga yelimday yopishib ketishardi.

Men bechora esa bog'chada ham, sinfda ham yakkalanib qolardim. Dugonalarim mendan sir saqlashardi. Ular murabbiyalardan ham ko'proq mendan qo'rqlihardi. Nega deysizmi? Chunki sergap edim, soqolli amaki aytganday, ichimda gap turmas edi. Mabodo qizlardan bironiasi qo'shni yigit bilan bog'cha panjarasi orqali gul olib-berishganini ko'rdimmi — bo'ldi, bog'chada darrov ayyuhannos ko'taraman. Nachora, bunday narsalarga juda ham o'ch edim.

Hech esimdan chiqmaydi: qish kunlarining birida kechqurun dars tayyorlash bilan mashg'ul edik. Mishel ismli tirishqoq bir qiz no'noq dugonasiga Rim tarixini o'rgatish uchun murabbiyadan ijozat so'rabb, eng orqadagi qatorga o'tib o'tirgan ekan. Darsxona jim-jit edi, shu jimjitlik ichida birdan piqillagan ovoz eshitildi. Murabbiya boshini ko'tarib:

— Nima bo'ldi, Mishel, yig'layapsanmi? Nimaga? — deb so'radi.

Mishel ko'z yoshlaridan ivib ketgan yuzini qo'li bilan to'sib oldi.

Uning o'rniga men javob berdim:

— Mishel karfagenliklarning yengilganiga xafa bo'ldi, shunga yig'layapti, — dedim.

Sinfda biram qahqaha ko'tarildiki...

Xullas, dugonalarim meni o'zlariga qo'shmaslikda haqli edilar. Faqat hammadan ajralib qolish, kap-kattakon qiz holimda esi past bola muomalasini ko'rish uncha yaxshi narsa emas edi.

Yoshim o'n beshga qarab borardi. Hamma onalarimiz kelin bo'lgan, buvilarimiz esa: "Voy, sho'rim, uyda qolib ketyapsizlar!" deb hayajonga tushadigan va hazrati Ayyub qudug'iga* chopadigan yosh...

Bo'yim cho'zilmay qolgan edi. Ammo sho'x-o'jarligimga qaramay, qomatim kelishib, chehramda ajoyib ranglar, nurlar yonib o'cha boshlagan edi.

Soqolli amaki ba'zan qo'llarimdan ushlab, meni deraza yoniga olib borardi-da, yuzimni xuddi ko'zlariga surtagandek, yuzini yaqin keltirib: "Qizim, bu nima?.. Bu qanaqa rang, hey?.. Guldek toza-ya. Na so'ladi, na eskiydi!" — deyardi.

Oynaga qarab: "Ha, jonim, qiz degan ham shunaqa bo'ladimi? Fe'li bo'ri bolasiga o'xshasa-yu, yuzi rassom chizganday chiroyli bo'lsa!" — deb o'ylar, universal magazin ko'rgazmasida buvakni tomosha qilayotganday tilimni chiqarib, ko'zlarimni olaytirib, o'zimni ermak qilar edim..

* * *

Ta'tillar ichida eng yaxshi ko'rganim Pasxa bayrami edi. Bu ikki haftalik ta'tilni o'tkazish uchun Qo'zyotog'iga borganimda giloslar pishgan, katta bog'ning ko'chaga qaragan tomonini boshdan-oxir to'sib olgan daraxtlardagi giloslar chayqalib turgan bo'lardi.

Gilosni juda yaxshi ko'rardim. Ana shu o'n besh kunni chumchuqlar singari faqat gilos yejish bilan tugatar, shoxlarining eng uchlarida qolgan giloslarni ham tugatmay turib mактабга qaytmas edim.

Bir kuni kechki payt daraxt ustiga chiqib olib, gilos yeya, danaklarini uzoq-uzoqlarga ota boshladim.

Shu danaklardan biri ko'chada o'tib ketayotgan bir keksa qo'shnimizning naq burniga borib tegsa bo'ladi.

Boyoqish nima bo'lganini bilmay dong qotib qoldi, atrofiga telba ko'zlar bilan jovidirab qaradi, lekin boshini ko'tarib daraxtga qarash hech esiga kelmadi.

Ovozimni chiqarmasam, o'tirgan yerimdan qimirlamasam, balki meni hech ko'rmay, bironta qush uchib ketayotib danak tushirib yubordi, deb qo'ya qolardi.

Men esam, nihoyatda qo'rqqanimga, uyalganimga qaramay, o'zimni tutolmasdan kulib yubordim.

Kattakon shoxda otga minib olganday o'tirgan, sira uyalmasdan, hayo qilmasdan kulyayotgan qizni ko'rди-yu, boyoqish o'zini tutib turolmadi, jahli chiqqanidan qosh-ko'zlarini o'ynatib:

— Barakallo, oppoq qizim, — dedi. — Bu ishingiz bizga yoqmadni, xudo biladi, sizday bo'yi yetib qolgan kap-kattakon bir qizning...

O'sha zamon yer yorilsa, yerga kirib ketguday bo'ldim. Bechora guldek yuzim, kim biladi, qanday ranglarga kirdi ekan! Daraxtdan yiqilib ketish xavfiga ham qaramay, qo'llarimni mактабда kiyadigan ko'ylagimning ko'kragi ustida qovushtirib bo'ynimni xiyol bukidim-da:

— Kechiring, beyafandim, — dedim, — xudo haqqi, bexosdan bo'ldi... Yana ham to'g'risi, bilmay qoldim... — Bu gunohkorlarcha yolvorish usuli mактабда murabbiyalar, dindor o'quvchilar Bibi Maryam bilan Iso oldida duo o'qiyotgan mahallarida qo'llanadigan usul edi. Harholda, buning ta'siri uzoq vaqtlardan beri sinab kelinardi. U necha asrlardan beri ilohiy ona bilan bolani shu qabilda yupatib kelgani uchun, bu keksani ham oxirda insofga keltirishi mumkin edi.

Taxminimda yanglishmadim. Qo'shnim bu riyokor so'zlarimga, ovozimdagи qaltiroqqa

aldandi, yumshaldi. Nimagadir, menga biron yaxshi narsa aytish zarurligini sezganday:

— Bu xil parvosizlikning bo'yni yetib qolgan qizga zarari yetishi mumkinligini tushunmaysizmi? — dedi. Nima demoqchi ekanligini juda yaxshi tushunib tursam ham, ko'zlarimni pirpiratib:

— Nega endi, afandim? — deb so'radim.

U kishi quyoshning yondosh tushib turgan nurlariga qo'lini parda qilib, menga diqqat bilan razm soldi, keyin xaxolab kului.

— Masalan, sizni o'g'limga olib bermoqchi bo'lsam...

Men ham kulib yubordim.

— U tomonga xotirjam bo'lsinlar, afandim. Odobli qiz bo'lganimda ham olmas edingiz!

— Nega endi, bilolmadim?

— Chunki mening daraxtga chiqish, gilos danaklarini otishdan ham kattaroq ayblarim bor... Birinchidan, boy qiz emasman... Qulog'imga chalingan gaplarga qaraganda, kambag'al qizni hech kim nazariga ilmas emish... Innaykeyin, chiroyim ham yo'q... Mendant so'rasangiz, bu — kambag'allikdan ham kattaroq bir kamchilik...

Bu so'zlar keksa beyni juda qiziqtirib qo'ydi.

— Siz xunukmisiz, qizim? — dedi.

Men lablarimni cho'chchaytirdim.

— Nimalar deyapsiz? Nima, men o'zimni bilmaymanmi? — dedim. — Qiz degan ham shunaqa bo'larmishmi? Qizga uzun bo'y, sariq soch, moviy yoki yashil ko'zlar lozim...

Keksa bey bir mahallar chatoq yurganga o'xshaydi... G'alati boqish, shirin tovush bilan:

— Oh, bechora qizim, — dedi. — Sen go'zallikning nimaligini biladigan, o'zingning qandayligingni farq etadigan yoshamisan-a? Har nima bo'lganda ham... Qani, otingiz nima, bilib qo'yaylik?

— Choliqushi.

— Ie, bu qanday ot bo'ldi?

— Pardon*, meni mакtabda shunday deyishadi-da... Asl ismim Farida. O'zim singari qo'pol-to'pol ism.

— Farida xonim... Sizning otingiz ham o'zingiz singari go'zal, bunga amin bo'ling. Koshkiydi o'g'limga sizdaqasini topsam...

Bilmayman, nima uchundir bu kibor qiyofali, shirin so'zli kishi bilan sho'xlik qilgim ke-lib ketdi.

— Shu holda o'zlariga ham gilos otsak bo'ladi deng?

— Albatta... Albatta... Hech shubha yo'q...

— Hozircha ruxsat etsangiz, sizga bir oz gilos terib bersam. Meni kechirganingiz isboti uchun giloslarni, albatta, olishingiz kerak... Ikki minut...

Olmaxon chaqqonligi bilan shoxlarga tirmashib chiqib ketdim. Keksa qo'shnim qo'llarini ko'zlariga tutib:

— Ana, shoxlar qirsillayati... Men sabab bo'laman-da... Yiqilasiz, Farida xonim! — deb baqirardi.

Men bu vahimaga e'tibor bermay, gapdan tolmas edim.

— Hayron bo'lman... Yiqilishga o'rganib qolganman... Masalan, yaqin bo'lsak, chakkamdag'i yara izini ko'rardingiz. Shunday izki, butun go'zalliklarni hechga chiqaradi....

— Hay-hay, qizim... Yiqilasiz...

— Bo'ldi, afandim, bo'ldi... Iekin bularni sizga qanday qilib beraman?! Topdim, afandim, buning ham yo'lini topdim..

Fartugimning cho'ntagidan ro'molcha oldim-da, unga giloslarni solib uchlarini tugunchaga o'xshatib tugdim.

— Ro'molchaga parvo qilmang... Hali burnimni artganim yo'q... Top-toza... Iltimos, faqat yerga tushirmsandan ushlab olasiz... Bir... Ikki... Uch!

Keksa qo'shnik kutilmagan bir chaqqonlik bilan ro'molchani tutib oldi.

— Ko'p rahmat, qizim, — dedi. — Ana xolos, endi ro'molchangizni qanday qaytarib beraman?

— Hechqisi yo'q... Sizga mendan hadya bo'la qolsin..

— Nega endi?

— Nega bo'Imasin? Buning boshqa tomoni ham bor... Men bir necha kundan so'ng yotoqxonaga qaytib ketaman. Maktabimizda bir odat bor... Ta'til kunlarida qizlar yigitlar bilan tanishishadi, keyin, maktab ochilganda, bularni bir-birlariga maqtanishadi. Men bunday narsalarni qilmaganim uchun ular oldida juda qisilaman... Ammo ular betimga ochiq-sochiq bir narsa deyishga botinishmaydi, meni mutlaqo ahmoq deb bilishsa kerakda. Bu safar bir g'alati ish qilaman... Maktabga qaytganidan keyin, bir sirim borday boshimni solintirib o'y surib yuraman, g'amgin-g'amgin kulimsiyman. Ular: "Choliqushi, senda bir gap bor-a?" deb, albatta, so'rashadi. Men ham noxushgina: "Yo'q, menda gap nima qilsin?" deyman... Ishonishmay, meni qistay boshlashadi. Ana shundan keyin: "Xayr, aytsam aytay... lekin birovga og'izlaringizdan chiqarmaysizlar, qarg'anasisizlar", — deyman-u, bitta yolg'oni do'ndirib yuboraman.

— Qanday yolg'on?

— Siz bilan tanishganim yolg'oni osonlashtiradi. "Sarg'il, uzun bo'y bir erkak bilan devor ustida dildorlik qilishdik", deyman... Albatta, oq sochli deya olmayman. Sochingizing o'zi ham yoshlikda oqara boshlagan bo'lsa kerak... Dugonalarimning fe'lini bilaman-da. Darrov: "Nima haqda gaplashdinglar?" — deb so'rashadi. Meni chiroyli ekansiz, dedi deb ont ichaman. Men ham unga bir ro'molcha gilos berdim, deb, albatta, aytmayman. Gul berdim, deyman... yo'q, bunisi ham to'g'ri kelmaydi... Gulni ro'molchada bermaydi-lar-ku... Ro'molchani hadya qildim, deyman, vassalom...

Bir ozgina avval bir-birimiz bilan yoqalashguday bo'lganimiz holda, endi keksa qo'shnik bilan chaqchaqlashib kulishar, qo'l silkishib xayrlashar edik...

O'sha yil yozida shu daraxtga chiqish illatim boshimga balo bo'ldi.

Avgustning oydin kechalaridan biri. Chorboqqa bir to'da mehmon kelgan edi. Bular orasida Narimon nomli yigirma besh yoshlardagi bir tul xotin ham bor edi. Uning ondasonda chorboqqa kelgan kunlari katta voqeа hisoblanardi.

Dunyoda o'zlaridan boshqa hech kimni yoqtirmaydigan xolalarimdan tortib xizmatchi qizlarga qadar — hamma bu xotinga mahliyo bo'lib qolgan edi.

Narimonning eri bundan bir yil avval o'lgan. Narimon erini juda ham yaxshi ko'rardi, deyishadi. Shuning uchun u hamisha qora kiyib yurar ekan. Lekin menga shunday tuyuldiki, bu xotinning sarg'imtir chehrasiga juda ham yarashib tushgan qora kiyimi aza tamom bo'lidan so'ng yechilguday bo'lsa, uning quruqligi oshkor bo'lib qoladi.

Narimonning menga qilgan muomalalari it mushukni erkalaganiga o'xshardi. Lekin men unga hech elikmas edim. Oramiz ancha sovuq edi. Menga qilgan iltifotlarini juda sovuq qarshilardim.

O'rtamizdagи sovuqlikning hali ham davom etganiga qaramay, tan berishim kerak: Narimon o'lqiday chiroyli edi. Menga yoqmaydigan bir narsasi bo'lsa, u ham nozu karashmalarga o'chligi edi. Xotinlar ichida-ku o'zini uncha-muncha yaxshi tutardi-ya, lekin, mabodo oraga bitta-yarimta erkak aralashib qolguday bo'lsami, ana unda yuzi o'zgarar, ovozi, qahqahalari, qiliqlari butunlay boshqa tus olardi. Qisqasi, maktabimdagи yeng ichida ish ko'radigan dugonalarimning yana ham savodi chiqqanrog'i...

Eri haqida gap ochilguday bo'lsa, bu xotinning: "O, mening hayotim bitdi!" deb yolg'on taassurot qoldirishga harakat qilishi jon-jonimdan o'tib ketardi. U shunday qil-

ganda ich-ichimda g'azabga kelar, "ko'zga yaqinroq birontasi uchrasin, ko'ramiz", deb o'ylardim.

Chorbog'imizda Narimonga teng keladigan hech kim yo'q edi. Latta Najmiyani esa, tabiiy, odam soniga qo'shib bo'lmaydi. Xolalarim sochlari, boshlari oqorgan qari xotinlar. Goh uning, goh buning oyoqlarini tushashdan boshqa gaplari yo'q. U holda, u holda...

Men Narimonning chorboqqa mazaxo'rak bo'lib qolganining sababini sezsa boshlaganday edim. U esi past bo'lammni ko'z ostiga olib qo'ygan edi. Yo tegmoqchimikan? Unday deb o'ylamayman. O'ttizga yaqinlashib qolgan tul xotinning yigirma yoshlardagi yigitchaga tegish harakatiga tushishi pastkashlikning borib turgani... Agar u bunday pastkashlikdan qaytmasa, bema'ni xolalarimda tajribasiz bolalarini kalxatga oldirib qo'ymaydigan ko'z topilarmikan?

U holda, u holda?

U holdasi bormi? Baxtiyor tul, o'z hashamati, fantaziysi oldida tiz cho'kadigan bironta sho'ring qurg'urni topguncha mening bo'lam bilan ko'nglini chog' qilyapti.

Komronni esi past dedim-a, yo'q, qizishganidan aytdim... Yo'qsa, u nima qilayotgannini yaxshi biladigan sariq chayon. Narimon bilan gaplashganda o'zini pinhon tutishga tirishti, lekin mendan qochib qutula olarmikan?

Bolalar bilan yoqalashib yo ipdan sakrab o'ynab turgan, yoxud yerga yotib olib, qarta foli ochayotgan kezlarimda ham ko'zlarim faqat ularda bo'ladi...

Bo'lam qaerda bo'lsa ham, o'sha xotinning pinjiga kirib oladi. Goho hech narsadan bezabardek yonlaridan o'tib ketaman. Ana shunday kezlarda ovozlarini pasaytirishadi yo gapni boshqa yoqqa burib yuborishadi... "Nima qilishsa qilishavermaydimi, senga nima?" deyarsizlar. Menga nimami? Komron dushmanim bo'lganda ham, har holda, bo'lam... Qandayligi noma'lum bo'lgan bir xotin uni buzar ekan-u, men qarab o'tiramanmi?..

Nima to'g'risida gapiRAYOTGAN edim?.. Ha, avgustning oydin kechalaridan biri... Mehmonlar chorbog' oldidagi ayvonda o'rinsiz yoqilgan katta lampaning yorug'ida hangomalashib o'tirishgan edi.

Narimonning musiqa notalari singari o'Ichovli, ohangdor qahqahalari asabimga tekkan ni uchun boqqa chiqib bir burchakda, qorong'i daraxtlar tagida xayol surib o'tirgan edim.

Azamat shoxlaridan bir qismi qo'shni boqqa osilib tushgan bitta qari chinor bor. Bechoraning yeishga yaraguli mevasi bo'Imaganiga qaramay, salobati uchun yaxshi ko'rardim. Ustida, xuddi supada yurganday, hech qo'rmasdan yuriladigan yo'g'on, soyabon shoxlariga chiqib aylanar, yoxud o'tirardim.

O'sha kecha ham shunday qildim, anchagina baland shoxiga chiqib o'tirdim.

Bir ozdan so'ng qulog'imga yengil oyoq tovushi, orqasidan esa bo'g'iq qahqaha eshitildi.

Darhol ko'zlarimni ochib, quloqlarimni ding qilib turdim... Nima desam bo'ladi. Bo'lam baxtiyor tul bilan men tomon kelardi...

Qarmog'iga baliq yaqinlashganini ko'rgan baliqchi singari, boshdan-oyoq diqqatga aylandim. O'tirgan yerimda shovqin solib yubormasaydim, deb o'takam yorilardi. Behuda qo'rquv!

Ular o'zlaridan shu qadar ketishgan ediki, o'tirgan yerimda bong ursam ham eshitimas edi. Narimon oldinda, bo'lam esa arab malayday to'rt-besh qadam orqada kelardi. Devor orasidan o'tib, nari ketishga madorlari yetmagani uchun men chiqib olgan daraxt tagiga kelib to'xtashdi: "Keling, jujuqlarim! Keling, qo'zilarim!.. Sizlarni menga olloh nasib qildi. Bir ozdan so'ng ko'rishamiz... Bu go'zal oydin kechada sizlardan unutilmas bir xotira qoldirish uchun qo'limizdan kelganicha g'ayrat qilamiz!"

Xuddi shu choq bir chigirtka chirillay boshlamaydimi? Dod deyman! Bo'lamning baxtiyor tulga aytayotgan gaplarini eshitolmay qoldim... Qo'limdan kelsa: "Hoy, notavon, ni-

madan qo'rqsan? Bu yerlarda kim bo'lardi?.. Ovozingni chiqarsang-chi!" deb baqirardim.

Komronning: "Narimon, azizim, malagim", — degan so'zlarigina qulog'imga chalindi. Dag'-dag' titray boshladim. Yiqilib tushmaganimda ham, sharpa qilaman, yaproqlarni shitirlatib yuboraman, deb qo'rqrar edim. Bu orada Narimon xonimning ham bir-ikkita so'zini eshitdim... "Iltimos qilaman, Komronbey, iltimos qilaman", — deyar edi u.

Nihoyat, ovozlar tindi. Narimon sekin-sekin devor tomon yurdi, qo'shni bog'da boshqa birov bor-u, uni ko'rmoqchi bo'Iganday, oyoqlarining uchiga turib qaradi.

Komron esa uning orqasida nima qilishini bilmayotganday turardi...

Bo'lamning birdan u tomonga yurganini, qo'llarini ko'targanini ko'rdim... Yuragim qinidan chiqib ketayozdi, "axlyri aqli boshiga keldi, bu yomon xotinga shapati otadi", deb o'ylayman. Komron shunday qilsa qolsa, men ham ho'ngrab o'zimni daraxtdan tashlayman, u bilan umrbod yarashaman. Lekin u maxluq bunday qilmadi. Qizlarnikiga o'xshash oppoq qo'llari bilan Narimonning yelkalaridan, keyin esa bilaklaridan mahkam ushlab o'ziga tortdi. Quchoq quchoqqa, nafas nafasga tutashdi. Chinor barglari orasidan tushgan oy yorug'ida ikkovining sochlari bir-birinikiga aralashib ketganini ko'rdim.

Yo rabbiy, bu qaday razolat, qanday razolat-a! Butun vujudim dag'-dag' titrardi. Bir oz avval ularga g'alati bir o'yin ko'rsatib qo'yishga qaror qilgan bo'lsam, endi meni sezishmasin deb o'takam yorilardi. Haqiqiy qushga aylanib, bu shoxlardan ko'kka parvoz qilishni, osmondagi oy manzilida g'oyib bo'lib, bu dunyodagi odamlarning yuzlarini ko'rmaslikni nechog'lik istar edim!..

Lablarimni barmoqlarim bilan siqib turganimga qaramay, og'zimdan bir ovoz chiqdi. Bu faryod bo'lsa kerak. Lekin pastdagilar tushunguncha faryodim qahqahaga aylandi. Uyatsizlarning o'sha damdagagi talvasasini, qo'rquvini bir ko'rsangiz edi!

Bir ozgina oldin oyoqlarini oy yog'dusi kabi yerga tegizmay yurayotganday tuyulgan baxtiyor tul endi daraxtlarga urilib, qoqinib-suqinib qocha boshladi. Xolavachcham ham shunday qilmoqchi bo'ldi. Lekin Narimon izidan bir necha odim bordi-yu, keyin nima o'ylasa o'ylagandir, tarvuzi qo'lting'idan tushib qaytib keldi.

Men qiladigan boshqa ish topolmaganim uchun hamon kular edim. U mashhur "Qarg'a bilan Tulki" ertagidagi tulki singari, daraxt tagida u yoq-bu yoqqa yura boshladi.

Nihoyat, uyatni bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib:

— Farida, jonginam, bir oz pastroqqa tusha olasizmi? — dedi.

Men kulgini to'xtatib, jiddiy ohangda:

— Nima ishingiz bor? — dedim.

— Hech... senga gapim bor edi-da...

— Mening esa siz bilan gaplashadigan gapim yo'q... Rohatimni buzmang.

— Farida, hazilingni qo'y...

— Hazilimni? Nega qo'yar ekanman?

— Lekin haddingdan oshyapsan... Sen pastga tushishni xohlamasang, men tepaga chiqishim mumkin.

Ana xolos, bunisiga nima deysan! Yo'lda ketayotganida kichkinagina ko'lob suvni ko'rib esankirab qoladigan, hatlashga qaror berishdan avval tuflilariga, suvgaga uch-to'rt marta qarab oladigan, kursiga o'tirish oldidan shimining tizzalarini barmoqlarining uchi bilan ushlab yuqori tortib qo'yadigan nozik, nozanin bo'lamning daraxtga chiqmoqchi bo'Igani-chi, qo'y, kulma!

Shu kecha Komron chindan ham vahshiylashgan edi. Pastdagi shoxlardan biriga osilib chiqdi, keyin yana ham yuqori chiqish harakatiga tushdi.

Shu kecha u bilan daraxt ustida yuzma-yuz kelish fikri nimagadir meni hayiqtirardi. Uchrashsak falokat yuz berardi. Uning yashil ilon ko'zlarini yaqindan ko'rsam, daraxt

shoxlari orasida potirlashib bir-biri bilan olishgan ikki yirtqich qushga aylanamiz. Ko'zlar-ni o'yib, pastga otamiz. Yo uni, yo o'zimni.

Lekin, nima uchundir, bu yomonlikni ravo ko'rmadim.

Joyimda to'g'rilanib, keskin tovush bilan buyurdim:

— To'xtang o'sha yerda!

U parvo qilmadi, javob ham bermadi. Chiqib olgan shoxi ustida to'g'rilanib, yana ham yuqoriga qaray boshladi.

— To'xtang, oqibati yomon bo'ladi! — dedim. — Bilasizki, men Choliqushiman. Daraxtlar mening koinotim. Bu joylarga mendan boshqa odamning oyoq bosishiga ko'zim yetmaydi.

— Bu yana qanday gap bo'ldi, Farida?

Haqiqatan ham bu qanaqa gap edi?

Nochor hazilga oldim. Yaqinlashsa, yana ham yuqori chiqish taraddudiga tushib:

— Bilasizki, sizni hurmat qilaman, — dedim. — Sizni daraxtdan yiqlishga majbur et-sam juda yomon xafa bo'laman. Hozirgina she'r o'qigan ovozingiz birdaniga "Voydod!", "Voydod!" deb baqira boshlasa, fofia bo'ladi.

Uning ovozini taqlid eta turib, qahqaha urib kulib yubordim.

— Bo'lmasa ko'rishamiz! — dedi Komron.

Qo'rquv unga dalda, chaqqonlik bag'ishladi. Tahdiddan hayiqmay, ostimdag'i shoxlarga tirmasha boshladi.

Daraxtda quvlashmachoq o'yinini boshladik. U yaqinlashdi deguncha men yuqori chiqaman. Shoxlar hamon ingichkalashib boradi. Bir qur devor ustiga sakrab tushib qochmoqchi ham bo'ldim. Biroq sakrashga qurbim yetsa ham, sakramayman, nimagaki, bir yerimni mayib qilib olgundai bo'lsam, bo'lam o'rniiga mening dodlash ehtimolim bor.

Harholda nima bo'lsa ham, shu kecha bir-birimizga yaqin kelmasligimiz kerak. Siyosatni o'zgartirib so'radim:

— Men bilan nega bunchalik gaplashmoqchi bo'lganining sababini bilsak bo'ladi-mi?

Savolimni eshitib, u ham o'zgardi, jiddiy tus olib:

— Sen bilan hazillashyapmiz-u, lekin masala juda muhim, Farida... Sendan qo'rqa-yaman... — dedi.

— Shunaqami? Nimadan qo'rqsiz?

— Sho'xlik qilishingdan...

— O, har kungi ishim-ku bu!

— Bugungisi boshqa kurnardagiga o'xshamaganidan...

— Bugun biron favqulodda narsa yuz berdimi?

Komron juda charchagan, uzukkan edi. Shimi ham esiga kelmay, shoxlardan biriga o'tirdi. Hamon hazillashayotganday ko'rinsa ham, aslida yig'lab yuboradigan ahvolda edi.

Unga achinganim uchun emas, u bilan gaplashishga toqatim qolmagani, undan tezroq qutulgim kelgani uchun:

— G'am yema, — dedim, — qo'rqa-digan hech narsa bo'lgani yo'q, ko'nglingni to'q tutaver... Bor, mehmonlaring oldiga, ayb bo'ladi.

— Farida, shunchaki so'zmi yo ontmi?

— So'z ham, ont ham... Xohlaganing...

— Ishonsam bo'ladi-mi?

— Meningcha, ishonish kerak... Axir burungiday yosh bola emasman-ku...

— Farida...

— Innaykeyin, hayronman: mening nima deyishimdan qo'rqa-san? Men-ku daraxtda o'z yo'llimcha o'tiribman...

— Qaydam, ichimda hech ishongim kelmaydi...

— Katta bo'lib qolganimni, esi kirgan qiz bo'lganligimni senga aytishdan, albatta, bir maqsad bor... Bor, suyukli bo'lam... Ortiq uzukma... Ba'zi narsalar borki, bularni yosh bola ham sezadi... Lekin ulg'ayib borayotgan yosh qiz hech farqiga bormaydi. Bor, ko'nglingni xush qil....

Komronning vahmi sekin-sekin hayratga aylanib borayotganday ko'rinaridi. Meni al-batta ko'rgisi kelgandek, boshini ko'tarib:

— Gaplaring butunlay boshqacha-ya, Farida, — dedi.

Gap cho'zilsa, keti ko'rinasligi mumkin. Shuning uchun yasama g'azab bilan baqirib berdim.

— Bas endi!.. Gapni cho'zaversang so'zimni qaytarib olaman... Tushunsang-chi!

Po'pisam uni qo'rqtidi. Shoshib-pishib daraxtdan tushdi-da, Narimon ketgan tomonga qarab yurishdan uyalganday, bog'ning etagiga qarab ketdi.

Baxtiyor tul o'sha kechadan so'ng chorborg'da ko'rinnadi. Komronga kelsak, uzoq vaqtlargacha mendan hadiksirab yurdi, men buni sezdim.

Komron Istanbulga tushganda, har safar menga hadyalar olib qaytardi. Bitta rasmli yapon soyapari, shoyi ro'molchalar, ipak paypoqlar, yuraksurat pardoz oynasi, chiroyli qo'l sumkasi tortiq qildi...

Bolalik sho'xliklarini tashlamagan qizdan ko'ra ko'proq yetilgan qizga yoqadigan bu narsalarning menga hadya qilinishida qanday ma'no bor edi? Choliqushining ko'zlarini bo'yashdan, janjallarining oldini olib, sho'xligiga to'sqin bo'lismadan boshqa nima ham bo'lardi?

Birov seni esdan chiqarmasa, zavqlanish mumkinligini tushunadigan yoshga yetib qolgan edim. Yana bu chiroyli narsalar o'zimga ham yoqardi.

Lekin bu hadyalar menga manzur bo'lganini na Komronga, na boshqalarga bildirigm kelmas edi.

Buning ustiga nozik qamishlar terilgan, qiyiq ko'zli yapon qizlarining suratlari bilan bezalgan soyaparimni yerga, tuproqqa tushirgan paytlarimda olmasam, xolalarim:

— Farida, senga berilgan hadyalarni shunday qadrlaysanmi? — deb ta'na qilishardi.

Sumkaning yaltiroq, yumshoq terisiga barmoqlarim tekkanda, hamisha hurmat hissi tuyardim; bir kun ana shu sumkaga qo'llimdag'i ho'l mevalarni solmoqchi bo'lganday bir harakat qilib, xolalarimni rosa jag'illatdim.

Yana ham hushyorroq bo'lganimda, Komronning bu hadigidan yana ham ko'proq foydalanar, turli do'q-po'pisa bilan uni yana nimalar... nimalar olib berishga majbur etardim.

Lekin o'zim shu qadar yaxshi ko'rgan bu narsalarimni yirtgim, sindirgim, keyin oyoqlarim ostiga olib yig'lab turibdepsagim kelardi.

Bo'lampa bo'lgan kekim, nafratim hech tarqalmas edi.

Boshqa yillar matabning ochilishi kunlari yaqinlashgan sari boshim og'rir, ko'zlarim tinardi. Ammo o'sha yil bu uydan, bu odamlardan uzoqlashadigan klinikni intizorlik bilan kutdim.

* * *

Maktab ochilgan haftaning yakshanbasida murabbiyalar bizni Qyag'itxona* tomonga olib chiqishdi. Murabbiyalar ko'chada yurishni juda yomon ko'rishadi, lekin o'sha kuni nima bo'ldiyu qorong'igacha qolib ketdik.

Men eng orqada ketayotgan edim. Qanday bo'lganligini bilmayman. Bir mahal qarasam, dugonalarim bilan mening o'rtamdag'i masofa juda uzayib ketibdi. Meni odatdagicha oldinda ketayotibdi deb o'ylashgan bo'lismasa kerak, hech yoqdan meni yo'qlovchi

ovoz chiqmadi. Bir payt yonimga bir ko'lanka kela boshladi. Qarasam Mishel:

— Semisan, Choliqushi? Nega yakka o'zing sudralib ketyapsan? — dedi.

O'ng oyog'imning boldiriga chandilgan ro'molchani ko'rsatdim.

— Hali o'ynab turib yiqilganimda, oyog'imni yaralab organimdan bexabarga o'xshaysan-a? — dedim.

Mishel yomon qiz emas edi. Holimga achindi.

— Xohlaysanmi, senga yordam qilay?

— Harholda, meni opichib olish fikring-ku yo'qdir?..

— Tabiiy, yo'q... Iloji yo'q-da... Faqat qo'ltinglab olishim mumkin, xo'pmi? Bunday emas... Qo'lingni yelkamga qo'y... Mahkamroq ushla... Men ham belingdan ushlab olaman... Og'rig'ing picha kamayadi... Qalay, yurganingda joning uncha og'rimayaptimi?

Aytganini qildim. Haqiqatan, ahvolim ancha yengil tortdi.

— Mersi*, Mishel, sen juda ajoyib qizsan, — dedim.

Bir oz yurganimizdan so'ng Mishel:

— Bilasanmi, Farida, bu ahvolda yurganimizni dugonalarimiz ko'rishsa, nima deb o'ylashadi? — deb so'radi.

— Nima deb o'ylashadi?

— Farida ham oshiq bo'libdi... Mishelga dardini aytyapti, deb o'ylashadi.

Birdan to'xtadim.

— Gaping rostmi? — deb so'radim.

— Albatta...

— Unday bo'lsa, qo'ltig'imdan chiq.

Shu buyruqni bera turib, askar komandiriday jiddiy tus oldim.

Mishel meni hamon qo'yib yubormay:

— Eski safsata, — dedi, — nahotki shunga ham ishonsang?

— Safsatami, nega?

— Qizlar sening qanaqaligingni bilishmaydimi?

— Nima demoqchisan?

— Hech senda bunday mojaro bo'lishi mumkin emasligini... Birov bilan yurish ehtimolning yo'qligini...

— Nega endi?.. Meni xunuk deb o'ylaysanmi?

— Yo'q... Xunuk demayman... Aksincha, chiroylisan ham... Faqat o'lguday laqmasan, og'zing bo'sh....

— Meni shunday deb o'ylaysanmi?

— Mengina emas, hamma ham shunday deb o'laydi... Sevgi bobida Choliqushi chinakam gurd deyishadi.

Turkchasini ammo uncha yaxshi bilmayman-u, lekin frantsuzchasiga gurd degani osmaqovoq, suvqovoq, bolqovoq ma'nolarini beradi. Qaysi biri bo'lsa ham yomon narsa... Zotan, pastak bo'yim, bo'liq gavdam bilan bu qovoqlardan biriga anchagina o'xshab ham ketishim mumkin... Shu holda Choliqushidan keyin menga yana gurd degan laqab qo'yilsa ko'p yomon bo'ladi! Nima qilib bo'lsa ham odamni sharmanda qiluvchi bu xavfning oldini olish kerak.

Mishelning o'zidan o'rgangan bir qiliqni qildim — boshimni yelkasiga qo'ydim, tagdor qilib yuziga qaradim, keyin g'amgin kulimsirab:

— Mayli, sizlar shunday deb o'lay turinglar, — dedim.

— Nima deyapsan, Farida?

Mishel taqa-taq to'xtadi, menga ajablanib qaradi. Men bo'ynimni qisib tasdiqladim.

— Afsuski, shunday, — dedim. Keyin yolg'onimning osonroq hazm qilinishi uchun bir oh ham urib qo'ydim.

Mishel bu safar hayratidan ayyuhannos tortib yubordi:

— Ajoyib!.. Juda ajoyib, Farida!.. Afsuski, hech ishongim kelmaydi.

Bechora Mishel sevgi savdosiga shunchalar ishqiboz ediki, buni boshqalarda sezdi deguncha, yuragi suyunchlarga to'lib ketardi. Faqat o'zi aytganidek, ishonishga, ochiq-oshkor sevinishga botinolmasdi.

Beadabgarchilik qilib qo'ydim. Nomusim uchun buni oxiriga yetkazishim kerak.

— Shunday, Mishel, men ham birovni yaxshi ko'raman, — dedim.

— Faqat yaxshi ko'rasan xolosmi, Choliqushi?

— Shubhasiz, uning ham mayli bor, grand* gurd.

Boya uning menga aytgan gurd so'zini men ham oldiga "katta" sifatini qo'shib o'ziga hadya etdim-u, "bu sensan, sening oting bu" deyish esimga kelmas edi.

Demak, yolg'on boshlanar-boshlanmas o'zimni tanitishga muvaffaq bo'libman, naqadar baxt!

Mishel endi meni zo'r mehr bilan suyab borardi.

— Aytib ber, Farida... Aytib ber, qanday bo'ldi? Demak, sen ham, a? Qanday ajoyib narsa, a, shunday emasmi?

— Albatta ajoyib!..

— Kim u?.. Yaxshi ko'rgan yigiting juda ham chiroylimi?

— Juda chiroylil!

— Qaerda ko'rding? Qanday tanishding?

— ...

— Bas, ko'p yalintiraverma.

O'zim ham yalintirmayin deb o'ylab turibman. Lekin nimani to'qib gapiRAMAN? Ana shunisini bilmayman. Sevgili kishing bo'lganda shoshib qolasan, chunki uning visolini eslashning o'zi naqadar qiyin, naqadar qiyin...

— Bo'la qol, Farida... Yashirma... Bo'lmasa men bilan hazillashibsan-da.

Birdan shoshib qoldim. Hazilmi? Xudo saqlasin... Men osmaqovoq yo suvqovoqmani?.. Bo'lmasa shunday bir ishq savdosini to'qiyki, o'zing hayron qolgin!..

Mishelga sevgan kishim bilan maqtanish uchun kimning otini aytsam sizga manzur bo'ladi? Komron!..

— Bo'lam bilan ishqibozlik qilishamiz...

— O'tgan yil mакtab dahlizida men ko'rgan sarg'imtir yigit bo'langmi?

— Xuddi o'sha...

— O, qanday chiroylil, a!

Men sizga aytdim-ku, Mishel sevish uchun yaratilgan qiz edi... Komron shu mahalga-chaga maktabga ikki yo uch marta kelgandir... Mishel, jigar hidi dimog'iga urgan mushuk singari, yosh yigitning hidini bilib darrov dahlizga yugurib chiqqani, bizni poylagani qiziq emasmi axir?

Yulduzlar chiqdi. Kuz kirib qolganiga qaramay, havo odam dimog'iga ekin bo'yalarini urib turgan yoz havosiga o'xshardi.

Vujudim butun og'irligi bilan Mishel yelkasiga tushdi, sochlarmiz, betlarimiz bir-birimiz-nikiga yopishdi. Men o'zim to'qigan afsonani hikoya qila boshladim.

— Bundan ham chiroyliroq kecha edi, — dedim. — Eshik oldidagi odamlardan uzoqroqqa ketdik... Men oldinda, bo'lam ikki-uch odim orqada... U menga ajoyib narsalar so'zlardi. Ammo nimalar so'zlaganini takrorlamayman. Chunki xohlamayman... Chigirtkalar biram chirillashdiki... Yurdik, yurdik... Oy yog'dusida hovuzga aylangan maydonlardan daraxtlar orasidagi qorong'i joylarga kirib ketamiz. Keyin yana oydin maydonlarga chiqamiz... Bir ozdan so'ng tag'in qorong'ilikka sho'ng'iymiz.

— Bog'inglar mucha uzun ekan, Farida?

Xato qilib qo'yishdan juda qo'rqaman.

— Yo'q, uncha uzun emasu, o'zimiz sekin-sekin yurdik-da... — dedim, keyin hikoyamning u yog'ini aytdim. — Axiri yo'limiz oxiriga ham keldi... Bog'ning etagida qo'shnimizning devoriga osilib tushgan kattakon chinor bor. O'shaning tagiga kelib to'xtadik. Men oyoqlarimning uchida turib, o'zimni qo'shnimizning bog'iga qarayotganga soldim... U qo'llarini ishqaydi... Bir nima qilmoqchi... Lekin yuragi betlamaydi...

— Orqangni qilib turgan bo'lsang... Bu narsalarni qanday ko'rding.

— Bo'lamning soyasi devorga tushib turuvdi-da... Shundan....

Rolimni juda yaxshi o'ynayotgan bo'lsam kerakki, gapirib turib titrar, ovozim bo'g'zimga tiqilib qolar, ko'zlarimga yosh kelar edi...

— Keyin nima bo'ldi, Farida, keyin?

— Keyin xolavachcham bordan bilaklarimni ushladi...

— Voy, qanday ajoyib-a!.. Keyin-chi?

— Keyin... u yog'ini bilmayman...

— E, juda qiziq joyda to'xtatib qo'yding-da...

— Keyin daraxtdan bir qush sharpasi keldi... Juda yomon qush ekan... Qo'rqib qochib ketdik...

Ortiq ko'z yoshlарimni tutolmas, boshimni Mishelning ko'ksiga qo'yib olib, piq-piq yig'lar edim... Bu yig'i qancha cho'zilar ekan, bilmayman... Xayriyat, yo'q bo'lib ketganimizni axiyri sezishdi... Baqirib-chaqirib bizni izlay boshladilar. Mishel ularga ovoz qildi.

— Ketyapmiz, lekin tez yurolmayapmiz, — dedi. — Choliqushining oyog'i lat yebdi...

Yasha, Mishel!.. Men ham xuddi shuning uchun yig'layapman... Endi tezroq yurib ketishimiz mumkin.

O'sha kecha hamma uxlagandan keyin ham o'rnimda yig'lab yotdim. Lekin shunisiga aminmanki, bu safar yoshlар rol tufayli emas, o'z-o'zimga achinganim tufayli to'kilmоqda edi. Modomiki, dugonalarimga o'zimning gurd emasligimni isbot etish uchun bitta yolg'on to'qishga qaror bergen ekanman, dunyoda boshqa odam topilmagandek, nega endi bo'lamni, dunyoning hech jinim suymaydigan insoni bo'lgan Komronni tilga oldim? Ertalab uyg'onar-uyg'onmas Mishelni qo'lidan ushlab bir chetga tortaman-u, kechqurungi gaplarimning hammasi yolg'onligini aytaman, deb ko'nglimga tugib qo'ydim.

Lekin, netayki, ertalab uyg'organimda jahlim tarqalgan, xijolatpazligim ham meni tark etgan edi.

Menga har mahalgidan boshqacha ko'z bilan qarab, kasal bolaga qilinadigan muomali ni qila boshlagan Mishelga haqiqatni aytishga botina olmadim.

Mening gapim sekin-sekin dugonalarim orasiga tarqaldi. Mishel ularga qattiq tayinlangan bo'lsa kerak, hech kim menga bu gapning uchini chiqarmasdi. Faqat qarashlaridan, kulishlaridan nima demoqchi ekanliklarini bilib turardim. Bu narsa menda g'alati g'urur tug'dirardi. Sho'xligimni, yaramasligimni bir necha vaqtgacha tashlashga majbur bo'ldim. Endi har kim menga bo'lasini yaxshi ko'rib qolgan qiz, deb qarar edi... Shunday bo'lgandan keyin kap-katta qizning go'dak bola singari hatlab, sakrab o'ynashi, yaramasliklar qilishi juda ham yarashmagan narsa-da!

Afsuski, sut bilan kirgan jon bilan chiqadi, deydilar. Kechqurunlari oxirgi tanaffusda Mishelning qo'liga osilib, unga yana to'qigan uydirmalarimni aytar, shu bilan birga o'zim ham shayton vasvasasiga uchib borar edim.

* * *

Yana bir sayohatdan endi qaytib kelgan edik.

O'sha kuni Mishel nima uchundir biz bilan sayrga chiqmadi. U meni eshikda kutib oldi, qo'limdan ushlab, meni bog'ning bir burchiga yogurtirib olib keldi.

— Senga bitta gap topib qo'ydim, — dedi. — Ham suyunasan, ham xafa bo'lasan...

— !?

— Bugun sening malla bo'lang maktabga keldi!..

— ...

— Albatta, seni yo'qlab kelgan-da... Koshkiydi sen ham men bilan qolgan bo'lsang. Ishongim kelmas edi. Muhimroq sabab bo'lmasa, Komron meni nechun axtarib kelsin? Mishel harholda yanglish ko'rgan bo'lsa kerak.

Lekin shubhamni o'ziga aytmadim. Yolg'onidakamdan ishongan bo'lib:

— Yigit ko'ngil bergen qizini ko'rgani kelishidan ham tabiiyроq narsa bo'lishi mumkin-mi? — dedim.

— Albatta.

Mishel betimni siladi.

— Xafa bo'lma, yana keladi, — dedi, — modomiki yaxshi ko'rар ekan...

— Shubhasiz...

O'sha kuni kechqurun ovqatdan so'ng Matild opa meni chaqirdi-da, zar tasma bilan bir-biriga bog'langan rasmlı ikkita qand qutichani uzatib:

— Bularni senga bo'lang olib keldi, — dedi.

Matild opa hech jinim sevmaydigan xotin. Ammo qutichalarni uzatayotganida bo'yniga osilib betlarini o'pishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim.

Demak, Mishel xato ko'rmagan. Meni bo'lam yo'qlab kelgan ekan. Dugonalarim orasi-da mening cho'pchagimga shubha bilan qarovchilar bo'lsa, bu ikkita qutichani ko'rgan-dan keyin ular ham fikrlarini o'zgartirishga majbur bo'ladilar. Naqadar yaxshi!

Qutichalarimning biri likyorli rang-barang konfetlar, ikkinchisi esa zar qog'ozlarga o'ralgan shokoladlar bilan to'la edi. Uch-besh oy ilgari bo'lganda, bu narsalarni eng yaqin dugonalarimdan ham zo'r ehtiyyot bilan yashirgan bo'lardim. Ammo o'sha kecha dars tayyorlash saatida qutichalarim sinfa qo'lidan-qo'lga ko'chib yurdi. Qizlar esa har qaysisi o'z insofiga qarab qutichadan bitta, ikkita, yo uchtadan konfet olishdi.

Ba'zilari uzoqdan tagdor ishoralar qilardi. Men o'zimni uyalayotganga solib, yuzimni chetga o'girar, kular edim. Qanday yaxshi-ya!

Mishel, afsuski, tagidagi zar qog'ozlari ko'rina boshlagan qutichalarimni o'zimga qaytarib berayotib:

— Bu qutichalar, odatda, kelin qizlarga beriladigan shirinlik qutichasi bo'ladi, Farida, — deb pichirladi.

O'zim to'qigan ertak menga juda qimmatga tushdi, lekin nachora?

Oradan uch kun o'tdi. Imtihon uchun bir geografiya xaritasini bo'yayotgan edim. Menga bo'yoqchilik hech to'g'ri kelmadi. Uncha epim bo'limgani uchun har gal ranglarni bir-biriga aralashtirib yuborar, qo'llarimga, lablarimga rang tegizib olardim.

O'sha kuni ham shu ahvolda turganimda darvozaboning qizi sinfga kirib, bo'lam meni ko'rgani kelganini, hozir qabulxonada kutib turganini aytdi. Nima qilishimni bilmay, kursida o'tirgan o'qituvchimizga alanglab qaray boshladim. Bu hali-hali esimda.

— Bor, Farida, xaritangni qo'y, o'sha yerda turaversin... Mehmonning oldiga chiq, — dedi.

Xaritalarni-ku, joyida qoldiraman, juda soz... Ammo mehmonni qaysi qiyofada ko'rgani chiqaman?

Yonimdagи dugonam fartugining cho'ntagidan kichkina oynakcha chiqardi-yu, meni ermak qilayotgандай, ro'paramga qo'yib qo'ydi.

Yuzim bilan og'zimning ahvoliga maymunlar yig'laydi. Xat yozganda ruchkani og'zimga solish odatim bo'lgani uchun mo'yqalamni ham og'zimga solibman. Lablarimda sariq, qizil, ko'k ranglar yo'l-yo'l bo'lil yotardi. Bularni na ro'pmolcha bilan artib, na suv va na sovun bilan yuvib chiqarishning iloji yo'qligini, bunday qilguday bo'lsam, butunlay surkab

yuborishim mumkinligini bilardim.

Komronning-ku ahamiyati yo'g'-a, uning oldiga qaysi alfozda chiqishni xohlasam, o'sha alfozda chiqaveraman-u, lekin keluvchining kimligini bilib, piq-piq kulishayotgan dugonalarim ko'zida men ko'ngil bergen, hatto unashilish oldida turgan qizman. Xudo o'z jazosini bersin!

Yo'lakdan chiqayotganda ko'zim tushgan oyna yuragimning qabziyatini beshbattar oshirib yubordi. Shu qadarki, dahliz bo'sh bo'lganda, mutlaqo ichkariga kirmagan bo'lar-dim. Nima qilayki, u yerda ham harakatimga ma'no beradigan begona odamlar bor.

Nachora, bo'lar ish bo'ldi. Eshikni jadal ochdim-u, ichkariga o'qday otlib kirdim. Komron deraza yonida tikka turgan ekan. To'g'ri oldiga borguday bo'lsam, kim biladi, balki qo'l olishib ko'rishishga to'g'ri kelar; bo'larning xotinlarnikiga o'xshash toza, chiroyli qo'lini kir qo'limning ranglari bilan rasvo qilib qo'yishim mumkin.

Ko'zim stol ustida yana zar tasmalar bilan bir-biriga bog'langan paketlarga tushdi. Bular menga ekanligini tushundim. Endi shovqin ko'tarmasdan qo'llarimdag'i, lablarimdag'i bo'yoqlarni yosh bola tentakligi pardasi ostiga yashirishdan boshqa chora qolmagan edi. Qora fartugimning etaklarini ushlab, paketlar oldida chiroyli, uzun bir reverans qildim. Shunda barmoqlarimni bir oz bo'lsa ham etaklarim bilan yashirish imkonini esdan chiqarmadim; keyin paketlarga bir qator haroratli o'pishlar yuborib, shu bahonada lablarimning bo'yoqlarini ham birmuncha berkitdim.

Komron kulib yonimga keldi. Unga ham bir oz iltifot qilish kerak edi.

— Juda katta iltifotda bo'libsiz, Komronbey afandim, — dedim. — Garchi shokolodlar, konfetlar qiligid'im haqqi bo'lsa hamki, odam bir oz xijolat tortar ekan... Ilgarigi kungi qutichada bir xil konfet bor edi. Xudo xohlasa, o'shalarning opa-singillari shu qutichalar-dan chiqib qolsa ajab emas... Lekin haqiqiy ta'rifiga imkon yo'q. Odam ularni og'zida eritganda, yuragi ham birga erir ekan.

Komron:

— Bu safar yana ham qimmatliroq narsa toparsan, deb o'ylayman, Farida, — dedi.

Yasama bir shoshqinlik, sabrsizlik bilan u ko'rsatgan qutichani ochdim. Ichidan ikkita zar qog'ozli kitob chiqdi. Bular mavlud bayramlarida kichik bolalarga hadya qilinadigan rasmlı ertaklar qabilidagi narsalar edi. Bo'lam men hech anglay olmagan bir sabab bilan kalaka qilmoqchi bo'lgan bo'lsa kerak. Shu niyatda bu yerga ovora bo'lib kelishi chindan ham uyat... Nima qilay, yo ta'zirini berib qo'ysammikan? Hayronman, ammo o'zimni tutolmadim. Bo'yoqli lablarimga sira yarashmagan bir jiddiyat bilan:

— Hadyalarning hammasi uchun tashakkur bildirish kerak, — dedim. — Ijozat bersangiz, sizga kichik bir ogohlantirish qilsam... bir necha yil avval siz ham yosh bola edingiz... lekin o'sha vaqtda ham jiddiyatingiz, og'irligingiz bilan katta odamlarga o'xshardin-giz-u, harholda bola edingiz, shunday emassi? Xudoga shukur, siz yildan-yilga o'syapsiz, rasmlı roman qahramonlariga o'xshash yigit bo'lib boryapsiz-u, men nima uchun doimo turgan yerimda qotib turibman.

Komron hayrat bilan ko'zlarini olaytirdi.

— Pardon, Farida, anglamadim, — dedi.

— Anglamaydigan hech narsa yo'q. Siz katta bo'lyapsiz-u, nega men "Oltin kutubxo-na" ertaklarini o'qiydigan go'dak holda qolyapman? Nega men o'n besh yoshga kirib qolgan qizga qilinadigan muomalaga loyiq bo'lmayapman?

Komron hamon yuzimga taajjublanib qarardi.

— Yana anglamadim, Farida?

Uning anglamaganiga ajablanib yelkalarimni qisdim, lablarimni burdim. Lekin, to'g'risi, nima demoqchi bo'lganimni o'zim ham tushunmasdim. Qilmishimga pushaymon yeyar, qochib ketish payini izlar edim.

Endi asabiy harakat bilan ikkinchi qutichaning ipini uzdim. Bundan yana o'sha xil konfetlar chiqdi.

Komron hamon bir rasmiyat bilan sal egildi.

— Sizga bo'yiga yetib qolgan qizday muomala qilish kerakligini og'zingizdan eshitishim meni nihoyatda baxtiyor qildi, Farida, — dedi. — Kitobchalar uchun sizdan uzr so'rash kerak, deb o'ylamayman, chunki bu kitobchalar hazildan boshqa narsa emasligini konfetlar ko'rsatdi. Maqsad sizga kitob keltirishgina bo'lganda, boyta siz aytgan romanlardan tanlab keltirgan bo'lardim.

Komronning bu ifodasi, bu so'zlari, albatta, hazil edi. Shunday bo'lsa ham, uning oldimda turib aytgan bu so'zlari, bu ovozlari menga yoqib tushdi.

Javob berishga majbur bo'lmaslik uchun qo'llarimni duo o'qiyotgan kishiday bir-biriga qovushtirib, chuqur hayratga tushgan odam rolini o'ynay boshladim. U gapirib bo'lgandan keyin yuziga qaradim; ko'zlarimga tushgan sochlarmi bosh harakati bilan silkib:

— Nima deganiningizni eshitmadim. Konfet biram yaxshi ekanki... Xullasi, bularni ko'rib yarashdik. Vassalom. Ko'p rahmat, Komronbey, — dedim.

Gapini eshitmay qolganim uchun ta'bi tirriq bo'lganga o'xshadi, lekin buni sezdirmaslikka tirishdi, bir tin oldi-yu, yasama sovuqqonlik bilan:

— Nima ham derdik, agar bolalar hadysi hushingizga yoqmasa, bundan keyin katta odamlarga to'g'ri keladigan narsalar bilan ko'rgani kelamiz, — dedi.

Men endi faqat konfetlarim bilan ovoraday ko'rinar, javohir sandiqchani tomosha qilayotganday qutichalarga suqlanib qarar, ichidagi shirinliklarni olib, rasmli gazeta betiga terar, turib, o'zimcha bo'lar-bo'lmash narsalarni gapirar edim:

— Bularni yejish ham bir san'at, Komron. Tag'in bu san'atni kamina ojizalari kashf etdi. Qara, masalan, mana shu sarig'ini qizilidan oldin yesang, hech qanday zarar ko'rmaysan, shunday emasmi? Lekin, ming afsus! Chunki qizili ham juda shirin, innay-keyin, bir oz nordon ham. Buni avval yesang, sarig'ining nozik lazzatiga, shoirona bo'yiga jabr bo'ladi. Oh, jonom konfetlar!

Konfetning bir donasini olib lablarimga keltirdim. Qush bolasini erkalaganiga o'xhash, konfetni silab turib u bilan gaplashar edim.

Bo'lam qo'lini uzatdi.

— Uni menga ber-a, Farida, — dedi.

Unga g'alati qilib qaradim.

— Nega endi?

— Yeyman...

— Qutichani oldingda ochib katta xato qilibmiz-u. Olib kelgan narsalaringni o'zing yeydigan bo'lsang, ishimiz toza...

— Faqat shuni ber...

Chindan ham bu nima degan gap? Birov og'ziga solgan narsadan jirkamagach... Nimalar miyamga kelmadi.

Harholda bir daqiqa shoshib o'ylanib qolgan bo'lsam kerak, bo'lam birdan qo'lini uza-tib, konfetni barmoqlarimdan yulib olmoqchi bo'ldi. Lekin men chaqqonroq harakat qildim. Konfetni og'zimda berkitib, unga tilimni chiqardim.

— Sizning bunaqa qo'l yogurtirish odatingiz yo'q edi shekilli, qanday bo'ldi? — deb hazillashdim. — Shoshmang, men sizga bunday ajoyib konfetning qanday yeyilishini ko'rsatay, keyin bilganingizni qiling.

Boshimni bir oz orqaga tashlab, yana tilimni chiqardim, konfetni tilim ustiga qo'ydim. U sekin-sekin erigan sari kallamni ikki tomonga tebratar, tilim bo'sh bo'lmagani uchun, konfet lazzatining ajoyibligini qo'l harakatlari bilan bildirar edim.

Bo'lam shu qadar g'alati bir hayrat bilan og'zimga tikilib qoldiki, o'zimni tutolmay kula

boshladim.

— Endi kerakli narsani o'rganib olganingiz uchun bitta konfet hadya qilaman, — dedim.

Komron hazil aralash qilib qutini irg'itdi.

— Xohlamayman, hammasi o'zingga qolsin, — dedi.

— Buning uchun ham ko'p rahmat.

O'rtamizda gapiriladigan gap deyarli qolmagan edi. Odob yuzasidan uydagilarning sog'-salomatliklarini so'rab, ularga salom aytganimdan so'ng qutichalarni qo'Itig'imga qisdim-u, chiqishga tayyorlandim.

Birdan dahliz yonidagi xonada pastak sharpa eshitildi. Mushuk singari quloqlarimni dikkaytirib turdim.

Maktab lavhalari va xaritalar osib qo'yiladigan bu xonaning eshigi bir oz avval ochilgan edi. Keyin lavhalardan birining yiqilganiga o'xshash bir tovush eshitildi. Hozir ham o'rtadagi oynali eshik orqasida sichqon tiqiridan farq qilmaydigan bir tovush, harakat borligi sezilib turardi.

Bo'lamga bildirmasdan eshikka razm soldim, o, nimalarni ko'rdim! Xira oyna orqasida kattakon bosh soyasi... Darhol sirga tushundim — Mishel edi u. Biron xaritaga ehtiyoj tug'ilganini laqma murabbiyaga aytgan-u, dahliz yonidagi bu xonadan bizni poylagani kelgan.

Soya yo'qoldi. Lekin oyna tagidagi kalit teshigidan u qiz bizga qarab turgani shubhasiz edi. Nima qilishim kerak? Komron ikkalamiz bir-birimizga ko'ngil qo'yan kishilar bo'lganimiz uchun u bizdan boshqacha narsalarni kutar edi. Bo'lamga: "Bor endi, xudo yo'lingni ochiq qilsin, uydagilarga salom ayt", — deb apil-tapil eshikdan chiqib ketsam, sirni tushunib qoladi, yo'lakda boshimni qo'llari orasiga olib siqadi-da, sochlarimni to'zg'itib: "Xo'p menga hangoma aytgan ekansan-da?!" — deb kuladi.

Bu qo'rquv o'sha onda menga quvlik yo'lini ochib berdi. Yaxshi narsa emas harholda, lekin nachora? Modomiki, rolni o'ynay boshlagan ekanmiz, endi uni oxirigacha o'ynashimiz kerak.

Mishel ham maktabdagi dugonalarimning ko'pchiligi singari turkcha bilmas edi. Shuning uchun har qanday safsatadan hadiksirashga o'rin yo'q edi. Ishqilib, ovoz, harakatlar oshiq-ma'shuqlar harakatiga o'xshamasa bas...

— Esimdan chiqishiga sal qolibdi, — dedim Komronga, — enagangning nevarasi chor bog'damidi?

Enaganing nevarasi necha yillardan beri chor bog'da yurib o'sgan yetim bola edi.

Komron savolimga hayron bo'ldi...

— Albatta, chor bog'da... Qayoqqa ketardi? — dedi.

— Albbatta... Bilaman... Faqat... Qaydam... o'zim... Shu bolani biram yaxshi ko'ramanki...

— Bu yana nimasi? — dedi. — Yuziga qayrilib qaraganing ham yo'q edi-ku bechora ning...

G'alati bir harakat bilan:

— Yuziga qaramaganim nimani isbot qiladi, yaxshi ko'rmaganimnimi? — dedim.

— Bu qanday tentaklik?

— Ha, men u bolani shu qadar yaxshi ko'ramanki...

Men "yaxshi ko'raman" so'zini "Gul tutgan ayol" rolini o'ynagan artist harakati bilan bo'ynimni bukib, qo'llarimni ko'ksimda qovushtirgan holda aytdim, ko'z qirim bilan esa eshikka razm soldim.

Mishel olti og'iz turkcha so'z bilsa, bularning uchtasi mutlaqo "yaxshi ko'rmoq, sevgi, savdo" kabi so'zlar bo'lishi kerak. Mabodo shu taxminimda yanglishgan taqdirimda ham,

u bu so'zlarni lug'atdan topib olar yoki "yaxshi ko'ramanki" so'zining naqadar "dahshatli" ma'nosi borligini turkcha biladigan har qanday odamdan so'rab ola bilar edi. Bu masala-da faqat Mishelnigina emas, Komronni ham nazarda tutish zarur edi. Bu ikkinchi siyosat-ni harholda udda qilolmagan bo'lsam kerak.

Komron so'zlarimga ham, qiliqlarimga ham kulib:

— Bu shamol qaerdan esdi birdaniga, Farida? — dedi.

Qaerdan essa esaversin. Hozir qarab turadigan paytmi? Hamon boyagi harorat bilan:

— Nachora, shunday... Yaxshi ko'raman, vassalom, — dedim. — Menga so'z ber... Uyga borganingda ana shu boyoqish bolaga mening nomimdan suvenir* o'rnida... Suvenir o'rnida... Bildingmi, suvenir d` amur** o'rnida...

Enaganing nevarasiga eltib ber deb, Mishelning ko'zida Komronga bir narsalar bergim kelardi. Faqat cho'ntaklarimdan, aksiga olib, turmaklangan qog'ozlardan boshqa narsa chiqmadi; men bu qog'ozlarni kechqurungi dars tayyorlash paytlarida mudrab o'tiradigan murabbiyaga otish uchun turmaklab qo'ygan edim. Lekin choraszlik bundan ham yaxshiroq bir narsani ko'nglimga soldi. Komronni birdaniga qo'llaridan ushладим, quchog'iga tashlanadigan bir vaziyatni oldim-da:

— O'sha bolani mening uchun quchog'ingga olasan, — dedim. — Betlaridan, ko'zlaridan qayta-qayta o'pasan, uqdingmi?.. Va'da berasanmi-a?..

Komron bilan quchoqlashganday turardik. Nafaslarimiz bir-birimizniki bilan aralashib borardi. Hech narsadan xabari yo'q bo'lam bu haroratga tushunolmas, hayratidan qutula olmas edi.

Rol muvaffaqiyat bilan o'ynab bo'lindi. Endi parda tushsa bo'lardi. Komronning qo'llarini qo'yib yuborib, ezgin bir qiyofada o'zimni tashqariga otdim. Mishel yo'lakda orqamdan yetib kelib bo'ynimga osiladi, deb o'ylardim. Atrofning jimjitligini bilib to'xtadim, orqamga qaytib, lavhalar xonasining eshigi oldiga keldim. Ichkaridan sharpa ham, ovoz ham eshitilmagani uchun eshikni ochishdan o'zimni tutib qololmadim. Nimalarni ko'rmay! Onda-sonda bizga musiqa darsi bergani keladigan qari Kasave emasmi bu? Qaltiroq oyoqlari bilan bir taburetkaga chiqib olib, shkaf ustidan nota daftari qidiriyapti...

Tfu, xudo jazoingni bersin! Mishel deb vahimaga tushibman, Komron oldida o'zimni bekorga sharmanda qilibman-a!

Bezak tutgan odamday yuzimning o't bo'lib yonganini his etdim. Sinfga qaytish o'rni-ga boqqa chiqib ketdim. U yerda chashma jo'mragini ochib, ostiga boshimni tutdim.

Vujudimda olov harorati bilan birga titroq ham bor edi. Chashma suvlari sochlarimdan, yuzimdan oqib, ko'ylagim ichiga kirib borar, men esam:

"Sevgi degan narsaning roli odamni shu qadar yondirib titratsa, kim biladi, uning o'zi qanday ekan?" — deb o'ylardim...

* * *

O'sha yil Komron mактабга bir necha bor qatnadi. Shunchalik ko'п keldiki, eshik har safar ochilganda meni dahlizga chaqirgani kelishayotganday tuyulib, yuragim o'ynay boshlar edi. U menga keltirgan shokoladlar, pirojnoelar, pastalar bilan butun sinf ta'minlanib turdi, desam bo'ladi.

Ochko'zlikda ham tirishqoqligi qadar mashhur bo'lgan sinfdoshlarimdan Mari Pirlanta-jiyan qand-qurslarimni oppoq yirik tishlari orasida g'ajirlatib yeydi-da, yashirishning epi-ni qilolmagan hasad bilan:

— Jigarso'xtangki shunday ajoyib narsalar keltirgandan keyin, o'zing ham rosa jigari-dan uribsanda, — deydi.

Afsus, bu mojaro jonomga tega boshladi. Ba'zida o'zimcha o'ylanib ketaman: gap ta-shuvchi bolaning og'zini yopish uchun keltirilayotgan bu narsalarni dugonalarimga boshqacha qilib ko'rsatishim hayosizlik emasmi? Innaykeyin, Komron nega endi

maktbga shuncha tez kelib turibdi? Har safar "Shu tomonlarda turadigan bir kasal o'rtog'imni ko'rgani kelib edim-da. Taqsin bog'ida bir oz mashq etishib ketay deb edim-da..." kabi sabablar ko'rsatadi.

Boshqa bir kun hech narsa so'ramasam ham:

— Otamning Nishontoshida bir qadrdon do'stini ko'rib kelyapman... Otam u kishini ko'p yaxshi ko'rardi, — dedi.

O'zimni tutolmasdan bordaniga hamla qilib:

— Oti nima? Nima ish qiladi? Manzili qanday? — dedim.

Bo'lam shoshib qoldi. Shu darajada shoshdiki, biron ta yolg'on ism, yolg'on manzil ham tiliga kelmadı. Rangdan rangga kirib, kulib turib:

— Nima qilasan so'rab? Seni nimasi qiziqtiradi? — kabi so'zlar bilan meni aldashga tutindi.

Bunda muhim bir masala borday:

— Kelasi hafta boshlarida borib xolamdan so'rayman, — dedim.

Komron bu gapimni eshitib, beshbattar qizarib ketdi.

— Zinhor so'ray ko'rma! Onamga og'zingdan chiqarma!.. U kishi bilan ko'rishishimni hech xohlamaydi, — deb yolvora boshladı.

Zaharli chayon, meni hech alday olmaysan... Sening yuragingda nimalar borligini bila-man.

G'azab bilan o'rnimdan turdim, u zo'rlik bilan ushlamoqchi bo'lgan qo'llarimni cho'ntaklarimga yashirdim.

— Na otangizning do'stlari va na o'zingizning do'stlaringiz meni qiziqtiradi, deb o'ylasangiz, xato qilasiz... O'rinsiz laqmalik qildim, xolos, — dedim-u, tashqariga chiqib ketdim.

* * *

O'sha kundan keyin Komron har safar maktabga kelganda turli xil bahonalar qilib, oldiga chiqishdan bosh tortdim. Har safar olib kelgan qutichalarini sinfda yo bog'da yirtib ochadigan, ichidagilarining bir donasiga ham qo'l urmay, bolalar ustiga sochib yuboradigan bo'ldim.

Haqiqat oyday ravshan edi. Baxtiyor tul mutlaqo shu atroflarda turishi kerak. O'sha kechadan keyin, albatta, pisandalari shunday bo'lgan. Bo'lam tez-tez unikiga boradi, shu orada meni ham yo'qlab turadi.

Xohlagan axloqsizliklarini qilishaversin... Menga nima, faqat ikki o'rtada meni o'yinchchoq qilishlari jon tomirimni sug'urardi. Shu narsa esimga tushdi deguncha badanimni o't olar, alamimdan yig'lab yubormaslik uchun lablarimni tishlab qonatar edim.

Narimonning qaerda turishini uydagilardan so'rab bilib olish hech gap emas, lekin bu xotinning otini tilga olish men uchun chidab bo'lmaydigan narsaday tuyulardi.

Dam olish kunlarining birida uyg'a borgan edim, mehmonlardan biri Najmiyaga:

— Ilgari kuni Narimondan xat oldim, juda baxtli emish, — deb qoldi.

Kichkina laychani hovuzda cho'miltirgani olib chiqib ketayotgan edim. Shu so'zlarni eshitdim-u, eshik oldida to'xtadim, yerga cho'kkalab kuchukchani quchog'imdan sekin qo'yib yubordim.

Baxtiyor tul haqida bir narsa so'rash fikrim yo'q edi, lekin qulog'imga birov paxta tiqib qo'yibdimi?

Mehmon hamon so'zlardi.

— Eridan juda xursandga o'xshaydi, bechora bu gal zora baxtli bo'lsa...

Najmiya odam ovozini takrorlaydigan hammom gumbaziga o'xshab:

— Ha, ha, bu gal zora baxtli bo'lsa bechora, — deb mehmonning so'zlarini takrorladiyu, ahmoqona bir tarzda gapga xotima berdi.

Chorasiz bir zarurat boshimga tushdi. Hazil-mutoyiba qilib:

— Xonim afandi yana erta tegdilarmi? — deb so'radim.

— Qaysi xonim afandi?

— Sizga xat yozgan xonim. Narimon xonim.

Mehmon o'rniqa Najmiya javob berdi:

— Voy, xabaring yo'qmi? Qachonlariyu... Narimon bitta injenerga tekkan... Besh-olti oydan beri eri bilan Izmirda turadi...

"Bu gal zora baxtli bo'lsa, bechora..." degan tilakni men ham uchinchi marta takrorlab, kuchukchani quchog'imga oldim-u, tashqariga pirillab chiqib ketdim. Lekin hovuzga bormadim: chetanlar, bog' to'siqlari ustidan sakrab o'tib, bog' atrofida gir aylana boshladim.

* * *

O'sha yoz sayohatga chiqdim. Uzoqqa emas, Taqirdog'iga... Ma'lumki, xudo menga xolalardan mo'lroq narsa bermagan. Shulardan biri ham Taqirdog'ida. Eri Aziz pochcham xolamga uylangandan beri o'sha yerda dehqonchilik qiladi. Mujgon degan mendan uch yosh katta qizlari ham bor. Qarindoshlarimning bolalari ichida hammasidan ko'proq o'shani yaxshi ko'raman.

Mujgon xunuk qiz. Lekin men bunga parvo qilmayman. Oramizda uch yosh farq bo'lishiga qaramay, men uni yoshligimdan beri katta opam o'rnidan ko'rib, o'rganib qolganman. Hozir farqimiz juda kamayib qolgan bo'lsa ham, hamon unga avvalgiday qarab "opa" deb gapiRAMAN.

Mujgon opam mening tamom aksim. Men qanchalik sho'x, qanchalik olov bo'lsam, u shunchalik og'ir, vazmin. Buning ustiga sal zug'mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o'zi desam bo'ladi. Ba'zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo'ysunishga to'g'ri keladi. Nega? O'zim ham hayronman. Odam bolasi birovni yaxshi ko'rish halokatiga uchradimi, tamom, o'shang aql bo'lib qoladi.

Mujgon Oysha xolam bilan birga necha yilda bir marta Istambulga kelar, bir necha hafta chorborg'da qolar, yo boshqa xolalarimnikida mehmon bo'lar edi.

O'sha yoz Taqirdog'idan meni chaqirib xat keldi. Oysha xolam Basima xolamga yozgan xatida: "Sizdan-ku umidim yo'g'-a, lekin Faridani yozgi kanikulida, albatta, yuborsangiz, hech bo'Imasa ikki oygina turib ketsa, kutamiz. Bilasiz-ku, biz ham xolamiz. Kelmasa, pochchasi ham, men ham, Mujgon ham juda qattiq xafa bo'la- miz", — debdi.

Basima xolam, Najmiya Taqirdog'ini dunyoning bir burchagida deb hisoblashar, olis yulduzlarga qaraganday ko'zlarini suzishib: "Bo'Imagan gap! Shuncha joyga qanday borib bo'ladi?" — deb vahima qilishardi. Men yasama bir hurmat bilan huzurlarida egilib:

— Ijozat bersalaringiz, u yerning borib bo'Imaydigan joy emasligini isbot qilish zahmatini bo'ynimga olsam, — dedim.

Dugonalarim orasida yozgi kanikul kunlarida oilalari bilan birga sayohatga chiqadiganlar va qaytgandan keyin bizga og'iz ko'pirtirib maqtanadiganlar bo'lardi. Demak, maktab ochilganda bizga ham mundoq qadni ko'tarib gapirish imkonи tug'iladi.

Bulturgi sevgi savdosiga bu yil sayohat hikoyasi qo'shilsa bormi, ajoyib dabbaba bo'lar edi. Qani endi men ham portfelimni qo'llimga olsam-u, romanlarda yozilgan amerikalik qizlar singari yakka o'zim kemaga tushib jo'nab qolsam. Lekin xolalarim bu orzumni vahimali chinqiriq bilan qarshilab, yonimga bitta odam olmasdan yo'lga chiqishimga rozi bo'Imadilar. Shunda ham: "Qorong'ida panjaradan dengizga qarama... Kema zinapoyalridan yugurib tushma" kabi og'ir nasihatlari bilan ta'bimni rosa tirriq qilishdi, go'yo Taqirdoqqa qatnaydigan tog'oraday paroxodning Transatlantika kemalari singari sakson

metrli zinapoyalari borday...

Mujgonni ko'rmaganimga ikki yil bo'lgan edi. Shu orada o'sibdi, yetilibdi, gaplashishga odamning yuragi betlamaydigan darajada kerik salobatli bo'lib qolibdi. Shunga qaramay, bir zumda apoq-chapoq bo'lib ketdik.

Oysha xolam bilan Mujgonning do'stlari juda ko'p. Men ham o'shalarga qo'shilib oldim.

Har kun mehmondorchilikka chorboqqa yo boqqa chaqirib ketishardi. Endi katta qiz bo'lib qolganimni, yarashmagan qiliq qilsam, ayb bo'lismi aytganlari uchun harakatlarimga juda ehtiyot bo'la boshladim. Begona xotinlarga qochiriqlar aytganimda, ularning savollariga jiddiy, muloyim javoblar qilganimda o'zimni mehmon o'yini o'ynayotgan qo'g'irchoqqa o'xshatardim. Shunday bo'lsa ham, odamlar orasiga qo'shilish menda g'urur uyg'otmay qolmas edi.

Mehmondorchiliklar bahrimni har qancha ochsa ham, lekin ular Mujgon bilan yolg'iz qolgan baxtli damlarim qadar emas edi.

Pochchamning uyi dengiz bo'yidagi baland qirlikda. Mujgon opam ba'zi joylari tik devorga o'xshagan bu qirdan dengiz bo'yiga tushishimni xavfli hisoblab, avvallari bunga yo'l qo'y may keldi. Keyin esa men uchun hech qanday xavf yo'qligiga o'zi ham ishondi. Soatlar bo'yi qumda yotar, suv betida tosh yumalatar, dengiz bo'yida uzoq-uzoqlarga ketib qolar edik.

Dengiz bu mavsumda nihoyatda chiroyli, sokin bo'lsa ham, lekin nash'asiz edi. Ba'zan soatlar o'tardi, lekin sathida na bir yelkan va na nafis tuman parchasi ko'rinishdi. Kechki paytlarda dengiz odamning yuragini chiqarib yuboradigan darajada kengayib, sho'ppayib qolardi. Xayriyatki, men bu tahlikani oldindan sezib olar, dengiz bo'yidagi qoyalarni qahqahalarim bilan gurillatar edim.

Bir kuni Mujgon ikkimiz dengiz bo'yiga tushdigu, uzoqdagi burunga qarab ketdik. Maqsadimiz ana shu burunni hosil qilgan qoyalarni orqasidagi pana qo'litiqqa borish edi, faqat aksiga olib, yo'l berk chiqib qoldi. Oyoq kiyimlarimizni yechib suvga tushishdan boshqa chora yo'q edi. Meni-ku bu narsa sevintirdi-ya, lekin bo'yiga yetib, xonimcha bo'lib qolgan Mujgonni nima qilamiz?

Har qancha aytganimda ham tuflilari bilan paypoqlarini yechmasligini bilganim uchun:

— Kel, Mujgon opa, seni opichib olay... Ko'tarib o'tkazib qo'yaman, — dedim.

Mujgon unamadi.

— Jinni qiz, kap-katta odamni qanday olib o'tasan! — dedi.

Bechora Mujgon, yoshiga o'xshash bo'yi ham menikidan katta bo'lgani uchun meni ko'tarib o'tishga kuchi yetmaydi, deb o'ylagan-da.

Jadal yaqinlashib:

— Ko'ramiz, bu ham bir tajriba-da, ko'tara olsam marra bizniki, — dedim-u, boldirlari dan ushlab dast ko'tardim.

Mujgon avval buni bir-ikki odimlik sinov deb o'yladi, keyin qo'limgan chiqishga harakat qildi.

— Jinnilik qilma, qo'yvor. Meni qanday ko'tarasan? — deb kuldi. Keyin yalang oyoqlarim bilan suv kechib ketganimni ko'rib, dod solguday bo'ldi.

— Qushday yengilsan, opa, — dedim. — Tipirchilaydigan bo'lsang shaloplاب yiqilamiz, ikkovimizning ham sho'rimiz quriydi. Tek tursang, eson-omon o'tib olamiz.

Bechora qizning rangi o'chib ketdi. Churq etguday bo'lsa posongisini yo'qotib qo'yish dan qo'rqib, og'zini, ko'zlarini yumib, qo'llari bilan sochlariimga yopishib oldi.

Bechora Mujgon bir qarichlik suvda, xuddi jar yoqasidan o'tayotganday ko'zlarini yumib, quchog'imda qimirlashga yuragi betlamay borardi.

Burunga yetganda nimalarni ko'rdik deng? Suvdan tortib qo'yilgan bir qayiqcha yoni-

da ovqat yeb o'tirgan uchta baliqchi bizni ko'rib qolsa bo'ladimi.

Mujgonning esxonasi chiqib ketdi, qo'llarimni xuddi sindiradiganday qisib:

— Murodingga yetdingmi, Farida? Endi nima qildik? — dedi pichirlab.

Men kuldim.

— Baliqchilar odam yeishmaydi-ku, — dedim.

Lekin ahvolimiz chindan ham xunuk edi. Masalan, tizzamning ko'zlarigacha ochiq boldirlarim, qo'lida paypoqlarim bilan odamlarga ko'rinaligan ahvolda emas edim.

Mujgon supurgidan qochgan o'rgimchakdek, ingichka boldirlari bilan qochish harakatiga tushib qoldi. Menga bu vahm aybday tuyuldi, shuning uchun baliqchilarni gapga solish fikriga tushdim.

Suv o'sha kuni nega yo'llarni bosib ketgani, dengizning qaysi tomonlarida qachon baliq tutishganini so'radim. Ishqilib, gapga solish niyatida aytilgan safsatalar bu...

Baliqchilarning ikkitasi yigirma yo bundan ortiqroq yoshlardagi ikki yigitu, bitta soqolli chol edi.

Yigitlar uyatchan ko'rindi. Javobni chol qildi. Lekin u ham men singari gapdonlikni yaxshi ko'rarkan shekilli, mening kimligimni so'radi.

Bir zumda shoshib turganimdan so'ng: "Marika degan qizman. Savdogar amakimniga Istambuldan mehmon bo'lib keldim", — deb yurib ketdim.

Mujgon meni qo'limdan ushlab sudramoqchi bo'lganday oldinga tortar: "Xudo jazoingi bersin, nega bunday qilding?" deb koyir edi.

— Qaydam, — dedim men ham, — Istambuldag'i xolalarim: "Tilingni tiy. Behuda vaqillama. U yerning odamlari g'iybatchi bo'ladi", deb tayinlashuvdi-da. Baliqchilar: "Bu qanday musulmon qiz, boshinigina emas, sonini ham ochib yuribdi", deyishmasin dedimda.....

Xullasi, qo'rroq Mujgon bu ahamiyatsiz narsadan katta voqeа yasadi...

* * *

Kechqurun Mujgon ikkimiz qo'litiqlashib sayr qilib yurganimizda, bir yosh suvori ofitseri orqamizga tushganini ko'rib qoldik. Bu ofitser otiga ta'lif berayotgan ko'rinaldi. Lekin xudoning dalasiga boriladigan boshqa joy qurib ketganday, nuqul biz yurgan yo'lida bo'rib-kelar, yonimizdan o'tayotganda bizga tikilib qolardi. Yana shundayin g'alati avzodaki, hali-zamon to'xtab gaplashadi, deb o'ylaysan...

Bir kun u yana otini o'ynata-o'ynata bizni devor chetidagi daraxtlar orqasiga qochirib, yonimizdan o'tib ketgandan so'ng sekingina kuldim-u, tomog'imni qirib:

— Tushundik, Mujgon opa, — dedim. Mujgon yuzimga qaradi.

— Nima demoqchisan, Farida? — deb so'radi.

— Shuni demoqchimanki, biz avvalgiday yosh qizcha emasmiz, opa... Ofitser bilan yaxshigina jigarso'xtaligingiz bor ekan...

Mujgon kula boshladi.

— Meningmi? Jinni qiz!

— Bizni ham bir oz mensib muomala qilish darajasiga tushsangiz qanday bo'lar ekan, xonim afandim?

— Ofitser menga ilhaq bo'lib yuribdi, deb o'ylaysanmi?

— Bunday o'ylamaslik uchun bir oz to'mtoq bo'lish kerak.

Mujgon yana kuldi. Lekin bu safargi kulgisida bir oz iztirob bor edi. Keyin chuqur tin oldi.

— Jonginam, men orqasidan birov yuguradigan qiz emasman-ku... U seni deb atrofimorda parvona bo'lib yuribdi.

— Nahotki, opa!..

Ko'zlarim moshday ochildi.

— Ha, seni deb yuribdi... Sen kelmasdan avval ham ko'rardim, lekin yo'l bo'yidagi mana shu daraxtlar orasidan meni quvmay, indamay o'tib ketardi-da, qaytib kelmas edi...

O'sha kuni kechqurun ovqatdan so'ng Mujgon ikkimiz uy oldiga chiqdik. Gaplashib yurib dengiz tomonga ketdik.

— Sening bir darding bor, Farida, hech gapirmaysan, — dedi Mujgon.

Bir oz ikkilanib turganimdan so'ng:

— Kunduzi aytgan behuda gapingni hech miyamdan chiqara olmayapman, ko'nglim xijil, — deb javob berdim.

Mujgon shoshib so'radi:

— Nima devdim?

— "Men orqasidan birov yuguradigan qiz emasman-ku", deding.

Mujgon yumshoqqina kului:

— Ana xolos, senga nima kuygulik?

Men Mujgonning qo'llarini ushладим, ko'zlarimni jovidiratib, mungli tovush bilan:

— Nima, sen xunukmisan, opa? — deb so'radim.

U yana kului, meni erkalab betimga asta shapati urdi.

— Xunuk ham emasman, chiroylı ham... O'rtachaman deyayin-u, shu bilan gapni tamom qilaylik... Senga kelsak, bilasanmi, yoshing o'sgan sari odamning hushini oladigan darajada ochilib boryapsan!

Qo'llarimni Mujgonning yelkasiga qo'ydim, uni o'pmoqchiday burnimni burniga taqab:

— Meni ham o'rtacha deyaylig-u, shu bilan bu masalani bitiraylik, — dedim.

Qiyalikning chetiga kelgan edik. Yerdan tosh to'plab dengizga ota boshladim. Mujgon ham menga qo'shildi, lekin boyaqish tosh otishni bilmasdi, qo'lida quvvati yo'q edi.

Men otgan toshlar osmonda bir zumgina ko'rinnmay ketardi-da, keyin fosforday yaltirab borib, suvgaga o'qday otilib kirib ketardi. Uniki esa kulgili bir alfozda yumalab borib, qirg'oq toshlariga urilar yoki etakdag'i qumlargaga tushardi. Biz ichagimiz uzulguday bo'lib kular edik.

Nima ham deysiz, oy yog'dusiga cho'milgan dengizning ikki yosh qizga bag'ishlangan ilhom shugina bo'imasligi kerak edi, lekin nachora. Bir ozdan keyin Mujgon charchab kattakon toshga o'tirdi. Men ham turgan yerimga cho'kkaladim.

Mujgon maktabdoshlarim to'g'risida har xil savollar bera boshladidi. Men ham Mishel to'g'risidagi bir necha voqeani aytib berdim. Keyin tilimni tiyolmay, o'z uydirmalarimni aytishga kirishdim.

Buning nima hojati bor edi? Ajabo, Mujgonga shu narsalarni aytib berishga meni majbur qilgan narsa shunchaki bir sho'xlik ehtiyojigina edimi? Qaydam. Noo'rin ish qilayotgananimni sezib, tilimni shuncha tiyishga urinsam ham, hech epini qilolmay so'zlar edim.

Mujgonga aytib bergen narsalarim dugonalarimni bo'ri ertagidagi singari qanday aldaganim hikoyasidan iborat edi. U mahal rol talabi bilan o'zimni qayg'uli holga solardim, lekin bu safar bunga majburiyat bo'lmasa ham, nima uchundir, yana o'zimni, qayg'u og'ushiga tashladim. Ovozim asta-sekin mung olib, boqishlarim telbalanib bordi. Mujgonning yuziga qarashdan qo'rqib ko'zlarimni olib qochar edim. Uning goh etaklari, yotugmalarini o'ynar, goh boshimni tizzasiga qo'yib, nuqul dengizga, uzoglarga tikilardim.

Hikoyamning qahramonini avval Mujgondan yashirishga tirishdim-u, keyincha buni ham og'zimdan chiqarib yubordim.

Mujgon sochlaramini silab, so'zlarimga jimgina qulog solib o'tirardi.

So'zimni bitirib, dugonalarim haqida yolg'on-yashiq narsalar aytganim aybligini

bo'ynimga olganimda, u nimalar dedi deng?

— Bechora Faridaginam! Komron chindan ham jigaringdan urib qolibdi!

Jnim qo'zg'adi-yu, birdan o'zimni Mujgonning ustiga tashladim, uni qurib qolgan o'tlar ichida yumalatib tortqilay boshladim.

— Nima deding, opa, nima deding? Men unaqa sariq chayonni...

Mujgon o'lib-tirilib o'zini qutqazishga tirishar, tipirchilardi.

— Qo'yvor, qo'yvor deyman senga! Ust-boshimni yirtasan! Odamlar ko'rsa sharmanda bo'lamiz, xudo xayringni bersin, bunday qilma, — deb yolvorardi.

— So'zingni qaytarib ol...

— Xo'p, qaytarib oldim. Nima desang qilaman, lekin meni qo'yib yubor.

— Ammo yuz-xotir uchun emas, meni aldash uchun emas... Chindan...

— Juda soz, yuz-xotir uchun emas, seni aldash uchun emas... Chindan...

Mujgon o'rnidan turib, ust-boshini qoqa boshladi.

— Farida, chindan ham jinni bo'libsan, — dedi kulib.

Men o'rnimdan turmagan edim, titrab turib:

— Xudodan qo'rqlmay menga qanday tuhmat qilding-a, opa! Men hali yoshman, — dedim.

Ana shundan keyin o'zimni to'xtatolmay yig'lab yubordim.

* * *

O'sha kuni kechasi juda yomon bezovta bo'lib chiqdim. Negadir uyqum kelmas, alahlar, to'rga ilingan kattakon baliq singari u yoqdan-bu yoqqa o'zimni otar, to'Ig'anar edim.

Xayriyatki, kechalar qisqa edi. Tong yorishguncha Mujgon yonimdan jilmadi.

Ichimda bir narsa o'zgarganday o'zimdan-o'zim dahshatli bir qo'rquv, nafrat his etardim. Dam-badam yosh boladay Mujgonning bo'yniga tashlanar: "Nega bunday deding, opajon?" deb ho'ngrar edim.

U yana ham battarroq hujumga uchrashdan qo'rqqani uchun na "ha", na "yo'q" deyar, indamay sochlarimni silar, boshimni bag'rige bosib, meni yupatishga tirishar edi. Tong yorishar payt uning ham asab tori uzildi, jahli chiqib meni koyib berdi:

— Jinni, yaxshi ko'rish aybmi? Qiyomat qo'pgani yo'q-ku!.. Juda bo'lmasa uylanarsizlar, shu bilan olam guliston... Uxla, bezor qilib yubording-ku! Men bunaqa odobsizlikka toqat qilolmayman.

Mujgon opamning jahli bu safar ham bo'ynimni egib qo'ydi. Bundan tashqari u bilan gap talashib o'tirishga o'zimda ham majol qolmagan edi. Musyo Segenning butun kecha bo'ri bilan olishib, saharga yaqin o'zidan ketib qolgan echkisi* singari holdan ketgan edim.

Ko'zim ilingan paytda Mujgonning yana shirin til bilan:

— U ham senga beparvo qaramas, — deganini eshitgan bo'lsm ham, bunga qarshi isyon ko'tarishga qurbim yetmay uxbab qoldim.

* * *

Ertasiga shu yerlik boylardan birining chorborg'iga taklif qilingan edik. Umrinda shu bugungiday bahrim ochilgan kun bo'Imagandir, deyman.

Oysha xolam bilan Mujgon chorborg' hovuzi bo'yida kattalar bilan gaplashib o'tirganlarida, bolalarni yonimga oldim-u, tevarakda o'tni o'tga, suvni suvgaga otib, to'polon qila boshladim. Hatto bir qur bitta yaydoq otga minmoqchi bo'lib, jonimni xatarga ham qo'ydim. Xolam bilan Mujgon meni ko'rib qolishib, qo'l-bosh ishoralari bilan imo qilishardi.

Ularning nima demoqchi ekanliklarini juda yaxshi bilsam ham, anqovsirab o'zimni

ko'rmaganga solar, daraxtlar ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lar edim.

Ha, yoshi o'n beshga yetib, ularning nozik iborasi bilan aytganda, "bo'yi cho'zilib qolgan" qizning xizmatkorlar orasida boshi ochiq, poychalari yalang, ust-boshi ochilib sho'xlik qilib yurishi ayb, buni o'zim ham tushunaman, lekin nachora, o'zimni go'llikka solaman.

Bir mahal Mujgonni yolg'iz topib, qo'lidan ushladim-u:

— Arman keliniga o'xshagan bu xonimlarning nimasi yoqib qoldi senga? Undan ko'ra men bilan yur, — dedim.

— Kecha saharga dovur holi-jonimni qo'ydingmi? — dedi. Keyin ilova qildi: — Sen, rosti, g'alati mahluqsan, jonivorga o'xshaysan, Farida. Kecha kechqurun qanday ahvolda eding? Ertalab ikki soat uxlardarrov turib ketding. Ahvolingdan hech charchagan kishiga o'xshamaysan. Ranging noppa-nozanday, ko'zlaring porillaydi. Qara, meni ne ahvolga solding!

Chindan ham bechora Mujgon achinarli ahvolda edi. Kechasi uxlamagani uchun yuzi, ko'zlarining oqi ham bol mumi singari sarg'ayib ketgan edi.

— O'tgan ishga salavot, — dedim-u, yana yugurib ketib qoldim.

* * *

Oqshom payti. Aravamiz kechikib qolgani uchun yayov kelayotibmiz. Albatta, bunisi yana yaxshi. U yog'ini surishtirilsa, chorborg' uncha uzoq ham emas... Xolam o'z tengi ikkita qo'shnisi bilan orqada kelardi. Men bo'lsam bir oz chehrasi ochila boshlagan Mujgon bilan qo'l ushlashib, ancha ilgarida kelar edim. Yo'lning bir tomonida yiqiq devorlar, shoxlar bilan to'silgan bog'lar, narigi tomonidan esa poyonsiz umidsizlikka o'xshagan yelkansiz, tumansiz dengiz...

Bog'larda barvaqt kuz boshlangan, devorlar, shoxlar yonida g'ovlab yotgan ko'katlar qurigan, hammasini chang-to'zon bosgan, bir-biridan uncha uzoq ekilmagan nihollarning titrab turgan ola-quroq soyalari chang yo'lga xazon aralash tushib turardi.

Faqat uzoqlarda, o'z holiga tashlab qo'yilgan bog'larning ichkarisida bir qancha qizil donalar sochilib yotibdi. Bular pishgan maymunjonlar, bularni parvardigor choliqushlar — chittaklar yesin, deb yaratgan...

Shu sababdan umidsizlik dengizini bir yoqqa qo'yib, Mujgonning qo'lidan ushladim-da, maymunjonlar tomon sudray boshladim.

Orqadagilar toshbaqa qadami bilan bizdan o'tib, quyi chorborg'ning etagiga yetgularicha biz ishimizni sakson marta bitirib olamiz.

Faqat Mujgon opa odamning toqatini toq qilib yuboradigan darajada imillaydi. Dala o'rtasida yurib borayotganda tuflisining poshnalari bukiladi, o'rib olingan ekinlarning xasco'plari oyoqlariga kirishidan qo'rqedi, ikki qarichlik chuqurdan hatlashga to'g'ri kelganda taraddud qilib qoladi.

Bir qur bitta itning hujumiga uchradi. It bo'lganda ham Mujgonning qo'l sumkasiga sig'ib ketadigan kichkina kuchuk. Mujgon shu kuchukchani ko'rди-yu, voydodlab qocha boshladi. Keyin maymunjoni yeishidan ham qo'rqa boshladi: "Me'dang buziladi... og'riysan...", deb mevalarni qo'limdan olib tashlamoqchi bo'ldi. Maymunjonlar eziladi, yuzimizga chaplanadi. Keng yoqasiga ikki qator tasma bilan langar shakli tikilgan oq shoyi koftam dog' bo'lib ketdi.

Orqadagilar bizga yetib olgunlaricha biz ishimizni bitirib olamiz degan edim, lekin Mujgon ikkovimiz bu janjalni bir yoqlik qilgunimizcha, ular pastdag'i yo'lning boshiga yetib qolishibdi. Bizni yo'qotib qo'yishgan bo'lishsa kerak, chorboqqa ketavermay, orqaga qarab turishardi. Yonlarida bitta erkak kishi ham bor.

Mujgon:

- Voy, kim ekan-a? — devdi, men:
- Kim bo'lardi, biron yo'Ichi, yo qishloqidir-da, — dedim.
- Unday bo'Imasa kerak.

To'g'risini aytsam, men ham shunday deb o'ylamayman. Oqshom ola-qorong'iligidagi, yo'l bo'yidagi katta daraxtlar soyasi orasida uncha yaxshi ko'rinsama ham, harholda boshqa odam ekanligi sezilib turardi.

- Bir ozdan so'ng u kishi bizga qo'l siltadi, keyin ulardan ajrab biz tomon kelaverdi.
- Juda qiziq! Harholda bitta-yarimta tanish bo'lsa kerak, — dedi-yu, bir ozdan so'ng hayajon bilan qichqirib yubordi: — Farida, Komronga o'xshaydi... Qoch!
- Bo'Imagan gap. Qo'y-e, bu yerda u nima qiladi? — dedim.
- Voy xudo, xuddi o'zi!

Mujgon yugurib ketdi. Men bo'lsam, aksincha, qadamimni sekinlashtirdim. Nafasim tiqilib, tizzalarimda titroq turganini sezayotgan edim.

Yo'l bo'yida to'xtadim. Oyog'imni katta toshga qo'yib egildim-da, tufligimning ipini yechib, yana sekin-sekin bog'lay boshladim.

- Yuzma-yuz kelganimizda men bosiq, bir oz kesatiq bilan:

— Tavba, — dedim, — siz bu yerlarda?.. Shuncha uzoq yo'l zahmatini qanday qilib uhdangizga oldingiz?

U hech nima demas, yotu begona oldida turgandek tortinchoq bir jilmayish bilan yuzimga qarardi. Keyin qo'lini uzatdi.

- Men qo'limni tortib orqaga oldim:

— Mujgon opam ikkovimiz o'zimizni maymunjon bilan ziyofat qildik. Qo'llarim shira, keyin ustiga chang yopishdi. Xolalarim qalay? Najmiya qalay?

- Ko'zlaringdan o'pib qolishdi, Farida.

- Mersi.

- Naqadar kuyibsan, Farida... Terilaring ko'chib tushibdi...

- Quyoshdan.

- Shu yerda Mujgon gap qotdi:

- Sen ham shunday, Komron.

- Men o'zimni tutib turolmadim.

- Kim bilsin... oftobda shamsiyasiz* yurganmi, a?— dedim.

- Kulishdik. Keyin yurib ketdik.

Bir ozdan so'ng Mujgon bilan Oysha xolam bo'lamni o'rtalariga olishdi. Xolamning qo'shnilarini qirqdan oshib ketgan bo'lishsa ham, o'zlarini xotin, Komronni esa erkak kishi hisoblab orqada borishardi.

Men bolalar bilan oldinda ketayotgan bo'lsam ham quloqlarim orqada edi. Bo'lam o'zini qanday shamol uchirib keltirganini xolam bilan Mujgonga uqtirayotganligi quloqlarimga kirib borar edi.

— Bu yoz Istambulda juda zerikib qoldim, — deyardi u. — Lekin, bilmaysizlar, shu qadar ko'p...

Poshnamni jahl bilan yerga urdim, ichimda: "Albatta, baxtiyor tulni yot ellarga qochirib yuborganidan keyin bundan ortiq nima bo'lsin?" — deb o'yladim.

- Komron so'zini davom ettirdi:

— Tunov kecha oyning o'n beshi edi. Bir o'rtog'imning ulfatlari bilan Olamdog'iga chiqdik. Nihoyatda chiroyli bir kecha edi. Lekin mening o'tkinchi, ketkinchilarga hech toqatim yo'q. Tong yorishar paytda hech kimga aytmasdan yolg'iz o'zim to'g'ri shaharga tushib ketdim. Qisqasi, yuragim juda yomon siqilaverdi. Bir necha kunga Istambuldan boshimni olib ketmasam bo'lmaydigan ko'rindi. Lekin qaerga ham borardim? Yalovaning mavsumi emas. Bursa esa shu oylarda do'zaxday yonib ketadi. Birdan esimga sizlar tu-

shib qoldilaringiz. O'zim ham sizlarni o'liday sog'ingan edim.

* * *

O'sha kuni kechqurun pochcham bilan xolam Komronni allamahalgacha bog'da tutib qolishdi. Mujgon ham burnidan tortsa yiqlar holatda bo'lishiga qaramay, ular yonidan jilmay o'tirdi.

Men bo'lsam, aksincha, o'zimni nari tutar, har dam ichkariga kirib yotar yo bog'ning to'rida ko'zdan g'oyib bo'lar edim.

Bir mahal nima uchundir ularning yonlariga kelishga to'g'ri keldi. Komron mendan xafa bo'lganga o'xhash bir ohangda:

— Mehmondan hurmat ham ayalar ekan-da, — dedi.

Men kulib yelkalarimni qisdim.

— "Mehmon mehmonga el bo'lmaydi" deydilar, — dedim.

Mujgon meni yana qochib ketmasin deb qo'limdan, etagimdan ushlab o'tirardi. Bir sil-kib qo'lidan chiqdim-u, uyqum kelyapti deb yotog'imga kirib ketdim.

Mujgon yarim kechada yotoqqa kirganda, men o'rnimda uxbayolmay yotgan edim. U karavotimning chetiga o'tirib, yuzimga qaradi. Kulib yubormay deb u yonimga ag'darilib xurrak ota boshladim.

Mujgon zo'rlik bilan boshimni ko'tardi.

— O'zingni uxbayotganga solma, ko'zingni och, — dedi.

Men ham:

— Xudo haqqi, uxbayotuvdim, — dedim-u, ko'zlarimni katta ochdim.

Ana shundan keyin ikkovimiz ham o'zimizni tutolmay kulib yubordik.

Mujgon betimni silab:

— Taxminim to'g'ri chiqdi, — dedi.

Keskin bir harakat bilan karavot simlarini g'ijirlatib o'rnimdan turdim-da:

— Nima demoqchisan? — dedim.

Uning esxonasi chiqib ketdi.

— Hech... hech... — dedi, keyin kulib turib yolvora boshladi: — Xudo xayringni bersin, men bilan yoqalashma, charchab o'lay deb turibman.

Mujgon shundan keyin chiroqni o'chirib joyiga yotdi.

Bir necha minutdan so'ng men uning karavotiga bordim-da, boshini yostiqdan ko'tarib qo'llarimga oldim. Lekin boyoqish uxbab qolgan ekan. Ko'zlarini ochmay:

— Qo'y, Farida, bunday qilma, — deb yalindi.

— Xo'p, lekin tilimning uchida bir narsa turibdi, hozir shuni aytmasam, bugun ham uxbayolmayman, — dedim.

Yotoqning qorong'iligiga, Mujgonning ko'zları yumuqligiga qaramay, betimni uning sochlariga tegizib turib qulog'iga shivirladim:

— Miyingga telbalarcha o'y kelibdi... bildim... unga bir nima deguday bo'lsang, seni majburan quchoqlab olaman-u, ikkovimizni bab-baravar dengizga tashlayman...

Mujgon:

— Xo'p... xo'p... Istanaganing bo'lsin, — dedi-da, hamon boshini asta-sekin silkitib tur-ganimga qaramay, yana uyquga toldi.

* * *

Komronning kelishi chindan ham ta'bimni xira qildi. Unga nisbatan ko'nglimda uyg'on-gan jahlga, qo'rquvga, jirkanishga o'xhash qarama-qarshi his kun sayin ortib borardi. Ro'para kelgan choqlarimizda hech nimadan hech nima yo'q qo'pollik qilar, qochib ketar edim.

Baraka topkur Aziz pochcham mehmonga yaxshilab no'xta urib qo'ydi. Uni zeriktirmaslik uchun uyiga tez-tez mehmonlar chaqirar, har kun aravaga solib aylantirar yoki hamqishloqlaridan birining bog'i yo poliziga olib ketar edi.

Bir kuni ertalab ana shunday chaqiriqlarning biriga tayyorlanayotgan bo'lam bilan zina boshida to'qnash kelib qoldim. Yo'llimni to'sdi-yu, birov eshitib qolmasmikan, deb vahm bilan atrofiga qarab olgandan so'ng:

— Mehmondorchilikning ko'pligidan o'lar bo'lsam o'lib bo'ldim, Farida, — dedi.

Men zina panjarasi bilan Komronning orasidagi joydan unga bir yerimni tegizmay o'tib keta olarmikanman, degan cho't bilan band edim.

— Yomonmi? Sizni har kun sayohat qildirishyapti-ku,— dedim.

Komron kinoyaomuz kulimsiradi, ko'zlarini shiftga tikib:

— Mehmon mehmonga el bo'lmaydi, ammo mehmonning mezbonni mehmonga giz-gizlashi eski usullardan, — dedi. — Hay mayli, men ham shunday qilay...

Bo'lam kecha men: "Mehmon mehmonga el bo'lmaydi" degan so'zimni negadir betimga solar, buning uchun menga ta'na toshi otar edi.

— Yaxshi, lekin zorlanadigan joyi yo'q. Har kuni yangi-yangi joylarni ko'ryapsiz, yangi odamlarni taniyapsiz, — dedim.

U tag'in labini burdi.

— Taniyotgan odamlarim hech bahrimni ochadigan odamlar emas...

Men tilimni tiyolmadim.

— Sizning bahrinizi ochadigan odamni u bechoralar qaerdan topishsin? — dedim.

Bahrini ochadigan odam haqidagi gapim bilan kimga ishora qilganimni Komron tu-shungan edi. Hayajon bilan qo'llarini cho'zib:

— Farida! — dedi.

Faqat uzatgan qo'llari havoda qoldi. Men u bilan zina orasidagi tor yerdan lip etib o'tib ketdim. Pog'onalarini ikkita-ikkitadan bosib, ashula ayta-ayta boqqa chiqdim.

* * *

Axir bir kuni Mujgon qiladiganini qildi.

Bir kuni ertalab Mujgon ikkalamiz dengiz bo'yida sayr qilib yurgan edik. Kecha yomg'ir yoqqani uchun havoda kuz salqinligi bor edi. Tumanga, isga o'xshagan bir bulut quyosh yuzini qoplagan. Dengizning sokin yuzida qaerdan kelganligi noma'lum bir yog'du titraydi. Uzoqda yelkanlari tushgan bir qancha baliqchi qayig'i ko'lanka singari harakatsiz turardi.

O'sha kuni qanday qilib bo'lsa ham o'z boshiga qolgan Komronning katta ko'chadan o'tib ketayotganini ko'rib qoldim.

Kattakon daraxt tomirida o'tirgan Mujgon yuzi dengiz tomonga o'girilgan bo'lgani uchun Komronni sezmadni. Men ham hech nimani ko'rмаган kishidek gavdamni yarim-yorti teskari o'girib oldim. Shu alfozda hech narsa ko'rmasam, hech nima eshitmasam ham Komronning biz tomonga kelayotganini sezar, vujudimda yengil titroq turganligini his etar edi.

Mujgon:

— Ha, birdan daming ichingga tushib ketdi? — dedi-yu, boshini o'girib o'n-o'n besh odim narida kelayotgan Komronni ko'rdi.

Oyoq uchida turib, bir necha minut suhbat qilish majburiyatidan qochishning imkonii qolmadi.

Komron Mujgonga qarab gap boshladi:

— Bugun ham shamsiyangizni esdan chiqarmabsiz-da?— dedi.

Mujgon kulib javob qildi:

— Ha, bugun ham yomg'ir yog'ish xavfi bor...

Bo'lam o'zining sokin, beqaror tabiatiga o'xshagan bugungi havodan juda mammun ekanligini gapirgan edi, Mujgon bunga e'tiroz etdi. Qo'lidagi shamsiyani ochib-yopib o'tirgach:

— Yaxshi-yu, lekin odamni diqqinafas qilib yuboradi, — dedi. — Bu mavsumdan keyin kunlar ko'pincha shu bugungiga o'xshab turaveradi. So'ngra qish. Bilmaysiz, bu yerning qishi odamning yuragini siqib yuboradi... Otam aksiga olib shunday ko'nikib ketdiki, boshqa yerga jo'natishmasin deb qo'rqedi.

Komron hazillashdi:

— Bu yerning qishiga ko'p qarshi chiqaver mang. Kim biladi, balki bu yerlik biron badavlat odamdan kuyov qilarsiz.

Mujgon buni jiddiy tushunib, kallasini silkidi.

— Xudo saqlasin.

Shu dam yonimizdan bir yalang oyoq baliqchi o'tib qoldi. Men bir kun bu qari baliqchiga o'zimni Marika deb tanitgan edim. Boshiga yangi qizil ro'mol o'rabi olibdi. Meni ko'rib, hol so'radi:

— Kamnamo bo'lib ketding, Marika?

— Biron kun siz bilan baliq ovga chiqsammi deb yuribman, — dedim.

Bir-birimiz bilan gaplashib, dengiz labiga qarab ketdik. Bir ozdan so'ng yana ularning yoniga qaytib kelsam, Mujgon bo'lama Marika voqeasini hikoya qilib turgan ekan. So'zini bitirib, bilagimdan ushladi.

— Meni emas, Faridani Taqirdog'ida qoldirib ketsak kerak, — dedi. — Kuyov chiqdi. Iso kapitan degan baliqchining o'g'liga so'rashyapti. Baliqchi deb hafsalangiz pir bo'lmasin, nihoyatda badavlat kishi.

Komron kului.

— Millioner bo'lganda ham biz uning davlatiga uchmaymiz, a, Farida? — dedi. — Men Faridaning bo'lsasi bo'Iganim uchun bunga hech rozi bo'lolmayman.

Esli-hushli Mujgonni bugun qaysi shayton vasvasasiga oldi ekan? Komronning shu so'ziga u nima deydi deng?

— Bunisini qo'yavering. Faridaga yana boshqa alomat joylardan ham chiqyapti. Masa-lan, quyoshtay porlab turgan bir suvori ofitseri. Har oqshom otiga minib uyimizning oldiga keladi. Faridaga manzur bo'lish uchun har xil xavfli hunarlar ko'rsatadi.

Komron bu safar qahqaha urib kulib yubordi. Lekin bu qahqaha ichida kulgiga o'xshamagan g'alati bir narsa— ko'ngil siniqligi bor edi.

— Bunisiga bir nima deyolmayman. Ixtiyor o'zida,— dedi.

Mujgonga yashiriqcha: "hali qo'limga tushasan-u" ishorasini qildim-da:

— Sen haddingdan oshyapsan, bilasan-ku, men bunaqa bema'ni gaplarni yoqtirmayman, — dedim.

U, ehtiyoji shardan Komronning orqasiga o'tib olib, ko'zlarini qisdi.

— Ikkalamiz hech bunaqa gaplarni gapirmaymiz, a, Farida? — dedi.

— Yolg'onchi, tuhmatchi...

Komronga jon kirdi:

— Menga ham aytsang bo'laveradi, Mujgon, — dedi. — Men axir yot emasman-ku... Jahl bilan yer tepindim.

— Tushundim. Siz bilan janjalsiz gaplashib bo'lmas ekan. Xudoga topshirdik, — dedim-u, jahl bilan dengiz tomonga tez-tez yurib ketdim.

* * *

Tez-tez yurib ketgan bo'lsam ham, bu ketishim boshlangan bo'Imag'ur gap-so'zga xo-

tima bermaganligini sezib turdim. Dengiz labiga yetganimdan so'ng suvga jahl bilan tosh ota boshladim. Ora-sira yerga egilgan bo'lib orqaga qarardim. Ko'rgan narsalarim meni tinchitadigan emasdi.

Mujgon meni mahv etishga yaqinlashgan, buning oldini oladigan chora menda yo'q edi.

Oldin kulib gaplashib turishdi. Keyin ikkovi ham jiddiyashdi. Mujgon aytadigan gapini topolmayotgandek shamsiyasining uchi bilan yer chizar, bo'lam bo'lsa haykal singari qimir etmay turardi. Nihoyat, ikkovining ham men tomonga o'girilib qaraganini va eng yomoni shu yoqqa qarab kelayotganlarini ko'rdim.

Masala oydin. O'zimni qirg'oqning eng tik yeridan jonimning boricha qumloqqa tashladim. O'sha kun, o'sha tashlashimda qanday qilib yumalab ketmaganimga, bir yerimni emas, bir qancha yerimni chaqa qilib olmaganimga hali-hali hayron bo'laman.

Netayin, bu xatarli telbalik ham meni ulardan qutqazib qololmadi. Boshimni o'girib qaradim, ular ham qirg'oqning boshqa bir yeridan pastga sekin-sekin tushib kelishyapti!

Qocha boshlaguday bo'lsam, bu nozik insonlar otga minib quvlaganlarida ham meni tutolmasliklari turgan gap. Faqat shunisi borki, mening qochishim ma'nosiz ketmaydi: hamma sirga tushunganimni yoki hech bo'Imaganda, biron narsadan shubhalanganimni bildiradi.

Shuning uchun hech qanday dardim, g'amim yo'qday ora-sira dengizga tosh ota-ota tez-tez yurib ketdim. Oldindagi burundan o'tib olsam ulardan salomat qutulib ketardim. Lekin omadim kelishmay bugun ertalab dengiz orqaga chekilibdi, qoya chetida quq-quruq yer ochilib qolibdi.

Rejam tayyor edi. Qumloqda yana bir oz yurganimdan so'ng u yerdagi tor so'qmoqdan tirmashib qirg'oqqa chiqib olaman. Bu so'qmoq echkilar zo'rg'a chiqadigan qaltis yo'l bo'lganidan, ular meni quvishdan qo'rqlik shadi, natijada, izimni yo'qotishadi.

Ammo burunning u tarafida men ro'para kelgan komediya, to'g'rirog'i, fofia bir necha minutgacha hamma narsani esimdan chiqarib yubordi. Hali yonimizdan o'tib ketgan qari baliqchi, qo'lida kurak bilan bir daydi qora itni quvib kelib qoldi. Jonivor akillab o'zini u yon-bu yonga urar, chol yetib kelib kuragi bilan bechoraning to'g'ri kelgan joyiga tushirardi.

Oldin it quturgan bo'lsa kerak, deb o'ylab o'zimni picha yo'qotib qo'ydim. Keyin bilsam, baliqchining o'zi battarroq quturibdi: esini yo'qotib tipirchilaydi, irg'ishlaydi, baqiradi.

Birdan yoniga borishga betlamay qichqirdim:

— Nima qildi, nimaga urasiz bu bechorani?

Chol hadeb hansirar edi. Bir zumgina tayoqqa dam berib kurakka tayandi. Yig'laguday tovush bilan:

— Nima qildi emish, o'ttiz qurushlik qoramoyni to'kib yubordi, maraz, — dedi. — Lekin uni senga tashlab ketmayman.

Jahlining sababi ma'lum bo'ldi. Baliqchining qumloqdag'i o'chog'ida qaynayotgan bir chelak qoramoyni it ag'darib yuboribdi. Katta gunoh! Lekin bechora itni qayiq eshkagi bilan urib o'ldirishga arziyidigan gunoh emas!

It bir qoya yorig'iga, o'ziga bexatar ko'ringan joyga kirib oldi. Bir ozdan keyin eshkakli dushmanning yangi hujumiga duch kelganda nima qilishini, o'z oyog'i bilan kirgan bu qopqondan qanday qutulishini o'ylamay, yalang ulir edi. Holbuki, qumloq bilan to'ppato'g'ri qochib ketsa yoki men tushgan yo'ldan yuqoriga tirmashib chiqsa, batamom qutulib ketardi.

Vaqtim bo'lsa, bechora itni qutqazish uchun biron narsa qilardim. Lekin nachora, o'zimning dardim boshimdan oshib yotibdi. Men ham uning singari quvg'inga uchragan

edim.

Mujgon bilan bo'lamning burunga qaytish ehtimoli aqlimni uchirdi. Orqamga qaramasdan hamon tez qadamlar bilan borib qirg'oqqa tirmasha boshladim.

Lekin avvalgi o'yimga qarshi, butunlay qochib ketishga ko'nglim chopmadi. Ora-sira to'xtab, kishi bilmas orqamga, to'g'rirog'i, pastga qarab-qarab qo'yari edim.

It voqeasi Mujgon bilan Komronni ham jalg qilgan ko'rindi. Ular ag'darilgan qoramoy idishi yonida hayajon bilan gaplashardilar.

Axiyri bo'lamning cho'ntakdan hamyonni olib baliqchiga pul bergenini ko'rdim. Shunisi qiziq bo'ldiki, baliqchi suyunganidan eshkagini yerga qo'ydi-da, men tomonga o'girilib, qo'li bilan ishora qila boshladi.

Ming qatla shukur, it qutuldi. Ularning orqadan chaqirayotganlariga parvo qilmay, to'g'ri uuga ketaverdim.

Mujgonning qilmishini eslasam, aqlim miyamdan uchadi. Butun vujudimni titroq bosalidi. Har dam mushtlarimni qisib: "Rasvo bo'ldim, seni qarab tur, Mujgon!" deyardim.

O'ylaymanki, o'sha jahl bilan Istambulga ham yetib olardim. Lekin eshik oldida Aziz pochcham ro'paramdan chiqib qoldi.

— Qizim, nima bo'ldi? Lavlagiga o'xshab qizarib ketibsani? Birov quvdimi? — deb so'radi.

Asabiy bir ohangda kuldim.

— Nega quvar ekan, pochcha? — dedim-u, bolalar tovushi kelib turgan hovliga yugurib kirib ketdim.

Sahndagi kattakon daraxtga arg'imchoq solingan edi. Gohi kunlar qo'shni bolalarni yig'ib, bu yerni shovqinli bolalar bog'chasiga aylantirib yuborardim. Bugun kichik o'rtoqlarim mening chaqirib chiqishimni ham kutmasdan kattasidan-kichigigacha yig'ilishibdi, arg'imchoq atrofida to'polon ko'tarib o'ynashyapti.

Omadimdan aylanay! Yo'lda kelayotganimda o'z xonamga kirib, eshikni qulflab olaman, deb o'ylagan edim. Lekin ular, albatta, orqamdan kelishar, eshikni zo'rlik bilan ochdirishga harakat qilishib, ishning rasvosini chiqarishardi. Mana endi bolalar orasiga kirib ishni jinnilikka aylantiraman-da, ularni yonimga yo'latmayman. O'rtoqlarim arg'imchoq talashib turishgan ekan. Men darrov oralariga suqildim-u, bolalarni qo'l ishorasi bilan ikkiga bo'lib:

— Qani, hammang chetga chiq. Senlarni bitta-bittadan o'zim uchiraman, — dedim.

Arg'imchoqqa o'tirdim, kichkintoylardan bittasini quchog'imga olib, sekin-sekin ucha boshladim.

Ko'p o'tmay Komronlar ham yetib kelishib, bolalar orasida turishdi.

Mujgon sira tinmay hansirar, ora-sira ko'ksini qo'li bilan bosib-bosib qo'yari edi. Bo'lam uni juda tez yogurtirib kelgan bo'lsa kerak. Ichimda "Battar bo'!" dedim-da, arg'imchoqni yana ham tezroq ucha boshladim.

Chetda navbat kutib turgan bolalar: "Ko'p uchirdingiz, bizni ham uchiring, bizni ham", deb qichqira boshlashdi. Men esam quloq solmas, tepamdag'i daraxt yaproqlarini shitirilib tobora balandroq, tezroq uchar edim.

Bu hol bolalarni butunlay asabiylashtirdi. Sabr-toqatlari tugab, arg'imchoqqa yaqin kela boshladilar. Mujgon bilan Komron ularni qo'llaridan ushlab chetga tortar, bolalar esa qaytmay o'jarlik qilishardi. Hammasidan ham yomoni shu bo'ldiki, men bilan uchayotgan kichkintoyning hammayog'i tilindi. Tizzalarim orasidan to'lg'anib chirqirayotgan bu bechoraning arqonni qo'yib yuborishidan, yerga yiqilib o'lishidan qo'rqa boshladim.

Nochor, arg'imchoqni to'xtatib, bolani tushirishga kirishdim. "Shunchalik narsadan qo'rqedigan kichkina bolaga arg'imchoq uchishni kim qo'yibdi? Bundaqlar uylarida, kichik ukalarining beshiklarida tebranishsa yaxshiroq bo'ladi", deb bolaga to'ng'illab ber-

dim. Yana shunga o'xshash bir qancha so'zlar aytdim. Bular Komronni cho'chitish uchun, men bilan gaplashishga yo'l qo'ymaslik uchun aytilgan shunchaki so'zlar edi. Xayriyatki, boshqa bolalar ham xuddi shunday ovoz, shunday ohangda qichqirishib, bog'ni boshlari-ga ilishdi.

— Meni ham uchiring, Farida opa. Meni ham. Meni ham. Meni...

— Yo'q, hech qaysingizni olmayman, qo'rkoq ekansizlar...

— Qo'rkmaymiz, Farida opa, qo'rkmaymiz, qo'rkmaymiz, qo'rkmaymiz...

Shu choq uy derazasidan xolamning ovozi eshitildi:

— Farida, ularning ham bir oz ko'ngillariga qara, jonim..

Darhol o'sha yoqqa o'girilib, uzundan-uzoq gap talasha boshladim:

— Xola, shunday deysiz-u, yiqlilib tushib bir yerlarini mayib qilib olishsa, keyin meni koyiysiz.

— Aylanay qizim, bolalarni yiqtish shartmi! Sekinroq uchirgin-da.

— Xola, bilmagan kishiga o'xshab gapirmang, iltimos qilaman. Tavba, Choliqushini bilmaysizmi? Menga ishonib bo'ladimi? Boshimda ming xil fikr. Arg'imchoq uchayotganimda shayton o'Igur turtib: "Hayda, hayda, picha tezroq, tezroq" deb turtkilaydi. "Unday dema, yonimda yosh bola bor!" deb javob bersam ham, qo'ymaydi. "Hayda, hayda. Yana picha tezlat, tezlat, nima bo'lib qolasan!" deyaveradi. Arqon, daraxt shoxlari, yaproqlari ham jo'r bo'lishib: "Hayda, Farida, hayda, Farida!" deyaverishadi. Shuncha ha-haga bir bechora Choliqushi qanday chidab tura oladi? O'zingiz o'ylab ko'ring, axir!

Hovurim tusha boshladi, orqam o'girik bo'lganiga qaramay, bo'laming yonimda turganini his etaman. So'zim tinar-tinmas, uning gap boshlashiga shubha qilmayman. Nima qilay? Unga ro'para kelishdan qanday qutulsam bo'ladi?

Bolalardan bittasi etagimga osilgan edi, qo'ltig'idan ushlab dast ko'tarib oldim. Bu yosh o'rtoqlarimning eng kichkintoyi, yetti-sakkiz yoshli bola edi. Yuzini yuzimga yaqin keltirib turib:

— Ko'ngling qolmasin, seni ham bir uchirib qo'yay. Lekin bu do'mboq betingni qonatib olsak, chatoq bo'lmaydim? — dedim.

Bolaning orqasida soya paydo bo'ldi. U Komronni edi. Bola boshini boshimdan ayirar-ayirmas, u bilan yuzma-yuz, ko'zma-ko'z kelishimga shubham qolmadi. Endi undan qanday qutulaman? Undan qochish, qo'rqish — dunyoda eng yomon ko'rgan narsam.

Shuning uchun bolani qo'limdan tushirib, tikkasiga Komronning ko'zlariga tikildim.

— Bor, bola. Komron akangning yoniga bor. U qizlar singari karashmali, nozik yigit. Seni sutdan qolgan yosh onaday allalaydi, chayqatmasdan, charchatmasdan avaylab uchirtiradi. Lekin zinhor tipirchilama. Chunki u kishining nozik qo'llari seni ushlab qololmaydi. Ikkoving ham yiqlasan.

Niyatim — ko'zlarimni ko'zlariga qadab, uni bosh egdirguncha shu o'tkir zaharli kino-yani davom ettirish edi. Ammo u ko'zlarini olib qochmas, "bekor urinasan, hamma sirni bilib oldim" deguvchi nazar bilan tikilib turardi.

Ana shunda o'yinni boy berganimni sezsa boshladim. Boshimni egib, chang qo'limni ro'molcham bilan artishga kirishdim.

Komron:

— Mayna qilyapsan-a, yaramas, — dedi. — Mana, hozir birga uchishamiz, ko'ramiz...

Komron chaqqon bir harakat bilan pidjagini yechib, Mujgonning qo'liga irg'itdi.

Xolam derazadan:

— Hoy, Komron, bolalik qilma. U shayton qizga bas kelolmaysan, o't-betingni mayib qiladi! — deb qichqirdi.

Bolalar tomosha qiziq bo'lishini sezib, chetga chiqishdi. Biz arg'imchoq yonida yolg'iz qoldik.

Bo'lam kulib:

— Nimaga qarab turibsan, Farida, qo'rqtyapsanmi? — dedi.

Bu safar yuziga qarashga yuragim betlamay:

— Nega qo'rqrar ekanman, — dedim-u, arg'imchoqqa osildim.

Arqon g'ijirladi, arg'imchoq sekin-sekin harakatga keldi.

Men ehtiyot bilan harakat qilar, uchishning nihoyatda og'ir bo'lismeni sezganim uchun kuchimni tejar, tizzalarimni asta-sekin bukish bilan kifoyalanan edim.

Sur'atimiz orta borib, daraxt larzanglay, yaproqlari shitirlay bordi.

Ikkalamiz ham tishlarimizni qisib, bir og'iz gapirguday bo'lsak kuchdan qoladigandek, Jim uchar edik.

Harakat sarxushligidan sekin-sekin boshim aylanib, o'zimdan ketib bordim.

Komronning boshi birdaniga barglarga borib tegdi, uzun sochlari peshonasiga to'zg'ib tushdi.

Kinoyali tovush bilan:

— Pushaymon bo'la boshladingiz shekilli? — deb so'radim.

U ham kulib:

— Kim pushaymon bo'lismeni ko'ramiz hali, — dedi.

To'zg'igan sochlari orasida porillab turgan yashil ko'zlari menda g'alati bir kin, sitam uyg'otdi. Kuchimning boricha tizzalarimni bukib, arg'imchoqqa sur'at berdim. Endi har borib-kelishimizda boshlarimiz barglar ichiga kirib-chiqar, sochlarmiz bir-birimiznikiga aralashib ketardi. Bir mahal xuddi tushdagiday xolamning: "Bas, bas!" degan qichqirig'ini eshitdim.

Buni Komron ham takrorladi:

— Bas-a, Farida!

— Buni sizdan so'rash kerak, — deb javob berdim.

— Menden so'ralsa: yo'q, — dedi. — Mujgondan eshitgan ajoyib narsalarimdan so'ng mening charchashim mumkin emas...

Tizzalarim birdaniga bo'shashdi, arqon qo'limdan chiqib ketishidan qo'rqedim.

Komron so'zini davom qildi:

— Buni sendan kutmagan edim. Bu yerga seni deb kelgan edim, Farida, — dedi.

Harakatdan qolganimga qaramay, arg'imchoq hamon boyagi tezlikda uchardi. Qo'llarimni arqon orqasidan o'tkazib, panjalarimni bir-biriga kirishtirdim.

— Tushaylik endi, yiqilamiz, — deb yalindim.

U holimni sezmadni.

— Yo'q, Farida, yiqilib o'lsak o'lamicki, menga tegishga rozi bo'liganligingni o'z og'zingdan eshitmay turib seni bo'shatmayman, — dedi.

Lablari sochlarmi orasidan peshonamga, ko'zlarimga tegib ketar edi. Tizzalarim bukil-di, bir-biriga kirishgan panjalarim ochilib, qo'llarim arqon atrofida salanglay boshladи. Komron meni shu asnoda ushlab qolmasa, yiqilishim turgan gap edi. Lekin meni saqlab qolishga kuchi yetmadi. Salmog'i buzilgan arg'imchoq arqoni birdan aylandi-yu, biz yerga gursillab yiqildik.

Picha hushimdan ketib yotganimdan so'ng ko'zlarimni ochsam, xolamning quchog'ida yotibman. Xolam ho'l ro'molcha bilan chakkalarimni silar:

— Bir yering og'riyaptimi, qizim? — deb so'radi.

Boshimni ko'tarib:

— Yo'q, xola, — dedim.

— Bo'lmasa, nega yig'laysan?

— Yig'ladimmi, xola?

— Ko'zlariningdagi yoshlар-chi?

Boshimni xolamning ko'ksiga bosdim.

— Yiqilmasdan avval yig'lagan bo'lsam kerak, xola,— dedim.

* * *

Uch kundan so'ng Oysha xolam bilan Mujgon ham dasturxon tuzab, biz bilan Istambulga jo'nadi. Basima xolam kelishimizni o'g'lining xatidan bilib, Najmiya ikkovi bizni G'alata stantsiyasida kutib oldi.

Unashilganining dastlabki haftalarini hammadan qochib o'tkazdim. Ko'proq Komron dan o'zimni tortar edim. U men bilan yolg'iz qolishni, birga aylanishni, gaplashishni xohlardi. Bilaman, har bir unashilgan yigit kabi uning bunga haqqi bor edi. Faqat nima qilayki, men dunyodagi unashilgan qizlarning eng g'alatlisi, eng yovvoyisiman. Komron ning ro'para kelayotganini ko'rdim deguncha hurkkan ot singari potirlab qochar, shu ko'yi ko'rinish bermay ketar edim.

Mujgon orqali bir ultimatum berdim. Ro'para kelganimizda men bilan unashilgan kishiday gaplashmasin, dedim. So'zimga kirmasa, hamma ishni buzaman, deb qasam ichdim.

Mujgon, Taqirdog'idagi singari, bu yerda ham yotog'imga tez-tez kirib nasihat qilardi.

— Nega bunday jinnilik qilasan, Farida? — deyardi. — Uni o'lguday yaxshi ko'rishing ni-ku bilaman. Hozir sizlarning eng yaxshi vaqtlariningiz. Kim biladi, uning senga aytadigan qanday chiroli gaplari bor ekan...

Mujgon ba'zan shu bilan kifoyalanib qolmay, nozik qo'llari bilan sochlarmi silar, uning tilidan gapirardi.

Ko'rparmada shumshayib olib:

— Xohlamayman... Qo'rqaman, uyalaman, g'alati-da... Tushuntira olmayman... — deb bezillar, yonimga kelsa yig'lar edim.

Mujgon meni tashlab uxlagini ketganidan keyin Komronning so'zlarini o'z-o'zimga aytar, bu so'zlar ohangi ichida uxlab qolardim.

* * *

Xolam menga atab bir uzuk buyurtiribdi. Komron bilan unashilganimiz nishonasi qilib taqiladigan bu uzuk mening yara-chaqa barmog'imga yaqinlashtirib bo'lmaydigan dara jada ajoyib, ko'z olg'uvchi edi.

Xolam Istambulga borib kelgan kunlarining birida meni deraza yoniga chaqirib kelib, shu uzukni bir mujda kabi ko'rsatdi. Keyin ro'paradagi daraxtlar orasida botib borayotgan quyoshta tutib tovlatganda, ko'zlarimni yumib tisarildim, qo'llarimni orqamga o'tkazdim, qizarganimni ko'rsatmaslik uchun yuzimni parda orqasiga oldim.

Xolam mening muddaomga tushunmadi, suyunib bo'yniga osilmaganimga hayron qolayotganday:

— Yoqtirmadingmi yo, Farida? — dedi.

Men sovuqqina qilib:

— Juda chiroqli, xola, mersi, — dedim.

Bu qilig'imdan dili ozor topgani sezilib turardi. Lekin ozori uzoqqa bormadi. Yana kulishta boshlab:

— Qo'lingni uzat, bir taqib ko'raylik, — dedi. — Eski uzugingga o'lchatib qildirdim. Xudo xohlasa, loyiq kelar.

Xolam zo'rlik bilan tortib oladiganday, qo'limni orqamga bekitib:

— Hozir emas, xola, — dedim. — Keyin...

— Bolalik qilma, Farida.

O'jarlik bilan boshimni solintirib, oyoqlarimning uchini tomosha qila boshladim.

— Bir necha kundan so'ng qarindoshlarimizni chaqirib, kichkina ziyofat beramiz. Unashganimiz nishonasini taqamiz.

Yuragim tipirlay boshladи.

— Xohlamayman, — dedim. — Mabodo shuni mutlaqo o'tkazish kerak deb hisoblasan-giz, mayli, matabga ketganimdan keyin o'tkazing.

Juda katta talab qo'yib yuborgan edim. Lekin xolam avzoyini sira o'zgartirmadi. Kullimsirab turib lablarini qisdi-yu, oshkora bir mazax bilan:

— Shunaqa degin? Fotiha oshida sening o'rningga boshqa birovni vakil qilib qo'yar ekanmiz-da! To'g'ri, nikohda shunday, lekin fotihada hali bunday odat chiqqani yo'q, qizim.

Munosib javob bo'limgani uchun yerga qarab turaverdim.

Xolam oladigan sabog'imning zahrini yumshatish niyatida bir qo'li bilan belimdan ushladi, ikkinchisi bilan betimni, sochlarmi, peshonamni silab turib:

— Farida, aylanay, endi bolalikni tashlash payti keldi, — dedi. — Endi sening xolanggina emas, onang hamman... Bundan juda xursand ekanligimni aytib o'tirishning hojati bo'lmasa kerak? Sen Komron uchun xulq-atvori bizga ma'lum bo'limgan har qanday yot qizdan ming chandon a'losan. Faqat... Faqat bir oz havoyisan. Bolalik chog'larda buning unchalik zarari yo'qdir. Lekin kun sayin o'syapsan. O'sgan saring, albatta, aqling ham oshadi, o'zing ham og'ir-bosiq bo'lsan. Matabingni bitirib uylangunlaringcha, eh-ha, hali to'rt yil bor. Ozmuncha vaqtmi! Shunday bo'lsa ham, sen unashilgan qizsan. Nima demoqchiligidagi, qaydam, anglata oldimmi? Og'ir-vazmin, jiddiy bo'lising kerak. Bola-likka, sho'xlikka, o'jarlikka xotima ber. Komronning qanchalik muloyimligini, tabiatini, hissi qanchalik nozikligini bilasan.

Har bir so'zi qulog'imda qolgan bu o'gitda haqiqatan ham yoqib-kuydiradigan biror narsa bormidi? Buni shu bugun anglab turganim yo'q. Lekin nima qilay, xolam meni o'g'li uchun bir oz kamsitayotganligini sezib turgan edim.

O'gitlarining qanday ta'sir qilganligini bilmoxchi bo'lganday:

— Endi pisanda qilib olishdik, shundaymi, Farida? — dedi. — Qarindosh-urug'ni, birikkita yor-do'stlarni chaqirib, fotiha to'yi qilamiz.

O'zimni gullar, bezaklar bilan yasatilgan stol oldida, hozirgacha men hech taqib ko'rmagan bezakda, butunlay boshqa sochlari, boshqa chehrada uning yonida o'tirgandek ko'rdim. Hammaning ko'zi bizda...

Birdan titrab, tipirchilab qichqirdim:

— Yo'q, bo'lmaydi, xola!

Shu faryod bilan yugurib chiqib ketdim.

Mujgon shu kunlarda men uchun opadan ortiq bir narsa, ona darajasida edi. Kechalari yotog'imizda yolg'iz qolgan kezlarim chiroqni o'chiraman-da, uning kechinmalardan ozgan vujudini quchoqlayman, javob bermasin deb og'zini qo'lim bilan to'sib yolvoraman.

— Dunyoda eng rahmim kelgan, eng mazax qilgan odamlarim unashilgan qizlar edi. Men o'shalarning biri bo'lib qoldim. Ularga yalin. Hech kim meni unashilgan qiz demasin. Uyalaman, qo'rqaman, men hali yosh bolaman. Oldimizda hali to'rt uzun yil bor. Unga-cha katta bo'laman, ko'nikaman. Menga hech kim unashilgan qizga qilinadigan muoma-lani qilmasin.

Nihoyat, Mujgon og'zini qo'limdan bo'shatdi. U:

— Xo'p, — dedi. — Lekin bir shart bilan. Avvalo, men bilan bo'g'ishmaysan, qolaversa, uni yaxshi ko'rganiningni faqat o'zimga, faqat o'zimgagina yana bir marta aytasan.

Shu dam yuzimni Mujgonning bag'riga bosib, boshim bilan ustma-ust bir necha marta "ha" ishorasini qildim.

* * *

Mujgon va'dasida turdi. Uydagilar ham, tashqaridagilar ham unashilganimni betimga

solmas edi. Tishimga tegadigan chiqib qolsa, yaxshilab ta'zirini olar, darhol nafasi ichiga tushib ketardi. Hatto shulardan biri bir kuni og'ziga yengilgina shapati ham yedi. Xayriyatki, begona emas, bo'lamning o'zginasi! Men uni shapatilashga tamom haqli edim. Lekin xudo saqladi. Basima xolam bilib qolguday bo'lsa, kim biladi, boshimga nima o'yinlar solardi ekan!

Shunday bo'lsa hamki, o'zimni chorbog' ichra rohatda sezmasdim. Masalan, mavqeim ortGANI uchun kunlardan bir kuni meni izzatli xonalarning biriga ko'chirishdi. Pardalarimni, karavotimni, javonimni o'zgartirishdi. Men ham, tabiiy, bularning sababini so'rashga botinolmadim.

Bir kuni aravaga tushib, Merdivon qishlog'idagi to'yga ketayotgan edik. Aravada odam ko'p ekan. Joy topolmay:

— Aravakashning yoniga chiqib ola qolay, — dedim.

Odamlar qah-qah urib kulib yuborishdi. Men qizarib, sekin aravaga chiqib oldim.

Eski odatimni qilib oshxonadan qoqi, meva-cheva o'g'irlagani kirganimda muttaham oshpaz:

— Ko'nglingiz xohlaganini aytavering, kichik xonim. Sizning zoti oliyangizga o'g'irlik yarashmaydi, — deb men bilan hazillashardi.

Menga hech kim bir nima demagan bo'lsa ham, ko'chadan biron bolani chaqirib kirisha yuragim betlamas edi. Faqat tishni tishga qo'yish, hammasiga chidash kerak edi. Lekin bular orasida eng chidab bo'lmaydigani Komron edi. Chorbog'dagi so'nggi kunlarim u bilan bekinmachoq o'ynash bilan o'tdi desam bo'ladi.

U meni xoli topish paytini izlab yurardi. Men esam butun shaytonligimni ishlatib, biror yerda tanho uchramaslikka harakat qilardim.

Gohi mahallar birga sayr etaylik, deb taklif qilgan aravasiga yaqinlashmas, hech holijonimga qo'y may turib olsa, yonimizga Mujgondan boshqa biron kishini olardim-da, yo'il bo'yi o'sha bilan tinmay gaplashib ketar edim. Mujgondan boshqasini dedim. Ha, Mujgonning meni u bilan qoldirib qochmasligiga yoki o'rinsiz bemazagarchiliklar qilmasligiga ishonchim yo'q edi.

Bir kuni Komron:

— Bilasanmi, Farida, mening baxtimni qaro qilyapsan, — dedi.

Men o'zimni tutolmay:

— Halitdan-a? — dedim.

Bu savolni shu qadar qiziq so'rabmanki, ikkovimiz ham kulib yubordik.

— Mujgonga aytgan so'zingni o'z og'zingdan ham bir eshitishni istar edim. Bunga haqqim bo'lsa kerak, deb o'ylayman, — dedi.

Mujgonga nima deganim esimda yo'qday, yolg'ondan ko'zlarimni osmonga ko'tardim, o'ylandim, keyin:

— Ha, — dedim, — ammo Mujgon qiz bola, Joriyangiz ham, o'ylaymanki, shunday. O'rtamizda o'tgan har qanday narsa har kimga aytilmaydi.

— Men har kimmanmi?

— Yanglish tushunmangiz. Ruxsoringiz bir oz xotin kishinikiga o'xshasa hamki, erkak-siz. Demak, qiz o'rtoqqa aytildigan har qanday narsa erkak kishiga aytilmaydi.

— Men unashilgan kishing emasmanmi?

— Endi aytmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi. Bilasizki, men bu so'zni yoqtirmayman.

— Ana ko'rdingmi, o'zimni baxtsiz deb to'g'ri aytgan ekanman. Balki yana og'zimga urarsan, deb bu so'zni aytishga jasorat etolmayman. Lekin senga nisbatan ko'nglimda shunday bir tuyg'u borki...

Necha vaqtlardan beri tutqich bermayotgan qopqonimga ilinish ustida ekanimni angladim. Gapisam yo tovushim titrashi, yo boshqa biron nojo'ya ish qilib qo'yishim mum-

kin. Komronning so'zini og'zida qoldirib, ko'chaga yugorganimcha chiqib ketdim.

U ham orqamdan yugurib kelyapti, deb o'ylagan edi. Lekin sharpasi eshitilmagandan keyin sekinlashdim, bir ozdan keyin esa yo'lini qilib orqamga qaradim. U daraxtlardan birining tagidagi qamish kursida o'tirgan edi.

O'z-o'zimga:

— Yaxshi ish qilmadim-da, — dedim.

Komron shu chog' menga qarasa, pushaymon bo'Iganimni ko'rardi-yu, yonimga kelardi, deb o'ylayman. Kelganda rosti, men ham qochmas edim.

Bo'lamning o'tirishida chindan ham baxti qaro bo'Igan kishining avzoyi bor edi. O'zimga dalda berish uchun so'zlay boshladim:

— Yigit o'Igur, sariq chayon. Shu bog'da baxtiyor tulning etagi orqasidan qanchalik yugorganingni esimdan chiqarganim yo'q. Ajab qildim.

* * *

Ta'tilning so'nggi kunlarida boshimga tushgan savdoni ham aytmasdan o'tolmayman.

Bir kuni o'ng qo'limning barmog'ini kattakon latta bilan bog'lab olganimni chorbog'da-gilar ko'rib qolishdi. Sababini so'raganlarga:

— Hechqisi yo'q, jindek yerini tilib oldim, tuzalib ketadi, — dedim.

Xolam yarani o'jarlik bilan yashirganimni sezib:

— Yana bir balo qilgansan-da. Yomondirki, yashirasen. Doktorga ko'rsataylik, keyin boshimga balo bo'lmasin, — dedi.

Voqeа bunday bo'Igan edi: bir kuni xolam meni yotoqxona javonidan bitta ro'molcha olib chiqqani yubordi. Javon tortmalaridan birida moviy baxmal qoplangan bitta quticha ko'rib qoldim. Undan unashilganim belgisi qilib olingan uzuk chiqdi. O'shani barmog'imga taqib ko'rgim keldi, taqdim ham, lekin bu havas menga juda qimmatga tushdi. Xolam qo'rqqandek, uzuk bir oz tor qilib qo'yilgan ekan; barmog'imdan chiqmay turib oldi. Befoya hayajon bilan uni chiqarishga urindim, bo'Imagandan keyin tishimni ishga soldim. Bundan ham hech nima chiqmadi. Tirmashgan sarim barmog'im shishib, uzuk qisilib bordi.

Xolamga aytsam-ku, albatta, bir chorasin topishar edi. Lekin shu uzuk bilan qo'Iga tushish vahmi, negadir nafsoniyatimga tegar edi. Shuning uchun barmog'imni darrov latta bilan bog'lab oldim. Rosa ikki kungacha o'z hujramga kirib, bekinib yurdim. Lattani yechib tashlab soatlarcha urindim. Uchinchi kuni haqiqatni xolamga aytaman deb turganimda, uzuk o'z-o'zidan chiqib ketsa bo'ladi! Nima sabab bo'ldi? Harholda, shu o'tgan ikki kun ichida ezilib-siqilganidan ozib qolgan bo'lsam kerak.

Ta'tilning oxirgi kunida yo'l taraddudiga tushdim. Komron bunga norozi bo'ldi.

— Bunchalik shoshilishning nima hojati bor, Farida? Yana bir necha kun tursang bo'la-di-ku, — dedi.

Lekin men ibratli o'quvchiday, ko'nmadim.

— Murabbiyalar, maktab ochilgan kuni, albatta, kelasan, deb tayinlashgan. Bu yil darslar og'ir bo'ladi, — deb bolalarcha bahonalar qildim.

Komron bu tersligimni ko'rib, yana battar qayg'uga tushdi.

Ertasi kuni meni maktabga olib ketayotib ham hech gapirmadi. Faqat ayrilish chog'imizda:

— Menden bunchalik tez qochib ketishingni kutmagan edim, Farida, — deb o'pkaladi.

* * *

Aslida esa aqli-hushi boshida, tirishqoq o'quvchi emasdim. Innaykeyin, boshimga tushgan savdolar meni tamom shosirib qo'yan edi.

Dastlabki uch oy baholarim juda yomon bo'ldi. G'ayrat qilib o'zimni qo'lga olmasam, sinfda qolishim turgan gap edi.

Yetuklik tabellari tarqatilgan kuni kechqurun Aleksi opa meni burchakka tortib:

— Baholaringiz yoqdimi, Farida? — deb so'radi. Badbin bir alfozda boshimni silkitib:

— Ancha yomon, ma soeur, — dedim.

— Ancha emas, butunlay. Sizning shunchalik yomon o'qiganingizni hech ko'rмаган edim. Aksincha, bu yil yaxshiroq o'qirsiz deb kutgan edim.

— To'g'ri aytasiz. Bu yil o'tgan yilgidan bir yosh ulg'aydim.

— Faqat shuginami?

G'alati! Aleksi opa betimni silar, tagdor qilib kulardi. Nima qilishimni bilmay, ko'zlarimni olib qochdim.

Voy bu murabbiyalar-e! Dunyo ishlariga hech qiziqlaymaydigan ko'rinishsa ham, mayda-chuyda g'iybatlarga xabardor bo'lib turadilar. Kimdan bilishadi? Qanday bilishadi? Oralarida o'n yil yashaganimga, savdoyi qiz bo'limganimga qaramay, bunga hech tushuna olmas edim.

Bir bahona bilan o'zimni qutqazish payiga tushganimda Aleksi opa yana shama qildi:

— Tabeldagi baholaringizni birov larga ko'rsatishdan uyalarsiz deb o'ylayman, — dedi. Keyin orqasidan tag'in bir ta'na toshi otdi: — Bu yil sinfdan o'tmasangiz, bu yerda yana bir yil, uzun bir yil qolish xavfi ham bor.

Ko'rdimki, hujumga o'tmasam, Aleksi opadan osonlikcha qochib qutulolmayman. Chor-nochor yuzsizlik qilib, yasama soflik bilan:

— Xavfi bor deysizmi? Nimaga xavfi bo'ladi? — deb so'radim.

Aleksi opa ayollar g'idi-bidisining uchiga chiqqani edi. Bundan ziyodasi men bilan yuzma-yuz kelish, ochiqchasiga gaplashish degan so'z bo'lardi. Yengilganini sezdirmaslik uchun nozli bir karashma bilan betimga sekin urib qo'ydi. Keyin:

— Uni o'z aqling bilan topib olarsan, — deb ketaverdi.

* * *

Mishel bu yil mакtabda yo'q edi. Bo'lsa, meni albatta gapga solar, miyamdagи parisionlikni mutlaqo orttirar edi.

Bir yil avval o'zim to'qigan hikoyani aytib tushganimda qanchalik erkin, jo'shqin bo'lsam, bu yil unashilgan qiz vaziyatiga tushganimdan keyin shunchalik qo'rkoq bo'lib qoldim. Dugonalarimdan meni tabriklaganlarni qisqa, quruq tashakkur bilan jo'natar, yaqinlashish maylini ko'rsatganlardan yuz o'girib ketar edim.

Faqat bittasi, biz yoqlardagi armani doktorning qizi, o'jarligimni yengishga muvaffaq bo'ldi. Dam olish kunlarini maktabda o'tkazdim. Uch oy ichida uyga ikki, yo uch martagina bordim.

Sababini o'zim ham uncha bilmagan bu o'jarligim Basima xolam bilan Najmiyani tajang qilar, Komron esa nima deb o'ylashini, qanday chora ko'rishini bilmay qiyalar edi. U dastlabki oylarda maktabga har hafta ko'rgani kelib turdi. Murabbiyalarim og'izda bir nima deyishmasa ham, unashilgan yigitning o'quvchi qiz bilan kelib ko'rishishiga jahllari chiqar, bo'laming meni dahlizda kutib turganini aytib, yuzlarini burishtirar edi.

Men odatda dahliz eshigining bir tavaqasini jo'rttaga ochib qo'yar, unga suyanib, qo'llarimni fartugimning qayish kamariga suqqanim holda jilla bo'lsa besh minut tik turib gaplashardim. Bo'lam ora-sira xat yozib turish istagi borligini aytgan edi. Lekin men, murabbiyalarimiz tashqaridan keladigan xatlarni turkcha biladiganlardan bittasiga o'qitti-rib, keyin yirtib tashlashadi, degan bahona bilan bu fikridan qaytardim.

Shu ko'rinishlarning birida oramizdan qora mushuk o'tgani hali-hali esimda. Komron uzoq turmaganimga jahli chiqib, eshikni zo'rlik bilan yopib qo'ymoqchi bo'ldi. Lekin men

yo'l qo'ymasdim: yaqinlashganda tashqariga otilib chiqishga xezlanib, sekingina:

— Iltimos qilaman, Komron, xonada ko'rinish-ko'rinishmay turgan teshik qancha bo'lsa, shuncha ikki ko'z ham bor, buni bilib qo'yishingiz kerak, — dedim.

U birdan to'xtadi.

— Bu qanday gap, Farida? Biz axir unashilgan kishilarmiz-ku! — dedi.

Sekin yelkamni qisdim:

— Aslida ishni shu narsa buzayotibdiku-ya, — dedim. — Bir kun emas, bir kun "Ko'ri-shishlaringiz juda boshqacha bo'lyapti. Kechirasiz, bu yerning maktab ekanligini esdan chiqarmang", qabilida so'z eshitishni xohlamasangiz...

Komron oppoq oqarib ketdi va shu kundan boshlab maktabga oyoq bosmay qo'ydi.

Bu ishim haqiqatan ham yaxshi emasdi. Lekin boshqa choram bo'lmasa nima qilay? Komron oldidan qaytib kelib sinfga kirishim, hamma menga o'girilib qarashi yuragimni ezmay qolmasdi.

Nima deyayotgan edim? Ha, doktorning qizi dam olish kunlarining birida qaytib kelib:

— Komronbey Yevropaga ketarmish, shundaymi? — deb so'radi.

Men nima deyishimni bilmay shoshib qoldim.

— Qaerdan eshitding? — dedim.

— Otamdan, Madriddagi amakisi chaqirtiribdi.

"Qaydam" deyishni g'ururim ko'tarmadi.

— Ha, shunday bir niyati bor, picha sayohat qilib kelmoqchi edi, — dedim.

— Sayohat nimasi, elchixonaga sekretar bo'larmish-ku.

— Vaqtinchha.

Suhbatni shu yerda bo'lib tarqaldik. Dugonamning otasi chorbog'imizdan oyog'i uzilmagan bir kishi edi. Shuning uchun bu gapning to'g'riligiga shubha qilmadim. Lekin bu narsani menga bildirishmaganiga hayron bo'ldim. Kunlarni hisobladim. Chorbog'dan xabar olmaganimga yigirma kun bo'libdi.

O'sha kechasi faqat shu narsani o'ylab chiqdim. Komronqa qilgan bema'ni sitamlarim uchun achinar, shunchalik muhim bir narsani menga aytmaganini o'ylab, yuragimdan ezilar edim. Harholda biz bir-birimiz bilan bog'langan kishilar edik.

Ertasiga payshanba edi. Havo ochiq bo'lGANI uchun tushdan keyin aylangani chiqishimiz kerak. Lekin ichim pishib qiynda boshladim. Shunday ezguvchi o'ylar bilan yana bir kunni o'tkazish fikri meni qo'quvgan soldi.

Mudiraning oldiga bordim-da, xolamning betobligini aytib, ruxsat so'radim.

Xudodan aylanay, shu kuni murabbiyalardan biri Qartolga ketayotgan ekan. Erenko'y stantsiyasigacha birga ketish sharti bilan mudira iltimosimni qondirdi.

Qo'limda bitta kichkina chamardoncha bilan chorboqqa kirib borganimda qorong'i tu-shay deb qolgan edi.

Eshikda meni chorbog' iti kutib oldi. Bu qari it nihoyatda ochko'z, yopishqoq edi. Cho'ntagimda hamisha, yaxshimi-yomonmi bir narsa borligini bilgani uchun yo'llimni to'sar, oldingi oyoqlariga turib olib tisarilib borar, menga yopishishga urinardi. Komronning ham daraxtlar oralab men tomon kelayotganini ko'rdimu, darrov cho'kkalandim. It egnimni kir qilmasin, deb iflos oyoqlaridan ushlab turdim.

U so'loqmon og'zini uliyotgaday ochib, tilini osiltirar, men esam burnidan qisardim. Xullas, o'rtamizda o'yingga, talashmaga o'xhash bir narsa borar edi.

Komronni faqat yonimga kelgandagina ko'rgan kishiday:

— Buning kulishiga qarang, — dedim. — Og'zi muncha katta-ya, timsohnikiga o'xshamaydimi?

U lablarida zaharxanda tabassum bilan menga qarab turardi.

Itni qo'yib yuborib etaklarimni qoqdim. Qo'llarimni ro'molcham bilan artganimdan

so'ng birini bo'lamga uzatdim.

— Bonjur, * Komron, xolam qalay? Ahvoli og'ir emasdir, inshoollo...

U xiyol taajjubga tushib:

— Oyimmi? — deb so'radi. — Oyim soppa-sog'. Kasal deb eshitdingmi?

— Ha, kasal deb eshitdim, xavotir oldim: yakshanbani kutmay so'rab keldim.

— Senga kim aytdi?

Yana bitta yolg'on gap topishga fursat qolmagani uchun:

— Doktoring qizi, — dedim.

— O'sha shunday dedimi?

— Ha, gaplashib turgan edik, so'z orasida: "Otamni sizlarnikiga chaqirtirishibdi, xolangiz betob shekilli", — dedi.

Komron hayron bo'lib qoldi.

— Yanglishgan. Doktor keyingi kunlarda oyimni ham, boshqani ham ko'rgani kelgani yo'q.

Bu qaltis gapni uzoq cho'zib o'tirmadim.

— Xayriyat, juda yomon tashvish qilayotgan edim, — dedim. — Ular ichkarida bo'lsalar kerak, albatta?..

Chamadonimni yerdan olib yurmoqchi bo'lgan edim, Komron qo'lidan ushladi.

— Nega shoshasan, Farida? Hamisha mendan qochasan, — dedi.

— Nega endi? — dedim. — Tufligim siqyapti-da... Innaykeyin, ichkariga birga kirmaymizmi axir?

— Birga kiramiz, lekin u yerda, hoynahoy, hamma bilan gaplashishga majbur bo'lamiz. Holbuki, sen bilan yolg'iz gaplashmoqchi edim.

Hayajonimni yashirish uchun hazil-mutoyiba qilib:

— Ixtiyorningiz, — dedim.

— Mersi. Unday bo'lsa, agar xohlasang, hech kimga ko'rinish bermay hovlida bir oz aylanaylik.

Qochib ketishimdan qo'rqayotganday, qo'limgni qo'yib yubormas edi. Chamadonchamni qo'liga oldi. Yonma-yon yurib ketdik. Bir-birimizga unashilganimizdan beri birinchi marta yonma-yon...

Yangi tutilgan qush yuragi qanday potirlasa, meniki ham shunday potirladi. Shundayki, qo'limgni qo'yib yuborganida ham qochishga qurbim yetmasmidi deb o'ylayman.

Bir-birimizga bir og'iz ham so'z aytmay hovlining to'rige bordik. Komron o'ylaganidan ortiq xafa, ezgin ko'rinaridi. Bu uch oy ichida nimalar bo'lganini, oramizda qanday o'zgarish yuz bergenini bilmayman. Faqat hozir uning oldida o'zimni aybdor deb hisoblar, shu damgacha qilgan yovvoyiligidan uchun pushaymon bo'lar edim.

Qish o'rtasi bo'lsa ham go'zal, jimjit oqshom edi. Atrofimizdag'i quruq tog' tepalari oltin marjon kabi tovlanardi. Menda Komronga nisbatan uyg'ongan maylda bu manzara ning ham hissasi bormidi, bilmayman.

Shu dam uning ko'nglini oladigan biron so'z topish istagi qalbimning yondiruvchi ehtiyojiga aylandi. Lekin miyamga hech narsa kelmas edi.

Endi orqaga qaytishdan boshqa choramiz qolmagandan keyin Komron:

— Shu yerda bir oz o'tirsak qalay bo'lar ekan, Farida? — dedi.

— Ixtiyor senda, — dedim.

Unashilganimizdan keyin uni birinchi marta sensirashim edi.

Komron shimiga ham parvo qilmay o'sha yerdagi bir tosh ustiga o'tirdi. Men darrov qo'lidan ushlab turg'izdim.

— Sen noziksan, quruq yerga o'tirma, — dedim-u, ustimdagi ko'k paltoni yechib tagiga soldim.

Komron ko'zlariga ishonmas edi.

— Nima qilyapsan, Farida? — dedi.

— Tag'in og'rib-netib qolmagin, — dedim. — Mundog' o'ylab ko'rsam, seni asrash bunday keyin mening burchim ekan.

Bo'lam bu safar ham quloqlariga ishonmadi shekilli:

— Nimalar deyapsan, Farida? — dedi. — Shu so'zlarni sen aytyapsanmi? Unashilganimizdan keyin sendan eshitgan eng shirin so'zim.

Boshimni engashtirib, jim turdim.

Komron paltomni qo'liga oldi. Silayotganday bir harakat bilan yenglariga, yoqasiga, tugmalariga tegar edi.

— Senga bir oz sitam qilish niyatida edim, Farida. Endi fikrimdan qaytdim, — dedi.

Ko'zimni yerdan olmasdan:

— Senga hech yomonlik qilganim yo'q edi-ku, — dedim.

U meni yana yovvoyi qilib qo'yishdan qo'rqayotganday, yonimga yaqinlashishdan bezillab:

— Fikrimcha, qilding, Farida, — dedi, — hatto ziyoda qilding. Unashilgan kishisini shunaqa oyoqosti qiladilarmi? Ko'nglimga yomon gaplar keldi. Qaydam, Mujgon yanglishgan emasmikan?

Nochor kuldim. Komron ajablanib sababini so'radi.

Dastlab javob bergim kelmadni. U qo'ymagandan keyin esa ko'zlarimni olib qochib:

— Mujgon yanglishgan bo'lsa, bunchalik bo'lmas edik, — dedim.

— Bunchalik nimasi? Ya'ni unashilganimizmi?

Ko'zlarimni yumib turib ikki marta boshimni silkidim.

— Faridam!

Kichik bir faryodga o'xshagan bu ovoz hali-hali quloqlarimda. Ko'zlarimni ochdim-da, uning kattayganday ko'ringan ko'zlarida yirik yosh tomchisini ko'rdim.

— Meni shu dam shunchalar baxtiyor etdingki, o'layotganimda ham esimga tushsa yig'layman. Yuzimga bunday boqma. Sen hali juda kichiksan. Iloj yo'q, sen unday narsalarni anglamaysan. Hamma ginalarni unutdim endi.

Komron bilaklarimdan ushlab turardi. Men ham tortib olmadim, faqat ho'ngrab yig'lay boshladim. Bu shunday yig'i ediki, Komron qo'rqib ketdi.

Boyagi yo'l bilan orqaga qaytayotganimizda ham men tez-tez xo'rsinar, hiqillab yig'lar edim. U ortiq qo'lini menga tegizishga botinmasdi. Lekin men ko'ngli jo-yiga tushganini sezib, xursand bo'ldim.

Chorboqqa yaqinlashganimizda:

— Sen oldin kir. Men hovuzda yuzimni yaxshilab yuvib olay. Meni shu ahvolda ko'risha nima deyishadi? — dedim.

* * *

Birdan esimga tushganday qilib Komrondan so'radim:

— Yevropaga sayohat qilarmishsan, rostmi?

— Shunday bir fikr bor. To'g'risi, meniki ham emas, Madriddagi amakimning xayoli, — deb javob berdi. — Qaerdan eshitding?

Bir oz ikkilanib turganimdan so'ng:

— Doktorning qizidan, — dedim.

— Doktorning qizi senga muncha ko'p xabarlar yetkazib turar ekan, Farida?

— ...

Komron diqqat bilan yuzimga qarab turardi. Qizarib, boshimni o'girib oldim.

— Menga qara, oyimning kasalligi ham bahona bo'lmasin tag'in?

— ...

— To'g'risini ayt, Farida. Shuning uchun kelganmiding?

Yonimga yaqinlashgan edi. Qo'llari bilan boshimni silagisi kelar, lekin hurkishimdan, yana oramizni buzadigan akslik qilishimdan qo'rqrar edi. Holbuki, men aksincha, unga ko'nika boshlagan edim. Savolini yana bir marta qaytarib aytdi:

— Taxminim to'g'rimi, Farida?

Komronning nihoyatda xursand bo'lganini sezib, "ha" ma'nosida boshimni silkitdim.

— Qanday yaxshi... Kechadan beri toleim shunchalik o'zgardiki!

Qo'llarini men o'tirgan kursi suyanchiqlariga qo'yib ustimga egildi. Bu vaziyatda to'rt tomonidan qurshalgan edim. Menga qo'l tegizmaslik uchun hiyla bilan topilgan usul o'tirgan yerimda meni kirpitikon singari hurpaytirar, yelkalarimni ko'tarib orqaga chekinar edim. Juda yaqin kelib qolgan yuziga boqmaslik uchun ro'molchamni o'ynab turib:

— Amaking nima taklif qilyapti? — deb so'radim.

— Bo'ladiganga o'xshamaydi. Meni elchixona sekretari qilib olmoqchi. Aniq bir maslagi yoki amali bo'lman erkekni erkak emas, deb hisoblaydi. Men, tabiiy, uning fikrini aytayman. "Kelajakda bir elchixona amaldori bilan Yevropaga ketish balki Faridani ham xursand qilar", deydi. Qaydam, shunga o'xshash birtalay so'zlar...

Suhbat jiddiy tus olgani uchun Komron meni qurshovidan chiqarib qaddini rostladi. Men ham darhol o'rnimdan turdim.

Suhbatimiz uzilmadi.

— Bu taklifni nega "bo'ladigan gap emas" deding? Yevropaga borsang xursand bo'lmaysanmi?

— Bu tomonini aytayotganim yo'q. Bundan keyin men ko'ngliga nima yoqsa qilaveradigan kishi emasman. Hayotimga aloqasi bo'lgan har bir narsani sen bilan maslahatlashishga majburman. Shunday emasmi?

— Unday bo'lsa keta berasan.

— Demak, Istambuldan ketishimga rozisan, a, Farida?

— Demak, erkak kishi uchun biron maslak zarur bo'lsa...

— Mening o'rnimda bo'lsang sen ketarmiding?

— Ketardim deb o'ylayman. Buning ustiga sen ham shunday qilishing kerak, deb o'ylayman.

E'tirof qilishim kerakki, bu so'zlarni yolg'iz tilim aytar edi. Dilimda esa o'sha dam butunlay boshqa narsani aytmoqda edim. Haqiqatda, meni ham tushunish kerak. "Seni tashlab ketaveraymi?" deguvchiga boshqacha javob berib bo'ladimi?

Ikkinchidan, Komron ham bu ayrılıqni shu qadar oson qabul qilganimga hayron edi. Menga qaramasdan uy ichida bir-ikki odim yurgandan so'ng qayrilib, boyagi savolni yana qaytarib berdi:

— Demak, amakimning taklifini qabul qilsam, seningcha to'g'ri bo'ladi?

— Ha.

Komron tin oldi:

— Ha, bo'lmasa o'ylab ko'ramiz. Uzil-kesil bir qarorga kelish uchun hali vaqtimiz bor.

Yuragim yengilgina dukurladi. "O'ylab ko'ramiz" degandan keyin yana qanday gap bo'lishi mumkin?

Odamlar har doim mendan talab qilgan bir og'irlik bilan so'z boshladim:

— Bu ishda yana o'ylab ko'radigan narsa borligini sezmayapman. Amakingning taklifi ham yomon bo'lmaydi.

— Amal degan narsa qisqa bo'ladimi, Farida?

— To'g'rirog'i, uzoq ham bo'lmaydi. Atigi bir, ikki, uch yo to'rt yildir. Ko'z ochib-yumguncha o'tib ketadi. Innaykeyin, orada kelib turasan ham...

Bir, ikki, uch, to'rt yilni barmoqlarim bilan shu qadar oson sanardimki...

* * *

Bir oydan so'ng Komronni G'alata limanida kemaga o'tqazdik. Uni Yevropa sayohatiga tashviq etganim uchun qarindoshlarimning hammasi meni tabrik qildi. Faqat Mujgongina xursand bo'lindi. Taqirdog'idan menga yozgan xatida: "Yaxshi ish qilmabsan, Farida. Rozi bo'lmasliging kerak edi. Eng yaxshi vaqtlariningizni ayriliqda o'tkazishdan nima ma'no bor? To'rt yil darrov o'tib ketadigan vaqtmi?" debdi.

Lekin bu to'rt yil Mujgon qo'rqqanidan ancha tez o'tdi.

Komron pensiyaga chiqqan amakisi bilan Istanbulga butunlay qaytib kelganda, maktabni bitirib chiqqanimga bir oy bo'lgan edi.

Maktabdan chiqish! Men u yerda yashab turgan paytlarimda bu olaqorong'i binoga kaptarxona, deb ot qo'ygan edim. Qo'limda yaxshimi-yomonmi bir diplom bilan o'zimni tashqariga otadigan kunimning men uchun qutulish bayrami bo'lismeni aytib yurardim. Lekin kunlarning birida kaptarxona eshigi ochilganda, o'zimni, bo'yimni birmuncha uzaytirgan qora chorshaf, baland poshna tuflilar bilan ko'chaga chiqqanimda butunlay gangib qoldim. Buning ustiga xolam ham chorbog'da to'y taraddudini boshlab yubordi. Bu narsa meni tamoman shoshirib qo'ydi.

Chorbog' bo'yoqchilar, duradgorlar, bichiqchilar va uzoq yerdidan yotadigan bo'lib kelgan qarindoshlar bilan goh to'lib, goh bo'shardi. Har kim o'ziga yarasha biron ish bilan band edi. Ular hozirdan taklifnomalarini yozish, kamu ko'stlarni sotib olish uchun bozorga qatnash, kiyim tikish bilan mashg'ul. Men shoshib qolganidan ishbuzarmonlik qilardim. Biron ishga qo'l urish u yoqda tursin, boshqalarning ishiga xalal beradigan har xil bemazagarchiliklar qilardim. Menda so'nggi telbalik xuruji boshlangan edi. Burungiday mehmonlarning bolalarini tevaragimga to'plab, chorbog'ni boshimga ko'tarardim.

Hamma yerdagi singari oshxonada ham remont, bo'yoq ishlari borardi. Shuning uchun yangi oshpaz qozon-tovoqlarini hovlining to'riga qurilgan chayлага ko'chirib, ovqatni ochiqda pishira boshlagan edi.

Bir kuni kechga yaqin oshpazning chayla oldida varaqi pishirayotganini ko'rdim. Shu on miyamga bitta shaytonlik keldi.

— Bolalar, — dedim, — sizlar shu bostirmalarning orqasiga o'tib, bekinib turinglar. Tovushlaringni chiqarmanglar. Men sizlarga varaqi o'g'irlab keltiraman.

Besh minut ham o'tar-o'tmas qo'limda bir tovoq varaqi bilan kichkina o'rtoqlarim yoniga qaytib keldim.

Bolalarga tegishlarini berib, hammasini hovlining burchak-burchagiga tarqatib yuborganim va tovoqni bostirmaga berkitib qo'yganim, xayriyatamki, yaxshi bo'lgan ekan. Lekin bu narsaning oqibatini, oshpaz varaqilarni yo'qolganini bilgandan so'ng g'azabi qaynab, zir yugurishini xayolimga keltirmagan edim.

Bir ozdan so'ng oshxona chayasi oldida qiyomat qo'pti. Oshpaz: "Kim o'g'irlagan bo'lsa ham jonini bo'g'izidan sug'urib olaman!" — deb qichqira boshladi. Bolalarning yuragi chiqib ketdi. Ular mening so'zimga ham qulq solishmay qochib berishdi. Qochib, shubhasiz, yaxshi qilishdi. Chunki birpasdan keyin oshpaz bizni bilib qoldi-yu, qo'lidagi chovlisini tayoqday silkitib ustimizga bostirib kelaverdi.

Rasvo odam bolalar orasida kattasi men ekanimni ko'rди deguncha ularni qo'yib, meni quvib ketdi. Yugurib kelayotib yo'lda gursillab yiqilgandan so'ng battar jahli chiqib ketdi.

Oshpaz yangi, meni tanimaydi, shuning uchun ahvolim mushkul edi. Qo'Iga tushguday bo'lsam, o'zimning kimligimni tushuntirguncha, hech bo'lmasa ikki marta chovli zarbini yeishim, sharmanda bo'lismim turgan gap.

Chorbog' tomonga chap berishning iloji bo'lmagandan keyin chor-nochor ko'chaga

qarab urib ketdim, yo'l bo'yи chirqirab, dod solib bordim.

Xudo o'zi yorlaqadi-yu, ertalabdan beri ish bilan band bo'lgan tikuvchi xonim shogirdi Dilbar xalfa* bilan hovliga dam olgani chiqib kelayotgan ekan. Yo'l chetida ularga to'qnash keldim-u "kelyapti!" deb bo'yinlariga osildim, orqalariga yashirindim.

Dilbar xalfa oshpaz chovlisiga qo'llarini ko'tarib:

— Bu nimasi, oshpaz, jinni-minni bo'ldingmi? Axir bu kelin xonim-ku! — deb o'shqirdi.

Boshqa payt bo'lsa, bu so'z uchun Dilbar xalfani albatta yulib olardim. Lekin shu qadar qo'rqib ketgan edimki, o'zim ham bilmay unga qo'shilib:

— Xudo haqqi, men kelin jonimman, oshpaz! — deya chinqirdim.

Men bu oshpaz singari jinni, g'ayri odamni ko'rgan emasman. Oshpaz Dilbar xalfa bilan tikuvchi xonimning so'zlariga bir oz ishonmay turdi. "Yo'q, bunaqa bezori kelin bo'lmaydi. Unday bo'lsa, menga yangi shim olib berasan. Buni qara, shimning tizzasini yirtding!" dedi.

Bechora yiqilganda burnini ham yara qilib olibdi. Lekin, baraka topkur, burnimni ham to'laysan, deb turib olmadi.

Yashirib ketishga qilgan harakatlarimga qaramay, bu komediya hammaning qulog'iga yetdi va har gal ovqat ustida menga qarab-qarab qo'yish odat tusiga kirdi.

* * *

To'yga uch kun qolgan edi. Yana har kuni kechki payt o'sha mash'um hovli eshidiga, bolalar bilan arqondan sakrashib o'ynab yurganimda yangi bir hujumga uchradim. Lekin bu safargi hujum meni oshpaz qo'lidan qutqazishga harakat etgan tikuvchi xonimdan bo'ldi.

O'ttiz yilchadan beri chorborg'da kiyim tikib kelgan bu frantsuz xonim oltmis yoshli, ko'zoynakli qari qiz edi. U dunyoning eng nozik, eng shirin muomalali ayollaridan bo'lishiga qaramay, shu oqshom u ham menga olov purkadi:

— Kechirasiz, madmazel, bir necha kundan keyin sizni madam, deb atay boshlaymiz. Shu ishingiz to'g'rimi? Kiyimingizni oxirgi marta o'lchab ko'rish uchun sizni yarim soatdan beri axtaraman-a, — dedi.

Eng yomoni — Basima xolamning u bilan birga kelgani bo'ldi. Xo'mrayib turishidan, janjal chiqquday bo'lsa tikuvchining yonini olishi aniq edi.

— Pardon, madmazel, shu yerda edim, ko'p afsus, axtarganingizni bilmabman, — dedim.

Xolam indamay turolmadi. Meni yo'lga solmoqchi bo'lganda, har vaqt iyagimdan ushlab silar edi, hozir ham shunday qila turib:

— Aylanay bolam, hozir sening ovozingni, qahqahalarining birov eshitmasligi keraku, — dedi. — Uch kundan keyin ham chaqirgan mehmonlarimiz orasida yana shunday qilmasayding, deb qo'rqaman.

Harvaqt bebosh, qo'rs ko'ringanimga qaramay, o'sha kunlar qorishiq hayajonlar chan-galida talpingan va erkalanish, muloyim bo'lism ehtiyoji bilan yurak-bag'rim ezilib yurgan kunlarim edi.

Iyagimni xolamning qo'lidan chiqarmay, etagimni barmoqlarim bilan ikki yonidan ush-ladim-da, yengilgina reverans qilib, tizzalarimni bukdim.

— Xafa bo'lman, xola, — dedim, — ko'p emas, faqat uch kungina yana tishingizin tisingizga qo'yib turing. Ana undan keyin siz menga xola emas, boshqa ismli, boshqa sifatli kishi bo'lasiz. Choliqushi xolasiga qilgan sho'xligini Farida u xonim afandiga qilol-maydi. Ha, bunga jur'at etolmaydi, ko'nglingiz to'q bo'lsin.

Xolamning ko'zlariga yosh chiqdi, betlarimdan cho'lp-cho'lp o'pib:

— Hamisha onang o'rnida edim, yana shunday bo'lib qolaman, Faridam, — dedi.

Yurak to'lqinim shu darajaga yetgan ediki, men ham uni biqinlaridan ushlab azot ko'tardim, yana shu hayajon bilan betlaridan o'pdim.

* * *

Mademuazel mayda ikir-chikirlaridan boshqa kamchiligi qolmagan oq ko'ylagimni qo'liga olganda, qip-qizarib ketganligimni his etdim. Uydagilarni birma-bir silab o'pmoqqa, yolvormoqqa boshladim:

— Nima bo'ladi-ya, tashqariga chiqib tursalaringiz. Sizlarning oldingizda kiyolmayman. Choliqushini orqasidan uzun etakli ko'y lakda tovusga o'xshaganini ko'z oldilaringizga bir keltiring. Voy, qanday kulgili-ya! O'zim ham rosa kulaman-da. — Shu narsa oddiy kiyimda bo'la qolsin, deb har qancha yalinsam ham baribir dardimni hech kimga anglata olmadim.

Mademuazel qo'lida ko'y lak bilan oldimga kelganda, bamisolli birov meni tutmoqchi bo'layotgandek, o'zimni olib qochar, dir-dir titrar edim.

Tashqaridagilar to'polon ko'tarishar, kiramiz deb ichkariga suqilishardi.

— Biz oz kutinglar, iltimos qilaman, bir minutgina, keyin hammangizni chaqiraman, — deb yolvordim. Lekin ular gapimga ishonmasdilar.

— Aldaydi, yechib tashlagandan keyin chaqiradi, — deb eshik oldida baqirishardi.

Ana shundan keyin ikki tomon o'rtasida hayajonli tortishuv ketdi.

Tashqarida bolalar ham, kattalar ham aralash qichqirishadi, eshikni itarishadi, men esam bor kuchim bilan eshikni ichkaridan tortib turdim.

Supada temir nag'alli botinkalari bilan yer tepinib: "hujum... hujum... jang..." deb qichqirishgan bolalarning ovoziga butun chor bog' yugurib keldi.

Mademuazel tevaragimda parvona bo'lib:

— Voy, qo'yinglar, xudo haqqi, qo'yinglar, ko'y lak yirtiladi, — deb chinqirar, lekin ovozini hech kim eshitmasdi.

Nimayam bo'ldi-yu, bir zumda to'polon tiyildi. Eshikka oyoq dupuri yaqinlashib kela-verdi. Komronning:

— Och, Farida, menman. Mening kirishimga taqiq yo'q, tabiiy. Ammo, senga yordam qilgani keldim, — deganini eshitdim-u jahlim chiqib gangib qoldim.

Bu safar:

— Hamma kirsin, mayli, lekin sen emas. Xudo haqqi, sen ket. Bo'lmasa, xudo ursin, yig'lab yuboraman,— deb yolvora boshladim.

Lekin Komron yolvorishlarimga qulog solmadi, eshikni qattiq itarib, ikki qanotini lang ochib yubordi.

Men apil-tapil uyning bir burchiga qochdim-da, qo'limga kirgan bir paltoga chirmanib oldim.

Mademuazel yorilar darajada edi.

— Jonimni qoqay, ko'y lak xarob bo'ldi, — deb sochlarini yula boshladni.

Komron paltoni bir uchidan ushladi-da, kulib turib:

— Yengilganingga tan beraver endi, Farida. Och, ko'y lagningni ko'rayin, — dedi. Menda na ovoz bor edi va na harakat.

Bir oz kutgandan keyin yana o'tina boshladni:

— Farida, hozir ko'chadan keldim. Juda charchaganman. Meni ko'p qiynama. Ko'y laginingni shunchalar ko'rgim keladiki, o'jarlik qilaversang, zo'rlik qilish majburiyatida qolaman. Menga qara, beshgacha sanayman: bir, ikki, uch, to'rt, besh.

Komron iloji boricha kechiktirib aytgan ana shu "besh"dan so'ng paltoni tortdi-da, yuzimni ko'z yoshlari bilan yuvib o'tirganimni ko'rib, yomon ahvolga tushdi, keyin bolalarni itarib chiqarib, eshikni yopib qo'ydi.

Mademuazel hayronlikdan lol bo'lib qoldi. Komron ham qariyb shu ahvolda edi. Bir ozdan so'ng uyatli, alamli bir tovush bilan:

— Kechir meni, Farida, — dedi. — Sen bilan shunchaki hazillashmoqchi edim. Haqqim bo'lsa kerak, deb o'ylovdim. Lekin hali ham yosh bola ekansan... Meni kechirasan-da, a?

Boshimni hamon palto ichida yashirib turib javob qildim:

— Xo'p, lekin bu yerdan shu zamon chiqib ketasan.

— Bir shart bilan. Seni bog' to'ridagi qoya oldida kutaman. Esingdami, to'rt yil avval ikkalamiz o'sha yerda yarashgan edik. Bugun ham shunday qilamiz. Xo'pmi?

Bir oz ikkilanib turganimdan keyin:

— Xo'p, boraman, — dedim. — Lekin sen hoziroq chiqib ket.

Boyoqish mademuazelda ham bu g'alati tabiat kelinchak bilan so'zlashishga ortiq jasorat qolmagan edi. U og'iz ochmay ko'ylagimni yechirib olgandan so'ng, yana kalta ko'ylagimni kiydim-u, ustidan qora rang maktab fartugimni ilib, Mujgonning ham yuziga qaramay, o'z hujramga chopib kirib ketdim. U yerda ko'zlarimdag'i qizillik yo'qolguncha sovuq suv bilan yuzimni toza yuvdim. Boqqa tushganimda qosh qoraya boshlagan edi. Endi hamma gap — o'zimni hech kimga ko'rsatmasdan, uning yoniga borib olishda qolgan edi.

O'zimni aylanib yurgan kishiga solib, oshxona orqasida picha yurdim, oshpaz bilan bir-ikki og'iz so'zlashdim. Keyin sekin-sekin tashqari eshikka qarab yurdim. Maqsadim: izimni butunlay yo'qotganimdan keyin devor tagidan o'tib, uning yoniga tushish edi. Lekin...

Hamisha ochiq turadigan ko'cha eshigining oldida qora chorshafli, uzun bo'yli bir xotin kishini ko'rib qoldim. Yuzi yopiq edi. Chorbog'dan bir narsa so'rash niyati bo'lsa ham so'rashga yuragi betlamay turgandek ko'rindi.

Komron meni allamahaldan beri kutib turibdi. Chorshaf ichidan tanish yuz ko'rinishidan va meni gapga tutib qolishidan qo'rqb, yo'limni o'zgartirdim-da, daraxtlar orasiga o'zimni urmoqchi bo'ldim. Lekin u meni chaqirib qoldi.

— Oyimqiz afandim, bir oz sabr qilishingiz mumkinmi?

Nochor qaytdim, eshikka qarab yurib bordim.

— Marhamat, xonim afandi, biron xizmat bormidi?

— Marhum Sayfuddin podshoning chorbog'i shumi?

— Shu, afandim.

— Shu chorbog'da turasizmi, afandim?

— Ha.

— Unday bo'lsa, sizga bir iltimosim bor.

— Buyuring, afandim.

— Men Farida xonim afandi bilan ko'rishmoqchi edim.

Picha g'alati bo'lib ketdim. Kulib yubormaslik uchun darrov boshimni egdim. Men "xonim afandi" deyilganimni birinchi marta eshitganim uchun bu so'z menga shunday g'alati tuyuldiki...

"Farida xonim afandi" men ekanligimni aytib bo'lmas, bunga yuragim betlamas edi. Lablarimni tishlab turib:

— Juda soz, xonim afandi, — dedim, — marhamat qilib ichkariga kirsangiz, chorbog'dagilardan so'rarsiz, sizga Farida xonimni chaqirib berishadi.

Qora chorshafli xotin eshikdan kirib, yonimga kelib olgan edi.

— Sizni uchratganim ko'p yaxshi bo'ldi, qo'zim, — dedi. — Sizdan bitta yordam so'rayman. Men Farida xonim afandi bilan xilvat qilib gaplashmoqchiman, shuni aytasiz. Iloji bo'lsa, buni hech kim bilmasligi kerak

Ajablanib yuziga qaradim, ammo atrof qorong'i bo'lgani, chorshafini haligacha ochma-

gani uchun chehrasini farq etolmadim.

Bir oz ikkilanib turganimdan so'ng:

— Xonim afandi, — dedim, — g'alati ahvolda bo'lganim uchun dabdurustdan to'g'risini aytolmadim. Farida men bo'laman...

Xotin bir oz hayajonlandi:

— Komronbeyga tushayotgan Farida xonim sizmi?

— Chorbog'da bittagina Farida bor, xonim afandi,— deb kulimsiradim.

Qora chorshafli xotin birdan to'xtab qoldi. Bir ozgina avval o'zini Farida bilan ko'rishtirib qo'yishimni sabrsizlik bilan istagan holda endi ro'paramda haykalday qotib qolganiga qanday ma'no bersa bo'lardi? Ajabo, Farida men ekanligimga hali ham ishonmayotganmikan? Yo boshqa biron siri bormidi? Qiziqsinayotganligimni yashirishga tirishib, yana gapirishga majbur bo'ldim:

— Amringizga intizorman, xonim afandi.

Qiziq, chorshafli xotin hamon og'iz ochmay turardi.

Salgina oldinda, daraxtlar orasida turgan bog' skameykasiga ko'zim tushdi-yu:

— Xohlasangiz, o'sha yerga boraylik, xonim afandi,— dedim. — Hech kim bizga xalaqit bermaydi, bahuzur gaplashamiz.

Xotinning sukuti biz skameykaga borib o'tirganimizdan keyin ham davom etdi. Axiyri, qarorga kelgan bo'lsa kerak, qo'lini qattiq siltab, chorshafini ko'tardi— o'ttiz yoshlari chamasida aqlii, asabiy bir xotin chehrasi ochildi. Qorong'i tushib qolganiga qaramay, yuzi qo'rqinchli bir alfozda sarg'ayib ketganligi ko'rinish turardi.

— Farida xonim, — dedi u, — men bir eski dugonamning zo'ri bilan elchi bo'lib keldim. Lekin ustimga olgan vazifamning bu qadar og'ir bo'lismagani ekanman. Haligina sizni ko'rishga uchib turganim holda, mana endi qochib ketsam deb o'tiribman.

Vujudimga bir titroq yopishdi, yuragim qattiq dukurlay boshladi. Agar o'zimni qo'Iga olmasam, u aytganini qilib qochib ketishligini sezib qoldim. O'zimni iloji boricha xotirjam ko'rsatishga tirishib:

— Vazifa bajarilishi kerak, xonim afandi, — dedim, — buning uchun dadil bo'lish lozim. Dugonangiz meni taniydimi?

— Yo'q. To'g'rirog'i, o'zingizni ko'rmagan. Faqat Komronbeyga unashilganingizni biliadi, xolos.

— Komronbeyni taniydimi?

— ...

Endi menda ham ortiq so'rog'-u savollarga mador qolmadim. Shu dam so'roq aqlimni olar darajada meni zabun qilganiga qaramay, u chindan ketmoqchi bo'lib qo'zg'alsa, yo'lidan qaytarmas edim, deb o'ylayman.

— Menga qarang, Farida xonim. Nega birdan ikkilanib qolganimga tushunmayapsiz. Men bu yerda bo'yi yetgan bir qizga duch kelarman, deb o'ylagan edim. Mana endi ko'rsam ro'paramda maktab yoshidagi qiz turibdi. Sizni yomon xafa qilib qo'yarmikanman, deb qo'rqedim. Ikkilanganimning sababi shu.

Begona xotin menga achinayotganday ko'rindi. Bu hol nafsoniyatimga tegib, mador berdi.

O'rnimdan turdim, skameyka ro'parasidagi daraxtgaga orqamni suyadim, qo'llarimni qovushtirib sokin, hatto mag'rur bir tovush bilan:

— Bunday ahvolda ikkilanib o'tirish to'g'ri kelmaydi, — dedim. — Ko'rib turibman, gaplashadigan gapimiz muhim. Shuning uchun achinishni bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib, ochiqchasiga gapirishsak yana ham yaxshiroq bo'ladi.

Xotin mening dadilligimni ko'rib o'zini ancha o'nglab oldi, keyin shunday bir savol berdi:

- Komronbeyni juda yaxshi ko'rasizmi?
- Buning sizga nima aloqasi borligini ko'rmayapman, xonim afandi.
- Balki bordir, Farida xonim.
- Ochiq gaplashmasak, hozir aytganimdek, bir yerda depsinib turaveramiz-u, murod hosil bo'lmaydi, xonim afandi.
- Juda soz, shunday qilaylik. Sizga Komronbeyni boshqa birov ham yaxshi ko'rishini aytishga majburman.
- Yaxshi ko'rishi mumkin, xonim afandi. Komron yosh yigit, buning ustiga juda ko'p fazilatlari bor. Boshqa birov uni ko'z ostiga olgan bo'lsa, bunga hayron bo'ladijan joyi yo'q.

Biror yaproq shitir etmagan bu sokin, go'zal yoz oqshomida kutilmagan bo'ron turganligini anglar, lekin o'zimda paydo bo'lgan qandaydir bir kuch bilan unga qarshi hamla tayyorlar edim.

Xotinga aytgan so'nggi so'zlarimda bir oz istehzo ham bor edi. O'rnidan turmasdanoq o'zini to'g'rakashidan, asabiy harakat bilan chorshafining etaklarini tuzatib, skameyka taxtalarini ushlashidan — uning ham gapga tezroq xotima berish qarorida ekanligini angladim. Mashina kabi tez, ifodasiz bir tovush bilan so'zлади:

— Dastlab menga kichkina qizday ko'ringan bo'lsangiz ham, mana endi kamolot topgan, har jihatdan yetilgan qiz oldida o'tirganimni tushunib turibman. Komronbey masalasiga kelsak, sizning qadringizga yetmagan ko'rindi. Yoxud, qaydam, yetgan bo'lsa ham o'tkinchi zaiflikka uchragan, gapning qisqasi, Komronbey ikki yil bundan avval dugonam bilan Yevropada tanishadi. Endi u yog'ini aytsammi-yo'qmi, bunisini bilmayman.

Boshimni silkitdim.

— So'zlarining to'g'riliqini isbot qilish uchun ham aytin.

— Dugonamning ismi Munavvar. Eski saroy arboblaridan birining qizi. Avval birovga ko'ngil berib tekkan-u, lekin baxti ochilmagan. Keyin kasal bo'lib qoldi. Doktorlar Yevropaga yuboringlar, deb maslahat berishdi. Batamom tuzalib, endi yurtiga qaytaman deb turganda boshiga shu savdo tushadi. Komronbey bir mahal Shveytsariyaga yetib keladi. Uni izlab kelganmi, yo vazifa bilanmi, bunisini yaxshi bilmayman. O'sha yerda uchrashishi shadi. Komronbey Shveytsariyaga bir hafta turib qaytgani kelgan bo'lsa ham u yerda yaqin ikki oylab qolib ketadi. Hatto buning uchun jazo ham olgan bo'lsa kerak.

— Ijozatingiz bilan bitta savol, — dedim, — bularni menga ayttirishdan dugonangizning maqsadi nima ekan?

Begona xotin bu safar o'rnidan turishga majbur bo'ldi, qo'lqopli qo'llarini qovushtirib:

— Mana shuni aytish qiyin-da, — dedi. — Munavvar bugun sizning dushmaningiz hisoblanadi.

— Astagfirullo!

— Shunday, Farida xonim. Lekin o'zi yomon odammas. Juda ham rahmdil. Komronbey uning uchun shunchaki bir tasodif emas. U dugonamga uylanmoqchi edi. Agar bunda bir yomonlik bo'lsa, hammasi Komronbeydan. Chunki boshqa birov bilan boshi bog'li bo'la turib shu ishni qilgan. Meni kasal yotgan ko'ngilchan bir xotinning o'lib-netib qolish xavfi qo'rqtadi, uhdamga mana shunday yaramas vazifani olishga majbur qilgan sabab ham ana shu qo'rquv bo'ldi.

— Ya'ni, Komronbey unga uylanmasa demoqchimisiz?

— Yolg'on gapirib nima qilaman, ha. Munavvar bu xabardan keyin hecham yashamaydi.

— Bechoraning peshonasi sho'r ekan.

— To'g'risi, ikkalangizning ham peshonangiz sho'r.

Ortiqcha mahovat qilib yuborganini bildirish uchun qo'lim bilan ishora qilib kuldim.

— Meni aralashtirmang, siz hozircha faqat dugonangizni o'ylashingiz mumkin.

— Nega endi, Farida xonim? To'g'ri, Munavvar mening shuncha yillik dugonam. Lekin siz ham juda yaxshisiz, innaykeyin, bu ishda sizning aybingiz, gunohingiz yo'q, yosh qizsiz. Shuning uchun sizga ham achinaman.

Bu safar yana ham dag'alroq muomala qildim. Mag'rur qiyofada:

— Achinishingizga yo'l qo'ymayman! — dedim. — Fikrimcha, endi gaplashadigan gapi-miz qolmadni.

Begona xotin bir narsa axtarayotganday qo'l sumkasini ochib-yopayotganini ko'rdim. Gapga xotima berish niyatida ekanligimni ko'rib, bitta taxlog'liq qog'oz chiqardi.

— Farida xonim, so'zlarimga balki ishonmassiz, deb Komronbeyning bitta xatini olib kelgan edim. Qaydam, ko'rsangiz xafa bo'lmasmikansiz?

Xatni avval qo'lim bilan itarib tashlamoqchi bo'ldim. Lekin xato ish qilib qo'yishdan qo'rqib, uni oldim.

— Xohlasangiz sizga tashlab ketay, keyin o'qirsiz. Endi dugonamga keragi qolmadni.

Yelkalarimni qisib:

— Menga ham foydasi yo'q, — dedim. — Dugonangizga xotira bo'lib qolishi mumkin. O'zida qolgani ma'qulroq. Faqat bir zumgina ijozat bersangiz, ko'z yogurtirib chiqsam.

Qorong'i quyuqlashib qolgan edi. Daraxtlar orasidan yo'lga chiqib, xatni ko'zlarimga yaqinlashtirdim, bu yozuvga o'rganib qolanim uchun qiyalmay o'qiy boshladim.

Xat "Mening sariq gulim", deb boshlangan. Keyin bir qator tasvirlar.

Quyosh chiqishdan avval dunyoga bilinar-bilinmas bir yorug'lik sochilgani singari, sariq gulni ko'rishdan avval uning qalbiga ham shunday yorug'lik yoyilgan mish. "Ichimda anglashilmash bir quvonch bor. Men mutlaqo ajoyib narsaga yo'liqaman" deyar edi. Nihoyat, u ajoyib narsaga yo'liqibdi, bir kun kechqurun musofirxonan bog'ida chiroqlar yonadi-yu, qarshisida sariq gulni ko'radi.

Maktubning u yog'ini juda shoshib o'qidim, tobora quyuqlashib borayotgan qorong'ida ko'zlarim satrlarni shu qadar yomon farq qillardiki, hech narsani esimda olib qololmadim, desam bo'ladi. Negadir, maktubning bir necha bor takror o'qiganim shu so'nggi satrlarini hali ham ko'zlarim o'ngida ko'rib turaman:

"Qalbim bo'sh edi. Sevish ehtiyoji bilan yonardim. Sizning raso, nozik qomatingizni, binafsha ko'zlarimgizni ko'rdim-u, hamma narsaning rangi o'zgardi".

Begona xotin og'ir-og'ir odimlar bilan yonimga kelib, titroq tovush bilan:

— Farida xonim, sizni xafa qildim. Lekin ishoning... — deb so'z boshlagan edi, men birdan so'zini cho'rt kesdim. Maktubni uzatib:

— Nega endi, — dedim, — xafa qiladigan hech nima yo'q-ku? Bu bo'ladiqan narsa. Aksincha, sizga tashakkur ham aytmoqchiman. Mening ko'zimni ochdingiz. Endi sizdan ijozat so'rayman.

Boshimni xiyol silkitib yurib ketdim. Lekin u orqamdan yana chaqirdi:

— Farida xonim, yana bir minutga ruxsat bersangiz. Dugonamga nima deyin?

— Vazifangizni bajarganingizni aytning. U yog'ini endi o'zi biladi, deyarsiz. Vassalom.

Begona xotin menga yana bir nima dedi, lekin men qulq solmadim, shoshib daraxtlar ichiga kirib ketdim.

Komron ikkalamizning yana bir bor yarashishimizni ko'rmaydigan qoya yonida u vafo-siz meni qanchalar kutgan ekan — bilmayman. Lekin kutishdan tolib uyiga kelganda, chiziqli maktab daftaringin varag'iga yozilib, stolga qo'yilgan shu satrlarni ko'rganda, harholda shoshib qolar:

"Komronbey afandi. "Sariq gul" romanini boshidan oxirigacha tushirdik. To o'Igunimizcha bir-birimizni ko'rish yo'q. Sendan nafratlanaman."

FA-RI-DA".

Ik-kin-chi qism

B..., 19... yil, sen-tyabr.

— Kelgan kuningdan beri kechani kecha, kunduzni kunduz demay yozganing yozgan. Hech bitmaydigan nima yozuv bu? Xatmi desam, xat daftarga yozilmaydi. Kitobmi desam, bilamiz, kitobni soch-soqoli bor odamlar yozadi. Sen bo'lsang mushtumday bolasan. Mundog' gapirsang-chi, nima balo yozyapsan?

Menga bu savolni musofirxonaning qari xizmatkori Hoji xalfa berdi. U bir soatdan ortiqroq tashqarida o'zicha ashula aytib yurib pol artdi, endi charchab, men bilan picha valaqlashgani kirdi.

Hoji xalfaning avzoyini ko'rib o'zimni tutolmadim, xaxolab kulib yubordim.

— Bu qanaqa kepata, Hoji xalfa?

Hamma vaqt oq fartug' tutib yuradigan Hoji xalfa bugun eski zamon xotinlar kiyimini kiyib olib, yalang oyoqlari bilan polni ishqab tozalayotgan, yiqilib ketmaslik uchun qo'lida kattakon tayoq ushlab olgan edi.

— Na chora, xotin kishining ishini qilganingdan keyin xotincha kiyinishing kerak-da, — dedi.

Men ahyon-ahyonda gaplashib turadigan kasalmand qo'shnimdan tashqari, nomerimga kirib-chiqib yuradigan birdan-bir kishi Hoji xalfa edi. Dastlabki kunlarda tortinardi. Bir ish bilan nomerimga kiradigan bo'lsa, eshikni taqillatib: "Boshingni berkit, otin qizim, men kiryapman", — deyardi.

Men ham hazillashib:

— Kiravering, otajon, ishingiz bo'lgandan keyin kirasiz-da. Yo oramizda takallufga ehtiyoj bormi? — deyardim.

U tirish yuzini yana beshbattar tirishtirib:

— O', o', o', ish — sen bilganday oson emas, qizim. Islom "muhoddarotlari" yoniga bunday ochiq-sochiq kirib bo'lmaydi, — deb meni koyir edi.

"Muhoddarot" degani harholda xotin-xalaj bo'lsa kerak. Lekin muallimalik g'ururim ko'tarmagani uchun buni Hoji xalfadan so'ramas edim. Axiyri, hazil qila-qila, bu xil andishaning o'rinsiz ekanligini Hoji xalfaga tushuntirdim. Endi esiga kelsa, eshikni taqillatadiyu, tortinmasdan kirib kelaveradi.

Hoji xalfa kulgim hadeb tiyilavermaganiga avval qizishsa ham, keyin parvo qilmay qo'ydi.

— Jo'rttaga jahli chiqsin deb kulyapsan-da, foydasi yo'q, — dedi. Keyin ko'zlarida g'alati bir mung bilan ilova qildi:

— Qafasdagi qush singari nomeringda yolg'iz siqilib qolding, mayli, hazillash, kul, hechqisi yo'q. Do'stligimiz ortaversa, hali senga o'yinga ham tushib beraman, ko'ngling ochilsin deb, uqdingmi, afandim?..

Nimalar yozayotganimni Hoji xalfaga aytib bo'lmash edi.

— Xatim juda xunuk, mashq qilyapman, Hoji xalfa, — dedim. — Indinga ertalab dars boshlayman. Bolalar ayb qilib yurishmasin tag'in.

Hoji xalfa suratga tushayotgan odamday tayog'iga suyanib, ko'zlarida shirin bir tabassum bilan javob berdi:

— Aldaysan, bola! Hoji xalfa ilonning yog'ini yalagan, bilasanmi? Hali ular xushxat bo'ldi-yu, sen badxatmi? Ularning yozganlari ikki chaqaga arzimaydi. Bilamiz: chumolining oyog'iga o'xshatib egri-bugri qilib yozishadi, nima qilishsa o'shalar qilishadi. Biz mahkamalarda xo'p pishgan odammiz, ne-ne amaldorlarni ko'rganmiz, bildingmi? Bir

darding bor sening, bor, ha! Ammo-lekin bilmay qolmasmiz. Ha, aytmoqchi, yozayotganganida barmoqlaringga siyoh tegmasin, shunga hazir bo'l, bo'limasa bolalar oldida chindan ham uyatga qolasan. Ha, bo'pti, sen yozuvingni yoz, men ham chiqib polimni tozalay.

Hoji xalfani kuzatganidam so'ng yana stol yoniga keldim. Lekin yozishga o'tirmadim. Cholning ba'zi so'zlari meni o'yga soldi.

Boyoqish to'g'ri gapiradi. Haqiqatan ham, men kap-katta odamman, indinga ertalab ish boshlaydigan muallimaman. Bunday bo'lgandan keyin o'zimda bolaligimdan hech bir iz, hech bir asar qoldirmaslikka tirishishim kerak. Hoji xalfa hali lablarimdag'i siyohni aytgani yo'q, holbuki, bu siyoh, barmoqlarimdag'i siyoh nimasi? Ha, daftaramni to'ldirib o'tirgan kechlarimda o'zimni matabda ko'rishim, ortiq hech mahal ko'rmaydigan odamlarimning tevaragimda parvona bo'layotganday tuyulishi, ajabo, shu siyoh dog'lari sababidan emasmikan?

Hoji xalfanining "Qafasdagi qush singari nomeringda yolg'iz siqilib qolding" degan so'zlari miyamdan hech ketmaydi.

Qafaslarning hammasidan qutulgan shu bugungi kunimda birovning meni qafasdagi qushga o'xshatishi to'g'ri emas. Innaykeyin, qush so'zida eski "Choliqushi"niki singari singan qanoti, yumilgan tumshug'i bilan yiqligan joyidan turish mayli ham bor. Hoji xalfa hadeb shu xilda gapiraversa, oramizning buzilib qolishidan qo'rqaman.

Endi daftaramni chala qoldirib ketmaslik uchun yana bir marta g'ayrat qilishim, orqada qolgan jirkanch dunyoga yana bir karra boqishim kerak.

O'sha oqshom begona xotindan biladiganimni bilib, hujramga qaytib kelayotuvdim, tashqarida xolamga duch kelib qoldim. O'zimni qorong'i bir burchakka olmoqchi bo'ldim. Lekin xolam meni ko'rib:

— Kim u? — deb so'radi. — Senmisan, Farida? Nega bekinyapsan?

Javob bermasdan oldida turar edim. Bir-birimizning yuzimizni ravshan ko'rolmasdik.

— Nega boqqa bormayapsan?

— ...

— Hech shumliging qolmas ekan-da!

Ko'rinas bir qo'l bo'g'zimni qisar, nafasim bo'g'ilib borar edi.

— Xola, — dedim.

Xolam shu dam menga bir og'iz shirin so'z aytsa, sekingina yonog'imni ushlasa, sochlarimni silasa, yig'lab qo'llariga otilar, balki hamma narsani aytib bergen bo'lardim.

Lekin u mening holimni sezmadni. "Yana nima darding bor, Farida?" — dedi. Xolamdan bir narsa so'raganimda, u hamisha shunday deyar edi. Ammo shu kecha bu so'zlar menga: "Qachon tiyilasan?" deyilayotganday eshitildi.

— Hech, xolajon, ijozat bersangiz, sizni bir o'psam, — dedim.

Har nima bo'lganda ham xolam onam ornida edi. Uni so'nggi marta o'pmay ayrilib keta olmas edim.

Javobini kutmay qo'llarini ushладим, qorong'ida ikki betidan, so'ngra ko'zlaridan o'pdim.

* * *

Uyimda hamma narsa ostin-ustin bo'lib ketdi. Kursilarga kiyimlar otib tashlandi. Komod tortmalaridan ko'ylak-lozimlar osilib tushdi. Men jazm etgan narsani qiladigan kishi o'z uyini darbadar matab bolasi uyiday tashlab ketsa ayb bo'ladi. Lekin na chora, vaqt juda ham ziq.

Derazada chiroq ko'rinsa kirib qolishlaridan qo'rqib, Komronga qoldiriladigan bir necha satrni qorong'ida paypaslab yozdim.

Keyin javonimni ochdim. Qizil lenta bilan bog'lab qo'yilgan diplomimni, esdalik qilib saqlab kelgan bir necha narsamni, onamdan qolgan baldoqni, uzuk singari bir-ikkita faqirona bezaklarni maktab chamadonchasiga to'ldirdim.

Uylaridan qochgan asrandi qizlarning ham shunday qilganlarini eslab, achchiq-achchiq kular edim.

Qaerga borishimni faqat ko'chaga chiqqanimdan keyingina o'yladim. Ha, qaerga boram? Kunduz bo'lsa ham koshki edi. Miyamda yaxshi hal etilmagan bir o'y bor edi. Men shu kechani bir amallab o'tkazish fikrida edim. Lekin shunday bemahalda qaerga sig'inib bora olardim? Har bir ehtimolni nazarda tutganim holda, qo'limda kichkina chamadoncha bilan dalada sarg'ayib yurolmas edim. Bir ozdan so'ng chorbog'da qiyomat qo'padi. Sharmandalikdan qo'rqb, balki politsiyaga xabar qilishmas. Lekin tevarak-atrofga mutlaqo odam yogurtirishadi. Poezd, kema u yoqda tursin, hatto aravada ketish ham xavfli. Darrov izimni topib olishadi. Lekin o'z bilganicha yashashni istagan kishini zo'rlik bilan chorboqqa qaytarib kela oladigan kuch yo'q. Faqat qarorimni yosh bola jinniligi, injiq qiz nozi deb sanashadi, meni ham, o'zlarini ham bekor xafa qilishadi.

Ularni bu fikrdan qaytarish, hatto otimni tilga olishga tavba qildirish uchun ertaga xolamga qanday xat yozishligimni bilardim. Lekin bu kechani qaerda o'tkazaman?

Oldin shahar atrofidagi chorbog'larda turadigan o'rtoqlarim esimga keldi. Borsam bo'shlari ko'tarishlari turgan gap. Lekin bu ko'p xunuk narsa. Shunday vaziyatda bir qizni, mayli, bir kechaga bo'lsa ham uylariga kiritish balki o'zlariga ham erish tuyular. Innayke-yin, bu ahvolni izoh qilish uchun ularga biron narsa deyish ham kerak. Yot-begona odamlarga hisob berish, ulardan nasihat eshitish o'zimga ham og'ir bo'lishini sezар edim. Nihoyat, eng avval esimga keladigan ismlar, albatta, uydagilarning ham darrov eslariga tushadi, innaykeyin, ular xuddi o'sha yerkarga borib qidirishadi. O'rtoqlarimning ota-onalari yarim kechada meni so'roqlab kelgan qarindoshlarimga meni yuz-xotir qilib "bu yerda yo'q" deyishga botina olisharmikan?

Stantsiyaga boriladigan katta yo'lni xavfli bilib, orqadagi Icharanko'y yo'liga tushdim. Qorong'ilik dam sayin quyuqlashib borardi. Nima qilishimni bilmay yuragimga dukur tushgan, jasoratimni yo'qotgan paytimda qo'qqisdan esimga bir narsa keldi. Sakkiz-o'n yilcha avval qarindoshlarimidan birining uyida sut emizgan enaga bo'lar edi. Bolqondan ko'chirma bo'lib kelgan shu xotin Sahroyijadidda turar, chorboqqa tez-tez kelib ketardi.

O'tgan yil uzun oqshom sayridan qaytib kelayotib uning bog'ida yarim soatcha dam olgan edik. Eskilarimni har doim unga berganim uchun menga juda yaxshi qarar edi. Kechasi shu xotinnikida yotib qolsam, hech kim mening u yerda ekanligimni gumon qilmas edi.

Ko'chadan bitta arava o'tib ketayotgan edi. Oldin uni to'xtatmoqchi bo'ldim, lekin aravaga tushishning keti xavfli ekanligini, yonimda mayda pulim ham yo'qligini o'ylab, to'xtatmadim.

Chor-nochor Sahroyijadid tomonga piyoda yo'l oldim. Qorong'ida biron soya ko'rgudek, yo oyoq dupuri eshitgudek bo'lsam, titrab to'xtab qolardim. Qorong'i kechada, xilvat dala yo'lida yolg'iz ketayotgan xotindan kim shubha qilmas edi? Xayriyatki, atrof jimjit. Faqat bir bog' yonidan o'tib ketayotganimda anchagina qo'rqb oldim. Ro'paramdan bir to'da mast kishi ashula aytib kelaverdi. Bir sakrab bog' chetidagi pastak chetandan oshib o'tdim-da, ular o'tib ketgunlaricha o'sha yerda pisib yotdim. Bog'da it bo'lsami, rosa bo'lqanimcha bo'lardim.

Keyin Sahroyijadid ko'chasida tayog'ini horg'in-tolg'in sudrab yurgan qorovulga duch keldim. Xayriyatki, qorovul meni ko'rmay yon ko'chalardan biriga kirib ketdi.

Enaga bilan uning chol eri meni ko'rib shoshib qolishdi. Yo'lda bir yolg'on to'qib qo'ygan edim. Shuni aytib berdim:

— Katta amakim bilan Uskudordan kelayotuvdik. Shu yerda aravamizning g'ildiragi sinib qoldi. Bemahalda boshqa arava topolmadik. Chor-nochor piyoda yo'lga tushdik. Bir mahal uzoqdan sizlarning chirog'ingiz ko'rrib qoldi. Amakim: "Bor, Farida, begona joy emas, bu kecha enagangnikida qo'na qol. Men ham shu yerda, bir oshnamnikida qolaman", — deb aytdi.

To'g'risi, to'qigan bahonam bu sof vijdonli kishilarni osongina ishontirib qo'ya oladigan o'tkir bahona ham emasdi. Lekin kichkina xonimni bir kecha mehmon qilish ular uchun shu qadar katta sharaf ediki, so'zlarimdan gumonsirashmadi.

Bechora enagam menga solib bergen va ichlariga atir sepgan top-toza ko'rpa-to'shaklarini ertalab bo'sh, buzilmagan holda ko'rgan zamoni oyoqlaridan mador qochgandir. Hechqisi yo'q, u zamon qush allaqachon uchib, karvon o'tib ketgan edi.

* * *

O'sha kecha, enagamning uyida chiroqni o'chirib, qorong'ida bir reja tayyorladim.

Javonimning burchagida qizil lentaga o'ralgan holda sekin-sekin sarg'ayib, yo'q bo'lishdan boshqa bir narsaga yaramaydiganday ko'ringan diplomim o'sha zamon ko'zimga issiq ko'rrib ketdi. Odamlar ma'qullagan ana shu qog'oz parchasiga umid ko'zi bilan tikildim. Ana shu qog'oz bilan Anatoliya viloyatlarining birida muallimalik qila olar, butun hayotimni bolalar orasida shod, baxtiyor o'tkaza bilar edim.

Istambuldan chiqib olgunimcha Ayyubsultonagi Gulmisol xalfanining uyida yashirinishga qaror berdim. Gulmisol xalfa onamning enagasi edi. Onam kuyovga chiqqanda, uni ham Ayyubda bir qari qorovulboshiga uzatishgan ekan.

Onamni juda yaxshi ko'rgani holda xolalarim bilan chiqisha olmasdi. Katta buvim tirikligida ora-sira chorboqqa kelar, menga Ayyubdan rangli o'yinchoqlar keltirar edi. Katta buvim o'lgandan keyin esa xalfa butunlay kelmay qo'ydi, xolalarim ham uni tilga olishmaydigan bo'ldi. Sababini bilmayman, lekin oralarida biron gap o'tgan bo'lsa kerak.

Harholda, Istambulda men uchun Gulmisol xalfanining uyidan xavfsizroq joy yo'q edi.

Xolam miyamda shox otib borayotgan maktubimni olgandan so'ng yig'lashdan boshqa hech nima qilolmaydi. Nachora? Lekin razil o'g'li ham harholda inson edi. Izimni topganda ham yo'limni to'sishga botinolmaydi.

Ertalab borsam, xalfanining eshigi ochiq ekan. Xinaga bo'yalgan sochlari ustidan ro'mol o'rab olib, yalang oyoqlarida yog'och kavush bilan dahlizni yuvayotgan ekan.

Hech nima demasdan, eshik oldida uni ancha tomosha qilib turdim. Yuzim mahkam yopiq bo'lgani uchun meni taniyolmadi, nursiz moviy ko'zlarini tikib:

— Biron ishingiz bormidi, xonim? — deb so'radi.

Bir-ikki marta yutinganimdan so'ng:

— Enaga, meni tanimadingizmi? — dedim.

Ovozim unga g'alati ta'sir qildi. Hurkkanday orqaga chekildi.

— Subhonollo! Subhonollo! — deb yubordi. — Yuzingni och-a, xonim!

Kichkina chamadonimni ho'l toshga qo'yib, chorshafimni ko'tardim. Xalfa voylab yubordi:

— Voy, Guzida! Guzidam kelibdi! Oh, bolam!

Tomirlari o'ynab chiqqan zaif qo'llari bilan bo'ynimga osildi, ko'zlaridan selday yosh keldi.

— Voy, bolaginam! Voy, bolaginam! — deb chinqirar edi.

Men bunchalik katta hayajon sababini tushundim. Odamlar meni o'sgan sarim onanga o'xshab borayotganligimni aytishardi. Onamni hech vaqt esidan chiqarmagan bir dugonasi "Guzidaning xuddi yigirma yoshidagi yuzi, ovozi. Faridaning so'zlarini yig'lamadan eshitolmayman", deyar edi.

Gulmisol xalfa ham hozir shu ahvolda edi. Yig'lashning yaxshi narsaligini bu keksa cherkas ayol ko'zlarida yosh ko'rmasdan avval tushunmagan edim.

Men onamni es-es bilaman. Tashlab ketilgan ba'zi uylarda chang-tuproqqa belanib, chiziq bo'yoqlari o'chib ketgan eski suratlar singari xiragina eslayman. Bu narsa hozirgacha menda na qayg'u va na sevgi uyg'otgan edi. Lekin Gulmisol xalfa qarib qolganligi uchun meni onamdan ajratolmay, "Guzidam!" deb qichqirganda, ichim g'alati bo'lib ketdi. Onam ko'z o'ngimga keldi, o'limining otashi qalbimga ko'chdi, men ham "Oyi, oyijonim!" deb hiq-hiq yig'lay boshladim.

Bechora xalfa o'z dardini unutib, menga parvona bo'lar edi. Yig'lab turib:

— Xalfa, onam menga juda ham o'xsharmidi? — deb so'radim.

— Juda ham, qizim. Seni ko'rib, aqlim shoshib qoldi, umi deb o'ylabman. Xudoyim senga yero ko'kday uzoq umr bersin.

Qari xalfa dahliz yonidagi uyda meni yosh boladay yechintirayotganda ham hamon hiqillab yig'lar edi.

Uning to'r pardali kichkina kulbasida o'tkazgan dastlabki soatlarimning mazasini aslo unutmayman. Meni yechintirgandan so'ng to'r choyshab yopilgan karavotiga yotqizdi, boshimni tizzasiga qo'ydi, peshonamni, sochlaramni silab turib onamdan gapirdi.

Tug'ilgan kuni yuzida moviy pardasi bilan birinchi marta quchog'iga olgan paytdan to ayrilgan kunigacha bo'Igan xotirotni bir-bir aytib berdi.

Navbat menga kelganda men ham boshimga tushgan narsalarni batatsil hikoya qilib berdim. Xalfa so'zlarimni bolalar ertagini eshitayotganday kulimsirab o'tirib eshitar, gohi mahallari: "voy, qo'zim-ey!" deb xo'rsinib qo'yar edi. Ammo kecha kechqurun chorborg'dan qanday bosh olib ketganimni, o'la-o'lgunimcha u yerga qaytmasligimni aytganimda, esxonasi chiqib ketdi.

— Farida, bolalik qilbsan. Komronbey adashibdi, tavba qiladi, ikkilamchi bunday qilmaydi.

Gulmisol xalfaga g'azabimni tushuntirishning iloji yo'q edi. Shuning uchun hikoyam oxirida:

— Gulmisol xalfa, oqargan boshingizni bekorga charchatmang. Men siznikida ikki-uch kun mehmon bo'laman-u, keyin boshqa yurtga ketaman. O'z mehnatim bilan kun ko'raman, — dedim.

Men shu so'zlarni aytib turganimda, boyoqish kampirning ko'zları yoshga to'ldi, qo'llarimni silab betlariga, lablariga surtdi.

— Bu qo'llarni ko'zim qiyadimi, bolam! — deyardi.

Xalfani tizzalarim ustiga o'tqazdim-da, bu qo'llar uchun endi qo'rqinchli hech narsa yo'qligini, beboslik qilgan bolalarning ora-sira quloqlarini cho'zib qo'yishdan boshqa ish qilmasligini aytdim. U so'zlarimni o'tirgan yerida sachrab, ajinli betlarini burishtirib eshitdi.

Anatoliyada qanday muallimalik qilishimni, qanday tadbirlar ko'rishimni shu qadar suyunib so'zladimki, oxirida u ham mening hayajonimga qo'shildi. Yashil lattaga o'ralgan kichikina Qur'onne tokchadan oldi-da, uni o'rtaga qo'yib, bu yerdan ketgunimcha meni hech kimga aytmaslik to'g'risida qasam ichdi. U yoqdan meni axtarib kelguvchilar bo'lsa, eshikdan qaytaradigan bo'ldi.

O'sha kuni kechgacha Gulmisol xalfa bilan uy ishlarini qildik. Men hozirgacha faqat tayyor ovqat yeb kelardim. Shu vaqtgacha aqalli bitta tuxum ham pishirmagan edim. Endi odatlar o'zgarishi kerak. Oshpaz, xizmatchi qayda menga endi? Hozir Gulmisol xalfa yonimda ekan, undan ovqatni qanday pishirishni, kir va dog'larni yuvishni, aytishga uyat bo'lsa ham, yirtiq yamashni o'rganib olishim kerak.

Tuflilarimni, paypoqlarimni yecha solib, darhol ishga tushib ketdim. Xalfaning norozili-

giga, oh-vohlariga qulq solmay, quduqdan chelak-chelak suv tortdim. Pollarni yuvdim, artdim. Keyin yana quduq yoniga o'tirib, u bilan sabzavot tozalashdim.

Sabzavot tozalash deb qo'ya qolamiz-u, lekin u qanday mayda ish! Xalfa men archgan kartoshkalarni ko'rib, voylab yubordi:

— Qizim, kartoshkalarning yarmini po'choqqa chiqarib yuboryapsan!..

Men shukronalik bilan qaradim.

— Ming qatla rahmat, xalfa. Siz aytmaganingizda, ming zahmat bilan sotib olgan kartoshkalarimning yarmini po'choqqa chiqarardim-u, dunyodan buning farqiga bormay o'tib ketardim, — dedim.

Xalfadan o'rganadigan narsalarimni yozish uchun yonimga bitta daftarcha keltirib qo'ydim.

Dam-badam:

— Enaga, kartoshkaning bir donasi necha qurush turadi? Po'chog'ini ko'p kesganda, necha santimetr kesish kerak? — deb so'rар, shu xil so'roqlarim bilan kampirni kuldirar edim. Keyin, enaga, polni yuvish uchun necha paqir suv kerak, degan edim, boyoqish yig'lab yubordi.

Bir johil cherkas xotinga yangi usul mакtabni qanday tushuntirib bo'ladi? Uy ishlarini qilib turib suyunar, kechadan beri qalbimda qo'zg'algan zaif og'riqning to'xtaganini his etar edim.

Satillarni o'tga qo'yganimizdan keyin oshxonadagi pokiza bo'yraga o'tirdik.

— Voy, xalfa buvim-ey, kim biladi, boradigan jo-yim qanaqa ekan! — dedim. — Men Arabistonni es-es bilaman. Anatoliya harholda undan chiroyliroqdir. U yerning odamlari bizlarga o'xshamas emish. O'zлari kambag'al emishu, lekin ko'ngillari shuncha keng, shuncha boy emishki, hech kim o'ziga, qarindoshigagina emas, hatto dushmanlariga qilgan yaxshiliklarini ham yuziga solishday bag'ritoshlik qilishmas emish. Kichkina maktabim bo'ladi. Hammayog'ini gullarga ko'maman. Bolalarim, bir talay bolam bo'ladi. O'zimni "opa" degizaman. Kambag'allariga o'z qo'lim bilan fartug'lar tikaman. "Qaysi qo'ling bilan?" dersiz. Kulmang, masxara qilmang. Buni ham o'rganib olaman, albatta.

Xalfa goh kular, goh ichi og'riyotganday ezilardi.

— Farida, bolaginam! Sen xato yo'lga kirypsan, — deb xo'rsinardi.

— Kim xato yo'lga kirganini eson bo'lsak ko'rarmiz.

Bu ishlar tugagandan so'ng xolamga o'sha dahshatli xatni yozdim. Bir yerida shunday dedim: "Siz bilan ochiq gaplashaman, xola. Komron hech qachon menga hech narsa aytgan emas, shuningdek, menda o'ziga bino qo'ygan qaysar, ma'nosiz, jonsiz, harakatsiz mehmon boladan boshqa taassurot ham qoldirgan emas. Zaif, kichkina, cho'pxashakdan yasalgan odam. Yana sanaymi?

Men uni hech qachon na yoqtirdim, na xohladim va na unga nisbatan boshqa biron his bilan qaradim. "Shunday ekan, nechun unga rozi bo'lding?" deyarsiz. Choliqushining miyasi yo'qligi ma'lum. Bir jinnilik qilib qo'ydim-da. Xayriyatki, o'zimni vaqtida tutib oldim. O'g'lingiz to'g'risida shunday fikrlar yuritayotgan qizning baxtli xonadoningiz uchun qanchalik falokat bo'lishini tushunishingiz kerak. Shunday qilib, men bugun sizlardan ayrilish, oramizdag'i hamma iplarni batamom uzish yo'li bilan ana shu falokatning oldini oldim. Necha yildan beri sizlardan ko'rgan yaxshiligimning bir ozini shu bilan qaytardim, deb o'ylayman.

Bu safsatalarimni eshitganingizdan keyin mening otimni tilga olishday past ishdan o'zingizni saqlashingizga aminman. Yana shuni ham bilib qo'yishingiz kerakki, og'izga olib bo'lmaydigan bu safsatalarni uyalmasdan, hayiqmasdan sizga yozayotgan nonko'r, tarbiyasiz qiz, agar unga ro'para kelguday bo'lsangiz, kirchi xotin janjalini qilishdan ham toymaydi. Buning uchun eng yaxshisi — bir-birimizning otimizni tilga olmaslikdir. Faraz

qiling, Choliqushi ham onasi singari allaqaerlarda o'lib ketdi. Xohlasangiz, bir-ikki tomchi ko'z yoshi to'king. Bunga aralashmayman. Faqat uzoqda ham hazir bo'ling, yordam qilayin deb yurmang, Haqorat bilan rad etaman.

Men yigirma yoshida suvdan toymaydigan odamman. Ko'nglim xohlaganicha yashayman".

Bu odobsiz maktubni eslasam, har doim uyalib yig'layman. Ilojim yo'q edi. Xolamning meni izlashiga, balki yo'limni to'sishiga boshqacha qarshilik ko'rsatolmasdim. Kuysin, yonsin xolam, lekin meni sog'inmasin.

* * *

Ertasi kun maktubni o'z qo'llim bilan pochtaga topshirib, to'g'ri Maorif ministrligiga ketdim. Egnimda Gulmisol xalfaning uzun chorshafi, yuzimda peshasi. Shunday qilishga majbur edim. Chunki ko'chada o'zimni birovga tanitmasligim kerak. Bundan tashqari, ochiq-sochiq yuradigan muallimalarga Maorif ministrligida uncha ishonmasliklarini ham eshitgan edim.

Maorif ministrligining eshigiga yetguncha vaqtim ancha chog', o'zim dadil edim. Ishlarimning juda oson bitishidan umidvor edim. Xizmatchilardan biri meni Maorif ministrining yoniga boshlab kiradi. U ham diplomimni ko'rар-ko'rmas: "Xush kelding, oppoq qizim. Biz sizlarda odamlarga intizor edik", — deydi-yu, meni Anatoliyaning eng yashil o'lkaridan biriga tayin etadi, deb o'ylar edim. Faqat eshikdan kirar-kirmas havo birdan o'zgardi: meni g'alati bir hayajon, qo'rquv chulg'ab oldi. Egri-bugri koridorlar, binoning pastki qatoridan ustki qavatigacha cho'zilgan ajoyib zinalar, bu koridorlar va zinalardagi talay odamlar. Birovdan bir nima so'rashga yuragim betlamay, tevaragimga jovdir-jovdir qarardim.

O'ng tomonimda bahaybat eshik ustiga "Ministrlik sekretariati" deb yozilgan lavhani ko'rib qoldim. Har holda, Maorif ministrining kabineti o'sha yerda bo'lishi kerak edi. Eshik yonida hammayog'i yirtilib, iplari osilib qolgan saxtiyon to'shakli eski kursida bir kerik xodim o'tiribdi. Uning dimog'i shunchalar baland ediki, ko'rgan kishi: "Ministr yo uning o'rribosari shularmikan?" deb gumonsirasa o'rinni bo'lardi.

Men qo'rqa-pisa yoniga keldim-da:

— Nozirbeyni* yo bo'lmasa o'rribosarlarini ko'rmoqchi edim, — dedim.

Xodim barmoqlariga tupurib, shopday mo'ylovlarining uchini buradi, keyin shohona bir qarash bilan menga ko'z yogurtirib, og'ir-vazmin so'radi:

— Nozirbeyda nima ishing bor?

— Muallimalikka olsa, deb so'rab keluvdim.

U mo'ylovlarining qay shaklga kirganini ko'rish uchun lablarini yuqoriga burib turib javob qildi:

— Bunday narsalar bilan nozirbeyni bezovta qilmaydilar. Kadrlar bo'limiga uchra.

"Kadrlar bo'limiga uchra" degani nimaligini so'ragan edim, u javob berishni ep ko'rmay, yana boyagi mag'rur shohona avzo bilan boshini teskari o'girib oldi.

Chorshafim ichida o'zimni ermak qilib tilimni chiqardim. "Xizmatkori shunchalik bo'lgandan keyin, xo'jayini qanday ekan? Voy, sho'rimga sho'rva", deb o'yladim.

Zina panjarasi yoniga sakkiztami-o'ntami chelak tizib qo'yishibdi. Ustiga men chorborg'da o'ynab yurgan taxtalarga o'xshash bitta uzun taxtani yotqizishib, skameyka qilishibdi. Unda bir to'da erkak va xotin kishi o'tiribdi.

Qora jun chodrasini iyagi tagidan to'g'nag'ichlab olgan, ko'zlarini ko'k shishaga o'xshagan bir keksa xotinni ko'rdimu, yoniga borib, dardimni aytdim. Menga achinayotganday qarab:

— Bu ishda yangilgingiz ko'rini turibdi. Ministrlikda tanishingiz yo'qmi? — dedi.

— Yo'q. Balki bo'lsa bordir, lekin bilmayman. Buning qanday ahamiyati bor? — deb so'radim.

So'zlariga qaraganda, tajribali muallima ekani bilinib turgan bu ko'k ko'zli xotin kulimsiradi.

— Buni keyinroq tushunib olasiz, qizim, — dedi.— Yuring, sizni boshlang'ich maktablar bo'limga olib kiray. U yerda umumiylar ta'limga bo'larning mudiri bey afandi bilan ko'rishishga harakat qiling.

Mudir qora soqolli, yuzini chechak buzgan xumkalla, baroq qoshli, nihoyatda xunuk odam ekan. Kabinetiga kirganimda, stoli yonida tikka turgan ikki juvon bilan gaplashayotgan edi.

Ayollardan biri titrayotgani bilinib turgan qo'llari bilan sumkasidan g'ijim qog'ozlarni chiqarib, bitta-bittalab stolga qo'ydi.

Mudir qog'ozlarni sinchiklab ko'zdan kechirdi, imzolariga, muhriga qaradi, keyin:

— Boring, ismingizni sekretarga yozdiring, — dedi.

Xonimlar egilib-bukilib, ta'zim qilib chiqib ketishdi.

— Siz nima deysiz, xonim?

Bu savol menga taalluqli edi. Bir oz o'zimni yo'qotib duduqlanib arzimni ayta boshladim. Lekin u birdan so'zimni kesdi. Dag'al tovush bilan:

— Muallimalik qilmoqchimisiz? Istidongiz bormi? — dedi.

Men o'zimni yana beshbattar yo'qotdim.

— Ya'ni diplom demoqchimisiz? — dedim.

Mudir asabiy bir harakat bilan lablarini burdi.

Burchakda o'tirgan ozg'in kishiga boshini silkitdi.

— Ko'ryapsizmi buni! Odam bo'g'ilmay bo'ladimi! Istido* bilan guvohnoma o'rtasidagi tafovutni ham bilmaydilar. Yana muallima bo'larmish! Keyin oylik oz, yuborayotgan joyingiz uzoq, deb dod solishadi.

Ko'zlarim tindi, yer boshimda gir aylanardi, nima deyishimni bilmay tevarakka javdirar edim.

Mudir yana ham dag'alroq tovush bilan:

— Yana nimani kutib turibsiz? — dedi. — Boring, bilmasangiz, bilgandan so'rab oling. Istido yozing.

Men shoshib qoldim; hech nimaga qaramay, kabinetdan otilib chiqib ketmoqchi bo'lib turganimda, burchakda o'tirgan ozg'in kishi o'rtaga tushdi:

— Bey afandi hazratlari, ruxsat bersalar, bir og'iz gapim bor edi, — dedi. — Xonim, sizga bitta xolis o'gitim bor.

Yo olloh, nimalar deydi-ya! Men singari xonimlar muallimalikdan ko'ra hunarga havaslanishlari kerak emish. Bey afandi aytganlaridek, istido bilan guvohnoma orasidagi farqni haligacha bilmaganim uchun muallimalikni eplab ketishim asosan shubhali emish. Agar harakat qilsam, masalan, tikuvchi bo'lib bir kunimni ko'rib ketsam bo'lar emish.

Zinadan tushib kelayotganimda ko'zlarimga atrof qop-qorong'i ko'rindi. Birov qo'llimdan ushladi. Xayolim shu qadar parishon ediki, dodlab yuborishimga oz qoldi.

— Ishing nima bo'ldi, qizim?

Bu savolni yana boyagi ko'k ko'zli xonim bergen edi. Alamdan, umidsizlikdan yig'lab yubormaslik uchun tishlarimni qisib turib voqeani so'zlab berdim.

U shiringina kulimsirab:

— Tanishing bormi-yo'qligini shu vajdan so'ragan edim, qizim, — dedi. — Mayli, xafa bo'lma. Boshqa chora topilib qolar. Yur, seni tanish bo'lim mudirlaridan birining oldiga olib boray, baraka topsin, yomon odammas.

Yana zinadan yuqoriga chiqdik. Qari muallim bu safar meni kattakon kantselyariyadan

xira oyna bilan ajratib qo'yilgan kichkina hujraga olib kirdi. Bugun chindan ham omadim kelishmayotgan edi. Chunki u yerda ham umid bag'ishlaydigan manzaraga duch kelmadim. Soqolining bir yog'i qora, ikkinchi yog'i oppoq bir afandi jig'ibiyroni chiqib, og'zidan o't purkar, ro'parasida mening bir ozgina avvalgi holimga tushib dir-dir tirab turgan bir keksa xodimni urib yuboradiganday harakat qilardi.

Oldida turgan bir chashka qahvani yuvindi suvni to'kayotganday derazadan ko'chaga sochib yubordi, keyin xodimini eshikdan itni tepib chiqarganday chiqarib yubordi.

Yangi tanishimni sekingina etagidan tortdim.

— Voy o'lay, tezroq qochaylik bu yerdan, — dedim.

Lekin qochishga ulgurmadi. Mudir bizni ko'rib qoldi.

— Keling, Naima xo'jonim*, — dedi.

Jahldor odamning shuncha tez jahlidan tushishini umrim bino bo'lib endi ko'rishim edi. Qanday g'alati fe'llari bor bu amaldorlarning, yo tavba!

Ko'k ko'z muallima bir necha og'iz so'z bilan ahvolimni anglatdi. Mudir shirin bir tabassum bilan menga:

— Juda soz, qizim, juda soz. Kel, bu yoqqa o'tir, ko'ramiz, — dedi.

Bu qo'yday beozor odamning shu topdagina ko'chaga qahvasini sochgan, qari xodimni tut daraxtini silkitayotganday silkib-silkib tashqariga itarib chiqargan odam ekaniga ishontirish uchun mingta guvoh kerak edi.

— Yuzingni och, ko'rayin-chi, qizim. O'-o'-o'!.. Hali yosh bola ekansan-u. Nечага кирдинг?

— Yaqinda yigirmaga to'laman, afandim.

— Ajoyib. Harholda shunday. Lekin sen shahardan tashqariga ketolmaysan. Sen uchun ancha xavf bor.

— Nima uchun, afandim?

— Nima uchuni bormi, qizim? Sababi oshkor.

Mudir hadeb kular, qo'li bilan yuzimni ko'rsatib Naima xo'jonimga ishoratlar qilar, amma ochiq-oshkor ko'riniib turgan sababini negadir so'z bilan aytmas edi.

Nihoyat, ko'k ko'z xonimga ko'zini qisib:

— Men boshqa hech narsa deyolmayman. O'zing xotinlar tili bilan yaxshiroq tushuntirarsan, Naima xonim,— dedi.

Keyin soqolini ikki yoniga ayirib turib, o'z-o'ziga gapirayotganday ilova qildi:

— Ah, bilsayding, viloyatlarda qancha yaramas, ibni yaramaslar bor!

Men ham chin ko'nglimdan ajablanib:

— Afandim, ibni yaramaslar deganingiz kimlar? Men bilmayman. Lekin siz ham menga ular yo'q joydan dars berarsiz, — dedim.

Mudir bu safar qo'llarini tizzalarining ko'ziga urib, yana ham qattiqroq kuldi.

— E!.. Juda sodda ekansan-ku!

Men odamlarni bir ko'rganimda yo yaxshi ko'rib qolaman, yo yomon. Keyin bu ilk hissimning o'zgorganini bilmayman.

Nima uchundir, bu kishi birdan ko'nglimga xush kelib qoldi. Bir tomoni oq, ikkinchi tomoni qoraligicha turgan soqoli shu qadar qiziq ediki, yuzini o'ng tomonga o'girganda birdan yosh kishiga o'xshar, chap tomonga o'girsa u odam g'oyib bo'lardi-yu, o'rnida oq soqolli qari kishi kulimsiray boshlardi.

— Dorulmuallimotdan* shu yil chiqdingizmi, xonim qizim? — deb so'radi u.

— Yo'q, afandim, men dorulmuallimotdan chiqqan emasman. ""Dames de Sion""** mifiktabini bitirganman.

— Qanday mifiktab edi u?

Mudiriga uzundan-uzun izohot berganimdan keyin diplomimni uzatdim. U frantsuzcha

bilmaydiganga o'xshaydi. Buni bildirmaslik uchun qog'ozni u yog'idan-bu yog'idan qarar, qo'lida aylantirib ko'rар edi.

— Yaxshi. A'lо!..

Naima xonim:

— Jonim, bey afandi, siz yaxshilik qilishni sevasiz, shu qizni bo'sh qaytarmang, — dedi takallufsiz qilib.

Mudir qoshlarini chimirib, soqolini titib turib o'ylar edi.

— Juda soz, juda soz, — dedi. — Ammo biznikilar bu mакtabning diplomini qabul qilisharmikan?

Esiga bir narsa tushganday, qo'lini stolga urdi-yu:

— Qizim, Istanbul rushdiyalaridan*** birida frantsuz tili muallimaligini so'rasang, qalay bo'larkin? Bo'ldi, u yog'ini o'zim o'rgatib qo'yaman. To'g'ri Istanbul Maorif mudirligiga borasan.

Men darrov uning so'zini bo'ldim:

— Istanbulda qola olmayman, iloji yo'q, afandim,— dedim. — Albatta, viloyatlardan biriga ketishim kerak, majburman.

U shoshib qoldi.

— Kamol top! — dedi. — O'z xohishi bilan Anatoliyaga ketmoqchi bo'lgan muallimani birinchi marta uchratishim. Ofarin, biz muallimalarimizni Istanbuldan chiqarguncha qaro terga tushib ketamiz-u! Sen nima deysan, Naima xo'jonim?

Mudir mendan gumonsirardi. Mug'ambirlik bilan meni tekshirar, oilam haqida savollar berardi. Boyoqishni tinchitguncha jonom bo'g'zimga keldi.

Mudir o'tirgan yeridan: "Shahob afandi!" deb chaqirdi. Javon bilan kantselyariya o'rta-sidagi eshikda kichkina, chuvakkina bir yigit ko'rindi.

— Menga qara, Shahob afandi, bu xonim qizni olib chiq, Anatoliyada muallimalik qilsam deydi, istido yozib kel, o'zim ko'raman.

Endi ishim bitganday quvonar, mudirning bo'yniga osilib, soqolining oq tomonidan o'pgim kelardi.

Shahob afandi meni kantselyariyada qog'ozlar tiqilib yotgan bir stol yoniga o'tqazdi, mudir tayinlagan iltimosnomani yozish uchun menga savollar berar, javoblarimni bir parcha qog'ozga qayd qilib borardi. Bu kambag'al qiyofa, kasal bashara ma'murda qo'rroq, hurkak bir holat bor edi. Savol bergani yuzimga qaraganda hadeb kipriklari pирillardi.

Deraza yonida turgan o'rta yoshli ikkita sekretar bir-biri bilan hadeb pichirlashar, ora-sira bizga yer ostidan qarab qo'yishardi. Biri:

— Shahob, sen bugun qattiq charchading, bo'tam. Qo'y, shu istidoni biz yozib bera qolaylik, — dedi.

Hali ko'nglimda bir oz shodlik bor, tilim ham tinch turmaydi.

Hech qanday munosabati bo'lmasa ham:

— Bu idorada o'rtoqlar bir-birlariga mucha yaxshi g'amxo'rlik qilishar ekan! — dedim.

Shahob afandi qip-qizarib boshini egdi. Qaydam, biron noo'rin narsa qilib qo'ydimmi? Harholda shunga o'xshaydi. Chunki naryoqdagilar ham kulardilar. Nima deyishganini aniq bilolmadim, lekin bittasining "Muallima xonim ancha pishiq, quv" deganini uqib qoldim. Bu so'zlarning ma'nosi nima ekan? U afandilar nima demoqchi edilar?

Istidoning qora teksti bir necha marta mudir yoniga borib-keldi. Qizil siyoh bilan chizi-lib, o'chirilgandan so'ng tozaga ko'chirildi. Mudir:

— Bor endi, qizim. Olloh qo'llasin. Men qo'limdan kelganicha yordam qilaman, — dedi.

Yonida boshqa odamlar bo'lgani uchun ortiq bir narsa deyishga botinmadim. Lekin bu

qog'ozni kimga yuborishimni, nima deyishimni bilmas edim. Zora Naima xonimni tag'in ko'rib qolsam, degan umid bilan tevaragimga qaragan edim, ko'zim Shahob afandiga tushdi.

Kichik kotib zinada birovni kutib turgan edi. Ko'zlarimiz to'qnash kelganda uyalinqirab boshini egdi. Bir narsa degisi kelsa ham yuragi dov bermayotgani sezilib turardi. Yonidan o'tib ketayotib to'xtadim.

— Bugun sizga ko'p zahmat yetkazdim, — dedim. — Endi buni qaerga olib borib berishimni ham lutfan aytib berolmaysizmi, afandim?

U hanuz ko'zlarini ko'tarmay turardi. Buyuk bir marhamat so'rab yolvorayotganday yumshoq, titroq tovush bilan:

— Arizaning orqasidan yurish qlyin narsa, hamshira* xonim, — dedi. — Ruxsat bersangiz, istidoingiz bilan kaminangiz mashg'ul bo'lqa. Siz bezovta bo'lmasang. Faqat ora-sira kantselyariyaga uchrab tursangiz.

— Qachon kelay? — dedim.

— Ikki-uch kundan keyin.

Ishning ikki-uch kunga cho'zilishi ta'bimni xira qilgan edi. Lekin kelib-ketish rosa bir oyga cho'zildi. Bechora Shahob afandining g'ayrati bo'lmasa, balki yana ham cho'zilarmidi.

Unday-munday deyishadi-yu, lekin erkaklar orasida ham ancha odamoxunlar bor. Bu yigitchadan ko'rgan yaxshiligidagi hech qachon unutmayman. Meni eshikdan ko'rgan soati chopib kelar, zina tepasida kutib turardi.

U qo'lida qog'ozlarim bilan xonadan xonaga qatnaganini ko'rib, uyalganimdan yerga kirib ketar, qanday minnatdorchilik bildirsam, deb qiyinalar edim.

Bir kuni kichik kotib bo'ynini latta bilan bog'lab olgan edi. Bo'g'ilib yo'talar, gapirganda nafasi qisib qolardi.

— Kasalmisiz? Nega shu ahvolda idoraga keldingiz? — deb so'radim.

— Bugun javob bilish uchun kelishingizni bilardim, — dedi.

Beixtiyor kuldim. Bu sabab bo'la olarmidi?

Shahob afandi bo'g'iq tovushi bilan davom etdi:

— Tabiiy, boshqa ishlar ham bor. Bilasiz, maktablar yangi ochilgan.

— Menga beradigan yaxshi javobingiz bormi?

— Bilmadim. Qog'ozlaringiz Xalq maorifi mudirida. Kelsalar o'zlari bilan gaplashaman, devdi.

Xalq maorifi mudiri xo'mraygan yuziga yana ham dahshat qo'shib turgan qora ko'zoy-nak taqib olib, oldida devalanib yotgan bir quchoq qog'ozni bitta-bitta imzolab yerga otar, oq mo'ylovli kotib xuddi namoz o'qiyotganday egilib-bukilib ularni yig'ardi.

Qo'rqa-pisa:

— Afandim, meni uchrasin degan ekansiz, — dedim.

Yuzimga qaramasdan dag'al tovush bilan:

— Sabr qil, xonim. Ko'rmayapsanmi? — dedi.

Oq mo'ylovli kotib ko'z-qoshlari bilan kutish imosini qildi. Ayb ish qilib qo'yganimni tushunib, bir necha qadam orqaga chekindim. Parda yonida kutib turdim.

Mudir qog'ozlarni tugatgandan so'ng ko'zoynagini oldi-da, ro'molcha bilan shishalarini artib turib:

— Istidoingiz rad qilindi, — dedi. — Zavjizingizning xizmati o'ttiz yilga yetmasti.

— Mening istidoimmi, afandim? Bunda bir xato bo'lmasin, — dedim.

— Sen Xayriya xonim emasmisan?

— Yo'q, men Faridaman, afandim.

— Qaysi Farida? Ha, esimga tushdi. Ko'p afsus, sizniki ham shunday, Maktabingizning

Maorif ministrligida inobati yo'q ekan. Bu diplom bilan sizni ishga tayinlab bo'lmaydi.

— Xo'p, lekin mening taqdirim nima bo'ladi?

Bu ma'nosiz savol ixtiyorsiz lablarimdan uchdi. Mudir yana ko'zoynagini taqdi, keyin men bilan hazillashayotganday qilib:

— Endi u yog'ini, ijozatingiz bilan, o'zingiz bilasiz, — dedi. — Shuncha ishlar ustiga sizning ham taqdiringizni o'ylaydigan bo'lsak, holimizga voy.

Umrimda zahrini hech mahal unutmaydigan minutlarimdan biri shu edi. Hayhot, taqdirim nima bo'ladi?!

Yaxshimi-yomonmi, yillarcha zahmat chekdim. Shu yoshimda eng uzoq yerkarga otlangan edim. Shunday bo'lgani holda meni quvmoqdalar. Endi men nima qilaman? Yana xolamning uyiga qaytganimdan ko'ra o'Iganim yaxshi!

Chiqmagan jordan bir umid, deb narigi mudirning oldiga yugurdim. Yig'lab yubormaslik uchun tishlarimni qisib turib:

— Bey afandim, mening diplomim yaramas emish, nima qilay endi? — dedim.

Shu so'zlarni aytib turib o'zimni anchagina yo'qotib qo'yibmanmi, boyoqish qattiq xafa bo'ldi.

— Men nima qilay, qizim? Birovga birovning joni achimas ekan, — dedi.

Shu shafqat yuragimga ancha dalda bo'ldi.

— Bey afandim, men albatta ish topishim kerak. Hech kim xohlamagan, eng uzoqdagi qishloq bo'lsa ham mayli, jon-jon deb boraman, — dedim.

Mudir tuyqusdan esiga bir narsa tushganday:

— To'xta, qizim, — dedi. — Yana bir tavakkal-da...

Burchakda, deraza yonida novcha, barvasta bir bey gazeta o'qib o'tirgan edi. Yuzi ko'cha tomonga o'giriklik bo'lgani uchun endi oqara boshlagan sochlari bilan soqolining bir qisminigina ko'rib turgan edim.

Mudir shu kishiga qarab:

— Bey afandim, bir zumgina ijozat beradilarmi? — dedi.

U hech nima demasdan o'girildi, og'ir-og'ir odimlar bilan yonimizga keldi.

Mudir qo'li bilan meni ko'rsatib:

— Bey afandim, siz savobni yaxshi ko'rasiz. Bu qizcha frantsuz maktabini bitirib chiqqan ekan. Ahvoldan, so'zlaridan kibor oila bolasi ekanligi bilinib turibdi. Lekin, bilasiz, sho'ru g'avg'oga uchramaydigan birgina olloh. Ishlamasa bo'lmas ekan. Eng uzoq qishloqqa bo'lsa ham boraman, deydi. Bizning kattakonlarimizni o'zingiz bilasiz-ku. Tav-sifga nima hojat? "Bo'lmaydi!" deyishadi-yu bez bo'lib turaverishadi. Siz ministr bey afandiga bir-ikki og'iz shipshib qo'yish marhamatida bo'lsangiz olam guliston-da, jonim bey afandi, — dedi.

Mudir bu so'zlarni gapira turib, uning bemavrid mehnat yuki ostida cho'ka boshlagan yelkalarini silardi. Kiyinishidan, o'zini tutishidan men tanigan odamlarning hammasidan boshqacha ekanligini tushundim. Mudirga quloq solib turib astagina egildi, yaxshiroq eshitish uchun qo'lini qulog'inining orqasiga qo'ydi.

Bir oz qonli, lekin yumshoq, mungli ko'zlarini menga o'girdi, bo'g'iq bir tovush bilan frantsuzcha so'zlay boshladi. Qaysi maktabdan chiqqanimga, qanday o'qiganimga, nima qilmoqchi ekanimga oid savollar berdi. Qaytargan javoblarimdan xursand bo'lgani sezilib turardi.

Biz so'zlashib turganimizda bo'lim mudiri nash'a qilib kulardi.

— Frantsuzchani bulbulday sayraydi-ya, yo olloh! Turk qizi uchun maqtovga sazovor bir fazilat, — deyardi.

Gulmisol xalfa har doim "Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'", deyardi. Mana endi kattakon shoir ekanligini men keyincha bilib olgan o'sha mehribon kishi men-

ga qarab turganda men uchun ham oyning yorug' kunlari yaqinlashib kelayotganini sezaloshladim. Bir oydan beri asta-sekin yo'qota borgan xushvaqtligimni yana topib oldim.

U kishi menga shu damgacha hech kimdan eshitmagan chiroylisiz so'zlarni so'ylagandan so'ng, meni ministr kabinetiga yetaklab kirdi.

U o'tib borganda xodimlar o'rinnaridan turar, eshiklar esa go'yo o'z-o'zidan ochilib ketardi.

Yarim soatdan so'ng B. viloyatidagi markaziy rushdiyada bo'sh bo'lgan geografiya va rasm darsi muallimligi o'rniga tayinlandim.

Choliqushi o'sha oqshom Ayyubga qaytayotganida suyunchidan uchib borardi. Bundan buyon u ham o'z nonini o'zi topadigan inson edi. Endi hech kim unga nomi marhamat va himoyat deb atalgan shafqatsiz haqorat toshini ota olmaydi.

Uch kundan so'ng butun rasmiyat tugalib, yo'l xarajatlarini ham oldim.

Bir kuni saharlab Gulmisol xalfa meni kemaga olib chiqdi. Shahob afandi tongda limanga kelib, bizni kutib turgan ekan. Bu yigitchaning odamgarchiligini o'la-o'lgunimcha unutmayman. Hamma ishimni bartaraf qilibdi, boradigan yerimdagi musofirxonadresigacha hech bir narsani esidan chiqarmabdi. Hozir ham bog'liq bo'yniga zarar qilishi aniq bo'lgan iman shamoliga, nam havosiga qaramay, menga oq yo'l tilagani keldi.

Chamadonimni va yo'l hadyasi qilib keltirgan kichkina qutichasini kayutaga o'z qo'li bilan joylashtirdi. Keyin necha qayta pastga tushib chiqib, kayuta xodimlariga bir nimalar tayinladi.

Kema langardan bo'shanguncha palubaning bir chetida o'tirdik.

Odam ayriliq soatida tinmay gaplashishi, bor gapini aytib olishi kerak emassi? Holbuki, shu bir soat ichida Gulmisol xalfa ikkalamiz juda borsa o'n og'iz so'z aytgandirmiz. U xira ko'k ko'zlari bilan dengizni tomosha qilar, qo'llarimni o'ynab o'tirardi. Lekin kema langardan bo'shayotganda ortiq chidab turolmadni: "Onangni ham shu yerda kemaga o'tqazganman, Farida. Ammo u senga o'xshash yolg'iz emasdi. Xudo xohlasa, seni mana shunday yana quchog'imga olaman", — dedi. Keyin ho'ngrab yig'lay boshladi.

Shahob afandining yonimizda ekaniga qaramay, men ham o'zimni tutolmaydigan bir alfozda edim. Lekin shu dam birdan suron ko'tarildi: "Tush, xonim, hozir zina olinadi!" — deyishdi-yu, boyoqish xalfamni yelkalaridan ushlab tortisha-tortisha zinadan tushirib yuborishdi.

Kichik kotib hamon yonimda turardi. Rahmat aytish uchun qo'limni uzatganimda, yuzi sap-sarg'ayib, ko'zlari to'lib turganini ko'rdim. Birinchi marta yuzimga dadil qarab, otimi ni so'rashga jur'at etdi. Keyin:

— Farida xonim, butunlay ketyapsiz, shundaymi? — dedi.

Ayriliq damlarining tegirmon toshiday ustimgatushgan og'irligiga qaramay, kulgidan o'zimni tutolmadim.

— Yana qanday shubha bo'lishi mumkin? — dedim.

U ortiq hech nima demadi, qo'lini qo'limdan chiqarib, yugurbanicha zinadan tushib ketdi.

* * *

Dengiz safarini juda yaxshi ko'raman. Olti-etti yoshlarda, kichkina bolaligimda otamning askarlari bilan birga qilgan sayohatimning gashti hali ham dilimda yashaydi. Kema, undagi odamlar, hatto Husayn ham esimdan chiqqan-u, lekin katta dengizdan uchib o'tgan bir qushning esida nimaiki qolishi mumkin bo'lsa, menda ham juda borsa o'shanchalik narsa qolgan. Har tarafi oqar chiroqlar bilan to'lgan moviy bo'shliqda uchish gashti! Dengizning mendagi keng og'ush ta'siriga qaramay, palubada turolmadim; kemaning tumshuq tomonidan aylanib o'tib kayutamga tushib ketdim. Shahob afandi keltirgan quticha chamadonimning ustida turgan edi. Nimaligini bilgim qistab ochdim. Bir quti fon-

dan.* Men dunyoda eng yaxshi ko'rgan narsa!

Kichik kotibning hadyalaridan birini olib lablarimga keltirdim. Lekin shu dam birdaniga ko'zlarimga yosh chiqdi. Nega bunday yig'ladim — bilmayman! O'zimni tutishga intilgan sarim ko'z yoshlari ortar, ko'ksimda bir narsa tiqilib turardi. Sababsiz izardirobim mana shu bechora konfetdan kelayotganday, uni beixtiyor joyiga soldim-u, qutini kayutamning kichkina derazasidan dengizga uloqtirdim.

Ha, dunyoda ko'z yoshlari ham bema'ni narsa bo'lmaydi. Buni tushunaman. Shunday bo'lsa ham, mana hozir, shu satrlarni yozib turganimda ham kipriklarimdan yoshlari quyilib, oldimdag'i daftari varag'ini qabartirmoqda.

Yo bu tashqarida sharpasiz yog'ib turgan yomg'ir ta'sirimikan? Hozir Istambul qalay ekan? U yerda ham shunday yomg'ir yog'yaptimikan? Yoki Qo'zyotog'idagi bog' hozir oy yog'dusida porillab yonyaptimikan?

Komron, yolg'iz sendangina emas, sen bor yerlardan ham nafratlanaman!

* * *

Bugun ertalab uyg'onganima, necha kundan beri davom etgan yomg'ir tingan edi. Bulutlar tarqalibdi. Derazamning ro'parasidagi yuksak tog'lar tepasida tumanning nafis pardalari tortilibdi.

Kechasi yotayotib derazani yopib qo'yish esimdan chiqqan ekan. Yengil tong shabadasi karavotim yopiqlariga, to'zg'igan sochlariimga tushib turgan quyosh nurlarini sariq ilar singari hilpillatar, goho uzib tashlar edi.

Musofirxonaning mana shu kichkina nomerida besh kundan beri asablarim ziyodasi bilan buzildi. Kechasi birdan uyg'onib ketdim, qarasam, betlarim qirov tushgan yaproqlar singari ivibdi. Bolishim ham ho'l. Demak, uyquda yig'laganman. Mana endi bir parcha quyosh ko'nglimga nur sochib, umidimni yana jonlantirayotir, menga maktab yotoqxonasi kutib olganim bahor sabohlarining hafifligini baxsh etayotir.

Bugungi kun menga xushxabar keltirishi kerak. Endi qo'rqaqidigan joyim qolmagan edi. Suyunib, o'rnimdan sakrab turdim. Eski bichim umivalnik oldida turib yuvina boshladim.

Toza buloq suviga boshchalarini cho'kirib olgan qushlar singari, men ham suvni atrofimga, ro'paradagi oynaga sachratar edim.

Eshik sekin taqilladi, keyin Hoji xalfaning:

— Sabohi shariflari xayrli bo'lsin, otin qizim. Bugun yana erta turibsanda? — degan ovozi eshitildi. Sho'x bir tovush bilan:

— Bonjur, Hoji xalfa, — dedim. — Shunaqa bo'ldi. Uyg'onganimni qaerdan bildingiz? Hoji xalfa kuldii.

— Hayronman, qushga o'xshash chirqillab turasan.

Haqiqatan, qushga o'xshashligim borligiga o'zimda ham ishonch paydo bo'la boshlagan edi.

— Nonushtangi olib kelaymi?

— Bugun nonushta qilmay qo'ya qolsam bo'lmaydimi?

Ovoz bu safar jahl qildi:

— Yo'q, bo'lmaydi! Menga bunaqa gapingni qo'y. Ko'chaga chiqish yo'q, ko'ngil ochish yo'q, qamoqdagi odamday xonaga tiqilding-qolding. Endi ovqat ham yemaydigan bo'lsang, ro'parangdagi qo'shningga o'xshaysan-qolasan.

Hoji xalfa keyingi jumlani narigi nomerdag'i qo'shniga eshittirmaslik uchun og'zini qulf teshigiga qo'yib, ovozini pasaytirib aytdi.

Hoji xalfa bilan juda ham do'stlashib ketgan edik. Birinchi kuni saharda uyg'ondim-u, darhol kiyinib, portfelimni qo'ltilqqa urdim-da, musofirxona zinasidan pastga sakrab-sakrab tusha boshladim. Hoji xalfa yana o'sha oq fartugini tutib olib, kichikkina hovuz labida

nargila* tozalayotgan ekan.

Meni ko'rishi bilan qirq yillik do'stlarday:

— Ana xolos, Farida xonim, nega muncha barvaqt uyg'onding-a? Yo'ldan charchab kelgan, hali tushgacha uxlaydi, deb o'ylovdim, — dedi.

Men kulib:

— Voy, tushgacha uxlab bo'ladimi? Ishga kelgan muallima tushgacha qanday yotadi?

— dedim.

Hoji xalfa nargilasini bir yoqqa qo'yib, qo'llarini beliga tiradi.

— Muni qara! O'zi yosh bola, ko'cha changitib maktab qatnaydigan zing'archa-yu, yana bu kishi o'qitgani borarmish! — deb kula boshladi.

Maoriof ministrligidan tayin qog'ozimni olgan minutimdan boshlab sho'xliklarni yig'ish-tirishga majbur edim. Lekin Hoji xalfanining meni yosh bola o'rniда ko'rganiga chidab turolmay, yana sho'xligim qo'zidi, portfelimni to'pday otib, yana tutib oldim.

Bu harakatim Hoji xalfanining kayfini chog' qildi, chapak chalib yubordi.

— Yolg'on aytmabmanmi! Mana, hali ham yosh bolasan,— dedi qahqaha urib.

Musofirxona xizmatkori bilan shunchalik maymana bo'lish qanchalik to'g'ri ekan, buni-sini bilmadim. Lekin men ham unga qo'shilib kuldum, keyin u yoq-bu yoqdan ancha gap-lashdik.

Hoji xalfa: "Nonushta qilmay maktabga ketmaysan", — deb oyog'ini tirab turib oldi.

— U qaroqchilar orasida kechga dovur och yurib bo'ladimi axir, o'ylasang-chi, xo'joni? Hozir senga pishloq, sut opkelib beraman. Innaykeyin, afandim, bugun birinchi kun, shuning uchun uncha shoshmasang ham bo'ladi, — deb meni qo'yarda-qo'ymay hovuz labiga o'tqazdi.

Vaqt erta bo'lgani uchun musofirxona hovlisida hali hech kim yo'q edi.

Hoji xalfa ro'paradagi do'konlardan biriga qarab:

— Mulla, bizning muallimamizga Istanbul teshikkulchalari bilan sut olib kel, — dediyu, keyin men tomonga o'girilib, uni maqtadi: — Mullaning suti sutjon-da! Sizlarning Istanbulingizdagagi sutni bunikining oldida chilim suvi deyaver.

Hoji xalfanining rivoyatiga ko'ra Mulla sigirlarini yozin-qishin nok bilan boqar, shuning uchun sutidan nok hidi kelib turar emish.

Qari armani bu sirni aytib turib, menga sekin ko'zini qisib qo'ydi, keyin:

— Lekigin Mullaning o'zidan ham andakkina nok hidi kelib turadi, — deb hazillashdi.

Men hovuz bo'yida nonushta qilib turgunimcha, Hoji xalfa, bir yoqdan chilimni chayar, ikkinchi yoqdan shaharning bitmas-tuganmas g'iybatlarini aytib, meni kuldirardi. Yo xudo, bu odam bilmaydigan nima bor ekan? U maktab muallimalarining xatti-harakatlarini, hatto ulardan har birining qanday, qancha kiyimi borligini ham mukammal bilardi.

Nonushta qilib bo'lib o'rnimdan turgan edim:

— Shoshmay tur, o'zim boshlab boraman. Maktab-ku yaqin-a, lekin yo'li qurg'ur chatoq, adashib qolasan, — dedi-da, oqsoq oyog'i bilan oldimda likonglab borib, meni mar-kaziy rushdiyaning yashil bo'yoqli yog'och darvozasi oldidan olib chiqdi. U bo'lmasa, bu qing'ir-qiyshiq ko'chalarda adashib qolishim turgan gap ekan.

Tashqarisidan qanchalik xarob ko'rinxas, bari- bir, ko'ngil qo'yish niyati bilan kirgan maktabimda meni qanday falokat qarshilaganini batafsil so'zlab berishim kerak.

Qorovulxonada hech kim yo'q edi. Bog'dan o'tib ketayotib, qo'lida eski charm portfel bilan chiqib kelayotgan bir xotinga duch keldim. Egnida katak matodan qilingan chor-shaf, betidan mahkam yopilgan ikki qavat parda bor edi. Meni ko'rib to'xtadi, sinchiklab qaradi.

— Nima ishingiz bor edi, xonim?

— Mudira xonimni ko'rmoqchiman.

- Biror ishingiz bormi? Mudira menman.
- Shundaymi, afandim, — dedim. — Men geografiya va rasm darslariga tayinlangan yangi muallimangiz Faridaman. Kecha Istambuldan keldim.
- Katak chorshafli mudira yuzini ochdi. Meni yuqorida pastgacha ko'zi bilan suzib chiqdi, keyin taraddudlanib gapirdi:
- Bu yerda biron xato bo'lmasin tag'in, qizim. To'g'ri, bizda geografiya va rasm mualimasining o'rni bo'sh edi. Lekin bir hafta burun Gelibo'li maktabidan bitta muallima yuborishdi.
- Men o'zimni tamom yo'qotib qo'ydim.
- Bunday bo'lishiga hech aqlim yetmaydi, afandim,— dedim. — Axir meni Maorif ministrligidan yuborishdi-ku! Buyruq portfelimda.
- Mudira tor, cho'kik peshonasiga chiqib ketgan qoshlarini ko'tardi-da, yuzimga hayrat bilan qarab:
- Voy xudo, voy xudo! Qani, bering-chi, buyrug'ingizni bir ko'ray, — dedi.
- Boyoqish xotin qog'ozni bir necha marta o'qidi, tarixiga qaradi, keyin boshini liqillatib:
- Bunaqa xatolar bo'lib turadi, — dedi. — Bilmasdan ikkalangizni ham bir o'ringa tay-inlashibdi. Voy, bechora Huriya xonim-ey!
- Huriya xonim kim, afandim?
- Gelibo'lidan kelgan haligi muallima. O'zi yaxshigina juvon. U yerning havosi mijoziga to'g'ri kelmay, shu yoqqa kelgan. Obbo, bechoraning boshida ko'rgilik bor ekan-da.
- Faqt u emas, men ham yomon ahvoldaman, afandim, — dedim.
- Ha, bunisi ham to'g'ri. Masala bir yoqlik bo'Iguncha u bechorani dilgir qilmay turaylik. Men hozir bir ish bilan maorif bo'limiga ketyapman. Yuring, birga bora qolaylik. Zora biron yo'llini topsak.
- Maorif bo'limining mudiri ish bilan kelgan odamlarga uxbalganda qolganday ko'zlarini yumib o'tirib muomala qiladigan, so'zlarini uyqusirayotganday bo'lib-kesib gapiradigan, temsatebranmas, og'ir tabiatli kishi ekan.
- U bizning gapimizni yuragi siqilib o'tirib eshitgandan so'ng salmoqlanib gapirdi:
- Men nima qilay? O'zları shunday qilishganki, shunday bo'lgan-da, Istambulga yozaylik-chi, ko'ramiz, qanday javob kelar ekan.
- Gapga baland bo'yli bir kishi aralashdi. Men buni kalta nimchasi ostidan chiqib turgan qizil belbos'iga qarab aravakash bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim. Keyin bilsam, bo'lim kotibi ekan.
- Tarixiga qaralsa, bu xonim to'g'risida berilgan buyruq yangi, — dedi kotib, — shuning uchun bu kishini maqbul bo'lgan, haqli deb hisoblash kerak.
- Mudir mudrab o'tirib xayol surayotganday o'ylanib qoldi, keyin:
- Yo'q, garchi bu to'g'ri bo'lsa ham, lekin unisini ishdan chetlatish to'g'risida buyruq yo'q. Ministrlididan so'rab aniqlaylik. Sakkiz-o'n kun ichida javob olamiz. Siz ham, mudira xonim, ungacha sabr qilib turasiz, — dedi.
- Katak chorshafli mudira orqasidan yana o'sha qing'ir-qiyshi ko'chalar bilan maktabga sudralib keldim. Koshki edi, to'g'ri musofirxonaga keta qolgan bo'lsam!
- Huriya xonim qirq besh yoshlarda, qoracha, past bo'y, tajang xotin ekan. Voqeadan xabardor bo'lar-bo'lmas yuzi battar qoraydi, ko'zları olaydi, ingichka bo'ynining ikki tomonidagi tomirlari bo'rtib chiqdi. Keyin bolalar bayramida shishirib chiyillatadigan pufak singari ovoz chiqarib faryod ko'tardi:
- E xudo, bu nima degan gap, do'stlar! Bu qanday sho'rlik!
- Huriya xonim yerga yiqilib, hushidan ketdi.
- Muallimlar xonasida to'polon ko'tarildi. Ko'zoynak taqib olgan bir qari muallima eshikka to'plangan o'quvchilarni haydar, ularni zo'rg'a to'sib turardi.

O'qituvchilar Huriya xo'jonimni divanga yotqizishdi, yuziga suv sepishdi, nashatir hidlatib, ko'ylagining yoqalarini yechishdi, burga talagan ko'kragini ishqashdi.

Men butunlay o'zimni yo'qotib qo'ydim, qo'limda portfel, nima qilishimni bilmay burchakda jim turdim.

Hali eshikdagi o'quvchilarni quvib chiqargan muallima ko'zoynagi ustidan menga xo'mrayib qaradi.

— Qizim, odamgarchililingga hayron bo'lib qoldim! Buning ustiga yana kulib o'tiribsan, — dedi.

Ta'na qilishga haqqi bor edi. Afsuski, o'zimni tutolmay kulimsirayotgan edim. Huriya xonimdan emas, o'zimni yo'qotib qo'yanimdan kulayotganimni u boyoqish qaerdan bilsin?

Lekin kulgan bir mengina emas edim. Uzun bo'yli, tim qora ko'zli bir yosh juvon ham piqillab kulayotgan edi. U yonimga kelib, qulog'imga shivirladi:

— Bilmaganlar: bu xotinning eri ustiga xotin olipti, uyiga kundosh olib kelipti, deb o'ylaydi. O'lay agar, shaytonlagani yo'q, alamidan qilyapti.

Huriya xonim ko'zlarini ochdi; burnidan, betlaridan suv oqar edi. Qornida bomba portlaganday gurillatib kekirar, boshini likillatib chinqirardi:

— Voy do'stlarim, menga nima bo'ldi? Shuncha yoshta kirganimda hali boshimda shu savdolar ham bor ekanmi?!

"Bulbulning sho'ri — tilidan" deyishadi, to'g'ri gap. Men yana bir ehtiyoitsizlik qildim. Qaysi go'rden ham hol so'rab qoldim!

— Bir oz yaxshi bo'ldingiz shekillik? Xudoga shukur, — debman.

Ajab bo'ldi, o'zimga o'zim qildim. Huriya xonim biram shanqib berdiki, buni so'z bilan aytib berolmayman. Voy sho'rim, nimalar demadi-ya! Joniga qasd qilishga qilib qo'yib, keyin hol so'ranganmishman. Dunyoda bundan ortiq yuzsizlik, hayosizlik, tarbiyasizlik bo'lmasmish!

Bir burchakka tiqilib, uyalganimdan ko'zlarimni yumib oldim. Muallimalar Huriya xonimni hech tinchita olishmas edi. Ovozini pardama-parda ko'tarib borar, shunday so'zlar aytardiki, markaziy rushdiyada emas, ko'chada ham bunday so'zlar og'izga olinmasdi. Qanday narsa ekanligim yuzimdan ko'rinish turgan emish. Uning og'zidagi oshini olish uchun kim biladi, ministrlilikda necha kishiga...

Burchakda turibman, ko'z oldimni qorong'ilik bosar, vujudim muzlab borar, tishlarim takirlardi. Eng dahshatlisi shu ediki, boshqa muallimalar ham uning gapini ma'qulla-shayotganday bir avzoda edilar.

Birdaniga allakim o'rtadagi stolga bir musht tushirdi. Stakanlar bilan grafinlar jiringlab ketdi.

Musht tushirgan kishi haligina men bilan birga kulishgan tim qora ko'zli yosh juvon edi. U hozir qoplonga aylangan edi. Ko'tarilgan sari jahlga aylanib borgan bir tovush bilan qichqirdi:

— Mudira xonim, bu qanaqa mudiralik? Bu xotinning boshqa bir muallima nomusiga til tegizishiga nima uchun yo'l qo'yasiz? Biz axir qaerdamiz? Agar yana bir og'iz so'z aytishiga yo'l qo'ysangiz, uni emas, sizni sudga tortaman. Bu xotin o'zining qaerdaligini esidan chiqarib qo'yyapti!

Qora ko'z muallima bu gal ham yer tepinib, narigi xo'jonimlarga hujum qila ketdi.

— Ofarin, sizlarga, dugonalar! Juda xursand qildinglar! Maktab ichida o'z kasbdoshimizning haqorat qilinishiga shunday xotirjam qarab tursanglar-a!..

Oraga bir zumda jimlik cho'kdi. Huriya xonim yolg'iz qolayotganini bilib yana yig'lashga, jazava boshlashga tutindi. Yaxshiyamki, birdan darsga qo'ng'iroq chalinib qoldi. Muallimalar daftarlарини, kitobларини, tikish-bichish savatларини ko'tarib tarqala boshladilar.

Mudira xonim:

— Sizni kabinetimda kutaman, qizim, — dedi-yu, u ham chiqib ketdi.

Bir ozdan so'ng boyan meni himoya qilgan yosh juvon ikkalamiz qoldik.

Unga minnatdorchilik bildirish niyatida:

— Qarang, meni deb siz ham ancha ovora bo'ldingiz,— dedim.

U "ahamiyati yo'q" demoqchi bo'lganday yelkalarini uchirib kului.

— Jo'rttaga shunday qildim. Bundaylarning ana shunaqa ta'zirini berib qo'ymasa bo'lmaydi. Odamning boshiga chiqib olishadi. Undan keyin sho'ringiz quriydi. Darsdan keyin ko'risharmiz, a?

Mudiraning kabinetiga borishga bordim-u, lekin eshikni ochib kirishga yuragim betlamadi. Yana shu haqda gap ochilishini o'ylab ko'nglim behuzur bo'ldi. Oyoq-qo'llim bo'shashdi, portfelim og'irlashdi, hech kimga ko'rinnmay mактабдан chiqib musofirxonaga qaytdim.

* * *

Hoji xalfa meni ko'rар-ko'rmas qo'llarini silkib yozdi, kyunib gapira ketdi.

— Voy xo'jonim, sen bechoraning boshingga nimalar solishmabdi-ya!

Tavba, butun voqeadan xabardor ekan. Darrov qaerdan ham bilib olganiga hayronman.

— Hazir bo'l, qizim, ko'zingni katta och endi. Istambulga yozamiz, deb seni yana laqil-latib yurishmasin. Maorif ministrligida tanishing bo'lsa darrov xat yozaylik, — dedi.

Meni ministrga tavsiya qilgan keksa shoirdan bo'lak tanishim yo'qligini aytdim. Hoji xalfa uning otini eshitib, yosh boladay suyunib ketdi.

— Voy, u mening valiulne'matim-ku!* — deb yubordi. — U bir vaqtlar bu yerda idodiya** mudiri edi. Farishtaning o'zi u, bolam! Yoz, qizim, darrov yoz! Menga hurmatning bo'lsa, mendan ham duo ayt. "Qulingiz Hoji xalfa muborak qo'lingizni ko'zlariga surtadi", degin.

* * *

Bechora Hoji xalfa oqsoq oyog'ini sudrab tez-tez tepaga chiqar, "prokurorbey qo'rmasin, maorif bo'llimining mudirini qattiq siqishtirsin, haqqi bor", deyar, yo bo'lmasa: "Baladiya injeneri ertaga Istambulga ketayotipti. Maorif ministrligiga uchrayman deb va'da qildi", degan gaplarini topib kelardi.

Bu qanday taajjub o'lka! Boshimga tushgan savdoni bir soat ichida hamma bilib olipti. Musofirxona qahvaxonasida, hammaning og'zida shu gap!

— Hoji xalfa, bu qanday gap, bu yerda hamma bir-birini bilar ekan! — dedim.

Chol ensasini qashib turib:

— E, bu yer kichkina hovuchday joy qizim, — dedi.— Bu yer qaerda-yu, toshidan, tu-prog'idan o'rgilay Istambul qaerda! Bunday gap u yerda bo'lsami, hech kim bilmaydi, yopig'liq qozon yopig'ligicha ketaveradi. Bu yerning g'iybati ko'p. Sen buni bilib qo'yishing kerak. Mendan senga bir nasihat aqli-hushli bo'l, odobli bo'l. Do'konlarda, bozorlarda yuzingni ochib yurma. Ha-da! (Voy xudo, bu "ha-da" so'zini shunaqa ham g'alati qilib aytardiki!) Xudo nasib buyursa, sening ham omading kelar. Bu yerda bir muallima bor edi. Orifa xo'jonim. Sud raisi o'shangan uylandi. Mana endi yegani oldida, yemagani ortida. Senga ham xudo shunday baxt bersin. Nima, sen uni chiroyli xotindir deysanmi? Chiroy yo'l bo'lsin! Faqat iffatli, og'ir-vazmin xotin edi. Hozir dunyoda odam uchun nomusdan qimmatli narsa yo'q!

Hoji xalfaning menga ishonchi, husni tavajjuhi kun sayin ortib bordi. Har kuni uyidan mayda-chuyda narsalar: choynak o'rab qo'yiladigan to'r yopiq, kashtali sochiq, yog'och-

dan qilingan suratli yelpig'ich va shularga o'xshagan buyumlar keltirib, uyimni bezar edi.

Gohi mahallar gaplashib o'tirganimizda, pastdan xirqi tovush eshitiladi:

— Hoji xalfa, yana qaysi jahannamga gumdon bo'lding?

Bu Hoji xalfanинг xo'jayini, musofirxonanegasi edi. Shunday paytlarda bu qari chol xuddi ashula aytayotganday past, muloyim, maqomli tovush bilan:

— Ha, ovozing o'chkur, ha! Hoji xalfaning boshiga bitgan balo bo'lding sen, ha! — deydi, keyin ovozini ko'tarib javob qiladi: — Hozir, hozir!.. Ozroq yumush bor edi.

* * *

Musofirxonada Hoji xalfadan bo'lak yana bitta do'stim ham bor edi. U o'ttiz besh-qirq yoshlarga yetib qolgan bir mushtipar xotin. Monastir degan joydan kelgan.

U bilan qanday do'stlashib qolanimizni hozir aytib beraman. Musofirxonaga kelgan kunim kech-qurun nomerimda narsalarimni joylashtirayotgan edim. Birdan eshik sekin g'itilladi. Qayrilib qaradim: eshikdan sariq chit ko'ylakli, yashil ro'molli bir xotin kirib kelyapti.

U ichkariga kirib so'rashdi:

— Yaxshimisiz? Xush kelibsiz, xonim qizim.

Upa-elik chaplab tashlangan ozg'in yuzi shuvog'i ko'chgan yerlariga ohak surtib qo'yilgan vayrona devorni eslatadi; surmali qoshlari, tishqori surtilgan qora tishlari basharasi ni murdanikiga o'xshatadi.

Men xiyol sarosimalanib:

— Xush kelibsiz, afandim, — dedim.

— Voldalari qaerda?

— Qanaqa volida, xonim afandi?

— Muallima... Siz muallimaning qizi emasmisiz?

Men o'zimni tutolmay kulib yubordim.

— Men muallimaning qizi emas, o'zman, afandim! U, yerga cho'kkalamoqchi bo'layotgandek, qo'llarini tizzalariga urdi.

— Voy! Muallima hali sizmisiz? Umrim bino bo'lib sizdaqa mushtumday muallimani hech ko'rмаган edim. Men sizni yoshi anchaga borib qolgan og'ir-vazmin muallimadir-siz, deb o'yabman.

— Hozir shunaqasi ham uchrab qoladi, afandim, — dedim.

— Ha, uchraydi... Ha, uchraydi... Bu dunyoda nimalar bo'lmaydi! Biz ham shu yerda, ro'parangizdagи nomerda turamiz. Bolalarni uxlatib, siz bilan so'rashib chiqay deb kiruvdim... Xudo kam qilmasin, kunduzlari bolalarning g'ovg'asidan qo'lim bo'shamaydi. Lekin kech kirib, bolalar uxladi deguncha, yuragim biram siqiladiki, asti so'ramang. Yolg'izlik faqat xudoning o'zigagina yarashadi, shunday emasmi, singiljon? O'ylaysan-o'ylaysan, o'yingning tagiga yetolmay chekasan, yana chekasan. Kechalari ana shunday tong ottiranman. Xudo yetkazdi sizni, aylanay singlim. Mundog' o'tirib hasratlashsak, ko'nglimiz yengil tortar.

U bechora avval meni "xonim qizim" deb gap boshladi-yu, keyin, mening muallimali-gimni bilgandan so'ng, bu so'zini o'zgartirib, "singlim" deya boshladi.

Men unga stulni ko'rsatib:

— Marhamat, o'tiring, — dedim, o'zim esam karavotning chetiga o'tirib, oyoqlarimni o'ynata boshladim. Monastirdan kelgan xotin:

— Men stulda o'tirolmayman, singlim, — dedi. Ke- yin galati bir alfovza yerga, oyoqlarimning takkinasiga o'tirib, tizzalarini cho'nqaytirdi-da, ko'ylagining cho'ntagidan tunuka tamakidonini olib, ikkita yo'g'on-yo'g'on tsigarka o'radi. Shulardan bittasini men ga in'om qildi.

— Rahmat, men chekmayman, afandim, — dedim.

— Men ham burun chekmasdim, — dedi u xotin. — Lekin g'amu hasrat qo'ymadi.

Qo'shni haqiqatan ham baxtsiz edi. So'zlariga qaraganda, Monastirda tappa-tuzuk odamning qizi ekan. Bog'lari, uzumzorlari, ho'kiz-sigirlari bor ekan. Otasining hovlisida hamisha to'rt-beshta kambag'al kun ko'rib kelarkan. Monastirning obro'li beylaridan ko'pginasi unga og'iz solishgan bo'lsa ham, bu johillik qilibmi: "Yo'q, qilich taqqan ofitserdan boshqasini xohlamayman", deb turib olibdi. Koshkiydi o'shanda onasi rosa kaltaklab, beylardan birontasiga berib yuborgan bo'lsa emish. Lekin u bechora xotin ham boshiga qanday savdolar tushishini qaerdan bilibdi! Kelib-kelib bittayu bitta qizini belidagi qilichidan bo'lak molu mulki yo'q bir leytenantga beribdi. Hurriyatgacha* bir nav turishibdi. Keyin 31 martda eri harakatdagi qo'shin bilan Istambulga ketibdi. Shu ketgancha hech daragi bo'lmabdi. Na biron marta kelibdi va na ikki enlik xat yozib yuboribdi. Oxiri, kunlarning birida, Istambuldan kelgan bir dugonasidan erining B... da ekanligini va o'sha yerda boshqa bir xotinga uylanganini eshitibdi. Nachora, shunday ham bo'ladi: shariati-miz to'rttagacha xotin olishga ruxsat beradi! Boyoqish qo'shni bir oz yig'lab-siqtagandan so'ng uch bolasini olib, shu yerga yetib kelibdi. Kelishga kelibdi-ku, lekin eriga manzur bo'lmabdi. Bir mahallar yalina-yolvora zo'rg'a olgan katta xotininigina emas, hatto jigarpora bolalarini ham ko'rgisi kelmay, ularni tez Monastirga qaytlaring, deb qistayotgan emish. "Shuncha yillik erimsiz, menga jabr qilmang!" deb oyoqlariga o'zini tashlasa ham, itday suykanib yalinsa ham zolim eri olib qolishga ko'nmayotgan emish.

Bu uzun hikoyani eshitib, chidab turolmadim:

— Voy aylanay, xonim, sizni yomon ko'rgan odam oldida nega o'zingizni shuncha xor qilasiz? U sizni ursa, siz ham uring, alamdan chiqasiz, — dedim.

Monastirlik xotin mening johilligimga achinayotganday kulimsirab turib:

— Aylanay singlim, axir u ko'z ochib ko'rganim-a! Shuncha yil bir yostiqqa bosh qo'yib keldik. Erdan ayrilish osonmi, aylanay! — dedi-da, titroq tovush bilan bir bayt o'qidi: "Onadan kechilar, yordam kechilmas".

Mening jahlim chiqib ketdi.

— Seni aldagan erkakni qanday qilib sevib bo'ladi! Men bunga hech tushuna olmayman, — dedim.

U qora tishlarini ko'rsatib achchiqqina kului.

— Hali juda ham yoshsiz, singlim. Ishq o'tida yonmagansiz-da, bilmaysiz. Xudo boshingizga solmasin, — dedi.

— Men bir qizni bilaman: to'yiga ikki kun qolganda, unashib qo'yilgan kishisi boshqa bir xotin bilan yurib aldaganini bilib qolgan-u, unashilganda taqqan uzugini o'sha hayosizning yuziga otib urib, begona yurtlarga boshini olib ketib qolgan.

— Keyin pushaymon bo'lgandir u qiz, singlim, bechora? Sog'inib-sarg'ayib, yuraklari qon bo'lgandir. Urushda o'q yeganlarni hech eshitmaganmisiz, singlim? Ba'zilari o'q yeganlarini bilmay qolishadi, yana uch-to'rt qadam ilgari ham bosishadi. Yara yangiligidagi og'rimaydi, singiljon. Bir oz sovisin, innaykeyin ko'rasan. Boyoqish qiz xo'p kuyib-yonadi, qiynaladi.

Birdaniga karavotdan sakrab tushdim, jinnilarday uyda u yoq-bu yoq yura boshladim. Yomg'ir derazalarni qamchilar, ko'chadan itning xirillab hurgani eshitilardi.

Monastirdan kelgan xotin ichidan xo'rsinib olib, so'zini davom qildi:

— G'urbat eldamani. Qanotlarim siniq. Qo'limda kuch-quvvat, tanimda mador yo'q. Monastirda bo'lganimda hash-pash deguncha erimni bu manjalaqining qo'lidan tortib olardim, a!

Hayronlikdan ko'zlirimni katta ochib:

— Qanday qilardingiz? — dedim.

— Kundoshim bu yerda erimni sehrlab, boshini bog'lab qo'ygan. Bechoraning tilini, og'zini bog'lab qo'ygan. Lekin Monastir jodugarlari bu yernikidan kuchli, amali zo'r. Ko'p emas, uch majidiya* bersam bas, erimni o'sha alvastining qo'lidan qutqazib, o'zimga qaytarib berishardi.

Ana shundan keyin qo'shnim rumelilik** jodugarlar to'g'risida uzundan-uzoq izohlar bera boshladi:

— Bizda Orif Xo'ja degan bir alban bor. Shu kishi duo o'qib, to'ng'izning qulog'ini durbingga aylantirib yuborgan. Har qanday xotin ana shu durbinni ko'ziga tutib eriga bir qarasa bo'ldi: eri har qancha buzuq bo'lsa ham darrov tuzuk bo'lib qoladi. Nimaga desang, boshqa xotinlar unga to'ng'izday ko'rinish qolar ekan. Innayke-yin, Orif Xo'ja gohi mahallar sovundan jindek kesib olar ekanu, igna sanchib, duo o'qigandan so'ng yerga ko'mib qo'yar ekan. Sovun tuproqda erigan sayin odamning dushmani ham turgan yerida erib, ignaday ingichka bo'lib qolar ekan.

Boyoqish xotin jodugarlar haqida shu xil hikoyalar qilib o'tirib, tunuka tamakidonini qo'ldan tushirmas, ustma-ust tsigarkalar o'rab chekar edi.

Naqadar bema'ni, ayanch so'zlar! Ayniqsa, sovigandan so'ng og'riy boshlaydigan yara haqidagi gaplari! Ajabo, shunday bo'lishi mumkinmi? Men u zolimni hech sog'inib, sarg'ayyapmanmi? Uni hech o'layapmanmi?

Monastirlik qo'shnim yuziga chaplab tashlangan bo'yoqlari, satil soplariga o'shagan qoshlari, cho'kik ko'zlari atrofida qo'rqinchli bir halqa tashkil etgan surmalari oldin men-da jirkanch hissi uyg'otgan edi. Lekin bular erini qaytarib keltirish uchun qilingan hiyla, vosita ekanini sezganididan keyin yuragim achishib ketdi.

Bechora xotin hamon:

— Erginamning ko'ziga issiq ko'rinish uchun, hatto bolalarim rizqini kesib elik, xina, surma sotib olsam, kelinchakday yasanib-tusansam ham bo'lmayapti. Hali aytdim-u, jodu qilib qo'yishgan, — derdi.

O'sha kundan beri eshigim g'itillab ochildi deguncha, kirib kelayotgan qo'shnim ekani ni qayrilib qaramasanoq bilib turaman, kiradi-yu:

— Bo'shmisan, singiljon? Picha o'tiray, maylimi?— deydi.

Yolg'izlik shunchalar jonimga tegdiki, uning ovozini eshitsam, suyunib ketadigan bo'lib qoldim. Qalamimni uloqtiraman-da, toliqqan barmoqlarimni bir necha bor ochib-yuman, keyin qo'shnimning menga allaqachon yod bo'lib qolgan badbaxt ishqil hikoyasini zavq bilan eshitishga tayyorlanaman.

* * *

Derazamdan baland qir ko'rinish turadi; dastlabki kunlar uning manzarasi bahrimni ochar edi. Endi bu ham me'damga tega boshladi. Agar odam bu tumanli yonbag'irlar shabadasida sochlarni to'zg'itib yurmasa, etaklarini shamol uchirmasa, tik qoyalarda uloqday sakrab yayramasa, uning nima keragi bor?

Oh, uydan boshimni olib chiqib ketib, dalalarda soatlarcha kezgan, bog' tevaragidan panjaraga kaltak urib, daraxt shoxlariga tosh otib qushlarni cho'chitgan kunlarim qani, qaerda? Holbuki, Anatoliyaga kelishimdan maqsad ham shu edi!

Qizaloqligimdan beri rasm chizishni juda yaxshi ko'raman. Maktabda hamisha to'la baho olib kelgan darsim shu edi. Chorbog'da top-toza uy devorlariga, maktabdagi hay-kallarning marmar supalariga oddiy yo rangli qalamlar bilan chizgan rasmlarim uchun qanchalar ozor ko'rgan, jazolar tortgan edim. Istambuldan jo'nayotganimda chamadonimga birtalay rasm qog'ozi bilan rangli qalamlar solib olgan edim.

Musofirxonadagi yolg'izlik kunlarimda yozuv-chizuvdan siqilsam rasm solardim, bu mening uchun yaxshigina tasalli bo'lardi. Hatto Hoji xalfanining bitta qora qalam, yana bit-

ta suv bo'yoqli ikkita rasmini solishga harakat qilib ko'rdim.

Bu suratlarning qanchalik o'xshaganini bilmayman. Lekin u o'zini burnining qo'yilishi-dan, ko'zlarining tuzilishidan bo'limganda ham, harholda taqir boshidan, shopday mo'ylovlaridan va oq fartugidan tanib, ustaligimga qoyil qoldi.

Boyoqish erinmasdan bozor aylanib, suratiga rom qildirish uchun qiziga arzon atlas, baxmal, ipak, rangli munchoqlar sotib olib berardi.

Axiyri, qattiq zerikayotganimni ko'rib, Hoji xalfa meni uyiga taklif qiladigan bo'ldi. U xotininining epchilligi, ro'zg'orini tejam bilan tutganligi sababli qutiday chiroyli uy solib, bo'sh vaqtlarida bolalarining yordami bilan ko'k bo'yoqqa bo'yatib olibdi.

Uyi bir jarlik yoqasida edi. Jar shu qadar chuqurki, hovlining chirmov qoplab yotgan yog'och panjara-siga qo'lingizni qo'yib pastga qarasangiz, boshingiz aylanib ketadi. Men ana shu bog'da Hoji xalfanинг oilasi bilan qanchalik baxtli soatlar kechirdim!

Nevrik xonim samatiyalik* ekan. Eri singari, u ham sodda, mehribon, oqko'ngil xotin ekan. Meni ko'rish bilan: "Istambul hidini olib kelding, kichkina xonim!" deb o'zini bo'ynimga otdi.

Istambul tilga olinganda hamisha ko'zlariga yosh chiqar, zabardast ko'ksi hasrat ohidan temirchi bosqoniday shishib tushar edi.

Hoji xalfaning o'n ikkiga kirgan Mirat nomli bir o'g'li bilan Hoyg'onush degan o'n to'rt yoshli bir qizi bor edi. Hoyg'onush, hammayog'iga suv chechagi toshib ketganga o'xshash porsilloqlar bilan to'liq betlari lavlagi singari qip-qizil, qoshlari qalin, uyatchan, beso'naqaygina qiz.

Mirat esa bo'liq, etdor opasining teskarisi, u baliq qoqisiday quruq, rangsiz, kichkina bola.

Hoji xalfa savodsiz, avom odam bo'lsa ham, ilmning qadru qiyomatiga yetar, uni hurmat qilardi. Inson hamma narsani bilishi kerak, sirasini aytganda, kissavurlik ham bir kun emas, bir kun asqatib qoladi, deydi. Mirat ikki yil armani mакtabida o'qibdi, mana endi ikki yildan beri usmonli maktabida o'qiyotgan emish. Hoji xalfaning programmasiga binoan, bu bola har ikki yilda maktabini o'zgartirib turishi, natijada, yigirma yoshida frantsuz, nemis, ingliz va italyan tillarini mukkammal bilgan odam bo'lib yetilishi kerak emish. Albatta, bu nimjon bola ungacha shuncha ilmlar yuki ostida ezilib o'lib ketmasa!

Hoji xalfa bir kun o'g'li to'g'risida gapirib turib mendan:

— O'g'limning oti Mirat ekanligiga diqqat qildingmi? — deb so'radi. — Juda dono ism. Buni topguncha rosa bir hafta kallamni kavlashtirdim. Ikki tilga ham to'g'ri kela beradi: armansasiga Mirat, turkchasiga Murod.

Keyin nihoyatda dono bir gap aytmoqchi ekanligini ishorat qilib bir ko'zini qisdi-da, qo'shib qo'ydi:

— Mirat yaramas bir qilib qilib, jahlimni chiqarguday bo'lsa, men unga sen Mirat ham emassan, Murod ham, bor-yo'g'i meretsan*, deyman.

Bir kuni ularnikida edim. Nima ham bo'ldi-yu, qora armanining jahli chiqib ketdi. Juda ham kulgili bo'ldi-da! Bolaning gunohi onasi pishirgan ovqatni yoqtirmagani bo'ldi.

— Mana bu muttahamga qarang! Mushtumdek bo'yi bor, truli-tuman fe'l-xuyi bor. Tilianchiga bodring berishsa yoqmabdi: qiyshiq ekan, deb ko'chaga otib yuboribdi. Eshak kompotning nimaligini qaerdan bilsin? Nasihatlarimni qulog'ingga quyib ol. Yo'qsa, o'git-nasihatlarga bo'ysunmaganlarning boshida tayoq sinadi. Sen o'zing kimsanki, xudoning non-nasibasini yoqtirmaysan!

*Sen se-ni bil, sen se-ni,
Sen se-ni bil, sen se-ni.
Sen se-ni bil-mas esang,*

Ma-jaqla-shar en-sang-ni!

Hoyg'onushga kelsak, qiz bo'lishiga qaramay, uning o'qishiga ham Miratnikidan kam ahamiyat berilmasdi.

Hoyg'onush armani-katolik mактабида o'qirdi. Hoji xalfa bir kuni qo'shnilaridan hilvirob qolgan bir cholu qora shalvar kiygan bir xotin oldida qizini sinab ko'rishimni iltimos qildi.

Dunyoda bundan ham kulgiliroq narsa bo'lmas. Hoji xalfa qizchasingit kitoblarini, dafitarlarini zo'rlik bilan tizzasiga qo'yib:

— Qani, ko'raylik-chi, Hoyg'onush, xo'jonim oldida yuzimni qora qilsang, yedirgan nomim, ichirgan namagimni burningdan chiqarib olaman, — dedi.

Qizdan bir-ikki ko'paytirish va bo'lish masalalaridan so'rab bo'Igach, "Payg'ambarlar tarixi" deb atalgan bir rasmi kitobni ochdim. Ko'zim Iso va cho'qintirishga doir parchaga tushdi. Bechora qiz cho'qintirish to'grisida gapirib turib, ancha bema'ni narsalar so'zladi. Maktabda qulog'imga yaxshigina quyilib qolgani uchun qizning xatosini tuzatib, cho'qintirishga doir ba'zi sodda ma'lumotlar berdim.

Hoji xalfa so'zlarimni eshitib ko'zları olaydi, boshida sochi bo'lmagan uchun qoshlari ning tuki dikkaydi. Xristian dini haqidagi bilimim unga mo'jizaday tuyuldi. "Bu qanday ish-a! Bir musulmon qizi mening dinimni poplarimizdan ham yaxshiroq bilsa-ya! Men seni shunchaki bir muallima deb yurgan ekanman, sen esang aslida mo'tabar olima ekan san!" deb tahsinlar o'qidi.

Hoji xalfa, o'rnidan qimirlashi solning limandan jilishidan ham qiyinroq bo'lgan semiz xotinining o'mganidan ushlab men tomonga tortdi. "Shu qizaloqni mening nomimdan peshonasining qoq o'rtasidan o'p, tushundingmi?" deb ustimga itardi.

Bechora Hoji xalfa o'zini erkak deb hisoblagani uchun xotiniga o'ptirgan edi.

Qari musofirxona xodimi o'sha kundan boshlab ro'para kelgan har bir kishiga meni, mening chuqur ilmimni maqtaydigan bo'ldi. Shunday bo'ldiki, musofirxonaga kirib chiqqan vaqtlarimda qahvaxonada bekor o'tirgan kishilar meni ko'rish uchun basharalari ni deraza oynalariga yopishtirib qarardilar.

Men "Hoji xalfa, xudo haqqi, bunday qilmang, bunday narsalarning nima keragi bor?" deb qizishib gapirganimda, u hatto isyon ko'tarar, "jo'rttaga qilyapman, shu gaplarim kattalarning qulog'iga yetsa, senga qilgan muomalalaridan uyalishsin deyman-da", deyardi.

Hoji xalfanining oilasi bilan tanishganim menga boshqa bir masalada ham foydali bo'ldi. Samatiyalik xonim juda shirin murabbolar pishirar, mevalarni shakarlashni yaxshi bilar di. Bu narsa mening "Payg'ambarlar tarixi" haqidagi bilimimdan harholda anchagina foydali ilm edi.

Nevrik xonimdan murabbo pishirishning oson, qulay yo'llarini o'rganib, Gulmisol xalfanining ovqat pishirish usullarini yozib qo'yan daftarimga bularni ham yaxshilab ko'chir dim. Bundan so'ngra shirinlik gadosi Choliqushining g'amini biz yemasak, kim yeydi?

Xudo xohlab ishlarim yurishib ketsa, mening ham tepamda boshpanam bo'lsa, o'z-o'zimga murabbolar uchun maxsus bufet sotib olaman. Hoji xalfanining uyidagi singari, raflarini jimjimador qog'ozlar bilan bezayman, bu raflarga yoqut, qahrabo, sadaf kabi por lab turadigan rang-barang qadahlar teraman. Shunisi yaxshiki, bularni yegim kelganda birovdan ruxsat so'rab yoki qo'li egrilik qilib o'tirmayman! Xudo xohlasa, qancha yesam ham, hech kasal bo'lmayman.

Ha, qizil, sariq, oq murabbo idishlari terilib turadi. Bular orasida faqat yashil rangdagisi bo'lmaydi!

Endi hech mahal esimga kelmaydigan Komronning men nafrat bilan qaraydigan

ko'zlari yashil rangni menga xunuk ko'rsatib qo'ydi.

Mana endi u ko'zlarni yaxshi xotirlayman. Komron, ilgarilari ham, hozirda sendan nafratlanib yurgan kezlarimdag'i singari, ko'zlaringni yoqtirmas edim. Bu nafrat boshlanganda men hali o'n ikki yoshga kirmagan edim. O'zing ham, albatta, unutmagan bo'lsang kerak. Har dam hovuchlarimga tuproq to'ldirib yuzingga sochardim. Ajabo, bu faqat bolalik sho'xligidanmi? Yo'q, quyosh nurlari aks urib turgan yo'sinli dengiz kabi ichlarida hiyla uchqunlari chaqnagan ko'zlaringga azob berish uchun sochar edim.

* * *

Yana gapimdan adashdim. Holbuki, maqsadim faqat bugungi voqealarnigina yozib qo'yishdan iborat edi. Qaerda to'xtab edim? Ha, Hoji xalfa bir necha kundan buyon endi mo'ralagan quyosh tufayli bolalarcha zavqlanganimni ko'rди-yu, biron yerdan yaxshi xabar eshitibdi, deb o'ylab, mendan surishtira boshladi. Menga tegishli biron xabarning undan avval qulog'imga yetishi mumkinmi axir? Qaerda och qolishimni ham, qachon uyqum kelishini ham bu g'alati musofirxonha xizmatkoridan so'rab yurmasam, deb o'ylayman!

Hoji xalfa:

— Ko'p noz qilaverma, ayt. Bunday piqirlab kulishingning boisi yo'q emas. Xudo bila-di, biron xushxabar eshitgan ko'rinasan, — dedi.

Undan ham qulog'i dingroq ko'rinish negadir ko'nglimni ko'tarar, yarim hazil, yarim jiddiy bir alfozda ma'noli qilib kular, ko'zlaramni qisar edim.

— Kim bilsin, balki aytib bo'lmaydigan biron sirdir, — dedim.

Quyosh shu qadar chiroyli ediki, uning g'oyib bo'lishidan qo'rqb, musofirxonanining narirog'idagi ko'prikkcha chiqdim. Ro'paramdagi tik tepalikka qarab yurdim, so'ngra botqoqlik orqasidagi bir chakalakdan o'tib, yana bir ko'prikan chiqdim. Hali anchagina aylanishim mumkin edi, lekin yo'lni adashtirib qo'yishdan ham qo'rquinchliroq narsaga duch keldim. Savlatli chodram va mahkam to'silgan yuz pardam bo'lishiga qaramay, bir necha shubhali erkak orqamdan tushib so'z ota boshladi.

Hoji xalfanining nasihatlari esimga tushdi-yu, qo'rqb, darrov orqamga qaytdim.

Maorif bo'limidagi qizil ko'yakli sarkotibning: "Hali ham Istambuldan hech qanday xat-xabar kelgani yo'q, hamshira xonim!" deb javob berishiga ishonardim. Lekin ko'cha ga chiqqandan keyin, u yerga ham bir uchrab kelish lozim.

Mudirning xizmatchisi meni zinada ko'rib:

— Yaxshi kelding, xo'jonim, bey seni yo'qlayotgan edi. Oz bo'lmasa seni qidirib musofirxonaga borardim,— dedi.

Bey degani maorif mudiri edi. Qiziq! Mudir yangi qizil movut yopilgan yozuv stoli orqasida doimiy horg'inligini qondirish uchun ko'zlarini yumib jim o'tirar edi. Qo'llari yonlariga tushgan, yoqalari yechilgan, ko'zlari yarim yumuq holda o'yga botgan. Meni ko'rib esnadi, kerishdi, keyin dona-dona qilib so'zlay boshladi:

— Xonim qizim, Maorif ministrligidan haligicha javob olganimiz yo'q. Xohishlari qanday bo'lishini bilmayman. Lekin Huriya xonim tajribali muallima bo'lgani uchun uni olib qolishsa kerak, deb o'ylayman. Masala sizning foydangizga hal bo'Imagan taqdirda mushkul ahvolga tushib qolishingiz turgan gap. Miyamga bir fikr keldi. Bu yerdan atigi ikki soatlik bir masofada Zaynilar degan qishloq bor. Havosi, suvi yaxshi, tabiat nihoyatda go'zal, aholisi axloqli, vijdonli, gapning qisqasi, jannatday bir joy. U yerda bitta vaqf maktabi bor edi. Bultur shu maktabni ancha ovora bo'lib remont qildik, yaxshiladik. Ko'pgina maktab qurollari sotib oldik. Maktab ichida muallimalar turadigan maxsus uy ham bor. Endi biron yosh muallimaning himmatiga, jonbozligiga muhtojmiz. U yerga siz-dek pokiza bir xonimning borishini juda-juda istar edik. Haqiqatan ham yaxshi joy. Xo'p desangiz, vataningizga juda katta xizmat qilgan bo'lardingiz. To'g'ri, u yerdagi oylik bu

yernikidan birmuncha kamroq. Lekin buning evaziga u yerda go'sht, sut, tuxum va boshqa ovqatlar narxi bu yerdagi bilan solishtirib bo'lmaydigan darajada arzon. Xohlasangiz, u yerdan ancha-muncha pul ham orttirib olasiz. Albatta, imkon tug'ildi deguncha, oyligingizni orttiraman, bu yerdagi oylik bilan baravar bo'lib qoladi. U holda maoshingiz bu yerdagi idodiy matabining mudirasinikidan ham ortiqroq bo'ladi..

Bu taklifga nima deb javob berishni bilmay qoldim.

Maorif mudiri so'zini davom ettirdi:

— Matabda bitta qari xotin bor. U ham dars beradi, ham matab ishlarini qiladi. Asli-da namozini ham, niyozini ham kanda qilmaydigan bir xotin. Faqat yangicha o'qitish usullarini bilmaydi, xolos. Xohlasangiz, siz uni ham tarbiya qilasiz. Mabodo, Zaynilar yoqmaydigan bo'lsa, menga ikki enlik xat yozib yuborsangiz, sizni darhol bu yerga, o'zingizbop joyga chaqirib olaman. Shoshmay turing, hali u yerni ko'rgandan keyin mar-kazga tayinlashsa ham "bormayman" deb oyog'ingizni tirab olasiz.

* * *

Havo yaxshi, manzara yaxshi, yegulik-ichkulik arzon, odamlari soz. Qisqasi, Shvey-tsariya qishloqlaridan biri. Shunday bo'lgandan keyin odam bolasi xudodan yana nimalar tilashi mumkin?

Ko'zimning oldiga quyoshli yo'llar, salqin bog'lar, dalalar, o'rmonlar kelar, yuragim dukillab urardi.

Shunday bo'lsa ham birdaniga "xo'p" deyishga yuragim botinmasdi. Hech bo'lmasa, bu narsani Hoji xalfadan so'ramay hal qilolmas edim.

— Endi ruxsat bersangiz, ikki soatdan keyin kelib, javobini bersam, afandim, — dedim.

Mudirbeyga bir oz jon kirgandek bo'ldi.

— Lekin, qizim, bu ish juda shoshilinch. Boshqa talabgorlar ham bor. Qo'ldan chiqar-sang, keyin aralashmayman.

— Unday bo'lsa, loaqal bir soatga javob bersangiz, bey afandim, — dedim.

Maorif mudirining yonidan chiqa solib dahlizda raqibam Huriya xonimga ro'para kelib qolsam bo'ladimi! B...da bizga ikki raqiba degan nom qo'yganlarini bir necha kun avval yana o'sha Hoji xalfadan eshitgan edim. Bu xotindan shunchalik yurak oldirgan edimki, yuzini ko'rib qo'rqib ketdim. O'zimni ko'rmaslikka solib yonida tez o'tib ketmoqchi bo'ldim. Lekin yo'limni to'sdi, sulloh tilanchiday chodramni baridan ushlab menga gapira boshladi.

— Xonim afandi qizim, qaysi kuni sizga nisbatan yomon odobsizlik qildim. Xudo xay-ringizni bersin, mening gunohimni kechiring. Asab yomon narsa. Yomon xafa bo'luvdimda... Oh, qizim, mening boshimga tushgan savdolarni bilsangiz, ahvolimga achinardin-giz. Harholda, odobsizlik qilganim uchun kechiring.

Men qo'rqib:

— Hechqisi yo'q, afandim, — dedim-da, o'tib ketmoqchi bo'ldim.

Lekin u negadir meni qo'yib yuborishni istamas edi. Avvalo, ahvoldidan shikoyat qildi, qo'lida besh jon bilan ko'chada qolishini, tilanchilik qilishga majbur bo'lishini aytdi.

Huriya xonim borgan sari qaynar, ovozini pardama-parda ko'tarib, jirkanch bir tarzda yolvorardi. Men nima deyishimni, nima qilishimni bilmay shoshib qoldim.

Hammasidan ham yomoni bu ayanch komedyani ko'rish uchun atrofimizga mahkama xodimlari, kotiblari, qahva va sharbat tashiydigan yugurdak bolalardan iborat kattakon olomon to'plandi.

Yuzim, qo'llarim o'tdek yona boshladi. Uyalganimdan yerga kirib borardim.

Endi men yalina boshladim:

— Iltimos qilaman, xo'jonim, sekinroq gapiring. Hamma bizga qarab turibdi.

Lekin u yana battar avj qila boshladi. Endi sochlarini yulib, yoqasining tugmalarini uzib yig'lar, qo'llarimni, tizzalarimni o'pgani yopishar edi.

Atrofimizdag'i olomonning hamon ko'payib borayotganligini ko'rib, dahshatga tushdim. Istambulda ko'cha o'rtasida tish tuzatadigan, kiyimlardan dog' ketkazadigan, sovun, sirli dori-darmon sotadigan baqiroq chayqovchining atrofiga odamlar qanday to'planishsa, biz ham xuddi shunday odamlar o'rtasida qolgan edik...

Atrofdan "Bechoraga jabr bo'libdi, yig'latma sho'rlikni, kichik xonim!" qabilida so'zlar ham eshitila boshladi. Birdan tepamda paydo bo'lgan yashil sallali, yo'g'on gavdali, oppoq soqol mulla to'ppa-to'g'ri menga xitob qildi:

— Qizim, keksa odamlarga hurmat, iltifot bir vazifayi diniya va insoniyadir, — dedi. — Qo'y, shu bechora xotinning rizqiga chang solma. Xudoni ham, payg'ambarni ham xushnud qil. Javobi haq razzoqi olamdir. Albatta, senga ham g'ayb xazinasidan boshqa bir eshik ochib berur.

Chodra ichida bir yoqdan titrar, ikkinchi yoqdan sira tinmay ter to'kardim. Qo'lidagi qisqichni betinim shiqirlatayotgan bir qahvachi:

— Shunday bo'lisin, ha, shunday bo'lisin, — deb baqirardi. — Olloh qaerdaki bo'lsa, sen ham noningni o'sha yerdan topib olasan.

Olomon ichida qahqaha ko'tarildi. Shu asnoda qizil ko'ylakli kotib ham birdan sahnada paydo bo'ldi. Qahvachini yoqasidan bo'g'ib, zinadan pastga qarab uloqtirdi.

— Beadab! Hozir og'zingni dabdala qilaman! — deb baqirdi.

Odamlar nega kulishdi ekan! Qahvachining so'zlari ham mulla aytgan so'zlarning o'zginasi edi-ku!

Huriya xonim shunday yig'ladi, sharmandalik shu qadar kuchaydiki, bu masxarabozlikdan qutulish uchun jonimni ham berishga tayyordim. Men nihoyat:

— Xo'p, xo'p, xohlaganingiz bo'lisin. Lekin xudo haqqi, meni qo'yib yuboring, — dedim-u, yerga yotib olib o'pmoqchi bo'lgan tizzalarimni zo'rg'a qutqarib maorif mudirining kabinetiga qaytib kirib ketdim.

Bir ozdan so'ng menga markaziy rushdiyadagi darslarimdan o'z ixtiyorim bilan voz kechganim va Zaynilar maktabi muallimaligini tanlaganim haqida bir qog'ozga qo'l qo'ydirib oldilar.

Bir soat ichida butun rasmiyat bitdi. Joyidan qimirlay olmaydigan mudroq maorif mudiri esa izvoshda hokim uyiga borib, buyruqqa qo'l qo'ydirib keldi.

Ba'zan oylar bo'yicha stolma-stol sarson bo'lgan ishlar, agar xohish bo'lsa, mana shunday oson hal bo'lar ekan...

Musofirxonaga qaytganimda, Hoji xalfa meni eshikda kutib oldi. U ham ranjigan, ham suyungan bir alfozda:

— Sen yashirding-u, men bilmay qoldim, shunday-da? Xudo muborak qilsin, — dedi.

— Nimani bildingiz?

— Buyrug'ing kelganini, jonim...

— Qanday buyruq, Hoji xalfa?

— Qo'zim, seni markaziy rushdiyada olib qolishibdi, Huriya xonimning pasportini qo'liga berishibdi.

— Yanglish, Hoji xalfa. Men hozir maorif mudirining oldidan kelyapman. Unday gap yo'q.

Chol mening yuzimga shubhalanib qaradi:

— Yo'q, buyruq kecha kechqurun kelibdi. Ishonchli joyda eshitdim. Bundan chiqdi, mudir sendan yashiribdi-da. Hali bu yerda biron lo'ttibozlik bo'lmasin tag'in? Gapir, tu-shuntir.

Hoji xalfaning soddaligidan, gumonsirayotganidan kula-kula voqeani so'zlab berdim,

keyin portfelimdan buyruqni olib qo'limda silkitdim:

— Maza qildik, Hoji xalfa! Shveytsariyadek bir joyga ketyapmiz.

Hoji xalfanining mening gapimni eshitib kattakon burni xo'roz tojisidek qizarib ketdi. Qo'llarini bir-biriga urib, jahl bilan gapirdi:

— Nima qilib qo'yding, johil bola, nima qilib qo'yding? Axiyri seni tuzoqqa tushirishibi-di-da! Chop tez, borib mudirning yoqasidan ol!

Yana yelkamni qisdim:

— Bo'lmaydi, Hoji xalfa. Siz bunaqa xafa bo'l mang, og'rib-netib qolsangiz, biz nima qilamiz?

Bechoraning men tufayli qizishishiga, jahli chiqishiga haqqi bor ekan. Kechqurun butun masala oydin bo'ldi. Maorif mudiri Huriya xonimning tarafini olibdi. Maorif ministrligiga yozgan xatida Huriya xonimning tajribali muallima ekanligini vaj qilib, mening boshqa yerga yuborilishimni iltimos qilibdi. Lekin ministrlilik, nima uchundir, meni bu yerda qoldirib, raqibamni yaqinda ochiladigan boshqa bir mакtabga yuborishini muvofiq ko'ribdi.

Kecha kechqurun kelgan buyruq munosabati bilan maorif mudiri, rushdiya mudirasi va Huriya xonimning Rumelidan kelgan hamshahri moliya mudiri kechasi to'planishib, meni bir qishloqqa daf qilish, o'rнимга Huriya xonimni olib qolish uchun reja tuzishibdi.

Huriya xonimning maorif bo'limi yo'lagida men bilan to'qinish kelishi ham avvaldan tuzilgan rejaga muvofiq yuz beribdi. Hatto o'sha mo'ysafid mullani ham maxsus chaqirtirishgan ekan.

Men maorif mudirining so'zlaridan keyin ajoyib Yevropa qishloqlaridan biriga intilayotgandek shoshib turganim Zaynilar qishlog'iga kelsak, bu tog'lar orasida qush uchmas, karvon o'tmas bir yer ekan! Bir yildan beri bo'sh turgan o'ringa eng xarob muallimlar ham borishga ko'nmay kelayotgan ekan.

Men bu narsalarni eshitib, tamom hayratda qoldim. Sochi-soqoliga oq kirgan kattakon bir amaldorning bu qadar pastkashlik bilan meni aldagani hech aqlga sig'dira olmas edim.

Hoji xalfa asabi buzilib boshini tebratar:

— Sen bilmaysan u mudroq ilonni! Mudrab o'tiradi-yu, odamga shunday tashlanadiki, qaerdan kelganini bilmay qolasan, uqdingmi, afandim? — derdi.

— Bas, mayli! Insomni eng yaqin qarindoshlari bag'ritoshlik bilan chaqqanlardan so'ng begonalarning chaqqani qaerga borardi? Men Zaynilarda ham baxtimni topib ketaman. Qo'ya bering, ko'ngillari to'q bo'lsin!

* * *

Zay-ni-lar, 28 oktyabr

Bugun kechqurun Zaynilar qishlog'iga aravada yetib keldim. Maorif mudiri yo'lni poezd tezligida o'chanadigan yo'l bilan hisoblagan bo'lsa kerak. Chunki "atigi ikki soatlik" degan yo'li sahardan to tunga qadar cho'zildi. U tabarruk odam sho'rlik nima ham qilsin. Ayb unda emas, ayb goh tog' cho'qqilariga tirmashib chiqqan, goh qurigan soylar o'zanga tushgan Zaynilar yo'liga temir yo'l yotqizmaganlarda... Hoji xalfanining oilasi meni shahardan yarim soatlik uzoqda bo'lgan bir buloqqacha uzatib keldi. Butun oila to'yga, yana ham to'g'rirog'i, janazaga ketayotganday kiyingan edi.

Arava tayyor bo'lganligini aytgani kelgan Hoji xalfani tanimay qolishimga oz qoldi. U oq fartugini, tosh yotqizilgan sahnda, dahlizda va zinapoyalarda o'ziga xos bir ohangda shaloplatib sudraydigan kavushlarini yechib tashlab, egniga rangi o'chgan movutdan tikilgan, yoqasi yopiq uzun chakmon, oyoqlariga imomlar kiyadigan chuqr kalish kiyib olibdi. Aziziya bichimidagi kattakon hoji do'ppisi sochsiz boshini quloqlariga qadar yopib

turibdi. Nevrik xonim, Hoyg'onush va Miratlarning bezaklari ham unikidan qolishmaydi.

Ichida boshimdan ko'p achchig' soatlar kechirganimga qaramay, kichkina nomerimdan qayg'u-hasrat bilan ayrıldim. Maktabda bizga bir she'r yod oldirishgan edi: odam yashagan yerlarida birga bo'lган odamlarga ko'zga ko'rinnmaydigan nozik iplar bilan bog'lanib qolar emish; ayrılıq soatlarida bu bog'lar cho'zilar va g'ijjak torlari singari mungli sado bilan uzilar, har bir tor uzelganda odamning yuragi ayrılıq dardi bilan ezilar emish. Buni yozgan shoir naqadar haqli ekan.

G'alati bir tasodif bilan monastirlik qo'shnim ham xuddi shu kuni B... dan jo'nadi. Lekin u harholda mendan ko'proq achinarli bir vaziyatda jo'nadi.

Kecha kechqurun kiyim-kechaklarimni yig'ishtirib qo'yib yotdim. Uyqumda ora-sira baqirgan tovushlar eshitdim-u, lekin hech uyg'ona olmadim.

Birdaniga ko'tarilgan qattiq taraqa-turuq meni o'rnimdan turg'izib yubordi. Koridorda allanarsalar yerga tushib sinar, kecha jimjitligida bolalarning chinqirishi, kaltak va tarsaki ovozi eshitilardi. Uyqusiraganimga o't tushibdi, deb o'yabman. Lekin yong'inga uchraganlar bir-birlarini urmasalar kerak.

Sochlarmi to'zg'igan, oyoqlarmi yalang holda nomerdan yugurib chiqdim-u, dahshatli bir manzarani ko'rdim. Devsifat, shopmo'ylov bir ofitser monastirlik qo'shnimni yerga sudrab, etiklari bilan tepayotgan edi. Bolalar esa:

— Onajon! Dod! Otam onamizni o'ldiryapti! — deb chinqirishardi.

Bechora xotin har tepkidan ilon singari chinqirib, tushayotgan har qamchidan faryod ko'tarib, pol ustida sudralar, lekin odam ishonib bo'lmaydigan bir chaqqonlik bilan yerdan turib ofitser tizzalariga yopishardi:

— Cho'ring bo'lay, qurbaning bo'lay, jon er, o'ldirsang o'ldir, lekin meni tashlab ketma, qo'yma!..

Yarim yalang'och bo'lganim uchun yana nomerimga qaytib kirdim. Asli, kirmasam ham qo'limdan nima kelardi?

Pastki qavatdagilar ham uyg'ongan bo'lsalar kerak. U yerdagi koridordan oyoq dupurlari, g'ala-g'ovur ovozlar eshitila boshladi.

Koridor shipida yorug'lik ko'rindi, zinapoyada esa Hoji xalfanining taqir boshi yarqirab ketdi. Bechora chol to'polonni eshitib uyg'ongan, moychiroqni ko'tarib, ichki ko'ylak bilan tashqariga chopib chiqqan edi. U:

— Uyat emasmi! Bu qanday sharmandagarchilik! Musofirxonada ham shunaqa janjal qiladilarmi! — deb baqira-baqira o'rtaga tushdi.

Lekin ofitser Hoji xalfanining qorniga shu qadar zarb bilan tepdiki, bechora kattakon futbol to'piday havoga irg'ib, qiya ochiq turgan eshikdan nomerimga gursillab kelib tushdi, yalangoyoqlari yuqoriga ko'tarilib ketdi. Xayriyatki, men yetib kelib bechoraning bosini ushlab qoldim. Bo'lmasa, yalang'och boshi polga urilib, oshqovoqday yorilib ketardi.

Uyqusirashlik, qo'rquv, vahm, so'ngra Hoji xalfanining mojarosi asab tomirlarimni buzib yubordi.

Qari chol:

— Voy xudo! Voy sho'rim! Voy, la'nat zolim! — deb so'kina-so'kina o'rnidan turdi.

Lekin shu dam men karavotga o'zimni tashladim. Umrimda boshimga kelmagan bir qahqaha jazavasi ichida xirillar, bo'g'ilalar, qo'llarim bilan ko'rpani g'ijimlab to'lg'anar edim. Ortiq tashqarida nimalar bo'layotganini bilish holida emas edim.

Ovozlar, shovqin-suronlar butunlay tinib, musofirxonaga sukunat cho'kkanga qadar o'zimga kelolmadim.

Voqeani menga keyin aytib berishdi: monastirlik xonimning hayosiz muhabbatı oxiri erining me'dasiga tegibdi, ofitser nima qilib bo'lsa ham xotinini bolalari bilan yurtiga

yuborishga qaror qilibdi. Shu kecha biletlarni olganligini, ertasiga ertalab o'zi kelib jo'natmoqchi ekanligini aytgani kelibdi.

Lekin monastirlik xonim uni osonlik bilan qo'yib yuborarmidi? Tabiiy, yolvora, surkana boshlagan. O'talarida, kim bilsin, qanday so'zlar, qanday mojarolar o'tgandan so'ng bu qo'rqinchli kaltak fasli boshlangan.

Ikki soatchadan so'ng endi uxmlayman deb turganimda Hoji xalfa eshigimni qoqib qoldi.

— Menga qara, xo'jonim. Musofirxonada sendan boshqa xotin kishi yo'q. Bechora hushidan ketib yotibdi. Faqat kulish kerak emas. Bor, xudo xayringni bersin, holidan xabar ol. Bizning otimiz erkak ekan... yoniga kirib bo'lmaydi. O'lib-netib qolsa bormi, boshim naq baloga qoladi-ya! — dedi.

Hoji xalfaning yuzini qiya ochilgan eshikdan ko'rdim-u, meni yana kulgi oldi. Holini so'ramoqchi bo'ldim, lekin og'zimga hech qanday so'z kelmadi.

Hoji xalfa yuzimga xo'mrayib qaradi-da, yarim mungli bir alfozda bosh tebratib:

— Kulasan-da! Topib olganing nuqul hiqir-hiqir! Yomon shumsan-da! Buni qaranglar endi! — dedi.

"Kulasan-da" so'zini shunday g'alati qilib aytdi-ki, yana o'zimni kulgidan to'xtata olmadim.

Bechora qo'shnim oldida bir soatcha ovora bo'ldim. Boyoqishning badani ko'karib, hammayog'i momataloq bo'lib ketibdi. Tez-tez hushidan ketar, ko'zlarining qorasi yumi-lib, jag'lari qaltirardi.

Men hayotimda birinchi marta shunday betobga uchrashim edi. Nima qilishimni bilmay qoldim. Lekin boshga tushganni ko'z ko'rар, deydilar, shunday paytlarda uning ham yo'li topilar ekan...

Har biri eng kami besh minut davom etgan bu shaytonlash paytlarida bechoraning bilaklarini, badanlarini uqalar, qiziga grafindan suv quydirib, yuziga sochar edim. Peshonasi, betlari, lablarining bir qancha yeri yorilgan. Bu yoriqlardan tizg'ib chiqayotgan qonlar eliklarga, surmalarga qorishib, ko'ksiga loyqa suvdek oqib tushar edi. Voy xudo, muncha ko'p bo'yoq bor ekan bu yuzda!.. Yuziga qancha suv sepsam ham, hech yuvilib tugamsadi.

Bugun ertalab uyg'onsam ro'paramdagi nomer bo'shab qolibdi. Ofitser ertalab kelib uni bolalari bilan aravaga solib olib ketibdi. Qo'shnim ketishdan avval meni ko'rish, xayrlashish uchun uyimga kiribdi, lekin kecha o'zi tufayli uyqusiz qolganimni bilgani uchun, uyg'otishga ko'zi qiymabdi. Hoji xalfaga salomini topshirib, ko'zlarimdan qayta-qayta o'pib qolibdi.

* * *

Aravada ko'zim Hoji xalfaning yuziga tushdi deguncha o'zimni tuta olmay kulardim. Ubu o'rinsiz vaqt-chog'ligimning sababini bilar, g'amgin bir kulimsirash bilan boshini tebratib:

— Kulasan-da! Topib olganing nuqul hiqir-hiqir!— deb menga to'ng'llar edi.

Keyin kechqurungi tepkinining dahshatini eslab:

— La'nati zolim meni shunday tepdiki, bilasanmi, afandim, qornimning ichini aralash-quralash qilib yubordi. Mirat, mendan senga otalik nasihat: o'ng qulooq-so'l qulog'ingda bo'lsin, zinhor er-xotinning o'rtasiga tushma. Er-xotin ipakdir, oraga tushgan ko'ppakdir, degan gap bor, — deyardi.

Nihoyat, shahar tashqarisidagi buloqqa yetib keldik. Biz shu yerda ayrilishimiz kerak. Hoji xalfa ichiga to'ldirib kelgan ikki shishadagi suvlarni to'kib tashlab, buloq suvidan oldi-da, qari aravakashga uzundan-uzoq yo'l-yo'riqlar berdi. Nevrik xonim kecha mening uchun yopgan nonlarini ko'zlaridan duv-duv yosh to'kib turib savatlarimga joyladi.

Menga tamomila parvosizdek ko'ringan yovvoyi Hoyg'onush bir yerida qo'qqisdan og'riq turganday birdan yig'lab yubordi. Yana qanday yig'ladi deng! Qulog'imda ikkita inju baldoq bor edi. Shularni chiqarib, Hoyg'onushning qulog'iga taqib qo'ydim.

Hoji xalfa hadyamdan xijolat bo'ldi.

— Yo'q, xo'jonim, hadya degan narsa pulga olinadigan bo'lmasligi kerak. Bular qimmatbaho injular, — dedi.

Men kulimsiradim. Qizning men uchun ko'zdan to'kkani injulari yonida bu baldoqlar ikki chaqa ham turmasligini qanday qilib anglatib bo'ladi bu sof vijdonli kishiga?

Hoji xalfa, meni aravaga mindirgandan so'ng, yana chuqur tin oldi, keyin qo'lini ko'kragiga urib:

— O'lay agar, sendan ayrilib qolayotganim — kecha yegan tepkimdan og'irroq bo'lyapti, — dedi.

Kechagi hangomani xotirlagan bu so'zlardan men yana bir marta kulib yubordim. Arava yura boshlagan edi. U hamon orqamdan barmog'ini bigiz qilib:

— Kulasan-da, shayton qiz, kulasan-da! — deyardi. Oh, oraliq shu paytdan tez uzaymasa-yu, ko'zlarimni ko'ra bilsang, bu so'zlarni aytms eding, Hoji xalfa!

* * *

Arava o'ydim-chuqur tog' yo'liga tushdi. Goh suvi qurib qolgan tog' soylarining o'zandan o'tar, goh ekinsiz dalalar, buzilgan bog'lar yonida yurib borardi.

Ba'zan yakka-dukka dehqonlar, charchoqdan ingrayotganga o'xshab ovoz chiqargan aravalari, o'tin orqalab ketayotgan yalang oyoq ayollar uchrab qolardi.

Yolg'izoyoq bog' yo'lidan uzun mo'ylovli, qaroqchilarga o'xshash vahimali ikkita jandarma chiqib keldi. Yonimizdan o'tib ketayotib aravakashga:

— Assalomu alaykum! — deyishdi-yu, menga tikilib qarashdi.

Hoji xalfa: "Yo'llar, xudoga shukr, tinch, shunday bo'lsa hamki, yuzingni berkitib yur. Sening surating hamma yerda ochsa bo'ladigan suratlardan emas. Fahmladingmi, afandim", — degan edi.

Uzoqdan birovning kelayotganini ko'rdim deguncha Hoji xalfaning ta'kidini eslab, darrov yuzimni to'sib olardim.

Soatlar o'tgan sayin yo'llar jimib, g'amgin tus olib borardi. Qishloq aravalaringing inglichka, chinqiroq tovush chiqarib g'ijillaydigan fazilati bor. Buni o'ylab chiqarganlar xo'p yaxshi ish qilishgan-da! Jarlarda, daralarda g'ildiraklar g'ijillab chiqargan aksi sadolar odamga xuddi tasalli beruvchi ovozday eshitiladi. Tog' oralig'idan o'tib ketayotganimizda menga shunday tuyuldiki, uzoqlarda, shu kuyganday ko'ringan qora toshlar orqasida ko'z ilg'amas bir yo'l boru, ingichka ovozli bir xotin mungli tovush bilan yig'lab-siqtab ketimizdan yugurib kelayotganga o'xshaydi.

Kech kirib kelmoqda. Quyosh tepalar orqasiga sekin-sekin o'tar, jarlarga qorong'ulik cho'kar edi.

Yo'Ining hali oxiri ko'rinxmaydi. Hatto biror qishloq, biror tup daraxt ko'rinxmaydi...

Yuragimda sekin-sekin qo'rquv uyg'ona boshladi. Kechasigacha Zaynilar qishlog'iga yetib ololmasak nima bo'ladi? Birdan mana shu tog'lar orasida yolg'iz tunashga majbur bo'lsak-a?

Aravakash ora-sira to'xtab otlariga dam berar, ular bilan bamisolli odamlar bilan gaplashayotgandek gaplashardi.

Toshlar orasida yana shunday to'xtab, otlariga dam bera boshlaganda, men paytdan foydalanib:

— Hali uzoqmi? — deb so'radim.

Aravakash boshini og'ir-og'ir tebratib javob berdi:

— Yo'q, keldik.

Bu kishi yoshi anchaga yetib qolgan odam bo'Imaganda, men bilan hazillashyapti, deb o'ylar edim.

— Qanday bo'ldi? Na uzoq ko'rindi va na qishloq,— dedim hayron bo'lib.

Chol aravadan yuklarimni tushirayotib javob berdi:

— Mana shu so'qmoqdan tushamiz. Zaynilar bu yerdan besh minutlik yo'l. U yoqqa arava bormaydi.

Biz toshlar orasidan minora zinapoyasidek tik so'qmoq bilan pastga tusha boshladik. Pastda, oqshom ola-qorong'uligi ichida qop-qora sarvi daraxtzhori, atrofi chetan bilan to'silgan yalang'och bog'lar orasida yakka-dukka kulbalar, yog'och uylar borligini ko'rdim.

Bir qarashda Zaynilar menga u yer-bu yerida hali tutunlari burqsib turgan bir yong'in xarobasiga o'xshab ko'rindi.

Qishloq deyilganda ko'z oldimga Bosfordagi ko'm-ko'k daraxtlar ichiga ko'milgan qadimiychorbog'larning kaptarxonalariga o'xshagan dilbar, yoqimli kulbalari kelardi. Zaynilar uylari esa yiqilaman deb turgan qora vayronalarga o'xshaydi.

Bir yiqiq tegirmon oldida abo* kiyib, salsa o'rabi olgan cholga duch keldik. U qovurg'alari terisidan o'ynab chiqqan ozg'in bir sigirni arqonidan tortib, shu uylarning biriga qarab sudrayotgan edi. Bizni ko'rib to'xtadi-da, tikilib qarab qoldi. Bu chol Zaynilar qishlog'ining oqsoqoli ekan. Aravakash uni tanir ekan. Bir necha og'iz so'z bilan u mening kimligimni tushuntirdi.

Beli burma, qop-qora chodram va mahkam yopilgan yuz pardam ichida mening yoshgina qizligimni bilib bo'imas edi. Shunga qaramasdan, oqsoqol afandi meni juda yasangan-tusangan deb o'yladi shekilli, men tomonga taajjublanib qaradi. Keyin sigirini yalangoyoq bir bolaga topshirib, bizni qishloqning tor ko'chalari bilan ergashtirib ketdi. Endi uylarni yaxshiroq ko'ra boshladim. Bosforda, Qovoq qishlog'i tevaragida, oldiga to'rlar yoyib qo'yilgan vayrona baliqchi kulbalari bo'lardi. Kulbalar dengiz shamolining zarbalari bilan qiyshaygan, yomg'ir ostida chirib, qorayib ketgan edi. Zaynilar qishlog'i dastavval menga o'sha uylarni xotirlatdi.

Ostilarida to'rt ustunli molxona, ustilarida osma shoti bilan chiqiladigan bir-ikki xona. Harholda, Zaynilar shu damgacha men eshitgan, suratlarini men ko'rgan qishloqlarning hech biriga o'xshamas edi.

Atrofi baland taxtalar bilan o'rabi olingan bir bog'ning qizil eshigi oldida to'xtadik. Barglariga qadar qop-qora ko'ringan bu qishloqda qizil rangni endi ko'ryapman.

Oqsoqol eshikni musht urib taqillata boshladidi. Har urganda eshik yiqilib ketay-yiqilib ketay deb larzanglar edi.

Birinchi marta og'iz ochishga jur'at etdim.

— Ichkarida hech kim yo'qqa o'xshaydi, — dedim.

Oqsoqol bosh tebratib javob qildi:

— Xaticha xonim shom namozini o'qiyotgan bo'lsa kerak, bir oz kutamiz.

Aravakashning kutishga vaqt yo'q edi, yuklarimni eshik yonida qoldirib, biz bilan xayrashib ketdi.

Oqsoqol abosining etaklarini yig'ishtirib yerga o'tirdi. Men chamadonimning bir chekkasiga omonatgina o'tirdim. Ikkovimiz gaplasha boshladik.

Uning gapidan ma'lum bo'lischicha, Xaticha xonim degani xudojo'y xotin bo'lib, allaqanday tariqatga mansub ekan. Qishloqda o'lganga ham, tirikka ham shu qarar emish. Mavlud o'qirmish, kelinlarning yuzini ocharmish, o'lim to'shagida yotgan kasallar og'ziga zam-zam tomizarmish, o'lgan xotinlarni yuvib, kafanga o'rarmish.

Qishloq oqsoqoli harholda madrasa ko'rgan odamga o'xshar edi. Fursatdan foydala-

nib, nasihat qilmoqchi bo'lganligini fahmladim. Yangi usul ta'limiga qarshi bo'lmasa ham, lekin yangi maktablarning din darslarini esdan chiqarib qo'yayotganliklaridan shikoyat qila boshladi.

Uning so'ziga qaraganda, shu vaqtga qadar Zaynilar maktabiga bir qancha muallima kelib ketibdi, lekin afsuski, hech biri Qur'oni karimni, ilmu holni yetarlik darajada bilmas ekan.

Oqsoqol afandi Xaticha xonimdan mammun ekanligini so'zladi. Men bu diniy darslarni yana shu soliha, oqila, obida xotinga havola qilib, o'zim boshqa darslarni o'qitsam, qishloqni haddan ziyod xursand qilgan bo'larmishman.

Men bu nasihatlarni eshitib o'tirganimda, ichkaridan yog'och kavushning taraqlab keelayotgani eshitildi. Oqsoqol afandi ikkalamiz o'rnimizdan turdik. Eshik orqasida temir tamba shiqirladi, keyin dag'al bir ovoz:

— Kim u? — deb baqirdi.

— Biz, Xaticha xonim. B... dan bir xo'jonim kelibdi.

Xaticha xonim baland bo'yli, yuzi yapaloq, yetmish yoshli kampir ekan. Xinaga bo'yalgan sochlari ustidan yashil ro'mol o'rabi olibdi. Xiyol bukri egnida xudojo'y xotinlar kiyadigan qoramtilor chopon bor. Yo'nilgan toshdek qattiq, bug'doyrang yuzida odam ishonmaydigan darajada yosh ko'zlari porillab, oppoq tishlari yiltillab turardi. U chodra tagidan yuzimni ko'rishga tirishib:

— Xush kelibsan, xo'jonim, kira qol! — dedi.

Ko'chaga chiqish taqiq qilingandek, bir qo'li bilan eshikka tiranib, ikkinchi qo'li bilan yuklarimni oldi. Keyin eshikni yana tambilab, meni ichkariga boshlab kirib ketdi.

U oldinda, men orqada bog'chadan o'tdik, maorif mudirining zo'r fidokorliklar bilan yangidan barpo qilgan maktab binosi ham narigi yoqda ko'rgan uylarimning xuddi o'zignasi edi. Faqat pastki qavatdagi ustunlar atrofiga qoqilgan va hali qorayib ulgurmagan taxtalar bu yerni sinf qilgan edi.

Eshikdan kirayotganimda Xaticha xonim meni qo'limdan ushlab to'xtatdi.

— To'xta, qizim, — dedi.

Men qo'qqisdan cho'chib ketdim. U lablarini pichirlatib duo o'qigandan so'ng:

— Yur, qizim, bismillo deb o'ng oyog'ing bilan kir,— dedi.

Pastki qavat zindon singari qop-qorong'i edi. Kampir meni qo'limdan ushlab, bir torgina sahndan olib o'tdi. Eskirganidan pog'onalari liqillab turgan qorong'i bir zinapoyadan olib chiqdi. Yuqori qavat bir vayrona dahlizdan va deraza eshiklari mahkam yopilgan kat-takon xonadan iborat edi. Maorif mudiri maqtagan muallimalar yotog'i shu ekan.

Xaticha xonim yukni yerga qo'ydi-da, uyning bir burchagida javonlik vazifasini o'tovchi eski o'choq ichidan bitta chiroq olib yoqdi.

— Bu yil uyda hech kim turmagani uchun chang bosib yotibdi. Xudo xohlasa, ertalab turib tozalayman.

Bu bechora xotin maktabning eski muallimasi emish. Maorif bo'llimi maktabni bu ahvolga keltirgach, uni ko'chaga chiqarib tashlashga ko'ngli bo'lmay, ikki yuz qurush oylik bilan shu yerda olib qolibdi. Yarim muallima, yarim xodimadek bir gap. Xaticha xonim men nimani xohlasam, shuni qilishga tayyor ekanligini aytdi.

Boyoqish xotinning mendan qo'rqayotganligini sezdim. Har nima bo'lganda ham uning boshlig'i hisoblanaman. Men birovga yomonlikni ravo ko'radigan qiz emasligimni bir necha og'iz so'z bilan tushuntirganidan so'ng xonani ko'zdan kechira boshladim.

Eskirganidan ilma-teshik bo'lib ketgan mog'or devor qog'ozlari, yomg'irdan, zaxdan chirib, taxtalari qop-qorayib ketgan ship, bir burchakda yiqilib vayron bo'lib yotgan o'choq yonida qiyshiq bir karavot. Demak, bundan so'ng hayotim mana shu xonada o'tadi!

Havosiz bir yerto'laga tushib qolgandek nafasim bo'g'ilar, qo'llarim, oyoqlarim muzlar edi.

— Aylanay Xaticha xonim, qarashib yuboring, shu derazalardan birini ochaylik. O'zim yolg'iz ocha olmasam kerak, — dedim.

Kampir mening ishga qo'l urishimni xohlamayotgandek ko'rinar edi. U tirishib-tirma-shib derazalardan birini ochdi. Derazadan qaradim-u, esim chiqib ketayozdi.

Deraza orqasi go'riston edi. Uchlaridan hali oqshom yorug'i arimagan sarvi daraxtlar, har yer-har yerda mozor toshlari, bulardan pastroqda, qamishlar orasida suvleri yiltirab turgan botqoqlar.

Kampir chuqur tin olgandan so'ng:

— Odam bu narsalarga ko'zi tirikligida ko'nikishi kerak, qizim, hammamizning boradi-gan yerimiz shu, — dedi.

Bu og'izdan chiqib ketgan shunchaki bir so'zmdi yoki o'zim ham bilmasdan bu man-zara qarshisida qo'rqb, sarosimaga tushganmidim? Bilmayman. Harholda o'zimni qo'lga olishga harakat qildim. Dadil bo'lish kerak edi, shuning uchun xushchaqchaqlik bilan:

— Demak, bu yerda go'riston bor ekan-da? Men bilmabman ham, — dedim.

— Ha, qizim, Zaynilar qabristoni shu yerda. Eski zamonlardan qolgan. Hozir o'liliklarni boshqa yerga qo'yishadi, bu yer tarixiy joy bo'lib qolgan. Men darrov borib Zayni otaning qabriga chiroq yoqib kelay, hozir qaytaman.

— Zayni ota deganingiz kim, Xaticha xonim?

— Xudo rahmat qilsin, tabarruk kishi. Hu, anovi sarvi daraxtining tagida yotadi.

Xaticha xonim pichirlab duo o'qib, gapdan so'ng zinaga qarab yurdi. Men bunday nar-salardan shu vaqtgacha qo'rmas edim. Mana hozir esa sarvi hidlari bilan to'liq bir qorong'i xonada yolg'iz qolish menda vahima uyg'otdi.

Kampirning orqasidan yugurdim.

— Men ham birga boraymi? — deb so'radim.

— Yura qol, qizim, borsang yana yaxshi bo'ladi. Kela solib Zayni otani ziyorat qilib qo'ysang yaxshi bo'ladi.

Maktabning orqa eshididan o'tib qabristonga chiqdik. Toshlar orasi bilan yurib ketdik.

Ba'zan ramazon va hayit arafalarida xolalarim meni Ayyubdag'i xilxonamizga olib borishar edi.

Lekin men o'lim naqadar qayg'uli, dahshatli bir narsa ekanligini birinchi marotaba ma-na shu qorong'i Zaynilar mozoridagina his etdim.

Qabrlar ustidagi toshlar men ko'rgan mozor lavhalaridan butunlay boshqa shaklda edi. Bular soldatlar singari saf tortib turibdi: baland, to'g'ri, tepalari tekis, yalpoq, rang-lari qop-qora. Yozuvlarini o'qishning iloji yo'q edi. Faqat ustlarida katta harf bilan "Yo rabbiy" deb yozilgan so'zlarnigina ajrata olardim.

Yosh bolaligimda bir ertak eshitganman. Bilmayman, qaysi bir yosh sultonni olib qochish uchun uzoq tog' orqasidan bir lashkar yo'lga chiqibdi. Askarlar kunduzlari g'or-larga kirib yashirinar, kechalari yo'l yurar ekanlar. Qorong'ida birov ko'rib qolmasin, deb egnilariga qora kafan kiyib olisharkan.

Shu taxlit oylarcha yo'l yurishgandan keyin shaharni bosmoqchi bo'lib turishgan ke-chada yosh sultonga xudoning rahmi kelibdi-yu, qorong'ilikda yashirinib, pusib ke-layotgan bu qora kafanli tun qo'shinini toshga aylantirib yuboribdi.

Mozordagi ana shu qator yotgan qora toshlarni ko'rib, o'sha ertakni esladim. Miyamga "Ajabo, bu o'sha qo'rqinchli o'lim askarlari toshga aylangan ertakdagi mamlakat shu bo'lmasin!" degan fikr keldi.

— Zaynilar aslida kimlar ekan, Xaticha xonim? — deb so'radim.

— Men ham bilmayman, qizim, bu qishloq azaldan o'shalarniki emish. Hozir minorala-

ridan boshqa hech narsa qolmagan. Xudo rahmat qilsin ularni. Zayni ota ularning ulug'i ekan. Hech kim tuzata olmagan kasallarni shu yerga keltirishadi. Men bu yerga bitta shol xotinni ko'tarib kelganlarini bilaman. Qaytishda o'z oyog'i bilan yurib ketdi.

Zayni otaning sag'anasi qabristonning etagida, kattakon bir sarvi daraxtining tagida ekan. Xaticha xonim har kuni kechasi sag'anaga kirib, uchta chiroq yoqib chiqar ekan: birini daraxtning tagiga, ikkinchisini eshikning ichkari tomoniga, uchinchisini esa qabrning bosh tomoniga qo'yari ekan.

Sag'ana tuproq to'ldirilgan chuqurga o'xshaydi. Zayni ota mana shu chuqurda yetti yilgacha quyosh yuzini ko'rmay yotibdi. O'lgandan keyin tabarruk jasadiga hech kim qo'l tekizmabdi. Ustiga sandiq to'ntarib qo'yishibdi.

Xaticha xonim chiroqlardan ikkitasini yoqqandan so'ng sag'anaga tushiladigan bir necha pog'onali zinani ko'rsatib:

— Yur, qizim, ichkari kiraylik, — dedi.

Men bu pog'onalardan pastga tushishga jur'at qilolmay turdim. Xaticha xonim orqasiga o'girilib:

— Yur, qizim, shu yerga kelgandan keyin kirmay ketsang gunoh bo'ladi. Ko'nglingda nima tilaging bo'lisa, Zayni otadan tilagin, — dedi.

Yuragim daraxt yaprog'iday titrab zinadan tushdim. Qabrga qo'yilayotgan o'liliklarda sezgi qobiliyati bo'lisa edi, men shu daqiqada his etgan narsalarimni, albatta, sezgan bo'lardilar. Dimog'imga zax, sovuq tuproq hidi urildi. Zayni otaning tobuti yashil rangga bo'yalgan ruh tunukasi bilan qoplangan edi. Keyinchalik Xaticha xonimdan eshitishimga qaraganda, butun umrini qanoat va muhtojlikda o'tkazgan Zayni ota o'lgandan keyin tobutning chiroqli hashamatli narsalar bilan yopilishini xohlamabdi. Goho u yoq-bu yoqdan keltirib yopiladigan narsalar bir hafta turmasdan parcha-parcha bo'lib yirtilib ketar emish.

Kampir pichir-pichir duo o'qib yurib, avliyoning boshidagi chiroqqa yog' quydi, keyin menga o'girilib:

— Qishloqda birov o'ladigan bo'lisa, Azroil alayhissalom oldin Zayni otaning huzuriga keladi, ana shunda bu chiroq o'z-o'zidan o'chib qoladi. Endi, qizim, Zayni otadan tilagningni tila, — dedi.

Tizzalarim bukilar, ortiq tik turishga madorim yetmay, qurib borardi. O'tdek yonib turgan peshonamni Zayni boboning sovuq toshiga qo'ydim. Lablarim bilan emas, ko'proq yarali qalbim bilan so'zlayotgandek sekin-sekin:

— Zayni otajonim, — dedim, — men kichik, johil Choliqushidan boshqa bir narsa emasman. Sendan qanday yalinib-yolvorib tilak tilashni bilmayman. Nuqsonlarimga qarama, senga yoqadigan narsalarning hech birini menga o'rgatishmagan. Eshitdim, sen yetti yil quyosh nurini ko'rmay, shu yerda yolg'iz o'tiribsan. Balki sen ham insonlarning zolimligidan, vafosizligidan qochgandirsan? Otajonim, sendan bir narsa tilayman. Shu yetti yil ichida quyoshlarning, shamollarning hasratini chekib sarg'aygan damlaring bo'lgandir, albatta. Seni o'sha daqiqalarning achchig' alamlariga chidatgan malak sabridan menga ham bir oz ber. Men ham azoblarimni, alamlarimni yig'isiz, ohsiz kechiray...

* * *

Xonamda o'zim yolg'izman. Xaticha xonim meni barvaqt tashlab, matabning past qavatidagi yerto'laga o'xhash hujrasiga kirib ketdi. U yerda yarim kechagacha toatu ibodat qilib, tasbeh o'girib o'tiradi.

Ikki soatdan beri chiroq yorug'ida shu satrlarni yozmoqdaman. Tashqaridan uzoqdagi suv sharpasi kelar, ora-sira shiftda allanimalar tiqirlar edi. Yuragimda bir vahm bilan bularga qulq solaman. Bir mahal bu vayrona bino ichidan yana boshqa ovozlar eshitila bo-

shladi. Zinapoya taxtalari sekin-sekin g'ijirlar, dahlizda odamlar pichirlashayotganday sirli ovozlar eshitilardi.

Choliqushi, bo'ldi, yot endi. Yarim kechada yashirin so'y lashgan bu ovozlardan qo'rhma. Bular qanchalik zolim bo'lishmasin, sariq gullarning yetim xola qiziga qilgan ja-bru jafolaridan ortiq yomonlik qilishmaydi senga.

* * *

Zay-ni-lar, 20 no-yabr.

Bugun ertalab hisoblab ko'rdim. Zaynilarga kelganimga nari-berisi bilan bir oy bo'lib-di. Bu bir oy menga hozir o'n yildan ham ortiq ko'rindi. Shu kunga qadar daftarimga biron narsa yozgim kelmadi. To'g'rirog'i, yozishdan qo'rqedim.

Dastlabki kunlarda yuragim hasrat va alam bilan to'liq edi, kim biladi, qanday bema'ni narsalarni yozib yuborishim mumkin edi. Mana endi bu yerga ko'nika boshladim. Aleksi opning og'zidan tushmaydigan bir gapi bor edi: "Qizlarim, umidsiz kasalliklarning, tabiy falokatlarning birgina dorisi bor: chidash va bo'ysunish... G'am-alamlarda yashirin shafqat bor. Shikoyat qilmaganlarni, o'zlarini ochiq chehra bilan qarshilaganlarni kamroq azoblaydi", — deyardi.

Choliqushi bu so'zlarni har doim kulimsirab eshitardi. Mana endi ularni to'g'ri deb bili-di, kulishga jasorat ham qilolmaydi.

Zaynilarda o'tgan mana shu bir oy ichida shunday damlar bo'ldiki, butun umidsizlikka chulg'andim. "Behuda urinma! Endi u yog'iga chiday olmaysan!" deyar edim o'zimga.

Ana shunday damlarda Aleksi opning payg'ambarona so'zlari menga yordam berardi. Yuragim qon yig'lab tursa ham kular, ashula aytar, hushtak chala boshlar edim. Shundayki, qalbim, nihoyat, bu kayfiyatning yolg'onligiga ishonar, suvga tushgan gullar kabi titray-titray tirila boshlar edi.

Keyin atrofimdagi narsalardan tasalli qidirishga tutindim. Qo'limga kirgan yangi yap-roqni betlarimga, lablarimga surtar, bog'dan topib olgan nimjon mushuk bolasini ko'ksimga bosar, nafaslarim bilan isitar edim. Juda bo'lmay ketgandan keyin o'z-o'zimga "Ko'nglingni cho'ktirma, Farida! O'zingni qo'lga ol. Bilasanki, hayotda kulib turuvchi yuzingdan, yuragingdan, jasoratingdan boshqa hech narsang qolmagan!" deyardim. Bu xushchaqchaqlik yasama, o'tkinchi bir narsa ekanligi ma'lum. Mayli! Shunday ham bo'lsin. Yopiq yerto'laga kirgan bir parcha nur, yiqiq devor toshlari orasida ungan zaif bir gul, har nima bo'lganda ham hayot alomati, inson tasallisidir.

Bugun juma, maktab yopiq. Bir necha kundan beri tinmay yog'ayotgan yomg'ir to'xtadi. Tashqarida kuz o'zining so'nggi ayriliq bayramini o'tkazyapti. Uzoqdagi qator-qator tog'lar, qamishzorlardi suvlar quyoshga kulib boqishayotgandek ko'rinardi. Sarvi daraxtlari, mozor toshlari ham vahimali manzaralarini yo'qtgandek edi. O'zimning qalbimga qarayman. Men endi hamma narsaga ko'nikib qolgan, hatto bu johil, dilxun qishloqqa bir oz o'rgana, uni seva boshlagan edim.

* * *

Kelgan kunimning ertasiga ertalab dars boshladim. Mana shu birinchi kun hayotimning eng unutilmas kuni bo'lib qoladi.

Maorif mudirining zo'r fidokorliklar evaziga yangilagan darsxonasi ertalab tuzukroq razm solib qaradim. Bu yer ilgari molxona bo'lganga o'xshaydi. Faqat bunga pol qilishibdi, derazalarini kengaytirib, ko'zlariga oyna solishibdi.

Mo'ri isiday qop-qora ko'ringan devor qog'ozlarida usti ostiga qilib qoqilgan bitta xarita, bitta skelet chizmasi, bitta dehqon fermasi va ilon rasmi solingen suratlar osilib turardi. Maorif mudiri aytgan yangi dars qurollari harholda shular bo'lsa kerak.

Sinfning bog' tarafidagi devorida molxona vaqtidan qolgan oxur turibdi; buni olib ta-

shlashni lozim ko'rmay, ustiga taxta qoqishib, sandiqqa o'xshatib qo'yishibdi.

Bolalar ovqatlarini, kitoblarini va maktabda yoqish uchun dala-dashtlardan terib kelgan cho'p-xashaklarini shu yerda saqlashar ekan.

Xaticha xalfa bu sandiqning boshqa bir vazifasi borligini ham aytdi. Tayoq ta'sir qilmaydigan sho'x bolalarni o'shaning ichiga qamab odam qilarmish. Qishloq oqsoqolining o'g'li Vahbi maktabdagagi butun umrini shu sandiq ichida o'tkazarkan. Vahbi yomon ish qilib qo'ysa, o'zi to'g'ri borib sandiqqa tushar emish-u, tobutdagagi o'likday chalqanchasiga yotib, qopqoqni ham o'zi yopib qo'yarmish.

Men ajablanib:

— Oqsoqol afandining jahli chiqmaydimi? — deb so'radim.

Xaticha xonim boshini tebratdi.

— Oqsoqol faqat xursand bo'ladi. "Barakallo, Xaticha xonim! Xo'p yaxshi qilibsan, aqli kiradi. Biznikida ham sandiq bor, betamiz sho'xlik qildi deguncha, xudo buyursa, men ham endi sandiqqa solaman", deydi.

— Tarbiyaning ajoyib usuli! Bundan chiqdi, maktabda o'g'il bolalar ham bor ekan-da?

— E, bor, ikki-uchta. Lekin kattalarini G'ariblar qishlog'idagi o'g'il bolalar maktabiga yuboramiz.

— G'ariblar qishlog'i qaerda?

— Hov anovi tog' orasida. Ko'rdingmi, oqarib turibdi-yu?

— Bolalarga qiyin emasmi? Qorda, qishda u yerga qanday borib-kelishadi?

— O'rganib qolishgan. Loygarchilik bo'lmasa, bir soatga qolmay yetib borishadi. Lekin yomg'irda, loygarchilikda, bo'ron turganda pitcha qiynalishadi.

— Unday bo'lsa nega ularni ham shu yerda o'qitavermaymiz?

— Hech mahal xotinlar erkaklar bilan qo'shilib o'qiganmi?

— Voy, ular qanaqasiga erkak bo'lsin?

— Erkak bo'lmay nima, qizim! O'n ikki-o'n uch yoshga kirib qolgan kap-kattakon yigitlar, axir!

Xaticha xonim yamlanib qoldi, tilining uchida bir narsa bor edi-yu, lekin aytishga botinmadni. Keyin tavakkal qilib aytib yubordi:

— Bundan buyon hech iloji yo'q...

— Nimaga?

— Sen juda ham yosh muallimasan-da, shuning uchun, qizim.

Istambulda "nomusli xotin xo'rozdan ham qochadi" degan ta'bir bor. Nazarimda, Xatica xonim ham o'sha xilidan bo'lsa kerak, shuning uchun javob qaytarishni ep ko'rmay, boshqa ishlarga urinib ketdim.

Zo'r fidokorliklar evaziga qo'lga kiritilgan maktab qurolining bir qismini majag'i chiqib ketgan besh dona eski parta tashkil qilsa kerak. Lekin shunisi qiziq ediki, bularni foydalansandan sinfning bir burchagiga to'dalab tashlashibdi.

— Nega bunday qildingiz, Xatica xonim? — deb so'radim.

— Men qilganim yo'q, eski muallima qilgan, qizim,— dedi. — Bolalar bunday narsalar da o'tirib o'rganishmagan. Minoraday baland joyga chiqib o'tirgan odamning miyasiga ilm kirarmishmi? Eski muallima maktablar inspektori yo kattalardan birontasi surishtirib qolmasin, deb partalarni maktabdan butunlay chiqarib tashlashga hayiqdi. Bolalar maktabga yangi kelishganda baribir partaga o'tqazamiz. Dars boslangandan keyin pastdagagi bo'yraga tushiramiz. Badavlat bolalarning esa ko'rpachalari bor.

Kampirdan menga qarashib yuborishni iltimos qildim. Bo'yralarni olib tashlab, polni yuvdim, keyin partalarni tizib, bu eski molxonani birmuncha sinf kepatasiga kirdizdim.

Xatica xonimning norozi ekanligi yuz-ko'zidan ko'rinish turardi. Shunday bo'lsa ham qarshilik qilishga yuragi dov bermas, nimaiki buyursam qaytarmas edi. Men ishlarni tezroq bitirish

payida edim. Lekin qo'llarimni yuvib ulgurmasdan talabalarim birin-ketin kela boshlashdi.

Bechoralarning kiyim-boshlari shu qadar yupun, xarob ediki! Hatto birontasining oyog'ida paypoq ham yo'q! Boshlarini eski, juldur bo'z lattalar bilan mahkam o'rab olishibdi. Yalangpoycha kiyib olgan yog'och kavushlarini taqirlatib sinf eshigigacha kelishadi-da, kavushlarini o'sha yerga yechib, yonma-yon tizib qo'yishadi.

Qizaloqlar meni ko'rib hayiqishdi-yu, eshikdan uyalib qarab qolishdi. Men ularni yaqinroq kelinglar, deb chaqirganimda, qo'llari bilan yuzlarini to'sib, eshik orqasiga yashirinib olishdi. Axiyri, ba'zilarini bilaklaridan ushlab, zo'rg'a sinfga olib kirdim.

Qizchalar yonimga kelishib, ko'zchalarini yumgan holda qo'llarimni shunday o'pa boshlashdiki, kulib yuborishdan o'zimni zo'rg'a tutib qoldim. Qishloqda odat bo'lib qolgan bu o'pish kulgili bir ohangda cho'lpillar, qo'llim ustida oz-ozdan so'lak qolardi. Men ham qizaloqlarni o'zimga isitib olish uchun har biriga ikki-uch og'iz shirin so'z aytardim. Amмо ular mumkin qadar shirin til bilan so'ragan savollarimni odamni tajang qilib yuboradigan bir o'jarlik, sukunat bilan javobsiz qoldirishardi. Ancha noz qilishgandan, tortinishgandan so'nggina otlarini aytishga rozi bo'lishardi:

- Zahro...
- Oysha...
- Zahro...
- Oysha...
- Zahro...
- Oysha...

Voy xudo! Bu qishloqda Zahro bilan Oyshalar muncha ko'p ekan! Bu yerda hech kula-digan narsa bo'lmasa ham, miyamga qiziq o'ylar keldi. Masalan, inspektor kelib, o'quvchilarim bilan tanishmoqchi bo'lsa, "sinfda to'qqizta Oysha bilan o'n ikkita Zahro bor", deyman-u, qutulaman. So'ngra darsni oson olib borish uchun hamma Oyshalarni sinfning bir tarafiga, Zahrolarni ikkinchi tarafiga o'tqazish mumkin. Yoki bunday qilsa ham bo'ladi, masalan, to'p o'ynatganimda (tanaffus mahallarida qizchalarni bog'da, albatta, o'ynatib, bahrlarini ochaman), Oyshalar bu yoqqa, Zahrolar u yoqqa o'tsin, deb sinfni bir zumda ikkiga bo'lib yuborish mumkin bo'ladi.

Bu narsa menga anchagina ermak bo'ldi. Maktabga yangi qiz kelsa:

— Qizim, sen Zahromisan, yo Oysha? — deb so'rar, ko'pincha savolimda haqli bo'lib chiqardim.

Lo'ppi yuzli kichkina qiz hammasidan ham qaqqajonroq chiqib qoldi. Qora ko'zlarini yuzimga tikib turib:

- Mening otimni qaerdan bilasiz? — dedi.

Talabalarimni partalarga o'tqazdim-da, har kim o'z joyini esidan chiqarmasin, deb tayinladim. Bechoralarning ahvollarini ko'rish kerak edi! Partalarda o'tirishning epini qili-sholmas, daraxt shoxida yoki tom bo'g'otida o'tirganday g'alati vajohatda edilar. Yonlari dan ketdim deguncha, yer ostidan menga bir qarab qo'yib, kulgili bir alfozda salanglab turgan kir oyoqlarini sekin taglariga yig'ishtirib olishar, shu qiliqlari bilan kosasiga yashi-ringan toshbaqalarni esimga tushirishar edi. Nachora, sekin-asta ko'nikib ketishadi.

Bir narsa meni juda hayron qilib qo'ydi. Yonimga uyalib-tortinib zo'rg'a kelgan, ko'zlarini yumib turib qo'llimni o'pgan va qishloq kelinchaklariday og'izlaridan bir so'z ham chiqarmagan bu qizchalar kitoblarini ochar-ochmas baland tovush bilan shu qadar baqirib-chaqirib o'qib ketishdiki!..

Sinfda bolalar ko'paygan sari shovqin ham ortib, kallam gir aylana boshladi.

Xaticha xonimdan:

— Hamisha shunaqa baqirishib o'qishadimi? Bunga qanday chidab bo'ladi? — deb so'radi.

Xaticha xonim bir oz hayron bo'lib menga qaradi.

— Albatta, qizim! Maktab bu! Tesha urmasa yog'och yo'nilar mishmi? Qancha qattiq baqirishsa, dars shuncha yaxshi miyaga kiradi, — deb javob berdi.

Sinf bolalarga to'lgan edi. Maktabning birdan-bir chiroyli va yangi ashyosi bo'lgan o'qituvchi stoliga zarb bilan bir musht tushirdim. Shovqinni to'xtatib, ovoz chiqarmay o'qishlarini buyurmoqchi edim. Lekin bunga hech kim e'tibor qilmadi, birontasi boshini ko'tarib qarab ham qo'yamadi. Aksincha, tosh otilgan ari uyasiday yana beshbattar g'ovur boshlandi.

“Ayzubillohi, abjad, havvaz, xutti, jim, ustun, jejim asra ji”.

Bolalarni to'g'ri yo'lga solib yuborguncha anchagina qiynalishimni bilsam ham, harholda bunga muvaffaq bo'llishimga shubham yo'q edi.

— Xaticha xonim, bugun o'zingiz bilganingizcha o'qitavering, — dedim unga. — Men sinfda tartib o'rnatmagunimcha darsni boshlay olmayman.

Kampir menga shubhalanib qaradi-yu:

— Qizim, biz ko'rgan-bilganimizni o'qitamiz. Siz bilgan narsalarni biz bilmaymiz, nima qilaylik, maktab ko'rmagan bo'lsak, — dedi.

Boyoqishning nima demoqchi bo'lganligini keyincha tushundim. Xaticha xonim meni sinab ko'ryapti, deb o'ylabdi. Sho'rlik kampir ikki yuz qurushlik oyligidan ajrab qolmasam deb shunaqayam qo'rqa diki!..

Havo ochiq bo'lganiga qaramay, qizlarning bir nechasi boshlarini eski yuzpardalar bilan o'rab maktabga kelishdi. Xaticha xonimdan buning sababini so'ragan edim, u bu savolimga har mahalgiday ajablanib javob berdi:

— Voy xudo, bular kelin bo'ladi gan kap-katta qizlar-ku, aylanay! Ko'chada boshlarini ochib yurishsa ayb bo'ladi, axir!

Yo rabbiy! Kuzda rangini yo'qotgan gullar singari so'lg'in bu o'n-o'n ikki yashar bolalar qanday qilib bo'yi yetgan-u, qanday qilib kelinchak ekan! Men chindan ham g'alati bir yurtga kelib qolibman!

Bu ahvol bir jihatdan mening ko'nglimni ko'tarmay qolmadi. Bularni kelin bo'ladi gan qiz, deb yuradigan odamlar menga uyda o'tirib qolgan qari qiz deb qaraydi, endi hech kim meni kichkina qiz, deb masxara qilmaydi.

Maktabga hammadan keyin o'g'il bolalar keldi. Bu sho'rliklar kattalar qatori uy ishlari ni qilishar, quduqdan suv tortishar, sigir sog'ishar, toqqa chiqib o'tin terib kelishar ekan.

Xaticha xonim ularga bir oz tashqarida kutib turinglar, deb buyurdi, keyin zaif bir hadik bilan menga yuzlandi.

— Ro'molingni o'rab olish esingdan chiqibdimi, qizim? — dedi.

— Ro'molning nima keragi bor?

— E, qizim, kerak bo'lganda qanday! Mayli-ku, men aralashmayman, lekin boshga ro'mol o'ramay dars berish gunoh bo'lmasmikin?

“Bilmayman” deyishga uyaldim. Xiyol qizarib:

— Ro'molim uyda qolibdi, — deb yolg'on ishlatdim.

Xaticha xonim:

— Bo'lmasa, qizim, men senga top-toza batist ro'mol bera qolay, — dedi-yu, yugurib hujrasiga kirib ketdi. Ochganda qulfi jaranglagan sandig'idan bitta yashil ro'mol chiqarib berdi.

Nachora, boshga tushganni ko'z ko'radi! Sochlарimni durra bilan o'radim. Istambul ko'chalarida fol boqib yuradigan lo'li qizlarnikiga o'xshatib ikki uchini iyagim tagidan bog'lab oldim.

Tashqi darpardasi yopilgan derazalardan birining oynasi xira ko'zguga o'xshardi. Men sekin o'sha yerga kelib, o'zimni oynaga sola boshladim. Maktabga tayinlanganimdan

keyin o'zimning muallimalik qiyofam qanday bo'lishini o'ylab qo'ygan edim. Fikrimcha, muallima o'z vazifasini bajarib turgan paytda boshqa xotinlar singari kiyinmasligi kerak. Ijodim juda sodda edi: tizzagacha tushib turgan qora satin ko'ylak, belda ingichka qayish kamar, pastroqda ikkita kichkina cho'ntak — biri ro'molcha uchun, ikkinchisi xotira daftarchasi uchun. Lekin bu qora manzarani bir oz ochish uchun oq matodan serbar yoqa qilinadi. Men uzun sochlarni yoqtirmayman, lekin o'qituvchi xotin sochini kalta kestirishi yaramaydi. Bir oydan beri sochimni uzaytirishga har qancha tirishsam ham, haligacha yelkamga tushgani yo'q.

Men birinchi darsga tayyorlanib, xuddi shu taxlitda kiyindim. O'jar sochlarmi peshonamga tushmasin, deb xo'p taradim. Yaltiroq, qora ko'ylagim, taroqdan qutular-qutulmas yana dikkaya boshlagan kalta sochlarmi ustidagi bu yashil durra shu qadar g'alati bo'lib ko'rindiki, qahqaha urib kulib yuborishdan o'zimni zo'rg'a ushlab qoldim.

Sochlarmi Xaticha xonim bergen yashil durra bilan o'rashga majbur qilgan o'quvchi bolalarimni sizlarga tanishtirib o'tay. Eng avval sinfdagi butun umrini sichqon singari sandiqda o'tkazadigan kichkina Vahbi. Bu bola chindan ham shum sichqonga o'xshaydi: munchoq singari qora, yaltiroq ko'zlari mug'ambir, kichkina yuzi, uzunchoq iyagi bor, u maktabning eng shayton bolasidi...

Bo'ri bolasidek yumaloq, oq ko'z, yaltiroq tishli, qip-qizil labli, qop-qora arab bola — Ja'far og'a. Uni birov Ja'far deb chaqirsa, maktabda hech qanday javob bermay, ko'chaga chiqqach, tosh otar ekan.

O'n yashar Ashur; bu skelet singari ozg'in, kir, iflos yuzini chechak buzgan cho'tir bola.

Nihoyat, sinfning eng ko'zga ko'ringan bolasi — Hafiz Nuri. Bu bola o'n yoshga endi kirgan bo'lsa ham, yuzi yetmishga kirgan cholniki singari burishib-tirishib ketgan. Iyagining tagida bitgan yarasi bor. Yalang'och bo'yni barglari sidirib olingen novdaga o'xshaydi. Shishib ketgan kasal qovoqlarida bitta ham kiprik yo'q, tuxumga o'xshagan boshida oq salla. Gapning qisqasi, bu pulga tomosha qildiriladigan ajoyib maxluqning o'zi.

Shu kuni ertalab Xaticha xonim qabristondan yangi kesib chiqilgan uzun chiviqlarni yoniga qo'yib olib, bolalarni bitta-bitta chaqira boshladи. Chaqirilgan bola Xaticha xonimning savollariga javob berib turganda, butun sinf avvalgidek shovqin-suron bilan darsini pishiqtirardi. Esimda: Aleksi opa sinfda shovqin solgudek bo'lsak, sham singari sap-sariq barmoqlarini bir-biriga kirishtirib, Bibi Maryam taxlitida moviy ko'zlarini yuqoriga ko'tarardi-da: "Menga jahannam azobini tortdiryapsiz", — deyar edi.

Sinfdagи hamma shovqin, hamma tartibsizlikning sababchisi, albatta, Choliqushi bo'lardi. Mana endi ana shu shovqin-suron azoblarini o'zing boshingdan kechiryapsan, Choliqushi! Odamni jinni qiladigan bu shovqinni bosish uchun, o'quvchilarimni ovoz chiqarmay o'tirishga, sinfda berilgan darsni hamma baravar eshitishga o'rgatish uchun ikki hafta jon kuydirdim.

Xayriyat, mehnatim zoe ketmadi. Dastlabki kunlarda qanchalik g'ayrat qilsam ham, lekin ularni eplay olmadim. Xaticha xonimning sinfda ilon singari chinqirgan ingichka novdalaridan keyin ovozim ularga juda jonsiz eshitilar edi... Ba'zan ilojini topolmay: "Xaticha xonim, bu yoqqa kelng!" — deb tashqariga baqirar edim. Uning supurgiga o'tirib olib, osmonda uchib yuradigan yalmog'iz singari sinfga otilib kirishi dardimga davo bo'lardi.

Nihoyat, sinfdagi shovqin-suronlarni sekin-asta bosishga muvaffaq bo'ldim. Endi sinfda pashsha uchsa eshitiladi. Bolalar sekin-sekin so'zga kiradigan bo'ldilar. Sinfda qancha baqirib-chaqirib o'qishsa, darslari shuncha miyasiga yaxshi kiradi, deb ishongan Xaticha xonim ham xursand.

Xaticha xonim suyunganidan:

— Xudo umringga baraka bersin, aylanay qizim! Endi boshim tinchib qoldi, — dedi.

Ammo maqsadim faqat shundangina iborat emas edi. Men bolalarga biroz hayot va shodlik ham berish tilagida edim. Afsuski, bu tilakka yetishning iloji yo'qdek ko'rindi.

Bu qishloqning uylarida, ko'chalarida, mozorlaridagi singari bolalarida ham qora g'amginlik bor edi. Rangsiz lablari kulishning nima ekanligini bilmas, harakatsiz, hamisha g'amu hasrat to'la ko'zları doimo o'limni o'ylayotgandek ko'rindi. Men ham sekin-sekin o'shalarga o'xshab boryapmanmikan? Ilgarilari o'lim to'g'risida fikrim butunlay boshqacha edi: odam ellik yoshigacha, oltmis yoshigacha, xullas, xohlaganicha, char-chaganidan madori quriguncha yuradi, yuguradi, ishlaydi, so'ngra ko'zları shirin uyqu istagi bilan yumila boshlaydi. Ana shunda oppoq, toza ko'rpgaga kirib yotadi. Uyqu uni qamrab oladi-da, g'alati bir kayf ichida kulimsirab, qattiq uyquga toladi. Quyosh nurlarida porlagan oq marmarlar ustiga quchoq-quchoq gullar sochiladi... O'sha marmarlardagi kichkina chuqurchalardan suv ichgani qushlar kelib qo'nadi. O'lim so'zini eshitganimda, ko'zlarim qarshisiga shu xil jonon va shodon manzaralar kelardi. Endi uning achchiq mazasini yer, o'simlik va sarvi daraxtlari orasida tilim bilan totib, dimog'larim bilan bo'ylini hidlayotgandayman!

Bolalarning shunchalik og'ir, shunchalik noxush ekanliklarida Xaticha xonimning ham ancha-muncha aybi bor. Bu boyoqish xotin muallimaning vazifasi bolalar qalbidagi dunyoviy istak va intilishlarni yo'qotishdan iborat, deb tushunadi. Shuning uchun har mahal bechora bolalarni o'limga duch keltirishga harakat etadi. Uning fikricha, devordagi bir necha tabiiyot lavhalari sinfga shu maqsadda keltirilgan. Masalan:

Bu dunyo fo-niy-dir, hech kim-ga qol-mas,

O't, ey dunyo, o't, ey oxir za-mon-dir, —

qabilida qo'rqinchli she'rlar o'qtigandan so'ng skelet surati solingan qog'ozni ko'rsatadi, "Ertaga, biz o'lGANIMIZdan keyin ettarimiz yo'qolib, suyaklarimiz mana shunday bo'lib qoladi!" deb o'limning dahshatini, go'r azoblarini tushuntira ketadi.

Kampirning fikricha, narigi suratlar ham shu narsalarni ifoda etadi. Masalan, qishloq xonadoni tasvir etilgan suratni ko'rsatib: "Xudoyi taolo bu qo'ylarni qullarim yesin, keyin menga ibodat qilishsin, deb yaratgan. Biz-ku shu qo'ylarni to'yib o'lman qornimizga joylaysiz, lekin ollohi taolo oldidagi burchimizni o'tayapmizmi? O'tash qayoqda! Lekin ertaga tuproqqa kirganimizda, munkarnakir qo'lida o'tli gurzisi bilan tepamizga kelganda, ko'ramiz, holimiz galay bo'lar ekan?" Shu taxlitda allanarsalar so'ylar, yana o'lim tasvirini boshlar edi.

Ilon surati solingan rasmga kelsak, Xaticha xonim buni Shohmoron, ya'ni ilonlar podshosi, deb tushuntiribdi. Qishloqlar og'rib-netib qolishsa, ismlarini ana shu ilonning qorniga yozib, ularni shifolab kelgan.

Ha, bu bechora bolalarning vaqtlarini bir oz chog' qilish, ularni kuldirish uchun nimalar qilmadim! Faqat butun qilgan harakatlarim zoe ketmoqda. Maktabga tanaffus usulini ham kirdizdim. Bolalarni yarim soatda, bir soatda bir marta boqqa olib chiqar, ularga ko'ngil ochadigan qiziq-qiziq o'yinlar o'rgatar edim. Lekin, nima uchundir, bu o'yin-kulgilar bolalarni qiziqtirmas edi. Ana shunday kezlarda bolalarni o'z hollariga tashlab qo'yib, bir chetga chiqib turardim.

Mehnat ezgan, jafo ko'rgan katta yoshli odamlarga o'xshash, ranglari so'lg'in, ko'zları g'amgin bu kichkina qizchalarning eng yaxshi ko'rgan o'yinlari bir burchakka tiqilib olib, o'lim, tobut, janoza, Azroil, qabr kabi qo'rqinchli so'zlar bilan to'liq diniy ashulalar aytishdan iborat edi. Yana bitta ashulalari bor ediki, buni titroq tovushchalari bilan chinqirib uvillashardi:

O'g'ri-lar ka-bi yechin-ti-rar se-ni,

*Bir quruq to-but-ga qo'yar-lar se-ni,
Zo-lim o'lim-dan qutul-may-san hech.*

Qizlar shunday deb nola qilishganda ko'z oldimdan dafn marosimlari saf tortib o'tardi.

O'quvchilarimning eng yaxshi ko'rgan o'yinlari o'lik ko'mish taqlidi edi. Bu o'yin, odatta, katta tanaffus mahallarida o'ynalardi. Bu teatr pesasiga o'xshab ketgan o'yinda bosh rollarni Hafiz Nuri bilan arab Ja'far og'a o'ynardi.

Ja'far og'a og'rib qoladi. Atrofida qiz bolalar yig'ilishib, Qur'on o'qishadi, og'ziga suv tomizishadi.

Bola ola ko'zlarini yumib jon berganda, qizchalar faryod urib yig'lashadi, iyagini bog'lashadi. Keyin Ja'far og'ani taxtaga yotqizib yuvishadi.

Bolalar eshikdan sindirib olingan taxtani yashil durralar bilan yopishganda, bular yasagan tobutning o'sha qo'rqinchli haqiqiy tobutdan farqi qolmas edi.

Hafiz Nuri chinqiroq, mash'um tovush bilan janozaga chaqirganda, azon aytganda, janoga namozi o'qiganda badanimda chumoli yurgandek bo'lardi. Qabr ustida "Yo Ja'far binti Zahro", deydigan odati bor ediki, kechalari tushlarimga kirib chiqar edi.

Yuqorida aytganimdek, bu qishloqning havosi, ayniqla, har soati bitmaydigandek cho'zilib ketadigan kechalari odam dimog'iga o'lim hidini keltiradi... Bunday kechalarining vahimalariga, qo'rquvlariga chidash...

Bir kuni kechasi tog'da qashqirlar uliy boshlashdi. Men juda yomon qo'rqib ketdim. Ni-ma bo'lsa ham pastga, Xaticha xonimning hujrasiga tushmoqchi bo'ldim.

Lekin uning mog'or hidi kelib turgan, yerto'лага o'xshagan hujrasining eshigini ochganimda, qashqirlarning ulishidan ham ming marotaba dahshatli manzaraga duch keldim.

Kampir oppoq chorshafga o'ranib olib, joynamoz ustida o'tirar, hushidan ketgan singari bo'g'iq bir tovushi bilan allanarsalar o'qir, u yoq-bu yoqqa tebranib, uzun tasbehini o'girar edi.

* * *

Zaynilar qishlog'ida men uch narsaga ko'ngil qo'ya boshladim: birinchisi — derazam tagidagi oqar buloq, u tinimsiz shildirab, yolg'izlik kechalarimda menga hamdamlik qiladi.

Ikkinchisi — kichkina Vahbi, ya'ni Xaticha xonim saltanati zaminida umrini sandiq ichida jazo tortish bilan o'tkazgan bola. O'zining tengdoshlariga hech bir o'xshamagan bu kichkina shaytonni yaxshi ko'rib qoldim. Bu bola harflarni g'alati talaffuz etar, shirin til bilan erkin gaplashar edi... Vahbi bir kuni bog'da porloq ko'zlarini qisib menga qaradi.

— Nimaga qaraysan, Vahbi? — deb so'radim.

Vahbi hech tap tortmay:

— Juda chiroyli qiz ekansan! Akamga olib beray, bizning kelinimiz bo'lgin. Akam senga tuflilar, ko'ylaklar, taroqlar olib beradi, — dedi.

Vahbining hamma narsasi menga yoqadi, lekin men bilan hech hisoblashmaydi. Ba'zan jahlim chiqqanda, qulog'ini sekin cho'zib qo'yganimda ham bunga hech parvo qilmaydi. Kim biladi, balki xuddi shu narsasi uchun uni shunchalik yaxshi ko'rib qolgandirman. Vahbidan bu o'rinsiz taklifni eshitib qoshlarimni chimirdim.

— Odam ham o'z muallimasiga shunday narsalarni aytadimi? Birov eshitib qolsa, tilingni kesib oladi! — dedim.

Vahbi mening soddaligimdan kulayotgandek qilib:

— Esimni yebmanmi! Nima, birovga aytarmidim! — dedi.

Voy xudo, bu zing'archa qishloq bolasi nimalarni bilmaydi-ya!

U yana tortinmay davom etdi:

— Seni istambullik kelinoyi deyman. Senga kashtanlar olib kelib beraman. Akam

bo'yningga tillo marjonlar taqadi.

— Nima, hali kelinoying yo'qmi?

— Bor, lekin u qora qiz. Uni Hasan cho'ponga beramiz.

— Akang nima ish qiladi?

— Jandarma.

— Jandarma nima qiladi?

Vahbi o'ylanib qoldi. Keyin boshini qashib:

— Kofirlarni so'yadi, — dedi.

Vahbining mag'rur qaysarligi menga yoqar edi. U o'zini katta odamlardek tuta biladi. Darsda xatosini tuzatsam uyaladi, keyin qizarib, yanglischeni tuzatishga unamaydi. Mabodo qattiq turib talab qiladigan bo'lsam, yuzimga nafrat bilan qarab:

— Sen xotin kishisan, aqling yetmaydi, — deydi. Mehrim tushib qolgan uchinchi narsaga kelsak, u kichkina yetimcha qizdir. Dars boshlaganimning beshinchchi kuni bo'lsa kerak. Partalarga ko'z yogurtira boshlagan edim, yuragim shirin bir hayajon bilan o'ynab ketdi. Eng oxirgi partada oq desa bo'ladigan mayin sarg'ish sochli, oqish tanli, malak kabi go'zal yuzli bir qizchaga ko'zim tushdi. U inju kabi oq tishlarini yiltiratib, menga kulib turardi.

Kim ekan bu qiz? Qaerdan paydo bo'lib qoldi?

— Qani, bu yoqqa kel-chi! — deb qo'l imosi bilan chaqirdim.

Qiz qush chaqqonligi bilan o'rnidan sakrab turdi, men mакtabda qilganimdek, oldimga irg'ishlab keldi.

Bechoraning ust-boshi xarob edi. Oyoqlari yalang, sochlari to'zg'in. Egnidagi rangi o'chgan chit ko'ylagini yirtiqlaridan oq, nozik badani ko'rinish turar edi.

Mitti qo'lchalarini ushладим.

— Yuzimga qara, kichkinam, — dedim.

Qizcha qo'rqa-qo'rqa boshini ko'tardi, jingalak kipriklari orasida bir juft lojuvard ko'z chaqnadi.

Zaynilar qishlog'ida chekkan iztiroblarim meni yig'latmagan edi. Lekin bu yarim yalang'och qizchaning chiroyli ko'zlari, qizil lablar orqasida ikki qator inju shodasidek kilib turgan tishlari, agar o'sha dam o'zimni ushlab qolmasam, meni ho'ngratib yig'latib yuborardi.

Qizchaning yuzchasini sekingina siladim, keyin hamma qizlardan so'rganimga o'xshash bundan ham:

— Oting Zahromi, kichkinam, yo'qsa Oysha? — deb so'radim.

U toza Istanbul lahjasida odam ishonib bo'lmaydigan bir shirin til bilan:

— Menim otim Munisa, xo'jonim, — dedi.

— Sen shu maktabda o'qiysanmi?

— Ha, xo'jonim.

— Nega shuncha kundan beri kelmading?

— Opam yubormadi, xo'jonim, ishimiz bor edi-da. Endi kelib turaman.

— Nima, onang yo'qmi?

— Opam bor, xo'jonim.

— Onang qaerda?

Kichkina qiz ko'zlarini quyi solintirib jim bo'lib qoldi. Men bilmasdan bola qalbidagi shilinib yotgan yaraga tegib ketganligimni tushundim. Shuning uchun bu haqdagi savollaramni to'xtatib, boshqa narsani so'radim:

— Kecha kechqurun ashula aytgan senmiding, Munisa?

Kecha kechqurun qo'shni bog'da allakim ingichka bola ovozi bilan ashula aytganini eshitgan edim. Bu ovoz shu qadar shirin, bu yerda eshitgan ovozlarimga hech o'xsha-

mas ediki, boshimni derazaga tirab, ko'zlarimni yumdim, bir necha daqqa o'zimni boshqa yerlarda, otini aytgim kelmagan vafosizlar yurtida ekandek sezdim.

Ashula aytgan bola bu kichkina qizdan boshqa bo'lisi mumkin emas edi.

Munisa uyalib, boshini silkidi.

— Men edim, xo'jonim, — dedi.

Qizchani joyiga jo'natib, darsni boshladim. Ichimda chiroq yoqilgandek bir his paydo bo'ldi. Bu kichkina qiz menga iliq bahor quyoshi kabi ta'sir qildi.

Qor ichida ko'mig'liq qush inini isitgan zarrin quyosh nuri kabi meni isitdi.

Hasrat to'la sovuq in ichida boshini qanotlari orasiga suqib, titragan xasta, zaif Choliqushi sekin-sekin jonlana, eski sho'xchanligini yana topa boshladи. Vujudimning harakatlari aqib bir o'ynoqilik, ovozimga, so'zlarimga haroratli bir ohang qo'shila bordi.

Dars berib turgan chog'larimda ko'zlarim ixtiyorsiz unga qarab qolardi. U ham menga qarardi. Shirin-shirin kulimsirab turgan inju tishlariga, o'pib olgim kelgan lojuvard ko'zlariga havaslanar, umrimda birinchi marta o'zimda onalik muhabbat uyg'ona boshlaganini his etardim.

Yolg'iz yashashga majbur bo'lgan shu kunlarimda qani endi shunday bir qizim bo'lsa! Afsuski, bu narsa menga nasib bo'lmaydi.

Munisani Xatica xonimdan surishtirib, juda oz narsa bilib oldim. "Opam" degani o'gay onasi emish. Otasi ilgari o'rmon ma'murlaridan biri bo'lgan ekan. Ikkinci xotini Zaynilar qishlog'idan bo'lgani uchun, pensiyaga chiqib, shu yerga ko'chib kelibdi. Xotinining uyi, bir oz yeri bor emish. Bundan tashqari, oladigan besh-o'n qurush pensiya puli bilan kun kechirar emishlar.

— So'zingizga qaraganda, bularning oilasi uncha kambag'al emas ko'rindi, — dedim Xatica xonimga. — Nega endi qizga yomon qarashadi?

Kampir qoshini chimirdi.

— Shunchalik qarashganiga ham shukur deyish kerak. Boshqa xotin bo'lsa ko'chaga chiqarib tashlar edi.

— Nega endi?

— Munisaning onasi yomon xotin, qizim. Yaxshi esimda yo'q, besh yil bo'ldimi, olti yil bo'ldimi, bilmayman, onasi bir jandarma ofitseri bilan qochib ketgan. Munisa u mahal juda kichkina edi. Keyin ofitser buning onasini tashlab, boshqa yerga ketib qolgan. Keyin ancha-muncha gap bo'ldi, yigitlar toqqa olib chiqib o'ynashgan deyishadi. Xullasi kalom, buzuq xotin degan nomi bor.

— Hay, bu-ku shundaydir, Xatica xonim, lekin qizda nima ayb?

Kampir boshini chayqadi, yuzidan tabassum alomati ko'rindi.

— Nima qilishsin deysan? Bunday xotinning qizini shoyi ipaklarga o'rashga qurblari yetmaydi ham.

Munisa mакtabga har kuni qatnay olmas edi. Sababini so'rasam:

"Opam kir yuvdirdi, opam pol yuvdirdi, opam toqqa o'tin terishga yubordi" qabilida javoblar berar edi.

Bolalar bu qizni uncha yaxshi ko'rishmasdi. Sinfda har doim o'zlarini undan olib qochar, payt topishsa yashiriqcha jonini og'ritib yig'latardilar. Bunda mening ham ozmi-ko'pmi aybim bor edi. Bu kichkina qizga uyg'ongan mehrimni yashirmsa edim. Sinfda uni erkalaganimni, bog'da yonimga chaqirib olib gaplashganimni ko'rib, bolalarning jahli chiqardi.

Bir kuni Munisaning maktab bog'ida yig'laganini, "Nima qildim sizlarga? Nima yomonlik qildim? Qo'yinglar!" deb yolvorganini eshitdim-da, o'zimni ko'rsatmasdan derazadan qaradim. Qizlar buloqdan og'izlariga suv to'ldirib, Munisani quvar, og'izlaridagi suvni unga purkar edilar. Bechora qiz yig'lab u yoqdan-bu yoqqa qochar, yuzini, bo'ynini qo'llari bilan

to'sishga harakat qilardi.

Og'ir, qo'rqoq tabiat, loqayd qizlar yarali ohuni quvlagan ov itlariga o'xshardilar. Ular qora oyoqlari bilan chaqqon irg'ishlashar, o'limtik ustidagi quzg'unlar singari yirtqichlarcha qichqiriqlar ko'tarishib, Munisa atrofida yugurishardi. Boyoqish qizni goh burchaklarga tiqishar, goh tuproqqa yiqitishar yoki og'izlarini shishirgan suvni yirtiq ko'y lagining yarim ochiq yoqasidan ko'rinishiga purkashardi.

Aqlim boshimdan uchdi, uydan telbalarcha otilib chiqib, pastga qarab yugurdim. Shunday yugurdimki, o'ng oyog'im chirik zina pog'onalarining birini sindirib, ichiga tushib ketdi. Men boqqa yetib kelganimda manzara o'zgargan edi. Munisaga o'zi singari kichkina, lekin kuchli, chaqqon yordamchi topilibdi. Bu Vahbi edi.

To'qqiz yashar bu azamatning qahramonligini bir umr esdan chiqarmayman. Vahbi buloq suvi oqib tushadigan narigi yoqdagi loyqa ko'lobga kirib olib, Munisani xafa qilayotganlarga hadeb loy sachratar, o'zi ham suvdagi o'rdakdek ivib borardi. Qo'llari, oyoqlari, yuzi — hammayog'i loydan qorayib ketibdi. Ingichka ovozi esa, qizlarning qiy-chuvlari orasida podachi nayidek, jaranglab chiqar edi.

— Hoy, kofirning qizlari, tegmanglar Munisaga! Bo'lmasa hammangni so'yaman! — deb qichqirardi.

Qizlar bu hujumga dosh berolmay chekinishga majbur bo'ldilar. Munisani yarim hushsiz holda quchog'imga olib uyimga ko'tarib keldim.

Bu kichik go'zalni bag'rimga bosganimda, o, nimalar his qilganimni aytib bera olmayman. Qalbimning ich-ichida qaynoq buloq ochilgandek, vujudimni hayajonli bir harorat bosib bordi. Bu harorat tomirlarimda yugurib, meni shirin-shirin elitar, ko'zlarimga yosh chiqarib, nafasimni bo'g'ar edi.

Bunday sarxushlikni bir mahal boshdan kechirgandek bo'lib ketdim. Ammo qaerda? Qachon?

Hozir shu satrlarni yozib turganimda qalbim urishdan to'xtab, ko'zlarim uzoq o'tmishga tikila boshladi "Ha, qaerda?.. Qachon?" deb o'ylayman. Bu, harholda, eski bir tushing xotirasi bo'lishi kerak. Chunki bu uzoq dudmal xotirada ro'yo kabi aqlga sig'maydigan narsalar bor. O'zimni fazolarda uchayotganday ko'raman. Atrofimda yuzimga, sochlarimga urilib, shitirlab oqayotgan xazonlar seli bor. Ajabo, qaerda? Yo'q, yo'q, yolg'on, bunday narsalarini umrimda birinchi marta his etyapman!

* * *

Shu kuni o'quvchilarimni esdan chiqarib, faqat Munisa bilan mashg'ul bo'ldim. Bo'ronlar ozor yetkazgan oq gul singari go'zal vujudini, oq ipakka o'xshash och sariq sochlarini yuvdim.

Bechora o'zini bosolmay anchagachacha hiqillab yig'ladi. O, bu ko'z yoshlar! Nazarimda, bu yoshlar qizning yuzidan emas, mening yaralangan qalbimdan oqib tushayotgandek.

Qizcha sekin-sekin menga ko'nika bordi. Eski ko'yaklarimdan birini naridan-beri unga moslab tika boshlaganimda, Munisa mushuk bolasidek etaklarimga suykalar, yoshi qurimagan ko'zlarini yuzimga tikib o'tirardi.

Hayotning mushkul, nohaq zarbalariga barvaqt uchragan har bir yosh boladagi singari Munisada ham katta kishi holi bor. Men faqat bir-ikki oydan berigina tushuna boshlagan ba'zi narsalarimni u ko'pdan biladi. Ha, uchta kichkina ukasiga o'zi qarar, bularning butun tashvishini o'zi tortar ekan. Shunday bo'lsa ham negadir o'gay onasiga yoqmas, har kun bir necha marta kaltak yeyishdan qutulmas ekan. Bundan bir hafta ilgari bog'lariga qo'shnisining sigiri tushibdi. Munisa esa uni haydar chiqarguncha kichkina ukasi belanchakdan yiqilib ketibdi. O'gay onasi Munisani o'lgudek uribdi-da, keyin molxonaga olib

kirib qamab qo'yibdi. Ikki kun qotgan non burdalaridan boshqa hech nima bermabdi. Munisa menga fil tishlari singari oq badanidagi qizargan, ko'kargan yerlarini ko'rsatdi. Bular o'sha kaltak izlari ekan.

Men chidayolmay:

— Otangning rahmi kelmaydimi senga, Munisa? — deb so'radim.

U mening soddaligimga hayron bo'layotgandek, yuzimga tikilib qaradi, keyin kulimsirab:

— U ham menga achinadi, men unga... Nima qilaylik, ikkalamizning ham qo'limizdan bir narsa kelmasa, — dedi.

Shu so'zlarni ayta turib, shunday chuqur xo'rsindi, mitti qo'lchalarini umidsizlik bilan shunday yozdiki, yuragim alamdan yorilib ketayozdi.

Munisani seva-seva, sevina-sevina qo'g'irchoqdek yasatdim. Kichkinamga qo'l oynasida o'zini ko'rsatgan edim, sevinganidan qip-qizarib ketdi. Pushti lenta bilan ikkita qilib o'rilgan sochlariiga, kalta qilib tikilgan ko'k yung ko'ylagiga, uzun qora paypoqlariga xudi di birovning egnidagi narsalardek qo'rqib qarar edi.

Keyin eshitsam, Munisaning yasan-tusani Zaynilar qishlog'ida bir necha kun gap-so'z bo'libdi. Ba'zilari mening yaxshiligidan xursand bo'lishsa, ko'pchilik menden xafa bo'libdi. Onasi tog'larda bevosh yurgan bir ilon bolasiga shunchalik shafqat qilish ortiqcha emish. So'ngra bu yasan-tusanlarni gunoh deb hisoblaganlar bolani onasi tushgan yomon yo'lga boshlaydi, deb aytishibdi.

Bechora Munisa pushti lentasidan, kalta ko'k ko'ylagidan, qora paypoqlaridan uzoq quvonib yurolmadi. O'gay onasi nima uchundir bu kiyimlarni yechintirib sandig'iga solib qo'ydi. U ikki kundan keyin yana eski, yirtiq ko'ylakda maktabga keldi.

Munisa maktabga kamdan-kam keladi. Mana uch kundan beri uni ko'rmayman. Bechoraga nima bo'ldi ekan? Ertaga kichkina Vahbidan surishtirib ko'raman.

* * *

Zay-ni-lar, 30 no-yabr.

Kun sayin maktabga mehrim oshib boryapti. Bir mahallar tashlandiq bo'lib yotgan sinf edi toza, shinam shaklga kirdi. Uni bir oz yasatishga ham muvaffaq bo'ldim.

Dastlabki kunlar menga yovvoyi, begona ko'ringan bolalar endi o'zimga yaqin, ko'zimga issiq bo'lib qolishdi. Men ularga o'rganib qoldimmi yoki mening tinmay qilgan mehnatim soyasida ularning o'zлari odobga kira boshlashdimi, bunisini bilmayman, lekin harholda ikkovining ham ta'siri bo'lqandir, deb o'ylayman.

Men ko'p ishlayman. Ulardan ko'ra ko'proq o'zim uchun, o'zimni bekorchilikdan, yolg'izlikning og'ir musibatlaridan qutqazmoq uchun kechalarni kunduzlarga aylantirib yuboraman. Muvaffaqiyatsizliklarga uchrasmam, ko'nglimni cho'ktirmayman. Bu beparvo ko'zli, johil ko'ngilli bolalarda bir oz tushuncha, bir parcha hayot zavqi uyg'ota olganligimi his etsam suyunaman.

Qishloqi qo'shnilarimdan ba'zilari goh-gohda menga mehmon bo'lib kelishadi. Bular ham chaqchaqlashib gaplashishni yomon ko'radigan, kulishni hech bilmaydiganlar. Balki ular menden tortinishar? Dastlabki kunlarda iloji boricha soddarоq kiyinishga harakat qilganimga qaramay, meni juda yasanib yuradi, o'ziga zeb beradi, deb yoqtirmaganliklarini tushunib turaman. Qishloq oqsoqolining xotini hatto buni bir necha marta o'zimga shama qildi.

Men qo'limdan kelganicha ularga yoqish, manzur bo'lishga harakat qildim. Hatto ba'zilarning duoyi salomlarini yozib, ko'ylaklarini bichib-tikib bergen vaqtlarim ham ko'p bo'ldi. Endi mening to'g'rimdagи fikrlar bir oz o'zgargan bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Ilgari kuni oqsoqolining xotini yana menikiga kelib, eri duo deb yuborganligini aytdi.

Oqsoqol: "Muallimangni dastlab ko'rganimda menga uncha yoqmagan edi. Endi bilsam, mana, tepamda xudo, yomon qiz emas ekan. Maktabni noppa-nozanday boshqarib o'tiribdi. Biron narsa kerak bo'lsa, tortinmasdan aytta bersin", — degan emish.

Tabiiy, bu iltifotga tashakkur bildirdim.

Bu yerda meni yoqtiradigan, tez-tez yo'qlab turadigan yana bitta obro'li shaxs bor. U qishloq doyasi Nazifa Mullo. Oti Zahro yoki Oysha bo'Imagani uchun boshqa joydan kelgan, deb o'ylayman, chunki sergapligi ham shundan dalolat beradi.

G'iybatchi ekan, deyishmasin deb odamlardan ko'p narsa surishtirmayman. Lekin qishloqdagi har xil qiziq, alomat voqealarni doyaning o'zi aytib beradi. Bu xotinning o'ziga xos fahm-farosati, nazokati bor. Masalan, bir kuni uyda ikkalamiz yolg'iz o'tiranimizga qaramay, boshqalarning eshitib qolishidan qo'rqayotgandek, og'zini qulog'imga yaqinlashtirib, Munisaning onasi haqida iyib, hatto achinib gapirdi. Oxirda boshini tebratib:

— Hamma ayb pandavaqi erida. Gunoh uning bo'ynida. Lekin, qizim, bu gaplarimni birov bilmasin. Odamni gap-so'zga qoldirishadi, — deb tayinladi.

Doya xonimning bir qori o'g'li bor emish. Hozir fitr yiqqani B... larga ketgan, dedi. Ishlari yurishib ketgan bo'lsa kerak, shuning uchun haligacha qaytib kelmabdi. Bu yil xudo nasib qilsa o'g'limni uylantirmoqchiman, dedi.

Boyoqish xotin payti keldi deguncha, o'g'lini maqtar, ko'zlarini ma'noli-ma'noli qisib qo'yib, mendan o'zicha umidvor bo'lardi. Ba'zi qoida va shartlarga rioya qilsam, qori afandiga zavja bo'lish sharafiga muyassar bo'lishim mumkin ekanligini fahmladim. Qisqasi, bu xotin meni zeriktirmay yuradi.

Mana bugun ham ertalab uyimga kelib, mavlud o'qishni bilish-bilmasligimni so'radi. Gapining mazmunidan, yaqinda qishloqda to'y bo'lar ekan. Zaynilar odatida to'ya muzika chalish o'rniiga mavlud o'qilarkan.

Kulib yubormaslik uchun lablarimni tishlab turib:

— Bilaman, lekin ovozim yo'q, doya xonim, — dedim.

Doya xonim afsus qildi. Eski xo'jonimlardan biri mavludni juda yaxshi o'qir, bu bilan juda ko'p pul topar ekan. Lekin doya xonimning bugungi kelishidan maqsadi bu emas edi. Erga berilayotgan qiz juda kambag'al emish. Qo'shnilar savob bo'lar, deb qizga bir-ikki satil bilan ko'rpa-to'shak qilib berishibdi. Kelinni go'shangada ko'rsatish uchun mendan ham bironta eski ko'ylagini hadya qilsa yaxshi bo'lardi, deb buni yuborishibdi. Buning ustiga u qiz men uchun yot-begona bo'lmay, o'z o'quvchilarimdan biri emish.

Bu xabarni eshitib hang-mang bo'lib qoldim.

— Mening o'quvchilarim orasida kelin bo'ladigan qiz yo'q edi-ku? Eng kattasi endi o'n ikkiga kirgan, — dedim.

Nazifa xonim kului.

— Vay aylanay, qizim, o'n ikki yosh ozmi? Men go'shangaga kirganimda o'n besh yoshda edim, meni o'tirib qolgan qari qiz deyishdi. To'g'ri, eski odatlar hozir taqiq qilin-gan, lekin nachora, qiz yetim, hech kimi yo'q, ko'chada qoldi. Qishloqda Mehmet degan bir cho'pon bor, shunga beryapmiz. Har nima bo'lganda ham bir burda non topib kelib yezizib turar.

— Kim ekan u qiz, doya xonim?

— Zahro.

Sinfda yetti yo sakkizta Zahro bor edi, shuning uchun darrov bilib ololmadim. Doya xonim qaysi Zahro ekanligini aytganda, dahshatdan esim og'ib qolayozdi.

Cho'pon Mehmet uylanayotgan Zahro odamning tushiga kirsa qo'rqib ketadigan alfozda nogira, telba bir qiz edi. Xina rangida, cho'pdek qattiq to'zg'oq sochlari, mum singari rangsiz yuzida yana shu tusda seckillari, tor peshonasida kosalaridan o'ynab chiqqan

qo'rqinchli ko'zlari bor edi. Birinchi ko'rganimdayoq bu qizning kasalligini fahmlagan edim. U sinfda hech gapirmas edi. Mabodo biron narsani so'ragisi kelsa yoki darsni o'qish lozim bo'lса, birdan jazavasi tutib qolgandek, chinqiroq tovush bilan qichqira boshlari edi.

Lekin men bir narsaga hayronman. Zahro shu holiga qaramay, hisob darsida va yodlashda sinfda hammadan oldinda turar edi.

U sinfdagi singari bog'da ham bolalarga qo'shilmas, tobut va janoza haqidagi diniy qo'shiqlarni aytmas, nash'ali dafn o'yinlarida ham qatnashmasdi. Lekin uning bir necha kunda bir marotaba o'zi yolg'iz o'ynaydigan bir o'yini bor ediki, bu meni bolalarining boshqa o'yinlaridan ham battarroq dahshatga solardi. Zahro bog'ning o'tasida turib olib, xuddi osmondan kelayotgan bir ovozni eshitayotgandek, ko'zlarini olaytirar, turgan yeriда samovar kabi pishillar, g'alati vahimali ovozlar chiqara boshlardi. Keyin bu jazavasi kuchayib, qizg'ish sochlari hurpayar, og'zi ko'pirar, chinqirib gir aylana boshlardi. Bu, shubhasiz, uning o'yini edi. Lekin men uning bu o'yinini ko'rsam, negadir titray boshladim.

Doya xonim ana shu qizning kelin bo'lismeni aytganda, o'zimcha o'yladim: "Evoх, Zahro kelinlik kechasida zavqi qo'zg'ab cho'pon Mehmetga shu o'yinini qilib bersa, bechora erning holi nima bo'larkin?"

Nazifa Mullo ketgandan keyin yana bitta eski ko'ylagimni so'kib, Zahroga kelinlik ko'ylagi tika boshladim. Nachora? Bu bechora qizni bir oz bo'lса ham yasantirish kerak, tag'in cho'pon Mehmet birinchi kechadayoq qochib ketib qolmasin.

* * *

Zay-ni-lar, 1 de-kabr.

Kecha kechqurun oqsoqolning uyida Zahroning to'yi bo'ldi. Cho'pon Mehmet o'ksimasin, deb qishloq maydonida do'mbira, surnay chaldirdilar, bir-ikki polvonni kurashga soldilar. Xotin-xalaj ham alohida o'tirish qildi, mavlud o'qidi.

Men kelinga tikib bergen ko'ylakni qishloq qariyalari juda yevropacha bo'lib ketibdi, deyishdi. Qulog'imga atrofdan: "Ertaga oxirat", "munkarnakir", "otash gurzi" kabi so'zlar chalinardi. Buning aksiga yurib, ba'zi juvonlarning og'izlaridan suv oqar, oralarida kelinchakka ko'zlari kuyayotganlar ham topilardi.

Kechada ancha bahrim ochildi. Oqsoqolning xotini ketivorgan ziyofat tayyorlabdi. O'rtadagi gaplardan bu fidokorlik Zahrodan ham ko'proq "istambullik xo'jonim"ni qoyil qoldirish uchun qilinganligi bilinib turar edi.

Kelinni cho'pon Mehmetga topshirishdan avval kattalarga mulozimat — qo'l o'pish marosimi o'tkazildi. Uyatchan qishloqi yigit ko'zlarini yumib olib o'pgan qo'llar orasida meniki ham bor edi. Muallima ona ornida bo'lgani uchun mening qo'limni ham o'pish zarur ekan.

Bu qo'l o'pish marosimida shuday bir yashirin komediya o'ynaldiki, buni hech qachon unutmayman. Oqsoqolning xotini bilan doya xonim boshchiligidagi besh-oltita kampir uzun bir karavotga tizilib o'tirgan edi. Men ularga o'xshash oyoqlarimni yig'ishtirib o'tirishni bilmaganim uchun o'choq yonidagi kir sandiqning bir chetiga o'tirib olgan edim.

Ko'zlarini yerdan uzishga botinolmagan cho'pon Mehmet avval meni ko'rmadi. Doya xonim: "Mehmet o'g'lim, xo'jonimning ham qo'lini o'p", — deb meni ko'rsatganda, boyoqish uyalib-tortinib yonimga keldi. Men jiddiy qiyofa bilan qo'limni uzatdim. Lekin cho'pon barmoqlarimni ushlagan zahoti yana qo'yib yubordi. Buning odam qo'li ekanligiga ishonmayotgandek, ko'zlarini joydirar edi. Men kulgimni bildirmaslikka tirishib:

— O'p, o'g'lim, — dedim.

Boyoqish, yana qo'llimni ushladi-da, uyalib-tortinishni bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib yuzimga boqdi — ko'zlarimiz uchrashdi. Eng yomoni shu bo'lidi, xuddi shu asnoda o'choqdan yuzimga urgan kuchli alanga yorug'ida kulib turganligimni ko'rib qoldi. Cho'ponning xuddi shu damdagi shoshqinchligidek kulgili bir narsani umrim bino bo'lib ko'rgan emasman.

Qo'l o'pish marosimidan so'ng kuyovni kelin go'shangasiga olib kirdilar. Zahro yangi kiyimlari, bir oz avval o'z qo'llim bilan tarab bezagan sochlari bilan chiroyli qizdek ko'rini-shi mumkin edi. Faqat bu yerning odatiga ko'ra, harir parda o'mniga yashil atlasdan qop-ga o'xshatib qilingan bir narsa ichiga kiritib qo'yilganligi uchun uning husni cho'ponga qaday ta'sir qilganligini ko'ra olmadim.

* * *

Zay-ni-lar, 15 de-kabr.

Bugun ertalab uyg'onganimda atrofimda bir narsa yetmagandek ko'rindi. Men o'yvana, qidira boshladim va oxiri topdim: kechalari bog'da mungli tovush bilan chuldirab turgan buloq to'xtagan edi.

Derazani ochib qo'yay deb o'rnimdan turdim. Deraza darpardalari ochilmay tixirlik qil-gandan so'ng, zarb bilan tortuvdim, oralaridan qor to'kila boshladi.

Ana xolos, bugun kechasi qor yog'ib, Zaynilar tanib bo'lmaydigan kepataga kiribdi.

Xaticha xonim bu yerda qor yog'sa, to bahorgacha erimay turadi, deb aytgan edi. Qanday yaxshi narsa! Demak, yaproqlari ham qora ko'ringan, yuraklarni siqib yuboradi-gan bu qorong'i o'lkaning asl bahori qish oylaridan boshlanar ekan. Men qorni yaxshi ko'raman. U men uchun yangi ochilgan bodom gullaridan ham go'zal. Bog'da mana shu oq, toza, yumshoq qorlar ichida yumalangan kezlarimda topgan nash'u namoni hatto bayramlardan ham ololmayman. So'ngra inson uchun nafratlangan odamlariga nisbatan naqadar totli intiqom vasilalari bo'la oladi. Bir vaqtlar mening bitta dushmanim bor edi, qordan juda qo'rqardi. Qalin jemper yoqalari ichida yashirgan ingichka bo'yniga bildir-masdan qor to'lidsam, sovuqdan ko'kargan lablarini titratib, rangdan rangga kirar, men buni ko'rib suyunardim.

* * *

Zay-ni-lar, 17 de-kabr.

Qor elab yog'ar, yo'llar bosilib borar edi. Hammayoqni qor bosdi, endi o'quvchilarim-dan anchasi mакtabga kelolmay qoldi.

Bugun hayotimning eng achchiq, eng alamli kuni bo'ldi. Erta bilan o'quvchilarim men-ga yomon xabar olib kelishdi. Kecha kechqurun Munisa bir yomon ish qilib qo'ygan ekan, o'gay onasi ustiga tayoq ko'tarib yuguribdi. Bola bechora uy derazasidan tashlab qochib-di. Uydagilar qorda, qorong'ida uzoq qolmay qaytib keladi, bir ozdan keyin eshikni taqil-latib yolvoradi, deb o'ylashibdi. Lekin, qancha-qancha soatlar o'tib ketgan bo'lsa ham bola bechora qaytmabdi. Ana shundan keyin qo'shnilariga xabar qilishibdi. Qishloq bola-lari mash'al ko'tarib, ko'chalarni aylanishibdi. Lekin uning qaerda ekanligini, qaerga ket-ganligini bilisha olmabdi.

Munisaning eng yomon ko'rgan o'rtoqlari ham achina boshladilar. Kechqurungacha qidirmagan joylari qolmadni. Bu kichkina qizchaga qanchalik ahamiyat bergenligimni bil-gani uchun qishloq oqsoqoli Vahbi orgali meni qidirish natijalaridan xabardor qilib turdi.

Bugun Vahbi katta erkaklardek, jiddiy va tashvishli edi. Munisaning hali ham topilma-ganligini bildirish uchun ko'chadan turib ko'kargan hovuchlarini ko'rsatar, qoshlarini chi-

mirib: "Bechora qiz yo'qolib qoldi. Bo'rilar yeb ketgan bo'lsa kerak!" — deyardi. Kechga borib Vahbining shubhasi kattalarga ham ta'sir qila boshladidi: "Shunday bo'ronda musht-dek qiz bola boshqa qishloqqa keta olmaydi. Yo biron yerda sovuqdan muzlab o'ldi, yo bo'lmasa yirtqichlar yedi", — deguvchilar ko'paydi.

Odam odamni tanib bo'lmaydigan qor bo'ronini tun qora tumandek qamrab olganda yuragimda dahshatli bir umidsizlik paydo bo'ldi. Hayotni zolim vaadolatsiz narsa deguv-chilarning fikriga birinchi marta ishona boshladim. Hayotga qarshi isyon ko'tardim.

Ovozim, nafasim bo'g'ildi, boshim otashlar ichida yondi, barvaqt ko'rpara kirdim, yorug' ko'zimga ozor bergani uchun chiroqni o'chirdim.

Tashqarida bo'ron hamon hayqirar, deraza eshiklariga kelib urilardi.

Kim bilsin, bechora qizgina hozir qaerlarda yotibdi ekan? Kim bilsin, bechora qaysi zulmat ichida ko'milgan ekan? Och sariq sochlari, kim biladi, qorong'ilikning qaysi bir quchog'ida, xazon-yaproqlarga tushgan oyning o'limtik yog'dusi kabi qaerlarda titrab yuribdi ekan?

Necha soat o'tganligini bilmayman. Odam bunday hollarda vaqtini sezish hissini yo'qotib qo'yadi. Birdan qabriston tomondagi eshik taqillayotgandek bo'ldi. Shamoldan boshqa nima bo'lishi mumkin? Lekin unday emas. Bu shamol zarbasidan boshqa bir narsa. Ko'rpa mdan ko'tarilib qulq soldim, kecha qorong'iligida bo'g'iq bir inson yig'isini eshitgandek bo'ldim. Darhol o'rnimdan sakrab turdim, yelkamga ko'rpa tashlab, pastga yugurib tushdim.

Maqsadim Xaticha xonimning hujrasiga borib, uni uyg'otish edi. Lekin u ham bu ovozni eshitgan ekan, bir qo'lida sham bilan yugurib chiqib keldi.

Biz eshikni birdaniga ochib yuborishga botinolmay turdim. Bu orada bo'ron ham tingen edi. Xaticha xonim erkaklarnikiga o'xshash yo'g'on tovush bilan:

— Kim u? — deb qichqirdi.

Ammo javob bo'lindi. Kampir yana bir marta so'radi. Ana shundan keyin shamolning shovqini ichida nozik yig'i tovushni eshittdik. Xaticha xonim:

— Sen kimsan? — deb yana baqirdi.

Lekin men ovozni tanib, "Munisa! Munisa!" deya qichqirib, tambani ocha boshlagan edim.

Eshik ochilar-ochilmas ichkariga qor aralash shamol yopirilib kirdi-yu, kampir qo'lidagi sham birdan o'chdi.

Qorong'ilikda quchog'imga muzdek sovuq kichik bir vujud tushdi. Xaticha xonim shamni yoqish bilan ovora bo'lguncha, men uni bag'rimga bosib, ho'ngrab yig'lab turdim.

Munisa tamom madori qurib, qo'llarimda behush yotardi. Yuzi ko'm-ko'k ko'karib ketgan, sochlari to'zg'igan, kiyimlarining ichiga qor to'lgan edi.

Bolani yechintirib o'z joyimga yotqizdim. Bir parcha chitni Xaticha xonimning manqalida isitib kelib, Munisaning badanini ishqay boshladim. Munisa o'ziga kelar-kelmas, og'zidan chiqqan birinchi so'z shu bo'ldi:

— Bir burda non bering...

Xayriyat, ozgina sutimiz bor ekan. O'shani isitib baxti qora qizga qoshiq bilan ichira boshladik.

Minutlar o'tgan sayin Munisaning yuzi qizarib, ko'zlarida nur paydo bo'la boshladidi. U qo'llarimda yotib xo'rsinar, achchiq-achchiq yig'lardi.

Oh, uning ko'zlaridagi minnatdorchilik! Dunyoda kichkinagina yaxshilik qilishdan ham ajoyib narsa yo'q. Po'rtana ichida vayron bo'lgan kema singari larzaga kirgan bu qorong'i xonam o'choqning qizil alangalari ichida birdaniga shundayin munis, mas'ud bir uyaga aylandiki, hozirgina hayotdan shikoyatlanganligim uchun o'z-o'zimdan uyala boshladim.

Munisa sekin-sekin tilga kirdi. Qo'llarini qo'ynimga tiqib, sarg'ish sochlarini bilaklarim us-tiga to'kib, ko'zlarimga tikilar, so'ragan savollarimga og'ir-og'ir javob berardi. Kecha kechqurun o'gay onasidan juda yomon qo'rqb ketib, qishloqning narigi chetidagi bir om-borda somonning ichiga bekinib olibdi. Somon odamni ko'rpadek issiq saqlar emish. Le-kin bugun qattiq ochiqibdi. Kunduzi tashqariga chiqsa, yana uyga tutib kelishlaridan qo'rqb, chor-nochor kech kirishini kutib yotibdi.

Bechora bolaning ishongan tog'i men ekanman. Kuni bilan: "Xo'jonim albatta non be-radi", deb o'zini yupatibdi.

Bir ozdan so'ng bolaning porloq ko'zlariga mung cho'kdi, chehrasidagi suyunch o'tlari o'cha boshladni. Sababini so'rashning luzumi yo'q edi. Chunki xuddi shunday qo'rquv menda ham uyg'ongan edi. Ertaga ertalab Munisani yana uyiga yuborish kerak bo'ladi.

Shunday bo'lsa ham, qalbimda zaif bir umid yo'q emas edi. Ba'zan qalbimda hech mahal ushalmaydiganday tuyuladigan orzu-umidlar yashaydi. Mendagi hozirgi umid ham shunga o'xshardi.

Munisada befoyda orzu uyg'otishdan qo'rquyotgadek, past tovush bilan Xaticha xonimga dedim:

— Agar bu bechorani ota-onasi uylariga sig'dirishmayotgan bo'lsa, o'zimga qiz qilib ol-sam, yo'q deyishmasmikin? Mening ham hech kimim yo'q. Xudo haqqi, buni o'z bolam-dek parvarish qilaman. Berishmasmikin-a?

Bu o'tli orzum go'yo Xaticha xonimning lablaridan uchadigan so'zlarga bog'liqdek, tit-rab, qaltirab, qo'llarimni uzatar, bo'ynimni bukardim.

Kampir ko'zlarini o'choqqa tikib olib, o'ylanib turardi. Keyin sekin boshini tebratdi:

— Yomon bo'lmas edi. Ertaga oqsoqol bilan gaplashib ko'raylik. U xo'p desa, otasini ham ko'ndiramiz. Yaxshi bo'ladi, — dedi.

Men umrimda shunchalik umid bag'ishlovchi ajoyib so'zlar eshitganimni eslolmayman. Javob qilmasdan Munisani bag'rimga bosdim. Bola qo'llarimni o'pib:

— Onajonim, onaginam! — deb yig'lay boshladni. Men shu satrlarni yozib turganimda, Munisa mening o'rnimda yotib uxlayapti, sariq sochlarida o'choq olovining mas'ud shu'-lalari titrayapti. Tez-tez, chuqr-chuqr xo'rsinadi. To'lib-to'lib yo'taladi.

Yo rabbiy, shu bolani menga berishsa naqadar baxtiyor bo'lardim! Unda na qorong'i kechalardan, na dahshatli po'rtanalardan va na bechorachilikdan — hech bir narsadan qo'rmas edim. Uni o'z qo'lim bilan po'palab o'stiraman, baxtiyor qilaman. Men bir zamонлар boshqa bolalarni orzu qilib yurgan edim, lekin ularning hammasi bir kun kechqurun birdaniga qalbimda o'lib ketdi.

Men endi taqdirimga ko'nikib qoldim. Yana hamma narsani seva boshladim. Komron, bir kun kechqurun qalbimdag'i o'sha kichkintoylarni o'ldirgan o'zing bo'lganing holda, bu kecha sendan bir vaqtlardagi darajada nafratlanmayman.

* * *

Zay-ni-lar, 18 de-kabr.

Bugun kechasi ham mijja qoqmay chiqsam kerak. Kasallar singari, baxtlilarga ham kechalar shunday uzun tuyuladi... Ertalab Xaticha xonim bilan qishloq oqsoqolining uyiga bordik. Bechora chol meni Munisadan xabar izlab kelayotibdi, deb o'ylagan ekan.

— Hali ham topilmadi, yana bir-ikki yerdan umidim bor, — deb darhol menga tasalli bera boshladni.

Men kechasi bo'lgan voqeani aytib berdim. So'zim oxiriga yaqinlashgan sari yuragim dukuri ortar, ko'z oldim qorayib borardi. Dunyoda hech qilib bo'lmaydigan bir narsa uchun yolvorayotgandek, qo'llarimni qovushtirdim:

— Shu kichkina qizni menga bering. O'zimga qiz qilib olay, bag'rimda asray. O'zingiz ko'rib turibsiz, u bechora o'gay onasining qo'lida xazon bo'ladi.

Oqsoqol ko'zlarini yumdi, soqolini titkilab o'ylanib turdi. Keyin:

— Juda yaxshi, qizim, haqiqatan ham savob ish qilgan bo'lasan, — dedi.

— Demak, Munisani menga berasiz?

— Otasi narigi bolalarini zo'rg'a boqolmaydi-yu, bermay nima qiladi. Yo'q desa, qo'liga besh-o'n qurush beramiz-da.

O'shanda suyunganididan jinni bo'lib qolmaganimga hayronman. Murodimga shu qadar oson yetarman, deb o'ylabmidim! Kechqurundan beri necha soatlab o'yladim, qila-digan e'tirozlariga javoblar tayyorladim, yuraklarini yumshatish uchun miyamda ta'sirli so'zlar saraladim. Hech ilojini qilolmasam, onamdan qolgan bir necha javhar marjonlarni berish qaroriga keldim. U narsalarni shu bechora yetimchani qutqazishdan ham yaxshi-roq bir yerga sarf qila olarmidim? Lekin bu fidokorliklarimning hech biriga hojat qolmadni. Munisa bir jonli qo'g'irchoqdek qo'llarimga tutqizilmoqda edi.

Men boshqalar singari emasman, juda sevingan, baxtiyor bo'lgan damlarimda tuyg'ularimni so'z bilan anglata olmayman. Albatta, ro'paramdagi kishining bo'yniga osi-lishim, uni o'pishim, tortqilashim kerak. Oqsoqol afandi ham o'sha dam xuddi shuday tahlika ostida edi, lekin tirish qo'lining bir marta o'pilishi bilangina qutulib ketdi.

Ikki soatdan so'ng oqsoqol Munisaning otasi bilan maktabga kirib keldi. Men u kishini badburush, vahimali, zolim odam, deb o'ylab yurardim. Holbuki, kichkinagina, kasal-mand, yupun bir chol ekan.

Menga istambullik ekanini, lekin qirq yilchadan beri yurtini ko'rmanligini aytdi. Chigal tushni aytayotgandek Sarier, Oqsaroy haqida chalkash-chulkash qilib gapirdi.

Munisani menga berishga rozi edi. Lekin qiziga juda joni achiyatganini sezdim. Bolan-ning baxtini ochish uchun qo'limdan kelganini ayamasligimni, uni o'z bolamdan afzal ko'rib tarbiyalashimni, har doim o'ziga ko'rsatib turishligimni va'da etdim.

Zaynilar qishlog'ining kambag'al, qorong'i maktabi shu vaqtgacha bunday bir bayramni, bunday bir shodu xurramlikni ko'rmanqidir. Munisa ikkalamiz quvonchimizdan uylarga, dahlizlarga sig'masdik. Bunga aminman. Qahqahalarimiz bo'g'otlarda mudrab yotgan qush-larni uyg'otib yuboradigan darajada shiftlarga urilib jaranglardi.

Munisa bir necha soat ichida kichkina, nozikkina xonimga aylandi. Qizil chitdan ko'yla-gim bor edi, uni kiymay qo'ygan edim. O'shani bir oz toraytirib, kaltaroq qilib qizchamga ajoyib kostyum qilib berdim. Munisa shu kiyimda bir ho'plam suvdek, og'izga solish bilan erib ketadigan shokolad konfetdek bo'lib qoldi.

Qor bir kun avvalgi shaxtidan birmuncha qaytgan bo'lsa ham, hamon yog'ib turar edi. Qorong'i tushmasdan avval bolani qo'lidan yetaklab boqqa olib chiqdim. Xaticha xonim Zayni otaning chiroqlarini yoqqani ketguncha birga-birga yurdik, o'ynashdik, quvlashdik, mozor toshlari orasida qor otishdik.

Quvnoqligimiz qari kampirning ham shodon yuziga kulgi chiqardi.

— Qani, ichkari kiringlar endi! Sovqotib, kasal bo'lib qolasizlar, — deyar, shirin-shirin kulardi.

Sovqotish? Odamning ichida quyoshlар chaqnar ekan-u, yana usovqotarmishmi!..

Bu oqshom osmon menga shoxlarini g'arbdan sharqqa qadar cho'zib yuborgan da-raxtga o'xshab ko'rindi. U sekin-sekin tebranganda ustimizga oq gullarini to'kkан katta-kon jasmin butasiga o'xshardi.

* * *

Zay-ni-lar, 30 de-kabr.

Munisa bilan shu qadar apoq-chapoq bo'lib ketdikki!.. Bu kichkina qiz darslardan ortgan hamma vaqtimni olardi. Nimaniki bilsam unga o'rgatgim keladi. Har kuni ikki soat frantsuz tili o'qitaman, qishloqdagilar bilib qolishsa bizni toshbo'ron qilishmasin, deb eshiklarni, derazalarni mahkam bekitaman-da, o'yinga tushishni ham o'rgataman.

Ba'zan o'zimga kulgim qistaydi.

— Choliqushi! Munisani hamma narsaga o'rgataman, deb tag'in Hoji xalfaning o'g'li Miratga o'xshatib qo'yimagin, — deyman.

Bu kambag'al qishloq qizi hademay aslzodaga o'xshab qoldi. Har bir harakatidan, har bir so'zidan malohat bo'yi kelib turadi. Avvallari bunga hayron qolardim. Endi esa sababiga tushuna boshladim. Munisaning onasi odamlar aytgandek to'pori xotin emas ko'ri-nadi.

Qizaloq mendan nihoyatda minnatdor. Ba'zan hech nimadan-hech nima yo'q yonimga keladi-da, qo'llarimni ushlab betlariga, lablariga surta boshlaydi. Ana shunda men ham uning qo'lchasini hovuchlarimga olib, mitti barmoqchalarini bitta-bitta o'paman.

Bechora qiz meni qanotiga olib yaxshilik qildi, deb o'ylaydi. Holbuki, mening qanotimga kirish bilan chinakam yaxshilikni uning o'zi qildi.

Qizginamning qaqajonligi, odamning esiga kelmagan g'alati gaplari kishini hayron qol-diradi!.. Birga tura boshlaganimizning ikkinchi kuni:

— Munisa, xohlasang meni oyi deyaver, yaxshiroq bo'ladi, — degan edim, shiringina kulimsirab betimga qaradi-da:

— Voy, bo'larmidi, opajon! — dedi.

— Nega bo'Imasin?

— Hali kichkinasiz-ku, opajon, sizni oyi deb bo'ladimi!

Bu so'zi nafsoniyatimga tegdi. Barmog'im bilan po'pisa qilib:

— Ha, shayton, nimaga kichkina bo'lar ekanman? Yigirma yoshga kirdim-a, kap-katta xotinman, — dedim.

Munisa tilining uchini tishlari orasida siqib turib menga qarar, hech nima demay nuqlular edi.

— Yolg'onmi? Kap-katta xotinman, — dedim yana.

U katta odamlarday lablarini burdi.

— Mendan uncha katta emassiz-ku, opajon! Juda borsa o'n to'rt-o'n beshga kirgandir-siz.

O'zimni tutolmay kulib yubordim. Munisa uyalib, tortinib turib:

— Siz kelinchak bo'lganiningizda-chi, opajon, sochimga zar iplar taqaman, — dedi. — Xuddi sizga o'xshagan bir chiroqli...

Qo'lim bilan bolaning og'zini yopdim.

— Yana shunaqa gaplarni aytsang, tilingni uzib olaman! — dedim.

* * *

Kichkinam yasan-tusanni, noz-karashmani yaxshi ko'radi. Men o'ziga oro beradigan qizlarni hech yoqtirmas edim. Mana edi Munisaning oynak oldida o'ziga oro berishiga, oynakdagi aksini yoqtirib, kulimsirashiga hushim ketib qarab qolaman. Hatto bir kuni kechasi qo'lidan kuygan gugurt cho'pini ham topib oldim. Qizi tushmagur yashirinchha qoshlarini qoraytirib olmoqchi bo'lgan ekan. Qiziq, kimdan o'rgandi ekan? Bilmayman... Hozirgisi-ku go'rga-ya, bir necha yildan keyin bo'yga yetsa, bironta yigitni yaxshi ko'rib, tegib ketsa nima bo'ladi? Shu yog'i esimga tushsa, hamma onalarday hayajonlanaman, ham quvonaman.

Munisa kecha qizarib-bo'zarib turib mendan bir narsani iltimos qildi. Sochimni o'zingizning sochingizga o'xshatib tarab qo'ysangiz, deydi.

Xudodan birdan-bir tilagan narsam Munisa bilan xuddi qo'g'irchoq o'ynayotganday o'ynash edi. Qizginamni tizzalarim orasiga oldim, sochlarini yoydim, keyin xohlaganiday qilib o'rib qo'ydim.

Munisa tokchadagi kichkina oynakni olib:

— Opajonim, keling, ikkalamiz yonma-yon turib oynakka qaraylik, — dedi.

Suratga tushayotgan opa-singillarday, boshlarimizni bir-biriga suyadik. Oynak ichida kulishar, bir-birimizga til ko'rsatar edik.

Munisa lojuvard ko'zлari, oppoq tani, nozik, shirin yuzchasi bilan malak kabi go'zal edi. Lekin u xursand bo'lindi. Burnimni, lablarimni ushlab:

— Attang, opajon, sizga o'xshamas ekanman-da, — dedi.

— Sen yaxshiroqsan-ku, bolam.

— Nimam yaxshi, opajon? Men sizdaqa chiroyli emasman!..

U boshini yana ham ko'proq yaqinlashtirar, bo'ynimning tagidan o'tkazib olgan qo'lchasi bilan betimni silar edi.

— Opajon, siz barqutga o'xshaysiz. Yuzingizga qaragan kishi o'zini oynakka solganday ko'ra oladi, — dedi.

Bu qaqajon qizning so'zlaridan kulib, bir minutgina ilgari zo'r diqqat bilan o'zim o'rib qo'ygan sochlarini to'zg'itib yubordim. Yashirib nima qilaman, axir daftaramni o'zimdan boshqa hech kim o'qimaydi-ku! Men o'zimni xayol qilgan darajadagidan ham chiroyliroq deb o'ylay boshladim. "Farida, sen o'zingni bilmaysan. Senda hech kimga o'xshamagan boshqa narsalar bor" deganlarga haq bergim keladi.

Nima to'g'risida gapirayotgan edim? Ha, kichkinam to'g'risida! Uni es-hushli qilib tarbiyalagunimcha, u meni o'zi singari noz-karashmali qilib qo'yadigan ko'rindi.

* * *

Zay-ni-lar, 29 yan-var.

Daftaramga bir oydan beri qo'l urganim yo'q. Harholda, xotira yozishdan ham foydali-roq ishlarim bo'ldi. Innaykeyin, baxtli kunlarning nimasini ham yozar-ding?

Bir oydan beri chuqr ko'ngil rohati ichida yashadim. Lekin, afsuski, bu hol uzoq bormadi. Ikki kun avval bu yerdan o'tgan pochta aravasi menga to'rtta xat tashlab ketibdi. Konvertlarga ko'zim tushar-tushmas, ichib yonib ketdi. Kimlardan kelganini, ichlarida nimalar yozilganini bilmasam ham:

— Oh, koshkiydi qo'limga yetib kelmay yo'lda yo'qolgan bo'lsa! — dedim.

Dastlabki taxminimda yanglishmagan edim. Konvert ustidagi yozuvni tanirdim. Xatlar undan kelgan edi.

Konvertlar meni topib kelguncha qo'ldan-qo'lga o'tibdi, usti ko'k, qizil yozuvlari, muhrlar bilan to'libdi. Qo'l tegizishga yuragim dov urmay, bittasining ustidagi adresni o'qidim: "B... shahar markaziy rushdiyasi muallimlaridan Farida xonim afandiga" deyilgan edi.

Konvertlarni g'ijimlab, o'choq yonidagi etajerkaga irg'itdim. Deraza yoniga keldim, boshimni uning ynagiga qo'yib, uzoq-uzoqlarga tikilib, o'yga toldim.

Munisa meni ko'rib tashvishga tushdi:

— Opajon, bir yeringiz og'riyaptimi? Rangingiz oqarib ketdi, — dedi.

O'zimni bosishga tirishib kulimsiradim.

— Hech nima bo'lgani yo'q, bolam. Picha boshim og'riyapti, xolos. Ikkalamiz bir oz boqqa chiqib aylansak tuzaladi.

Kechasi ko'zlarimni qorong'ilikka tikib, uzoq vaqtlargacha mijja qoqmay yotdim. Chuqr bir taraddud ichida yonardim. Yuzsiz zolim bu maktublarida, kim biladi, menga

nimalar degan, nimalarga jasorat qilgan ekan? Bir necha bor chiroqni yoqib, xatlarni o'qimoqchi bo'ldim, lekin o'zimni bosdim. Bu xatlarni o'qish ayb, men uchun bir tushkunlik edi.

Oradan ikki kun o'tdi. Maktublar hamon o'sha yerda yotar, uy havosini zaharlaganday meni azoblar edi. G'amgin, ezgin holatim Munisaga ham yuqdi. Bechora qiz meni dardga solgan nima ekanini bilar, etajerkadagi konvertlarga nafrat bilan qarab-qarab qo'yari edi.

Shu bugun kechqurun ham yana deraza yonida o'yga tolib turgan edim, Munisa tortinib yonimga keldi, keyin yuragi betlamaygina:

— Opajonim, men bir nima qilib qo'ydim, bilmayman, jahlingiz chiqarmikan? — dedi.

Men cho'rt o'girildim. Ko'zlarim ixtiyorsiz etajerkaga yugurdi. Xatlar joyida yo'q edi! Yuragim alamdan g'ujanak bo'ldi, chidayolmay:

— Xatlar qani? — deb so'radim.

Munisa boshini egdi.

— Yoqib yubordim, opajon. Nima qilayin, sizni juda ezib yuborishdi!

Men bo'g'iq bir tovush bilan:

— Nima qilib qo'yding, Munisa?! — deb qichqirdim.

Bola mening qattiq jahlim chiqishini, yelkasidan ushlab silkita boshlashimni kutib titrardi. Boshimni qo'llarimga tirab, sekin-sekin yig'lay boshladim.

— Opajonim, yig'lamang. Xatlaringizni yoqqanim yo'q, sizga jo'rttaga shunday dedim. Bunchalik kuyib-yonmasangiz, keyin yoqib yuborardim. Mana.

Kichkina qo'li bilan boshimni silar, ikkinchisi bilan xatlarni qo'limga ushlatishga harakat qilardi.

— Ol, opajonim, bular yaxshi ko'rgan kishingdan kelganga o'xshaydi, — dedi. Men se-skanib tushdim.

— Tirmizak, bu qanday gap? — deb qichqirdim.

— Qaydam, opajon. Yaxshi ko'rgan kishingizdan kelmasa, shuncha yig'larmidingiz?

Ko'p narsa billadigan bu qaqajonning so'zlaridan uyaldim, ko'z yoshlарimdan uyaldim. Endi bu ahvolga xotima berish kerak edi. Men qaror qildim.

— Kichkinaginam, koshki shu so'zlarni aytmagan bo'lsang. Modomiki, aytishga ayt-ding, endi men senga isbot qilib berayin. Xatlar men yaxshi ko'rgan odamdan kelgan emas. Kel, ikkovimiz birga yoqib tashlaymiz.

Uy ichi qorong'i edi. Faqat o'choqda bir o'tin chalasi goh yonib, goh o'chardi. Xatlardan birini o'tga tashladim. Konvert g'ujanak bo'lib yona boshladi. Yonib bo'lgandan keyin ikkinchisini, so'ngra uchinchisini tashladim.

Munisa anglashilmas bir hayajon bilan bag'rimga suqilardi. Maktublar birin-ketin yonarkan, qarshimizda jon berayotgan bir odam bordek, hayajon ichida sukut qilib tur-dik. Navbat to'rtinchi xatga kelganda, ichimda chidab bo'lmaydigan bir pushaymonlik o'ti yondi. Lekin uchtasi yonib ketgandan keyin bunisini olib qololmas edim. Qalbimning bir parchasini uzib olayotgandek bir iztirob bilan unisini ham o'tga irg'itdim.

So'nggi maktub avvalgilaridek birdan tutab ketmadni. Bir chekkasidan nozikkina tutun chiqarib, keyin sekin-sekin yona boshladi. Oxirida konvertning qovjirab ochilganini, mayda yozuvlar bilan to'liq bir qog'ozning sekin-sekin yona boshlaganini ko'rdim. Bu azobga chiday olmay qiyalar edim. Munisa, ko'nglimda o'tayotgan narsalarni bilgandek, egilib qo'lini o'tga suqdi-da, maktubning bir parchasini qutqazib qoldi.

Bu parchani bolani uxlatgadan keyingina qo'limga oldim. Unda shu satrlar omon qol-gan edi.

"...Kecha ertalab onam yuzimga qaradi-yu, yig'lab yubordi. "Nima bo'ldi, oy? Nega yig'laysiz?" — deb so'radim.

Oldin gapirgisi kelmadni. "Hech... Bir tush ko'ribman", deb qo'ya qoldi. Lekin men

qo'ymadim, yalindim, yolvordim, oxiri so'zlashga majbur qildim. Sekin-sekin yig'lab turib shularni aytdi:

— Bugun Farida tushimga kiribdi. Men qorong'i yerlarda izlab yurgan emishman, ro'para kelgan odamlardan: "Farida shu yerdami, xudo xayringizni bersin!" deb so'rarmishman. Yuzi yopiq bir xotin meni qo'limdan ushlab takiyaga o'xshagan olaqorong'i bir yerga boshlab kirarmish-da: "Farida shu yerda. Difterit kasalidan o'ldi", deyarmish. "Qarasam, bechora bolam ko'zlari yumuq yotibdi. Hali rangining qoni ham ketmabdi. Men achchiq-achchiq yig'lab uyg'onib ketdim. O'lik ko'rgan tirik ko'radi, deydilar, shunday emasmi, o'g'ilim? Yaqinda Faridani ko'raman, a, Komron?"

Oyimning so'zlarini senga aynan yozdim. Mayli, meni bir yoqqa qo'yib tur, lekin onang o'rnidagi mana shu keksa xotinni hadeb yig'lata berish to'g'rimi? Xolangan tushlari o'shandan beri mening ham tushim bo'lib qoldi. Qachon ko'zlarimni yummayin, harvaqt seni uzoq bir yurtning qorong'i hujrasida ko'zlaring yumuq, qora sochlaring, guldek yuzing..."

Maktub parchasi shu yerda tugar, menga faqat xolamning motaminigina bildirardi. Komron, ko'rib turibsanki, bizni hamma narsa bir-birimizdan ayiradi. Biz endi ikki dushman emasmiz, balki bir-birini hech vaqt ko'ra olmaydigan ikki begonamiz.

* * *

Zay-ni-lar, 5 fe-v-ral.

Kecha kechasi botqoqlikda o'q ovozi eshitildi. Men qo'rqib ketdim. Munisa esa parvo qilmadi.

— Bo'lib turadi, jardarmlar qaroqchilarni quvib yurishibdi, — dedi.

Otishma qisqa pauzalar bilan o'n minutcha davom etgandan keyin to'xtadi.

Voqeani erta bilan bildik. Munisaning taxmini to'g'ri chiqdi. Pochtani talagan bir necha darbadar bilan jandarm orasida jang bo'libdi. Jandarmlardan biri o'lib, ikkinchisini og'ir yaralangan holda Zaynilarga keltirishibdi. U hozir musofirxonada yotgan emish.

Tush pallasida kichik Vahbi halloslab mакtabga yugurib keldi-da, qo'limdan ushlab:

— Qiz xo'jonim, tez zoringni (chodrangni demoqchi bo'lsa kerak) yopin, yur tezroq! Seni musofirxonaga chaqirishyapti, — dedi.

— Kim chaqiryapti?

— Doktor chaqiribdi, otam aytdi.

Darhol chodramni yopindim, oldinda Vahbi, orqada men musofirxonaga tezlab ketdik.

Musofirxona ikkita kichkina bo'Imadan va zinapoyali xarob dahlizdan iborat ko'rimsiz bostirma ekan. Tunda qorbo'ronga yo kasalga uchragan yo'lovchilar kechalari shu yerga kelib tunashar ekan. Goh mahallar shunday odamlarni ovqat bilan ham yo'qlab turishar ekan.

Eshik oldida bir chiroyli ot yer tepinib turar edi. Burunlaridan bug' yopirilib chiqardi. Men uning tumshug'ini silab, ichkariga kirdim. Hovli qorong'i bo'lgani uchun chiroq yoqib qo'yishibdi.

Oyog'iga kattakon etik, egniga qalin shinel kiyib olgan bir semiz harbiy doktor zina pog'onasiga o'tirib olib, bir nimalar yozar, qorong'ida yuzi uncha yaxshi ko'rinxagan bir necha kishi bilan ora-sira gaplashib qo'yardi. Doktorning yuzini yondan ko'rdim. Oppoq, qalin mo'ylovlari, baroq qoshlari, jonli va yoqimli yuzi bor edi. Lekin u odamlarga dag'al, hatto uyat so'zlar bilan gapivardi. Yo rabbiy, shu qadar yomon so'zlar aytardiki, o'girilib qaytib ketgim ham keldi.

Doktor mutlaqo yana bir xunuk so'z aytmoqchi bo'lganligini bildirib turgan dag'al bir qahqaha bilan kulib boshini ko'targan edi, meni ko'rib qoldi. Kulgisi birdan to'xtadi. Key-

in naparmon kitelli, ko'kragi bilan bitta qora soqolli kishiga o'girilib qichqirdi:

— Hoy, kapitan, jahling chiqmasin, lekin senga "Ayiq polvon" deb ot qo'yganlarning haqqi bor. Oramizda xotin kishi bor ekan, men bilmay sening kasring bilan og'zimni rosa chakki qilibman!

U shu so'zini aytgandan keyin men tomonga qaradi:

— Singlim, kechiring meni, kelganizingizni ko'rmabman. Yuqoriga chiqing. Yo'q, picha shoshmang, men tushib olay. Zinapoya joni chiqib zo'rg'a turibdi. Ikkovimizni birdan ko'tara olmas. Qani, chiqing endi, men tushdim.

Pog'onalardan birdaniga ikkita-ikkita sakrab yuqori chiqdim.

Qari doktorning "kapitan" degan odamni tahqir qilayotganligi hamon qulog'imga eshitilib turdi.

— Kapitanim, bu muallima istambullik. Qanday bilganimga hayrondirsan? A, kapitanim? Sen koinotda bo'ladijan har bir hodisaga qo'ydek anqayib qaraysan! Men uni zinapoyadan chiqishidan bilib oldim. Ko'rdingmi, xuddi kaklikdek irg'ishlab chiqdi. Endi xohlasang, yoshini ham aytib beraman: nima desang de, lekin bu xotinchaning yoshi qirqdan oshgan emas.

Bu xil gaplar qanchadan beri meni sog'intirib kelardi. O'zimcha kuldim, "Mana shu yerda yanglishding, doktor afandim!" deb qo'ydim.

Besh minutdan so'ng qari doktor og'ir etiklari bilan zinapoyani g'ijirlatib yuqori chiqdi. Keyin yuzimga qaramasdan gapira boshladi.

— Afandim, voqeа ma'lum, bir yaradormiz bor, uncha og'ir emas, faqat qarab turish kerak. Men bir ozdan keyin ketaman. Qilinadigan ish uncha mushkul emas, lekin yaradorning qoni buzilib qolishidan qo'rqaman. Bu yerdagi odamlar doktorlarga uncha ishonishmaydi. Paytini topishib, darrov tabiblarga, baxshilarga qaratishadi. Yaralarga bo'limg'ur zararli narsalar yopishtirishdan ham toyishmaydi. Siz maktab ko'rigan ilmli ayolsiz. Qilinadigan ishlarni o'zim aytib beraman. Kasal o'rnidan turib ketmaguncha qarab turasiz. Lekin bunga dosh berarmikinsiz, yo'qmikin?

— Bo'ladi, doktorbey. Mening asablarim mahkam. Hech narsadan qo'rqlayman, afandim.

Doktor mega ajablanib qaradi.

— Qani, yuzingi och, ko'rayin, — dedi.

Bu takallufsiz so'zlarda g'alati bir samimiyat bor edi. Men hech tortinmasdan yuzimni ochdim. Hatto bir oz kulib ham qo'ydim.

Qari doktor qo'llarini yozdi, sodda yuzida g'alati hayronlik ko'rindi. Keyin qahqaha urib:

— Sen bu yerlarda nima izlab yuribsan? — dedi.

Bu gal men shoshib qoldim. Ajabo, bu odam meni tanirmidi? Shunga qaramay, men ham hazil qilishdan qo'rqlayman. Doktorning odamda shu qadar ishonch, shu qadar yaqinlik hissi uyg'otadigan issiq chehrasi bor ediki...

— Meni taniyman deb turib olmassiz, degan fikrdaman, doktorbey...

— Shaxsingni emas, xilingni taniyman, qizim, xilingni! Afsuski, yer yuzida juda kamayib borayotgan xilingni.

— Fili Mahmudlarga* o'xshabmi, afandim?

Besh oydan beri ichimda zo'rg'a bosib kelayotgan sho'xliklarim yana bosh ko'tardi. Aleksi opa har doim meni erkalatib bo'lmaydi, deyardi. Chunki darhol sho'xlik qilishga, so'zlarni buzishga, yosh bola qiliqlarini qilishga tutinaman.

Harholda doktor menda nihoyatda odobli, pok odam taassurotini qoldirdi. U yana boyagidek gurillagan qahqaha bilan:

— Hozirgi fillarning yo'g'on, so'laqmon bobolariga sira ham o'xshamagan nozik, kich-

kina, xushchaqchaq maxluq-ey! Qari bo'lsam ham bu sifatlaringga "go'zal" sifatini ham qo'shib qo'yishim mumkin. Qani, ayt-chi, go'zal aslzoda, bu yerlarga qaerdan kelib qolding? — Uezd harbiy doktorining dag'al so'zlarida, gulduragan qahqahalarida sezilar-sezilmas bir hasrat borligini payqay boshladim. Men o'zimni og'ir tutishga tirishib:

— Men muallimaman, doktorbey. Xizmat qilish niyatim bor edi, shu yerga yuborishdi. Men joy tanlamayman. Qaerga yuborishsa ham ishlay beraman, — dedim.

Men shu so'zlarni aytib turganimda, doktor yuzimga tikilib qoldi.

— Demak, sen bu yerga xizmat qilish uchun kelding? Ma'rifat uchun, qishloq bolalariга xizmat qilish uchun, shundaymi?

— Ha, maqsadim shu.

— Shu yoshda, shu chehra, shu qiyofada-ya? Yo'q, menga to'g'risini ayt. Ko'zlarimga bir qaragin-chi, ha, shunday! Sen meni ishona qoldi, deb o'ylaysanmi?

Doktorning salqi yonoqlari ichiga yashiringan va shirin-shirin kulimsirab turgan oq kiprikli ko'zлari xuddi ko'nglimning ichini ko'rib turgandek edi.

— Unday emas, qizim. Asl sabab boshqa yerda. Hatto tirikchilik dardi ham emas. Sen yashirishga tirishgan sayin men yaxshiroq ko'ryapman. O'zingning kimligingni, oilangni, xonadoningni, shunga o'xhash narsalarni so'rasam aytmaysan, shundaymi? Ko'rdingmi, qanday bilib olyapman. Bu yerda bir sir bor. Lekin men kovlashtirib o'tirmayman, kichik bir ishora bo'lsa bas.

Ikkovimiz ham jim bo'lib qoldik. Qari doktor bir oz o'ylab turgandan so'ng:

— Senga kichkinagina xizmat qilsam, ijozat berasanmi? — deb so'radi. — Seni boshqa yaxshiroq yerga ko'chirsam xohlarmiding? Maorif ministrligida bitta-ikkita tanishlarim bor.

— Yo'q! Rahmat, doktorbey. Ishlab turgan yerimdan xursandman.

Doktor yana kulimsirab yelkalarini uchirdi, keyin hazillashayotgandek qilib:

— Juda soz! Juda soz! Lekin shuni bilib qo'yginki, fidokorlik sen o'ylagancha hazil gap emas. Bir kun emas, bir kun joning siqilsa, menga ikki enlik xat yoz, adresimni tashlab ketaman. Bu bir odamgarchilik.

— Tashakkur, afandim.

— Bu masala bitdi. Endi ishimizga o'taylik. Qiladigan ishlaringni tushuntirib beray.

Qari doktor narigi xonaning eshigini ochdi. Bir qiyshiқ karavot ustida gavdasi, yuzi askar plashi bilan yopib qo'yilgan yarador yotar edi.

Doktor:

— Qalaysan, mulla, bir oz tuzuk bo'ldingmi? — deb so'radi.

Yarador kishi qo'li bilan plashini ko'tarib yotgan yerdan turmoqchi bo'ldi.

— Qimirlama, yot. Nima, biron yering og'riyaptimi?

— Yo'q, ko'p rahmat. Faqat bet suyagim bir oz lo'qillayapti.

Doktor yana kului.

— Eh, mening aziz ayiqlarim. Tizzasining qopqog'ini bet suyagi deydi-ya! Qornini tonvonda deb o'ylaydi bu. Payti kelganda odamlarning ko'zini shamg'alat qilishdan toyishmaydi. Tuzalib ketadi, mulla, hech narsa bo'lmaydi. Xudoga shukur qil, o'q xiyol chapdan o'tganda sho'ring qurirdi. Nima, bir hafta o'tar-o'tmas o'rningdan turib yurib ketmoqchimisan? Yo'q, to'g'ri kelmaydi. Mana shu yerda joningning rohatini ko'zlab yota tur. Ha, bu qizcha nima desa shuni qilasan, gapini qaytarmaysan, uqdingmi? Sening doktorning shu, yarangni shuning o'zi bog'laydi. Mabodo u edi-bu edi deb gap qaytarganningni eshitsam, ha, o'zingdan koyin. Xudo haqqi, o'zim kelib oyog'ingni to'g'ram-to'g'ram qilib kesib tashlayman.

Doktor yaradorning bintini yecha boshladi. Yaraga tegib ketganda, u "sekinrog'-ey!" deb qichqirib yubordi.

— Ovozingni o'chir. Hayf-ey senday erkakka! Shopday mo'yloving, uzun soqoling bilan mushtumdek qizcha oldida voyvoylashga uyalmaysanmi? Bu yara emas, o'yinchoq. Shunday kasal boquvchiga topshirishlarini bilsam, hatto men ham bir yerimni g'iq demay kestirar edim.

Bir soatdan so'ng sersoqol kapitan bilan doktor jo'nab ketdi.

Dunyoda bundan ham ajoyibroq tasodif bo'lishi mumkinmi? Men umrim bino bo'lib, bir ko'rgan odamimning menda shu qadar chuqur taassurotlar qoldirganligini hech eslay olmayman.

* * *

Zay-ni-lar, 24 fe--v-ral.

Bu yil yozni baravaqt keladi, deyishadi. Bir haftadan beri havolar ochiq. Kunduzlari quyosh charaqlaydi. Tepalarda qor bo'lmasa, odam o'zini may oyi pallalarida deb his etadi.

Bugun juma. Tushki ovqatdan so'ng xonamda o'tirib, suv bo'yoqda Munisaning suratini solish bilan mashg'ul edim. Birdan eshik taqilladi. Xaticha xonim ro'moli bo'yniga tushgan, qo'l-oyoqlari titragan holda kirib keldi. Uni hech mahal bunday sarosimali va hayajonli ko'rmanedim.

— Voy, xo'jonim, maktabga ikkita afandi keldi. Biri maorif mudiri emish, tekshirgani kelibdi. Tez tush! Ular bilan gaplashishga tobim yo'q.

Shosha-pisha chodramni yopina turib, o'zimcha kular edim. Kabinetida o'tirib qo'l-oyog'ini qimirlatishga ham erinadigan bu tamballar shohi shuncha yerga zahmat chekib kelsa-ya! Bunga ishonib bo'ladimi!

Pastda, sinf eshigi yonida biri nihoyatda novcha, unisi g'oyat pakana ikki kishiga duch keldim. Men ko'zlarim bilan uni qidira boshlaganimda, pakana kishi men tomonga to'g'ri yurib keldi. Qorong'ilikda men uncha yaxshi ko'rolmagan yuzida yakka ko'zoynak porlar edi.

— Muallima xonimmisiz? Hurmatimni arz etaman. Men maorif mudiri Rashid Nozimman. Bu qanday qorong'i yer? Bu yer maktab emas, og'il-ku!

Sinfning eshigini ocha turib:

— Ichi bir oz yorug', afandim, — dedim.

Mudirning mitti gavdasiga sira ham yarashmagan bir alfozda oyoqlarini katta-katta tashlab yuradigan biram g'alati odati bor ekanki...

U eshikdan bir odim ichkari tashladi-yu, to'xtadi. Keyin nutq so'zlamoqchiday qo'lini silkitib:

— Azizim, bunga qara, bu qanday razolat, qanday razolat! — dedi. — Maktab deyish uchun mingta guvoh kerak bunga! Shu holda qanday taraqqiyat bo'lasan? "Yo hammasi, yo hech birisi!" deganimning naqadar o'rinli ekaniga tan berarsan deyman?

Endi ularni durustroq ko'ra boshladim. Mudir dastlab ko'zimga yosh bola, endi yetilib kelayotgan o'smirday ko'ringan edi — aslida ellik yoshni urib qo'yan ko'sa kishi ekan. Nuql qoshi bilan ko'zini o'ynatar, aytgan har so'ziga qarab tirish yuziga alohida-alohida ma'no berardi.

Narigisi esa novchadan kelgan, qotma, qoramag'iz, ingichka mo'ylovli kishi edi. O'Iguday novchaligidan bir oz bukir ham chiqaribди.

Maorif mudiri yana menga qaradi.

— Afandim, o'rtog'imni sizga tanitay: viloyat jamoat ishlari bo'limining injeneri Mumtozbey.

Men indamay qolmaslik uchun:

— Shunaqami, afandim. Juda soz, — dedim.

Maorif mudiri sinfning mustahkamligini tekshirmoqchiday oyoqlarini dupurlatib yurar, partalarni, surat ramkalarini hassasinig uchi bilan to'qillatib urib ko'rardi.

— Azizim, katta rejalarim bor. Hammasini buzib yangidan quraman. Pokiza binolar solaman. Talab qilgan mablag'larimni berishmasa, ahvollariga voy! Ishni tagidan puxta qildim. Istambul matbuotini o't ochishga tayyor turgan batareya deyaver, mendan kichik bir ishora bo'lsa bas — paq-puq!.. Dahshatli bombardimon boshlanadi. Bildeingmi, yo bu kalla ichidagi dunyo haqiqatga aylanadi, yo men mansabimni tashlab ketaman.

Bu chiroyli so'zlarning hammasi men uchun, bir bechora qishloq o'qituvchisining ko'zlarini qamashtirish uchun aytilayotganiga hech shubha yo'q edi. Mudir yakka ko'zoy-nagini yana tuzatib:

— Qancha o'quvchingiz bor? — dedi.

— O'n uchta qiz, to'rtta o'g'il bola, afandim.

— O'n yettita bola uchun bitta maktab! G'arib dabdaba! Sen binoni ko'rasanmi, Mumtoz?

— Mol maydonda, ko'rish nima hojat!

Maorif mudiri g'oyat zo'r rejasi haqida gapirib turganda injenerning yer ostidan menga razm solayotganini sezdim. Axiyri, meni tushunmasin, deb sherigiga nihoyatda buzuq frantsuz tilida:

— Hoy, azizim, biron bahona bilan shuning yuzini ochtirsang-chi. Chehrasi yuz pardasi ostida ham o'tday yonib turibdi. Qaerdan kelib qolibdi-ya bu yerga? — dedi.

Maorif mudiri menda qoldirgan taassurotiga o'xshamas ekan. O'rtog'ining bu so'zlari dan ta'bi tirriq bo'ldi-yu, frantsuzchani undan ham beshbattar buzib:

— Iltimos qilaman, azizim, maktabdamiz, og'ir bo'ling, — dedi.

Mudir iyagining ostida xaltaday osilib turgan terisini rezinkaday cho'zib bir nimalar o'ylar edi. Birdan menga o'girilib, qarorini e'lton qildi:

— Afandim, men bu maktabni yoptiraman.

Men hayron bo'lib so'radim:

— Nega endi, afandim, bir nima bo'ldimi?

— Afandim, bunday rasvo joyda bola tarbiya qilib bo'lmaydi. Innaykeyin, o'quvchilar ham oz. Viloyatdan ketgunimcha qishloqlarning ko'pida arzon, lekin chiroyli, toza, modern, ya'ni yangi tartibdagi maktablar barpo qilish uchun butun kuchimni sarf qilaman, tirishaman. Endi, marhamat qilib, mening savollarimga javob bersangiz.

Bonjurining* cho'ntagidan chiroyli qo'yin daftar oldi. Maktabga oid ba'zi ma'lumotlarni yozib bo'lgandan so'ng:

— Sizga kelsak, afandim, — dedi, — sizni boshqa biron munosib o'ringa tayin etarman. Maktabni yopish to'g'risidagi buyruqni olganingizdan keyin B... ga kelarsiz, o'yashib ko'ramiz. Marhamat, ismingiz?

— Farida.

— Afandim, Yevropada yaxshi bir odad bor. Otasining ismini ham qo'shib aytadilar. Unda ism yana ham aniqroq bo'ladi. Siz, o'qituvchilar, bu yangiliklarni zo'r berib tur mushga oshirishlaringiz kerak. Faraz etaylik, siz sinf jurnaliga o'quvchingiz Malohat Ali xo'ja qizi deb yozasiz. Yo'q. Malohat Ali deb yozavering, shuning o'zi kifoya. Tushundin-gizmi, afandim? Padaringizning ismi?

— Nizomiddin.

— Afandim, sizni Farida Nizomiddin deymiz. Bu narsa sizga dastlab erish tuyulishi mumkin, lekin ko'nikib ketasiz. Qaerda o'qigansiz?

Maktabimni aytmadim. Chunki frantsuzcha bilishim oshkor bo'lsa, injener boyagi so'zlari uchun balki bir oz xijolat tortar. Shuning uchun: "Xususiy tahsil ko'rganman,

afandim", — dedim.

— B...ga kelganingizda menga uchrarsiz. Sizga munosib joy topib qo'yaman. Yur endi, Mumtoz, planimizda yana ikki qishloq bor.

Bolalar partasidan birida uzun, ingichka oyoqlarini osiltirib o'tirgan injener yana o'sha "chiroyli" frantsuzchasi ming'illadi:

— Bu juda ajoyib narsa. Meni tashlab ketaver. Bir balo qilib bo'lsa ham yuzini ochtirib ko'raman.

Maorif mudiri yana bezovta bo'ldi. Menda shubha tug'dirmaslik uchun gapni chalg'itib turkcha gapirdi:

— Vaqtimiz bor. Raportingizni keyin yozarsiz. Qani, ketdik, — deb o'rnidan qo'zg'aldi.

Injener ko'cha eshigi oldida to'xtab, binoning tomini, derazalarini tekshirayotgan kishiday qarar, yoruqqa chiqishimni kutar edi.

O'jarligim tutib orqamni o'girdim-da, o'zimni bir nimalar bilan mashg'ulday qilib oldim.

Boyoqish bog'chadan o'tib ketayotganda ham bir-ikki marta boshini o'girib qaradi. Ko'cha eshididan chiqqandan keyin esa taxta devor sarxatidan mo'ralar, goho oyoqlarning uchida turib ichkariga ko'z yogurtirar edi.

Voqeа bir zumda qishloqqa yoyildi. Juma kuni bo'lismiga qaramay, bolalar, ularning onalari maktabga chopib kelar, maktabning yopilishidan g'am chekishardi. Men bolalarni maktabga o'xshash o'zimga ham qarshi, yotu begona, hissiz deb hisoblاب yurardim. Endi ular qo'limni yig'lab o'pishar, bu esa menga qattiq ta'sir qilardi.

Xaticha xonim boshiga kattakon bir jaketni yopib olib uyiga kirib ketdi. Men ham yomon ahvolga tushib qoldim. Haq gapni aytganda, bu baxtsizlik tog'i u bechoraning boshiga ag'darilgan edi.

Kechqurun oqsoqolning xotini bilan doya xola yana maktabga kelishdi. Ikkovi ham xafa edi. Doya xola menga ma'noli-ma'noli qarab uh tortar:

— Mening boshqa tilagim ham bor edi, lekin haq taolo yordam qilmadi, — deyar edi.

Bu qayg'uga men ham yasama bir qayg'u bilan javob qilishim kerak edi. Ko'zlarimni yerga tikib turib:

— Nachora, doya xola, nasib bo'lmadi, — dedim.

Xullasi, u yakka ko'zoynakli mitti afandi bir so'z bilan Zaynilar qishlog'ini ostin-ustin qilib ketdi. Qishloqlarning dudi osmonga chiqdi.

Yer yuzida Zaynilardan ham rasvoroq qishloq borligini xayolga keltirish mumkin emasligini bilganim holda, bu qayg'u menga ta'sir qila boshladi. Faqat bulardan Munisagina mustasno edi. U yaramas, suyunchi ichiga sig'may uchar, "Qachon ketamiz, opajon? Ikki kundan ke- yin ketamizmi?" deb qushday talpinardi.

* * *

Zay-ni-lar, 3 mart.

Ertaga yo'lga chiqamiz.

Munisa dastlabki kunlarda juda suyunayotgan edi. Lekin kechadan beri unda allaqanday ma'yuslik ko'rina boshladi.

Goho ko'zlarini uzoq-uzoqlarga tikib olib o'ylar, so'ragan narsalarimga parishonxotirlik bilan javob berar edi.

— Munisa, men bilan ketging kelmasa, mayli, tashlab ketay, — degan edim, u apil-tapil:

— Xudo ko'rsatmasin, opajonim, o'zimni quduqqa tashlayman-a! — dedi.

— Aka-ukalarindan ajralishingga xafamasmisan?

— Xafa emasman, opajonim.

- Bo'Imasa otangni ko'rging kelayotgandir-da?
- Otamga achinaman, lekin unchalik yaxshi ko'rmayman uni, opajon.
- Juda soz, unday bo'lsa darding nimada?
- ...

Ko'zlarini yerga tikib olib indamay o'tiradi, qattiqroq talab qilsam bo'ynimga osilib olib, yolg'ondakam kula boshlaydi. Lekin men bu soxta xushchaqchaqlikka ishonmayman. Munisaning haqiqiy suyunchini bilmaymanmi? Men uning tiniq ko'zlarida hamma-vagt bir qayg'u, mung borligini ko'rib yurardim. Aytgin, deb har qancha qistasam ham harakatlarim behuda ketardi.

Bugun yuz bergen bir hodisa bu qizchaning qalbida yashirinib yotgan dardni menga ayon qilib qo'ydi. Kechqurun Munisa anchagacha yo'q bo'lib ketdi. Holbuki, o'sha dam o'ziga muhtojligimni bilardi — yo'l taraddudi uchun menga qarashishi kerak edi.

Bir necha marta chaqirdim. Javob bo'Imadi. Albatta bog'chada bo'lsa kerak edi. Dera-zani ohib: "Munisa! Munisa!" — deb chaqirdim.

Ingichka tovushi bilan uzoqdan, Zayni ota sag'anasi yonidan: "Afandim, hozir boramani", — deb javob berdi.

Oldimga kelganda, u yerda yolg'iz nima qilib yurganligini so'radim. Javobida shoshar, bema'ni bahonalar bilan meni aldashga tirishar edi.

Yuziga diqqat qilib qaradim. Ko'zlar qip-qizil. Xiyol so'liqqan betlarida yangi qurigan ko'z yoshlarining izlari bor. Birdan vahm bosdi meni. U yerda nima qilganini, nega yig'laganii aytirish uchun qattiq qistovga oldim. Bilakchalari qo'llarimda, yuzini yashirish uchun boshini solintirgan, lablarida yengil bir titroq bilan sukut qilib turardi.

Men uni har nima qilib bo'lsa ham gapirtirishga qaror qilgan edim. Agar haqiqatni mendan yashiradigan bo'lsa, uni bu yerga tashlab ketishimni aytdim. Ana shundan keyin chidayolmadni. Katta bir gunohni bo'niga olayotganday, boshini solintirib, uyala-uyala gapira boshladi:

- Oyim meni ko'rgani kelibdi. Ketishimni eshitibdi-da... Achchig'ing kelmasin, opajon.

Bu kattakon gunohni aytib turganda butun vujudi titrar, ko'zlar yoshga to'lib borar edi.

Tushundim. Kichik, mitta ko'nglining alamini mendan umid etishi mumkin bo'lgan darajadan ortiqroq tushundim.

Yuziga tushgan sochlarni tuzatdim, yonoqlarini sekin-sekin silab turib, yumshoq, bosiq tovush bilan:

— Buning uchun nega qo'rqsan, nega yig'laysan? Oying-ku, albatta, ko'rasan-da, — dedim.

Bechora hanuz ishonmas, qo'rqa-pisa tikkan ko'zlarini mendan ololmasdi. Hamma nafrat, la'nat bilan qaraydigan u xotinni yaxshi ko'rmaganligiga meni ishontirish uchun bolalarcha sabablar qidirar edi. Lekin oyisini shu qadar yaxshi ko'rар, shu qadar jondan sevardiki...

— Bolam, onangni yaxshi ko'rmaydigan bo'lsang, men seni juda yomon ayb qilaman, — dedim. — Onani ham yaxshi ko'rmagan bormi? Yugur, chop, chaqirib kel. "Opam seni albatta ko'rishim kerak, deyapti" degin. Men sag'ananing oldiga boraman.

Munisa tizzamga yopishib etaklarimni o'pdi, keyin yugorganicha bog'chaga chiqib ketdi. Bu ishim juda yomon ehtiyoitsizlik edi, bilaman. Agar shu xotin bilan gaplashganimni ko'rib qolishsa, yomon gaplar tarqaladi, balki otimni bu yerda la'nat bilan tilga olishadigan bo'ladi. Mayli, nima bo'lsa bo'ldi!

Sag'ananing pastida, daraxt butalari orasida ularni anchagina kutdim. Mushtipar xotin uzoq ketib qolgan ekan. Munisa uni yo'ldan qaytarib kelish uchun qamishzorning orqasiga o'tib ketgan bo'lsa kerak.

Nihoyat, ko'rinishdi. Ona-bolaning yonma-yon kelishi shu qadar g'amgin, shu qadar hazin bir manzara kasb etgandiki... Bir-birlaridan tortinayotganday, uyalayotganday ayri-ayri yurib kelishar, botqoqlarga botib qolishayotganday jo'rttaga sustkashlik qilishardi. Bu xotinga muhabbat, shafqat to'la narsalar aytishga tayyorlangan edim. Lekin, negadir uch rashganimizdan keyin bir-birimizga aytadigan so'z topolmay qoldik.

Uzun bo'yli, nozikdan kelgan bir juvon ekan. Orqasidan yamoq tushgan eski chodra, yuz pardasi o'rnida binafsharang harir durra, oyoqlarida tovonlari tushgan, mayishgan, yirtiq-yamoq kavush. Birovdan qo'rqayotganday qaltirayotganini sezib turibman. Iloji boricha vazmin, bosiq ko'rinishga tirishib:

— Yuzingizni ochsangiz, — dedim.

Bir oz ikkilanib turgandan so'ng yuz pardasin ko'tardi. Nihoyatda tozaligi ochiq-oshkor ko'riniib turardi. Juda borsa o'ttiz-o'ttiz besh yoshlarda. Lekin sarg'imtir chehrasi shu qadar horg'in, tolg'in ko'rinaridiki...

Bunday xotinlarni men juda bo'yalib yurishadi, deb o'ylar edim. Holbuki, yuzida bo'yoqdan asar yo'q. Menga qattiq ta'sir qilgan narsa uning Munisaga juda ham o'xshashligi edi. Birdan Munisa o'sgan, shu yoshga kelib qolganday tuyulib ketdi... Keyin, keyin...

Bolani g'ayriixtiyoriy bir harakat bilan yelkalaridan ushlab tizzalarimga tortdim. O'pkam og'ir nafaslar bilan to'lib, ko'zlarimga yosh chiqib borardi. Uddamga olgan vazi-fam katta, g'oyat katta vazifa edi. Buni faqat men qilishim, Munisani yaxshi axloqli ayol etib tarbiyalashim kerak. Umrimning eng katta tasallisi shu bo'ladi. Miyamdan o'tayotgan fikrlarni u ham men bilan birga kechirayotganday:

— Xonim afandim, bu kichkina qizchani o'z qo'lingizda voyaga yetkazish baxtini tole sizga nasib qilmagan ko'rindi, — dedim. — Nachora, dunyo shunaqa. Sizga aytadigan gapim shu: ko'nglingiz to'q bo'lsin. Men Munisani bag'rimga oldim. O'z qizimday tarbiya qilman. Hech bir narsadan kamsitmayman.

U birinchi marta so'zlashga jur'at etdi:

— Bilaman, kichik xonim. Munisa menga aytar edi. Gohida yo'lim tushsa kelib ko'rib ketib turardim. Xudo sizdan rozi bo'lsin.

— Bundan chiqdi, Munisani ko'rib turgan ekansiz-da?

Mitti qo'lchalar bilan belimni quchoqlab turgan Munisaning yana titray boshlaganini sezdim. Yana bir qilmishi oshkor bo'lgan edi. Demak, onasini yashiriqcha ko'rib yurgan ekan. So'ngra yana ham qayg'uli tomoni shuki, mendan yashiriqcha ko'rishayotganini onasiga aytib qo'yishdan uyalgan.

— Bu yerda qolganimizda-yu, bolani hammavaqt sizga ko'rsatib turar edim, — dedim.

— Afsuski, ertaga B...ga jo'nayman. U yerdan qayoqqa ketishim hali ma'lum emas. Ko'nglingizni to'q tutavering, xonim afandi. Qizingizga ona bo'laman deb, albatta, aytolmayman. Chunki onaning o'rnini hech kim va hech narsa bosolmaydi. Faqat yaxshigina opa bo'lismaga harakat qilaman.

Pastlikdagi qamishzorda birovning shitirlab yurganini ko'rdik. U mening o'quvchim Ja'-far og'anining otasi edi. Botqoqlikda yovvoyi o'rdak ovlab yurardi.

Munisaning oyisi birdan bezovta bo'ldi.

— Keta qolay, aylanay xonim, meni siz bilan ko'rishmasin, — dedi.

Bu so'zlar bechora xotinning qalbi naqadar nozik ekanligini ko'rsatardi. Men buni ahvoldidan, o'zini tutishidan, yuzidagi ma'nolardan ham fahmlagan edim. Dastlabki tax-minim to'g'ri edi. Munisa qalbining ham yuzi kabi chiroyliligi va kiborligini baxtsiz onasidan olgan ekan. Boyoqish xotinning gap-so'zga qolishimdan bezovta bo'lishi menda chuqr taassurot qoldirdi. Unda yaxshi hislar qoldirmasdan ajralolmas edim. G'iybatlarga parvo qilmasligimni ko'rsatish uchun:

— Nega muncha shoshasiz? Yana picha turing axir, — dedim.

Bechora xotin samimi minnatdorchilik bilan qo'llarimga qarar, ularni o'pgisi kelib lablari titrar edi. Lekin menga tegolmas, tegishga jur'at qilolmas edi.

Keyin dovul yiqqan terak o'zagiga o'tirdik, Munisani o'rtamizga oldik. Endi gap navbati unga kelgan edi. Boyoqish xotin, sarguzashtini menga aytса ko'ngli bir oz bo'shaydigan-day, kuyib-pishib gapirar, shunday chiroyli maroqli so'zlar ediki...

Bu xotinning oddiy, lekin qayg'uli bir sarguzashti bor ekan. Istambulda, Rume-liqovog'ida tug'ilibdi. Kichikkina amal egasi bo'lgan otasi bilan onasi birin-ketin vafot qilgandan keyin, uni Bakirkо'yda kibor bir oilaga asrandi qilib berishibdi. Uydagi kichik bolalar bilan birga o'sgan, axiyri voyaga yetib kichik xonim darajasiga erishgan. O'n besh-o'n olti yoshlarga yetganda yaxshi-yaxshi joylardan og'iz soluvchilar bo'lsada, u hech biriga ko'nman, hammasiga bahona topgan. Chunki uning ko'ngil bergen kishisi bo'lgan. U xonadonning kichik beyi bo'lib, o'sha vaqtlar harbiy mакtabda o'qir, mo'ylovleri endi-sabza ura boshlagan yosh yigitcha ekan. Shunday bo'lsa-da, oralarida aka-ukalik ipi borligi sababli, undan umidvor bo'lomagan. Ammo hafta boshlarida uning yuzini ko'rishni, ovozini eshitishni o'sha kezlarda baxt deb hisoblagan.

O'sha paytlarda uy xo'jası B... viloyat moliya bo'limining mudirligiga tayinlangani uchun harbiy mакtabda o'qiyotgan o'g'lini Istambulda yolg'iz qoldirib, oilasini shu yerga ko'chirib kelgan.

B... da yosh mакtab talabasini ko'rmay o'tkazgan to'rt oyi uni to'rt yillik ayrılıq qadar sarg'aytirgan, keyin u yoz kanikullarini ota-onasi oldida o'tkazgani kelganda...

Ko'p o'tmasdan sir fosh bo'lgan — uy xo'jası, uy bekasi, ularning qizlari — hammasi birdaniga bu mushtiparga hujum qilishgan-u, uni uyda qoldirishni xohlashmay, atrof qishloqlarning birida yashovchi qari kampir ixtiyoriga yuborishgan. Munisaning to'rt yoshida difteritdan o'lган opasi shu yerda tug'ilgan ekan. Bir bolalik xotinni kim ham olar edi? Axiyri u yig'lab-siqtab bir qari o'rmonchiga tegishga rozi bo'lgan. Dastlabki paytlarda churq etgan ovoz chiqarmay, taqdiriga tan berib yuribdi. Lekin eri mana shu Zaynilar qishlog'iga kelib o'rashgandan so'ng uni chidab bo'lmaydigan darajada juda qattiq xafaqonlik eza boshlabdi. Qorong'i uyida o'tirib hasrat chekar, kundan-kunga so'lib borar ekan.

Bechora xotin shu so'zlarni aytib turganda o'zini yana o'sha og'ir qorong'ilik ichida ko'rayotganday ko'zlariga, vujudiga horg'inlik cho'ka bordi.

Ana shu kunlarda qaroqchilarni quvlab qishloqqa bir jandarm otryadi kelibdi. Qamish-zorning u tomoniga chodir yoyib, ikki-uch hafta turgan askarlarning yosh ofitseri uni ta'qib qila boshlagan. Xotin ham shayton vasvasasiga uchib, eri bilan bolasini tashlagan-u, o'sha ofitser bilan qochib ketgan...

Bu oddiy hikoya menga juda ta'sir qildi, lekin sababini o'zim ham bilmayman. Kech kiriб kelmoqda edi. Munisani onasi bilan xoli qoldirib, o'zim mакtab tomonga yurib ketdim. Bir-birini hech mahal ko'rishmasligi mumkin bo'lgan bu ikki insonning balki bir-biriga aytadigan gaplari bordir. Yoki mening oldimda xohlashganlaricha quchoqlashib yig'lasha olmas, ko'ngillarida balki hijron yarasi qolar!

Mozor toshlari ustidan hatlab mакtabimga qaytayotganimda yurak-yuragimdan ezilib o'ylayman: "Munisa, men seni dunyoda hech kimning yo'qligi, yop-yolg'izliging uchun sevar, senga har doim achinib kelar edim. Mana endi senga rashk qila boshladim! Senga g'arib, xarob bir xotinni, har nima bo'Iganda ham senga ona bo'lgan bir onani qizg'anyapman. Sen tug'ilib o'sgan yerdidan ayrilar ekansan, ko'zlariningda ona ni-gohining xotirasini, lablaringda ona yoshlaringning ta'mini olib ketasan!"

* * *

B..., 10 mart.

Zaynilar qishlog'idan keltirilgan qog'ozlarimni sumkaga solib bugun ertalab maorif bo'limiga ketdim. Munisa uxlaganicha qoldi. Vaqt erta bo'lgani uchun idora endi ochila boshlagan edi. Bitta-ikkita kelgan amaldorlar bosib-bosib qahva ichishar, kalyon cheki-shardi.

Hoji do'ppili sarkotib o'rnila jingalak qora soqolli, kir yoqali bir afandi o'tirardi. Xodim-larning bittasidan so'ragan edim, maorif mudiri bilan birga bosh kotibning ham o'zgarganini, ishim bo'lsa shu soqolli afandi bilan gaplashishim kerakligini aytди.

Sarkotibning yoniga yaqinroq kelib salom berdim. Maorif mudiri afandining buyrug'i bilan yopilgan Zaynilar maktabining o'qituvchisi ekanimni, maktab ishlarini topshirgani kelganimni aytdim.

Sarkotib bir oz o'ylanib turdi.

— Ha, shunaqami, juda soz, — dedi. — Bir oz tashqarida kutub turing, mudir afandi kelsin.

Idoraning olaqorong'i, bo'g'iq dahlizida mudirni rosa uch soat kutishga to'g'ri keldi. Bu yerlarga kelib-ketuvchilar odamga tikilib qarar, hatto so'z otuvchilar ham bo'lar edi.

Derazalardan bittasining yoniga siniq shoti tiklab qo'yishgan ekan, o'shaning pog'ona-laridan biriga suyanib kutib turdim. Qo'llari loy, moviyrang chalvorli so'finamo bir kishi fontan yonida sabzavot tozalar, shoxlari yonimdag'i derazaning ichigacha kirib ketgan kattakon bir gilos daraxtida chumchuqlar chirqillashar edi.

Tirsaklarimni tizzamga, iyagimni qo'llarimga qo'yib olib o'ylanardim.

Kecha ertalab shu vaqtida Zaynilardan chiqmagan edim. Katta-kichik o'quvchilarim-ning hammasi dovon ustidagi arava yo'ligacha meni uzatib qo'yishdi. Naqadar uyatsiz ko'nglim bor mening! Tevaragimdag'i odamlarni jon-jonimdan yaxshi ko'rib qolaman. Aziz pochchamning g'alati bir so'zi bor. Goho qo'llarimdan ushlab olib:

— Eh, mening yopishqoq qizim, oldin odamlardan yotsiraysan, qochasan, keyin-chi, xuddi saqichday shunaqayam yopishib olasanki... — deyardi.

Pochcham boyoqishning gapi to'g'ri ekan. Bu bolalarning hammasiga yuragim achishib qodi. Chiroylilariga chiroyli, xunuklariga xunuk, kambag'allariga kambag'al bo'lganliklari uchun har ayirlgan yerimda qalbimning bir parchasini mana shunday tashlab ketaver-sam, juda bo'lgan ekan!

Bechoralar birin-ketin qo'limni o'pishdi. Cho'pon Mehmet Zahro orqali menga yangi tug'ilgan uloqni sovg'a qilib yuboribdi. Boyoqishning hadysi ko'nglimga shunchalar ta'sir qildiki... Hali ko'zlari ochilmagan bu kichkina uloqchani Munisaning quchog'iga topshir-dim. Arava g'ildiraklarining mungli g'ijirlashi bo'sh sahroni ola boshladi. Sekin-sekin Zay-nilardan uzoqlashdik. Bolalar qora toshlar orasida ko'zdan g'oyib bo'lgunlaricha, ularga Munisa ikkimiz ro'molcha silkitib bordik.

Aravaning musofirxona eshigi oldida to'xtashi Hoji xalfaning yana bir alomat mojarosiga to'g'ri kelib qoldi.

Bu chol og'zida qora jigar bilan eshikdan shipillab chiqib qolgan bir kattakon mushukni quvlab kelardi. Qo'lidagi kalyon karnayini qamchiday silkitib: "To'xta, kofirning mushugi, teringni shilib olaman!" deb baqirganicha yonimdan o'tib ketayotgan edi, "Hoji xalfa!" deb chaqirdim.

Hoji xalfa ovozning qaerdan kelayotganini darrov bilolmay to'xtadi, keyin meni arava ichida ko'rар-ko'rmas qo'llarini ko'tarib ko'cha o'rtasida ovozining boricha: "Voy, ikki ko'zim, otinim!" deb baqirdi.

Bechoraning suyunchi ichiga sig'mas edi. Og'zidagi jigar bilan ro'paradagi ayvon devoriga tirmasha boshlagan mushukka kulib:

— Bor, gashtingni qilaver, qo'rhma! Halol bo'lsin! — dedi-yu, yonimga keldi.

Hoji xalfa shu qadar xursand ediki, quchog'ida uloqchasi bilan orqamdan chiqib borgan Munisaga musofirxonaning faqat ikkinchi qavatidagina ko'zi tushdi.

— Ie, xo'jonim, bu kim bo'ldi? Qaerdan paydo bo'ldi? — deb so'radi.

— Mening qizim bu, Hoji xalfa, — dedim. — Eshitganingiz yo'q, Zaynilarda kuyovga chiqdim, mana bitta qiz ko'rdim.

Hoji xalfa Munisaning iyagini silab turib:

— So'zlaganga qarama, so'zlatganga qara. Ajab emas, xudo bersin. Kiroyi qiz desa degulik. Antiqasi, — dedi.

Yaxshi tasodif — moviyrang nomerim bo'sh ekan. Juda suyundim. Kechqurun Hoji xalfa meni qo'yarda-qo'ymay uyiga ovqatga chaqirdi.

Charchaganimni bahona qilib hech chiqqim kelmadni. Lekin chol turib oldi.

— Gapingni qara-yu, olti oy yayov yurganingda ham zig'ircha charchamaysan. Tavba, de, — dedi.

* * *

Bu narsalarning hammasi yaxshi, hammasi soz! Lekin meni o'ylatgan boshqa bir masala bor. Kecha kechqurun uqlashdan oldin o'zimcha hisob-kitob qildim, natija shunchalar g'alati chiqdiki, ishona olmadim. Barmoqlarim bilan yana bir marta hisoblab chiqdim. Afsuski, to'g'ri. Natijaning ko'p xunukligiga qaramay, o'zimni kulgidan tutib qololmadim. Men shu mahalgacha o'z mehnatim, g'ayratim soyasida umr o'tkazib kelyapman, deb o'ylar edim. Holbuki, qo'limdagi uncha-muncha pulimni sarflab qo'yibman.

Bechora Gulmisol yotu begona yerlarga ketayotganimda ehtiyoji shartdan pulim bo'lishi kerakligini aytib, onamning olmoslaridan birini sotgan, pulini alohida bir hamyonga solib bergen edi.

Hozirgacha ancha pul sarflabman. Ha-ya, ancha vaqt ishsiz yurdim. Keyin yo'l xaratatlari ham ozmuncha bo'lmadi. Buning ustiga bir kambag'al qishloq o'qituvchisidan boshqa narsa emasligimni ham o'ylamabman. Tevaragimda kambag'al, och odamlarni ko'rganimda ozmi-ko'pmi yordam qilishni vazifam deb bilardim. Lekin odamlar juda ham insofsiz bo'lishadi. Yuzimdagi yumshoqlikdan yuraklanib, tevaragimda ochilgan qo'llar keyingi vaqtarda shu qadar ko'payib ketgan ediki...

Tabiiy qimmati qanchaligini men shu kungacha tuzukroq bilolmagan bir necha qurushlik oyligim hamma xarajatlarni ko'tara olmas edi. Yana bir yomon tomoni shu ediki, ana shu oyliklarimdan ikkitasini haligacha olishga muvaffaq bo'lmay kelardim.

Ana shunday ehtiyojlar tug'ildi deguncha, darhol hamyonga qo'l urardim. Lekin bu sho'rlik xaltacha hozir shu qadar yengillashib ketibdiki, ichidagilarni sanashga yuragim betlamaydi. Demak, besh oyning butun mojarosiga, butun horg'in-tolg'inligimga qaramay meni yashatgan yana oilamning yordami bo'libdi.

Derazadan tushgan chinor barglarini o'ynab turib shularni o'ylaganimda, ham kulgin, ham yig'ilgim qistaydi. Lekin o'zimni boshqa bir narsa bilan yupata boshlayman. "Xafa bo'Ima, Choliqushi. Hech qanday daromad qilmagan bo'lsang ham, lekin turmush, yashash, chidash nima ekanligini o'rganmadingmi? Bu oz daromadmi? Bundan keyin bolalikni tashla, voyaga yetib, kap-katta xotin bo'lib kelyapsan, qizim!" deyman.

Men shu xil o'ylanib turganimda, ola-qorong'i dahlizda birdan g'ala-g'ovur ko'tarildi. Qari xizmatkor bir qo'lida palto, ikkinchi qo'lida hassa bilan maorif mudirining kabinetiga zing'illab o'tib ketdi.

Bir necha minutdan so'ng yo'g'on bo'ynini tik tutib, yakka ko'zoynagini yarqiratib zinadan chiqib kelayotgan mitti mudirni ko'rdim. Orqasidan kabinetga kirmoqchi bo'lgan edim, hozirgina mudirning paltosi bilan hassasini ko'tarib o'tgan soqolli xizmatkor yo'lim-

ni to'sdi.

— To'xta, xonim. Bey afandi nafaslarini o'nglab olsin. Nimaga shoshasan? Onangning qornida qanday qilib to'qqiz oy kutding-a! — deb meni koyib berdi.

Bunday muomalalarga sekin-asta o'rganib qolgan edim, shuning uchun xafa bo'lma-dim. Hatto, aksincha, yumshoq bir tovush bilan iltimos qildim:

— Aylanay otajon, bey afandi qahvasini ichib bo'lganlardan so'ng xabar qilsangiz, kutgan muallimangiz kelibdi, desangiz.

Maorif mudiri meni kutayotgani yo'q edi. Lekin shunday desam, xizmatkor jonbozlik ko'rsatarmikan, deb o'yladim. Nachora, bu xil nayranglarni o'rganmasangiz bo'lmaydi.

Qari xizmatkor uch-to'rt minutdan so'ng yana kabinetdan chiqdi. Qora chodram ichida meni payqamadi shekilli, o'zicha g'uldiray boshladi:

— Qaerga ketdi u xotin? Tavba, odamning ikki oyog'ini bir etikka tiqib qo'yib, o'zi yo'q bo'lib ketganini!

— Xafa bo'lmaning, ota, shu yerdaman.

— Yur, kira qol, sening ham hojating chiqsin.

Mudir lablarining uchida katakon sigara bilan o'z o'rnila boshyalang o'tirar, burchak-dagi kursiga cho'kib olgan keksaroq kishiga mitti gavdasidan kutilmagan yo'g'on, dadil tovush bilan allanarsalar so'zlar edi:

— Afandim, bu qanday joy, qanday yer-a! Dunyo-dunyo isrofgarchiliklarni qilishadi-yu, o'zlariga mundog' nomlari yozilgan tashrifnoma bostirib olishmaydi! Sakson kishi sizni ko'rmoqchi ekanligini eshikda turib xizmatkordan ayttirishadi. Xizmatkor bo'lsa ismlar-ni to'g'ri aytolmaydi, chuvalashtirib yuboradi. Men idorada telba Petro qoidasini joriy etishga tarafdorman. Xizmatchilarni faqat rasmiy hayotlaridagina emas, shaxsiy hayotla-rida ham tekshirib turish kerak. Yegan-ichgan narsalariga, o'tirgan-borgan yerlariga, kiygan kiyimlariga aralashmasdan bo'lmaydi. Mudirlik vazifasiga kelishim bilanoq mak-tablarga buyruq tarqatdim. "Kamida ikki kunda amalga oshirmsandan dazmolsiz shim, yoqasiz ko'ylak kiyib keladigan o'qituvchilar bo'lsa, darhol ishdan quvilsin", deb buyur-dim. Kecha maktablardan birini tekshirgani bordim. Eshik oldida bir o'qituvchiga duch kelib qolsam bo'ladimi! Tanimasdan: "Bor, o'qituvchiga ayt, maorif mudiri keldi", — dedim. Lekin u:

— Afandim, o'qituvchi kaminalari bo'ladi, — deb javob berdi.

— Yo'q, sen maktab xizmatkori bo'lising kerak. Chunki o'qituvchining kepatasi bu-naqa bo'lmaydi. Shunaqa rasvo kiyangan o'qituvchini ko'rsam, qo'lidan yetaklab ko'cha-ga chiqarib tashlayman, — dedim.

U toshday qotdi-qoldi. Orqamga qaramay ichkari kirdim. Yana ertaga mакtabiga bora-man. Agar uni yana o'sha kepatada ko'rsam, ishdan bo'shataman.

Arzimni aytish uchun mudirning so'zi tugashini kutardim. Lekin unda gapini tugatish ishtiyoqi ko'rinxmasdi. Aksincha, dam sayin o't olib, asab torlarini cho'zib bordi.

— Shunaqa, afandim, maktablarga: "Muallima va muallimlar mutlaqo o'zlariga tashrif-noma bostirishsin. Busiz qilinadigan murojaatlar qabul etilmaydi", deb buyruq berdim. Lekin tushunishmaydi!

Mudir birdan menga qo'pol qilib qaradi.

— Aminmanki, muallima xonim ham buyruqni olgan bo'lislari kerak. Yana shunga qaramay, tashrifnomasiz murojaat etmoqdalar. Yana xizmatkor og'zida: "Siz bir xonimni chaqirgan ekansiz, kelibdi" taronasi! Kim? Qanaqa xonim? Sariq etik kiygan Mehmet og'a, deganday.

Hayratdan qotib qoldim. Demak, butun bu so'zlar, bu jahllar men uchun ekan. Tash-rifnomasiz ichkari kirmoqchi bo'lganim uchun!

— Men bu xil buyruq olganim yo'q, afandim, — dedim zo'rg'a.

— Nega olmas ekansiz? O'zingiz qaerda o'qitasiz?
— O'tgan hafta kelgansiz, Zaynilar qishlog'idagi maktabda o'qitardim. Siz yoptirgan maktabda.

Maorif mudiri bir qoshini ko'tarib o'ylanib qoldi.

— Ha, ha, esladim. Nima qildingiz, hisob-kitobini to'g'riladingizmi?

— Buyrug'ingizga muvofiq hammasini to'g'riladim, afandim. Siz tayinlagan hujjatlarni ham olib keldim.

— Juda soz, sarkotibga bering, tekshirib chiqsin.

Kir yoqali sarkotib meni rosa ikki soat tergov qildi. Hujjatlarni qayta-qayta ko'zdan o'tkazar, "isrofgarchilik san'ati", "hujjat isboti", "zarurat qaydlari", "izohot nusxasi" va yana allaqanday men tushunmaydigan narsalarni aytar, qishloq oqsoqolidan olib kelgan dalolatlarimga e'tiroz bildirar edi.

Men uni shoshiltirguday bo'lsam, lablarini burib, "bu ham o'qituvchi" deganday harakatlar qilardi... Xato sarf qilingan jinday pul uchun meni yig'latguday bo'lardi...

Keyin yana bitta qiyyiq topdi. Bilmayman, necha yil bo'lgan ekan, xullasi, avvalgi o'qituvchilardan biriga tomni remont qilish uchun ikki yuz ellik qurush berishgan ekan, o'shaning hujjati yo'q emish. "Nega o'sha pulning hisobi yo'q? Hujjati qani! Topmasang sudga ketasan", — deb yer tepindi.

— Bey afandim, unday qilmang, mening u yerga borganimga yarim yil ham bo'lgani yo'q, — dedim.

Xo'rligimdan yig'lagim kelar, gapimni tushuntira olmaganimga siqilar edim. U axiyri:

— Xudo saqlasin, afandim, xudo saqlasin, afandim. Men bunday razolatga rozi bo'lomayman, afandim. Jinni bo'lishga vaqtim yo'q, afandim, — deb g'uldirab turib qog'ozlarni oldi-da, maorif mudirining kabinetiga kirib ketdi.

Men o'tirgan xonada biri sallali, ikkinchisi mo'ylovleri hanuz terlaganday ko'ringan ikkita kotib bor edi. Ular stollarning orqasida o'z ishlari bilan mashg'ulday ko'rinishar, bizning gapimizga aloqalari yo'qday o'tirishar edi.

Sarkotib jahl bilan chiqib ketgan hamono bu ikki kotib o'rinalidan sapchib turdi-da, mudir kabinetiga tutash eshikka qulqlarini qo'yib, gap poylay boshladi.

Faqat kotiblarning mehnatlari zoe ketdi. Ikki minutdan so'ng mudirning biz turgan xonadagina emas, ko'chada ham bahuzur eshitiladigan ovoz bilan baqirgani eshitildi.

Sallali kotib suyunganidan yosh kotibning yelkasiga urib:

— Xudo sendan rozi bo'lsin, mudirbey! Bachchag'arni rosa bopla! Ha, dinsizning ta'zirini imonsiz beradi,— deyardi.

Maorif mudiri sarkotibga shunday deb baqirar edi:

— To'ydim, afandim, sendan to'ydim! Bu qanday rasmiyatichilik, bu qanday gap, axir! Haqqi bor xotinning, haqqi bor xotinning! Senga necha yilgi hisobni qaerdan topib beradi? Aqling yetmayotgan bo'lsa, jo'na, yo'qol! Xohlagan yeringga boraver, to'rt tarafning qibla! Ketmaydigan bo'lsang, seni o'zim ketkizaman! Hoy deyman, yoz hozir arizangni! Yozmasang odam emassan!

Evo, yuragim tushguday bo'ldi.

— Voy, afandilar, o'zim xohlamagan mojaroga sabab bo'ldim, — dedim kotiblarga. — Keta qolay, u jahl ustida meni ko'rmasin. Balki yomon narsalar gapirib yuborar.

Sallali kotib xursandchiligidan o'yinga tushib ketar alfozda edi.

— Yo'q, singlim, yo'q, xavotir qilma. U shunga munosib ablah. Gohi-gohida o'zidan ham odobsizroq odam chiqib tanobini shunaqa tortib qo'ymasa, joni rohat ko'rmaydi bu it tish, it teri! Xudo sendan rozi bo'lsin. Endi mana shu kaltakdan so'ng bir necha kun tinchib qoladi. O'zining ham, bizning ham boshimiz g'ovg'adan qutuladi...

Kabinetdagi ovoz tindi. Kotiblar darhol stollari tomonga yugurishdi. Sallali qori o'z-

o'zicha:

— Bu bir masal: dinsizning ta'zirini imonsiz beradi, — deb g'uldirar edi.

Sarkotib oyoqlari bilan soqoli ham titrab kirib keldi. Boshini o'girmay yoniga qarab olgan qiz singari, bir ko'zining qiri bilan kotiblarga razm soldi. Ular shu qadar jim, shu qadar halim ishlab o'tirishar ediki, sarkotib xotirjam bo'lib, g'udrana-g'udrana o'rniqa keilib o'tirdi.

Lekin o'zini hech bosolmas edi. Bir necha marta uh tortib, xo'rsinib olgandan keyin sekin-sekin so'zlay boshladи:

— Ellik yoshga kirgan, allaqancha idoralarda ishlagan bir kishining aqli shu narsalarga yetmasa-ya! O'zi ertaga daf bo'lar-ketar, keyin danak bizning boshimizda chaqiladi. Bor-di-yu, ko'z og'rig'iday revizor kelib qoldi! Ishlarni ipidan-inasigacha tekshirib: "Hoy, kallavaramlar, nima balo, yelkalariningizdagi eshak boshimi? Bu ikki yuz ellik qurushning nega hujjati yo'q? Bu rasvogarchilikni nega ko'rmadinglar?" deb qoladi. Unda nima bo'ladi? Revizor hammamizni sudga bersa haqli. Davlat xazinasi bilan o'ynashib bo'larmishmi! Agar buni yashirib ketsak, xudo haqqi, yuz yildan keyin ham bu pulni avlodu ajdodimizdan undirib olishadi.

Kotiblar boshlarini daftardan ko'tarishib, bu dono gaplarni hurmat bilan tinglab o'tirishar edi.

Sarkotib vaziyatni ancha tuzuk hisoblab:

— Eshitdinglarmi, ishyoqmasning noma'qul gaplarini? — deb so'radi.

Qori ajablanib bosh ko'tadi.

— Yo'g'-e, darvoqe, bir ovoz eshitganday bo'ldik, sizga oidmidi?

— Qisman menga. Qornini yorsa alif chiqmaydi-yu...

— Xafa bo'lmang, sarkotib afandi. U kishi hisob-kitobdan bexabarlar. Janoblari bo'limasa, uch kunda bu idora ostin-ustin bo'lib ketadi.

Bu so'zlarni qori so'zlardi. Boyagina sarkotib uchragan haqoratlardan yosh boladay suyungan qori afandi! Yo rabbiy, bular qanaqa odamlar o'zi!

Shu bilan birga sallali kotibning taxmini anchagina to'g'ri chiqdi. Sarkotib boshidan o'tgan bo'rondan ke- yin xiyla yumshalgan, og'irlashgan ko'rinaridi.

Bir sigara tutatib, tutunlarini ikki tomonga pufladi-da:

— Satqayı odam ket. Bu davlatga xizmat qilgan qaysi bir odamdan kimning ko'ngli shod bo'libdi! — dedi. Keyin, meni ortiq ovora qilmay, qog'ozlarni tezgina qabul qilib oldi.

Bir ozdan so'ng o'z ishim masalasida yana maorif mudirining huzuriga kirdim; char-chaganimdan tizzalarim titrar, ko'zlarim tinar edi.

Mudir endi boshqa masala bilan ovora edi. O'kirib-o'shqirib xizmatkorlarga kabinetining changini arttirar, devordagi suratlarning o'rinalarini o'zgartirar, ora-sira kichkina oy-naga o'zini solib, sochlarini, galstugini tuzatar edi.

Hamon boyagi burchakda o'tirgan keksa afandi bilan o'rtalarida bo'lib turgan gaplaridan bu tayyorgarlikning sababini bilib oldim. B...ga Per For degan bir frantsuz gazetachi si kelibdi. Maorif mudiri kecha viloyat hokimi bergen ziyofatdan ana shu muharrir va uning rafiqasi bilan tanishibdi. Per For juda ajoyib odam emish. Gazetasida "Yashil B...da bir necha kun" degan sarlavha bilan qator maqolalar bermoqchi emish.

Mudir hayajonlanib hikoya qilardi:

— Er-xotin bugun soat uchda ziyorat qilgani kelamiz, deb va'da etishdi. Ularga maktablarimizdan bir-ikkitasini ko'rsataman. Garchi yevropaliklarga ko'krak kerib ko'rsatguli maktablarimiz bo'limasa hamki, qittay siyosat ishlatamiz. Harholda, foydamizga bitta maqola bo'ladi, deb umidvorman. Xayriyatki, men shu yerdaman, yo'qsa bu ziyorat mendan avvalgi mudir vaqtiga to'g'ri kelsami, yevropalik oldida toza rasvo bo'lardik.

Men hamon eshik yonida, pardaning bir qanotida kutib turar edim. U shoshib:

— Yana nima gapingiz bor, xonim? — dedi.

— Ishlarni topshirib bo'ldim, afandim.

— Juda soz, rahmat.

— ...

— Rahmat, ketishingiz mumkin.

— Meni boshqa biron yerga tayinlash uchun buyrug'ingiz bo'lishi kerak edi.

— Ha, lekin hozircha bo'sh o'rin yo'q. O'rin bo'shadi deguncha bir narsa qilarmiz. Ismingizni yozdirib keting.

Maorif mudiri bu so'zlarni shoshilib, dag'al qilib aytar, tezroq chiqib ketishimni istar edi.

"O'rin bo'shadi deguncha!"

Bu so'zni Istambulda, Maorif ministrligida ham juda ko'p marta eshitgan, afsuski, ma'nosini juda yaxshi bilib olgan edim. Mudirning asabiy ovozi menda yomon bir isyon uyg'otdi. Chiqib ketish uchun eshik tomonga bir odim tashladim, lekin o'sha zamon ko'z o'ngimni bir xayol, musofirxonadagi nomerimizda kichkina uloqchasi bilan meni kutib o'tirgan Munisaning xayoli oldi.

Ha, men endi eski Farida emas edim. Uddasiga og'ir vazifalarni olgan bir ona edim.

Ana shundan keyin yana orqamga qaytdim. Ko'chadan o'tkinchilarga yomg'irda shimitrab qo'l cho'zgan gado singari boshim solingan holda ovozimda bir qo'rqqoq tilanchi ohangi bilan:

— Bey afandim, kutishga fursatim yo'q, — dedim.— Aytishga uyalaman, juda yomon ahvoldaman. Hozir biron ta ish bermasangiz...

Ortiq gapira olmadim. Xo'rligimdan, uyalganimdan nafasim bo'g'ildi, ko'zlarim yoshga to'lib bordi.

U boyagiday shoshqin, dag'al tovush bilan:

— Aytdim-ku, xonim, bo'sh o'rin yo'q, — dedi. — Lekin Chodirlida bitta qishloq maktabi bor, borsangiz qarshiligidan yo'q. U yerni yomon deyishadi. Bolalar qishloq qahvaxonasida o'qisharmish. O'qituvchi yotib-turadigan joy ham yo'q emish. Ma'qul ko'rsangiz tay-inlayman, yo'q desangiz yaxshiroq joy chiqquncha kutasiz.

— ...

Chodirlining Zaynilardan ham rasvoroq qishloq ekanligini eshitgan edim. Shunday bo'lsa ham, bu yerda oylarcha sarson bo'lgandan, turli haqoratlarga uchragandan ko'ra o'sha yerga borish ming chandon afzal edi.

Boshimni solintirdim va nafas kabi mayin tovush bilan:

— Xo'p, qabul qilishga majburman, — dedim.

Lekin maorif mudiri javobimni eshitmadni. Chunki shu payt birdan eshik ochildi-yu, tashqaridan birov: "Kelishdi!" deb qichqirdi.

Maorif mudiri smokingini yelpitib eshikdan zing'illab chiqib ketdi. Mening ketishdan boshqa choram qolmagan edi. Endi eshikdan chiqaman deb turganimda, maorif mudirining frantsuzchalab: "Marhamat, kiringlar" degan ovozini eshitib qoldim.

Tashqaridan oldin issiq paltoli bir yosh juvon kirdi. Yuzini ko'rdimu, voy deb yuborishdan o'zimni tutolmadim. Gazetachining qaylig'i mening eski sinfdoshim Kristiana Varez edi.

Kristiana yozgi kanikullarning birida oilasi bilan Frantsiyaga ketib, u yerda gazeta muharrirligida ishlagan bir yosh bo'lasiga tekkan-u, keyin qaytib kelmagan edi.

Dugonam bir necha yil ichida odam ishonolmaydigan darajada o'zgaribdi, salobatli xotin bo'lib qolibdi. Ovozimni eshitib boshini o'girdi va yuzimdagagi qalin pardaga qaramay meni darhol tanidi.

— Choliqushi, mening kichkina Choliqushim, shu yerdamisan? Oh, bu qanday tasodif! Kristiana meni hammadan ko'proq yaxshi ko'radian dugonam edi. Qo'llarimdan ushlab meni kabinet o'rtasiga yetakladi. Qo'y may yuzpardamni ochdi, betlarimdan cho'lpcho'lp o'pa boshladi. Men haliga dovur ko'rman eri, ayniqsa, maorif mudiri, kim biladi, nimalarni o'yldi.

Men ularga orqamni o'girib olib, ko'zlarimdag'i yoshlarni ko'rsatmaslik uchun yuzimni dugonamning yelkasiga yashirdim.

— Oh, Choliqushim, har xil narsalar miyamga kelardi-yu, lekin seni bunday qop-qora chodraga ko'milgan, ko'zlaridan yosh quyilib turgan holda ko'rman, deb o'ylamagan edim.

Sekin-sekin o'zimni bosa bordim, yashiriqcha yuzimni yana to'sib olmoqchi bo'lган edim, dugonam qo'ymadidi. Ke- yin yo'q deganimga unamay, meni eri tomonga o'girdi.

— Per, senga Choliqushini tanishtiraman, — dedi.

Per For uzun bo'y, xushro'y, oqish kishi ekan. Lekin ko'zimga dali-g'uli ko'rindi. Kim biladi, men og'ir-vazmin odamlar orasida turib o'rganib qolganim uchun u boyoqish menga shunday tuyulgandir.

Gazetachi qo'llimni o'pdi-da, eski tanishi bilan gaplashayotganday:

— Mademuazel, sizni ko'rish sharafiga noyil bo'lганим uchun ko'p baxtiyorman, — dedi. — Bilsangiz, biz hecham notanish emasiz. Kristiana sizni juda ko'p gapirardi... Bashiшti u tanishtirmaganda ham, baribir, Choliqushini tanib olardim. Maktabda dugonalaringiz va o'qituvchilaringiz bilan birga tushgan suratingiz bor. Unda iyagingizni Kristiana ning yelkasiga qo'yib olibsiz. Ko'rdingizmi, men sizni qanday taniyman!

Ular maorif mudirini butunlay unutganday, faqat men bilan gaplashishar edi. Bir zum boshimni o'girib tevarakka qaradim. Ko'zlarim shunday bir manzaraga tushdiki, boshqa joyda bo'lsam, qahqaha urib kulib yuborardim. Mehmonlar bilan birga kabinetga bir qancha odam ham kiribdi. Yarim doira qurib turgan bu odamlar o'rtasida maorif mudiri turibdi. Hammasing og'izlari hayratdan bir qarich ochilgan, alomat fokuschi o'yinini tomosha qilayotgan qishloqlilar singari mening frantsuzcha so'zlashimga anqayib turishardi.

Hammaside qizig'i shu ediki, Zaynilarga borgan jamoat ishlari injeneri ham shular orasida edi. Keyin bilsam, bu afandi musofirlarni mehmon qilibdi. Boyoqish axiyri murodiga yetgan, ya'ni yuzimni ko'rgan edi. Shu bilan birga, qishloqda maorif mudiriga men to'g'rimda aytgan fratsuzcha so'zlarini eslab, harholda xijolat ham tortgandir.

Bo'lar ish bo'lган edi. Eski sinfdoshimga o'zimni shu qadar tushkun bir ahvolda ko'rsatish nafsoniyatimga tegdi. Buning ustiga o'zimni miskin, ezgin ko'rsatgim kelmay, iloji boricha dadillik, xushvaqtlik bilan baland ovozda so'zlashaverdim.

Nihoyat, maorif mudiri o'z ahvolining yanchligini tushundi-da, mitta gavdasi bilan kulgili bir ahvolda reverans qilib:

— Qani, marhamat, o'tiringlar, turib qoldinglar,— dedi kursilarni ko'rsatib.

Mening chiqib ketish paytim kelgan edi. Shuning uchun Kristianaga:

— Endi menga ijozat, — dedim sekingina.

Lekin u saqichday yopishib olib, meni hech yonidan jildirmas edi. Dugonamning meni bo'shatgisi kelmaganini maorif mudiri ham ko'rdi. Hozirgina menga o'lguday sovuq, yomon muomalada bo'lган bu odam chuqur bir hurmat bilan qoshimda egilib, menga ham bir kursi in'om qildi.

— Xonim afandim, tikka turmang, marhamat, — dedi.

Nochor o'tirdim. Kristiana, mening bu yerda qora chodraga o'ralib turganimni hech aqliga sig'dira olmay, eriga nuql gap uqtirar edi:

— Sen bilmaysan-da, Per, Farida juda alomat qiz. Istambulning eng asl oilasidan. Shu

qadar o'tkir zakosi, ajoyib bir xarakteri borki... Uni bu yerda ko'rib hayron bo'lib qoldim.

Dugonamning maqtashi menga ham xush yoqar, ham meni uyaltirar edi.

Ko'zlarim goho maorif mudiriga tushib qolardi. Boyoqish haligacha o'zini hayratdan qutqaza olmagan edi. O, hayosiz jamoat ishlari injeneri-chi! U kabinetning bir burchagi suqilib olib, meni ko'zlar bilan yeb yuborguday bo'lib o'tarar edi.

Tabiiy, unga qijo boqmayotgan edim. Ba'zida odamning yuzida pashsha yuradi-yu, eti jimirlab ketadi. Injener ko'zlarining ham yuzimda pashsha singari aylanib yurganini qaramasdanoq sezar, bezovta bo'lardim.

Kristiananing qiziqishini bosish uchun mana shunday izoh berishga majbur bo'ldim:

— Bu narsalarga ajablanilmasa ham bo'ladi, chunki har kim bir narsaga havas qilgandek, men ham o'qituvchilikni havas qildim. Ko'nglimning istagi bilan shu tomonlarda ishlashga, maktab bolalari uchun xizmat etishga qaror qildim. Hayotimdan mamnunman, harholda, yelkanli qayiqda dunyo sayyohatiga chiqqanchalik xavfli noz emas bu. Hayronman, buning naqadar tabiiy narsa ekanligini negadir tushunging kelmaydi.

Musyo Per For kuchli ovoz bilan aravani quruq olib qochdi:

— Men tushunaman, mademuazel, ko'ngilning bu xil nozik taronalarini Kristiana ham, shubhasiz, juda yaxshi tushunadi. Biroq shoshib qoldi-da. Mening bundan chiqaradigan xulosam shuki, Istambulda g'arb tarbiyasini olgan yangi qizlar avlodi paydo bo'libdi. Bular Per Lotining dezanshantelari* singari befoyda o'pkalashlar bilan o'zlarini xarob qiluvchi nasldan butunlay boshqa bir naslga mansubdirlar. Bular quruq xayoldan ko'ra harakatni a'lo ko'radilar-u, Istambuldagagi rohat va saodatlaridan voz kechib, o'z ixtiyorlari bilan Anatoliyani uyg'otgani boradilar. Naqadar go'zal, naqadar oljanoblik namunasi! Men uchun topib bo'lmaydigan bir maqola mavzui! Turklarning uyg'onishidan bahs etganimda, ruxsat etsangiz, sizning otingizni ham qayd etsam, mademuazel, Farida Choliqushi.

Men apil-tapil:

— Kristiana, eringga mening otimni gazetada chiqarishga yo'l qo'ysang, sen bilan do'stligimiz tamom bo'ladi, — dedim.

Per For o'zimni yashirin saqlamoqchi bo'lganimni yanglish tushundi.

— Bu kamtarlik ham nihoyatda chiroyli, mademuazel, — dedi. — Siz kabi ajoyib bir qizning orzulariga bo'ysunmoq vazifamdir. Viloyatning qaysi baxtiyor maktabida o'qituvchilik qilayotganingizni so'rashim mumkinmi?

Boya aytdim-ku bo'lar ish bo'ldi deb!

Yalt etib maorif mudiriga qaradim-da, turkcha qilib:

— Kaminaga taklif etgan maktabingiz qaerda edi? — dedim. — Chodirli qishlog'i deganday bo'lib edingiz shekilli.

Per For qaydlarini davom ettira turib:

— Shoshmang, shoshmang, — dedi, — nima dedingiz: Chog'irlimi yo bo'Imasa Chonirlimi? Mademuazel, viloyatda qiladigan sayohatimizda fursat topilsa, go'zal qishlog'ingiza ham borib sizni o'quvchilaringiz orasida ziyyarat qilib kelamiz.

Maorif mudiri lavlagiday qizarib o'rnidan sapchib turdi.

— Mademuazel Farida xonim afandi qishloq muallimaligini talab etyapti. Lekin men viloyat markazidagi xotin-qizlar maktabida frantsuz tilini o'qitsa yana ham ko'proq foyda keltirar degan qanoatdamon.

Tushunolmay yuziga qaradim. Menga turkchalab shu izohni berdi:

— Frantsuz maktabini tugatganingizni va frantsuzcha bilishingizni aytmagan edingiz, bunday bo'lgandan keyin ish o'zgaradi. Endi sizni ministrlikka tavsiya qilaman. Buyruq olgunimizcha vakila bo'lib ishlab turasiz. Ertaga ertalabdan ishga tushasiz, xo'pmi?

Hayotning bir falokatdan keyin har doim saodat keltirishi ajoyib matalda aytiganidek, oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi mutlaqo yorug' bo'lishini bilardim, albatta. Le-

kin bu yorug'likning shu qadar quyuq qorong'ida, shu qadar og'ir minutda tug'ilishini aqlimga keltira olmas edim.

Munisa yana ko'z o'ngimga keldi. Lekin bu safar musofirxona nomerida kichkina uloqchali kambag'al bola qiyofasi emas, balki chiroyli bir uyning gulgun bog'chasida gul-chambar yasayotgan baxtli qizcha bo'lib ko'rindi.

Ayrilish paytimizda Kristiana meni bir chetga tortib:

— Farida, sendan uni so'ramoqchiman. Unashib qo'yilgan eding, nega tegmading?

— ...

— Nega javob bermaysan? Kuyoving qaerda?

Boshimni solintirib past tovush bilan:

— O'tgan yil kuzda undan ayrildik, — dedim.

Bu javob Kristianaga qattiq ta'sir qildi.

— Nahotki, Farida? Rost aytyapsanmi? Oh bechora Choliqushi! Seni bu yerga qaysi shamol keltirganligini endi tushundim, — dedi.

Barmoqlarimni mahkam ushlab turgan qo'llari dirdir titrardi.

— Farida, uni juda yaxshi ko'rarding, shunday emacmi? Yashirma, azizim! Bo'yningga olishdan hammavaqt qochib yurarding, lekin shunday bo'lsa ham, hamma bilardi.

Kristiananing ko'zlari g'ira-shira xayolda qolgan tushni eslayotgandek horg'in bir tuda yumildi. Keyin haroratli bir tovush bilan davom qildi:

— Haqqing bor edi, uni yaxshi ko'rmay bo'lmas edi. Bir necha marta seni ko'rgani kelgani esimda. Hech kimga o'xshamagan bir qiyofasi bor edi. Bechora! Senga juda rahmim keladi, Farida! Yosh qiz uchun sevgan yorining o'limini ko'rishdan ham kattaroq baxtsizlik bo'lmasa kerak, deb o'ylayman.

"Senga juda rahmim keladi, Farida. Yosh qiz uchun sevgan yorining o'limini ko'rishdan ham kattaroq falokat bo'lmasa kerak" deganingda boshimni solintirib, ko'zlarimni yumib oldim. "To'g'ri, haqqing bor!" dedim. O'sha ahvolda boshqa nima ham deya olardim? Lekin men senga yolg'on aytdim, Kristiana.

Men yosh qiz uchun bundan ham kattaroq baxtsizliklar borligini bilaman. Sevgili yorining o'limini ko'rgan yosh qizlar sen o'ylagancha baxtsiz kishilar emas. Ularning ko'nglini yupatadigan katta tasallilari bor. Oradan yillar, oylar o'tgandan so'ng bir kecha yot elliarning qorong'i, sovuq hujrasida yolg'iz qolgan damlarida o'z yorlarining siyemosini ko'z o'nglariga keltirish imkoniga egalar. "Bu bechora ko'zlarning so'nggi boqishi meniki edi" deyishga haqlari bor. Bu xayoliy yuzni qalblarining lablari bilan o'pa olgandirlar. Lekin men bu haqdan mahrumman, Kristiana!

* * *

B..., 19 mart.

Bugun ertalab B... shahridagi xotin-qizlar maktabida dars bera boshladim. Bu yerga tez ko'nikib ketsam kerak. Lekin Zaynilardan keyin bu yerni yoqtirmadim desam ayb bo'lar.

Yangi hamkasblarim ko'rinishdan yomon odamlarga o'xshamaydilar. O'quvchilarim taxminan mening yoshimda, ba'zilari mendan ham kattaroq, noppa-nozanday xonimlar desam bo'ladi.

Maktab mudiri Rajab afandi salsa o'rab yurar ekan. Maktabga kelganimda muovina xonim meni to'g'ri mudir kabinetiga boshlab kirdi. Rajab afandining maorif bo'limiga ketganligini, hali-zamon kelib qolishini aytib, bir oz kutishni iltimos qildi.

Goh derazadan tanaffus bog'chasini tomosha qilib, goh devorda osig'liq turli-tuman yozuvlarni o'qishga tirishib yarim soatcha kutib o'tirdim.

Mudir nihoyat keldi. Yo'lda selga uchrab, kiyimi astar-avrasigacha ho'l bo'lib ketibdi.

Mudir meni kabinetida ko'rib:

— Xush kelding, qizim. Hozir maorif bo'limida aytishdi seni. Olloh jumlamizni muborak etsin, — dedi.

Mudirning oppoq yumaloq soqol o'rab turgan chehrasi ichida yumaloq yuzi, olma kabi qip-qizil betlari, javdirab turgan g'ilay ko'zlarini bor edi.

Ustidan oqayotgan suvlarga qarab:

— Oh, xudo ko'tarsin, shamsiyani olib chiqish esimdan chiqibdi. Rosa sho'rim quridi! Aqlsiz kalla jabrini oyoq tortar, deyishadi, lekin bu safar kiyim tortdi. Ayb qilma, qizim, bir oz qurib olmasam bo'lmaydi, — dedi.

Mudir choponini yecha boshladi. Men o'rnimdan turib:

— Afandim, sizni bezovta qilmay. Keyin kelarman, — deb tashqariga chiqmoqchi bo'ldim.

Lekin Rajab afandi qo'l ishorasi bilan meni joyimga o'tqazdi.

— Yo'q, jonio qizim, takalluf nima hojat! Biz senga ota o'rnidagi odammiz, — dedi.

Choponning ichida naparmon chiziqli sariq atlasdan nimchagami yo ko'ylakkami o'xshagan bir narsa bor edi. Yoqasiga qarasang ko'ylak deysan, cho'ntaklariga qarasang nimcha.

Rajab afandi stulini pechka yoniga surib o'tirdida, tovonlariga ot taqasiga o'xshatib juda katta mixlar qoqilgan ko'n botinkali oyoqlarini o'tga yaqinlashtirib, men bilan gaplasha boshladi.

Mudirning sandonga bolg'a urilganda chiqadiganga o'xshash yo'g'on va qulqlarni kar qiladigan dag'al ovozi bor edi. "Q" harflarini "G" shaklida talaffuz etardi.

— Juda ham yosh bola ekansan-ku, qizim! — dedi.

Hamma yerda eshitaverib jonio qarab so'zni u ham aytdi.

— Albatta, bu ish qo'lingga osonlikcha kirmagandir, lekin buni qo'lda saqlab qolish undan ham qiyinroq bo'lar, deb o'ylayman. Shuning uchun g'ayrat qilishing kerak. Mening muallimalarim ham o'z yo'llari bilan qizlarim o'rnidagi kishilar. Shu sababli nihoyatda o'zlarini og'ir, jiddiy tutishlari kerak. Bir vaqt muallimalarimdan bittasi ko'p xunuk ish qilib qo'ydi. Qorasi o'chsin! Maorif bo'limi bilan kelishib o'tirmasданоq, pasportini qo'liga berib quvib chiqardim. Shunaqa emasmi, Shahnoza xonim? Nima balo, og'zingga talqon solib olganmisan?

Shahnoza xonim, ya'ni maktab mudirining muovini yo'talmasdan turib biron so'z ayta olmaydigan o'rta yoshli, za'faron, xasta yuzli bir xotin edi. Anchadan beri bir narsa deyishga harakat qilayotganligini sezib o'tirardim. U asabiy bir tovush bilan:

— Ha-ha, shunday bo'luvdi, — dedi. Keyin so'z nvbatini qo'ldan bergisi kelmadimi, tomdan tarasha tushgandek qilib gapirdi:

— Hammollar ikki majidiyatdan kamiga unashmayapti, nima qilamiz?

Rajab afandi, ustidan bug' eshilib chiqayotgan nam botinkalariga o't ketayotgandek, birdan sakrab turdi.

— Bu muttahamlarni qarang, voy la'natilar-ey! O'lay agar, yuklarni o'zim orqalab tashiyman. Men telbaroq odamman. Aytdimmi — qilaman. Bor, borib ayt.

Keyin u yana menga yuzlandi:

— Sen ko'zlarimning g'ilayligini ko'ryapsanmi? Xudo nomi bilan qasam ichamanki, men bu ko'zlarimni ming liraga ham sotmayman. Odamlarimga mana shunday bir qarash qilsam bas, aql-hushlari boshlaridan uchadi-ketadi. Ya'ni, masalan, muddaom shuki, qiz degan narsa aql-xushli, odobli, yaxshi tarbiyalı bo'lishi kerak. Vazifasiga qusur yetkazmasin, tashqarida muallimalik nomiga isnod keltirmasın. Muovina xonim, dars vaqtি bo'lib qoldi deysanmi?

— Bo'ldi, afandim, qizlar sinfga kirishdi..

— Yur, qizim, seni o'quvchi qizlaringga tanishtirib qo'yay. Lekin xudo xayringni bersin, shu yuzingni avval yaxshilab yuvib ol.

Mudir afandi so'nggi so'zlarini bir oz tortinib, ovozini pasaytirib ayt. Men juda qattiq xijolat bo'lib qoldim. Tavba. Yuzimga bir narsa tegibdimi?

Muovina xonim bilan ko'z urishtirib olishdik. U ham men singari taajjubda edi.

— Nima, yuzimga bir narsa tegibdimi, afandim? — deb so'radim.

— Qizim, xotin zoti zebu ziynatga o'ch keladi. Lekin muallimalar yuz-ko'zlarini mana shunday bo'yab sinfga kirishsa — to'g'ri kelmaydi. Mening senga otalarcha nasihatim shu.

Men uyalib-tortinib:

— Lekin menda bo'yoq yo'q, mudir afandi, men haligacha yuzimga bo'yoq surtgan odam emasman, — dedim.

Rajab afandi ishonmasdan yuzimga tikilib:

— Ana xolos, ana xolos, — deyardi.

Men birdan sirga tushunib, o'zimni tutolmasdan kulib yubordim.

— Mudir afandim, siz aytgan bo'yoqlardan men ham kuyganman. Lekin nachora, xudo surtibdi, suv bilan yuvishning iloji bo'lmasa, — dedim.

Muovina xonim ham menga qo'shilib kula boshladi.

— Xonimning rangi tabiiy, afndim, — dedi.

Bizning kulgilarimiz mudir afandiga ham yuqdi. Uning kulishi ham odamlar kulgisidan boshqacharoq edi. "Xo-xo-xo" deb kulganda "x" harfini yangi maktabga kelgan bolalarga alifbe o'rgatayotgandek, dona-dona qilib chiqarardi.

— Ana u tomoshani qarang! Xudo beribdi, xudo... Xudo bir bersa birato'la beradi. Hay, muovina xonim, sen mana shunday chiroyli yuzni ko'rGANmisan? Qizim, onang senga sut o'rniga gulqand emizganmi? Voy xudo!

Rajab afandi nihoyatda yaxshi odam bo'lsa kerak. Anchagina kayfim ochildi.

U hamon ustidan bug'i chiqib turgan choponini kiydi, biz birga sinfga ketdik. Koridor derazalarining birida talabalarimni ko'rib, nafasim bo'g'zimga tiqildi. Biz ichkari kirdik. Yo rabbiy, muncha odam ko'p! Sinfda elliktacha qiz bola bor edi. Hammasi ham men tengi katta-katta qizlar. Bularning birdaniga menga tikilgan turli-tuman ko'zları qarhisida yerga kirib ketgudek bo'lib turardim.

Rajab afandi shu zahoti chiqib ketganida men juda yomon ahvolda qolardim, nimaga desangiz, o'zimni yo'qotib, shoshib qolgan edim. Xayriyatki, mudirda odamlarni o'z so'ziga quloq soldirish fazilati kuchli ekan.

— Qani, qizim, joyingga bor-chi! — deb guvilladi-da, meni qo'yarda-qo'y may kafedra stoliga chiqardi. Ke- yin uzundan-uzoq so'z boshladi. Voy xudo, nimalarni gapirmadi! Yevropaliklar-ku tabiiyotni, kimyonni, falakiyotni, riyozatni arablardan olgan ekan, xo'sh, nima uchun biz yevropaliklardan ilmi jadidni olmay, noma'qulchilik qilib kelamiz? Yevropaliklarning ilmu urfon va donishmandlik xazinalariga to'qinish, ularning bilim sohalari-dagi g'alabalariga chang solish — qonuniy talashdir. Bu talash to'plar, miltiqlar yordami bilan emas, balki faqat frantsuz tili orqaligina qilinar emish.

Mudir afandi dam sayin qaynab, jo'shib bordi. U quloqlarni qomatga keltiradigan momaqaldiroqdek dahshatli tovushi bilan guldirab gapijar, meni ko'rsatib:

— Dunyoning hamma mamlakatlari ega bo'lgan bilim xazinasining kaliti mana shu mushtumdek kichkina qiz qo'lidadir. Sizlar buning kichkinaligiga qaramanglar. Bo'yi sinchalakdek bo'lsa ham, ichi javohirlar bilan to'liqdir. Yoqasiga yopishing, bo'g'ziga chang soling, ilmini og'zidan oling, limondek siqib chiqaring!

U mal'un qahqahalardan birining boshlanishidan qo'rqib, sinfdan qochib chiqib ketish-

ga shaylanib turardim. Yo rabbiy, bema'ni kulgi meni bossa, sharmanda bo'laman! Men o'zimni mahkam tutib, sinfga birinchi marta ko'z tashladim. Ana xolos, ular ham kulishtyapti. Shunday qilib, tolibalarim* bilan aloqam shirin tabassumlar bilan boshlandi. Bu boqish, bu yashirin kulimsirash o'sha mahal bir-birimizning qalbimizga mehr soldi, deb o'ylayman.

Sinfda kulgi kuchayib bordi, buni axiyri mudir afandi ham sezib qoldi. U mushtini qarsillatib kafedraga urdi, ming liraga ham sotmaydigan g'ilay ko'zlarining qiyshiq qarashi bilan sinfga olaydi.

— Bu qanday gap?.. Bu qanday gap?.. A, bu qanday gap?.. Izzatini bilmagan nodonlar! Xotin zotini erkalatib bo'lmaydi. Xudo ursin, hammangni majaqlab tashlayman! Yum, og'izlaringni! Kuydirgan kalladay nimaga iljayasanlar?

Qizlar bu do'q-po'pisaga uncha parvo qilmas edilar. Ulardan ko'ra men ko'proq qo'rqb ketdim.

Mudirning nutqi yana o'n besh minutcha davom etdi. Sinfda yana kulgi kuchaygudek bo'lsa, Rajab afandi stolga musht uring, yarim hazil, yarim jiddiy o'kirik bilan:

— Nimaga tirjaysanlar? Hozir hammangni omburga olaman! — deb baqirardi.

So'zining oxirida Rajab afandi yana bir marta qichqirib:

— Etagiga mahkam yopishinglar, yoqasini qo'ldan chiqarmanglar, ilmini limondek siqib olmasangiz, onangizdan, otangizdan, davlatdan, xalqdan yegan noningiz harom bo'lsin! — dedi-da, sinfdan chiqib ketdi.

Tolibalarim bilan yolg'iz qolgan shu dastlabki minutim nechog'lik og'ir bo'lishini o'ylamagan ekanman. Ertadan-kechgacha tinmay gapiradigan mahmadona Choliqushi, tut yegan bulbuldek, og'zini ocholmay qoldi. Miyamda hech qanday fikr yo'q, u bo'm-bo'sh edi. Aytishga bir og'iz so'z topa olmas edim. O'zimni tutolmay, ixtiyorsiz kulimsiray boshladim. Xayriyatki, tolibalarim meni hali ham mudir afandining so'zlariga kulyapti, deb o'ylashibdi. Ular ham ko'zlarimga tikilib kulimsiray boshladilar. Ana shunda birdan yuragimga jasorat kirdi. Endi o'zimni ancha bosib oldim.

— Xonimlar, — deb so'z boshladim, — men bir oz frantsuzcha bilaman, agar sizlarga shuning nafi tegsa, o'zimni baxtiyor deb bilardim.

Yuragimdag'i qo'quv tarqalib, endi tilim chiqib qoldi. Ortiq qiyalmay so'ylar, qizlarimning sekin-sekin menga elikayotganliklarini sezib borardim. Shunday katta xonimlarni qizlarim deyish naqadar baxt! Faqat ko'proq kulishadi, bu menga yoqmaydi. Kulishsa-ku mayli-ya, Rajab afandi ming liraga sotmaydigan qiyshiq qarashi bilan sinf derazasidan ko'rib qolsa yomon bo'ladi. Shuning uchun tolibalarimga kichikkina tanbeh qilishni lozim ko'rdim.

— Xonimlar! Kulishlaringiz tabassum doirasidan chiqib ketmasin. Sizlarga do'q qilish uchun mening qo'llimda mudir afandi aytgan omburga o'xshash hech nima yo'q. Faqat sizlardan xafa bo'laman, xolos, — dedim.

Qisqasi, birinchi darsim yaxshi o'tdi. Sinfdan chiqayotganimda qizlardan biri yonimga kelib, mudir afandi nima uchun ombur deganligini tushuntirib berdi. U ko'p kuladigan qizlarga "Tishlaringni ombur bilan sug'urib olaman", deb do'q urarkan.

* * *

B..., 28 mart.

Qizlarimdan ko'p, juda ko'p xursandman. Meni shu qadar yaxshi ko'rib qolishdiki, tannaffus mahallarda ham izimdan qolishmaydi. Hamkasblarga kelsak, to'g'risi, ularni ham yomon odamlar deb bo'lmaydi. Menga sovuq qaraydiganlar, muallimlar xonasining bir burchagida yer ostidan xo'mrayishib, men to'g'rimda xunuk narsalar shivirlashadiganlar

ham yo'q emas. Ne ajab, odam uyida ham hammani bir xil yaxshi ko'ra olmaydi-ku.

O'qituvchilar orasida istambullik Naziha bilan Vasfiya degan ikkita yosh juvonni yaxshi ko'rib qoldim. Bular bir-birlaridan hech ayrılmaydilar. Lekin muovina Shahnoza xonim, bular bilan yaqin aloqa qilmang, deb aytdi menga. Ammo nima uchunligini bilmayman. Bulardan boshqa yana ikkita tanishim ham bor. Biri bir mahallar markaziy rushdiyada meni mudofaa qilgan uzun bo'yli, timqora ko'zli muallima xotin. Bu yerda haftada bir kun dars beradi. Mudir afandining g'ilay boqishlaridan qo'rqlaydigan birdan-bir o'rtog'imiz shu. Aksincha, Rajab afandining o'zi undan hayiqadi, moviy chonining yoqasini ushlab: "Juda fe'li yomon-da! Shundan bir qutulsam bormi, xudo haqqi, ko'zim tuzalib ketadi!" deydi. Ikkinci tanishim — tishlari otnikiga o'xshagan, ko'zoynaklarini hech vaqt olmaydigan keksa muallima. Istambulda turgan kezlarimda ko'pincha shahar atrofi poezdiga birga tushib qolardik. Go'ztepa tomonlarida, allaqaerda muallimalik qilardi. Kampir meni taniganmi, yana yuzimga tikilib:

— Xudoyo tavba! Shunchalik bir-biriga o'xshagan odamlarni umrim bino bo'lib ko'rgan emasman. Bir mahallar poezdddha bitta sho'x maktab qizini ko'rib yurardim. Sizga shunaqa ham o'xshaydiki!.. Lekin, u nazarimda, frantsuz edi shekilli. U shunday sho'xlik qilardiki, butun vagon ichagi uzilgudek bo'lib kulardi,— deydi.

Men ham ko'zimni olib qochib:

— Ehtimol, shunaqa ham bo'ladi, — deyman.

Maktabda bir necha erkak muallimlar ham bor. Masalan, Zohid afandi. Bu keksa kishi din darsi beradi. Geografiya o'qituvchisi, iste'foga chiqqan mo'ysafid polkovnik Umarbey. Ismini men bilmaydigan bir yozuv muallimi va musiqa muallimi Shayx Yusuf afandi; bu faqat maktabgagina emas, butun B... shahriga shuhrati ketgan kishi. Yusuf afandi haqiqatan ham bir mahallar Mavloviylar sulukiga shayxlik qilgan. Bechora bir necha yil avval qattiq og'rib, sil kasaliga yo'liqsan. Doktorlar joyini o'zgartirmasa o'lishini aytgalar. Shuning uchun tul opasi bilan ikki yil avval B... shahriga ko'chib kelgan. U hozir opasi bilan kichkina bir uyda turar emish. Ana shu kichkina uyni ko'rgan-bilganlar uni musiqa muzeyiga o'xshatadilar. Har cholg'udan, har sozdan bor emish. Shayx afandi bu yerda mashhur bastakor sifatida ham tanilgan. Uning asarlari kuylanar, chalinar, odam ularni yig'lamasdan tinglay olmas ekan.

Men uni birinchi marta yomg'ir yog'ib turgan bir kunda ko'rdim. Tanaffusda o'quvchi qizlarim bilan birga boqqa chiqib, bir oz havo olib kelmoqchi bo'ldm. Men u yerda yangi to'p o'yinini ko'rsatdim, birga o'ynashdim, anchagina bahrimni ochdim. Ichkariga kirganimda qora ko'ylagim ivib ketgan edi. Joyi kelganda shuni ham aytib ketayinki, men ixtiro etgan muallimalik ko'ylagi sekin-sekin boshqalarga ham rasm bo'la boshladi. Hatto o'quvchi qizlarim ham tiktirib kiyishadigan bo'lishdi. Mudir afandi ko'ylakning rangiga qo'shilmay:

— Musulmon qizi qora kiyishi to'g'ri kelmaydi! Yashil bo'lishi kerak, — deyardi.

Biz esa, shunisi yaxshi, kirchimol, deb unisiga unamas edik. Muallimlar bo'imasida atrofi kafelli kattakon pechka yonib turardi. Ikki devor burchagi bilan shu pechka orasiga kirib, ko'ylagimni quritayotgan edim. Qo'llarim cho'ntaklarimga solingan edi. Shu mahal eshik ochilib, o'ttiz besh yoshlardagi nozik, novcha bir afandi kirib keldi. U erkak o'qituvchilarimiz singari fuqaro kiyimida edi. Shunday bo'lishiga qaramay, yuqorida ta'rif qilin-gan Shayx Yusuf afandi xuddi shu kishi ekanligini payqadim. Maktabda uni juda yaxshi ko'rishadi. Muallimlar darrov uni o'rab olishdi, paltosini yechintirishdi. O'zimni pechka panasiga olib turib, yer ostidan unga qaradim. Yumshoq, xushmuomala odam ekan. Zahil yuzida ko'pincha o'lishga mahkum bo'lgan kasallardagi rangsiz, nozik, tiniq oqchilik bor edi. Chiroyli sariq soqoli, och ko'k ko'zlari menga pansiondagi olaqorong'i dahlzlarda mungli-mungli kulimsiragan Iso suratlarini xotirlatdi. So'zlari tasvirdan ojiz,

naqadar shirin edi. Bu halim, shirin ovozda bilinar-bilinmas bir shikoyat ohangi bor edi. Bu — kasal bolalarning ovozida bo'ladigan ezgin, g'amgin shikoyatning o'zginasi edi. O'zini o'rab olgan o'qituvchilarga hech tinib bitmagan yomg'irdan shikoyat qilar, ochiq havolarni sabrsizlik bilan kutayotganligini aytar edi. Shunda bir zumgina ko'zlarimiz bir-biriga to'qnashdi. Qorong'i burchakda turganim uchun meni durustroq ko'rish niyatida ko'zlarini xiyol qisib qaradi. Keyin:

— Kim bu kichik xonim, tolibalarimizdan emasmi? — deb so'radi.

O'qituvchilarning hammasi birdan men tomonga qarashdi. Vasfiya xonim esa kulib turib:

— Kechiring, bey afandi, tanishtirish esimizdan chiqibdi. Yangi frantsuz tili o'qituvchimiz Farida xonim, — dedi.

Turgan yerimdan boshimni egib salom berdim.

— Buyuk bastakorimiz bilan tanishganim uchun juda mammunman, afandim, — dedim. San'atkorlar bunday gaplarga juda moyil bo'lismadi. Shayx Yusuf afandining oqish chehrasida zaif bir qizillik paydo bo'ldi. Qo'llarini qovushtirib, bo'ynini egdi.

— Kaminangiz bastakor martabasiga loyiq bo'ladigan biron asar yaratganiga imoni komil emas. Agar ba'zi bir mayda narsalarim maqtovga sazovor bo'lgan bo'lsa, bu Hamid va Fitrat kabi ba'zi buyuk shoirlardagi ilohiy g'ussani samimiy bir ovoz bilan ifoda etish-dan iboratdir, — dedi.

Qisqasi, bu Yusuf afandini o'z akamdek yaxshi ko'rib qoldim.

* * *

B..., 7 ap-rel.

Mening eng katta orzularimdan biri ushaldi. Kecha bir kichkina, chiroyli, toza uyga ko'chib kirdik. Xudo xayrini bersin, buni menga Hoji xalfa topib berdi. Yonida bog'chasi bor bu uch xonali kichkina, shiringina uy Hoji xalfanikidan atigi ikki-uch minutlik masofada. Hammasidan ham yaxshisi shu bo'ldiki, bu uyni ichidagi ashyosi bilan ijara berdi-lar.

Kecha Munisa ikkimizning suyunchimiz ichimizga sig'may ketdi. Uyni tozalab, narsalarni joy-joyiga qo'yishimiz kerak edi. Qayoqda! Kulishdan, bir-birimizni quvishdan, o'ynoqlash, quvonishdan boshqa narsaga qo'limiz tegmadi... Bechora Munisa ko'zlariga ishonmay, o'zini saroya kirib qolgandek his etardi. Faqat Mazlum (cho'pon Mehmet bizza hadya qilgan uloqning otini Mazlum qo'yidik) bizni yomon qo'rqihib bordi. Bu yaramas ochiq qolgan oshxonada eshididan bog'chaga, u yerdan xuddi tagi minoradek tik jarlikka qarab chopib ketdi. Xudo bir saqladi, yana bir qadam bossa to'g'ri jarga qulab ketardi. Lekin bu shayton maxluqlar oyoqlarini qaerga qo'yishni mendan yaxshiroq bilishadi. Harholda, uni tutib ichkariga olib kirguncha, yuraklarimiz yorilgandan battar bo'ldi.

Ha, uyimizdan nihoyatda xursandmiz. Munisa sahndagi moviy kafellar ustida yuguradi, sirg'anadi, devordagi gul rasmlarini qo'llari bilan siypab quvonadi.

Faqat kechqurunlari, qosh qoraya boshlaganda bir oz o'ksib qolamiz. Qo'shnilarikiga qo'llarida tuguncha bilan otalari, aka-ukalari kelishadi. Bizning uyimizni esa bu soatlarda hech kim yo'qlamaydi. Bir umr shunday bo'lib qoladi.

Bu yurtning bahori shunday ajoyib bo'lar ekanki... Hammayoq ko'm-ko'k bo'lib ketdi. Bog'chamda rang-barang gullar ochildi, xonamning derazalariga chirmovuqlar chirmasha boshladi. Bog'chamizning etagidagi tik jarlik yashil shonalarga o'xshab qoldi. Bu yashiliklar ichida lolalar yangi yaralardeq qip-qizil bo'lib ochiladi. Butun bo'sh kunlarimni bog'chada Munisa bilan bekinmachoq o'ynash, arqonda sakrash bilan o'tkazamiz. Char-chagan kezlarimizda men rasm solishga o'tiraman, Munisa esa ulog'i bilan chaman ichida

cho'zilib yotadi. Menda rasm solish havasi yana uyg'ondi. Bir necha kundan beri suvbo'yoq bilan Munisaning rasmini chizmoqdaman. Yaramas qiz tek turib bersa, surat allaqachon bitgan bo'lardi, lekin jim turish joniga tegadi. Boshida dala gullaridan qilingan chambar, yalang'och qo'llarida uloq bilan ro'paramda jim o'tirishga toqati yetmaydi.

Ba'zan Mazlum unamasdan uzun, ingichka oyoqlarini tipirchilata boshlaydi. Ana shunday paytlarda Munisa irg'ib o'rnidan turadi-da:

— Opajonim, xudo haqqi, men jon-jon deb turib berardim-u, lekin Mazlum unama-yapti, nima qilay! — deb ochib ketadi.

Men jahlim chiqib barmog'im bilan unga po'pisa qilaman:

— Nima, men sening shaytonligingni bilmaymanmi? Sen jo'rttaga jonivorni qitiqlayapsan!

Maktabdagi darslarim ham yomon ketayotgani yo'q. Mudir afandi mendan juda xursand. Faqat kulishni yaxshi ko'rganim uchun ba'zan mendan xafa bo'lib qoladi.

— Ha-da, senga ham ombur olib kelaman-da! — deydi.

Men yolg'ondan lablarimni burib:

— Nachora, domla afandi. Ustki labim bir oz kaltaroq, shuning uchun jiddiy turganimda ham meni kulyapti deb o'ylaysiz, — deyman.

Mudir afandi nimagadir chet tillarga havas bilan qarardi. Allaqanday bir eski farantsuz alifbesini topib olib, hijjalab o'qib yuradi. Ba'zan mendan so'zlarning ma'nosini so'rabi oladi-da, darslik chekkasiga qora qalam bilan yozib qo'yadi.

Shayx Yusuf afandi bilan juda inoqlashib ketdik. Bu nozik, g'amgin bemor menga juda yoqadi. U ovozida yashirinib yotgan shikoyatli ohang bilan shunday go'zal, shunday alovat narsalar aytadiki...

O'n kun avval juda g'alati hodisa ro'y berdi. Maktabimizda keraksiz eski ashyolar tiqib tashlangan bir zal bor. O'sha kuni bir o'quv jadvali olish uchun shu zalga kirdim. Derazalar yopiq bo'lgani sababli zal ichi kechqurungiday olaqorong'i edi. Tevaragimga qaragan edim, burchakda chang bosib yotgan bir eski organga* ko'zim tushdi. Birdan yuragim shirin-shirin ura boshladidi. Keyin yuragimga mung cho'kdi. Bolalik chog'larimning baxtiyor kunlari shu organ chalgan og'ir, chuqur ilohiy kuylar ichida o'tgan edi. Unutilgan do'stning mozoriga yaqinlashayotgandek, titroq ichida uning yoniga keldim. Zalga nima uchun kelganimni, qaerda ekanligimni unutgan edim. Sekin oyog'imni bosdim, klavishlardan biriga barmog'imni qo'ydim. Organ yarali ko'ngildan kelayotgandek og'ir, dardli sado berdi. Oh, bu sado!

Nima qilayotganligimni o'ylab o'tirmasdan yoniga kursi keltirib qo'ydim. Organ yoniga o'tirib, yaxshi ko'rgan cherkov gimnlaridan birini sekin, g'oyat sekin chala boshladim.

Organni tinglab turib, sekin-sekin o'zimni yo'qota bordim, og'ir bir ro'yo qa'rige tortila boshladim. Maktabimning olaqorong'i koridorlari ko'zlarim o'ngida gavdalanan, qora fartug'li, kalta sochli maktabdosh dugonalarim shu dahlizdan to'p-to'p bo'lib o'tardi. Bu yerda qancha qolib ketganligimni, nimalar chalganimni bilmayman. O'tgan kunlarimning o'tgan ro'yosiga o'zimni tamomila taslim etgan edim.

Orqamda chuqur bir xo'rsinish, yaproqlar orasidan shamol o'tayotganligiga o'xshash bir tovush eshitdim. Yengilgina titrab boshimni o'girdim. Olaqorong'ilikda ko'zimga Shayx Yusuf afandining sarg'ish siymosi ko'rindi. Bir siniq javonga suyanib, boshini so'lintirgan holda quloq solib turar, ko'k ko'zlarida chuqur bir hasrat bor edi.

To'xtaganimni ko'rib:

— Davom et, bo'tam, davom et, iltimos qilaman, — dedi.

Men javob bermadim. Organ ustiga boshimni yana ham engashtirib olib, ko'zdagi yoshlarim quriguncha chaldim. Keyin hiq-hiq nafas olib, ezg'in, tolg'in bir holda o'rnidan turdim.

— Sizda naqadar chuqur musiqa iste'dodi, naqadar hassos bir qalb bor ekan, Farida xonim! Bola qalbining shu qadar chuqur qayg'uni qanday his eta olishiga ajablanaman.

Men o'zimni parvosiz ko'rsatishga tirishib:

— Bular gimn deb atalgan diniy qo'shiqlardan biri. Ha, ko'pincha shunaqa g'amgin bo'ladi bular, afandim. G'am menda emas, kuylarda, — dedim.

Yusuf afandi so'zlarimga ishonmadi, boshini tebratib:

— O'zimni san'at ustasi deb hisoblay olmayman, — dedi. — Lekin bir musiqa parchasi chalinganda undagi fazilatlarning qaysi biri bastakorga, qaysi biri ijrochiga oid ekanligini aniqlashda yanglishmayman. Ashulachilarining ovozlaridagi singari ijrochilarining barmoqlarida ham o'ziga xos to'lqinlar bo'ladi, bu esa faqat hassos qalbdangina kelib chiqadi. Shu gimn deb aytgan diniy ashulalarining notasini menga hadya qilishingiz mumkinmi?

— Bular quloqqa o'tirib qolgan narsalar, afandim, notalarni qaerdan bilay?

— Hechqisi yo'q. Bir kun vaqt bilan organ yoniga o'tirib chalib bersangiz, kaminangiz ham ijozatingiz bilan daftarga yozib oladi. Bir vaqtlar vafot qilib ketgan bir qari popdan kaminangiz ham bitta organ sotib olgan edi. Musiqa asboblariiga menda juda katta qizi-qish bor, afandim. Men uni o'z xonamning burchagiga qo'yganman... Shu narsalarni men ham chalishni istardim.

Bir-birimiz bilan gaplashib zaldan chiqdik. Ajralish paytimizda Shayx Yusuf afandi menga yozilib shunday dedi:

— Menda juda qattiq hasratga cho'kkon paytlarimda yozilgan parchalar bor. Hali bularni hech kimga chalib berganim yo'q. Tushunishmaydi, ishonaman. Xudo nasib buyursa, shularni sizga bir kun chalib beraman. Nima deysiz, kichik xonim?

Bu voqeal Shayx Yusuf afandi bilan bo'lgan inoqligimizni yana bir karra oshirdi. Va'da qilgan parchalarni hali eshitganim yo'q. Lekin juda chiroyli narsalar bo'lishiga shubha qilmayman. Chunki bu xasta hassos kishi bir parcha taxtaga tegib ketsa ham, taxtadan mung chiqadi, deb o'layman. Bir necha kun aval bolalardan biri o'zi sotib olmoqchi bo'lgan bir udni keltirib ko'rsatdi. Shayx Yusuf afandi barmoqlarining uchini ud torlariga tekkizganda menga shunday tuyuldiki, bu nozik barmoqlar udga emas, ko'nglimning ichichiga tekkanday bo'ldi.

* * *

B..., 5 may.

Kecha bir yomon ish qilib qo'ydim. Ma'lum bo'lib qoladi, deb yuragim titraydi. Qilgan narsamning yomonligini bilaman, lekin nachora? Ko'nglimning xohishi shunday bo'ldi.

Muallimlar haftada bir marta kechqurun mактабда navbatchilik qiladilar. Kecha menning navbatim edi. Kechqurun qizlar sinflarda dars tayyorlab o'tirganlarida, biz Shahnoza xonim ikkalamiz mактабни ko'zdan kechira boshladik. Sinflardan biridagi lampa yaxshi yonmayotganini ko'rib ichkari kirdik. Muovina xonim nihoyatda epchil, bilarmon xotin. Qo'lidan har ish keladi. Kursiga chiqib lampani tuzata boshladi. Shu vaqt eshikdan qari xodima kirib keldi. Qo'lida maktub bor edi, u orqadagi partada o'tirgan bir o'quvchi qiz yoniga keldi. Xodima xatni qizga endi uzatgan edi, muovina xonim turgan yeridan:

— To'xtang, Oysha! U nima? — deb qichqirdi.

— Hech... Jamila xonimga berib qo'yinglar, deb mактаб qorovuliga shu xatni tashlab ketishgan ekan.

— Menga ber uni. O'quvchi qizlarga kelgan xatlarni avval men ko'rishim kerak, deb necha marta sizlarga ta'kidlagman. Muncha aqlsiz xotinsan!

Shu dam kutilmagan hodisa ro'y berdi. Jamila o'rnidan sapchib turdi-da, xodimaning qo'lli-

dan xatni tortib oldi.

Shahnoza xonim vazminligini buzmay:

— Bu yoqqa kel, Jamila! — dedi.

Lekin Jamila tirdan yeridan qimirlamadi.

— Bu yoqqa kel, deyapman senga, Jamila, nega bo'ysunmaysan?

Ozg'in kasmalmand Shahnoza xonimning ovozi shu qadar kuchli ediki, men titrab ketdim. Sinfga chuqur bir sukunat cho'kdi. Pashsha uchsa eshitilar edi.

Jamila boshini solintirib, sekin-sekin yonimizga keldi. U o'n olti-o'n yetti yoshlarda, xushro'ygina qiz edi. Men hamisha dugonalaridan qochib, bog'da, burchak-burchakda o'zi yolg'iz xayolga cho'kib yurganligini ko'rар edim. Darslarda ham o'ychan, g'amgin o'tirardi.

Qiz yuzini yaqindan ko'rib, uning iztirobda ekanligini angladim. Yuzida bir tomchi qon qolmagan edi. Qarshimizda bosh egib turar, lablari titrar, qovoqlari xuddi uchayotgan-dek, Kipriklari pirpirar edi.

— Jamila, xatni menga ber.

— ...

Muovina xonim, g'azabiga chiday olmay, yer tepindi.

— Ber, nimaga anqayib turibsan?

— Nega endi, muovina xonim, nega?

Ana shu "nega" so'zida, mana shu bir og'iz so'zda g'amgin bir isyon bor edi. Muovina xonim qo'pol bir harakat bilan qo'lini cho'zib, qiz changalidan maktubni oldi. Keyin:

— Bor, joyingga borib o'tir, — dedi.

Shahnoza xonim konvertga qaradi-yu, qoshlarini chimirdi. Lekin o'zini yo'qotmadni. Chuqur sukunatda ekanligiga qaramay, hayajon ichida ekani oshkor sezilib turgan sinfga xitob qildi:

— Xat Jamilaning Suriyadagi akasidan kelibdi. Lekin menga itoat qilmagani uchun xatni ertagacha bermayman, — dedi.

Qizlar yana kitob o'qishga tutindilar. Muovina xonim bilan chiqib ketayotib, sinfga yer ostidan ko'z yogurtirdim. Orqa partalarda o'tirgan bir necha qiz bir-biri bilan allanimalar to'g'risida shivirlashardi. Jamila esa boshini partasiga qo'yib olibdi, yelkalari dir-dir titrardi.

Koridorda ketayotib, muovina xonimga:

— Jazoingiz og'ir bo'lidi, — dedim. — Ertagacha qanday qilib chidaydi. Kim bilsin yuragi sabrsizlikdan yorilayotgandir.

— Tashvish qilma, qizim. U bu xatni hech vaqt o'qimasligini biladi, tushundi.

— Qanday qilib, muovina xonim? Nahotki, akasidan kelgan xatni bermasangiz?

— Bermayman, qizim.

— Nima uchun?

— Chunki akasidan kelgan emas.

Muovina xonim ovozini yana ham pastroq qilib so'zida davom etdi:

— Bu Jamila tappa-tuzuk odamning qizi. Shu yil bir yosh leytenantni yaxshi ko'rib qolibdi. Otasi bo'lsa hech ham rozi emas. Qiz uyda ham, matabda ham nazorat qilib yuriladi. Leytenantni Bandirmaga yuborishdi. Biz bu qizaloqni sekin-sekin leytenantdan sovutmoqchimiz. Lekin u bechora qizning yarasini tez-tez yangilab turadi. Bu qo'limga tushgan uchinchi xati.

Biz gaplasha-gaplasha muovina xonimning kabinetiga kirdik. Shahnoza xonim dag'al bir harakat bilan xatni g'ijimladi-da, pechkaning qopqog'ini ochib, ichiga tashladi.

Vaqt yarim kechaga yaqinlashib qolgan edi. Men navbatchi muallimalar xonasida uyqum kelmay o'tirgan edim. Nihoyat, qarorga keldim. Koridorda aylanib yurgan nav-

batchi xodimani bir bahona bilan pastga tushirib borib, muovina xonimning bo'sh kabinetiga kirdim. Pardalari ochiq qolgan bir derazadan xira oy yog'dusi tushib turar edi. Bamiisol tungi o'g'ridek titrab, pechkaning qopqog'ini ochdim. Yirtilgan, ezilgan qog'oz parchalari ichidan Jamilaning baxtsiz maktubini topdim.

Navbatchilik qilgan kechalarimda hamma uxlagandan so'ng bo'sh koridorlarda, sharpasiz, qorong'i yotoqxonalarda aylanib yurish menga nihoyatda yoqadi. Bir yerda usti ochilib ketgan kichkina qizning ko'rpasini yopib qo'yaman, boshqa yerda yo'talayotgan kasal bolaning ko'rpasini tuzataman, yonib turgan boshchasiga qo'llimni bosaman, nariroqda chiroyli sochlarini yostiqda to'zg'itib, boshqa bir qiz uxlayapti. "Yarim ochiq, nozik lablari bilan nima tilakda kulyapti ekan?" — deb o'zimdan so'rayman.

Bir necha qizcha uxbab yotgan bu olaqorong'i, sharpasiz yotoqxonalarga og'ir-og'ir ro'yo buluti cho'kkandek ko'rindi. Ana shu bulutni tarqatib yubormaslik, bechoralarni shirin tushlaridan bevaqt mahrum qilmaslik uchun oyoqlarimning uchida, yuragim takapuka bo'lib yuraman.

O'sha kechasi Jamilaning yotog'iga kelsam, bechora endi uxlagan ekan. Buni kipriklarida hali qurib ulgurmagan ko'z yoshlardan fahmladim.

Sekin boshi ustida egilib:

— Baxtiyor kichkina qiz, — dedim, — sevgilingdan kelgan matubni maktab fartug'ining cho'ntagidan topganingda, kim bilsin, qanchalik sevinarkinsan! Qo'lingdan ketgan bu qimmatli narsani qaysi bir tun parisi bu yerga keltirib qo'yanini o'z-o'zingdan so'rarsan! Jamila, u tun parisi emas, shunchaki bir bechora, nafrat qilgan bir kishisidan kelishi mumkin bo'lган xatlarni har doim qalbining bir parchasi bilan qo'shib yoqishga mahkum bo'lган bir baxti qarodir...

* * *

B..., 20 may.

Kecha maktabda o'qishlar tamom bo'ldi. Uch kundan ke-yin imtihonlar boshlanadi.

B... dagi butun xotin-qizlar maktablari bugun shahardan bir soatlik masofada oqadigan daryo bo'yida may bayramini o'tkazadilar. Men ko'pchilik bilan o'tkaziladigan bunday sayri sayohatlarni yoqtirmayman. Shuning uchun u yoqqa bormay, o'sha kunni o'z bog'chamda o'tkazishni niyat qildim. Lekin Munisa, maktab qizlarining qo'shiq aytib o'tganlarini ko'rib, xafa bo'la boshladi. Endi uni yupatishga o'tirgan ham edimki, birdan eshik taqillab qoldi. Chiqsam, birga ishlaydigan muallimalardan Vasfiya bilan so'nggi sinfda o'quvchi bir qancha qizlar ekan. Meni darrov oldingga solib kel, deb mudir yuboribdi.

Rajab afandi:

— Xudo haqqi, men unga atab qo'zi so'ydirgan, halvo pishirtirgan edim. Bu qanday bema'nilik! Yaramaydi afandim, yaramaydi! — deb baqirib beribdi.

Qizlarga kelsak, ular ham so'nggi sinf nomidan iltimos qilgani kelishibdi.

— Ipak qurti chiqmasa, biz ham chiqmaymiz! — deb qizlar turib olishibdi.

"Ipak qurti" — mening yangi laqabim. Choliqushi bitdi. Endi "Ipak qurti" chiqdi. Eng yomoni shuki, yoshi ulg'ayib qolgan qiz o'quvchilarim meni "Ipak qurti" deb yuzimga aytishdan tortinishmaydi. Xudo haqqi, bu narsa izzat-nafsimga, muallimalik sha'nimga qat-tiq tegadi. Bu laqab maktabda qolsa bir navi edi-ya, zorlanmas edim. Lekin ilgarigi kuni qahvaxonalarining biri yonidan o'tib ketayotganimda badavlat bir ipakfurush ekanligi taraf qilingan cholvorli, choponli qo'pol bir kishi ovozining boricha baqirib:

— Sakkizta tutzorum bor! Sakkizovi ham mana shu bitta "Ipak qurti"ga qurban bo'lsin! — desa bo'ladimi? Shunday uyalib ketdimki, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Ik-kilamchi u ko'chaga oyoq bosmay qo'ydim.

Men mushkul ahvolda qolgan edim. "Bormayman", desam, "noz qilyapti" deyishadi,

masxara qilishadi. Shuning uchun chor-nochor chodramni yopinib birga chiqib ketdim.

Kichik qizlarga oq kiyimlar kiydirishibdi. Daryo labida oq gullar chaman-chaman ochilib turardi. Bu shaharda, tavba, xotin-qizlar maktabi shuncha ham ko'p ekan. Yashil bog'lar orasidagi so'qmoq yo'llardan ashulalar aytib kelayotgan maktab qizlarining oxiri ko'rinas edi.

Erkak o'qituvchilar daryoning narigi yuzidagi bir chakalakzorga to'planishibdi. Bizning oramizda faqat Rajab afandigina ko'kish choponi, kattakon qora shamsiyasi bilan aylanib yurar, bir chekkada toshdan o'choq qilayotgan oshpazga baqirib-chaqirib bir nimalar buyurardi. Muallimlar bilan katta yoshli o'quvchi qizlar chodralarini tashlab, ochiq yuz bilan yayrashga mudir afandini zo'rg'a ko'ndirib, axiyri uni erkaklar to'piga jo'natdilar.

Bilmayman, bugun nima uchundir odamlar ko'nglimga sig'mas edi. Bu yuzlarcha qiz bolalarning xushchaqchaqligi, shodu xurramligi meni charchatar, yuragimga qayg'udan, g'amdan boshqa narsa bermas edi.

Bir yonda boshlang'ich maktab qizlari musiqa bilan ashula aytishar, boshqa bir yonda bir to'da yosh qizlar bir-birini itarishib, qichqirishib, to'p o'ynashar yoxud asir olish o'yinini o'ynashar, nariroqda bolalar, katta yoshdagagi ayollar she'rlar o'qir yoxud deklomatsiya o'qiyotgan boshqa bir bolani olqishlar edilar.

Munisa odamlar ichida yo'q bo'lib ketdi. Yaramas qiz men bilan o'tirarmidi!

Uzoqda, baland bir jarlik yoqasida bir necha kashtan daraxti bor edi. Yosh muallimlardan ba'zilari katta o'quvchi qizlar bilan shu yerga arg'imchoq solishdi. Qalin yaproqlar orasida rang-barang ko'ylaklar ko'zga chalinib ketar, hammayoqda qichqiriqlar, qahqahalar eshitilardi.

Men olomondan sekin ajralib chiqib, daryo bo'yiga tushdim-da, o'sha yerdagi kattakon qoya ko'lankasiga kelib o'tirdim. Tosh oralarida bitgan rangsiz, jonsiz sariq gullarni uzib, oyoqlarim tagida oqib turgan suvgaga otardim. O'zim chuqur-chuqur o'ylardim.

Birdan orqamda birov ingichka tovush bilan:

— Topdim! "Ipak qurti" shu yerda ekan! — deb chinqirib yubordi.

Meni arg'imchoqda uchirgani qidirib yurishgan ekan. Meni qo'yarda-qo'ymay sudrab olib ketishdi. "Xohlamayman, charchaganman, arg'imchoq uchishni bilmayman" desam ham qo'yishmadi. So'zimga muallimalar ham, o'quvchi qizlar ham qulq solishmadi. Muruvvat xonim, ya'ni meni bir vaqtlar markaziy rushdiya maktabida himoya qilgan timqora ko'zli muallima men bilan uchmoqchi ekanligini aytdi. Arg'imchoqlardan biriga chiqdik. Lekin, afsus, qo'llarim titrar, oyoqlarim gavdamni ko'tarishdan ojizdek bukilar edi. Bechora Muruvvat bir necha bor uchgandan keyin voz kechdi.

— Bekor ovora bo'lyapmiz... Sen chindan ham, uchishdan qo'rqaqsan. Yuzing dokaday oqarib ketdi, yiqilasan, — dedi.

Tushki ovqatda mudir afandi biz bilan bo'ldi. Mening bugungi kayfsizligimni u ham sezgan edi. Ora-sira:

— Hoy, nega kulmaysan, xufton qiz? Kulma deganimda nuql kulasan. Endi esa qovog'ingdan qor yog'yapti,— deb qichqirar edi.

Boyoqish ovqatdan keyin ham izimdan qolmadi. Maktabdan men uchun samovar ham oldirib kelibdi. Menga o'z qo'li bilan choy damlab bermoqchi bo'ldi. O'qituvchilardan biri meni uzoqdan imladi. Men asta yoniga bordim. U:

— Xodimalardan birini yuborib tanbur oldirib keldik. Nariroqqa borib, Shayx Yusuf afandiga bir tanbur chaldiraylik. Har nima qilib bo'lsa ham bu laqmaning qo'lidan qutulib kel, — dedi.

Haqiqatan ham bunday fursatni qo'ldan chiqarib bo'lmas edi. Shayx Yusuf afandining musiqasi meni hamon rom qilib borar edi. Bechora ancha vaqtdan beri betob bo'lib qolib, maktabga kelmay yurardi. Faqat bir necha kun avvalgina oyoqqa turganligini eshitdik.

Bugungi maktab bayramiga ko'ngli qo'msab kelibdi.

Muallimlarimiz Shayx Yusuf afandini bir amallab erkaklar oldidan chaqirib olishdi. Sakkiz-o'n ayol bir bo'lib, o'zimizni hech kimga ko'rsatmaslikka tirishib, soy bo'yidagi so'qmoq yo'l bilan yurib ketdik. Shayx afandining bugun kayfi yaxshi, bahri ochiq edi. Yo'l uzoqlashgan sari uning charchab qolishidan qo'rqqanlarga kulib:

— Menga qolsa so'qmoq hech tugamasin, charchamay keta beraman. Bugun o'zimni juda dadil, baquvvat his qilyapman, — dedi.

Dugonalarimdan biri qulog'imga yaqin kelib erkak muallimlardan ba'zilari xilvatda aroq ichishganlarini, Shayx afandiga ham bir necha qadah berishganini aytdi. Yusuf afandining kayfi chog'ligi balki shu sababdandir.

Soy bo'yidagi so'qmoq bilan o'n besh minutcha yurganimizdan keyin bir vayrona tegrimon yonidan chiqdik. "Shalola" deb atalgan shu yerda tog' oralig'i bordan torayar, misoli bo'g'oz vujudga kelardi. Soy bo'yidagi qoyalar shu qadar baland ediki, pastga quyosh tushmas, suvlar go'yo shafaq aksida oqayotgandek tuyulari.

Ovozimizni bu yerdan hech kim eshita olmas edi. Shayx Yusuf afandini qalin yaproqli bir yong'oq daraxtining tagiga keltirib o'tqazishdi, qo'liga tanbur tutqazishdi.

Men anchagini narida suvlarni ko'pitirib oqayotgan qoya ostidagi soyga tikilib qoldim. Lekin dugonalarim yana meni o'z holimga qo'yishmadi.

— Yo'q, yo'q, bu yoqqa kel, kelmasang bo'lmaydi! — deb meni bastakorning ro'parasiga o'tqazib qo'yishdi.

Tanbur nolasi boshlandi. Bu musiqa bir umr esimdan chiqmaydi! Dugonalarim ko'katlar ustida yarim-yorti cho'zilishib yotishar edilar. Hatto eng bag'ritosh ko'ringanlarning lablari yig'lab yuboradigandek titrar, ko'zlarida yosh paydo bo'lardi.

Jigarrang sochlarini yelkalarimga to'kib o'tirgan Vasfiyaning qulog'iga:

— Men Shayx Yusuf afandining ijrosini birinchi marta maktabda eshitgan edim. Juda yaxshi chalgan edi, lekin bunchalik emas, — dedim.

Vasfiya suzuk ko'zlar bilan ma'noli qilib kulimsiragandan keyin:

— Ha, Yusuf afandi umrida hech mahal shu bugungidek baxtiyor, ayni zamonda baxtsiz bo'lgan emas, — dedi. Men:

— Nega? — deb so'radim.

U yuzimga diqqat bilan qaradi. Keyin boshini yana yelkamga qo'yib:

— Jim, eshitaylik, — dedi.

Bugun Shayx Yusuf afandi faqat eski sharqilarni chalar, kuylardi. Bulardan hech birini shu mahalga qadar eshitmagan edim. Har ashulaning oxirida hozir tamom bo'lib qoladi, deb yuragim o'ynardi. Lekin ko'zlar yarim yumuq, sekin-sekin qoni qochib borayotgan chakkalari mayda terlar bilan iviq bir holda u bir ashuladan keyin yana birini boshlar edi.

Ko'zlarimni yarim yumuq ko'zlardan ayira olmas edim. Bir mahal so'lg'in yonoqlariga bir necha tomchi yosh to'kilganini ko'rdim. Birdan yuragim o'ynab ketdi. Bir bechora xastani shunchalik charchatish gunoh edi. Chidab tura olmadim, qo'shiqlardan birini tugatganda:

— Bir oz dam olmaysizmi? Tobingiz qochganga o'xshaydi. Nima bo'ldi? — dedim.

Shayx Yusuf afandi javob bermadi. Ho'l kipriklari orasida bolalarcha mas'um ko'zlar bilan menga suzilib qaradi. Keyin boshini yana tanburga egib, yangi qo'shiqni boshladi:

"Bag'rim o'ti, och-tir-ma me-ning og'zim-ni zinhor,

Zo-lim, me-ni so'ylat-ma-ki, qal-bim-da ne-lar bor!"

Yusuf afandi sharqini tugatgandan so'ng, boshi tanbur ustiga tushdi. Bechora hushidan ketgan ekan. Hamma shoshib qoldi. Men:

— Biz sabab bo'ldik, bunchalik charchatmaslik kerak edi! — dedim.

Ro'molchamni ho'llab kelish uchun toshdan-toshga sakrab soyga tushdim. Bu yengil

bir hushsizlik, balki bosh aylanishidan boshqa narsa emas edi. Ro'molchamni ho'llab kel-ganimda, Shayx Yusuf afandi ko'zlarini ochgan edi.

— Bizni qo'rqtib yubordingiz, afandim, — dedim.

U beholgina kulimsirab:

— Hechqisi yo'q... Shunaqa bo'lib turadi, — deb javob berdi.

Dugonalarimda g'alati bir kayfiyat borligini sezsa boshladim. Ular menga tagdor qilib qarashar, past ovoz bilan o'zaro shivirlashardilar.

Yana shu yo'l bilan qaytdik. Men Vasfiya bilan eng orqada keldim.

— Shayx afandida bir narsa borga o'xshaydi, ichidan ezilayotgandek ko'rindi, — dedim.

Dugonam menga yana boyagidek tagdor qilib qaradi. Keyin:

— Rost gapiryapsizmi, Farida? Xafa bo'lmang-ku, lekin men bunga ishonmayman. Bundan chiqdi, siz gapdan bexabar ekansiz-da?

Vasfiya menga g'alati qilib tikilib turardi.

— Xabardor bo'lsam, yashirib o'tirarmidim, — dedim.

U yana ishonmadi.

— Butun shahar biladi-yu, bir siz bilmaysizmi?

Bu ma'nosiz shubhaga kulimsirab yelkalarimni qisdim.

— O'zingiz bilasiz-ku, men shaharda uydan chiqmay, yolg'iz yashayman. Birovlarning gapi bilan ishim ham yo'q.

Dugonam qo'llarimni ushladi.

— Yusuf afandi seni o'lgudek yaxshi ko'radi, Farida! — dedi.

Ixtiyorsiz qo'llarim bilan yuzimni berkitdim.

Soy bo'yida bolalarning suyunchli shovqinlari hamon davom etardi. Hech kimga sez-dirmasdan odamlardan ayrildim-u, ikki bog' orasidagi so'qmoq bilan uuga qaytib ketdim.

* * *

B..., 25 iyul.

Yoz oylari tugamaydigandk cho'zilib ketdi. Jazirama odam chiday olmaydigan daraja-da qattiq. Hamma narsa sarg'aydi, atrofda yashillikdan asar qolmadi. Ro'paradagi ko'mko'k tepalar sarg'aydi, xazon tusiga kirdi. Ular uzoqda, yoz quyoshining ko'zlarni qamashtiruvchi nurlari ichida kattakon kultepalar singari jonsiz, ma'nosiz ko'rindi. Men ularni ko'rib siqlaman, bo'g'ilaman, yurak siqintisiga toqat qilolmayman.

Shahar bo'shab qoldi. O'quvchi qizlar tarqaldi. O'qituvchilardan ko'pginasi kanikullarini boshqa joylarda o'tkazgani ketdi. Naziha bilan Vasfiya menga ora-sira Istambuldan xat yozib turishadi. Bu yil Istanbul juda chiroyli emish. Suvlarni, orolni tasvir qilib bitira ol-maydilar. Ilojini topishsa, o'sha yerda qolar emishlar.

To'g'risini aytSAM, mening ham bu yerda qolgin yo'q. Shayx Yusuf afandi voqeasi menga juda qattiq ta'sir qildi. Odamlar ichida ko'rinishga uyalib qoldim. Maktablar ochiladigan vaqt kelganda, boshqa yerga yuborishlarini iltimos qilaman. Yana ham uzoq, yana ham yomonroq yer bo'lsa roziman. Shunday yer bo'lsinki, meni charchatsin, mayli, ko'proq ishlashga majbur qilsin, lekin meni o'z holimga qo'ysin.

* * *

B..., 5 av-gust.

Muallimlik qila boshlaganimdan beri ikkinchi marta o'quvchi qizlarim er qilishmoqda. Lekin bu safar bechora Zahroniki singari emas. Bu kecha, shu soatda Jamila ko'zlarida qurib ulgurmagan yoshlari bilan uxbayotgani yo'q. Bu kecha, shu soatda Jamilaning

go'zal boshiga sevgilisi yosh leytenantining ko'ksi yotoq bo'ldi. Bu yoshlarning ikkalasi ham bir-birlariga bo'lgan ishq-muhabbatlarida shu qadar qattiq turdiki, nihoyat, otonalari bosh egishga majbur bo'ldilar.

Jamilani ham Zahro singari o'z qo'llim bilan yasantirdim. Ko'p vaqtlardan beri bunday ma'rakalardan qochib yurardim. Lekin Jamila uyimga o'zi kelib, qo'llarimni o'pib yolvordi. Ajabo, kechalarining birida, qorong'ida o'ziga qilgan xizmatimni fahmlagan edimikin? Buningini bilmayman. Lekin onasini, otasini rozi qilgan kunida hammadan oldin menga sevinchilagani keldi. Balki shubhasi bo'lгandir?

Ha, Jamilani o'z qo'llim bilan bezadim, kelinlik libosini o'zim kiygazdim... Bu yerda bir odat bor: kim bo'lsa ham yosh qizlarning sochiga bitta kelinlik ipi taqadi, bu yaxshilik alomati bo'ladi. Har qancha qarshi turganimga qaramay, Jamilaning onasi sochimning bir tarafiga kaltagina ip taqib qo'ydi.

Leytenantni ko'rish havasim bor edi. Jamilani uning qo'lida ko'rmasdan turib, baxtlari ga ishona olmas edim. Lekin bunga imkon bo'lmadidi. Barvaqt uyg'a qaytishga majbur bo'ldim.

Har yerda bo'lgani singari, bu yerda ham hamma xotinlarning yashiriqcha menga qaraganlarini, bir-birlariga allanimalar shivirlashganini sezib turardim. Hammaning og'zida yana o'sha "Ipak qurti". Shahar baladiya boshlig'ining xotini deb aytilgan, olmoslarga, oltinlarga ko'milgan bir semiz xotin yuzimga tikilib qaragandan so'ng, menga eshitadigan qilib yonidagilarga:

— Bu "Ipak qurti" chindan ham ofatijon ekan, bechoraning kuyib-yonishi bejiz emas!
— dedi.

Shundan keyin bu yerda qololmas edim. Jamilaning onasidan ijozat so'radim, betobligimni, oyoqda tura olmayotganligimni aytdim. Yosh kelinning yonida mendan boshqa yana bir qancha muallima bor edi. Kampir o'shalarni ko'rsatib:

— Jamilaga muallimalari o'git-nasihat qilishyapti, sen ham bir narsa aytib ket, xonim qizim, — dedi.

Bu beg'araz orzuni kulimsirab turib qabul qildim. O'quvchimni bir chetga tortib:

— Jamila, — dedim, — muallimang bo'lganim uchun onang senga nasihat qilishimni iltimos etdi. Sen nasihatlarning eng yaxshisini o'zingga o'zing bergansan. Lekin, bo'tam, seni bir masalada ogohlantirib qo'yay: leytenanting hozir sening yoningga kelmasdan turib, ko'chadan bir begona xotinning kelganini, senga yashirin gapi borligini xabar qilissa, zinhor o'zingni saqla, qizim, u xotindan qoch, chiroyli boshingni leytenantingning quvvatli bag'riga yashir.

Kim biladi, Jamila bu so'zlarga hayron qolgandir. Haqi bor, chunki endi men ham bu narsalarga hayronman. Bu narsalarni bir begona og'izdan eshitayotgandek, sababini, ma'nosini o'z-o'zimdan so'rayman.

* * *

B..., 27 av-gust.

Shu oqshom kichkina bog'chamizda ziyoфat bo'ldi. Munisa ikkalamiz Hoji xalfanining oиласини кечки овқатга чашқириб келдик. Ко'нглимиз хуш бо'лсин, деб ко'чадан уч-то'ртта қизил қоғоздан ясалган чироқ oldirdim, ularni bodom daraxtining stol ustiga egilgan shoxlariga osdik. Hoji xalfa bularni ko'rib juda xursand bo'ldi.

— Bor bo'l, bu ziyoфat emas, o'ninchи iyul tantanasi-ku! — dedi.

Men kuldim.

— Hoji xalfa, bugun mening o'ninchи iyulim, — dedim.

Ha, bugun chindan ham hurriyat kunim edi. Choliqushining qafasdan qutulganiga bu

kecha rosa bir yil to'lgan edi. Bir yil, ya'ni uch yuz oltmis besh kun! Qancha ko'p-a!

Dastlab kayfim ancha tuzuk edi. Tinmasdan kular, so'zlardim. Shu qadar hazilkashliklar qildimki, samatiyalik xonimning kulgidan nafasi tiqilar, Hoyg'onushning sevinch-la to'liq shirmon yuzi bodom shoxidagi qizil chiroqlardek qizarib borardi. Hoji xalfa esa qo'llarini tizzalariga urib:

— Nima balo, qizim, ichingda shayton bormi? — deb kului.

Kechga dovr bog'chada o'tirdik, so'ngra qog'oz chiroqlarimning birini Miratga, ikkinchisini Hoyg'onushga berib, mehmonlarim bilan xayrlashdim. Munisa kunduzi charchab qolgani uchun biz gaplashib o'tirganimizdayoq kursida mudray boshlagan edi. Uni uyga kirgizib yuborib, o'zim bog'chada yolg'iz qoldim.

Jimjit yorug' bir kecha edi. Qo'shni uylarning chiroqlari allaqachon o'chgan. Shu yulduzli osmon ichida tog' qo'rqinchli bir soyadek ko'rinaridi.

Peshonamni qo'llarim bilan ushlab, bog'chaning sovuq temir panjarasiga qo'ydim. Atrofimda na sharpa, na bir hayot asari bor. Faqat jar tagida, bu chidab bo'lmaydigan jaziramaga qaramay, hamon qurimasdan oqayotgan suvning chuldirashi, unda yulduzlarining aksi.

Qog'oz chiroqning mum shami eriy boshladi. Ularning rangli nurlari bilan birga ichimdagi shodlikning ham so'na boshlaganini, ko'nglimga chuqur, og'ir bir qorong'ilik cho'kayotganligini his etardim.

Men o'tgan shu yilning ham qorong'i, ham oydin kunlarini birma-bir xayolimdan kechirdim. Yo rabbiy, bular naqadar uzoq, uzoq vaqtarda bo'lib o'tgan ekan!

Sovuqqa, jabru jafoga, mehnat va mashaqqatga shikoyatsiz chidam beradigan sog'lom vujudim bor.

Ehtimol, yana qirq yil-ellik yil yasharman. Ehtimol, yana ellik yildan keyin bu hazin g'alabaning hazin yilligini qayd etish lozim bo'lar. Hayot naqadar uzun, yo rabbiy, naqadar uzun!

Ehtimol, Munisa u vaqt yonimda bo'lmas. Sochlarimga sekin-sekin oq tushar...

Xo'p, umid qilayin, chidayin, men bunga roziman, lekin nima evaziga, nimani kutish evaziga?

Shu bir yil ichida bir necha marta o'zimni tutolmay yig'ladim. Lekin ularning hech biderda shu kecha qovoqlarimning ichini yondirgan ko'z yoshlardagi achchiqlik yo'q edi. U vaqtlar faqat ko'zlarim yig'lardi. Bu kecha esa ko'nglim yig'lamoqda.

* * *

B..., 1 ok-tyabr.

Darslarning boshlanganiga ikki hafta bo'ldi. Muallimalarning ko'pi yana B...ga qaytib keldi. Hatto, Istambulda qolaman, degan Vasfiya ham keldi. Bechora bo'sh o'rinish topolmabdi.

Nazihaning boshiga esa davlat qushi qo'nibdi. Juma kunlarining birida ikki dugona Bosfor yonida bir yosh ofitser bilan uchrashishibdi. Ofitser ularni Fotihgacha uzatib qo'yibdi.

Bu ikki dugonam hozirgacha uchratgan hamma erkaklar kabi, bu ofitser ham Vasfiyani manzur ko'ribdi. Hatto, bilmayman, allaqaysi parkda uchrashadigan ham bo'lishibdi. Lekin, aksiga kelib, o'sha kuni Vasfiyalarnikiga mehmon kelib qolibdi. U ofitserni aldasha ga ko'ngli bo'lmay, Nazihadan iltimos qilibdi:

— Jon Naziha, mening o'rnimga sen bor. Bugun kelolmadi, deb ayt. Boshqa kun qaerda uchrashishimizni bilib kel, — debdi.

Kechqurun Naziha qaytib kelib, yigitni ko'rmaganligini aytibdi. Lekin qizning ahvoli, kayfiyati allaqanday emish. Bir qancha kundan keyin sir ochilibdi. O'sha kuni Naziha har

nima qilib bo'lsa ham yosh ofitserni o'ziga maftun etibdi. Xoin qiz bir haftadan so'ng unashib ham olibdi.

Vasfiya bu hodisadan juda qattiq ezilibdi. Bir yoqdan aziz dugonasi tomonidan aldan-ganiga kuysa, ikkinchi yoqdan yolg'iz qolganligi uchun dard chekar edi. Tez-tez oh urib:

— Oh, Farida xonim, siz bilan naqadar yaxshi do'st bo'la olardik. Lekin qanday qilib tushuntirsam ekan, siz shu qadar xushchaqchaq, yaxshi, jonon qizsiz-ku, lekin yashash gashtini bilmaysiz, — derdi.

Uyalarda tuxumlarni yangi qushchalar yorib chiqqanda naqadar nash'ali bir hayot bo-shlansa, maktab ham hozir shunga o'xshagan bir ahvolda edi.

Bir necha kun avval chaqmoqlar, momaqaldiroqlar bilan boshlangan shiddatli yomg'ir jazirama va sokin yoz kunlarining menga bergen mavridsiz g'amu g'uussalarini, dudmal hayot horg'inligini yuvib ketdi. Endi qushday yengilman, vaqtim shu qadar chog'ki!..

* * *

B..., 17 oktyabr.

Yomg'ir o'n kundan beri tinmaydi, shivalagani shivalagan. Dastlabki kunlarda men qatori suyangan, so'lg'in chehralariga musaffo hayot rangi yugurgan kechki gullar xarob bo'ldi. Bechoralar bog'chada, tinmay yog'ayotgan yomg'ir ostida boshlarini egib turadi, "bas endi!" deyishayotgandek, shmidtirab titrashadi.

Bugun kechqurun maktabdan qaytayotganimda mening ham ahvolim ularnikidan qolishmas edi. Shalabbo ivib ketdim. Chodram badanimga yopishdi, ko'chada uchragan-lar meni toza kulgi qilishdi.

Munisa shu oqshom menga bir ahvolda ko'rindi. Shamollab qolishidan qo'rqb, unama-ganiga qo'y may, barvaqt yotqizdim, lipa guli qaynatib ichirdim. Yaramas qiz injiqlik qilar, mening vahimamdan kulardi.

— Opajonim, sovuq odamga nima qilardi? Bultur qorda, somonxonada yotganim esin-gizdan chiqdimi? — deyardi.

Shu kecha hech uyqum kelmadi. Munisani uxlatganidandan keyin qo'limga kitob olib, divanga cho'zildim. Yomg'irning tomda, tarnovlarda chiqargan shovqinini, o'n besh kundan beri bitmagan bu motam kuyini eshitib yotdim. Qancha vaqt o'tganini bilmayman. Birdaniga eshigim qattiq-qattiq taqillay boshladi. Shunday bemahalda kim bo'lishi mum-kin edi?

Eshikni ochishga yuragim betlamadi. Mehmonxona jumbasidan* qaradim. Qorong'ida o'zini yomg'irdan jumba panasiga olib novcha bir xotin turardi. Qo'lidagi kleyonka yopil-gan fonar yog'dusi ko'chadagi yomg'ir ko'loblarida jivirlar edi.

— Kim u? — deb so'radim.

Titroq bir tovush:

— Oching, Farida xonimni ko'rgani keldim, — dedi.

Eshikni dir-dir titrab turib ochdim. O'sha mash'um oqshomdan beri begona xotinlar-dan yuragim bezillab qolgan. Qaysi-qachon mana shunday begona odamlarning meni axtarayotganlarini bilsam, yomon xabar olib kelgandir, deb qo'rqb ketaman. Bemahal kelgan mehmon yuzimni ko'rish uchun chirog'ini ko'tardi. Ana shunda men ham uning so'lg'in chehrasini, g'am to'la moviy ko'zlarini ko'rdim.

— Kirsam maylimi, xo'jonim?

Uning yuzi, ovozi menga dalda berdi. Kim ekanligini, nimaga kelganini so'rab o'tirishni lozim ko'rmay, yonimdagи mehmonxona eshigini ochdim-da:

— Marhamat, — dedim.

Xotin uyni ho'l qilib qo'yishdan tortinayotganday tevaragiga qarar, o'tirishga yuragi

betlamay turardi. Keyin o'rtadagi o'ng'aysizlikka barham berish uchun bo'lsa kerak:

— Voy, bu yomg'ir-ey, bu yomg'ir-ey! Odamni ko'mib tashlay deydi-ya! — dedi.

Men uning yuziga diqqat bilan qarab turardim. Undagi parishonlikning sababi yomg'ir emas, tamoman boshqa narsa ekanligi ravshan edi. Asl maqsadini aytishdan avval, o'zini bir oz bosib olmoqchi ekanligini fahmlab, darrov surishtirishga tutinmadim.

Yuragimda uyg'ongan birinchi his meni aldamadi. U istarasi issiq, yaxshi, tarbiyalı xotin edi. Nihoyat:

— Kim bilan ko'rishib o'tiribman, afandim? — deb so'radim.

U mendan tortinayotganday boshini solintirdi.

— Farida xonim afandim, men yet emasman. Garchi hozirgacha ko'rishmagan bo'lsak hamki, men sizni yaxshi taniyman. — U bir oz to'xtadi, keyin o'ziga kuch yiqqanday yana davom qildi: — Men hamkasblaringizdan birining opasi bo'laman. Matabingizning musiqa muallimi Shayx Yusuf afandining opasiman.

Birdan nafasim og'zimga tiqildi. Lekin mahkam turish, sir bermaslik kerak edi. Shuning uchun:

— Shunaqami, afandim, ko'rishganimiz uchun xursandman, — dedim. — Shayx afandi bir oz tuzukmilar?

Bu, albatta, shunday bemahalda, shu ahvolda kelgan bir kishiga aytiladigan so'z emasdi, lekin boshqa nima ham deya olardim.

Mehmon javob topolmay jim turardi. Men esam yuziga boqishdan qo'rqib ko'zlarimni yerga qaratib oldim. Quloqlarimga zaif bir yig'i eshitildi. Qutulishning imkonini bo'Imagan bir falokatga unayotganday, boshimni yana pastroq solintirib olib kutdim.

U yig'lab yubormaslik uchun ko'ksini, bo'ynini qo'llari bilan ezib turib:

— Ukam shu kecha jon beradi... — dedi. — Kechga kelib ahvoli og'irlashdi. Olti soatdan beri o'zini bilmaydi. Ertalabga yetmasa kerak.

Javob bermadim. Nima ham deyardim!

— Kichik xonim, — dedi u, — Yusuf mendan uch yosh kichik bo'lsa hamki, men uni o'g'lim deb bilaman. Nimaga desangiz, onamiz o'lganda Yusuf kichkina buvak edi, men ham unchalik katta emasdim. Shu aholimda unga onalik qildim. Butun umrimni shu bilan o'tkazdim. Tul qolganimda yoshim siznikicha edi. Yusufginam yolg'iz qolmasin, deb boshqa er qilmadim. Mana endi u meni yolg'iz tashlab ketyapti! Bularni nima uchun menga aytayotir deyarsiz, xonim afandi? Meni ayb qilmang, sizni shunday bemahal bezovta qilganim uchun, sizdan yolvorib iltimos qiladigan narsam uchun mendan xafa bo'lmang, meni quvmang...

So'zi shu yerga kelganda birdan oyoqlari bukilib, yerga cho'kdi. Bir balo bo'lib qoldi shekilli, deb yelkalaridan ushlab turg'azmoqchi bo'ldim. Lekin u yerda sudralib, yig'lab yurib, oyoqlarimni o'pa boshladи.

Ehtiyot bilan o'zimni qutqazdim. Shunday paytlarda odam o'zini qanchalik og'ir-vazmin tutish mumkin bo'lsa, men ham shunday vazmin tovush bilan gapirdim.

— Xonim afandi, qayg'ungizni tushunib turibman, ayting, qo'limdan keladigan narsa bo'lsa...

Xotinning yig'idan shishgan qovoqlari ostidagi so'niq moviy ko'zlarida umid uchqunlari chaqnadi. Boyoqish ko'ksining dukurini qo'llari bilan bosishga tirishib:

— Yusuf o'n yildan beri kasal edi, — dedi. — Qanchalar harakat qildim, qanchalar tirisib-tirmashdim, lekin la'nati kasal yo'q bo'lmadi, ukam bechorani ichdan kemira bordi. Nihoyat, bu voqeа yuz berdi... Sizni ko'rди. U shunaqa, hassos odam. Ana shundan keyin ko'z o'ngimda xazon bo'la boshladи.

Mana shu yerda o'zimni tutolmay e'tiroz qildim:

— Xonim afandi, qasamyod qilamanki, ukangizga biron yomonlik qilganim yo'q.

O'zim-chi? Axir o'zim ham qanotlari qayrilgan bir sho'rlikman!

U yana oyoqlarimga osildi.

— Xonim qizim, bolam, sizning ham sevganingiz bordir, jahlingiz chiqmasin. Qasam ich desangiz ichay, men bu yerga sizdan shikoyat qilgani kelganim yo'q. Men, bir qarashda ko'ringanimdek, bag'ritosh, dag'al xotin emasman. Juda borsam Yusufning opasiman. Yillar bo'yи uning musiqasi ichida yashadim. Sizdangina emas, hatto o'rtalar-ringizdagи tanishlikdan ham shikoyatim yo'q. Yusuf yotib qolgandan keyin shamday kuyib, erib borardi. Men uni ko'rib, dunyodan shukronalik bilan ketyapti, deb o'ylardim. Darhaqiqt, na shikoyat qilar, na iztirob tortar va na achchiq so'zlar aytardi. Ba'zan hushidan ketar, shunday kezlarda qovoqlari pirpirar, qonsiz lablari yashirin bir tabassum bilan sizning ismingizi shivirlar edi. Yusuf bu dardini shu mahalgacha menga aytmagan edi, lekin kecha qo'llarimni ushladi, barmoqlarimni birma-bir o'pdi, keyin: "Uni yana bir marta ko'rsat menga, opa!" deb yosh bolalardek yalina boshladi. Yusuf uchun har qanday fidokorlikka rozi bo'lsm ham, bu iltimosini bajarishimga ko'zim yetmas edi. Yuragim sadpora bo'ldi. "Tuzal, Yusuf, tezroq tuzuk bo'l, aylanay. Bir kun albatta ko'rasan!" deb peshonasini, sochlarni siladim. Oh, Farida xonim, koshki edi uning menga hech nima demay xafa bo'lganini, keyin teskari o'girilib, ko'zlarini qandayin umidsizlik bilan yumib olganini ko'rsangiz!.. Buni so'z bilan anglatib bo'lmaydi. Bugun kechga borib ko'zlarini butunlay yumib oldi. Endi ko'zlarini hech mahal ochmasligini bilardim. Men bu ko'zlar uchun butun umrimni, baxtimni fido qilgan, undan hech bir narsamni ayamagan edim. Zor-intizor bo'lgan narsasini so'nggi marta ko'rmasdan ko'zlarini yumganini ko'rish! Men bu alamni so'z bilan tushuntirib berolmayman sizga. Farida xonim, buning imkoniy yo'q! Bir savob ish qiling, aylanay! Bu jon chiqayotganda og'ziga tomizilayotgan suvday bo'ladi.

U ortiq gapirolmay qoldi. Yuzimni etaklarim ichiga yashirib, bolalarcha chinqirib, yig'lab yubordim.

* * *

Shu kecha voqealarini esimda bir tushday saqlab qolaman.

Jala ostida, oldimdagи xira chiroq orqasida bir qancha tor, qorong'i ko'chalardan o'tib bordim. Hech narsani sezmas, hech narsani o'ylamas, selga uchragan yaproq singari ixtiyorsiz ilgarilardim.

Meni soya-ko'lankalar bilan to'liq bahavo, keng bir xonaga olib kirdilar. Devorlarda tanburlar, udlar, g'ijjaklar osilgan, tokchalarda har xil naylar tiqilib yotibdi. Bastakor mana shu cholg'u asboblari bilan to'liq xonaning bir burchagida, keng temir karavotda jon bermoqda edi.

Biz oyoq uchida yurib, sekin yaqinlashdik. Mum singari sap-sariq yuziga o'lim sukunti cho'kkан, yumuq ko'zlarining chuquriga qorong'ilik to'lган edi. Faqt lablarida, oppoq tishlarini xiyol ko'tarib turgan yarim yumuq lablarida hayot asari ko'rinaridi.

Boya shu qadar ezilib kuygan, parishon ko'ringan boyoqish xotin mana endi o'lim to'shagida yotgan baxti qoraning so'nggi tilagini yeriga yetkazgandan keyin, o'zini hayron qoladigan darajada og'ir, vazmin tutardi. Yo rabbiy, sevgi, mehru muhabbat deb atalgan narsada qanchalar mo'jizalar bor-a! Maktabga boradigan o'g'lini uyg'otayotgan ona singari, qo'lini ukasining boshiga qo'yib:

— Yusuf, bolam, ko'zingni och. Farida xonim sendan hol so'rab keldi. Och ko'zingni, Yusuf, — dedi.

Betob hech narsa eshitmas, hech narsa sezmas edi. Xotin dahshatga tushdi. Nahotki ukasi ko'zini ochmay o'lib ketaversa? Vahima uni sekin-sekin hayajonga solib, boyagi ishonchini yo'qotib bordi. Boyoqish yana bo'g'ilib, nafasi tiqilib, yig'lay boshladi.

— Yusuf, aylanay bolam, hech bo'limasa bir marta ko'zingni och! Ko'rmay o'lib ketsang, men yana battar azobda qolaman!

Achinganimdan yuraklarim ezilar, og'irligimni ko'tara olmagandek oyoqlarim bukilib borar edi. Karavotning bosh tomonidagi stolga o'xshash bir qora narsaga suyanib turgandim. Keyin uning organ ekanligini bilib, titrab ketdim. Qalbim bu bechora ko'zlarni so'nggi marta ocha biladigan mo'jiza shu organ bo'lishi mumkinligini shivirladi. Miyamga kelgan o'y balki bir jinoyat, balki undan ham kattaroq gunohdir, lekin bu organ ham, chekkasidan qaraganlarni o'ziga tortuvchi jarlar singari, meni o'ziga tortmoqda edi. Ixtiyorsiz oyog'imni bosdim, barmog'imni klavishlardan birining ustiga qo'ydim...

Organ yarali ko'ngil singari mungli-mungli ingradi. Uyning qorong'i burchaklari, devorlariga uzun-uzun soyalari tushib turgan sozlar yashirin fig'on bilan titray boshladи.

Haqiqatmi yo mening yoshlari bilan to'silgan ko'zlarim vahmimi, nima ekanligini aytolmayman, lekin kasal shu ovozdan so'ng moviy ko'zlarini oxirgi marta ochganday bo'lib ketdi!

Opasi ko'rpaga yuzini tiqib faryod urib yig'lar edi.

Bir muqaddas vazifa o'tayotgandek, jasad ustiga engashdim, hayotning so'nggi nafaslar bilan boqiy ko'ringan ko'zlariga lablarimni tegizdim. Evoh, nahotki birinchi bo'sam o'likning yumuq ko'zlariga nasib qilgan bo'lsa?!

* * *

B..., 2 no-yabr.

Bu oqshom B...dagi uyimda o'tadigan so'nggi kecham. Ertaga sahar jo'nab ketaman.

O'sha voqeadan so'ng, albatta, bu yerda qola olmas edim. Shaharda hamma meni gapiradi, menga qiziqadi. Matabga borayotgan yo qaytayotgan kezlarimda necha bor odamlar orqamga tushdi; yuz pardamni ikki qavat qilib oqanimga qaramay, yuzimni ko'rish uchun necha bor yo'limni to'sishdi. Ba'zilar ovozlarini picha pastroq qilishni ham ep ko'rmay: "E, Ipak qurti-ku, bu! Bechora Shayx!" deb qichqirganlarini ham bir necha bor eshitdim.

Dugonalarim oldida og'iz ochishdan uyalar, sinfga Kirganimda esa lavlagiday qip-qizari ketganimni his etardim.

Bu ahvol shunday davom eta olmas edi. Shuning uchun maorif mudiriga uchrashishga majbur bo'ldim. Bu yerning havosi mijozimga yoqmayotganligini aytib, boshqa yerdan dars berishlarini iltimos qildim. Mish-mishlardan u ham xabardor bo'lsa kerak, istagimga qarshi chiqmadi. Lekin boshqa yerdan darrov o'rin topish oson emasligini aytdi. Men oyligi ozroq bo'lib, kichikroq matab bo'lsa ham rozi ekanligimni aytdim. Ishqilib, uzoqroqda bo'lsa bas, dedim.

Ikki kun avval buyruq keldi: Ch... rushdiyasiga ta- yin qilishibdi.

Bechora Choliqushi shamolga uchragan kuz yaprog'iga aylandi!..

Uchinchi qism

Ch..., 23 ap-rel.

Bugun Xizr Ilyos kuni. Uyda yolg'izman. Yo'q, faqat uydagina emas, butun shaharchada bir o'zim bo'lsam kerak. Uylar bo'sh, do'konlar yopiq. Butun aholi oziq-ovqatlarini savatlariga solib, qo'zi kabobi yegani saharlab tolzorga jo'nashdi. Ko'chamiz burchagida hamisha bir shol gado o'tirardi. U ham bunday vaqtichog'likdan qolgisi kelmay, xuddi aravaga minayotganday, bir hammol yelkasiga kerilib mindi-da, odamlar to'piga qo'shilib

ketdi.

Lekin hammadan ham itlar menga yoqdi. Bu mug'ambir jonivorlar ziyofatning hidini bilib, tugunlar, savatlar va boshqa narsalar bilan yo'lga chiqqan odamlar orqasidan galashib ergashib ketishdi.

Munisani qo'shnilarimizdan polk imomi Hofiz Qurbon afandining xotini bilan qo'shib yubordim. U mensiz bormasligini aytib injiqlik qilgan edi, boshimni ro'mol bilan bog'lab olib:

— Bir oz tobim qochib turibdi, tuzuk bo'lsam orqangdan boraman, — dedim.

Ularni tobim qochib turibdi, deb aldagani bo'lsam ham, bugun, aksincha, tobim ham, kayfim ham juda yaxshi. Borishni xohlamaganimga kelsak, bunday o'yin-kulgilar ortiq yuragimga sig'may qolgan edi.

Uyda yolg'iz qoldim deguncha, boshimdag'i durrani olib tashladim-da, past ovoz bilan kuylab, hushtak chalib yurib uy ishlarini qila boshladim. Matabda kun bo'yi erkaklarcha mehnat qilganidandan keyin uyda ora-sira ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanishdan shu qadar lazzatlanardimki...

Uy ishlarini bitirganidandan so'ng navbat qushlarga keldi. Qushlarning qafaslarini tozaladim, suvlarini yangiladim, keyin oftob ko'rishsin deb qafaslarini boqqa olib chiqdim. Hozir rosa yarim dyujina qushimiz bor. Bu yoqqa kelishda Mazlumni Hoji xalfaning o'g'liga qoldirishdan boshqa chora topolmagan edik. Munisa juda xafa bo'ldi, uloqchasidan ayrligani uchun yig'ladi. Qizginam ichikmasin deb shu qushlarni olib berdim. Keyin bular o'zimga ham ermak bo'ldi. Faqat qo'shnimizning malla mushugidan qanotli do'stlarimizga hech kun yo'q. Qafaslarni boqqa chiqardimmi — bo'ldi, ro'paralariga kelib o'tirib oladi. Munday qaraganda, o'zi beozor, muloyimgina mushuk. Yashil ko'zlarini xiyol ochib qushlarga mahliyo bo'lib qaraydi, ba'zan iyaklarini titratib miyovlab ham qo'yadi. Ko'rgan kishi uni qushlar bilan gaplashyaptimi, deydi.

Bugun nima qilarkan, deb qushlardan bittasini qafasdan chiqardim-u, mushukning tumshug'iga yaqin keltirib tutdim. Ustidan qattiq shamol esib o'tgandek, zolimning tuklari hurpaydi, yashil ko'zlarida uchqunlar porladi, yumshoq panjalari ichidan tirnoqlari chiqdi. U qushga tashlanishga shaylanib turardi.

Bechora qushcha changalimda qanotlarini, bo'ynini qisib shunchalar titradiki!..

Bo'sh qo'llim bilan mushukni bo'ynidan changalladim-da:

— Bu xoin yashil ko'zlarining shiringina mudrab turganini ko'rgan kishi seni osmon-dagi malaklarni xayol qilyapti deb o'laydi, — dedim. — Holbuki, sening darding mana shu bechorani tilka-pora qilish, shunday emasmi? Qarab tur, men sendan qanday ajoyib qasos olaman!

Narigi panjamni ochdim. Bechora qushcha birdan silkindi, lekin, ozod bo'lganiga ishonmayotganday, to'xtab qoldi. Bir ozdan keyin ingichka bir tovush bilan chirqillab uchib ketdi. Men mushukning qushga hayrat va alam bilan tikilib qolgan yashil ko'zlarini yuzimga yaqin keltirib, qahqaha urib kuldim.

— Xo'sh, sariq iblis, qushchani parchaladingmi? — deb mazax qildim.

Ko'nglimda chuqur bir quvonch uyg'ondi. Faqat bu sariq mushukdangina emas, balki bechora kichkina qushchalarga kun bermaydigan hamma sariq maxluqlardan ham o'ch olganday quvonardim.

Lekin kayfimni narigi qushlarning zoru afg'oni buzib qo'ydi. Bu haqiqatan zoru afg'on-midi — bilmayman, ammo menga u bechoralar: "Nega bizni ham dugonamiz singari baxtli qilmaysan?" deyishayotganday tuyuldi.

Ko'nglimning doimo bo'ysunilishi kerak bo'lgan xohishi, buyrug'i bilan qafaslar yoniga bordim. Shu borishimda hammasini ozod qilishim muqarrar edi. Lekin birdan Munisa esimga tushdi. Betimni qafaslardan birining simiga qo'yib:

— Tuzuk, sizlarni-ku bo'shatish qiyin emas, lekin Munisaga, manavi sariq zolimga qanday javob beramiz? Qo'limizdan nima keladi, kichkinalar? Har qancha urinsak ham sariq xoinlardan o'zimizni qutqaza olmaymiz! — dedim.

Qushlardan so'ng navbat o'zimga keldi. Men havo ochiq kunlarda boshimni harvaqt sovuq suvda yuvar, keyin oftobda quritishni yaxshi ko'rardim.

Bugun ham shunday qildim. Keyin qafaslar ro'parasidagi o'rikka chiqib, ho'l sochlarimni bahor yelida qurita boshladim. Sochlarim uzayib, belimga tushib qolibdi. B... da sochlarimning nechuk kaltaligini dugonalarimga aytishdan uyalgan edim. Ular soch qirqishni xotinlar uchun ayb, to'g'rirog'i, katta gunoh, deb hisoblardilar. Men har kimlardan, hatto Hoji xalfadan ham soch dorisi olib ishlatardim. Ular sochlarimning shunday tez o'sib ketganini ko'rishgandan so'ng hamma hikmat o'zlarida, dorilarida ekanligini aytishar, dorilarining zo'rligiga mening sochlarimni shohid qilib ko'rsatishardi.

Men o'tirgan o'rik qafaslarning qoq ro'parasida edi. Qushlar munchoq ko'zlarini quyoshda yiltiratishib, har xil ohangda sayrashardi. Men ularga taqlid qilib hushtak chalar, ingichkagina shoxda xuddi arg'imchoqday uchib o'tirardim. Bir mahal qo'shnimizning derazasiga ko'zim tushib qolmaydim! Voy o'lay, nimani ko'rdim deng? Polk imomi Hofiz Qurbon afandi yelpich tovoqday yapaloq yuzidagi machit chirog'i singari yonib turgan yumaloq, shilpiq ko'zlari bilan menga esi og'ib qarab tursa bo'ladimi! Qanday ahvolga tushganimni so'z bilani aytib berolmayman. Qilik'im, qiyofatim bir narsaga o'xshasa ham go'rga edi: oyoqlarim ochiq, egnimda yarim-yorti badanimni yopib turgan oq ko'ylik. Birinchi harakatim — orqam bilan bitta bo'lib turgan parishon sochlarimni tortib bo'ynimni, ko'kragimni to'sishdan iborat bo'ldi Keyin o'zimni shoxdan pastga otdim. Xayriyatki, daraxt baland emas edi. Quloqlarimga "Yo olloh, o'zing asra!" degan tovush eshitildi. Daraxtdan o'zini tashlagan, joni og'rigan menu, voy-voylagan qo'shnim Hofiz Qurbon afandi bo'ldi!

Men Hofiz Qurbon afandining nomini kulmasdan aytolmayman. Ellik yoshni urib qo'yan bu tabarruk kishi polk imomi. U o'zini juda badavlatman, deb maqtanadi. Xotini hali o'ttizga ham kirmagan, chiroqli, pokiza, ko'zlari qop-qora, xushbichim bir cherkas juvon. Biz u bilan juda qalinmiz. Bugun Munisani o'ynatgani olib ketgan ham shu juvon. Bolasi bo'limgani uchun mening kichkina shaytonimni o'z bolasiday yaxshi ko'radi. Lekin bugungi voqeа kayfimni buzib qo'ysi. Imom domladan juda yomon uyaldim. Kim bilsin, o'lguday ayb qilgandir. Hozir, shu satrlarni yozib turganimda ham, uyatdan yuzim o'tday yonayotganini, lavlagiday qizarib ketganini sezib turibman. Voy, xudo! Maktab muallimasi ham bo'ldim-u, lekin haligacha sho'xligimni qo'ymayman! B... dagi qizlar bilim yurtining mudiri Rajab afandi menga: "Xudo tez ko'rsatmasin, lekin bir kun emas-bir kun o'lganingda, janoza o'qigan imomni ham kuldirib yuborasan-da!" — degan edi.

Bu yerga kelganimizdan beri daftaram portfelimda yotardi. Shuning uchun so'nggi olti oy ichida bo'lib o'tgan voqealarni bugun tushki ovqatdan keyin yozish niyatim bor edi.

Deraza yoniga keldim. Bu yerdan bo'g'oz bilan qirg'oqdagi harbiy istehkomlarning bir qismi kaftday ko'rinish turadi. Aslida biz bu uyga shu deraza menga yoqqani uchun ko'chib kelgan edik. Bo'lmasa, uning boshqa hech qanday fazilati yo'q edi.

B...dan tezroq boshimni olib qochish uchun taklif qilishgan birinchi bo'sh o'rinni darrov qabul etgan, u vaqt bu yerning menga manzur bo'lish-bo'lmasligi, oyligimning kamligi xayolimga ham kelmagan edi. Lekin toleimga bu yer yaxshi chiqdi. Shiringina, tinchgina harbiy shahar ekan. Tub yerlikdanmi, kelgindidanmi, ishqilib, kimdanki bo'lsa ham otasini, aka yo ukasini, o'g'lini, erini so'rasangiz yo ofitser, yo soldat — xullasi, harbiy bo'lib chiqadi. O'qituvchilarning ham bir qismi yo rota imomi, yo polk muftisi, yo bo'lmasa, umuman, armiyaga aloqador kishilar. Qo'shnim Hofiz Qurbon afandi ham sallasi bilan birga ba'zan harbiy forma kiyib, hatto yoniga qilich ham taqib oladi.

Ch... xotinlari menga juda yoqdi. Vafodor, ishchan, hayotlaridan mamnun, sodda, kamtar ekan. Mehnatni qancha yaxshi ko'rishsa, o'yin-kulgini ham shuncha sevisharkan. Biron hafta yo'qli, to'ysiz o'tsin. Har bir to'y turli-tuman nom bilan ataladigan kechalar-ga, marosimlarga ulashib, rosa bir haftaga cho'ziladi. Natijada, bu yerning xotinlari har kecha o'yin-kulgi qilishadi.

Avvallari bunga qaerdan pul yetkazishar ekan, deb hayron bo'lardim. Keyin bilsam, buning boshqa siri bor ekan. Masalan, har bir xotin o'zining kelinchakligidagi kiyimlarini o'n yil, yigirma yil to'yga kiyar ekan-da, keyin top-toza holicha qiziga berar ekan.

Bularning o'yin-kulgilari juda sodda. Bir qari armani xotin kelib garmon chaladi, keyin uni odmigina ko'ylaklik va ozgina pul bilan rozi qilib chiqarishadi.

Ha, bularning o'yin-kulgilari juda sodda. Shunchaligiga ham xursand bo'llishadi, bunisi juda yaxshi! Oh, koshkiydi, men ham shular orasida tug'ilgan bo'lsam! Koshkiydi, bir kun mening ham barmoqlarim xinaga, hovuchlarim xurmo rangiga bo'yagan bo'lsa... Bas, boshqa to'g'rilarda gaplashaylik.

Qo'shnilarim meni, nima uchundir, yaxshi ko'rib qolishdi. Faqat ularga aralashmaganimga, o'yin-kulgilarga qo'shilib bahrimni ochmaganimga jahllari chiqadi... Kerik ekan deyishmasin, deb ularga o'zimni poyandoz qildim, maktabdagi qizlariga ham, ularning o'zlariga ham qo'limdan kelganicha qarashdim, xizmatimni ayamadim.

* * *

Bu shaharda eng yaxshi ko'rgan yerim — soy bo'yidagi Tolzor deb atalgan joy edi. Bayram kunlarida u yerga borishdan tortinaman. Lekin ba'zan kechki payt mактабдан qaytishda Munisa ikkalamiz boramiz. Tolzorda faqat tollargina emas, chinorlar ham bor. Kim biladi, bu o'rmon necha yoshda ekan? Chinorlarning pastlari kallaklab tashlanibdi, faqat o'zaklari bilan tepadagi shoxlari, yaproqlarigina qolibdi. Kechqurun soyalar cho'zila boshlagan paytda bu yerga kelgan kishi o'zini uchi-keti ko'rinxaydig'an vayrona qubba tagiga kirib qolganday sezadi. Yondan tushib turgan oqshom quyoshida bu azamat, xarob chinor o'zaklari ko'z ilg'amas uzun, siniq ustunlarga o'xshab ketadi. Soyning narigi yuzida atroflariga chetan tutilgan qator-qator bog'lar, ular orasida soyalarga ko'milgan so'qmoq yo'llar bor. Uzoqdan ana o'sha yo'llarga qarasam, bular menga odamni eng shi-rin orzulari ushaladigan boshqa bir dunyoga olib boradigandek tuyuladi.

Shahar boylari "Xastalar tepasi" deb atalgan yerda turishar ekan. Nomi yomon bo'lsa ham, o'zi eng shod, eng baxtiyor kishilar makoni. Ch...ga kelganimda, menga u yerdan bir chiroyli uy ko'rsatishgan edi, lekin rad qildim. chunki hozir men B...dagi singari badavlat emasman. Shuning uchun tejamliroq yashashga, kichikroq uyda turishga majburman. Lekin hozirgi uyim ham uncha yomon emas. Shaharning obod yerida: yaqinimizda maydon, qahvaxonalar, do'konlar bor. Masalan, bugun ertalab Tolzorga jo'nagan shahar aholisi bizning uyimiz yonidan o'tdi. Hozir vaqt ancha erta bo'lsa ham, qaytib kelishyapti. Bir zumgina avval Tolzordan bir to'da ofitser qaytib keldi. Ular ro'paradan shoshib ke-layotgan leytenant bilan gaplashish uchun to'xtashdi.

— Nega mucha erta qaytdinglar? — deb so'radi leytenant. — Men endi ketyapman, navbatchilikdan hozir bo'shadim.

Mundirining oldi hamisha ochiq yuradigan semiz, keksa qo'log'asi:

— Ovora bo'lmay, qayta qol. Bugun Tolzorning mazasi yo'q. Qancha qidirsak ham gul-bashakar* yo'q, — deb javob qildi. Men bu qo'log'asini ko'chada ko'p uchratardim.

Tavba, bu shaharning harbiylari gulbashakarni mucha yaxshi ko'rishmasa-ya! Kattasingning ham, kichigining ham og'zidan gulbashakar tushmaydi. Nazarimda, bu guldan qilingan shirinlik bo'lsa kerak. Qiziq, Xizr Ilyos kunida gulbashakar qidirish, topilmasa xafa bo'lish — yosh bolalik-ku!

Ha, men bu "gulbashakar" so'zini ko'chada kattalardan ham, bolalardan ham juda ko'p marta eshitdim. Masalan, bir kuni kechqurun maktabdan kelayotgan edim. Oldimda faqirlarcha kiyangan bir necha yigit ketayotgan edi. Shulardan bittasiga bir nimani ye deb taklif qilishdi shekilli, u ko'nmay:

— Xudo haqqi, bo'lmaydi. Hozir ovqat yedim. Meva tugul, boshqa narsa ham to-mog'imdan o'tmaydi, — dedi.

Ikkinchisi:

— Hech nima o'tmaydimi? Gulbashakar ham-a? — deb uni yelkasidan tortdi.

Endi yigit eridi, kulimsirab turib:

— Qani endi u bizga nasib bo'lsa! — dedi.

Gohi mahallar qahvaxona oldida o'tirgan erkaklar shu mahallar suv tashib kun o'tkazadigan kambag'al, lekin xushchaqchaq, sho'x yigitchaga hazil qilishardi:

— Menga qara, Sulaymon, to'yingni qachon qilamiz?

— Qachon xohlasangiz. Men hammavaqt tayyorman.

— Sulaymon, o'lguday kambag'alsan, kuning qanday o'tadi?

— Quruq nonimga gulbashakar surtib yeyaveraman. Menga bundan ortiq nima kerak?

Bu hazilkashlikni qariyb har kun takrorlashadi. Bunisi ham bir navi, lekin qo'shnik Hofiz Qurbon afandining bir qilig'i meni juda ham hayron qildi. U uch kun avval ko'chada Munisani ushlab olib, qo'yarda-qo'y may betlaridan o'pdi-da:

— O'h, sendan gulbashakarning hidi keladi-ya! — dedi.

Ko'chada Tolzordan qaytayotgan odamlar ko'paydi. Birdan bola kulgisi — Munisaning ovozi eshitildi. Ha, Munisa kelyapti! U yaramasni shu to'rt soat ichida xuddi to'rt oy ko'rmaganday sog'indim.

* * *

23 ap-rel (ik-ki so-at-dan key-in).

Axiyri gulbashakarning nimaligini bilib oldim. Munisa Tolzorda uchragan bir qancha muallimlarga mening betobligimni aytgan ekan, tashvishlanishib, qaytishda eshigim oldidan so'rab o'tishdi.

Ichkariga kiringlar deb ularga bir necha daqiqa yalindim. Gap orasida bittasidan hazilashib:

— Qalay, hech bo'lmasa sizlar gulbashakar topdilaringmi? Ko'chadan ofitserlar o'tib ketayotib, gulbashakar topishmaganidan zorlanishdi, — dedim.

Dugonam kulib yubordi.

— Juda yaxshi bilasizki, biz ham o'sha lazzatdan mahrum bo'ldik, — dedi.

— Nega? — deb so'radim.

— Chunki kelmadingiz.

Shoshib yuziga qaradim. Keyin kulimsirashga harakat qilib:

— Iya, bu qanday bo'ldi? — dedim.

Muallimalar xaxolashib kulib yuborishdi. Haligi dugonam menga shubha bilan qarab:

— Chindan ham bilmaysizmi? — dedi.

— Xudo haqqi, bilmayman.

— Bechora Faridaginam, sen naqadar soddasan! Ch... erkaklari shu chiroyli ranging uchun senga gulbashakar deb nom qo'yishgan!

Men sarosimam zo'ridan duduqlanib:

— Nahotki? Meni-ya? Demak, gulbashakar deganlari, ko'chadagi yigitlar nonga surtib yemoqchi bo'lgan narsalari men ekanman-da! Voy o'lmasam!

Uyalganimdan qo'llarim bilan yuzimni bekitdim. Demak, men shunday kattakon bir

shahar og'ziga tushibman. Yo rabbiy, bu qanday sharmandagarchilik!

Dugonam zo'r lab yuzimni ochdi, keyin yarim hazil, yarim chin qilib:

— Buning xafa bo'ladijan joyi yo'q-ku? Butun boshli shahar erkaklarini o'zingizga jalb qilibsiz, bunday baxtga qanday xotin tuyassar bo'ladi? — dedi.

Bu erkaklar munchayam yomon bo'lismasa! Meni bu yerda ham tinch qo'yishmaydi. Voy xudo, endi odamlarga qanday ko'rinarman, qo'shnilarimning yuziga qanday qilib qarayman?!

* * *

Ch..., 1 may.

Uyda o'tirib o'quvchilarimning daftalarini ko'rayotgan edim. Eshik taqilladi. Munisa pastdan:

— Opajon, mehmon keldi, — deb qichqirdi.

Tashqarida qora chorshafli bir xotin aylanib yurardi. Yuzi yopiq bo'lgani uchun taniyolmadim. Taraddudlanib:

— Kimsiz, afandim? — deb so'radim.

Birdan kulgi ko'tarildi. Xonim mushuk singari bo'ynimga tashlandi. Tavba, Munisa ekan! Yaramas qiz meni belimdan ushlab hovlida aylantira boshladi. Hech qo'ymay yuzimni, bo'ynimni o'pa ketdi. Chorshaf kichkinamni bo'yiga yetgan qizga o'xshatib qo'yibdi.

Kichkina shu ikki yil ichida bo'yiga tortib, xushqomat, chiroyli, kuydirmajon qiz bo'lib qoldi. U kun sayin guldek ochilib, husn to'kib borardi. Bo'ylarimiz ham qariyb baravar bo'lib qoldi. Lekin odam ko'z o'ngidagi narsalarning o'zgarib borishini ko'pincha farq qilolmaydi.

Munisani mana shu chorshafda ko'rib, ichimga sig'may suyunishim kerak edi. Men esa xafa bo'ldim. Buni Munisa ham fahmladi.

— Opajon, nima bo'ldi? Hazillashdim-da. Nima, sizni xafa qilib qo'ydimmi? — deb so'radi.

Bechora yomon ish qilib qo'ygandek, o'kinib yuzimga tikilardi.

— Munisa, — dedim, — seni butun umr yonimda olib qololmayman. Ko'rib turibman, turmaysan. Hozirdanoq to'ylarda kelinchaklik iplarini boshingga taqib quvonasan. Bilmaman, qizim, yonimda qolmaysan, kelinchak bo'lib, meni albatta yolg'iz tashlab ketasan.

Ana shu yolg'izlikning alami hozirdanoq yuragimga chang solayotgandek, ko'zlarimga yosh keldi. Munisa hech bo'lmasa meni bir og'iz so'z bilan yupatsa edi, deb mo'lillab turgan ko'zlarim bilan yalinaman. Lekin yaramas qiz lablarini bukib:

— Nachora, opajonim? Odat shu, — dedi.

— Demak, bir begonaga tegib, meni yolg'iz qoldirib ketasan, shundaymi?

Munisa javob bermadi, faqat kulib qo'ya qoldi. Lekin qanday kuld-i-a! Zolim qiz hozirdanoq uni mendan ortiq sevardi.

Endi boyagi so'zlarimning aksini gapira boshladim.

— Mayli, kelinchak bo'lsang bo'larsan, lekin yigirma yoshga kirguninggacha hali ancha vaqt bor.

— Yigirma yosh? Voy, bu ko'p emasmi, opajonim?

— Unda o'n to'qqiz, mayli, o'n sakkiz ham bo'lsin. Indamaysan-a? Kulasan-da. "O'zim bilaman" demoqchi bo'lib kulasan. Xudo haqqi, o'n sakkizdan kamiga bo'lmaydi.

Yaramas qiz kular, bu yosh savdosi uni ajablantirardi. Uyalmasam, ho'ng-ho'ng yig'lardim. Sariq odamlarning hammasi vafosiz bo'ladi, ular odam boshiga hamisha qayg'u-alam soladi.

* * *

Ch..., 10 may.

Maktab qizlarim orasida o'n ikki-o'n uch yoshlarda bir badavlat poshoning qizi o'qiydi. Bo'yi pak-pakana, ozg'ingina, tishlari chirik, afti bujir, injiq qiz.

Men bir kuni mazax qilib, uni Nadida xonim afandi degan edim, ana shundan beri maktabdagilar ham uni xonim afandi deydigan bo'lishdi.

Nadida Xastalar tepasining eng chiroyli uylaridan birida turadi. U har kun posho otasining landosida maktabga keladi. Mo'ylovleri qo'chqor mugiziga o'xshagan ad'yutanti olib kelib qo'yadi.

Menga shunday tuyuladi: bu kichkina oyimqiz maktabga o'qishdan ham ko'ra o'zini kambag'al sinfdoshlariga va hatto o'qituvchilariga ko'z-ko'z qilish uchun keladi. Dugonalariiga xuddi cho'rilaridek muomala qiladi. Muallimalar uning ming turli qahriga, noziga chidashadi, buni o'zlarining vazifasi deb bilishadi. Onasi qizining o'qituvchilarini tez-tez uyiga chaqirib, mehmon qilib turadi. Bechora dugonalarim ularnikida ko'rgan dabdaba va tantanani, davlat va sultanatni, yegan ovqatlarini, xonim afandilarning kiyim-kechaklari ni aytib bitira olmaydilar. Dugonalarimning maroqlari meni ham kuldiradi, ham jirkantiradi. Bu Abdurahim posholarning qanday odamlar ekanligiga tushundim. Bular — dabdabari, sultanatlari bilan mayda, bachkana odamlarning ko'zini qamashtirishdan zavq oladigan bir to'da maqtanchoq telbalardir.

Dugonalarim bir necha marta meni ham olib borishmoqchi bo'lishdi. Lekin men buni o'zim uchun bir haqorat bilib, jerkib tashladim.

Kambag'al o'quvchilarimning botinkalarini kiygizib qo'yishdan, ko'ylaklaridagi changlarni qoqishdan tortinmaganim holda bu kichik, arzanda xonim afandini ko'rsam ko'nglim ayniydi. Ba'zan dars mahallarida so'z bilan savalab ham o'tman. Shunga qaramasdan, u meni boshqa o'qituvchilaridan ko'ra ko'proq yaxshi ko'radi, izimdan qolmaydi — suykgani suykangan.

Bugun tush mahalida eshigimiz oldida bir arvava kelib to'xtadi. Yalt etib qaradim: voy, bu Abdurahim poshoning landosi emasmi? Muguz mo'ylovli ad'yutantning arava eshigini ochganini, tolibam Nadidaxonimning tevarakda yugurishgan mahalla bolalari orasida malika viqori bilan uyimga kelayotganini ko'rdim. Butun mahallaning og'zi ochilib qoldi. Qo'shnilarimizning derazalari xotin-xalajning boshi bilan to'ldi.

Nadida xonim opasidan xat olib kelgan edi. Xatda: "Muallima xonim, posho otam, volidam va bandangiz bugun biznikiga tashrif buyurishingizni iltimos qilamiz va amringizga yuborilgan arava bilan kelishingizni kutamiz", — deyilgan edi.

Maqsadlariga darhol tushundim. Hashamat va sarvatlari bilan, dabdaba va tantanalari bilan nariqi o'qituvchilar singari mening ham ko'zlarimni qamashtirmoqchilar. Oldin bir-ikki og'iz sovuq tashakkur bilan kichik xonimni, ad'yutantni, aravalarni qaytarib bormoqchi ham bo'ldim. Lekin qalbimda birdan boshqa bir orzu uyg'ondi: bu kerik zodagonlarga yaxshiroq saboq berib qo'ymoqchi bo'ldim.

Men Istambulda bulardan ham balandroq, yuksakroq mavqedagi posholarni ko'p ko'rganman. Men ularning anchagina ta'zirlarini bergenman. Yuzlaridan niqoblarini olib tashlash, hashamatli qiyofalari ostida yashiringan pastkashliklari va hechliklarni maydonga chiqarish Choliqushining eng yaxshi ko'rgan ermag'i edi. Shunday tug'ilgan bo'lsam, men nima qilayin? Uncha yomon qiz emasman, kichkinalarni, nochorlarni yaxshi ko'raman. Lekin boy-badavlatlarga, kibor havoliklarga qarshi doim zolimman.

Ikki yil jim yashadim, bugun esa bir oz sho'xlik qilishga haqqim bor.

Odatimga qarshi, bugun juda sodda bo'lsa ham, lekin bashang kiyindim. Xudoga shu-

kur, bir mahallar amakim Parijdan yuborgan bitta ko'k kostyumim bor edi.

Nadida xonim afandini pastdag'i xonada anchagina kuttirib qo'yishdan tortinmadim. B...da ekanligimda allaqaysi bir Yevropa jurnalidan sochlari modali qilib taralgan bir xotin kishi rasmini kesib olgan edim. Shuni oynagimning romiga qadab qo'yib taranishga tutindim. O'zimni o'shang'a o'xshatish uchun butun san'at va mahoratimni sarf qildim. Natijada, madam nihoyatda go'zal bo'lsa ham, lekin fasli o'tganroq edi. Lekin nima qilay? Men bugun bir artist singari bu kibor qishloq dilbarlarida qoldiradigan taassurotim-nigina o'ylashim kerak.

Kichkina xonimni pastda kutdirishdan maqsadim, faqat yasanib-tusanishdangina iborat emas edi. Olaqorong'i, faqir ashyoli uy oynagida kulimsiragan yosh qizni tomosha qilish uchun ham kuttirgan edim. Men oynakdag'i qizga begona odamga qarayotgandek, uyalib-qizarib qarardim. Modomiki, xotira daftaramni mendan boshqa hech kim o'qimas ekan, nega endi haqiqatni e'tirof etmayin? Oynakda menga qarab kulimsirab turgan qiz nihoyatda go'zal edi. Diqqat bilan qaraganimda, u menga insonning aqlini shoshib qo'yadigan darajada go'zal ko'rindi. Menga tamoman yangi ko'zlar qarab turar edi. Bu ko'zlar men bir mahallar Istambulda tanigan shod, sho'x, qayg'usiz Choliqushining ko'zlariga sira o'xshamas edi. Bu ko'zlarda qorong'i kechalarda boqa-boqa o'tgan yolg'izlik damlarining qora alam va g'ussalari, horg'inlik, dilxunlik, uyquga va boshqa narsalariga to'ymagan ko'zlarning achchiq mahrumiyati bor edi. Bu ko'zlar kulmasa jonli bir iztirob kabi zo'r va chuqur ko'rina bilardilar. Faqat kula boshladi degunlaricha, har narsa o'zgarib ketadi. Ana shunda kichrayadi, nurlari ichlariga sig'maydi, mayda uchqunlar kabi yonoqlariga to'kila boshlaydi.

Bu yuzda naqadar go'zal, naqadar alomat chiziqlar bor? Odamda yig'lab yuborish havasini tug'diradigan go'zal narsalar bor. Nuqsonlarimda ham qandaydir malohat borligini ko'raman. Taqirdog'idagi pochcham: "Farida, qoshlaring ham tilingga o'xshaydi, go'zal-go'zal, nozik-nozik boshlanadi-yu, keyin yo'lini yo'qotib qo'yadi", — deyar edi. Pochcham aytgan go'zal-go'zal, nozik-nozik boshlangandan so'ng yo'lini yo'qotgan bu qoshlarning chakkalarga qarab nihoyatda chiroyli suzilib ketganligini ko'rdim.

Endi mana bu lablar! Yuqorigisi bir oz kalta, qisqa bo'lganligi uchun doimo kulib, doimo ustki tishlarimni bir oz ko'rsatib turgan ustki labim, bir mahallar Bursadagi Hoji afandi aytganidek, meni qabrga ham kulgi bilan olib boradi.

Nadida xonimning pastda botinkalarini jo'rttaga dukurlatib yurganligini eshitsam ham, negadir, oynakdag'i kichik xonimdan o'zimni ayira olmayman.

B...da "Ipak qurti", Ch...da "Gulbashakar" deb qo'yilgan laqablar menga qancha ozor yetkazgan edi. Mana hozir, oynada ko'rinih turgan yosh qizga, subhidam yorug'i kabi ravshan, qirov tomchilari o'tirgan aprel gullari kabi toza bu qizga men ham shu ismlarni berishdan hozir tortinmadim. Birov qarab turmaganmi ekan, degan hadik bilan tevaragimga alangladim, so'ngra o'z-o'zimni, ko'zlarimni, yonoqlarimni, iyagimni o'pish uchun oynakka cho'zildim. Yuragim qush kabi tipirchilar, lablarim lazzat bilan titrardi.

Lekin, afsuski, oynaklar ham erkaklar ijodidir. Inson hech mahal o'z sochlarni, ko'zlarini o'pmaydi. Nima qilsa ham, qanchalik tirishib-tirmashsa ham o'zini faqat lablaridan, og'zidangina...

Yo ollo, nimalar deyapman? Aleksi opa: "Pop jaddasi odam qalbini ham pop qiladi", — deyar edi. Bundan chiqdi, nozli qilib taralgan bosh ham odamni nozli qilib yuborarmikin? Maktab o'qituvchisiga yarashmagan naqadar ma'nosiz, naqadar ayb so'zlar bu.

Ikki yil jim o'tirganimdan keyin bugun bir oz sho'xlik qilishga haqqim bor edi.

Xonimlarni zallarning birida artistlikni endi o'rgana boshlagan kishilar qiyofasi bilan menga qarab turishganlarini ko'rib, ichimdan kuldim, keyin "Hali ko'rasiz, picha sabr qilinglar" deb ko'nglimdan o'tkazdim. Ular boshqalar singari uy bekasini, oyimqizlarining

etaklaridan o'pmaganligimni, shunchaki sodda va sarbast salom bilan kifoyalanganligimni ko'rib, hayron bo'lib qolishdi. Bir-birlariga taajjublanib qarashdi. Qo'polgina kiyingan bir qari grek xotin (Beyo'g'li*dan kelgan murabbiya bo'lsa kerak, deb o'ylayman) tevaragi tilladan qilingan ko'zoynagini burniga qo'ndirib, meni boshimdan-oyog'imgacha suzib chiqdi.

O'zimni tutishimda, harakatlarimda shu qadar bir tabiiylik, so'zlarimda shunchalik putursiz bir ishonch bor ediki, zal ko'z ilg'amas po'rtanaga uchragan kema singari ostin-us-tin bo'lib ketdi.

Bu yerda egalarining didi yaxshilagini dalolat qiladigan birona nafis narsa yo'q edi. Zal har xil qimmatbaho narsalar tiqib tashlangan gazmol do'koniga o'xshardi... Bu yerning oyimlari mana shu zalda sag'anadagi o'lifiklar singari umrlarini o'tkazadilar, Ch... shahrining sodda, odmi xotinlarini hayratga solishdan zavqlanadilar.

Sarbast va qat'iy harakatlarim bilan zalga sekin-sekin ega bo'lar, o'zlarini esa ividiq, noshud mehmonlarga aylantirb borar edim. Bu dag'al, kulgili komedyani o'ynab turganimda, o'yinimni sezdirib qo'ymaslik uchun xatti-harakatlarimni tabiiydek tutishga tirishdim. Ular nimaiki ko'rsatsalar, nimaiki so'zlasalar, nimaiki qilsalar — hammasini yoqtirmaganligimni sezdirdim. Didlarining pastligini, noshudliklarini sezdirishga, alam qildirishga harakat etdim. Masalan, poshoning katta qizi suratlarni ko'rsatganda, men bularning oddiy narsalar ekanligini ta'kidlab, tagdor shamalar bilan chimchilib oldim. Keyin bir burchakda osig'liq turgan kichkina suratni ko'rib, zalda birdan-bir haqiqiy san'at asari bo'Igan bu go'zal narsaning nima uchun burchakka tiqib qo'yilganligini so'radim. Qisqasi, dabda-balarining hech biriga ajablanmadim. Hamma narsalarini tanqid qildim. Ayniqa, ovqat mahalida jon rishtalarini sug'urib oldim... Kim bilsin, bu mukammal, ajoyib dasturxon atrofida o'tirgan qancha xotinning tomoqlari bo'g'izlarida qolgan ekan? Kim bilsin, mehmonlarning qanchasi vilka va pichoqlarini eplay olmaganliklari uchun bu yerda qanchadan-qancha ter to'kkan ekan? Bechoralarning qanchasi ovqatni qanday olishni, qanday yeishni bilmagani uchun ovqatlardan voz kechishga majbur bo'Igan ekan?

Bugun ana shularning hammasi uchun qasos oldim. Men shu qadar chaqqon, epchil harakatlar qilardimki, xonimlar hayron bo'lismish, menga yer ostidan qarab qolar edilar. Men ham ularga ora-sira qarab qo'yar edim. Lekin mening qarashlarim ularning qo'llari-dagi vilkalarni titratar, og'zidagi ovqatlarini bo'g'izlariga tiqib qo'yar, suv ichishga majbur qilardi. Noshud, johil xotinlarga o'zini odam o'rnila sotgan, kulgili frantsuzcha talaffuzi bilan o'ziga bino qo'yib yurgan beyo'g'lilik grek kampirni dunyoga kelganligiga pushaymon qildirib yubordim.

U murabbiya, men maktab o'qituvchisi bo'Iganim uchun o'zini men bilan hamkasaba deb faraz qilardi. Men bilan yashirin bir munozaraga kirishni o'zining maslak burchi deb bildi, shekilli. Lekin men shu qadar masxarasini chiqardimki!.. Maqsadini turkcha tu-shuntirishga ojizlik qilar, men turkchani yaxshi bilmayman deb qutulishga tirishardi. Ana shundan keyin:

— Xayr, mayli, mademuazel, frantsuzcha gaplashaylik, — dedim.

Murabbiya frantsuzcha gaplashib ko'rmoqchi bo'ldi, lekin men uning frantsuzcha gaplariga kuldim.

Qisqasi, kichkina, ahamiyatsiz boshlang'ich maktab muallimasi g'oyib bo'ldi. Men yana "Dam dyo sion"ning eng o'tkir, burro muallimalarini ham yig'lar darajasiga keltirgan tili zahar, o'jar, zolim Choliqushiga aylandim.

Biz murabbiya bilan oliy tabaqa yig'inlarida qo'llaniladigan usuli odob haqida munozara boshlagan edik, u bechora so'z topolmay qolib:

— Harholda, men yuksak jamiyatlarga kirib chiqqanman, hamma narsani o'z ko'zim bilan ko'rganman, — dedi.

U shu so'zi bilan meni mot qilmoqchi bo'lgan edi. Men esam uning yuziga g'olib tanta-nasi bilan qarab kulimsiradim.

— Tuzuk, lekin faqat kirib-chiqish kifoya emas, odam o'sha muhitda o'zining tabiiy hayoti bilan yashamog'i lozim, — dedim.

Tarbiyasi u qadar emasligiga ishorat qiluvchi bu hujumdan so'ng boyoqish sob bo'ldi. Kichkina poshozodalardan birining dars soati kelganini bahona qilib, chiqib ketdi.

Xonimlar qo'ylarday muloyim bo'lib qolishdi. Ular kibru havo va g'ururlarining iflos niqoblari yirtib tashlangandan keyingina o'z asllariga qaytadilar. Rostini aytganda, yomon odamlar emasdi. Ana shundan ke-yin men ham o'z ahvolini biladigan, ahamiyatsizligini tushunadigan mazlum, sodda maktab o'qituvchisi mavqeiga tusha bordim.

Xonim afandi va kichik xonimlar tez-tez kelib turishimni samimiyat bilan iltimos qildilar.

— Gohi-gohida kelib turaman, lekin hadeb kelaversam qanday bo'ladi, odamlar nima deyishadi? Tez-tez kelganimni ko'rishsa, meni sizlardan bir nima tama qilib yuribdi, deb o'ylashadi, — dedim.

Xonim afandi men qanday odamning qizi ekanligimni surishtirdi. U har nima qilib bo'lsa ham meni gapga solishni istardi.

— Badavlat bir oilaning faqirlikka tushib qolgan qiziman, — dedim.

— Xonim qizim, siz shu husningiz, shu fazilatlarining bilan juda yaxshi joyga tushishingiz mumkin..

— Balki, xonim afandi, meni ham o'ziga munosib ko'radigan biron zararsiz odam boradir. Faqat men o'zimni peshona terim bilan boqsam deyman, shunday qilsam yaxshiroq bo'ladi. Mehnat qilish ayb emas-ku, — dedim.

— Bordi-yu, sizni yaxshi bir oilaning yaxshigina bolasiga munosib ko'rishsa, nima deyar edingiz?

— Albatta, menga ko'rsatgan bu sharaflari uchun tashakkur bildirardim, lekin, fikrimcha, qabul qilmasdim.

Bularning asl maqsadlarini keyinroq payqadim. Ular sarvatlarini ko'z-ko'zlash, shu bilan ko'zlarimni qamashtirish uchungina mehmondorchilikka chaqirishmagan ekan.

Poshoning katta qizi birdan menga bog'larini ko'rsatgisi kelib qoldi. Bog'ları ham xuddi rang-barang gullilar bilan bezalgan zallariga o'xshardi. Bu yerda qanaqa gullar, daraxtlar, ko'katlar, butalar yo'q edi! Har qadamda gul tuvaklari! Ana shunday qilib, kichkina, yasama o'rmonchada, past bo'yli yosh qarag'aylor ichida...

Lekin buni tushuntirish uchun o'n ikki kun avval bo'lib o'tgan bir voqeani aytib o'tisha majburman:

Maktabimizning tanaffus bog'chasiga tutash kattakon uzumzori bor. Bolalar chetan to'siqni buzib yuborganliklari uchun bog'cha bilan uzumzor bir-biriga qo'shilib ketgan. Boshlarini qizil lattalar bilan bog'lab olgan uch-to'rtta kambag'al ishchi bir necha kundan beri yer chopish bilan ovora edi. Tanaffus mahallarida yonlariga borar, bechorlarning do'lday ter to'kib ishlaganlarini tomosha qillardim. Men aytmoqchi bo'lgan o'sha kuni bular orasida bitta yosh ishchi payo bo'lganini ko'rdim. U ham bularga o'xshash kiyingan, lekin basharasi, o'zini tutishi boshqacha edi. Masalan, quyoshda kuygan yuzining tagida oqish tiniqlik, ko'zlarida boshqacha o't bor edi. Qo'llari ham xotinlarniki singari nozik, kichkina. Narigi ishchilar singari keksa bo'Imagani uchun yoniga bormadim. Uning o'zi keldi. Issiqdan cho'llaganini aytib: "Qizlardan birontasiga suv keltirtirib bersangiz", — dedi.

Dunyoda yomon ko'rganim — xo'rozdan ham qochadigan xotinlardir. Shuning uchun qochmadim. Maktab o'qituvchisi ekanligimni o'ylab:

— Xo'p, o'g'lim, bir ozgina kut, aytaman, — dedim.

Men ichimda "Kambag'al bo'lib qolgan aslzodalardan bo'lishi kerak", deb o'yladim.

Bu ishchi ham uyatchan, ham dadil edi. Men bilan gaplashayotganda goho o'zini yo'qotib, duduqlanib qolardi. Shu bilan birga, suhbatga aloqasi bo'l'magan g'alati savollar ham berardi: "Bu yerda arzonchilikmi? Qish qattiqmi? Nok, olma bormi?..." — deydi. O'zi boshqa yerdan kelgan emish.

Suvni ichib turganda, men kulimsirab: "Miyasi aynibroq qolgan ko'rindi, bechora!" deb o'yladim.

Poshoning bog'ida, uhdasiga qarag'ayzorlikni taqlid qilish kabi haqoratli burch tushgan bechora daraxtlar orasida ko'rgan narsamning meni shunchalik ajablantirganini payqab olishga yuqoridagi tafsilot kifoya qilsa kerak.

Ha, shu daraxtlar orasida yana o'sha kambag'al mardikorga duch keldim. Lekin bu safar butunlay boshqa qiyofada edi. U qilichi, tugmalari, ordenlari, yoqasi, yuzi, tishlari, hatto bo'yagan sochlari qadar yaltirab turgan shtab kapitani edi. Xuddi suratga tu-shayotganday, ikkita qarag'ay orasida gavdasini g'oz, kallasini baland tutib, getrlarini bir-biriga yopishtirib turar, ingichka mo'ylovleri ostida, yarim yumuq lablari ichida tishlari, sho'x ko'zlari porillardi. Qisqasi, turishi, ko'rinishi shunday ediki, uni ko'rgan odam oq qo'lqoplari bilan hozir qilichini sug'uradi-yu, "Saf bo'l!" deb buyruq beradi, deb o'laydi.

Lekin shu on tushundimki, ofitserga bu buyruqni boshqa odam beribdi. Poshoning katta qizi Narima xonim:

— Voy, Ehson, sen shu yerdamiding? Qaerdan kelib qolding? — deb ajablandi.

Lekin bechora xotin rolini shu qadar xunuk o'ynadiki, "Voy! Ehson, qaerdan kelib qolding?" deb ajablanganda, ovozida: "Voy o'lay, yolg'on so'zlayotganimiz ochiq-oshkor se-zilib turibdi-ya" deguvchi ohang borligini bilib olish qiyin emasdi.

Ha, bu kulgili "hajviy opera" dekoratsiyasi ichida qiziq komediya o'ynashimiz kerak, ammo nima uchun? Buni keyinroq tushunib olarman. Hozir esa sir bermaslik, og'ir va ja-sur bo'lish kerak.

Harholda, bu posholar mujdalar qilishni yaxshi ko'radigan odamlarga o'xshaydilar. Lekin men ham bugun bo'sh kelmayman, nima qilishsa qilishsin, og'zimni ochib qolmayman. Ular meni uyalib, qochib ketadi, deb o'ylashgan bo'lsalar kerak. Hech-da, uzangidan tushadigan anoyi yo'q!

— Farida xonim afandi, siz ham biz singari istambulliksiz. Bo'ljam va sut qardoshim Ehsonni sizga taqdim etsam xafa bo'lmassiz, shunday emasmi? — dedi Narima xonim.

Men hech tortinmay:

— Aksincha, juda xursand bo'laman, afandim, — dedim.

So'ngra uning so'zlashiga imkon bermay o'zimni tanishtirdim.

— Farida Nizomiddin, maorif armiyasining eng kichik ofitserlaridan biri.

Yosh ofitser chiroyli, jangari qiyofasini uzoq saqlab qololmadi. Ajabo, bunda uni ayblab bo'ladi? Kichkina boshlang'ich maktab muallimasi bir necha kun avval mardikor qiyofasida ko'rgan bir kishini bugun quyoshday porlab, ertaklardagi shahzodalar singari husn to'kib turganini ko'rsa-yu, hayajonidan hushini yo'qotmasa! Aqlga sig'adigan narsami shu?

Ha, aksincha bo'ldi, men emas u shoshib qoldi! Bizga maktabda hamma fanlar asosida yillar bo'yi tirishib-tirmashib o'rgatishgan "salom marosimi"ni bu yigit yaxshi o'zlash-tirmagan ko'rindi. U askariy salom uchun ko'targan qo'lini yarim yo'ldan qaytarib tushirdi. Men bilan qo'l olishib ko'rishmoqchi bo'ldi shekilli, lekin qo'lini cho'zganda, undagi oq qo'lqopni ko'rib, yana darrov tortib oldi. Nazarimda, qo'lqop cho'g'ga aylangan-u, qo'lini kuydira boshlaganday bo'lib ketdi...

Uch-to'rt minutcha bamaylixotir gaplashdim. Bechora yigit mardikor kiyimida kelib mendan suv so'raganini eslayotgan bo'lsa kerak, ko'zi ko'zimga tushganda uyalib, yerga

qarab olardi. Lekin men u hodisadan bexabarday, o'zini endi ko'rayotganday gaplashib turaverdim.

Bir ozdan so'ng Narima xonim ikkalamiz uya qaytdik. Boyoqish xotin yuragi chopmayroq gap boshladi:

— Farida xonim, Ehsonni, albatta, tanigandirsiz? — dedi.

Ana xolos, maktab bog'idagi voqeadan bu ham xabardor ekan-da?

Men parvosizgina qilib:

— Ha, — deb qo'ya qoldim.

— Balki ko'nglingizga biron gap kelar, shuning uchun to'g'risini aytib beray, xonim afandi. Ehson o'rtoqlari bilan garov o'ynashgan ekan. Yoshlik-da, afandim, shunaqa bo'ladi.

Ajablanib lablarimni burishdan o'zimni tutolmadim.

— Nima deb garov o'ynashadi, afandim?

Narima xonim qizarib ketdi, xijolatpazligini yashirish uchun kului.

— Xonim afandim, maktabdan qaytib kelayotganingizda ofitserlardan ba'zilari sizni ko'rishgan ekan, juda ham go'zal deb maqtashibdi. Biz istambullikmiz, shuning uchun bu yerliklar singari bu xil gaplarni haqorat deb hisoblamaymiz, shunday emasmi, go'zalim! Ana shundan keyin Ehson "Har nima qilib bo'lsa ham shu muallima xonim bilan gaplashaman", deb garov o'ynabdi. Shu kuni jirkamasdan mardikorlardan birining kiyimini kiyib borib garovni yutibdi. Qiziq, a?

Men javob bermadim. Bechora Narima xonim so'zlarining menda qoldirgan taassuroti qanchalik sovuq ekanini yaxshigina anglandi.

Bugungi taajjub komediyaning so'nggi pardasi yana tepadagi mehmonxonada o'ynaldi. Ehsonbey bilan ko'rishganim xabari u yerga mendan oldin yetib kelibdi. Buni hamma qatnashchilarning yuzlari ko'rsatib turardi.

Uy bekasining maxfiy ishorasi bilan mehmonxonadagilar sekin-sekin chiqib ketishdi. Faqat Narima xonim qoldi.

Xonim afandi bir oz ikkilanib turgandan so'ng:

— Ehson qalay ekan, xonim qizim? — deb so'radi.

— Yaxshigina yigitga o'xshaydi, xonim afandim, — dedim.

— Yuzi ham chiroyli, o'zi ham o'qimishli, — dedi u mening javobimdan keyin. — Hozir martabasini ko'tarib, Bayrutga yuborishyapti.

— Qanday yaxshi! Haqiqatan chiroyli, yoqimli yigit. Ilmi ham, siz aytganday, mukammal ko'rindi, — dedim.

Ona-bola bir-biriga yalt etib qarab olishdi. Bu gapimga ham hayron qolishar, ham xursand bo'lishardi.

Xonim afandi qiqirlab kului.

— Xudo umringga baraka bersin, qizim, mushkulimni oson qilding, — dedi. — Men Ehsonni chaqaloqligidan emizib, o'zim katta qilganman. Farida xonim qizim, yosh qizlar bilan ochiq-ochiq gaplashib bo'lmaydi, lekin siz, xudoga shukur, es-hushi joyida, farosatli qizsiz. Albatta, hamma narsa xudoning irodasi bilan bo'ladi. Men sizni Ehsonga olib bersam, devdim. Sizni juda yoqtirib qolibdi. U ham sizga manzur tushgan bo'lsa, insholloh, baxtli bo'lasiz. Ehsonni bir oygina otpuskaga chaqirib olib, to'ylaringizni shu yerda o'tkazamiz, xo'pmi? Keyin Bayrutga birga jo'naysizlar.

Bog'da boshlangan komediyaning oqibati nima bo'lishini allaqachon sezgan edim. Chindan ham kulgili narsa: begona yerda meni qariyb tanimagan kishimga olib berishmoqchi! Shu dam birdan yuragimga mung to'ldi, negaligini bilmayman. Lekin kayfim chog'ligini bildirmaganim singari, yuragimdag'i bu mungni ham sezdirmasdim.

— Xonim afandi, joriyangiz uchun bu nihoyatda katta sharaf. Sizga ham, Ehsonbeyga

ham butun qalbimdan tashakkur bildiraman. Lekin buning iloji yo'q, — dedim.

Uy bekasi shoshib goldi.

— Nega qizim? Haligina uni yoqtirganingizni, chiroyli ekanini aytuvdingiz-ku!

Men kuldim.

— Xonim afandim, yana qayta aytaman: Ehsonbey chiroyli va arziguli yigit, lekin oramizda nikoh imkonи borligi aqlimga kelgan yo ko'nglimdan o'tgan bo'lса, uning fazilatlarini ochiq-oshkor aytا olarmidim, afandim? Bu narsa yosh qiz uchun haddan ziyod yengiltaklik bo'lmasmidi?

Ona-bola yana bir-biriga qaradi, oraga qisqagina sukunat tushdi. Keyin Narima xonim qo'llarimni ushlab:

— Farida xonim! Harholda uzil-kesil javobingiz shu bo'lmasin, chunki Ehsonbey juda qattiq xafa bo'ladi.

— Yana qaytarib aytaman: Ehsonbey juda chiroyli yigit, xohlaganini ololadi.

— Shunday-ku, lekin u sizni xohlaydi. Boya о'rtoqlari bilan garov o'ynaganini aytidik. Hech jahonda shunday ham qiladilarmi, go'zalim? Bola bechora o'n kundan beri o't ichida: "O'lsam o'lamanki, undan qaytmayman, albatta olaman!" — deydi.

Narima xonim bu gapni hali ko'p cho'zishini, meni ko'ndirish uchun ancha harakat qilshini sezib, buning iloji yo'qligini yumshoq so'zlar bilan qat'iy qilib tushuntirdim. Keyin ketishga ijozat so'radim.

Narima xonim qattiq xafa bo'ldi. Tarvuzi qo'Itig'idan tushib, onasiga:

— Oyijon, Ehsonga o'zingiz ayting, mening og'zim bormaydi. Farida xonim rad etar, deb o'ylamagan edim. Endi juda qattiq xafa bo'ladi-da, — dedi.

Oh, bu erkaklar-a! Hammasi ham xudpisand, hammasining ham kibri havosi baland! Bizlarning ham qalblarimiz borligini, bizlarning ham "albatta" xohlagan narsalarimiz bo'lishi mumkinligini hech eslariga keltirgilari kelmaydi.

* * *

Poshoning aravasi meni uyimga keltirib tashlaganda, Munisa qo'shnimiznikida ekan. Yechinmasdan avval o'zimni yana bir oynakka solib, tomosha qilmoqchi bo'ldim. Uy ichi olaqorong'i edi. Devorga tushib turgan xira oy yorug'iga o'xshash oynakda o'zimni zo'rg'a-zo'rg'a tanir edim. Bilmayman, qanday nur o'yini bo'ldi: kalta ko'k ko'ylagim ko'zimga oppoq ko'rinish ketdi. Etaklari uzayib, qorong'ilikda cho'zilib yotgan oq ipakka o'xshardi.

Birdan qo'llarim bilan yuzimni to'sdim. Xuddi shu payt Munisa uygа yugurib kirdi-da:

— Opajonim! — deb qichqirdi.

Undan yordam so'rayotganday qo'llarimni uzatdim. "Munisa!" demoqchi edim, lekin lablarimdan boshqa bir ism, meni nafratlantirgan katta dushmanimning ismi chiqib ketdi!

* * *

Ch..., 6 may.

Shu hafta sovchilardan boshim chiqmadi. Kechagi masxarabozlikdan o'zimni o'nglab olishga ulgurmay, bugun yana bir komediyaning qahramoni bo'ldim. Faqat bunisi kechagisidan ming qatla yomon, ayanchli komediya bo'ldi.

Voqeani o'zgartirmay yozaman. Sahna — bizning pastdagi mehmonxonamiz. Birdan Hoji Qurbon afandining xotini kirib keldi. Egnida faqat to'ylargagina yopinib boradigan hashamatli chorshaf, bo'ynida shoda-shoda tila marjon. Ahvoli g'alati, ko'zlar yig'laganga o'xshaydi.

Gaplashishga boshlaymiz.

Men:

— Nazarimda, mehmon chaqiriqqa ketayotganga o'xshaysizmi?

U:

— Yo'q, singlim, ataylab sizning oldingizga kirdim.

Men:

— Juda ham yasanibsizmi bugun? Men uchunmi?

U:

— Ha, singlim, siz uchun.

Men hazildan o'zimni tiyolmay:

— Bo'lmasa mengasovchi bo'lib kelibsiz-da?

U sodda ko'zlarida sof hayrat bilan:

— Qaerdan bildingiz?

Men sarosima bo'lib qoldim.

— A?! Rostdan ham mengasovchi bo'lib keldingizmi?

U xo'rsinib:

— Ha, singlim.

Men:

— Kimga?

U dunyodagi eng oddiy narsa to'g'risida gapi rayotganday:

— Mening erimga.

Shu qadar sodda xotining hech sir bermay hazil qilishi menga juda xush yoqdi, qahqaha urib kulib yubordim. Lekin u kulmaydi, aksincha, ko'zlariga yosh keladi.

U:

— Aylanay singlim, erim sizni yoqtirib qolibdi, sizni olaman, deb meni qo'yemoqchi. Yalindim, yolvordim: "Hechqisi yo'q, mayli, u xonimni ham oling, zinhor meni qo'y mang. Biz opa-singilday o'tiramiz. Men sizlarning ovqatingizni pishirib beraman, xizmatlaringizni qilaman", — dedim. Aylanay jigarim, menga rahming kelsin!

— Qurbon afandi sizni qo'yib, meni olishiga ko'zi yetadimi?

U odamni dod degizib yuboradigan bir soddalik bilan:

— Ha, yetadi. "Ellik tilla berishga roziman", — deydi.

Men:

— Bechora qo'shnik, ko'nglingizni to'q tutavering. Hech mahal uning aytgani bo'lmaydi!

Bechora xotin duo qiladi.

Parda.

* * *

Ch..., 15 may.

Bugun kechqurun mактабда о'qishlar tugagandan so'ng mudira xonim meni kabinetiga chaqirib oldi-da, qovog'ini solib turib:

— Farida xonim qizim, — dedi, — sizning jiddiyat va g'ayrutingiz menga juda yoqadi. Lekin bitta kamchililingiz bor: o'zingizni haligacha Istambulda deb bilasiz. Go'zallik boshga balodir, degan mashhur gap bor. Siz ham go'zal, ham yolg'iz bo'lganingiz uchun o'zingizni durustroq saqlashingiz kerak edi. Holbuki, ba'zi bir ehtiyoitsizliklarga yo'il qo'ygansiz. Xafa bo'lmanq, qizim! Jinoyat deganim yo'q, ehtiyoitsizlik deyapman. Xudoga shukur, shahrimiz undaqa xilvat, qoloq shaharlardan emas. Xotinlar ancha tuzuk, yaxshi kiyinib yura olishadi. Muallimalarimiz ham shunday. Lekin boshqalar uchun tabiiy bo'lgan bir narsa sizda odamlarning diqqatini jalb qilib qo'ydi. Chunki, qizim, yosholgingiz, husingiz uchragan erkaklarni qayrilib qarashga majbur qiladi. Oqibatda shaharda har xil

fisqi fasodlar tarqala boshladi. Men bu yerda hech narsani bilmaganday o'tirsam ham lekin hamma gapdan xabardorman. Masalan, kazarmalardagi ofitserlardan, qahvaxonalar-dagi do'kondorlardan tortib to idodiya maktabidagi yuqori sinf talabalarigacha sizni tani-magan, sizdan gapirmagan odam yo'q emish. Bu to'g'rida kim haq, nima sabab bilan gap ochganim masalasiga kelsak, buning ham ikkita boisi bor, qizim. Avvalo, yaxshi, odobli qiz bo'lsangiz ham, lekin tajribasizsiz. Biz odamlarning yaxshi-yomonini biladigan yoshga yetib qolganmiz. Shuning uchun sizga onalik, opalik qilish burchini uhdamga olmoqchi bo'ldim. Qolaversa, maktabimizning sha'ni masalasi ham bor, shunday emasmi, qizim?

Mudira xonim yuzimga qaramasdan ikkilanib davom qildi:

— Maktab ham machit singari tabarruk joy. Uni g'iybatlardan, tuhmatlardan va boshqa kir-dog'lardan saqlash bizning eng muhim burchimizdir. Shunday emasmi, qizim? Qurib ketgur shu xunuk gap-so'zlar, afsuski, maktab sha'niga ham tegyapti. Kechqurun qizlarini, singillarini olib ketish uchun maktab eshigiga keluvchi otalar, aka-larning qanchalik ko'payib ketganligiga razm solmadingizmi? Ehtimol, siz bunga diqqat ham qilmagandirsiz. Lekin men yaxshi bilaman. Ular qizlarini yo singillarini olib ketish-dan ko'ra ko'proq sizni ko'rish niyatida keladilar. Bir kuni kambag'al o'quvchi qizlarimiz-dan birining sochini o'rib, uchiga kichkina lenta bog'lab qo'yibsiz. Bilmayman, qaerdan bildi ekan, bir esi past leytenant qizchaga pul berib, lentasini tortib olibdi! Hozir o'sha lentani ora-sira ko'kragiga taqib olib: "Endi meni generallissimus deyishlaring kerak, chunki bu ordenni Gulbashakardan olganman!" — deb o'rtoqlari bilan hazillashib yurarmish.

Kecha darvozabon Mehmet og'a bir g'alati xabar aytdi. Ilgari kuni kechasi qovoqxona-dan kelayotgan bir to'da mast maktab eshigining oldida to'xtabdi, shulardan biri: "Men devordagi mana shu qoratoshga Gulbashakarning qo'li tekkanini ko'rganman. Kelinglar, xudo haqqi, shu toshni avliyo tosh deb ko'zlarimizga surtaylik!" — debdi. Ko'rib turibsiz-ki, qizim, bu narsalar o'zingizning ham, maktabingizning ham sha'niga hech to'g'ri kel-maydi. Yana shunisi qiziqliki, bular ham yetmagandek, yana bitta xunuk ish qilgansiz: Abdurahim poshoning uyida kapitan Ehsonbek bilan gaplashgansiz. Xonim afandining takli-fin qabul qilganingizda ham boshqa gap edi, birov buni og'izga olib o'tirmasdi. Lekin yosh yigit bilan gaplashganingiz, keyin esa unga tegish taklifini rad etganingiz gap-so'zga sabab bo'ldi. "Shunday Ehsonbeygaki unamabdi, demak, u boshqani yaxshi ko'radi! Ajabo, kim ekan u?" qabilida har xil gaplar yuribdi.

Bu so'zlarni qimirlamay, javob qilmay o'tirib eshitdim. Mudira xonim boshida mening e'tiroz va isyonimdan qo'rqqan bo'lsa, endi, aksincha, sukutimdan vahimaga tusha bosh-ladi. Nihoyat, yuragi dov urmay so'radi:

— Bularga nima deysiz, Farida xonim?

Sekin xo'rsinib, o'yga cho'mib turib javob qildim:

— So'zlaringizning hammasi to'g'ri, mudira xonim. O'zim ham zimdan sezib yurardim. Bu shinam shaharni tashlab ketishga ko'zim qiymaydi, lekin nachora? Ministrlikka xat yozsangiz. Biron sabab ko'rsatib, meni boshqa yerga ko'chirishlarini iltimos qilsangiz. Bu masalada menga qiladigan eng katta odamgarchililingiz va rahmu shafqatingiz shu bo'ladi. Xatda asl sababni ko'rsatmay, boshqa bahonalar keltirasiz. Mayli "tajribasiz" deng, "qo'lidan ish kelmaydi" deng, "johil" deng, "osiy" deng, nima desangiz deng, mu-dira xonim, sizdan xafa bo'lmayman. Ishqilib, shaharda gap-so'z bo'lgani uchun xohla-mayman, demasangiz bo'ldi.

Mudira xonim churq etmay o'ylar edi. Ko'zlarimga chiqqan yoshlarni ko'rsatmaslik uchun deraza tomonga o'girilib oldim. Ufqda, kechki ko'kish osmon tagida pag'a-pag'a tutunlarga o'xshagan tog'larni tomosha qila boshladim.

Choliqushining dimog'iga ana shu tog'lardan yangi g'urbat bo'ylari kirardi. G'urbat bo'ylari! G'urbat bo'yini butun qalbi bilan hidlamaganlar uchun naqadar ma'nosiz so'z bu! Xayolimda yana o'sha tanish yo'llar, hamon torayib, huzun to'lib borgan, oxiri ko'rinxagan g'urbat yo'llari cho'zilib yotar, quloqlarimda o'tkinchi aravalarning yoniq ovoz bilan g'ijirlagan yig'ilari eshitilardi.

Qachongacha, yo rabbiy, qachongacha g'urbat zahrini yutaman? Nima uchun? Qaysi murodimga yetish uchun?

* * *

Ch..., 5 iyun.

Qushlarimning ohi tutdi. Shu uzun kanikul oylarida qushlarim singari uyimda qamalib o'tirdim. Mudira xonim sentyabrdan avval boshqa yerga ko'chirilishimning iloji yo'qligini aytdi. Hozir o'zimni odamlarning eslaridan chiqarishga kirishib, ko'cha-ko'yda qadam bosmayman. Qo'shnilarim ham meni ilgarigiday yo'qlashmaydi. Ehtimol, gap-so'zlardan hayiqishar. Faqat xolamga o'xshagan bitta qari xotin bilan gaplashib turaman. Ovozi xolamnikiga shunaqayam o'xshaydiki, kecha uyalib-tortinib turib undan bir narsani iltimos qildim.

— Aylanay xonim afandi, meni "xo'jonim" demay, to'g'ridan-to'g'ri Farida desangiz qalay bo'larkin-a? — dedim.

Qo'shnim bir oz shoshib qoldi, lekin gapimni qaytarmadi. U so'zlab turganda ko'zlarimni yumib olaman, shunda o'zimni yana Qo'zyotog'idagi bog'imizda ko'ra boshlayman!..

Yo rabbiy, qanday yarashmagan narsalarni so'zlayman-a! Balki menda ham asab kasali boshlangandir? Harholda, yuragimda bir qarorsizlik bor... Yana bir mahallardagiday kulaman, yana Munisa bilan hammol bolalar singari kurashamiz, bo'g'ishamiz. Yana qushlar bilan o'ynashib hushtak chalamiz. Shunday bo'lsa ham na besaranjomligi qalbimni tark etadi va na qayg'um! Ichimga chiroq yoqsa ham yorishmaydi...

Kechasi kemada Ch...ga kelayotganimizda uyqum qochib ketgan edi. Allaqanday bir yo'lovchi qorong'i dengizga qarab olib, mungli bir tovush bilan "Sendadir ovora ko'nglim, sendadir!" deb ashula aytardi.

Bu ashula o'sha soati esimdan ham chiqib ketgan edi. Oradan oylar o'tdi. Lekin bog'chamizdag'i ertangi gullar ochila boshlagan aprel kunlarining birida, hech nimadan-hech nima yo'q, ana shu ashulani xirgoyi qila boshladim. Inson qalbi naqadar tushunib bo'lmaydigan bir muammo! Atigi bir martagina eshitgan shu ashulaning ohangini, so'zlarini qanday qilib esda olib qolibman? Mana endi, nima bilan mashg'ul bo'lmayin: qushlarga suv beramanmi, derazamdan ko'rinish turgan dengizni tomosha qilamanmi, ishqilib, hammavaqt shu ashulani ming'illab aytganim-aytgan. Kecha kechqurun shu ashulaning "Sendadir ovora ko'nglim, sendadir!" deyilgan so'nggi misrasini takrorlab turib birdan yig'lab yubordim. Bunga hech sabab yo'q edi, chunki ashulaning na so'zlarida g'am bor edi va na ohangida. Aytdim-ku, asab!

Endi hech mahal bu ashulani aytmayman!

* * *

Ch..., 20 iyun.

Maktabda Nazmiya degan bir dugonam bor. Yigirma to'rt-yigirma besh yoshlarda, chiroqli, xushchaqchaq, hazilkash bir qiz. Tili nihoyatda shirin. Har oqshom biron yerga taklif qilinadi. Muallimalarimiz uni uncha yoqtirishmaydi. O'zim ham uning to'g'risida anchamuncha past-balandoqlar eshitaman. Qaydam, balki chiroqli kiyingani uchun yoqtirishmas, ko'zlar kuyar?

Nazmiyani bir kapitanga unashib qo'yishgan deyishadi. Juda yaxshi yigit emish. Lekin yigitning ota-onasi hozir nikohlariga rozilik bermayotganlari uchun yashiriqcha uchrashib turishar ekan. Nazmiya buni menga sir deb aytdi, birovga og'zingdan chiqarma, deb iltimos etdi.

Kecha uyda zerikkanimdan tars yorilib ketay deb o'tirganimda Nazmiya kelib qoldi.

— Farida xonim, sizni olib ketgani keldim, — dedi. — Bugun Faridunning xolasi chaqirgan edi. Suv boshidagi bog'larida ziyofat berishar ekan. Sizni tanimasa ham salom aytdi, meni, albatta, olib kelasan deb yubordi.

— Qanday bo'ladi? Bilmagan yerimga qanday boraman? — dedim.

Nazmiya ko'zlarida o'pka bilan qaradi-da:

— Unashgan kishimning xolasi nima uchun senga begona bo'lar ekan? — dedi. — Men Faridunni sen bilan tanishtirib qo'ymoqchi edim: didimga qoyil qolasan deb o'ylayman. Sen bormasang, o'lay agar, men ham bormayman.

Men bormaslik uchun talay bahonalar ko'satdim. Ammo hammasini Nazmiya rad etdi, tan berish kerak, bahonalarimning hammasi ham asossiz, bolalar bahonasiday sodda edi. Buning ustiga, yuqorida aytdim, Nazmiya juda shayton qiz, odamning u yog'idan krib, bu yog'idan chiqadi.

U shuncha yalindi, shuncha yolvordiki, oxiri, iloj topolmay, xo'p dedim.

Xo'p deyishga dedim-u, lekin bir narsa meni xijil qilib qo'ydi. Munisani kiyintirmoqchi bo'lvdim, Nazmiya qoshlarini chimirib:

— Kichkinani ham olib bormoqchimisan? — dedi.

— Albatta! Bo'lmasa uni qanday qilib uyda yolg'iz qoldirib ketaman? Yo xalaqit beradimi?

— Yo'g'-e, nega xalaqit bersin? Borsa yana yaxshi. Gohi mahallar uyg'a tashlab ketarding-da...

— To'g'ri, lekin shu mahalgacha biron yerga yotib qolgani borgan emasman.

Men endi hech narsa ko'rмаган qiz emasdum. Shu ikki yil ichida boshimga ne-ne savdolar tushmadi, ne-ne narsalarni ko'rmadim, eshitmadim. Nima bo'ldi, qanday jin meni chaldiki, o'shanda Nazmiyaning so'zlari menda shubha uyg'otmad! Shunisiga hech tu-shuna olmayman. Balki zerikish, toza havoga intilish ishtiyoqi to'g'ri yo'ldan ozdirgandir?

Kichkina izvosh bizni soyning ul yuziga olib o'tdida, bog'lar orasida, daraxtlar soyasida ko'milgan tor yo'l bilan olib ketdi. Yarim yo chorakam bir soatchalardan keyin bir boqqa kelib tushdik. Bu yerlar nihoyatda xilvat, nihoyatda chiroyli joylar edi. Yo'lda qo'y podasini uchratdik. Bir qari cho'pon dala qudug'idan suv tortib, tosh tog'orada qo'ylarni sug'oryapti. Ingichka mo'gizchalari bilan tog'ora boshida bir-birlarini suzishgan uloqlar Munisa ikkalamizning esimizga Mazlumi tushirib yubordi. Izvoshdan irg'ib tushdigu, uloqlardan birini ushlab, uzun qulqlaridan, suv tomchilagan kichkina tumshuqchasidan o'pdik. Bir ko'nglim cho'pondan bittasini sotib olay ham dedim. Lekin nima qilamiz? Axir yaqinda yana tashlab ketishga majbur bo'lamic. O'z g'amimiz boshimizdan oshib-toshib yotgani ustiga yana bir g'amga nima hojat?

Biz tushgan bog' binosi uchi-ketini ko'z ilg'ayolmaydigan poyonsiz uzumzor o'rtasida edi. Atrofi ko'm-ko'k daraxtlar bilan o'rab olingan.

Faridunbeyning xolasi yoshi qaytgan semiz xotin ekan. Kiygan kiyimlari, o'ziga bergan orosi, to'g'risini aytsam, menga manzur bo'lmadi. Qari xotinga bunchalik zebu ziynat yarashmaydi. Sochlari sariqqa bo'yalgan, chakkalarida zulf, betlarida elik, qisqasi, taaj-jub narsa!

Bu xotin bizni ikkinchi qavatga boshlab chiqib, boshimdan chorshafimni oldi. Keyin xuddi hidlayotganday qilib, haddan ziyod bir takallufsizlik bilan betlarimdan o'pdi-da:

— Qadr qilib kelganingga xursand bo'ldim, olmos qizim! Gulbashakar deganlaricha bor

ekansan, gиргиттон! Chindan ham odamning yeb yuborgisi keladi. Kuyib-yonganlaricha bor ekan, tasadduq, — dedi.

Juda yomon qizarib ketdim. Lekin sezdirmaslik kerak edi. Bu xotin nima deyayotgani ni o'zi ham bilmaydigan ba'zi nodonlarga o'xshaydi.

Munisa ikkalamizni uyda yolg'iz qoldirishib, uzoq yo'q bo'lib ketishdi. Quyosh botdi. Kechqurungi pushti yog'du chorborg'ni o'rab olgan yashilliklar orasida sekin-sekin yo'qolib bordi. Ichimdag'i vahmni tarqatish uchun Munisa bilan hazillashardim. Lekin qani endi tarqalsa! Yuragimni vahm qurti kemirar, ichimni chiroq yoqsa yorimaydigan qorong'ilik bosib borardi.

Bog'dan erkaklar, xotinlar ovozi, qahqahalari, sho'xliklari, buzuq g'ijjakning sozlanayotgani eshitilardi.

Derazadan boshimni chiqarib qaradim, lekin qalin yaproqlar orasidan hech nimani ko'rib bo'lmasdi.

Nihoyat, zinapoyadan oyoq dupuri eshitildi. Bir ozdan keyin eshik ochilib, qo'lida kattakon chiroq bilan uy bekasi kirib keldi.

— Oppoq qizim, seni jo'rttaga qorong'ida kuttirib qo'ydim. Kun botayotganda bog' shunday chiroqli bo'ladiki, husniga hech to'ymaydi kishi.

Kampir chiroqning piligini tuzata turib, oydin kechalarda bu bog' jannat bo'lib ketishini ayta boshlaganda Nazmiya kirdi. Eshik tashqarisida harbiy formalik ikkita ofitserning uzun qorasi ko'rindi. Boshim ochiq edi, darrov o'zimni olib qochib, qo'llarim bilan sochlarimni yopmoqchi bo'ldim.

Nazmiya kulib yubordi.

— Jonginam, muncha ham qishloqi bo'lmasang! Harholda, mening nishonlimdan* qochmassan deyman? Qo'lingni tushir, voy xudo, uyat emasmi? — dedi.

To'g'ri aytadi, qochishga unchalik sabab ham yo'q edi.

Ofitserlar tortinishib, ikkilanishib ichkari kirishdi. Nazmiya ulardan birini tanishtirdi:

— Faridunbey, nishonlim. Farida xonim, dugonam. Toleimga, ikkala yaxshi ko'rgan kishilarimning ham ismlari bir-biriga yaqin tushdi.

Yosh ofitser bu latifaga og'zini katta ochib kului. Hali-hali esimda, kichikligimda katta buvum g'alati gugurt qutilar sotib olardi. Shularning ustida mo'ylovleri buralgan, yelkalari chiqqan, jingalak sochlarining bir tutami ko'zlariga tushib turgan yarmarka oliftasining surati bo'lardi. Faridunbey ham ana o'sha gugurt qutilarining biridan sakrab tushganday edi. Qo'limni takallufsizlik bilan dag'al qo'liga olib qisdi, silkitib turib:

— Xonim afandim, tashakkur, bizni nihoyatda minnatdor qildingiz, kechamizga sharaf berdingiz, salomat bo'ling, — dedi.

Keyin orqasida turgan ofitserni tanishtirdi.

— Ijozat bersangiz, qulingiz ham o'zining jona-jon do'stini tanishtirsa: valiulne'matim mayor Burhoniddinbey. Do'stimiz mayor, lekin biz bilgan oddiy mayorlardan emas, mashhur So'loqzodalarning kichik avlod...

So'loqzodalarning bu kichik avlodni allaqachon qirq beshlarni urib qo'yan edi. Sochlari bilan mo'ylovlariga oq aralashgan. Kibor oiladan ekanligi hammayog'idan ko'rini turardi. Kiyinishi, turishi, so'zlashi Faridundan butunlay boshqacha edi. Qiyoqasi, oppoq sochlari o'rtog'i menda qoldirgan qo'rquv aralash yomon taassurotni tarqatdi. Ko'nglim endi bir oz tinchiganday bo'ldi.

Burhoniddinbeyning gaplari ravon, jonli edi. U boshini nozikkina egib, uzoqdan salom berdi. Keyin qaddini xiyol bukib:

— Burhoniddin bandangiz, — dedi. — Afandim, marhum padari buzrukvorimiz hamma mulklari ichida shu bog'ini ko'proq yaxshi ko'rardilar. "Bu yer juda xosiyatl. Men qancha baxt topgan bo'lsam, hammasini shu yerda topganman", deyardilar. Janoblarining tash-

rifi oliyalarini ko'rib, padari buzrukvorimizning so'zlarini bir karomat deb bildim.

Burhoniddinbeyning bu so'zlarini xushomad deb tushunish kerakdir. Lekin uning bu boqqa qanaqa aloqasi bor?

Men ajablanib Nazmiyaga qaradim, undan izoh kutardim. Lekin u menga qaramas, ko'zlarini yerdan ko'tarmas edi. Shu damgacha men bog'ning egasi deb bilgan xotin Munisani qo'lidan yetaklab olib chiqib ketdi.

Shu yerda yarim soatdan ortiqroq valaqlashib o'tirdik. To'g'rirog'i, ularning o'zlarini valaqlashdi. Chunki menda gapirish u yoqda tursin, gapni eshitishga ham majol qolmagan edi. Qo'rquv ombur singari qalbimni qisar, nafasimni bo'g'ar, miyamni karaxt qilib borardi. Hech narsa tushunmas, hech narsa sezmas, inida hujumga uchragan jonivor bolasining idroksiz qo'rquvi bilan burchakka tiqilib, shumshayib o'tirardim.

Pastda birov g'ijjak chala boshladi, keyin g'azal o'qildi. So'ngra yo'g'on va ingichka ovozlar aralashib bir necha ashula aytdi.

Nazmiya bilan nishonlisi divanda yonma-yon o'tirishar, sekin-sekin surilishib bir-birining qo'yniga kirib borishardi. Ularga orqamni o'girib oldim. Naqadar hayosiz odamlar-a! Kinolarda ko'rsatiladigan pastkash ishq sahnalaridan birini ikkita begona oldida sira uyalmiy, zarracha tortinmay o'ynashsa-ya!.. Ha, bular juda yomon, hayosiz odamlar!

Semiz xotin stolga bir necha shisha, ovqat tuzalgan patnis keltirib qo'ydi. Burhoniddinbey qo'llarini cho'ntaklariga solib olib, u yoq-bu yoqqa yurar, ora-sira bizga orqasini qilib stol oldida to'xtar edi. Shu yurishlarning birida mayor oldimda to'xtaganini, sekingina egilganini ko'rdim.

— Lutfan qabul qilmaydilarmi, kichik xonim? — dedi.

Men hayrat bilan ko'zlarimni ko'tardim. Qo'lidagi kichkina qadahda yoqut singari qip-qizil ichimlik porladi. Boshimni chayqab rad etdim. Keyin past ovoz bilan:

— Xohlamatayman, — dedim.

U yana ham ko'proq egildi, issiq nafasi yuzimga urildi.

— Zarar qilmaydi, kichik xonim. Dunyoning eng nozik, eng xushhazm likyori. Shunday emasmi, Nazmiya xonim?

Nazmiya boshini chayqadi.

— Majbur qilmang, Burhoniddinbey. Farida bu yerda o'z uyida o'tirganday o'tiraversin. Ko'ngli xohlaganini qilsin.

Burhoniddinbeyning oqara boshlagan sochlari, mo'min va kibor chehrasi shu damgacha menga mubham bir ishonch berib kelgan edi. Endi undan ham qo'rqa boshladim. Yo olloh, boshimga yana qanday balolar tushdi? Qaerga kelib qoldim? Endi qanday qutulaman?

Uydagi chiroqlar sekin-sekin o'cha bordi. Ko'zlarimga cho'kkан bu qorong'ilik ichida mayda uchqunchalar uchishadi, musiqa sadosi quloqlarimga uzoq-uzoqlardagi dengiz o'kirigidek eshitiladi.

— Oppoq qizim, ovqat mahali keldi, pastda bir necha mehmonimiz bor, sizni kutib o'tirishibdi.

Bu so'zlarni o'sha semiz xotin kelib aytdi. Men hushimga kelganday bo'ldim.

— Rahmat. Tobim qochibroq turibdi, meni qo'ya qoling, — dedim.

Nazmiya turib yonimga keldi.

— Faridaginam, xudo haqqi, yot kishilar yo'q. Faridun bilan Burhoniddinbeyning bir-ikkita oshnasi, keyin ulardan ba'zilarining nishonlilari, xotinlari, ha, xotinlari, xolos. Chiqmasang ayb bo'lar, axir ular seni deb kelishgan.

Bilaklarimni Nazmiyaning qo'lidan chiqarishga tirishar, kursining suyanchiqlariga tir-mashib, o'zimni burchakka urardim. So'z og'zimga kelmas edi. Tishlarimni mahkam siqib olmasam, bir-biriga urilib takirlay boshlardi.

Burhoniddinbey:

— Bizning burchimiz mehmon nima buyursa, nima xohlasa shuni qilishdir. Siz mehmonlarning yoniga tushing, Farida xonim picha betob bo'lib qoldilar deb ayting, Mengnoz xonim, bizning ovqatimizni shu yerga keltiring. Mehmonimni yolg'iz qoldirmaslikni o'zimning burchim deb bilaman.

Men bu gapni eshitib, jinni bo'lib qolayozdim. Uyda Burhoniddinbey bilan yolg'iz qolay? U bilan o'tirib ovqat qilay!

Nima qilayotganimni bilmasdan, buning ma'nosiga ham bormasdan sakrab kursidan turdim-u, jonimning boricha:

— Juda soz, xohlaganlaringiz bo'lisin! — deb qichqirdim.

Nazmiya nishonlisi bilan oldinda bordi. Burhoniddinbey esa mendan bir odim orqada keldi.

Qorong'i tashqarining etagida bitta eshik ochildi. O'tkir yorug' ko'zlarimni birdan qamashtirdi. Shiftdan to'kilib turgan kuchli yorug'da gandiraklab bir necha odim yurdim. Devorlarda oynaklar porillar, bular mehmonxonani hadsiz-hisobsiz uzaytirib ko'rsatardi. Qandillar esa qorong'ida chopib ketayotgan mash'allar singari uzoq-uzoqlarga ketardi.

Nima bo'ldi menga? Xuddi tushdag'i singari juda ko'p ko'zlarni, erkak va ayollarning xira, bulg'ananch yuzlarini ko'ryapman. Keyin birdan dahshatli qarsaklar yangradi. Ovozlar musiqa sadolarini bosib guvillar, kuchayar, tog' shamoliday uzoq-uzoqlarga guldirab ketardi.

— Yashasin Burhoniddinbey! Yashasin Gulbashakar! Yashasin Gulbashakar! Gulbashakar!..

* * *

Ko'zlarimni ohib, o'zimni Munisaning qo'llarida ko'rdim. Kichkinam: "Opajonim! Opajonim!" deb yig'lar, yuzini yuzimga bosib, ho'l sochlarimni, atir achishtirgan ko'zlarimni o'pardi. Ust-boshim jiqla ho'l edi. Olaqorong'i xonada juda ko'p ko'zlar menga tikilib turganini his etardim. Birinchi qilgan harakatim ochiq bo'ynimni qo'llarim bilan yopish bo'ldi.

Notanish bir tovush:

— Tashqariga chiqing, iltimos qilaman, tashqariga chiqing! — deb baqirardi.

Xiyol to'lg'anib o'rnimdan turmoqchi bo'ldim, lekin bir qo'l yelkamdan ushladi.

— Qo'rhma, qizim, qo'rhma, hech nima bo'lgani yo'q,— dedi.

Kipriklarimni xiyol ohib, bu so'zni so'yLAGAN kishining yuziga qaradim. U hamisha mundirining oldi ochiq yuradigan semiz qo'log'asi edi. U ham menga qaradi, ke-yin yonidagi kishiga o'girilib:

— Bechora, chindan ham yosh bola ekan, — dedi.

Nazmiya yonimda cho'kkalab olib, panjalarimni uqalar:

— Faridaginam, hushingga keldingmi? Bizni biram qo'rqtib yubordingki! — deyardi.

Yuzini ko'rmaslik uchun boshimni teskari o'girib, ko'zlarimni yumib oldim.

Keyin bilsam, hushimdan ketibman-u, chorak soatcha o'zimga kelmabman. Atir sepi-shibdi, jun yoqib hidlatishibdi, hech bir narsa kor qilmabdi. Axiri umidlarini uzib, shahar-dan doktor keltirgani arava ham tayyorlab qo'yishibdi.

O'zimga kelganimdan keyin meni o'sha aravada shaharga jo'natishlarini iltimos qil-dim. Yo'q deyishsa, kechasi bo'lganiga qaramay, yayov jo'nashdan ham toymasligimni aytdim. Chor-nochor rozi bo'lishdi. Semiz qo'log'asi paltosini kiyib, aravakashning yoniga chiqib oldi.

Jo'nash paytimizda Burhoniddinbey o'ng'aysizlanib yonimga keldi-da, yuzimga qarashga yuragi betlamay:

— Farida xonim, siz bizni juda xato tushundingiz, — dedi. — Ishoning: hech kimning

sizga nisbatan yomon niyati yo'q edi. Shunchaki sizni mehmon qilish, bog' saylida yayratish istagida edik. Istambulda tarbiya olgan, so'ngra, masalan, bir necha kun avval o'rtoqlarimizning biri bilan hamsuhbat bo'lisdan tortinmagan kichik xonimning bu qadar yovvoyi tabiatи borligini qaerdan bilibmiz? Yana qaytarib aytaman: sizga nisbatan yomon niyatimiz yo'q edi. Shunday bo'lsa ham, xafa bo'Iganingiz uchun sizdan uzr so'rayman.

* * *

Arava bog'lar orasidan tor yo'llar zulmatiga sho'ng'ib ketdi. Bir burchakda sovuq yegandek shumshayib, ko'zlarimni yumib bordim. Xayolimda sekin-sekin boshqa kechanning savdosi gavdalana bordi. Qo'zyotog'idagi chorbog'dan boshimni olib qorong'i yo'llarga tushgan kecham...

Xushbo'y lox daraxtining shoxlari sayabonli arava derazachasidan goho ichkariga kira-di-da, yuzimga, ko'zlarimga tegib, shirin xayollarimni quvadi.

Boshini aravaning narigi derazachasiga suyab o'tirgan Munisaning chuqur-chuqur xo'rsinganini eshitdim-u, past tovush bilan:

— Munisa, uyg'ondingmi? — deb so'radim.

Javob bermadi, boshini yana battar egib oldi. Razm solsam, bechoram yig'layapti! Misoli katta kishilarday, ko'z yoshlarini qorong'ilikda yashirib yig'layapti.

Qo'llarini ushlab:

— Nima bo'ldi, qo'zim? — deb so'radim.

Mendan ko'proq yashagan, mendan ko'proq aqli bo'Igan kishi iztirobi bilan boshimni quchoqladi, keyin qulog'imga yaqin kelib:

— Opajonim, biram yig'ladim, biram qo'rqedimki!.. Sizni nima uchun chaqirganlarini payqadim, opaginam! Endi zinhor unday yerkarda bormaylik! Xo'pmi? Siz nima deysiz? Xudo ko'rsatmasin, onam singari... unda mening holim nima bo'ldi, opajon?

Oh, qanday sharmandalik, qanday tushkunlik, yo rabbiy! Razolatga tushgan xotin singari bu kichkina qizdan uyalar, ko'zlarimni olib qochardim. Keyin boshimni uning kichkina tizzalariga qo'ydim, to uyga yetguncha, onasining quchog'ida yig'lagan bola singari, piq-piq yig'lab bordim.

* * *

Mudira xonimning uyiga borganimda, kun endi chiqqan edi. Boyoqish kampir shu qadar barvaqt kelganimni, ko'zlarimning yig'idan qizarganini, rangimning sarg'ayib ketganini ko'rib shoshib qoldi.

— Tinchlikdir, inshoollo, Farida xonim! Nima bo'ldi, qizim? Seni hech mahal bu kepatada ko'rмаган edim... Tobing joyidami?

Bu xotinning og'irligi, jiddiy va shiddatli chehrasi qalbimni ochishga yo'l qo'ymay, meni hamisha qo'rqtib kelardi. Lekin shu topda, shu begona yurtda dardimni ochishga undan boshqa kishim yo'q edi. Innaykeyin, vazifam, xizmat burchim ham meni shunga majbur qilardi.

Kecha kechasi bo'lib o'tgan voqeani uyalib-qizarib, dag'-dag' titrab turib aytib berdim. Biron nuqtasini yashirib qolmadim. Kampir so'z qotmasdan, qoshlarini chimirib o'tirab eshitdi. Hikoyamning oxirida qaddimni bukdum, qo'llarimni cho'zdim, tasalli tilayotganday ko'zlariga termilib:

— Mudira xonim, — dedim, — siz mendan kattasiz, ko'proq narsa bilasiz. Xudo haqqi, to'g'risini aytинг. Nahotki men endi yomon xotin deb sanalsam?

Bu savol mudirada qattiq hayajon va alam uyg'otdi: iyagimdan ushlab yuzimga ko'tardi, ko'zlarimga yaqin kelib tikildi, lekin har vaqtdagiday mudira ko'zi bilan, yot-begona ko'zi bilan emas, yo'q, sevguvchi ko'zi bilan, mehribon ona ko'zi bilan tikildi. Keyin iya-

gimni siladi, tizzasida turgan qo'llimni suyib siypadi, titroq tovush bilan sekin-sekin gap boshladi:

— Farida, sening bu qadar mas'um, halol qiz ekaningni shu kunchaga aqlimga ham keltirmagan edim. Yaxshi muomalaga, katta sevgiga sazovor qiz ekansan. Bechoraginam... Eh, u Nazmiya-ya! Qizim, men anchagini narsani bilaman. Hamma narsani fahmlayman. Lekin dunyo shunaqa dunyoki, bilgan narsalaringning ko'pginasini yashirishga majbursan. Nazmiya ko'p yomon xotin. Maktabni u keltirayotgan isnodlardan qutqazish uchun ko'p harakat qildim, kattalarga yalinib-yolvordim. Bo'ljadi, harakatlarim zoe ketdi. Uni joyidan qimirlatib bo'lmaydi. Chunki shahar baladiya boshlig'idan, garnizon boshlig'idan tortib batalon imomigacha haddi-hisobsiz homiylari bor. Nazmiya bu yerdan ketsa, kibor xonimlarga kim laganbardorlik qiladi? Katta amaldorlar yashiriqcha quradigan ayshu ishrat kechalarida kim ud chaladi, kim o'ynab beradi? Burhoniddinbey singari pastkash maxluqlar senday mas'um, sof, pokiza, go'zal qizlarni qanday qilib qo'lga tushiradi? Farida, ularning senga qo'ygan tuzoqlarini juda yaxshi tushunaman. Ana o'sha Burhoniddinbey otasidan qolgan butun molu mulkini baxti qora xotinlarni rasvo qilish, ko'p oilalarning yostig'ini quritish uchun sovurib kelayotgan qari maishatparastdir. Husni, chiroyi butun Ch... aholisining og'zidan tushmay kelayotgan yoshgina qizni qo'lga tushirish uning uchun izzat-nafs masalasi bo'lishi kerak! Yosh ofitserlar ko'chalarda qilichlarini shiqirlatib yo'liga ko'z tutgan, chorshaf ostidagi yuzini bir ko'rishni o'zlarri uchun g'alaba deb bilgan yosh qizni ayshu ishrat olamiga qo'ltiqlab kirish, o'zi singari shahvatparastlarni "Yashasin Burhoniddinbey!" deb qichqirtirish — uning uchun sharaf hisoblanadi.

Innaykeyin, Ehsonbey bilan gaplashganing ham qulog'iga yetgan. Payqayapsanmi, qizim? Ana shundan ke- yin Nazmiyani o'rtaga solishgan. Kim biladi, unga nima va'da qilishgan ekan? Oqibat, boshingga shu o'yinni solishgan. Shunchalik oson qutulganninga shukur qil, qizim! Endi, qizim, shaharda qolishing to'g'ri kelmaydi. Bu gap ikki-uch kun ichida butun shaharga tarqaladi. Birinchi kema bilan tezda jo'nab ketishing kerak. Boradigan yering, qarindosh-urug'laring, tanish-bilishlaring bormi?

— Mudira xonim, mening hech kimim yo'q.

— Unday bo'lisa, Izmirga bor. U yerda mening ikkita tanishim bor. Biri — muallima, ikkinchisi — maorif bo'limining sarkotibi. Men xat yozib beraman. Qo'lidan kelgan yordamini ayamas, biron yerdan dars topib berar, deb umid qilaman.

Uning mehribonligi yuragimni ilitti. Yomg'irda, qorda o'lishdan qutqazilgan mushuk bolasi singari mudira xonimga suqilar, sochlarimni silayotgan qo'llariga qo'rqa-pisa betlarimni surtar, keyin u qo'llarini ag'darib, kaftlaridan o'pardim.

Kampir chuqurgina xo'rsinib olgandan keyin so'zini yana davom ettirdi:

— Shu ahvolda uyingga qaytishing to'g'ri bo'lmaydi, Farida. Yur, qizim, seni yuqoriga olib chiqib yotqizay, picha uxbol ol. Ul-bullaring bilan Munisani o'zim borib olib kelaman. Ketguningcha menikida turasan.

Mudiraning yuqori qavatdagi xonasida kechgacha goh uyg'onib, goh uxbab yotdim. Ko'zlarimni ochguday bo'lsam, bechora yonimga yugurib keladi-da, qo'lini peshonamga qo'yadi, Ch... qizlari singari qo'shkokil qilib o'rib olgan sochlarimni silaydi.

— Tobing qochdimi, Farida? Biron yering og'riyaptimi, qizim? — deb so'raydi.

Hech yerim og'rimas, soppa-sog' edim. Faqat behol bo'lib boshimni yostiqqa tashlar, kichkina boladay noz qilib yotardim. Menga shunday tuyulardiki, u meni qancha ko'p o'psa, silab-siypasa, yangi topgan onam mehrining qalbimda yana ham ko'proq harorati qoladi va kelajakda boshimga tushadigan yolg'izlik, betoblik kunlarida, hadya dastro'mollarda qolgan hid singari, menga tasalli bo'ladi.

* * *

"Ma-li-kai Ma-riya" ke-ma-si, 2 iyul.

Shamoldan saqlanish uchun paltomni kiyib, oy botguncha tepada o'tirdim. Palubada hech kim yo'q edi. Faqat kechqurundan beri vaziyatini o'zgartirmagan bir novcha yo'lovchi tirsaklarini palubaning temir panjasiga qo'yib olib, shamolda hushtak bilan mungli kuylar chalardi.

Men dengizni bilaman, uni yaxshi ko'raman; menga o'zining ichki hayoti bilan yashovchi jonli narsaday ko'rindi: har doim kuladi, so'ylaydi, ingraydi, qahrlanadi. Lekin shu kecha u suv sahrosi qudrati, tasallisi bo'limgan poyonsiz yolg'izlikka o'xshab ko'rindi.

Kechaning rutubati suyak-suyagimdan o'tib ketganday dag'-dag' titrab pastga tushdim. Munisa kayutada uxbay yotardi. Ana shu poyonsiz yolg'izlikning qalbi urayotganday dengiz tubidan kelayotgan shov-shuvlarga qulq solib o'tirib xotiralarimni yozar edim.

* * *

Bugun mudira xonim meni limangacha uzatib keldi. Tanishlarimning hech biri biln xayrashmadim. Faqat xolamga o'xshagan kampirnikiga kirdim, ko'zlarimni yumdim-u so'nggi marta "Farida" deb otimni aytganini eshitdim.

B...da Mazlumni qoldirgan bo'lsak, bu yerda qushlarni tashlab ketishga to'g'ri keldi. Ularni mudira xonimga topshirdim, ovqatidan, suvidan xabar olib turishini iltimos qildim. Lekin mudira xonim:

— Farida, agar ularni shunchalik yaxshi ko'rsang, kel, o'z qo'ling bilan ozod qil, savob bo'ladi, — dedi.

Ichim to'la mung bilan kulimsiradim.

— Yo'q, mudira xonim, — dedim, — burunlari men ham siz singari shunday o'ylardim. Lekin endi fikrim o'zgardi. Qushlar nima xohlaganliklarini o'zlar ham bilmaydigan gunohsiz, aqlsiz jonivorlar. Qafasdan qochguncha o'zlarini urib, potirlashadi. Biroq ularni tashqarida baxt kutib turganiga ishonasizmi? Yo'q, aslo unday emas! Mening nazarimda, bu sho'rliklar har nima bo'lganda ham o'z qafaslariga o'rganib qolishadi, ochiq havoga chiqishganlarida-chi? O'-o', daraxt shoxida, boshlarini qanotlari ichiga suqib olib o'tkazgan kechalarida to ertalabgacha qafaslarini qo'msaydilar, kichkina ko'zchalarini yorug' derazalarga tikib hasrat chekadilar. Qushlarni zo'rlik bilan qafaslariga solish kerak, mudira xonim, zo'rlik bilan, zo'rlik bilan!..

Ko'z yoshlarim nafasimni bo'g'di, kampir betlarimni silab:

— Farida, juda g'alati qizsan-da. Odam degan shunchaki narsaga ham yig'laydimi? — dedi.

* * *

Kemada men bilan Ch... da chiqqan bir qancha yo'lovchi bor edi. Shular orasidagi ikkita ofitserning suhbati qulog'imga chalindi.

Yoshi o'zidan kattasiga deyardi:

— Ehsonbey to'rt kun avval yo'lga chiqishi kerak edi. Bir necha kun kutgin, Bayrutga birga jo'naymiz, dedim. Mening gapimga kirdi-yu, qoldi. Shunday qilib, uning boshiga tushgan baloga men sababchi bo'ldim. Agar to'rt kun ilgari jo'nab ketgan bo'lsa, bu savdolarga qolmas edi.

Yoshi kattasi:

— Haqiqatan ham achinadigan voqeа, — dedi.

— Hayronman, Ehson shunaqa tez emasdi-ku? Nima bo'ldi, voqeaning tafsilotidan xabaring bormi?

— Men o'z ko'zim bilan ko'rdirim-ku! Kecha balandiya kazinosida edik. Burhoniddinbey bilyard o'ynayotgan edi. Shu mahal Ehson eshikdan kirdi-yu, mayorni bir chetga tortib, allanimalar deya boshladi. Oldin hovliqishmasdan, past ovoz bilan gaplashishdi. O'rtada nima o'tganini bilmayman. Birdaniga Ehson picha orqasiga chekindi-yu, Burhoniddinbeyga o'xshatib shapaloq tushirdi. Mayor to'pponchasiga qo'l yogurtirdi. Lekin Ehson undan oldinroq to'pponchasini chiqardi. Shu on bir necha kishi birdaniga ustlariga tashlanmasa, qon to'kilishi turgan gap edi. Ertaga harbiy tribunal Ehson masalasini ko'radi. Bizlardan birontamiz shu ishni qilganimizdam, holimizga maymunlar yig'lardi. Chamamda, Ehson poshoning bir nimasi bo'lsa kerak.

— Xotinining jiyani, emizib katta qilgan o'g'li.

— Uday bo'lsa, kichkina jazo bilan qutulib ketadi. Ammo-lekin Burhonning betiga tu-shirib xo'p yaxshi qilibdi. Yomon quturib ketgan edi muttaham.

— Darvoqe, nimaga janjal qilishibdi?

— Ikkalasining ham gapiga qaraganda, siyosat talashib janjal qilishgan emish. Shu armiyani siyosatdan hech qutqazishmadi, qutqazishmadi-da!

— Xudo haqqi, menga qolsa, bu yerda xotin janjali bor. Burbonni bilmaysanmi?

Ofitserlar o'zaro gaplashishib yonimdan o'tib ketishdi.

Kema jo'nash oldida bir chol qayiqchi kayutamga keltirib bergen guldastaning kimdan ekanligini endi payqadim.

Ehsonbey, hayotda sizni balki hech mahal uchratmasman yoki uchratsam ham sizni tanimaganga solib o'tib ketarman. Lekin meni deb harbiy sudga tushishdan toymagan kuningizda meni yana eslaganining uchun sizni bir umr unutmeyman. Kimdan ekanligini ayttirmay kirgizgan va shu bilan qalbingizning nozikligini bildirgan gullaringizdan bitta yaproqchasini daftarimda, xotiringizni esa eng toza, pok narsa kabi qalbimda saqlayman!

Tashqarida boyagi kimsasiz yo'lchi mungli kuylarini hamon hushtak bilan chalib turardi. Kayutamning ochiq derazasidan boshimni chiqardim. Dengiz ustida harir tong pardasi ko'rindi. U suiddi suvdan ko'tarilayotgan bug'ni eslatardi.

Choliqushi, yot endi! Uyqusiz kecha va horg'inlik bechora ko'zlarining achishtiryapti. Tongdan nimani kutasan? Axir tong — uzoq-uzoqlarda uyquga va yana boshqa narsalar-ga qongan sariq gullarning baxtiyor ko'zlarini ochadigan dam-ku!

To'rtin-chi qism

Iz-mir, 20 sen-tyabr.

Mana, uch oydan beri Izmirdaman. Ishlarimning mazasi yo'q. Endi bitta umidim qoldi. Ertaga u ham puchga chiqsa, bilmayman, nima qilar ekanman. Buni o'ylashga yuragim betlamaydi. Ch... dagi maktab mudirasining tavsiyanomasi bilan uchrashishim lozim bo'lgan kishi men kelmasdan bir oy avval kasal bo'lib, Istambulga olti oy dam olgani ketibdi. Chor-nochor o'zim maorif bo'limining mudiriga bordim. U yerda kimni ko'rdir deng?.. B... dagi o'sha mudrab o'tiradigan, allahlayotganga o'xshab gapiradigan battolni ko'rmayinmi! Tabiat qarashdan ham ko'proq uplash uchun yaratgan u mudroq ko'zlar meni hech tanimadi.

— Uch-to'rt kundan keyin xabar oling, bir nima qilamiz, — dedi.

Uch-to'rt kun degani — uning tilida bir-ikki oy degani edi. Nachora, shunday ham bo'ldi.

Bugun yana xabar olgani bordim. Mudir bu safar qittay iltifot ko'rsatdi. Halim, mas'um tovushi bilan yorila boshladi:

— Qizim, bu yerdan ikki soatlik masofada bitta bo'lis maktabi bor. Ob-havosi yaxshi, manzarasi nihoyatda chiroyli joy...

Bu nutq meni Zaynilar qishlog'iga yuborilayotgandagi nutqning o'zginasi edi. Birdan jinniligm tutdi-yu, kulib, so'zini og'zidan oldim:

— O'zingizni urintirmang, bey afandi, sizning o'rningizga men gapiray, — dedim. — Maorif bo'limi ko'p mehnat va mablag' sarf qilib, maktabni butunlay yangiladi. Endi u menday yosh muallimaning himmat va fidokorligiga muhtoj, shundaymi? Mersi, bey afandi. Bu iltifotingizni bir marta Zaynilar qishlog'iga ketayotganimda ko'rgan edim.

Bu so'zlarni aytib turganimda, albatta, mudir meni quvib chiqaradi, deb ishongan edim. Lekin qiziq bo'ldi. Jahli chiqmadi, aksincha, qah-qah uring kulib yubordi. Keyin faylasufnamo:

— Nachora qizim? Vazifa burchi. Sen bormasang, u bormasa, kim boradi, axir, — dedi.

Maorif bo'limining idorasida ish bilan kelgan odamlar hamisha to'lib-toshib yotadi. Burchakdagi kursidan birdan xirqi tovush ko'tarildi:

— Voy, bu yana qanday yong'oq qurti, a?

Yong'oq qurti? Ipak qurti, Gulbashakar deb-ku jonimni olishgan edi, endi yong'oq qurti bo'lishim qolgan ekan-da?

Men cho'rt o'girildim. Menga turli-tuman ismlar, o'z mayllariga qarab goh "shirin", goh "qurt" kabi ismlar bergen hayosizlardan birini tutib oldim. Endi uning ta'zirini yaxshilab bermoqchi, boshqalarning alamini bundan chiqarib olmoqchi bo'lib turganimda, u so'zlashga imkon bermay, maorif bo'limi mudiri tomonga o'girildi-yu, buyruq berayotganday qilib:

— Kichik xonim nimani xohlasa ber, xudo haqqi, xafa qilma qizaloqni, — dedi. Mudir g'oyat hurmat bilan javob berdi:

— Buyruqlarini bajo keltirishga tayyorman, Rashidbey afandi. Lekin hozir haqiqatan ham bizda bo'sh o'rin yo'q. Faqat rushdiyaning frantsuzcha muallimaligi o'rni bor, xolos. Albatta, bu o'rin xonimga to'g'ri kelmaydi.

— Nega to'g'ri kelmas ekan, afandim? — dedim o'zimni tutolmay. — Axir joriyangiz B...dagi xotin-qizlar bilim yurtida frantsuz tilini o'qtgan-ku!

Mudir shoshib qoldi.

— Shunaqa, lekin konkurs e'lom qilganmiz. Ertaga imtihon.

Rashidbey:

— Juda soz! Kichik xonim ham konkursga qatnashsin, xo'pmi? — dedi. — O'zim ham imtihindan bo'laman, xudo xohlasa, men kelmasdan imtihon boshlanmas...

Rashidbey, chamamda, katta odam bo'lsa kerak. Lekin, voy xudo-ey, munchayam badburush-a! Xunuk basharasini ko'rib, kulib yubormaslik uchun lablarimni mahkam tishlab turdim. Odam degan yo bug'doyrang, yo oq bo'ladi, shunday emasmi? Bu bey afandining yuzida yangigina bitgan yaralarning zahilligidan tortib ko'mir qorasigacha bo'lgan ming xil rang bor edi. Terisining tusi shu qadar mog'or ediki, yoqasining kir bo'lib ketmaganiga odam hayron qoladi. Bamisol birov hazillashib qo'lini qora kuyaga tiqqan-u, keyin buning yuziga keltirib surtgan deysiz. Yaraga o'xshash qip-qizil, kipriksiz qovoqlari ostida bir-biriga tutashguday bo'lib ketgan baqa ko'zlar. Oppoq mo'ylovlari ustidan lablarigacha osilib tushgan g'alati burun. Lunjlarini bir tomosha qiladigan. Xuddi maymunlar og'izlariga yong'oq to'lg'azib olganlaridagi singari lunjlari yuzining ikki yog'idan osilib tushgan.

Ammo rosa mahovat qilib yubordim. Haqiqatni aytganda, Rashidbek afandining bir necha og'iz so'z bilan menga qilgan yaxshiligi hazilakam narsa emas. Harholda, tabiat bu bey afandining yuzini chizgandan so'ng juda haddidan oshib ketganini ko'rgan-u,adolat-

sizligini yuvish uchun unga ajoyib qalb bergan.

Meningcha, ko'ngil go'zalligi yuz-ko'z go'zalligidan ming chandon yaxshiroq!

Qalbsiz go'zallik bechora xolavachcha qizlarning hayotini barbos qilishdan, ko'nglini sindirishdan boshqa nimaga ham yarardi!

* * *

Iz-mir, 22 sen-tyabr.

Bugun konkursga qatnashdim. Yozuv imtihoni yomon o'tdi. "Istiqsor, istismor, istitof kabi otlardan yasalgan sakkiz-o'n fe'lning o'tmish va hozirgi zamон shakllarini frantsuzcha yozib ko'rsating", — deyishdi. Bu so'zlarning turkchasini bilsaydimki, frantsuzchasin yo'zsam! Lekin og'zaki imtihon yaxshi o'tdi. Rashidbey afandi men bilan frantsuzcha so'zlashdi. Imtihonda albatta yutib chiqishimni so'z orasida ishora qilib ketdi.

E xudo, Munisaga rahming kelsin-da!

* * *

Iz-mir, 25 sentyabr.

Bugungi konkurs natijalari e'lon qilindi. Men imtihondan o'tolmabman. Maorif bo'limining kotiblaridan biri:

— Rashidbey afandi xohlasa, albatta, o'tardingiz. Uning ra'yiga kim qarshi chiqa olardi? Nazarimda, biron niyati bo'lsa kerak, — dedi.

Ahvolum juda og'ir. Ikki kundan keyin uyning ijara haqini to'lashim kerak. Onamdan qolgan so'nggi medalon qora kunimga yaradi. Bugun uni qo'shnilarimdan biriga berdim, eriga sottirib, pulini olib kelib beradi. Bu yodgordan ajraganim uchun juda achindim, chunki ichida oyim bilan otam uylangan yillarida tushgan suratlari bor edi. Bechora surat endi yalang'och qoldi! Lekin bu haqda ham o'zimga tasalli topdim:

— Onam bilan otam bir parcha oltin ichida yotgandan ko'ra, kimsasiz qizlarining qalbi-da yashashni, albatta, afzal ko'rishadi, — dedim.

* * *

Iz-mir, 27 sen-tyabr.

Bugun Rashidbey afandidan bir parcha xat oldim. U menga ish topibdi. Bu haqda gaplashish uchun meni Qarshiyoyqadagi chorborg'iga taklif qilibdi. Maorif bo'limidagi kotib bu beyning menga qarshilik qilganini aytib edi. Demak, noto'g'ri aytgan ekan-da? Ko'ramiz, ertaga ma'lum bo'ladi.

* * *

Iz-mir, 28 sen-tyabr.

Rashidbey afandining Qarshiyoyqadagi chorborg'idan hozirgina qaytib keldim. Chorbog'i chinakam saroya o'xshaydi. U kishiga nima uchun shuncha hurmat bilan qarashlarining sababini endi payqadim.

Rashidbey meni hurmat-ehtirom bilan qabul qildi. Frantsuzcha gapirishimni juda yoqtirganini, lekin hamkasblarining menga qilgan adolatsizliklariga mone bo'lomaganligini aytди. Xatida tilga olingan ish esa qizlarini frantsuzchaga o'qitish ishi emish.

— Xonim qizim, — dedi, — iste'dodingiz kabi odob va qiyofangiz ham menga juda manzur bo'ldi. Maorif maktablarida o'zingizga jabr qilib nima qilasiz? Qizlarimga frantsuz tilini o'rgating. Biz bilan birga o'tirib, birga turasiz. Sizga bitta chiroyli xona beramiz, xo'pmi?

Bu aslida murabbiyalik edi. Harholda, maktabda muallimalik qilishdan ancha tinch, ancha foydali ish bo'lsa kerak. Lekin, afsuski, men bu ishni azaldan yomon ko'rар, xizmatkorlikday bir narsa deb qarab kelardim.

Rashidbeyni xafa qilish to'g'ri bo'lmасди. Ko'rsatgan ishonchi va marhamati uchun ta-shakkur bildirdim. Lekin Munisani bahona qilib taklifini qabul etolmasligimni aytdim. Rashidbey esa bu sababni asossiz deb topdi.

— Uni ham boshimiz ustida ko'taramiz, qizim. Bir kichkina bola faqirxonamizga qanchalik yuk bo'lardi? — dedi.

Shunday bo'lsa ham qat'iy javobimni bermadim. Uch kun muhlat so'radim. Oxirgi marta harakat qilib ko'raman. Rasmiy joydan ish topsam — yaxshi, topmasam — nachora!

* * *

Qar-shiyoqa, 3 oktyabr.

Munisa ikkalamizga ko'shkning ustki qavatidan qush qafasi singari kichkina, shiringina hujra berishdi. Derazasidan dengiz ko'rинib turadi.

Yarim kechagacha derazam yonida o'tirib, buxta bilan dengizni tomosha qildim. Dera-zadan butun ko'rfaz ko'rинib turadi. Ro'parada Izmir, yulduzlar sochilib yotgan oq bulut pag'alari singari tepalari muhtasham bir illyuminatsiya nurlari ichida porlagan Kordon ko'chasi bilan shu qadar go'zalki, kishining hushini oladi.

Ochig'ini aytsam, ro'paradagi Qarshiyoga buxtasi menga hammasidan ham ko'proq yoqdi. U yerda naqadar go'zal, naqadar jozibali hayot bor. Yarim kechagacha tramvaylar qatnaydi, gaz fonarlarning yashil yog'dularida yoshlар to'dasi keti uzilmay yuradi. Uzoqda dengizga qizil, yashil nurlar sochib turgan kazinoda chalinayotgan guitaralarning goh sho'x, goh mungli sadolari eshitiladi.

Bilmayman, nega menga bunday tuyular ekan? Men u yerda sayr qilib yurganlarning kiyimlaridagi oq yo qora dog'larnigina ko'raman. Ularning hammasi bir-birlarini sevuvchi nishonlilar bo'lib tuyuldi. Faqat ulargina emas, balki qorong'i burchaklarda, dengizda, qorlari dangal ko'rинib turgan qoyalar orasida ham ana shularday oshiq-ma'shuqlar yurganday bo'ladi.

Dengizdan kelgan shov-shuv sevishganlar shipshishiday eshitiladi. Kechaning ko'kragimni to'ldirgan iliq nafasi — boshlarini yor ko'ksiga qo'yib, nigohlarini oshiqlarining tun-gi dengizlar kabi qoraygan yashil ko'zlariga tikkan yosh qizlarning haroratli lablaridan kelayotganday...

* * *

Meni bu chorborg'da yosh bekaday hurmat bilan kutib olishdi. O'z yukim hech mahal menga og'irlik qilmagan edi. Shunga qaramay, chamadonimni yuqoriga ko'tarib chiqishimga yo'l qo'yishmadi. Uni qari xizmatkor unamaganimga qo'ymay qo'limdan oldi. Men undan juda minnatdorman. Munisa esa bunday narsalarni tushunishga hali yoshlik qiladi. Chorbog' hashamati uning ko'zlarini qamashtirib qo'ydi. Yuqoriga chiqib ketayotganimizda, Munisa har vaqt uyimizda qilib yuradigan hazilni takrorladi. Zinaning yarmiga chiqqanimda, birdan etagimga osildi-yu, pog'onadan pastga torta boshladi. Men darrov qo'lidan ushlab, qulog'iga shivirladim:

— Munisa, biz birovning uyidamiz-a, bolam... Xudo nasib qilsa, o'zimizning uyimiz bo'lar, unda...

Kichkinam birdan to'xtadi, gapimga tushungan edi. Hujraga kirganimizda kulchaday chiroqli yuzida sevinchdan asar qolmagan edi. Bolam bechora dardimni juda nozik tu-shunadi. Bo'ynimga osildi, har mahalgidan ham qattiqroq bag'rimga suqildi, yuz-ko'zlarimdan cho'lp-cho'lp o'pdi.

* * *

Derezani yopa turib, tashqariga yana bir marta qaradim: odamlar tarqalgan, chiroqlar o'chgan, haligina qirg'oq fonarlari bilan o'ynashgan dengiz endi qumloq qirg'oqdan ancha chekinib, pish-pish uxlayotgan bola singari, qoyalarning oppoq yostig'iga bosh qo'ygan.

* * *

Bugun shu yoqqa kelayotganimda... Yo'q, buni yozolmayman. Keyin...

* * *

Qar-shiyoqa, 7 ok-tyabr.

Rashidbeyning chorbog'ida kunimiz yomon o'tmayapti. Ikkita qizni o'qitaman: biri — mening yoshimda, ikkinchisi Kichikroq. Kattasining ismi Farxunda, husnda otasining o'zginasi. Buning ustiga o'luguay injiq ham. Kichigi — Sabohat, bu opasining teskarisi, xuddi qo'g'irchoqday chiroqli, shirin, qaqajon qiz.

Xizmatkor xotinlardan biri bir kuni ko'zini ma'noli qisib:

— U mahal rahmatli xonim afandi kasal edilar. Bitta yoshgina harbiy doktor kelib xabar olib turardi. Xonim afandi o'sha doktoring yuziga ko'p qaraganlari uchun shunaqa chiroqli qiz tuqqanlar, — dedi.

Mening hadigim ko'proq xizmatkor xotinlardan edi. Haqiqatni yashirishning nima keragi bor, axir men ham o'shalarning bittasiman-ku? Lekin men juda ehtiyyot bo'ldim, hech biriga ish buyurmadi... Shuning uchun meni hurmat qilishadi. Darvoqe, bunda Rashidbey afandi tomonidan menga ko'rsatilayotgan e'tiborning ham ta'siri bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Chorbog'ning eng katta nuqsoni — ari iniday g'uvillab turishi edi. Mehmonlarning keti uzilmaydi. Bitta mehmon keldimi bo'ldi: Farhunda bilan Sabohat mehmon oldiga chiqing, deb hol-jonimga qo'yishmaydi, bu esa menga hech yoqmaydi. Bunisi ham go'rga-ya, Rashidbey afandining katta o'g'li Jamilbeyning chorbog'da turishi meni yomon dilgir qilladi. O'ttizlarga kirib qolgan bema'ni, badhazm yigit... Yilning o'n oyini Yevropada otasining molu dunyosini sovurish bilan, ikki oyini esa shu yerda, Izmirda bekorchilik bilan o'tkazar ekan. Xayriyat, ana shu ikki oyning so'nggi kunlarini kechirib turibmiz. Aks holda, chorbog'ni bundan uch kun avval tashlab ketgan bo'lardim. Uyda bo'lsa senga nima, deyarsiz? Men ham shunday deb o'ylagan edim, lekin yanglishibman...

Uch kun avval Farhunda bilan Sabohat meni pastdag'i mehmonxonada kechgacha ushlab qolishdi. Ulardan zo'rg'a qutulib, qorong'ida tepaga chiqib ketayotgan edim, uchinchi qavat zinapoyasining maydonchasida turgan bir erkak qorasini ko'rib, yurak-puragim chiqib ketdi. Apil-tapil orqaga tashlandim. Lekin shu on Jamilbey sharpa qilib qoldi:

— Qo'rwmang, kichik xonim, menman, — dedi.

Yon tomondagi derazalarning biridan Jamilbeyning yuziga xiragina yorug' tushib turgan edi.

— Kechirasiz, bey afandi, qo'qqisdan taniy olmadim, — dedim-u, yonidan o'tib ketmoqchi bo'ldim.

Lekin Jamilbey o'ngga bir qadam tashlab, yo'limni to'sib oldi.

— Uyqum qochib, derazadan oyning chiqishini tomosha qilmoqchi bo'lib turgan edim, kichik xonim, — dedi.

Niyatini payqadim. Shuning uchun o'zimni hech nima sezmaganga solib, sekin o'tib ketmoqchi bo'ldim, ammo u gapirib qoldi. Gapini javobsiz qoldirmaslik uchun men ham:

— Hozir oy chiqadigan vaqt emas-ku, afandim, — dedim.

U past ovoz bilan:

— Nega chiqmas ekan, kichik xonim? — dedi. — Hozir zinapoyadan chiqqan mana bu to'lin oy-chi? Buning jon olguvchi yog'dusini qarang, qaysi oydan kam, ajabo?

Jamilbey birdan bilaklarimga yopishdi, haroratli nafasi yuzimga urildi, men jon-jahdim bilan o'zimni orqaga tashladim. Orqamda zinapoya panjarasi bo'lmasa, to'ppa-to'g'ri pastga ag'darilib tushardim. Panjaraga boshimni yomon uring oldim. "Voy!" deb yuborganimni o'zim ham bilmay qoldim.

Jamilbey sharpa qilmay yana yonimga yetib keldi. Yuzini ko'rmasam ham sarosimada, hayajon ichida ekanini sezib turardim.

— Farida xonim, kechiring meni. Biron yeringizni uring oldingizmi? — dedi. "Yo'q, hech nima emas, faqat meni o'z holimga qo'ying!" deb yolvormoqchi bo'lgan edim, lekin og'zimdan bo'g'iq bir faryoddan boshqa narsa chiqmadi. Ovozimni chiqarmaslik uchun darrov ro'molcham bilan og'zimni yopdim. Ro'molcham iviganday bo'ldi, qarasam, labim qonabdi. Zinapoya derazasining yonida edik. Undan tushib turgan xira yorug'da Jamilbey ham qonni ko'rdi. U vahm titrog'i sezilib turgan tovush bilan:

— Farida xonim, men dunyodagi eng pastkash odamning ishini qildim, — dedi. — Meni kechiring, kechirganingizni aytish muruvvatini ayamang, Farida xonim.

Qilingan odobsizlikdan keyin o'qilgan bu odob va'zi tuklarimni hurpaytirib, jasoratimni yana o'zimga qaytardi.

Dag'al tovush bilan:

— Muomalangizda hech qanday g'ayritabiyliz yo'q, afandim, — dedim. — Xizmatkor xotinlarga, asrab olingen qizlarga bu xil muomala qilish odatga kirib qolgan... Xizmatkor xotinlar va sig'inib kun ko'rurvchi mushtiparlar vaziyatidan farq qilmaydigan bir vaziyatda uylaringizga kelishga rozi bo'lginimda, men bu narsalarni ko'zdan qochirmagan edim. Birovga aytib qo'yadi, deb qo'rwmang. Ertaga biron bahona bilan bu yerdan ketaman.

Shu so'zlarni aytdim-u, zinapoyadan xotirjam, parvosiz chiqib borib uyimga kirib ketdim.

* * *

Bir qo'limga chamadonimni olib, ikkinchi qo'lim bilan Munisani yetaklab eshikdan chiqib ketishim oson. Lekin qaerga boraman? Mana, oradan uch kun o'tib ketgan bo'lsa ham, hanuz qarorimni amalga oshirganim yo'q, haligacha shu yerdaman. Bu yerga kelgan kecham daftaramga yozishga uyalgan narsamni mana endi bo'ynimga olish payti keldi.

Men bu yerga kechqurun, qosh qoraygan paytda kelgan edim. Xo'sh, kechani o'z uyimda o'tkazib, ertalab kelsam bo'lmasmidi? Albatta, yaxshi bo'lardi. Lekin, nachora, iloji yo'q edi.

Bu yerga kelgan o'sha baxti qora kechamda chorborg' mehmonlar bilan liq to'la edi. Rashidbey afandi va uning qizlari meni yangi sotib olingen chiroyli buyumday mehmonlarga ko'z-ko'zlay boshladilar. Hamma menga havaslanib, hatto bir oz achinib qarardi. Men o'zimni kamtar, nazokatli tutib, har bir kishining ko'nglini olishga tirishdim. Meni bunga yangi vaziyatim majbur qilardi. Shu mahal birdan boshim aylanib, hushimdan ketib qoldim. Es-es bilaman: kursining chetiga o'tirib qoldim, lablarimdagи parishon tabassumi saqlashga tirishib yarim minutga, balki bundan ham kamroq muddatga ko'zlarimi ni yumdim.

Rashidbey, qizlari, mehmonlar shoshib qolishdi. Sabohat stakanda suv ko'tarib chopib keldi, zo'rlab bir necha qultum ichirdi. Bir-birimiz bilan hazillashayotganday, ikkalamiz kula boshladik.

Bir mehmon kampir zaharxanda qilib:

— Hech narsa emas, janub shabadasining ta'siri, xolos. Voy bu zamonning tajang, no-

zik qizlari-ey! Havo jindek o'zgardimi — bo'ldi, darrov gulday sarg'ayishadi-qolishadi, — dedi.

Hamma meni qiyinchilikka chidamaydigan arzanda, nozik, kasal qiz deb hisobladi. Men ularning gaplarini bosh ishorasi bilan tasdiqlar, shunday deb o'ylaganlari uchun hatto minnatdor ham edim.

Lekin ularga yolg'on aytdim. Bu safargi hushdan ketishimning sababi boshqa edi. Shu kuni Choliqushi umrida birinchi marta och qolgan edi! Nima qilay, uyalsam-da yozib qo'yishga majburman.

* * *

Qar-shiyoqa, 11 oktyabr.

Bugun Farhunda bilan Sabohatga yana Izmirdan mehmonlar keldi. Bular o'n besh bilan yigirma yoshlар o'rtasidagi to'rtta qiz edi. Choshgohdan so'ng dengiz sayohatiga chiqmoqchi, qayiqda Bayroqligacha bormoqchi bo'ldik. Endi ko'chaga chiqqanimizda, aksiga yurib, yomg'ir yog'ib qoldi. Tarvuzimiz qo'lting'imizdan tushib, yana mehmonxonaga qaytib kirdik. Kichik xonimlar bir oz pianino chalishdi, u yoq-bu yoqdan g'iypat qilishdi, keyin ikkita-ikkita bo'lib burchak-burchakda shivirlasha boshlashdi. Xuddi birov qitiqlayotganday qichqirishib, sharaqlashib kulishlaridan nimalarni gaplashayotganlari ma'lum edi.

Sabohat juda ham sho'x, juda shayton qiz. Mehmonlarini zeriktirmaslik uchun turli-tuman qiziqchiliklar o'ylab chiqaradi. Etajerkada oila a'zolari va do'starining suratlari bilan to'liq albomlar bor edi. Shulardan bittasini oldi-da, dugonalarini stol atrofiga yig'ib, suratlarini ko'rsata boshladи. Suratlar emas, Sabohatning topgan gaplari g'alati edi. U har bir suratni ushlab olib, undagi kishining hayoti, tabiatini to'g'risida shunday qiziq narsalar aytardiki, kula-kula ichaklarimiz uzilardi. Masalan, ko'kragi ordenlar bilan to'la, haybatli bir posho, ya'ni dunyo hukmroniday ko'ringan bu mo'ysafid cholni xotini supurgi bilan rosa urgan emish.

Qarindoshlaridan savlatli bir xotinning suratini ko'rsatdi, aftidan, viloyatli ekani bilinib turardi. Bir kun kemadan Qo'qoriyali limaniga tushayotganida, bir nima bo'lib, dengizga yiqilib ketibdi. Esxonasi chiqib ketganidan o'z viloyatining shevasida "Shirin jonimdan ayrilyapman, qutqaringlar!" deb chinqiribdi.

Rashidbeyning ko'nyalik sut tog'asi bor ekan. Suratini ko'rgan kishi kulmay turolmaydi. Boshida sulla, egnida cholvor, imom domlaning o'zginasi. Buning ro'parasidagi ikkinchi suratda esa deputat bo'lgandan keyin frak kiyib, yakka ko'zoynak bilan tushgan rasmi turibdi.

Imom domla deputatga xo'mrayib qarab turibdi, deputat esa uni ermak qilib olayib turibdi. Bu shunaqayam alomat surat ediki, yangi sahifani ochib yubormasin, deb Sabohatning qo'lini ushlab olib toza kuldim.

Farhunda men bilan hazillasha boshladи:

— Farida xonim, xohlasangiz sizni shu zotu husnobodga beramiz, hozir boshi ochiq, — dedi. — Avvalgi xotinlarini qo'yib, endi deputatga loyiq, yevropalashgan xonim qidirib yuribdi.

Men hamon kulishdan to'xtamay stol yonidan uzoqlashdim-da, Farhundaga:

— Hoziroq yozing, men roziman. U kishiga tegadigan xotin boshqa yerdan baxt topolmaganda ham umrini hech bo'lmasa kulgi bilan o'tkazadi-ku, — dedim.

Sabohat yangi sahifani ochib, meni qo'li bilan imladi.

— Farida xonim, mana bu suratni ko'rsangiz, deputatimizdan aynib qolarmiksiz, deb qo'rqaman, — dedi.

Mehmonlarning hammasi bir og'izdan: "Voy, munchayam chiroyli ekan!" deb qichqirishdi, keyin qo'llarini silkitishib, meni chaqirishdi.

Men ular tomonga bora turib:

— Foydasi yo'q, har qanaqa bo'lganda ham men o'z deputatimdan kechmayman, — dedim.

Albom ustida bir-biriga aralashib ketgan mayin sochlar orasidan boshimni suqdim, men ham ular qatori "voy" deyishdan o'zimni tutib qololmadim. Albom sahifasidan ko'zlarimga tikilib kulimsirayotgan surat Komronniki edi!

Sabohat bu surat egasini mazax qilmadi, qaytaga ko'p hurmat va izzat bilan dugonalriga ta'rif qilib berdi:

— Bu kishi Munavvar xolamning kuyovlari bo'ladilar. O'tgan bahor Istambulda ekanimzda to'ylari bo'ldi. O'zini ko'rsangiz, surati ham gapmi! Biram ko'zlari, biram xushbichim burni borki, tomosha qiladigan. Shoshmanglar, men sizlarga bir boshqa qiziq narsani aytib beray: bu bey xolalaridan birining qizini yaxshi ko'rarmish. Qiz esa kichkina, injiq, juda sho'x narsa emish. Sho'xligidan, qaqajonligidan unga Choliqushi degan laqab ham qo'yishgan ekan. Choliqushi Komronbeyni nima uchundir xohlamatdi, ko'ngil ko'ngil-da...

Shunday qilib, to'ylariga bir kun qolganda yotu begona yurtlarga boshini olib qochib ketibdi, Komronbey oylarcha kuyib-yonib vafosiz qizni kutibdi. To'g'ri-da, qaytib kelish ko'ngilda bo'lsa, to'y kechasi qochib ketarmidi? Munavvar xolam qaynanasining qo'lini o'pganda men o'sha yerda edim. Bechora kampir, bir shoxda turmaydigan u g'alati Choliqushini esladi shekilli, yosh boladay yig'lab yubordi.

Bu tafsilotni orqamdag'i pianinoga suyanib, hech nima demasdan, qimir etmay turib eshitdim. Komron hamon albom ichidan menga kulib turardi.

Sekingina:

— Qalbsiz! — dedim.

Sabohat menga qaradi:

— Juda to'g'ri aytdingiz, Farida xonim. Shu qadar go'zal, shu qadar ajoyib bir yigitga vafo qilmagan qizni "vafosiz" demasdan bo'lmaydi.

* * *

Komron, men sendan nafratlanaman. Bo'Imasa, bu xabarni eshitganimda yig'lar, hushimdan ketar, aza tutardim. Aksincha, men shu kuni shunchalar kuldim, atrofimdag'i odamlarni shunchalar xushvaqt qildimki, umrimda hech mahal bunday bo'Imagan edi. Agar bir necha soatdan keyin boshimga falokat tushmagan bo'lsa, men shu bugunni umrimning eng baxtli kuni deb hisoblardim. Kechki payt havo ochilib, dalada sayr qilishimizga imkon tug'ildi. Biz sel suvi hayqirib oqayotgan anhor bo'yi bilan ketayotgan edik, mehmonlardan biri anhorning narigi yuzidagi xrizantema gulini ko'rib: "Voy, munchayam chiroylik-a, qani endi olishning iloji bo'lsa!" deb qoldi.

Men Kulib:

— Xohlasangiz, sizga hadya qilishim mumkin, — dedim.

Anhor keng, chuqur bo'lgani uchun anchagina xavfli edi. Qizlar kulishdi. Bittasi hazilashib:

— Ko'priq bo'lsa-yu, yaxshi bo'lardi-ya, — dedi.

Men parvoyimga ham keltirmay:

— Ko'priksiz ham o'tsa bo'ladi, — dedim-u, suvg'a sakradim.

Orqadan qiy-chuv ko'tarildi.

U tomonga bir amallab o'tishga o'tdim, lekin xrizantemani uzib olishga muvaffaq bo'Imadim, chunki qirg'oqqa yetganimda oyog'im tiyg'anib ketdi. Yiqilib ketmaslik uchun

bir butaga osilib edim, tikanlari qo'llarimni tilib yubordi.

Ha, shu falokat boshimga tushmagan bo'lsa, tikan tilgan qo'llarimning achishib og'ri-shiga chidolmay to chorboqqacha oqshom qorong'isida yig'lab kelgan bo'lmasam, shu kunni umrimning eng shod, eng xushchaqchaq kuni deb bilardim.

Komron, sendan nafratlanganim uchungina begona yurtlarga qochib ketganman. Endi nafratim shu qadar kuchaydiki, oramizdag'i uzoq masofalar ham kifoya qilmay qoldi. Endi sen yashab, nafas olib turgan mamlakatdan ham bosh olib ketsam deyman!

Ortiq bu uyda qolmaslik qaroriga keldim. Shuning uchun har ikki-uch kunda Izmirga tushib, maorif bo'limiga uchrab turdim. Eski muallimlarimdan Berinish opani shu yerda ikki oycha avval bir ko'rgan edim. Maktabda o'qib yurgan kezlarimda o'zini menga yaqin tutganini eslab, boshimdagi savdodan bir oz aytib beruvdim. Kecha ertalab kemada yana uchrashib qoldik. U suyunib:

— Farida, necha kundan beri seni izlayman, — dedi. — Qorontinadagi maktabimizga bitta turk tili va rasm muallimasi kerak. Mudiraga seni tavsiya qildim. Alovida uy tutishning hojati yo'q, maktabda turaverasan. Axir bizning hayotimizga o'rganib qolgansangu.

Yuragim qinidan chiqib ketar darajada tipirchilay boshladi. U yerga borsam, yana o'sha yoshlik hidlari, mungli organ sadolari kelib turgan joyga tushsam, bolalik chog'lamidagi shirin xayollarimning bir qismi bilan qovushadiganday bo'lib ketdim.

O'ylab o'tirmasdanoq:

— Juda soz, maso'r, jon deb boraman! Rahmat, — dedim.

Bugun u yoqqa borishdan avval yana maorif bo'limiga kirdim, maqsadim — hujjalrimni qaytarib olish edi. U yerda mudir meni uch kundan beri so'roqlab yurganini aytishdi. Nima deyar ekan deb oldiga kirdim.

Maorif mudiri meni ko'rish bilanoq:

— Rosa intizor qilding-da, qizim! Toleingga bitta yaxshi joy chiqib qoldi. Qushadasi maktabiga yuboraman, — dedi.

Bir yoqda Berenish opa aytgan maktab, undagi tinchgina hayot, ikkinchi yoqda bu. Balki Qushadasidagi o'rinni yaxshiroqdir? U holda Berenish opaga bergen so'zim nima bo'ladi?

Minutlar o'tar, men esa javob qilmay jim turardim. Qaysi birini tanlay: tinch hayotnimi yo Qushadasidagi maktabga borsam, uchrashim ehtimol bo'lgan muhtojlik va yo'qsilliknimi? Ajabo, buning ham o'ziga yarasha tasallisi, boshqa bir jozibasi yo'qmi?

Ko'z o'ngimga maktablarimorda tashlab qo'yilgan, umrlari qo'pol qo'llarda zoe o'tayotgan kichkina bolalar keldi. U bechoralar ochilish uchun jindakkina quyoshga, jindakkina parvarishga muhtoj bo'lgan gullardir. Ular ana shunday harorat keltiruvchi, parvarish qilguvchilarga ko'ngillarining butun muhabbat va shukronalarini bag'ishlaydilar. Boshimga tushgan hamma falokatlarga qaramay, bu kichkina kambag'allarni butun qalbim bilan yaxshi ko'rib qolganimni angladim. Ajabo, Munisa ham mening oldimga o'shalor orasidan kelmaganmidi?

Bundan tashqari, so'nggi ikki yillik hayotimda uncha-muncha tajriba ham orttirgan edim. Yog'du og'riq ko'zlarni qancha achishtirsa, baxt ham dardli ko'ngillarni shuncha ezadi. Og'riq ko'zlar kabi, dardli ko'ngillar uchun ham eng yaxshi davo qorong'ilikdir!

Men muallimlikni ochlikdan o'lmaslik uchun qabul qilgan edim. Hisobim to'g'ri chiqmadidi. Bu kasb kishisi axir bir kun ochlikdan o'ladi. O'lsa nima? Axir bu kasb ko'nglimning rahmu shafqatga bo'lgan ochligini to'ydiradi, o'z hayotimni boshqalar baxti saodatiga bag'ishlash tasallisini beradi. Zero, u o'lgan kunlarning o'lgan ro'yolarini tiriltirib bo'lmaydi, buning iloji yo'q. Boshimdan isiriq hidlarining xumori, qulqolarimdan organlarning mungli yig'ilari sekin-sekin yo'q bo'lib ketgan. Qushadasida mehru muhabbat va

marhamat kutib o'tirgan kichkintoylar ko'z oldimga keldi-yu, kulimsirab:

— Juda soz, bey afandim, boraman, — dedim.

* * *

Buyruqni olgunimcha bu sirni chorbog'da hech kimga aytmaslikka qaror qilgan edim. Lekin bir hodisa aytishga majbur qildi. Katta xalfa* anchadan beri menga g'alati-g'alati narsalar aytib yurardi. Kecha ham hech narsadan hech narsa yo'q birdan:

— Qizim, kun sayin senga muhabbatim ortyapti, — deb qoldi. — Faqat mengina emas, boshqalar ham shunday... Farhunda bilan Sabohat ham yosh-u, lekin uyga ko'rк bo'lisholmaydi. Sen kelganingdan hamma narsa o'zgardi qoldi. Tabiating, axloqing chiroysi, kattaga kattaday, kichikka kichikday muomala qilasan...

Shularga o'xshagan yana bir qancha so'zlar... Katta xalfaning bu so'zlariga "kasbdo-shiga qilayotgan hasrati" deb qo'ya qolgan edim. Lekin kecha kechqurun kampir yuragini ochib soldi.

— Qizim, qanday qilsak ekanki, sen shu uyga mahkamroq bog'lanib qolsang. Miyanga bir o'y kelyapti-yu... Ha, ko'nglingga boshqa gap kelib yurmasin, aylanay. Xudo haqqi, bu to'g'rida menga birov hech nima degani yo'q.

Xalfaga bu so'zlarni birov o'rgatganiga shubham qolmadi. Shunday bo'lsa ham, o'zimni sezmaganga solib, quloq solib turaverdim. U boshlagan so'zini davom ettirishga hayiqib, boshqa narsalar to'g'risida gapira ketdi:

— Xo'jayinimiz uncha qari ham emas, uni yoshligidan bilaman. Uni chiroysi deb bo'lmaydi, lekin davlati, hashamati bor. Innaykeyin, tabiat ham yaxshi. Qizim, bu uyga beka kerak-da, busiz bo'lmaydi. Bugun bo'lmasa ertaga Farhunda bilan Sabohat er qilib ketadi. Xudo ko'rsatmasin, biron yomon xotinga kunimiz qolsa bormi, naq sho'rimiz quriydi-da! Farida xonim, qizlar mo'ylovini burab yuradigan yigitlarga ham tegishadi, lekin bundaqangi dabdabani qaerda ko'rsin? Oh, beyimizga bironta munosib qizcha topsak edik. A, nima deysan, qizim?

Men churq etmay, achchiq-achchiq jilmayib, o'ya botib o'tirardim. Rashidbey afandining menga ko'rsatgan shuncha hurmati, Sabohat bilan Farhundaning darslariga qilgan shuncha e'tibori, biz bilan soatlarcha hazillashgani, hatto to'p o'ynashgani... Demak, shularning hammasi... Maorif bo'limi kotibining: "Rashidbey xohlasa seni frantsuz tili o'qituvchisi qilib tayinlashardi, harholda, biron niyati bo'lsa kerak", degani bejiz emas ekan-da!

Bir necha yil ilgari shunday so'zlarni eshitsam, albatta, isyon ko'tarardim. Lekin hozir gapni uncha cho'zmaslik uchun parvosizgina javob qildim:

— Siz bilan sovchilikka borib, Rashidbey afandiga yaxshigina qayliq topib kelishimiz mumkin edi, lekin, afsuski, bir-ikki kundan keyin Qushadasiga ketyapman. Bir necha oydan keyin nishonlim o'sha yerga keladi, to'y qilamiz, — dedim. Keyin shoshganidan yuzimga javdirab qarab qolgan kampirga: — Xudo tinchingizni bersin, xalfa xonim, men ertaroq yotmasam bo'lmaydi, — dedim-u uyimga kirib ketdim.

* * *

Qusha-da-si, 25 no-yabr.

"Qushadasiga borasizmi?" deganlarida: "Qushadasi!.. Mening orolim!.. Necha-necha vaqtlardan beri meni intizor etgan baxtni, ko'ngil rohatini o'sha yerdan topaman!" deb suyungan edim. Suyunchim xato chiqmadi. Qushadasini hamma yerdan ham ko'proq yaxshi ko'rib qoldim. Balki chiroysi yerdir deb o'ylarsiz? Yo'q. Qushadasini Munisa ikkalamiz — bu sariq to'ti bilan birga — Robinzon Kruzo singari o'z boshimizga mehnat va zahmat bilan yashasak bo'ladiyan orol deb o'ylagan edim, lekin unday bo'lib chiqmadi. Balki u yerda rohatimni topib olgandirman? Yo'q, bunday ham emas. Qaytaga, bu yerda

juda ko'p ishlayman. Unday bo'lsa sababi qayda? Beriladigan javob bir oz kulgili. Lekin, nima qilay, to'g'risi shu: Qushadasini jonga rohat beradigan chiroyli joy bo'Imagani uchun yaxshi ko'rib qoldim. Nazarimda, tabiat faqat chiroyli husnlarnigina emas, chiroyli yerkarni, chiroyli dengizlarni ham inson ko'ngliga zimdan ozor yetkazish uchun yaratgan.

Bir oy avval bu shaharga kelib, mактабнинг бosh muallimasiga uchrادим. Ellik yoshlarga yetib qolgan bu kasalmand, ezgin xotin meni ro'parasiga o'tqazib shunday dedi:

— Qizim, uch oy ichida tog'day ikki o'g'limni qora yerga berdim. Dunyo ko'zimga qorong'i bo'ldi. Seni bu yerga ikkinchi muallima qilib yuborishibdi. Yoshisan, o'qimishli ko'rinasan, endi mактабни senga topshiraman. Bilgанингча boshqar. Yana ikkita muallimlar bor — yoshlari qaytib qolgan xotinlar, ulardan yorug'lik yo'q.

Qo'limdan kelganicha harakat qilishimni aytdim, so'zim ustidan ham chiqdim.

Kecha bosh muallima:

— Farida xonim qizim, senga har qancha minnatdorchilik bildirsam ham oz. Va'da qilganidan o'n chandon ortiq jon kuydirding, — dedi. — Bir oy ichida maktabimiz ham, bolalar ham gulday ochilib ketdi. Xudo xayringni bersin. Hamkasblaringdan tortib to'kichkintoylargacha seni yaxshi ko'rishadi. O'zim ham ba'zida dardimni, ko'nglim alamini unutib, sen bilan birga kulishadigan bo'ldim.

Bechora xotin meni o'ziga yoqish uchungina shunday jon kuydirayotir deb o'ylaydi, minnatdor bo'ladi. Jon kuydirib ishlash, o'zini butun qalbi bilan boshqalarga bag'ishlash naqadar yaxshi narsa! Choliqushi butunlay eski Choliqushiga aylandi. Na Ch...dagi ezgin hayot horg'inligi, na Izmirdagi isyonlardan asar qoldi, tiniq yoz osmonida paydo bo'lган o'tkinchi bulutday, hammasi tarqaldi.

Sochlарим tolama-tola oqarganga qadar o'zimni boshqalarning bolalariga, ularning baxtlari yo'liga tikishdan endi aslo qo'rqlmayman. Ikki yil avval, kuz oqshomlarining birlida ko'nglimda o'ldirilgan jigar-go'shalarim o'rnini boshqalarning bolalariga berdim.

* * *

Qusha-da-si, 1 de-kabr.

Bir necha kundan beri odamlarning og'zidan "urush" so'zi tushmay qoldi. Butun fikru xayolim maktab bilan band bo'lgани uchun bu mish-mishlarga qulox solmas edim. Bugun shaharda chinakam qiyomat qo'pti, urush e'lon qilinibdi!

* * *

Qusha-da-si, 15 de-kabr.

Urushning boshlanganiga o'n besh kun bo'lib qoldi. Mahalliy gospitalga har kun gala-gala yaradorlar kelib turibdi. Maktab motam ichida qoldi. Ko'pgina o'quvchilarimning armiyada yo'otalari, yo akalari bor. Bechora bolalar urush dahshatini unchalik bilishmasa ham, katta odamlarday bo'shashib, qayg'urishib yurishadi.

* * *

Qusha-da-si, 15 de-kabr.

Bu qanday sho'rlik, yo rabbiy, bu qanday sho'rlik! Bugun qo'mondonlikning buyrug'i bilan maktabimizni egallaydilar: vaqtincha gospital qilishar emish. Xohlaganlarini qilishsin, menga nima! Lekin maktab bo'shanguncha men nima qilaman? Vaqtimni nima bilan o'tkazaman?

* * *

Qusha-da-si, 24 de-kabr.

Bugun maktabda qolgan bir necha kitobimni olgani bordim. Maktabni shunchalik ivritisib yuborishibdiki, odam kitobini emas, o'zini yo'qotib qo'ysa ham topolmaydi. Noiloj chiqib keta boshladim. Hamshira qizlardan biri:

— Shoshmang, bosh doktordan so'rab ko'raylik. Chamamda, bir necha kitobni olib qo'yuvdi shekilli, — dedi.

Xona ichi shishalar, bintlar, dori qutichalari bilan to'la edi. Bosh doktor kitelini yechib tashlab, ana shu narsalarni tartibga solayotgan ekan. Orqasi o'girikli bo'lgani uchun faqat bo'ynini, oq sochlarni va shimarilgan bilaklarinigina ko'rdim. Shu ahvolda undan kitob so'rash odobsizlik bo'lardi.

Hamshirani yengidan tortib:

— Qo'ying, — dedim.

U gapimni eshitmadni.

— Bey afandi, hali suratli bir qancha frantsuzcha kitob topgan edingiz, qani o'shalar? — dedi.

Qari doktorning birdan jahli chiqib ketdi. Yuzini ham o'girmay shunday yomon, shunday uyat so'z bilan javob qildiki, ixtiyorsiz yuzimni qo'llarim bilan to'sib, qochib ketmoqchi bo'ldim. Lekin shu on u biz tomonga o'girildi-yu, birdan:

— Voy, kichkina, senmisan?! — deb yubordi.

Uni ko'rib men ham o'zimni tutolmay qichqirdim:

— Doktorbey! Zaynilardagi doktorbey!

Mubolag'asi yo'q, bu qichqiriqdan ziyod bir faryod edi.

Doktorbey shoshganidan stoldagi shishalarni ag'darib-to'ntarib yonimga yugurib keldi, qo'llarimni ushladi, boshimni oldiga tortib, chorshafim ustidan sochlarmi o'pdi.

Biz bir-birimiz bilan faqat bir kunlik, hatto bir kunlik ham emas, bir necha soatlik tanish edik. Lekin qanday ilinj hissi bir-birimizni bog'lab qo'ygan ekanki, ikki yildan so'ng xuddi qirq yillik qadron do'stlardek, hatto ota-boladek bir-birimizga tashlandik. Tavba, inson qalbini hech bilib bo'lmas ekan-da!..

Xayrullobek xuddi Zaynilardagi singari:

— Qani, gapir, yaramas, bu yerda nima qilib yuribsan? — deb so'radi.

Bolalarnikiga o'xshagan sho'x moviy ko'zlari oq kipriklari ichida shunaqayam chiroyli porillardiki! Men ham, xuddi Zaynilardagiga o'xshash, uning ko'zlari oldida kulib turib:

— Bilasizki, men muallimaman, doktorbey, — dedim. — Yurtma-yurt yuribman. Endi shu yerga tayinlashdi.

Butun hayotimni va ko'nglimda bor narsalarni bilganday, mung to'la bir tovush bilan:

— Haligachayin xabar yo'qmi, kichkina? — deb so'radi.

Birdan yuzimga suv sochib yuborilganday seskanib tushdim. O'zimni ajablanayotgan-ga solib, ko'zlarimni pirpiratdim.

— Kimdan, doktorbey? — dedim.

Chol jahli chiqib, barmog'i bilan po'pisa qildi.

— Nega yolg'on aytasan, kichkina? Lablaring yolg'on gapirishni o'rganibdi-yu, lekin ko'zlarining bilan yuzing boyagiday. Kimdan deysanmi? Seni shunday yurtma-yurt sargardon kezdirdigan, o'shandan...

Kulib, yelkalarimni qisdim.

— Maorif demoqchisiz-da? Albatta, har bir muallima o'z mamlakatining bolalariga xizmat qilishi kerak.

Doktor yana Zaynilardagi shubhasini takrorladi. Uning o'pkasi menga qattiq ta'sir qil-

gani uchun har bir so'zi esimda saqlanib qolgan edi:

— Shu yoshda, shu qiyofa, shu chehrada-ya? Juda soz, mayli, shunday bo'lsin, yaramas qiz, shunday bo'lsin, lekin sen yovvoyilik qilma.

U dorilarini, men esa kitoblarimni esdan chiqarib, uzoq gaplashdik.

— Demak, shu matabda muallimalik qilasan, shundaymi?

— Maktabimizni olib qo'yganlaringizga biram xafa bo'ldimki, doktorbey.

— Shoshma, boshqa narsani o'ylab turibman... U qurib ketgur qishloqning oti nima edi? Hov senga kasal boquvchilikni o'rgatgan yerim-chi? Esingdami? Menga qara, bu yerda ham menga yordam qilasanmi? Aslida bu ikki ishning bir-biridan farqi katta emas: sening mitti maymunchalaring ham, mening aziz ayiqchalarim ham ruhan bir-birlariga juda o'xshashadi. Ular ham, bular ham sofdir, sodda. O'zing bilasan, hozir urush, menikilar o't ichida, shunday bo'lgandan keyin ularga yordam bersang — savob ish qilgan bo'lasan, kichkina qiz...

Birdan yuzimga kulgi yugurdi, yosh boladay suyunib ketdim. Qanaqa ish bo'lsa ham mayli, ishqilib, kuch-quvvatimni, mehru muhabbatimni, butun vaqtimni bag'ishlaydigan ish bo'lsa bas.

— Juda soz, doktorbey, qachon desangiz, shunda ishga tushaveraman.

— Hozir tushaverasan. Buni qara, qanday kepataga solishibdi. Bular qo'l bilan emas, balki...

Yana og'izga olib bo'lmaydigan xunuk so'z aytildi. Men uyalib:

— Faqat bir shart bilan, doktorbey... Yonimda askarcha so'zlashmaysiz, — dedim.

U kului.

— Harakat qilaman, kichkina, harakat qilaman... Mabodo bexosdan og'zimdan chiqib ketsa, ayb qilmaysan-da, — dedi.

Ikkalamiz kechgacha ishladik, gospitalni ertadan kela boshlaydigan yaradorlarni qabul qilishga tayyorladik.

* * *

Qusha-da-si, 25 yan-var.

Mana, bir oydan beri Xayrullobeyning yonida hamshiralik qilaman. Urush davom etayotir. Gospitalga kelayotgan yaradorlarning oxiri ko'rinxaydi. Ishim shu qadar ko'pki, ba'zi kechalar uyimga ham ketolmayman. Kecha og'ir yarador bo'lib kelgan bir keksa kapitanga butun kechasi bilan parvona bo'lib chiqishga to'g'ri keldi. Shunday charchabmanki, ertalab mazam qochib, dorixonamizdagi kursida o'tirganimcha uxbab qolibman.

Uyqumda yelkamga kimningdir qo'li tekkanini sezdim. Ko'zlarimni ochib qarasam, oldimda doktor Xayrullobeyn turibdi. Sovqotib qolishimdan qo'rqi, uyg'otib yubormaslik uchun ustimga sekingina odeyal yopayotgan ekan.

Doktorbey derazadan tushib turgan zaif tong yorug'ida yana ham so'lg'in, yana ham horg'in ko'ringan moviy ko'zlari bilan kulimsirab turib:

— Uxla, kichkina, tinchgina uxla, — dedi.

Shunday paytda qilingan bu shafqat qalbimda shirin minnatdorchilik uyg'otdi. Bir nima degim, minnatdorchilik bildirigm keldi, lekin bo'lmadi — uyqu yengdi, horg'in-tolg'in kulimsirab, yana uxbab qoldim.

Ikkita katta nuqsoniga qaramay, bu qari doktorni juda yaxshi ko'rib qoldim. Nuqsonlaridan biri shuki, u og'zini juda yomon chakki qiladi. To'g'ri, atrofidagilarda ham ayb bor, lekin bu sabab emas-da! Ba'zida og'zidan shunday xunuk so'zlar chiqib ketadiki, oldidan qochib ketib, bir necha kungacha betiga qarolmay yuraman.

Shunisi qiziqliki, doktor o'zining aymbini bilmaydi emas, biladi.

— Parvo qilma, kichkina, hechqisi yo'q, askarlikda,— deydi.

Xayrullobek aybini astoydil pushmoni va yoqimli uyatchanligi bilan afv ettirgan, hatto manzur qilgan yosh bolaga o'xshaydi.

Ikkinci nuqsoni bunisidan ham kattaroq. Bu qo'pol, dag'al odamda hech tushunib bo'lmaydigan g'alati bir noziklik bor. Odam o'ziga aytishga ham yuragi betlamagan narsalarni ustalik bilan og'zidan sug'urib oladi! Masalan, men o'z sarguzashtimni shu mahal-gacha hech kimga og'zimdan chiqarmay yashirib kelardim, shuning ham bir qismini bilib olibdi-da! Qanday qilib aytib qo'ydim deng? O'lay agar, o'zim ham bilmayman. Gohi-gohida bergen yakka-dukka savollariga quruq, kalta-kulta javoblar berishdan nariga o'tmaslikka tirishib kelardim. Keyin bilsam, ana shu yakkam-dukkam so'zlarimni bir yerga to'plab, butun boshli bir hikoya chiqarib olibdi.

Doktorning hech kimi yo'q. Yigirma besh yil muqaddam uylangan ekan, oradan to'qqiz oy o'tmay xotini tif kasalidan o'lib qolibdi. Keyin uylanmabdi. O'zi rodoslik emish. Qushadasida ham mulki bor deyishadi. Polkovniklik maoshiga uncha ehtiyoji ham yo'q, chunki kasallarga oladigan oyligidan ham ko'proq qarashib turadi. Masalan, kecha bir yaradorning uyidan kelgan xatini o'qib berdim. Yarador soldatning qari onasi kambag'allik qiy-nab yuborganini, bolalari ochlikdan tilanchilik qila boshlaganini yozibdi. Soldat xatni eshitib, oh-voh ko'tardi.

Xayrullobek yon tomonda yotgan kasalni qarayotgan edi. Birdan u bechora soldatga o'girilib:

— Ammo meni qoyil qoldirding! Hoy, nimangizga ishonib shuncha gadovvachchani tug'asizlar! — dedi.

Bu zolim ta'na yuragimga o'qday sanchildi. Hozir joyi emas, bo'lmasa buni, albatta, qari doktorning yuziga solardim. Bir ozdan keyin uning o'zi bu haqda gap oolib qoldi.

— Kichkina, ana shu yarador onasining adresini sekin bilib ol, besh-o'n lira yuboramiz, — dedi.

Bilishimcha, bu qari doktor armiyada na pul uchun va na askarlik burchi uchun xizmat qiladi. Uning o'z intilishi bor: bu intilish "aziz ayiqchalarim" deb atagan boyoqish soldatlarga bo'lgan muhabbatidir. Lekin, bilmayman, nima uchundir bu muhabbatini xuddi uyat narsaday yashirib yuradi.

* * *

Qusha-da-si, 28 yan-var.

Bugun ertalab gospitalga kelganimda, og'ir yarador bo'lgan to'rtta ofitser keltirilganini aytishdi. Hamshiralardan biri:

— Xayrullobek sizni yo'qlayaptilar, — dedi.

Og'ir operatsiyalar mahalida doktor meni hamisha birga olib kirardi.

— Bunday vahimali narsalarni senga ko'rsatish, albatta, yaxshi emas, kichkina, lekin sendan epchilroq odam bo'lmasa nima qilay? Hammasi jahlimni chiqaradi, baqirtiradi, keyin qilayotgan ishimni bilmay qolaman,— deyardi.

Chorshafimni olib tashlab, apil-tapil xalatni kiydim. Lekin men kiyinib chiqqunimcha operatsiya tugabdi: yaradorni zambilda yuqoriga olib chiqib ketishayotgan ekan.

Xayrullobek meni yoniga chaqirib olib:

— Kichkina, sensiz rosa yamoqchilik qildik, — dedi. Operatsiyani u yamoqchilik deb atardi. — Yoshgina shtab mayori qo'limizga tushib qoldi. Granata o'ng qo'li bilan yuzining bir tarafini rasvo qilib tashlabdi. Kabinetimga yotqizdim. O'zing qaramasang bo'lmaydi. Boyoqish jiddiy parvarishga muhtoj.

Shu tariqa gaplashib kabinetga kirdik. Yuz-qo'li bintlar bilan bog'lاب tashlangan bir kishi karavotda jim yotardi. Yoniga bordik. Yuzining chap tarafi jindakkina ko'rinish turardi. Menga issiq ko'rindi... Lekin qaerda ko'rganimni bu ahvolida eslash qiyin edi.

Xayrullobek yaradorning chap tomirini ushlab turardi, keyin uning yuziga yaqin kelib:
— Ehsonbey!.. Ehsonbey!.. — deb chaqirdi.

Birdan miyamda chaqmoq urganday bo'ldi. U Ch...da, Abdurahim poshoning chor-bog'ida uchrashgan shtab kapitani edi. Bir qadam orqaga chekindim, kabinetdan qo'chib chiqish, ikkilamchi meni bu yarador ofitserning yoniga yubormasligini doktordan iltimos qilish niyatida edim. Tanigan bo'lsa ham ko'rib turgan narsasiga ishonmasdi. Kim bilsin, yaralangandan beri necha marta hushidan ketgan, dard ichida, o't ichida necha bor ko'zlariga har nimalar ko'ringan ekan. Ha, zaif ko'zlarining boqishidan sezdim: meni ko'rib turganiga ishonmadi, qonsiz lablari bilan xiyol jilmaydi-yu, tag'in ko'zlarini yumib oldi.

Ehsonbey! Bir necha oy avval mening yoshligimdan, himoya qilish mumkin bo'lган otam, akam... biron kimsam yo'qligidan foydalanib, meni ishrat kechasiga aldab obordilar. Keyin Ch... shahridan jo'narkanman, yuragimda surgun qilingan oddiy ko'cha xotining haqirligi bosh ko'tardi, sharmandalikka chiday olmay yuzimni qo'llarim bilan yashirishga majbur bo'ldim. Dunyon boshdan-oxir bir zulm, o'zimni esa o'sha zulmga bo'ysunishdan boshqa chorasi qolmagan bir mushtipar deb hisoblangan kunimda siz meni himoya qildingiz, maslagingizni, istiqbolingizni xavfda qoldirdingiz, hatto shirin joningizni ham tikib, muruvvat qildingiz.

Modomiki, qayg'uli bir tasodif bugun bizni yana uchrashirgan ekan, mayli, sizdan qochmayman, mana shu umidsiz, mana shu og'ir kunlaringizda yoningizda singlingiz bo'lib xizmatingizni qilaman.

* * *

Qusha-da-si, 7 fe-v-ral.

Ehsonbeyning yarasi qo'rqinchli emas, biror oydan keyin turib ketsa kerak. O'ng qoshidan boshlanib to iyagigacha cho'zilib tushgan yarasi yuzini nihoyatda xunuk qilib qo'yadi.

Xayrullobek yara bog'larini o'zgartirayotganda men yonida turmadim. Yuragim dov bermagani uchun emas, albatta, chunki har kuni bundan ham battarroq yaralarni ko'rib turaman, asl sababi boshqa edi: men unga qarab tursam, dahshatli yarasiga pichoq urilgandan ortiq ozor yetishini bilardim...

Bechora gospitaldan qanday bashara bilan chiqib ketishini bilar, bu haqda bir nima demasa ham, chuqur alam va qayg'u bilan ezilib kelardi.

Xayrullobek:

— Picha sabr qil, yigit, yana yigirma kunlardan keyin soppa-sog' bo'lib ketasan — deسا, Ehsonbey o'tday yonib ketardi.

Yaradorning shu og'ir kunlarini yengillashtirish uchun qalbimning butun shafqat qobiliyatini sarf qilyapman. Ba'zan karavotining yonida o'tirib kitoblar o'qib, ertaklar aytib beraman.

Ha, bechora churq etmaydi, lekin xunuk bo'lib qolish dahshatidan azoblanayotgani va bu azobdan bir zum ham qutula olmagani yaqqol ko'rinish turadi. Ba'zan yeng ichida tasalli berishga harakat qilaman. O'zimni butunlay boshqa narsalar to'g'risida gapi-rayotganga solib, dunyoda yuz go'zalligiday foydasiz, hatto zararli narsalar yo'qligini, asl go'zallikni odamning ruhidan, ko'nglidan qidirish kerakligini aytaman.

* * *

Qusha-da-si, 25 fe-v-ral.

Ehsonbey biz kutgandan ertaroq tuzalib ketdi. Bugun ertalab sutchoyni olib kirsam,

kiyinib olgan ekan. Bir yilcha avval Abdurahim poshoning bog'ida porlab turgan formasi, chirolyi va mag'rur chehrasi bilan menga duch kelgan shtab kapitani ixtiyorsiz ko'z o'ngimda gavdalandi. Bu mayorlik formasining yoqasi ichida ingichka bo'yni qiltirab turgan, yuzidagi yara izidan xuddi ayb narsaday uyalayotgan dardli askar nahotki o'sha chirolyi, mag'rur shtab kapitani bo'lsa?

Xafa bo'lqanimni yashirolmadim, buni boshqa narsaga yo'yishga tirishib, yolg'onda-kam jahl qildim:

— Ehsonbey, bu axir yosh bolalik-ku! Butunlay tuzalmay turib, nimaga kiyinib oldin-giz?

Ehsonbey ko'zlarini yerga olib:

— Yotaverish odamni battar kasal qiladi-da, — dedi.

Ikkalamiz ham jim bo'lib qoldik. Bir ozdan keyin Ehsonbey ta'bi tirriqligini yashirishga tirishib:

— Ketmasam bo'lmaydi, shukur, tuzalib ketdim, — dedi.

Rahmim kelganidan yuragim ezildi. Sezdirmaslik uchun gapni darrov hazilga aylantir-dim:

— Ehsonbey, chog'imda, gapimga kirmaydiganga o'xshaysiz. Yana jangari qaysarli-ningiz qistab turibdi, deyman-a! Hozir borib doktorga chaqaman, kelib ta'ziringizni bera-di! — dedim.

Patnisni qo'ydim-u shoshib tashqariga chiqib ketdim. Lekin doktorning oldiga borma-dim.

* * *

25 fe-v-ral (kech-ki payt).

Xayrullobek bilan qattiq aytishib qoldim. Ish ustida emas, yo'q, birovlarning ishiga aralashaverishda haddidan oshib ketgani uchun...

Ehsonbey to'g'risida gaplashib turib edik. Men yuzining buzilganidan juda qattiq xafa bo'layotganini aytsam, Xayrullobek labini burib:

— Haqqi bor, men uning o'rnida bo'lsam o'zimni dengizga tashlardim. Bunaqa basha-ra baliqlarga yem bo'lishdan boshqa nimaga yarardi! — deb qolsa bo'ladi!

Jonim chiqib ketdi.

— Men sizni boshqacha odam deb o'ylab yurardim, doktorbey. Qalb go'zalligi oldida yuz go'zalligining necha pullik ahamiyati bor? — dedim.

Xayrullobek kulib, meni mazax qila boshladi.

— Bekor aytibsan, kichkina. Bundaqa basharali odamga birov qayrilib ham qaramay-di. Ayniqla, sening yoshingdagi qizlar.

Gapining rostligini ta'kidlash uchun yoqasini tutdi. Men isyon qildim.

— Sirlarimni jinday-jindaydan o'g'irladingiz, shu yo'sinda hayotimni ozmi-ko'pmi bilib ham oldingiz. Mening chirolyi, nihoyatda chirolyi nishonlim bor edi. Meni aldadi, men uni qalbimdan yilib chiqardim, men undan nafratlanaman!

Xayrullobek yana xaxolab kulib yubordi. Keyin oq kipriklar ichida mug'ambirlik bilan kulib turgan moviy ko'zlarini xuddi qalbimni ko'rmoqchi bo'lganday yuzimga tikib turib:

— Qani, menga bir qara-chi, kichkina, — dedi. — Unday emas, ko'zimga qarab turib ayt-chi: uni yaxshi ko'rasanmi-yo'qmi?

— Yomon ko'raman, nafratlanaman!

Doktor iyagimdan ushladi, hamon ko'zlarimga tikilib turib:

— Voy bechora-ey! Shuncha yildan beri uning yo'lida qovdek yonib kelyapsan-ku! U hayvon sen bilan birga o'ziga ham jabr qilyapti. Bundaqa ishqni u dunyo-bu dunyo topol-maydi, — dedi.

G'azab kuchidan tovushim bo'g'ilib:

— Nechun menga bu og'ir tuhmatni ravo ko'rdingiz? Axir qaerdan bilasiz? — dedim.

— Esingdadir, bunga Zaynilar qishlog'ida ko'rishganimizdayoq tushunganman. Yashir-may qo'ya qol, bekor ovora bo'lasan. Bola ko'zlariningdan ishqing yoshday oqib turibdi...

Ko'z o'ngim qorayib, quloqlarim shang'illardı, u esa hamon gapirar edi:

— Sen boshqalardan ajrab turasan, boshqalar orasida yot-begonaday ko'rinasan. Kulishlaring shu qadar horg'in, alamliki, yuragim ezilib ketadi, kichkina! Bilsang, tush ko'rayotgan odamlargina shunday kulishi mumkin. Sen aslida boshqalardan o'zgacha yaratilgansan. Sirli bo'sadan tug'ilib, yana shu bo'sa bilan oziqlangan, o'sgan parilar bor, deyishadi. Bu gapni butunlay uydirma deb bo'lmaydi, nimaga desang, u parilarning dunyoda namunalari bor. Faridajon, sen o'shalarning bittasisan. Voy tentak qiz-ey, yomon yanglishgansan-da! Nima bo'Iganda ham u esi pastni qo'ldan chiqarmasliging kerak edi. Axir baxting ochilib ketardi!

Birdan faryod ko'tardim, tipirchilab yer tepindim:

— Nega bu gaplarni aytdingiz? Menda nima qasdingiz bor? — deb yig'lay boshladim.

Ana shundan keyin doktor aytgan gaplariga pushaymon bo'ldi.

— To'g'ri aytasan, kichkina, haqqing bor. Bu narsalarni senga aytmasligim kerak edi. Ahmoqliq qildim, kechir meni, kichkina, — deb menga tasalli bera boshladim.

G'azabim haddan tashqari qaynagan edi, yuziga ham qaragim kelmay:

— Ko'rarsiz, men uni yomon ko'rganligimni bir isbot qilib beray! — dedim-u eshikni taq yopib chiqib ketdim.

* * *

Yana 25 fe-v-ral, ke-cha-si.

Ehsonbeyning chirog'ini olib kelganimda, u hamon formasini yechmagan, kechki sha-faqning dengizdag'i o'yinini deraza yonida tomosha qilib turgan edi.

Men indamay chiqib ketmaslik uchun:

— Harbiy formangizni juda sog'inib qolib-siz-da, afandim, — dedim.

Xonaga oqshom olaqorong'iligi cho'kkani edi. Ehsonbey shu olaqorong'ilikdan yurak-langanday dudmalgina qilib kulimsiradi, keyin o'z dardini birinchi marta ochib aytdi:

— Harbiy formani deysizmi, afandim? Ha, endi birdan-bir umidim shunda qoldi. Yuzimni shu ahvolga keltirgan ham o'zi. Endi meni bu falokatdan qutqazadigan ham yana o'zi bo'ladi.

Men bu so'zlarning ma'nosiga tushunmay, Ehsonbeyning yuziga hayron bo'lib qaramdim. U chuqurgina tin olib davom etdi:

— Bu qiyin narsa emas, Farida xonim. Aslo taajjubga o'rinn yo'q. To'g'ri harakatdag'i armiyaga qaytaman. Granata chala qoldirgan ishni urush oxiriga yetkazsin, ana unda men ham qutulaman.

Yosh mayor bu so'zlarni kichkina bola o'ksinishi va iztirob bilan aytdi. Men unga orqamni qilib chiroq yoqayotgan edim. Haligi so'zlaridan keyin bildirmasdan gugurtni pu-flab o'chirdim-u piligini tuzatmoqchi bo'Iganday chiroq ustiga engashib, nihoyatda past tovush bilan:

— Unday demang, Ehsonbey. Xohlasangiz baxtiyor bo'lisingiz mumkin. Masalan, yaxshigina bir qizga uylansangiz, shiringina oilangiz, bolalaringiz bo'ladi, hamma narsa esdan chiqib ketadi, — dedim.

Unga qayrilib qaramasam ham menga o'girilmay, hamon deraza yonida dengizni tomosha qilayotganini sezib turardim.

— Farida xonim, naqadar pok yurakli qiz ekanligingizni bilmasam, meni masxara qilyapsiz deb o'ylardim. Meni shu ahvolimda kim ham xohlar edi? Men bu kepataga tush-

masimdan avval hech bo'lmasa yuzimga kulmay qarashlari mumkin bo'lgan kunlarda ham bir qizga yoqmadim, endi shu nogironlik bilan...

Ehsonbey so'zini davom ettirmadi, bir oz jim turgandan keyin, o'zini bosib olishga tirisib:

— Farida xonim, bular bekorchi gaplar. Kechiring, chiroqni yoqib yuborsangiz, — dedi...

Yana bitta gugurt chaqdim, lekin qo'limni, nima uchundir, chiroqqa olib borolmadim, ko'zlarimni lipillab turgan o'tga tikib, xayol surib ketdim, men shu taxlitda gugurt cho'pining yonib bo'lishini kutardim. Xonaga eski olaqorong'ilik tushgandan keyin:

— Ehsonbey, siz o'sha muvaffaqiyatga erishgan damlaringizda mag'rur, xudbin kishi edingiz, — dedim. — Alam va umidsizlik qalbingizni hozirgiday ingratmagan edi. O'shanda maslagingizni, hatto aziz joningizni ham xavfda qoldirib, bir bechora qizni, boshlang'ich mактабning bir faqir muallimasini himoya qildingiz. Ke- yin hammasidan ham muhimi shuki, — dardingizni bilaman, yo'q, yashirmang endi, — shu bugungisidan kam baxtsiz emasdingiz. Shunday bo'lgandan keyin nega endi o'sha bechora boshlang'ich maktab muallimasi o'z hayotini sizning baxtingiz yo'liga tikmasin?

Yarador mayor ichidan yopirilib chiqqan bir tovush bilan:

— Farida xonim, iltimos qilaman, ro'yobga chiqmaydigan bu xil xayollar bilan meni butunlay baxtsiz qilmang! — dedi.

Men qat'iy qarorga kelgan edim. U tomonga shartta o'girildim. Boshimni solintirib:

— Ehsonbey, meni qabul qiling, iltimos qilaman! — dedim. — Yo'q demang, ko'ramiz, sizni baxtiyor qilaman, baxtli bo'lib yashaymiz...

Ko'z yoshlarim o'ngimda pardatortdi, qorong'ida mayorning yuzini ko'ra olmadim. Ehsonbey uzatgan qo'limni lablariga keltirdi-da, qo'rqa-pisa barmoqlarimning uchini o'pdi.

* * *

Endi tamom! Bundan keyin hech kim uni jigar-bag'rimdan yaxshi ko'rganimni yuzimga sola olmaydi.

* * *

Qusha-da-si, 26 fe-v-ral.

O'sha kundan beri sen mening uchun bir begonadan, dushmanidan boshqa narsa emas eding, Komron. Hech mahal yuz ko'rishmasligimizni, to o'lgunimizcha ko'zimiz ko'zimizga tushmasligini, bir-birimizning ovozimizni bir umr eshitmasligimizni bilardim. Shunday bo'lsa ham, sening nishonling ekanim hissini hamisha ko'nglimda saqlab kelardim. Nima demay, nima qilmayin men o'zimni hammavaqt sening mulking deb kelaman va bu tushunchadan hech vaqt qutula olmayman.

Ha, yolg'on aytishning nima hojati bor? Bugun nafratlarimga, isyonlarimga, butun bo'lib o'tgan narsalarga qaramay, men yana qisman seniki edim. Buni birinchi marta bugun ertalab, birovning nishonlisi bo'lib uyg'ongan damimda his etdim. Ha, birovning nishonlisi! Shuncha yillarning shuncha subh-sabohida sening nishonlingman deb uyg'onib kelganimdan keyin, birdan o'zga kishining nishonlisi bo'lib uyg'onish!.. Komron, faqat bugun ertalabgina sendan chinakamiga ayrlidim. Hamda biron yodgorlik olishga, so'nggi marta boshini o'girib orqasiga, orqasida qolgan narsalarga qarashga haqqi bo'lmagan muhujir singari ayrlidim!..

* * *

Bugun ertalab Ehsonbey bilan ko'rishganimdan so'ng uni Xayrullobeyning oldiga olib borib, unashganimizni aytmoqchi edim. Bu katta voqeа uchun har kuni kiyib yuradigan hamshiralik xalatim to'g'ri kelmasligi, nishonlimni balki dilgir qilishi mumkin edi. Shuning uchun bog'da o'sib yotgan gullardan uzib, ko'kragimga taqib oldim.

Bugun ertalab ham Ehsonbey formada edi. Meni ko'rib, yosh boladay ochilib ketdi. Shu bugundan boshlab uni baxtli qilish mening burchim, deb o'yladim-da, zo'rma-zo'ra-kayiga kulimsirab qo'llimni uzatdim:

— Bonjur, Ehsonbey, — dedim.

Keyin dastadan bir necha niholni sug'urib olib, mundiriga taqib qo'ydim.

— Bugun kechasi yaxshi uxlagan bo'lsangiz kerak?

— Juda yaxshi. O'zingiz-chi?

— Olti oylik chaqaloqday tinch, bexarxasha.

— Unday bo'lsa nega yuzingiz sarg'aygan?

— Bilmaysizmi, baxt ham odamni sarg'aytiradi.

Shundan keyin ikkalamiz jim bo'lib qoldik.

Ehsonbeyning lablari op-oqarib ketgan edi. Bir oz jim turgandan keyin og'ir-og'ir so'zlay boshladi. Ora-sira ovozining titrashidan qo'rqib to'xtab qolar, keyin yana ikkilanib davom etardi:

— Farida xonim, sizdan to o'lgunimcha minnatdorman. Menga eski baxtiyor paytlarimda ham nasib qilmagan mislsiz bir kecha bag'ishladingiz. Sizga boyta rostini aytmadim. To'g'risi, shu kecha tong otganga qadar mijja qoqmay chiqdim. "Iltimos qilaman, meni qabul qiling", degan so'zlaringiz quloqlarimdan ketmadi... Uxlamadim, chunki sizning nishonlingiz bo'lib o'tkazayotgan birdan-bir kechamning bir minutini ham zoe ketkazmaslik kerak edi... Umrimning oxirigacha sizdan minnatdor bo'lib qolaman.

Ehsonbeyning yuziga qaradim.

— Sizni hammavaqt baxtiyor qilaman, — dedim.

U chuqur hayajon ichida edi. Qo'llarimni ushlamoqchi bo'ldi, lekin yuragi betlamadi. Xuddi kasal bolaga gapirayotgandek, yumshoq, mehribon tovush bilan:

— Yo'q, Farida xonim, bu kechaning ertasi bo'lishi mumkin emasligini bilardim, — dedi. — Shu kecha nihoyatda baxtiyor bo'ldim. Lekin, shunga qaramay, bugun ketaman, bir necha soatdan so'ng sizdan ayrılamani.

— Nega endi, Ehsonbey? Meni xohlamaysizmi? To'g'ri emas, menga shuncha umid bergandan so'ng ketib qolishingiz to'g'ri emas!

Ofitser orqasi bilan devorga suyandi, ko'zlarini yumdi, keyin chuqur-chuqur xo'rsinib:

— Oh, bu ovoz! — dedi-da, birdan silkinib, qariyb dag'al tovush bilan: — Yana bir oz g'ayrat ko'rsatsangiz, rahmu shafqat sizni meni yaxshi ko'rganligingizga ishontiradi, — deb aytdi.

— Nega ishontirmasin, Ehsonbey? Modomiki, siz bilan unashishga ko'ndim, demak, bunda bir sabab bor!

Ehsonbey achchiq istehzo bilan javob berdi:

— To'g'ri, modomiki, menga tegish istagini bildirishingiz, demak, meni yaxshi ko'rasiz. Lekin meni bu xilda yaxshi ko'rishingizni istamayman. Nahotki nikohingizga chin muhabbat oqibati deb qarasangiz, Farida xonim!

—

— Farida xonim, nahotki meni baxtsiz nogiraga qilinadigan shafqatdan afzal bo'lma-gan ishq sadaqasini qabul qilish darajasiga tushgan, tamom bo'lgan bir odam deb hisoblasangiz?

Poyonsiz bir qayg'u ichida boshimni solintirdim.

— To'g'ri aytasiz. Biz ikkalamiz ham baxtsiz odamlarmiz. Dardlarimiz biriksa, baxtlarimiz ochilib ketarmidi ekan, deb o'yabman... Yanglishibman... — Ke- yin devorda osig'liq qilichga ishora qilib ilova etdim:— Sizning harholda tasallingiz bor. Boya aytganizdek, frontga qaytishingiz mumkin. Men esam xotin kishiman, sizdan ming marta baxtsizroqman...

* * *

Sovuq qish sabohlaridan birida kecha oqshom unashgan yigit bilan qiz ko'kraklariga nozik, yashil nihollar taqib, lablarida ham xuddi o'sha nihollar singari jonsiz tabassum bilan bir-biriga jilmayib turardi. Ular o'n minutchadan keyin ko'zlarida yosh bilan baxtsiz aka va kimsasiz singil kabi bir-birlaridan ayrildilar.

* * *

Qusha-da-si, 2 ap-rel.

Uch kun oldin matabni o'zimizga qaytib berishdi. Besh oylik tanaffusdan so'ng kecha yana dars boshladik. Lekin bundan nima foyda? Axir o'qish yili tugab qolayozdi-ku!

Bahor sinflarni yorqin quyosh nurlari, ertangi gul bo'ylari bilan to'ldiradi. Devorlarda O'rta yer dengizining yashil sayqali o'ynaydi. Bolalarda ham, kattalarda ham o'qish-o'qitishga mayl qolmadi.

Bosh muallima Qushadasida qolmayman deb oyog'ini tirab turib oldi. Shundan keyin uni bundan bir oycha avval boshqa yerga ko'chirishib, o'rniga meni tayinlashdi. "Bosh muallima"lik unvonini bitirishib, o'rniga "mudir" so'zini kiritishdi. Men bir jihatdan bu narsaga xursand bo'lmadim, chunki maktabimdagи muallimalar menga xunuk qaraydigan bo'lib qolishdi. Garchi bular bunchalik ma'lumotli, o'qimishli muallimalar bo'lishmasa ham, harholda, yoshlari bir yerga borib qolgan xotinlardir. Maorif ministrligidagi amaldorlarning tili bilan aytganda, har biri o'n besh-yigirma yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar edi. O'shalarning o'rnida bo'lsam, bir kun kelib qizim tengi bir zing'archani boshimga keltirib katta qilib qo'yishsa, albatta, men ham xafa bo'lardim.

Mart oyining boshlarida Xayrullobeyni pensiyaga chiqarishdi. U o'zi badavlat odam, oylikka muhtoj emas. Shunday bo'lsa ham izzat-nafsiga tegdi.

— Sevgili ayiqchalarimdan bir qanchasining ko'zini o'z qo'llim bilan yopdim. Mening ko'zlarimni ham o'shalar yopsa, mozorimga ham o'zlari olib borib qo'yishsa devdim, bo'ljadi, — dedi.

Xayrullobeyn butun yoshligini ilmu fanga bag'ishlagan, natijada, mukammal ma'lumotga ega bo'lgan kishi edi. Uyida juda katta kutubxonasi bor. Shunday bo'lsa ham dunyoda kitobdan bema'ni, bekorchi narsa bo'lmaydi, kitobni yozuvchilar ham, uni o'quvchilar ham hayotda hech nimaga tushunmaydigan pandavaqilar, deb yuradi.

Kecha o'rinli bir dalil bilan mot qilmoqchi bo'ldim.

— Xo'p, unday bo'lsa, nima uchun o'zingiz shuncha ko'p kitob o'qidingiz, hatto meni ham o'qishga tashviq qilasiz? — dedim.

Bu shunday kuchli dalil ediki, oqar suvni ham to'xtata olardi. Lekin u pinagini buzmadni, aksincha, xaxolab kuldi, meni ermak qilib:

— Rosa boplading-ku, kichkina! Lekin mening aytganimni qil, deb senga kim aytdi? — dedi.

Bu qari doktorga hech tushuna olmayman. Nimaniki yaxshi ko'rsa, shunga qarshi turadi. Meni ham ozor bergen paytlarida harvaqtdagidan ko'proq yaxshi ko'rganligini sezib turaman.

Xayrullobeyn armiyadagi xizmatidan bo'shagandan beri kuni bilan uyiga bekinib olib ki-

tob o'qiydi. Gohida esa askarlikdan yodgor bo'lib qolgan etiklarini kiyadi-da, yelkasiga jandarm singari miltig'ini osib olib, Dulduliga minib chiqib ketadi (Duldul — uning yaxshi ko'rgan qadrdon oti). Qishloqlarda aylanib yurib kasal boqadi, o'zini ovutadigan narsalarni qidirib yuradi. Uyida sakson yasharlik sut enagasi bilan u "o'nboshi" deb ataydigan cho'loq bog'bon qoladi.

Bundan uch kun avval Xayrullobek meni Munisa bilan uyiga chaqirdi. Kayfi chog' edi. Men kutubxonasini kovlashtirish bilan ovora bo'lgunimcha, Munisa bilan yosh boladay o'ynashdi. Munisaga shunday jiddiy buyruqlar berardiki, kula-kula o'layozdim.

— Endi bekinmachoq o'ynaymiz, lekin odam topolmaydigan joyga bekinish yo'q, boshmaldoqday bolasan, bir yerga kirib olsang, kechgacha qidirishga to'g'ri keladi. In-naykeyin, mabodo meni topolmasang, hayron bo'lma, bekingan yerimda uxbol qolgan bo'laman, — dedi.

Bir necha kundan beri Munisaga chorshaf yopintiraman. Qizginam o'n to'rtga kirib qoldi, bo'yи ham bo'yimga yetdi. Kichkinam gulday ochildi, oqqa moyil och sariq sochlari orasidan oppoq, kulchaday yuzi, kun fasliga qarab o'zgarib turadigan ko'm-ko'k ko'zlari bilan kulganda yonoqlarida gullar ochgan, yig'laganda esa ko'zlaridan injular to'kilgan pari qizlariga o'xshardi.

Xayrullobek chorshaf yopintirishimga tish-tirnog'i bilan qarshi. Men ham uning hali juda yoshligini bilaman, lekin nima qilay, qo'rqaman. Tanish-bilishlardan ba'zilari:

— Faridaxonim, sen buningni erkaklardan qochir. Bevaqt qaynana bo'lib qolmagin tag'in, — deyishardi.

Ichimda allaqanday hovriqish bor: ham suyunaman, ham xijil bo'laman. Qaynalarni bekorga zahar deyishmaydi.

Kecha maktabdan kelayotgan edik. Bir mahal ko'chaning ul yuzida kelayotgan o'n olti-o'n yetti yoshli xushro'ygina yigitchaga ko'zim tushib qoldi. Bu maktab bolasining biz to-monga qarab-qarab qo'yishi menga g'alati tuyuldi. Pechimning tagidan Munisaga sekin razm soldim. Nimani ko'rdim deng? Noinsof sariq chayon yigitchaga ko'z qiri bilan tabassumlar uzatsa-ya! Shunchalik vahmg'a tushdimki, ko'cha o'rtasida hushdan ketib qolishimga sal qoldi. Qiz tushmagurni qo'lidan ushlab olib, tergay boshladim. Oldin bo'yniga olmadi. Qarasaki, men gaplariga ishonmayman, shundan keyin yolg'ondakam yig'lashga turdi. Sariq chayon, ko'z yoshlarini ko'rsam, chidolmasdan mening ham yig'lab yuborishimni biladi-da.

— Men ham senga qanaqa jazo berishni bilaman, — dedim. — Bozordan to'q yashil ipaklik sotib oldim, senga shundan chorshaf tikyapman.

Bugun ertalab ham Munisa bilan atirgul moyi ustida qattiq janjallashib oldik. Bundan bir necha oy avval Xayrullobek bilan gaplashib o'tirib so'z orasida shu moyni yaxshi ko'rganligimni aytib edim. Bilmayman, qaerdan topdi ekan, uch-to'rt kundan keyin Xayrullobek menga bir shisha atirgul moyi keltirib bergen edi. Ado bo'lib qolmasin deb juda tejab ishlatdim. Xudo umringni bergur noinsof qiz bo'lsa hech ayamaydi. Uyda jindakki-na yolg'iz qoldimi — bo'ldi, uy ichini atirgul moyining hidi tutib ketadi. Men qistovga olsam, o'zini bilmaslikka solib:

— Tekkanim yo'q, opajon, xudo ursin, — deb qasam icha boshlaydi.

* * *

Qusha-da-si, 5 may.

Bugun ertalab Munisa bir oz tobi qochib, rangi o'chib uyg'ondi. Ko'zlari qizarib, yuzi so'lishib turdi. Maktabda ishim nihoyatda ko'pligi uchun uyda qolishning iloji bo'lmadi. Bitta kampir qo'shnimiz bor edi, shundan Munisaga qarab turishni iltimos qildim-u, o'zim Xayrullobeynikiga chopib ketdim. Unga Munisaning kasalligini aytib, kelib xabar olishini

iltimos qilmoqchi edim. Lekin omadim kelishmadi: yarim soatcha avval Dulduliga minib, allaqaerga chiqib ketgan ekan.

Uyga qaytib kelsam, Munisa o'rnida yotibdi. Qo'shnik esa, umridan baraka topsin, kechgacha Munisaning yonida paypoq to'qib o'tiribdi.

Munisaning rezandas, yo'tali ertalabgidan ancha Kuchaygan, boshi o'tday yonib turgan edi. Ovozi xirillab qolibdi. Nafas olayotganida tomog'ida bir narsa halaqit berayotganini aytди. Iyagidan ushlab, og'zini ochtirdim, bo'ynida qo'limga qattiq narsalar, bezlar urindi. Ko'zlarini qamashtirganiga qaramay, chiroqni og'ziga tutib qaradim. Og'zining ichida, kalta tili atrofida oq shishlar ko'rindi.

Munisa mening tashvishga tushganidandan kulib:

— Yo'talsam nima bo'pti, opajon? Zaynilarda ham yo'talardim-ku, esingizdan chiqdidi? — dedi.

Kichkinam to'g'ri aytadi. Zaynilarda, qahraton sovuqda, qor ichidan topgan kechamizza ham yo'talmaganmidi? Bolalarda shamollash nima degan narsa? O'tib ketadi... Lekin Xayrullobeyni topmaganim xijil qiladi. Hozirgina o'nboshi kelib, Xayrullobeyning qo'shni qishloqda yotib qolganligini aytib ketdi. Xudoyo, u kelguncha kichkinam turib ketsin-da!

* * *

Qusha-da-si, 18 iyul.

Bugun ertalab hisoblab ko'rsam, kichkinamni qora yerga qo'yganimga roppa-rosa yetmish uch kun bo'libdi.

Bu dahshatli ayrılıqqa ham, bu achchiq alamga ham sekin-sekin ko'nika boshladim. Inson nimalarga chidamaydi!.

Boya qari doktor bilan dengiz bo'yiga aylangani bordik. Qumloqdan mayda toshlar, sadaf qobiqlari yig'ib, dengizga ota va sokin suv betida sirg'antira boshladim.

Xayrullobeyp yosh boladay quvondi. Oq kipriklari orasidagi gunohsiz moviy ko'zlarini kuldirib:

— Oh, yoshlik, — dedi. — Alhamduliloh, bu alamni ham yengdik. Qara, ranging bilan birga kayfing ham kirib kelyapti.

Kuldim.

— Nimaga ajablanasiz? Sizday doktori bo'lgan kishining kayfi ochilsa ne ajab? Bu axir tabiiy narsa-ku, — dedim.

Xayrullobeyp vazmingina boshini tebratdi:

— Tabiiy narsa emas, kichkina, tabiiy narsa emas! Doktorlik ham insonlar kabi, kitoblar kabi, vafo va sadoqat kabi asossiz, ma'nosiz bir safsata... Mushtumday bolani qutqazib qolishga qurbi yetmagan bunday fanning yuziga tufurganim bo'lsin!

— Nachora, doktorbey, xafa bo'lmang. Xudoning xohishi shu ekan, — dedim.

Doktor alam bilan yuzimga qaradi.

— Bechora kichkinam, bilasanmi, senga nima uchun rahmim keladi? Boshingda og'ir qayg'u, o'zing tasalliga muhtojsan-u, birovning dardini ko'rib, o'z dardingni unutasan-da, boshqalarga taskin bera boshlaysan. Sening bu mazlumliging, boshqalarga rahmdilliling meni yig'latadi, kichkina, — dedi.

Bir oz jim turgandan keyin o'zidan shikoyat qila boshladi:

— Men ham ikki chaqaga arzimaydigan bo'lib, bachkanalashib ketyapman... Yo jinnipinni bo'lib qoldimmi-a? Qani, kichkina, ketdik, yur.

Sarg'aygan dalalar bilan yurib uyga qaytdik. U yerlarda ishlayotgan dehqonlarning hammasi doktorni tanir edi. Kattakon g'aram yonida ishlayotgan bir qari xotin bilan gaplashdik. Xayrullobeyp bir necha yil avval uning nevarasini shifolagan ekan, kampir o'tirib olib rosa duo qildi. Keyin saraton quyoshida kuyib-yonib qo'sh haydayotgan baquvvat

bolani chaqirdi.

— Bu yoqqa kel, Husayn, valine'matingning qo'lini o'p. U bo'Imaganda sen hozir bir hovuch tuproq bo'lib ketarding, — dedi.

Qari doktor Husaynning oftobda kuyib, terlab ketgan yuzini silab turib:

— Men unaqa qo'lini quruq o'ptirib ketaveradiganlardan emasman, yigit. Undan ko'ra bizni molangga mindirib o'ynat, — dedi.

Ikkita kuchli ho'kiz qo'shilgan molaga mindik. Bug'doy dengizining sariq to'lqinlari us-tida besh-o'n minutcha gasht qilib aylandik.

* * *

Bugun u voqeani yozsam bo'ladi, yuragim chidash berar deb o'ylayman.

Daftarimning oxirgi sahifasini yozgan kechamning ertasiga ertalab Munisaning ahvoli og'irlashdi. Ovozi butunlay bo'g'ilib qoldi. Bechora bolam! Nafas ololmay qiyalar edi. Ni-ma bo'lsa ham boshqa doktor olib kelmasam bo'lmaydi deb endi chorshafimni yopina boshlaganimda, Xayrullobek kirib keldi. U kasalni qarab, qo'rqinchli hech narsa yo'qligini aytdi. Lekin qovog'i tushib, xayol surib qoldi.

Qovog'i tushib ketganligi menga yoqmaganini botinqiramay o'ziga aytdim. Doktoring jahli chiqdi. Yelkalarini qisib:

— Ko'p g'idi-bidi qilaverma! O'zim charchab o'lib turibman, to'rt soatlik yo'ldan keldim-a! Senlarga xizmat etganim yetmay, tag'in dilimni siyoh qilishing qoldimi? — dedi.

Xayrullobek og'ir kasallarni ko'rganda harvaqt shunaqa asabiylit, qo'pollik qilardi.

Yuzimga qaramaslikka tirishib:

— Keragi bo'Imasa ham bir-ikkita tanish doktorlarni chaqiraman. Qog'oz-qalam olib kel, tez bo'l, — dedi.

Bugun hamma ishim teskarisidan kelaverdi. Ertalabdan beri maktabdan uch marta xodima chaqirib keldi. Maorif ministrligi kengashining ikkita a'zosi bilan bir inspektor kelibdi. Menden ba'zi narsalarni surishtirishmoqchi emish. Xodima uchinchi marta kelganda, yoqasidan sudrab ko'chaga chiqarib tashlaguday bo'ldim.

Xayrullobek, jahli chiqib, meni jerkib tashladi:

— Sen bu yerda nima qilasan? Bor, ishingni qil. O'zim charchab o'lay deb o'tiribman-u yana sening xarxashangni ham ko'taraymi? Bo'l tez, chorshafingni yopin, marsh! Bu yerdan ivirsib, meni ishdan qoldiryapsan. Xudo ursin, bo'Imasa hozir chiqib ketaman.

Qari doktor ovozini shu qadar qo'rs, ters qilib buyurdiki, bo'ysunmaslikning iloji qolmadi. Churq etolmay qoldim. Pechim ostida yig'lay-yig'lay maktabga ketdim.

Maorif ministrligi meni dunyoning barcha nozu ne'matlariiga g'arq qilganda ham bugungi fidokorligim haqini to'lay olmaydi. Inspektorlar sinfma-sinf yurib bolalarni imtihon qilishar, daftarlarni ko'rmoqchi bo'llishar, kurakda turmaydigan ming turli narsalarni so'rashardi. Boshimga tushgan falokat ichida nima o'ylaganimni, javob qilganimni bilmayman. Vaqt choshgohdan oshgan bo'lsa ham ular hamon ketishmas edi.

Oxiri ulardan biri parishonligimni sezib:

— Tobingiz yo'qmi, mudira xonim? Yuzingiz iztirobli ko'rindi, — dedi.

Ortiq o'zimni tutolmadim, marhamat tilayotganday bo'ynimni egdim, qo'llarimni qovu-shirib:

— Uyda bolam o'lyapti, — dedim.

Achinishdi, bema'ni tasallilar berishdi, keyin ketishimga ruxsat etishdi.

Uyim bilan maktab orasi nihoyati besh minutli yo'l. Lekin hozir u yo'lni yarim soat, balki undan ham uzoqroq muddat bosdim. Ertalabdan beri tezroq uyga qaytsam deb uchib turganimga, qiyalganimga qaramay, endi u yoqqa borishga nima uchundir oyog'im tortmas edi. Ko'chalarda yolg'iz gandiraklar, devorlarga suyanib qolar, yura-

yura charchagan yo'lovchilarday chashma toshlarga kelib o'tirardim.

Uyimizning ochiq derazasidan yot erkaklarning boshlari ko'rindi. Eshikni menga o'nboishi ochdi. Bir nima so'rashga botinmay, gapirmasaydi deb ko'zlarim bilan, parishon ahvolim bilan yolborar edim. Lekin u men kutmagan so'zlar bilan qarshi oldi:

— Bola bechora kasal... Inshoollo, xudo shifosini berar, — dedi.

Birdan shiftlar larzaga keldi, zinapoya ustida doktor Xayrullobek ko'rindi, ko'kragi ochiq, qo'llari shimariqlik edi.

— Kim keldi, o'nboishi? — deb o'kirdi.

Majolim qurib, zinaga o'tirib qoldim. Xayrullobek tashqari qorong'isida meni ko'rguncha kutib turdi, keyin sarosimali bir tovush bilan:

— Farida, senmisan? Juda soz, qizim, juda soz,— dedi. Keyin sekin yonimga tushdi. Ahvolim hamma narsadan xabardorligimni bildirib turardi. Qo'llarimni ushladi, duduqlanib, tutilib gapira boshladi: — Qizim, tishingni tishingga qo'y, o'zingni mahkam tut. Inshoollo, tuzalib ketadi. Qon quydik, qo'limizdan nimaiki kelsa qildik. Xudoning dargohi keng. Umid uzib bo'lmaydi.

— Doktorbey, ruxsat bering, o'zini ko'ray, — dedim.

— Hozir emas, Farida, bir ozdan keyin. Endi uxladi. Xudo haqqi, hech narsa bo'Igani yo'q. O'lay agar, charchab uxbab qoldi.

Hovliqmasdan, lekin qattiq turib talab etdim:

— Haqqingiz yo'q, doktorbey, albatta ko'rishim kerak! — Ovozimda yig'i bor edi, keyin ingrab turib ilova etdim: — Siz o'ylaganingizdan ko'ra bardamroqman. O'zini urib, dod soladi, deb qo'rwmang!

Xayrullobek bir oz o'ylandi, keyin boshini silkitib rozi bo'ldi.

— Xo'p, qizim. Lekin esingda bo'lsin, behuda ohu vohlar kasalni cho'chitadi.

Inson o'z uhdasiga biron majburiyat olgandan keyin qanchali alam va hasratga uchramasin, sukut saqlashga, chidashga majbur bo'ladi. Xayrullobeyning yelkasiga boshimni qo'yib uyga kirganimda na ko'nglimda hayajon va na ko'zlarimda bir tomchi yosh bor edi.

Oradan yetmish uch yil qadar uzun yetmish uch kun o'tgan bo'lsa ham, Munisa yotgan uy hali-hali ko'z o'ngimdan ketmaydi.

Ichkarida ko'ylaklarining yoqalari yechilib, yenglari shimarilgan ikkita yosh doktor bilan bitta kampir bor edi. Daraxtlarning yaproqlari orasidan tushib turgan choshgoh quyoshi uy ichini yorqin hayotga to'ldirgan. Tashqarida qushlar, chigirkalar chirqillasha-di. Uzoqdan grammonfon ovozi eshitiladi. Uy ichi ivirsigan: kursilarda, raflarda shishalar, paxtalar; yerlarda, devorlarda Munisaning ming turli narsalari. Oynak yonida uning o'zi Xayrullobeyning bog'idan terib keltirgan bir dasta gul; komod ustida Munisa dengiz bo'yidan yiqqan bir hovuch rangli tosh, sadaf qobiqlari; stillardan birining tagida bir poy tuflisi; devorda B... dagi uyimizda men suv bo'yog'i bilan solgan rasmi (boshida dala gullaridan yasalgan chambar, quchog'ida Mazlum bilan tushgan edi), so'ngra ming turli munchoq, laxtaklar, shisha boldoqlar, kelinchaklar surati solingan otkritkalar — xullas, bir qiz bola qalbining javharlari, endi bo'yinlarini qisib qolgan g'aribalari...

"Endi Munisam chorshaf yopinadigan katta qiz bo'lib qoldi", deb ikki haftacha burun nikellangan ajoyib karavot sotib olgan, uni xuddi qo'g'irchoqnikiga o'xshatib to'rlar bilan yasatgan edim.

Kichkinam shu ipak ko'rpalar ichida o'zi ham ipakday suzilib, cho'zilib yotardi. Boshi xuddi uyquda tushib ketganday, bir yonga og'ibroq qolibdi. Karavotining oyoq tomonidagi suyanchig'ida yaqinda sotib olingan to'q yashil chorshafning bichiqlari osilib yotibdi. Bosh tomonidagi rafda B... da men sotib olib bergen qo'g'irchoq kichkinamning bo'salari-dan rangi o'chgan yuzi, yirik moviy ko'zlar bilan unga qarab turibdi.

Qizginamning yuzida kasallikning na azobi va na qiyinog'i ko'rindi. Horg'inlik uyqusi elitgan og'zining atrofida tiriklikning so'nggi alomatlari dildirar, kulimsiramoqchiday ochilgan lablari inju tishlarini ko'rsatib turardi. Bu go'zal, ayni zamonda sho'rlik ne'matlar, bir qorong'i qishloq mакtabida qalbimga jo bo'lган daqiqalardan to shu bugunga qadar meni baxtiyor qilib kelgan edi.

Qushlar hamon shodlanishadi, grammonfon hanuz tinmay chaladi, choshgoh quyoshining daraxt yaproqlarini taragan nurlari bu rangsiz bola yuziga ushlangan kapalak qanotlaridan barmoqlarda qoladigan yiltiroq changga o'xshash bir rang beradi, peshonasiga tushgan sariq sochlari bilan o'ynashadi.

Na faryod ko'tardim, na ustiga o'zimni tashlab yoqamni yuldim! Qo'llarim qari doktorning bo'ynida, boshim uning yelkasida, bu alamlı manzarani sehrlanganday tomosha etardim.

O'lim bechora bolamga oy yog'dusi husni bilan yaqinlashar, unga xos hafiflik bilan peshonasidan, lablaridan o'par edi.

* * *

Doktorlar karavotga yaqin kelishdi. Ulardan biri shoyi ko'rpani olib tashlab, Munisining yalang'och qo'liga igna keltirganini ko'rdim.

Xayrullobek xiyol o'girilib, gavdasi bilan meni to'sib oldi. Yosh doktorlardan biri:

— Odekolon, pichaodekolon! — dedi.

Qari doktor boshi bilan rafga imo qildi.

Qushlar hamon tinmas, grammonfon esa sho'x kuylarini qo'ymas edi.

Birdan uy ichini atirgul moyining hidi tutib ketdi. Odekolon topisha olmay, atirgul moyini ishlatishibdi.

Atirgul moyi!.. Kichkinamning qo'lidan tortib olgan edim-a shu shishani!.. Menga baxsh etgan shuncha shodu xurramlik evaziga u yaxshi ko'rgan arzimas bir narsani qizg'anibman, shunday bag'ritoshlik qilibman-a!

Ingrayotgandek alamlı tovush bilan:

— Shishani ko'rpgaga bo'shating, doktorbey. Kichkinam buning hididan xursand bo'la-di, — dedim.

Xayrullobek sochlarni silardi.

— Yur, Farida, yur bolam, tashqariga chiqaylik, — dedi.

Munisani oxirgi marta o'pishni istardim. Lekin yuragim dov bermadi, faqat yalang'och qo'lini ushладим. Kichkinam ora-sira qo'llarimni ushlar, hovuchimni ag'darib kaftlarimdan o'pardi. Men ham shunday qildim. Bechoramning qurishgan, so'lishgan hovuchlarini ustma-ust o'pdim, opasiga qilgan butun yaxshiliklari uchun tashakkur etdim.

Ana shu minutdan so'ng Munisani qaytib ko'rmadim. Meni joyimga olib borib yotqizdi-lar, yolg'iz qoldirib ketdilar.

Butun vujudim dag'-dag' titrar, hammayog'imdan ter quyilar edi. Uy ichiga to'lган atirgul moyining hidi to'lqin singari meni bag'rige olar, nafasimni bo'g'ar edi. O'sha on bu hid, bu choshgoh quyoshining nurlari, qushlarning sadolari menga yillar bo'yи davom etayotganday tuyuldi. Keyin sekin-sekin ko'z o'ngim qoraydi. Ko'zlarimga Munisa, qor bo'ronlari ichida u yo'qolgan qorong'i kecha ko'rindi. Kichkinamning eshikni taqillatgan, bo'ronda chirqirab yig'lagani quloqlarimga kirdi.

Kechaning qaysi soati ekanligini bilmayman. Yorug' nur ko'zlarimni qamashtirdi. Sochlarni, peshonamga qo'l tekkanini sezdim. Ko'zlarimni ochdim: qari doktor qo'lida shamdon bilan yuzim ustida engashib turar, so'niq moviy ko'zlarida, oppoq kipriklarida yoshlari titrar edi.

Xuddi tush ko'rayotganday:

— Soat necha? Uzildimi, a? — deb so'radim.

Shu so'zlardan keyin sekin-sekin yana Zaynilar kechasingning qorong'iligiga cho'mdim.

* * *

Ko'zlarimni ochganimda yotgan yerimni taniy olmadim: boshqa uy, boshqa derazalar... Tirsaklarimga tiranib turmoqchi bo'ldim, lekin boshim meniki emasday yana yostiqqa tushdi. Shoshib tevaragimga qaradim-u yana doktorning moviy ko'zlarini ko'rdir...

— Farida, meni taniyapsanmi?

— Nega tanimayin, doktorbey? — dedim.

— Xudoga shukr, xudoga shukr. Endi u kunlarning betini ko'rmaylik...

— Bir nima bo'ldimi, doktorbey?

— Sening yoshingdagi bolalar uchun qo'rquinchi yo'q. Bir oz uxlading, qizim, bir oz uxlading. Unchalik ahamiyati yo'q...

— Qancha uxladim?

— Ko'p-u, lekin zarari yo'q... O'n yetti kuncha...

O'n yetti kun! Shuncha uplash! Qiziq-ku?.. Yorug' meni bezovta qilgani uchun yana ko'zlarimni yumib oldim. Bu o'n yetti kunlik uyquga boshqa birovning ko'ksidan chiqayotgandek, boshqa birovning lablaridan uchayotgandek g'alati bir qahqaha bilan kuldim. Keyin yana uxbab qoldim.

* * *

Og'ir asabiy tutqalojni boshdan kechirdim. Doktor Xayrullobek meni o'z uyiga olib kelib, o'n yetti kun tepamdan jilmay o'tiribdi. Bu umrimda birinchi marta qattiq og'rishim edi. Tamom tuzalib ketishim qirq kundan ortiqroqqa cho'zildi. Kunlarcha o'rnimdan turmay yotdim. Kasaldan keyin sochlarim tusha boshladi. Bir kun qaychi so'rab olib, sochimni qirqib tashladim.

Tuzalish qanday yaxshi narsa! Odam dunyoga yangidan kelganday bo'ladi. Eng ahamiyatsiz narsalarga ham chiroyli qo'g'irchoqlarga qaragan yosh bola singari suyunib, yayrab-yashnab qaraydi. Oynakka o'zini urgan kapalak, oyna chekkasida rang-barang tovlangan quyosh nuri, uzoqdagi podaning ma'rashlari qalbimni lazzat bilan tipirchiladi.

Kasallik so'nggi uch yil davomida qalbimda yig'ilgan barcha zahru zaqqumlarni olib ketdi. Xotiralarim menga boshqa birovnikiday tuyulardi, chunki ular qalbimda endi na alam va na hayajon uyg'otardi. Dam-badam hayron bo'lib o'zimdan so'rayman: "Balki bular bir mahallar ko'rilgan tushning xira xotiralaridir? Yoki bularni biron eski romanda o'qiganmikanman?"

Ha, bularning hammasini tushda, undagi odamlarni esa ranglari o'chib, chang bosib yotgan eski suratlarda ko'rgandayman.

Doktor Xayrullobek majolsiz yotgan kunlarimda yonimdan bir kun ham jilmay do'stlarcha parvarish qildi. Goh hikoyalar aytib, goh romanlar o'qib, meni zeriktirmaslikka, kuldirib o'tirishga harakat qildi. Bechoraning o'zi ham rosa charchadi.

— Ishqilib, tuzalib ket... Xudo haqqi, og'rib-netib qolmaganimda ham, azbaroyi maza qilish uchun, ipakli ko'ylik tiktirib, uch oy ko'rpga kirib yotib olaman. Senga shunaqayam nozlar qilayki... — deyardi.

Ba'zan uxbayotganga o'xshash toliqib qolaman. Yuppqalashgan qovoqlarimdan o'tgan quyosh nuri menga pushti tuyuladi. Shunday paytlarda Xayrullobek bosh tomonimdagি kursida kitob o'qib yo mudrab o'tirgan bo'ladi. Ana shunday toliqqan damlarimda jonim tanimdan chiqadi-yu, nurday, ovozday fazolarda uchib yurgan bo'lib ko'rindi. Qaerda, qaysi mamlakatga uchib ketyapman? O'zim ham bilmayman. Birdan chuqur chohga

qulay boshlayman, ana shunda yuragim orqamga tortadi, seskanib uyg'onib ketaman. Ko'zlarimni ohib, uzoq, juda uzoq yerdan qaytib kelganday bo'laman. Quloqlarimda nur tezligi bilan manzara tortib o'tgan masofalarning shamollari guvillaydi, ko'zlarimda yetti qavat osmonda ko'rilgan xira, tumanli mamlakatlarning tarqoq, so'nik xotiralari pir-piraydi.

* * *

Ilgari kuni Xayrullobebeyga:

— Doktorjonim, endi butunlay tuzaldim. Uni ziyorat qilib kelaylik, — dedim.

Xayrullobebey oldin rozi bo'lmasdi. Yarim oy, hech bo'lmasa yana bir hafta sabr qilishni iltimos etdi.

Nachora, kasallarning bir so'zligini, injiqligini qaytarib bo'lmaydi. Qari do'stimni axiri ko'ndirdim. Bog'dan ikki quchoq gul, dengiz bo'yidan bir hovuch rang-barang tosh (kichkinam bularni guldan ham yaxshi ko'rardi) yig'dik.

Munisaginam O'rta yer dengizi bo'yidagi tepalikka, o'zi kabi nozik bir sarv daraxti ostiga qo'yilibdi. Qabri yonida bir necha soat o'tirdik. Kasal yotganimdan beri doktor ikkala-miz uning to'g'risida birinchi marta gaplashdik. Kichkinamning qanday o'lganini, qanday ko'mganlarini bilgim keldi. Qancha qistasam ham, Xayrullobebey tafsilotini aytib bermadi. Faqat bir narsanigina bila oldim: dafn qilingandan keyin imom Munisaning onasini so'ra-gan ekan, tabiiy, hech kim bilmabdi. Xayrullobebey, bu kichkina qizga mening onalik qilib yurganimni eslab, otimni aytibdi. Bolajonimni "Munisa Farida qizi" deb tuproqqa...

* * *

Qusha-da-si, 1 sen-tyabr.

Bugun ertalab Xayrullobebey menga:

— Qizim, meni yana qishloqdan chaqirib kelishibdi,— dedi. — Duldul senga omonat. Menga qara, oyog'ining yarasini o'zing bog'la, u ayiq o'nboshiga tashlab qo'yma. Nevlay, Dulduuning oyog'ini ham o'zinikiga o'xshash kestirmoqchimi deyman-da! Hayronman, oyog'i hech tuzalmayapti. Yara bog'lashni bilasan, shunday qil: bog'lab bo'lganingdan keyin jonivorni boqqa olib chiqib, besh-o'n minut aylantir, havo olsin. Innaykeyin, iloji bo'lsa, bir oz, lekin ko'p emas, yo'rttir, uqdingmi? Endi yana bitta ish bor: bugun novvoy Xurshid ijara pulini olib keladi. Qaydam, yigirma sakkiz lirami, xullas, keltirgan pulini mening nomimdan olib qolasan. Uchinchi ishga kelsak, hah qurib ketgur, nima edi? Miya ham qolmad... Ha, esimga tushdi, kutubxonamni pastga tushirtir. Dengiz tarafdag'i xo-nani senga beraman. Chiroyli xona, qish shamoli urmaydi, sovqotmaysan.

Qanchadan beri aytmoqchi bo'lган gapimni aytish payti kelgan edi.

— Doktorbey, Dulduordan tashvish qilmang, ijara haqini ham olaman, lekin uchinchisi-ga hojat bormikan? Juda uzoq mehmoningiz bo'lib qoldim, shunchaligi yetar deyman. Ruxsat bersangiz, men ketsam, — dedim.

Doktorbey qo'llarini beliga tiradi, menga taqlid qilish uchun tovushini ingichkalab:

— Juda uzoq mehmoningiz bo'lib qoldim, shunchaligi yetar deyman. Ruxsat bersangiz, men ketsam! — dedi. Keyin qovog'ini osiltirib, mushtini do'laytirdi: — Nima deding? Ketasanmi? Mana buni ko'rdingmi! Og'zingni quloqlaringgacha yirtaman, ana undan key-in chinakamiga to qiyomatgacha kuladigan bo'lasan!..

— Lekin, doktorbey, mehmon ham izzati bilan-da.

— Juda soz, kichik xonim hazratlari, ketmoqchisiz, lekin qaerga?

Kulimsirab javob qildim:

— Doktorbey, qaerga borishimni o'zim ham bilgim keladi. Lekin ketish kerak-da. Bu-

tun umr sizning oldingizda qololmayman-ku? Shunday emasmi?.. Eng og'ir kunlarimda menga yordam qildingiz, buni hech mahal unutmayman, lekin...

— Hoy, zing'archa, shumlik qilma! Sen bilan biz "do'st tutingan ikkita chovush" bo'lib qolganmiz. Bas qil, bemaza gaplarni!

Xayrullobek iyagimdan tutdi.

Men esam hamon tiranib turib oldim.

— Doktorbey, qolsam — o'zimning jonim ham rohat qiladi. Ishoning, men sizning yoningizda o'zimni juda baxtiyor his qilaman. Lekin qachongacha sizga yuk bo'laman? Bilaman, siz juda odamparvar, jonkuyarsiz...

Doktorbey kalta sochlarimni to'zg'itib hadeb mendan kulardi, keyin yana meni ermak qilish uchun, betlarini bujmaytirdi, lablarini cho'chchaytirdi, tovushini ingichka qilib:

— Odamparvar, jonkuyar!.. — dedi. — Nima, sen bilan tragediya o'ynayabmizmi, jinni qiz? Tushunmaydigan maxluq ekansan. Odamgarchilik, jonkuyarlik degan narsalarining yetti uqlab tushimga ham kirgan emas, zing'archa! Men o'z kayfim uchun yashadim, senga ham yana shu kayf uchun xizmat qildim. Seni yoqtirmagan bo'lsam, basharangga qararmidim? O'zimni minoradan tashlaganimni eshitsang, "jonkuyarlik, fidokorlik qildi", deb yurma, ishonma! "Bu xudbin chol minoradan o'zini tashlab, qanday maza topdi ekan?" deb hayron ham bo'lma. Molerning bitta qahramoni bor, menga juda yoqadi. Boyoqishni kaltaklashayotganda odamlar yordamga yugurib kelishsa, bularni haydab: "Bor, ishlaringni qil! Voy xudo! Voy xudo! Bilmaysizlarda, balki tayoqdan huzur qilayotgandirman!" — deydi. Bo'ldi, bas qilaylik valaqlashni, qizim. Kelgunimcha uying taxt bo'limasa, ahvolingga voy! Bitta tanish qorovul bor, yo'g'on, o'Iguday to'mtoq, xudo haqqi, o'shani chaqirtirib kelaman-u dod deganingga qo'y may nikohingni o'qitaman. Ko'rdingmi, qanaqa jazo beraman?

Xayrullobek ba'zi mahallardagi singari yana xunuk so'zlar bilan hazillasha boshlaydi, meni tag'in uyaltiradi, deb yonidan qochib ketdim.

* * *

Xayrullobek mening uchun ham ota, ham yaxshigina do'st bo'lib qoldi. Uyida o'zimni begonaday sezmayman, men singari qalbi singan, hayoti barbod bo'lgan bir qiz qanchalik baxtiyor bo'la olsa, men ham shunchalik baxtiyorman. O'zimga ming turli ish o'ylab topaman: qari enagaga yordam, uy yig'ishtirish, boqqa, mevalarga, hatto doktorning hisob-kitoblariga qarashish, shunga o'xshagan yana ming xil ish...

Bu yerdan ketib qolsam, nima qilaman? Men axir nogiron qatoridaman. Durust, sog'lig'im sekin-sekin yaxshilanib boryapti, lekin befoyda, ichimda allanarsa singanday ko'rindi. Eski sog'lig'imni, menga hamma narsani yoqtirib kelgan eski xushchaqchaqligimni endi hech vaqt topolmayman. Kulib turib yig'layman, yig'lab turib kulaman. Minutim minutimga o'xshamaydi. Masalan, kecha kechqurun kayfim yaxshi edi. Boshimni yostiqqa qo'yganimda o'zimni juda baxtiyor bildim. Tongotarda, qorong'ida esa hech sababsiz yig'lab uyg'ondim. Menga nima bo'ldi? Nimaga yig'ladim? Buni o'zim ham bilmayman. Nazarimda, kechasi bu vafosiz dunyoning hamma uylariga birma-bir kirib, qanchalik g'amu g'ussa, qanchalik umidsizlik bo'lsa, hammasini yig'ib kelib qalbimga joylagandanayman. Bu sababsiz, nomsiz, tilisiz hasrat ichida titrab: "Onajonim, onajonim!" deb qichqirar, faryod qilib yubormaslik uchun qo'llarim bilan og'zimni to'sardim.

Birdaniga qo'shni xonadan Xayrullobekning ovozi eshitildi:

— Farida, senmisan? Nima bo'ldi, qizim?

Qari doktor qo'lida shamdon bilan xonamga yugurib kirdi. Nima bo'lganini, nimaga yig'laganimni so'roqlab o'tirishni lozim ko'rmay, ahamiyatsiz, balki ma'nosiz shafqat so'zlar bilan tasalli bera boshladi:

— Hechqisi yo'q, qizim, hechqisi yo'q. Asab tutqalog'i, o'tib ketadi, bolam. Voy, bechora bolam-e!

Ko'zlarimdan yoshlar quyilar, ovqat tiqilib qolgan qush bolalari singari og'zimni katta ochib hiqillar, titrar ekanman, qari do'stim derazaga o'girildi-da, qorong'ida uzoqlarga musht do'laytirib:

— Xudo jazongni bersin! Oyday qizni xarob qilding, — dedi.

Yolg'iz qolsam, shunday kasallik, umidsizlik tutqalog'iga qanday bardosh beraman, nima qilaman? Buni qaranglar... Hozir shu aqlga sig'adigan narsami? Doktor hech bo'limganda bir oy, balki bundan ham ko'proq yonimdan jilmaydi...

* * *

Ola-jaqoya chor-bog'i, 10 sen-tyabr.

Bir haftadan beri Olajaqoya chorbog'idaman. Xayrullobek bundan o'n kun avval:

— Farida, Olajaqoyada bitta chorbog'im bor. Ancha vaqtidan beri xabar olganim yo'q. Ishchilarni bo'sh qoldirib bo'lmaydi. Seni o'n-o'n besh kunga olib ketaman. Bahonada havoni o'zgartirasan, bahring ochiladi. Hademay maktablarda o'qishlar boshlanadi, ana undan keyin butun yil qimirlay olmaysan, — dedi.

— Doktorbey, bag'ri keng yerlarni juda yaxshi ko'raman, lekin nachora, maktablar ning ochilishiga oz qoldi. Hayronman, qanday bo'lar ekan? — deb javob berdim.

Doktorbey jahli chiqib yelkasini uchirdi.

— Iya, borasanmi, deb so'ranganim yo'q-ku sendan! Unday bo'larmikan-bunday bo'larmikan deganing nimasi? Men senga "olib ketaman", dedim. Doktorning ishiga nimaga aralashasan? Raport yozaman-u zo'r lab olib ketaveraman, yur bu yoqqa! Tur, bir-ikki qator kiyim-kechagingdan, keyin uch-to'rtta kitoblardan ol.

Xayrullobek menga xuddi maktab bolasiga buyurganday buyurdi. Kasallik irodamni zaiflashtirib qo'yibdimi, unga hech bas kelolmayman. Qizig'i shuki, bundan zorlanmayman, aksincha, unga itoat qilish o'zimga yoqadi.

Doktorning chorbog'i qarovsiz qolgan ekan. Lekin o'zi nihoyatda dilkash joy! Qishda ham bu yerlar bahorga o'xsharmish. Bir ajoyib tepalik borki, tomosha qilgan bilan odam to'ymaydi. Bu yer havoning avzoiga: buzuq yo ochiq, erta yo kech ekanligiga qarab tусini o'zgartirib, qizil, pushti, naparmon, oq, hatto qora ranglarda tovlanib turadi. Shuning uchun ham bu yerni "Olajaqoya" deb atashgan.

Chorbog' meni kutganimdan ortiq mashg'ul qildi. Molboqar xotinlar bilan sut sog'ishdim. Endi men bilan ham do'stlashib qolgan Duldulga minib, atrofdagi chakalakzorlarga boraman. Qisqasi, men orzu qilgan keng bag'rli bahavo hayot.

Shunday bo'lsa ham ko'nglim tinch emas. Bir necha kundan keyin maktab ochiladi. Ishimga borishim, binoni supurtirib-sidirishim kerak. Xayrullobeysa esa hech gap uqtirib bo'lmaydi. U kechalari menga romanlar o'qitadi.

— Bularagi qovushmagan safsatalarga chidab bo'lmaydi, lekin ular sening og'zingdan boshqacha, yoqimli bo'lub chiqadi, — deydi.

Kecha kechasi unga yana kitob o'qib berdim. Ba'zan ochiq so'zlar uchrab qoladi. Ularni o'qishga uyalib, o'rinlariga darhol boshqa so'z qo'yib yoki shunday jumlalarni tashlab ketib o'qiyman. Xayrullobek bo'lsa shoshib qolganimni sezib, shiftni yiqtugudek qahqaha ko'taradi.

Birdan qorong'ida itlar hura boshlashdi. Derazani ochib qaradik. Chorbog' eshidigan bitta otliq kirib kelaverdi.

Xayrullobek:

— Kim u? — deb so'radi.

O'nboshining ovozi eshitildi:

— Menman.

O'nboshining shunday bemahalda Qushadasidan kelishi bejiz bo'lmasa kerak. Doktor:

— Inshoollo, tinchlikdir. Men pastga tushib bilib chiqay. Kechikib qolsam yotaver, kichkina, — dedi.

Xayrullo moyning oldida bir soatcha qolib ketdi. Yuqoriga yuzi qizarib, qovoqlari osilib chiqdi.

— O'nboshi nimaga kelibdi, doktorbey? — dedim.

U jahli chiqib, baqirib berdi:

— Senga borib yet demadimmi? Nima qilasan surishtirib? Voy bu qizlarning miyasizligi-ey! O'zimga tegishli ish.

Xayrullo moyning tabiatini yaxshi bilib olgan edim. Bunday paytlarda gapini qaytarib bo'lmaydi. Chor-nochor shamdonni olib, xonamga chiqib ketdim.

Ertasiga ertalab uyg'onsam, Xayrullo moy himish bilan shaharga tushib ketibdi. Bungun qaytmamasam, tashvish qilmasin, deb tayinlabdi.

O'nboshi keltirgan xabar doktorni qattiq bezovta qilgan ko'rindi.

Choshgoh mahalida doktorning uyini yig'ishtirib turib, karavoti yonida konvert parchasiga ko'zim tushib qoldi. Oldim. Kattakon bir idoraning muhri bositgan bu konvert ustida faqat "Qushadasi maktabi mud" degan so'zlargina qolibdi. Harholda, bu xat menga tegishli bo'lishi kerak... Konvert parchasi meni chuqur o'ylatib qo'ydi. Ajabo, buni kecha o'nboshi keltirdimikan? Unday bo'lsa nima uchun Xayrullo moy mendan yashirdi? Innaykeyin, menga tegishli rasmiy xatni qanday qilib ochadi? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas, miyamga boshqa fikr kela boshladi: bu konvert, albatta, kitob orasida Qushadasi dan kelgan.

* * *

Qusha-da-si, 25 sen-tyabr.

Hayotni rasvogarchilikdan iborat deganlar naqadar to'g'ri aytishgan!

* * *

So'nggi voqeani daftaramning so'nggi sahifasiga boricha yozayotibman. O'zimdan na bir e'tiroz so'zi va na bir tomchi ko'z yoshi qo'shaman. Men buni istamayman.

Xayrullo moy meni chorbog'da ikki kun kutdirdi. Uchinchi kecha tashvishim shu darajaga yetdiki, ertasiga ertalab nima bo'lsa ham arava qo'shtirib, o'zim shaharga tushishga qaror qildim. Lekin ertalab uyg'onsam, o'zi kelib qolibdi.

Beg'am, beparvo Xayrullo moyni hech mahal bunchalik parishon, bunchalik charchagan avzoda ko'rmagan edim. Har mahalgiday sochlarimga lablarini tegizdi-da, yuzimga diqqat bilan qarab:

— Eh, xudo jazolarini bersaydi! Tuf!.. — dedi.

Boshimga yangi falokat tushganini payqadim, lekin so'rashga jur'at etmadim.

Xayrullo moy qo'llarini cho'ntaklariga solib olib, ancha o'ylanib yurdi. Keyin qo'llarini yelkalarimga qo'yib:

— Kichkina, bir nima bilganga o'xshaysan, — dedi.

— Yo'q, doktorbey.

— Bilasan, bo'lmasa indamay o'tirmas eding. Albatta surishtirarding.

G'oyat og'ir, jiddiy hayajon bilan:

— Yo'q, doktorbey, hech narsadan xabarim yo'q, — dedim. — Faqat ta'bingizning tirriqligini, iztirob chekayotganingizni ko'rib turibman, biron qayg'ungiz bor. Mening ham homiyim, ham otam bo'lganining uchun sizning qayg'ungiz mening ham qayg'um, shunday emassi? Nima bo'ldi?

— Farida qizim, o'zingni yetarli darajada quvvatli sezasanmi?

Maroqim vahmimdan oshib tushdi. O'zimni vazmin ko'rsatishga kirishib:

— Men dadil qizman, buning isbotini bir necha marta o'zingiz ham ko'rgansiz. Aytaving, doktorbey,— dedim.

— Farida, mana bu qalamni qo'lingga ol, aytgan narsalarimni yoz. Tur, qizim, qari do'stingga bahuzur ishonaver.

Xayrullobek to'xtab-to'xtab, o'ylab-o'ylab shu satrlarni yozdirdi:

"Qushadasi maorif prezidiumi kengashi oliylariga.

Maorif sohasidagi xizmatimni davom ettirishga salomatligim yo'l qo'yimagani sababli, Qushadasi qizlar rushdiyasi mudirligidan meni ozod qilishingizni so'rayman, afandim".

— Endi, qizim, o'ylanib o'tirmasdan, bir nima so'ramasdan qog'ozga qo'l qo'yu, menga ber. Qo'llaring titrayapti, Farida. Yuzimga ham qaray olmayapsan. Mayli, qizim, mayli, qaramaganing yaxshi. Chunki pok ko'zlarin bilan menga qarasang, o'zimni yo'qotib qo'yaman. Yomon hodisa bo'lganini tushunding, shunday emasmi? Endi qulq sol, Farida. Agar o'zingni uradigan, hayajonga tushadigan bo'lsang, gapimni shartta kesishga majbur bo'laman. Sen hamma gapdan xabardor bo'lising kerak. Farida, hayotga aralashgan shu uch yilning ichida odamlarning qanday maxluq ekanligini bilib oldim, deb o'ylaysan, shundaymi? Bekor o'ylabsan, men oltmishta kirib qolibman-u haligacha odam bolasining nimaligiga aqlim yetmaydi. Men dunyoda ming xil pastkashlik, sharmandagar-chilikni ko'rdim-u, lekin bundaqangisini qari kallamga hech sig'dira olmayman. Bilasan, ikkalamiz dunyoda eng toza, eng halol, qadrdon do'stalarmiz, shunday emasmi? Kasal vujudingni oylarcha o'z qo'lim bilan parvarish qildim, xuddi o'z qizimday parvona bo'ldim. Bilasanmi, bizning to'g'rimizda nimalar o'ylashyapti, nimalar deyishyapti, Farida? Yo'q, tasavvur qilomaysan. Men sening oshig'ing emishman! Yuzingni to'sma, yo'q, boshingni baland ko'tar. Yuzi qoralargina shunday qilishi mumkin, sen bo'lsang, aksincha, pok qizsan. Biz nima qildikki, bir-birimizdan uyalaylik? Gapimga qulq sol, Farida, qulq sol, oxirigacha eshit. Bu la'natি bo'hton eng avval maktablaringda tug'ilibdi. Muallimalaring orqavoratdan bizning to'g'rimizda har xil bo'Imag'ur narsalar ayta boshlashibdi. Sababi ma'lum: ular turganda sening mudira bo'lising-da. Men bundan olti oy avval senga bildirmasdan, Izmirda daftardor bo'lib ishlovchi bir do'stimga ikki enlik xat yozib, sening martabangni ko'tarishlarini iltimos qilgan edim. Senga bir xizmat qilib qo'yay devdim-da. Bu harakatning men tomondan bo'lishi shubhalarini orttiribdi.

Bu fisqi fasod olovi oylardan beri tutab kelar ekan. Axiri bu narsa maorif kengashmasiga, hatto qaymaqom*ning qulog'igacha yetib boribdi. Ana shundan ke- yin uzundan-uzoq qog'ozlar yozishib, tekshira boshlashibdi. Viloyat maorif mudirligida tarjimai holining tekshirib boqishsa, bir nechta qorong'i nuqtalar topilgan emish. Masalan, Istambuldan B...ga kelishing, keyin markaziy rushdiyadan o'z ixtiyorining bilan bo'shab, bir xilvat qishloqqa ketishing — ularda qochib yurmaganmikan degan shubha tug'diradi. Bir necha oydan so'ng noma'lum bir yerdan yordam keladi. Maorif maydonida misli ko'rilmagan bir sur'at bilan martabang oshib borgan, ya'ni oddiy qishloq o'qituvchiligidan xotin-qizlar bilim yurti o'qituvchiligi darajasiga ko'tarilgansan. Ke- yin u yerdan ham sababsiz bo'shab ketgansan. Bu safar boshqa viloyatga ketgansan, lekin u yerda ham qo'nim topolmagan-san. Ch... maorif kengashmasidan kelgan javobni o'qib chiqdim, ichimga bir chelak zahar quyilganday bo'ldi, Farida! Go'yo sen u yerda... Yo'q, yo'q, aytmayman!.. Tarbiiali, yuksak ilmli urfon xodimlarining qalamlaridan, og'izlaridan chiqqan narsalarini mening betayin askar og'zim ham aytishga nomus qiladi. Bilasan, men og'zimga kelganini qaytarmayman, eng jirkanch so'zlarni ham og'zimda tutib qololmayman. Xullasi, Faridajon, yarali ohuni ov itlari qanday o'rab olishsa, sening atrofingni ham shunday o'rab olishgan. Eng mas'um harakating o'zingga qarshi dalilga aylangan, protokollarga, tergov qog'ozlariga tushgan. O'quvchi qizlaring kasal bo'lgan paytlarda meni maktabga chaqirganing,

kichkinamiz o'layotganda chidayolmasdan boshingni bir zumgina yelkamga qo'yaning, kasal bo'lib qolganidan keyin tepangda kechirgan soatlarim — bularning hammasi jinoyat emish! Yuzsizligimiz shu darajaga yetgan emishki, bu yerlarning urf-odatini, nomus va iffatini poymol qilibmiz. Atrofimizdagi odamlarni pisand qilmagan emishmiz. Hammaga seni kasal deb e'lon qilib, o'zimiz dalalarda qo'ltiqlashib yurgan, molaga minib o'ynagan emishmiz. Maktabdagi ishingni tashlab qo'yib, bog'imda ot choptirib yurganmishtan. Bular ham ozlik qilib, endi shahar tashqarisidagi xilvat chorboqqa chiqib ketgan emishmiz!

Faridajon, senga bu gaplarni qanday eshitgan bo'lsam, xuddi shunday, bo'yamasdan aytib berdim. Yolg'on tasallilar bilan seni yana bir necha vaqtgacha ovuta olardim. Umidlaringni sekin-sekin, birma-bir sindira bilardim. Lekin unday qilmadim. Nima uchun, bilsanmi? Kasbim, yoshim menda bir ishonch hosil qildi: odam zaharni birato'la yutishi kerak, unda yo o'ladi, yo qutuladi. Zaharni sirop bilan, bilmayman, yana nima balolar bilan aralashtirib qultum-qultum ichishdan yomon narsa yo'q. Falokatni jinday-jindaydan aytish nima-yu, odamni arralab o'ldirish nima!

Shunday, Farida, hayotdan qattiq shapati yeding. Yolg'iz bo'lsang, seni bu zarba o'ldirardi. O'ylab ko'r-a, shuncha odam qushday bir bolaning ustiga tashlansa, nima bo'ladi? Shukr qil, tasodif seni chirindi chuquriga tashlangan bir qari chol bilan uchrashтиrdи. Umrim soati allaqachon o'n birni urib bo'lgan. Mayli, ziyoni yo'q. Senga xizmat qilish uchun qolgan umrim ham yetadi. Shunga tuyassar bo'lsam, bir to'da ahmoqona g'iybatlar ichida xazon bo'lgan kunlarimga achinmay o'taman. Qo'rhma, Farida, bu ham o'tib ketadi. Yoshisan, umidingni uzma, hali baxtli kunlaring bo'ladi, ko'rasan.

Iste'fongni o'zim eltid bermoqchi edim, aynidim. Seni shu ahvolda yolg'iz tashlab ketib bo'lmaydi. Yosh bolalar hayotida ba'zan ahamiyatsiz narsalar ham ahamiyat kasb etib qoladi. Yur, Farida, ochiq havoga chiqaylik, qo'ylar, sigirlar oldiga boraylik. Bu hayvonlar ko'rgan yaxshiliklarini evazsiz qoldirishmaydi, ishonaver.

Qari doktor iste'fomni konvertga solib, o'nboshiga berdi.

Bu bir parcha qog'oz umrimning bir bo'laginigina emas, ko'nglimning so'nggi tasallisini ham olib ketdi. Naqadar alamli, yo rabbiy, naqadar alamli! Nimagaki umid bilan qo'cho'zsam, umidim puch chiqadi, nimagaki mehr qo'ysam o'lib ketadi! Mana, uch yil avval kuz oqshomlarining birida qizlik ro'yolarim, bular bilan birga o'z bolalarim haqidagi orzu-umidlarim, keyin esa Munisam o'ldi. Bular orqasidan zora yetim ko'nglimni ovutishsa, deb umid qilgan o'quvchilarimdan ayrıldim. Jo'jalarini tahlikada ko'rgan ona qush singari meni talpintirgan, titratgan bu narsalar kuz yaproqlari kabi birin-ketin xazon bo'lib, to'zg'ib ketyapti. Men hali yigirma uchga to'lganim yo'q. Yuzimdan, tanimdan bolalik izlari ketgani yo'q, lekin ko'nglim o'zim mehr qo'yan narsalarimning o'liklari bilan to'ldi!

* * *

Xayrullobek uch kungacha yonimdan bir qarich ham jilmadi. Shunchalik katta falokat oldida o'zimni og'ir tutishimga, sukut qilishimga ishona olmas edi. Kechalari yotganidan so'ng eshigimga kelib:

— Farida, bir nima kerak emasmi? Uyqung kelmayotgan bo'lsa, kirayin, — deydi.

Uchinchi kuni ertalab barvaqt turdim. Havo iliq, osmon ochiq, xuddi may kunlari deysiz. Xayrullobekga o'zim sut sog'ib keldim, nonushta tayyorladim.

Qo'limda patnis, chehramda nash'a bilan uyiga kulimsirab kirganimda, doktor meni ko'rib suyunib ketdi.

— Ofarin, Farida! Juda xursand bo'ldim. Nima qilasan, dunyoning dardini tortmagan endi sen qoluvdingmi? — dedi.

Derazasini ochdim, ivirsib yotgan narsalarini yig'ishtirdim. Keyin chorborg'dan, qo'ylar-

dan, cho'ponlardan gap ochdim. Tinmay gapirar, kular, hatto bir mahallardagi, eski maktabimdag'i singari ora-sira hushtak ham chalib qo'yardim.

Xayrullobek ta'rif qilib bo'lmaydigan darajada suyundi. Uning xursandligini ko'rgan sarim ko'nglim ochilib bordi.

Nihoyat, ko'nglimdag'i gapni aytish payti keldi. Doktorning kursisini derazaga yaqin keltirib qo'ydim, tizzalarini issiq narsa bilan yopdim, o'zim esa deraza tokchasiga o'tirib oldim.

— Sizga aytadigan gaplarim bor edi, doktorbek, — dedim.

Xayrullobek ko'zlarini qo'li bilan to'sib:

— Ayta qol, lekin pastga tush. Xudo ko'rsatmasin, yiqilib-netib ketma, — dedi.

— Xavotir qilmang, doktorbek, mening yoshlik chog'larim daraxt shoxlarida o'tgan. Hozir sizni xursand qiladigan bitta gap aytaman. Ko'ryapsizmi, men qanday og'irman? Kecha kechasi muhim bir qarorga keldim.

— Nima qilmoqchisan?

— Yashamoqchiman..

— Bu nima deganing?

— Tushunmayapsizmi? O'zimni o'zim o'ldirmayman deganim-da! Chunki bir necha kun avval chindan ham shunday qarorga kelgan edim.

Bu so'zlarni hazillashayotgan bola tili bilan, kulib turib aytdim. Qari doktor vahimaga tushib, o'rnidan sakrab turib ketdi.

— Nima deb laqillayapsan, zing'archa! Bu nimasi? Agar sening o'rningda men o'tirgan bo'lsm, vahmdan pastga yiqilib chalpak bo'lib ketardim. Bas, tush pastga, xudo xayringni bersin, tusha qol. Yana biron falokat bo'lib-netib qolmasin...

Men kulib yubordim.

— Yashamoqchi bo'lganimni aytganidandan keyin ham yiqilib ketishimdan qo'rqish g'alati emasmi, a, doktorbek? Nima uchun yashashga qaror qilganimni bilasizmi? Hozir aytib beraman. Anchagina sabablari bor. Avvalo, o'zimni o'ldirishga yuragim dov bermaydi. Siz mening hadeb o'limdan gapirishimga parvo qilmang. Har nima bo'lganda ham o'lishdan juda qo'rqaman. O'lishdan boshqa chora qolmasa ham, baribir, qo'rqaman, doktorbek.

Bu so'zni qo'llarimni uzatib, bo'ynimni egib turib, samimiyyat bilan aytdim.

Xayrullobek hayajon bilan qo'limdan ushladi, tortib tushirib bir kichkina kursiga o'tqazdi.

— Hech tushunib bo'lmaydigan maxluqsan-da, Farida! Bir qarasang — mushtumday kichkina bolasan, bir qarasang — donishmandlarga o'xshaysan, g'alati odatlarining, odam ishona olmaydigan dovyurakliging bor... Juda soz, ayt, Farida, qulog'im senda.

— Siz birdan-bir do'stim, ayni zamonda otamsiz. Xo'p, yashayman. O'zimni o'ldira olmasligimni tushunganidandan keyin yashamay nima ilojim bor? Lekin qanday yashayman? Menga yo'l ko'rsating. Biron ma'qul narsa o'ylab topsangiz, qanday yaxshi bo'lardi!

Xayrullobek qoshlarini chimirib, o'ylanib qoldi. Bir ozdan keyin:

— Farida, — dedi, — bu narsalarni men ham o'ylovdim. Faqat o'zingga kelguningcha aytish fikrim yo'q edi. Modomiki, o'zing o'zingni tetik sezsa boshlabsan, xo'p, qizim, ayt-sam ayta qolay. Eng avval muallimalik qilishdan butunlay umid uzishing kerak. Bo'lib o'tgan voqeя to'g'risida bugun senga ba'zi tafsilotlarni berishim mumkin. Bundan o'n kun avval viloyatdan bir inspektor keldi. Morjnikи singari og'zidan so'yloq tishlari turtib chiqqan, badbashara bir nusxa! Ana shu nusxa raisligi ostida bir tekshirish komissiyasi tashkil qilishgan ekan. Arizangga binoan bo'shatishdan avval seni ter gab ko'rishmoqchi bo'lishibdi. O'sha kechasi o'nboshi keltirgan qog'oz chaqiriqnomasi edi. O'ylab ko'r-a, Farida, sen shunday bir hay'at oldiga qanday qilib borarding? Qabihlarning og'zidan chiqqan

iflos tuhmatlarga qanday javob qilarding? Bu xabarni eshitib aqlim boshimdan uchdi. Komissiya yig'ilgan xonani ko'z oldimga keltirdim: seni u morj tishli nusxa qarshisida qora chorshafda, sarg'aygan bola chehrasida, bo'yningni egib turganiningni ko'rdim. Seni parchalab tashlash qasdida bo'lgan u nusxa "Bo'ri bilan Qo'zichoq" masalidagi yirtqich singari suvdan bahona izlar, o'zi singari iflos, sharmanda bo'htonlarni takrorlardi. Aqlini yeb qo'yan soldatning sal-pal qo'pol so'zları oldida rangdan rangga kiradigan mas'um yuzing, hurkak ohu ko'zlarining o'sha morj ro'parasida termilib tursinmi?..

Xayrullobeyning halim, moviy ko'zlarida men hech mahal ko'rmagan g'azab olovi chaqnadi. U iyagini qaltiratgan, tishlarini g'ijirlatgan bir titroq bilan mushtini silkitib:

— Shu chiroyli og'zimni bir ochdim, morjnusxani shunaqayam boplab savaladimki, Farida... Shunda sassiq vujudiga o'q urishsa, bir tomchi ham qon chiqmas edi. Ilgari kuni eshitdim, meni sudga beribdi. Qani endi sud tezroq bo'la qolsa! U ifloslarning qilmish-qidirmishlarini sudda betlariga solib bir xumordan chiqayki!..

Qari doktor ko'zlaridagi u g'azab olovi, yuzidagi u dahshat qizilligi yo'qolguncha jim turdi. Keyin yana eski iliqlik, mehr bilan menga qarab, ilgarigi halim tovushi bilan gapira boshladи:

— Ikki o'rtada nima bo'lsa ham senga bo'ldi. Kaltak sening boshingda sindi. Meni zo'r lab iste'fo yozdirdi, deb keyincha xafa bo'lib yurishingni xohlamayman. O'qituvchilik bilan aloqangni butunlay kesishing kerak edi. Ollo bu ko'zlarni, bu lablarni kulish va tevarakdagilarni baxtiyor etish uchun yaratgan. Morjnusxalar oldida titrasin, yig'lasin deb emas... Farida, senga yana bir narsa aytmoqchiman. Endi sening oldingdagi mas'uliyatim ikki baravar ortdi. Chunki bu falokatning tushishiga men sababchi bo'ldim. Shuning uchun buni daf qilish ham mening zimmamga tushadi. Yana qayta aytaman: bir yerga borib ishslash fikrini miyangdan chiqar. Bugungi mushkuldan bir amallab qutulib ketarmiz, lekin ishga kirguday bo'lsang, ertaga boshqa bir bahona bilan yana sho'ringni quritishadi. Buning ustiga, balki u vaqt men dunyoda bo'lmasman. Qani, kel, ikkalamiz birga o'ylashaylikchi. Istimbulga, qarindoshlaring oldiga qaytishning iloji bormi?

Boshimni solintirdim.

— Yo'q, doktorbey, ular men uchun tamom bo'lgan odamlar.

— Bo'lmasa, yana bitta chorasi bor: ajoyib bir yigitga turmushga chiqsang qalay bo'lar ekan?

— Yo'q, doktorbey. Dunyodan toq o'tishga ahd qilganman.

— Erga tegsang baxtli bo'lisingga mening ham uncha ishonchim yo'q, Farida. U la'nati qalbingga shunday kirib olibdiki, chiqarib tashlashning hech iloji yo'q.

— Doktorbey, oyoqlaringizni o'pay, xohlagan narsangizdan gapiring, lekin bu to'g'rida...

— Xo'p, xo'p, kichkina, xo'p.

— Qulluq, doktorbey.

Xayrullobeyn mo'ylovlarining uchini tishlab turib, anchagina o'ylandi.

— Xo'p, bo'lmasa nima qilamiz? Muhtojlikdan qo'rmasang ham bo'ladi, buning xavfi yo'q. Chunki mana shu kichkina bog'u chorborg'imdan tushib turadigan daromad ikkalamizga ham bahuzur yetadi. Gapning rosti, pullarimni nima qilsam ekan, deb o'zim ham boshimni qotirib yurardim. Sening baxting yo'liga sarf qilmasam, nimaga sarf qilaman?

Beradigan javobim uni xafa qilishini bilardim, nachora, aytmasdan ilojim yo'q. Tizzalarni silab, qo'rqib turib:

— Lekin, doktorbey, sizdan pul yordamini qaysi sifatda qabul qilishim kerak? Shundan keyin men nima degan odam bo'laman? — dedim.

Xayrullobeyning jahli chiqmadи, biroq ko'ngli ozor topib, yuzimga o'pkalanib qaradi.

— Ayb, Farida, ayb! — dedi. — Bir-birimizga shunchalik suyanib qolganimizdan keyin

bunday deyishing ayb. Lekin, afsuski, sen hech nimani parvo qilmaydigan, mustaqil, erkin ko'rinsang ham, haqiqatda to'pori, burnidan narisini ko'rmaydigan, sho'ri qurigan qiz ekansan. "Xinali qo'zi" deb atalganlar toifasidan chiqib qolding... Bunday bo'lmasligi kerak edi, nima qilaylik, bo'lar ish bo'ldi. Endi mening gaplarimga diqqat qil, Farida. Qari, samimiy do'stidan kichkinagina yordam olishni ham o'ziga ep ko'rmaydigan sen singari mag'rur bir qiz ana shuncha gap-so'zdan, g'iybatdan, tuhmatlardan ke-yin qanday qilib yakka o'zi yashay oladi? Shuning uchun ham boshingni ikkita qilib qo'ysak qalay bo'lar ekan devdim, Farida. Birovdan yordam olishni xohlamaysan, ishlashni xohlaysan, lekin buning imkoniy yo'q. Birga turaylik, ajrashmaylik desam, bunga ham ko'nmaysan, shunday emasmi? Ana, boshingni solintirib olding, javob berding yo'q-da. Lekin rostini aytganda, mening o'zim ham buni mushkulni oson qiladigan to'g'ri yo'l deb hisoblamayman. Ko'nglimizda bor gaplarni nega endi shartta-shartta ochib aytmaylik? Xabaring yo'q, mahalla nomidan shahar boshlig'iga elchilar boribdi. Meni uyimda oila a'zoyimdan, qarindosh-urug'larimdan bo'lmagan bir qiz bilan turadi, bu urf-odatimizga, shariatimizga to'g'ri kelmaydi, deb shikoyat qilishibdi. Hatto, hatto sening boshqa yurtga yuborilishingni ham talab etishibdi. Hammaning aybini betiga soladigan "ko'rkozi" bo'lganim uchun meni odamlar uncha yoqtirishmaydi. Shu bahonada nima uchun menga ham bitta tayoq tushirib qolishmasin, shunday emasmi? Gapning qisqasi, Faridajon, na men bilan yashashingning imkonni bor va na o'z boshingga yashashingning. Nohaq shubhalar bilan hayotingni zaharlashadi. Bu la'nati dog' qaerda bo'lsang ham seni tinch qo'y maydi. O'tmishingdag'i kichkina qora dog' ham har bir muttahamga, har bir firibgarga seni haqorat qilish huquqini beradi. Nima qildik endi, Farida? Nima chora topsak ekan? Seni qanday qilib himoya qilsak ekan?

O'lim to'shagida yotgan kasal mazlumligi bilan yuziga qaradim, qalbimdag'i chuqur umidsizlikka qaramay kulimsirab turib:

— Nihoyat, o'limni o'ylashga haqqim borligini siz ham tan ola boshladitingiz. Mana shu quyoshga, mana shu daraxtlarga, hov anovi uzoqdagi dengizga bir qarang-a, doktorbey. Menchalik joni bo'g'ziga kelmagan bir inson o'z qalbining rizoligi bilan mana shu ajoyib dunyodan ketgisi keladimi?

Xayrullobek qo'li bilan og'zimni yopdi.

— Bas endi, Farida, bas qil! Umrimda qilmagan noma'qulchiligidagi hozir qildirasan. Hali zamon yosh boladay ho'ngrab yig'lab yuboraman.

Yaproqlari to'kilgan yalang'och shoxlar orasida porlab turgan kuz quyoshiga qo'l cho'zib:

— Men anchagina qarib qolganman. Men o'z umrimda odamlarning qayg'u alamlarini, bechorachilik va muhtojliklarini juda ko'p ko'rganman. Mana shu qo'llarim bilan qancha ochiq qolgan ko'zlarni yopganman. Lekin men oldimda o'lish majburiyatida shu qadar xotirjamlik bilan so'zlayotgan mana shu chiroqli qiz yuzidan, kulish bahonasini qidi-rayotganday titrayotgan yaramas lablaridan ham zo'rroq fojiani ko'rmaqaganman!

Xayrullobek tizzalari ustidagi yopiqni irg'itib tashlab, xona ichida anchagina o'y surib yurdi. Keyin oldimda to'xtab:

— U holda oxirgi chorani qo'llaymiz, — dedi. — Seni shariatlariga muvofiq shart bilan uyimda olib qolaman, shu tariqa himoya qilaman. Tayyor bo'l, Farida. Kelasi payshanba-da...

* * *

Bir haftadan beri Qushadasidaman. Ertaga kelinchak bo'laman. Xayrullobek ham o'zining xussisy ishi, ham uyga ba'zi yangi buyumlar olish niyati bilan ilgari kuni Izmirga tushib ketdi. Bugun kechqurun kelar ekan, telegraphma oldim.

Yangi buyumlarning hojati yo'qligini aytib edim. G'alati dalillar keltirib, qarshi chiqdi:

— Yo'q, nishonli xonim, bu qarib qolganligimni pesh qilish bo'ladi. Ha, taqdir oramizga o'ttiz besh-qirq yilni suqib qo'yib, katta xato qilgan, lekin buning ahamiyati yo'q. Asl yoshlik — ko'ngil yoshligidir. Sen menga qarama. Men yigirma yoshli yigitlardan ham bardamman. Innaykeyin, seni yasangan-tusangan kelinchak holingda ham ko'rgim kela-di. Men beva erkak hisoblanaman, shuning uchun orzum ichimda ketmasin. Senga Iz-mirdan alomat kelinlik sarpolari olib kelaman.

Men ro'paramga qarab, indamay turdim. Xayrullobek so'zini davom ettirdi:

— Innaykeyin, senga ko'rmana sovg'asi beraman, shunaqayam alomat sovg'a bo'ladi-ki! Qani top-chi: baldoq, uzuk, marjon, inju, qaysi biri? Yo'q, topolmaysan, bularning hech bittasi emas. Boshingni qotirma, topolmaysan. Men senga bitta yetimxona sovg'a qilaman!

Ajablanib yuziga qaradim. U xursand bo'lib kular edi.

— Ko'rdingmi, senga yoqadigan narsani topganimni,— dedi. — Olajaqoyadagi chor-bog'imizni o'ttiz-qirq kishilik yetimxonaga aylantiraman. Tevarak-atrofdagi yetim-esirlar-ni to'playmiz. Men doktorlik qilaman, sen bo'lsang muallimalik, ham onalik qilasan.

* * *

Bu satrlarni tuzala boshlagan kunlarimda yotgan xonam derazasi oldida yozmoqda-man. Bog'da shoxlardan sira tinmay quruq xazon yomg'iri yog'ayotir.

Daraxtlarning shoxlarini yalang'ochlab to'kilayotgan bu xazonlardan ba'zilarini shamol derazadan uchirib kiradi, daftaramning sarg'aygan sahifalariga sochib ketadi.

Qari do'stimning so'niq moviy ko'zlaridagi shafqat, marhamat, pok va g'arazsiz otalik muhabbati ko'nglimda so'nggi yashil yaproq kabi yashar edi. Unga er deb qarashga maj-bur bo'lgan klinikdan beri bu so'nggi yaproq ham sarg'aya boshladi. Hayot shunday bo'Igandan keyin qo'limizdan nima ham kelardi? Bunga ham bo'yin egishim kerak.

Chumoli oyog'i singari ingichka yozuvlar bilan to'Igan xotira daftaramning oxirgi sahifasiga keldim. Qanday mungli tasodif! Sarguzashtlarim bilan birga daftaram ham tu-gayotir. Yangi hayotim uchun yangi daftar tutishning hojati yo'q, aytar narsalarimni ay-tib bo'ldim... Axir ertaga boshqa haqqim bormi, qanday jasorat qilaman? Indinga ertalab birovning xonasida uyg'onadigan yosh juvonning hayoti qisman sho'xlik, qisman ko'z yoshlardan iborat bo'Igan Choliqushi bilan qanday aloqasi bo'lsin?

Choliqushi bugun o'zining ko'z yoshlari bilan ivitgan daftar sahifalariga to'kilgan kuz yaproqlari orasiga abadiy ko'miladi.

Ayriliqning bu so'nggi soatida haqiqatni yashirib o'tirishning nima keragi bor? Sen o'qimaydigan bu daftaramni faqat sen uchun yozganman, Komron! Ha, nimaiki degan bo'lsam, nimaiki yozgan bo'lsam, hammasi sen uchun edi. Yanglishganimni, nihoyatda katta xatoga yo'l qo'yganimni mana bugun bo'ynimga olaman. Men hech bir narsaga qaramay, sen bilan baxtiyor bo'la olardim. Ha, hech nimaga qaramay sevillardim, sevil-ganimdan ham bexabar emas edim, lekin bu meni qanoatlantirmadi. Xohlardimki, meni ko'p, yana ham ko'p sevsinlar, men sevgan darajada bo'lmasa ham (chunki buning imkonи yo'q), loaqal shunga yaqin bir sevgi bilan sevsinlar. Shunchalik sevilishga mening haqqim bormidi? Yo'qdir, deb o'ylayman, Komron. Men kichkina, johil qizman. Sevish-ning, o'zini sevdirishning usuli bor, shunday emassi, Komron? Holbuki, men bu narsani hech, hecham bilmas edim...

Sening "sariq guling" kim bilsin, qanday jozibali xotin edi ekan! Bu so'zlarni senga ta'-na qilish uchun aytayotganim yo'q, Komron. Ishon, agar u seni baxtiyor qilgan bo'lsa, xayolimda u bilan yarashishga tayyorman. Kim bilsin, u senga qanday chiroyli so'zlar aytgan, qanday chiroyli xatlar yozgan ekan? Men esam, balki sening bolalaringga, bola-larimizga yaxshigina ona bo'la olardim. Faqat shugina.

Komron, men seni qanchalik sevganimni sendan ayrılganimdan keyingina bildim.

Hayotda orttirgan tajribalarim, boshqalarni sevgani uchun deya ko'rma, zinhor unday emas! Men buni ko'nglimning ichidagi umidsiz xayolingni seva-seva bildim.

Zaynilar qabristonining qorong'iligida, shamol ertalabgacha o'kirib chiqqan uzun kechalarda, qishloq aravalarning qo'ng'iroqlari ingichka ovoz bilan jiringlab turgan keng dalalarda, tolzorning xushbo'y lox hidlari bilan to'lgan iliq yo'llarida ham hammavaqt sening yoningda bo'ldim, xayoling bag'rida yashadim.

Ertaga meni qayliq qiladigan boyoqish chol meni oq gul kabi mas'um bir qiz deb hisoblaydi, o, qanday yanglishadi!

Sevgi savdosi bironta beva qalbini, vujudini meniki qadar yakson, xokisor qilmagan dir, deb o'ylayman.

Komron, bir-birimizdan asli bugun ayrilamiz. Bugun bo'lib o'tgan narsalarga qarama, sen hammavaqt bir oz meniki eding, men esam butun qalbim bilan seniki...

(Fa-ri-da-ning daf-ta-ri shu yer-da tu-gay-di.)

Beshinchchi qism

|

— Komron deyman, sen bilan hamroh bo'lish, xudo haqqi, azobda qolish degan so'z ekan. Shu ikki soat ichida yuzta narsani so'ragandirman, nuqul "ha" yo "yo'q" degan javobdan boshqa narsa ololmayman! Mundog' o'zingni yig'ishtirib ol, o'g'lim!

Komron buzuq yo'llarda tebranib borayotgan aravaning bir chekkasida oqshom shamliga qarshi yoqasini ko'tarib qo'yib, Marmar dengiziga o'ychanlik bilan tikiilib borardi. Ko'zlarini dengizdan zo'rg'a uzib, kulimsiradi.

— Ikki soat ichida ikki yuz savolga ikki yuzta javob berish, nazarimda, oz narsa bo'lmasa kerak, pochcha, agar ular qisqagina "ha", "yo'q" qabilida bo'lganda ham.

— Durust-u, lekin o'ylab javob berayotganing yo'qda, o'g'lim! Hammasi parishonxotirlik bilan bo'lyapti.

— Nima ham derdik, pochcha, sizlarning kurortlaringizda kasallarni shifolashning shunaqa ajoyib usuli bor ekan! Qaydam, meni bekordan-bekorga o'ylatib charchatishdan biron maqsadingiz bormi?

— Voy nonko'r-ey, senga hech yoqib bo'lmas ekan-da! Ha, chindan ham seni o'ylashga majbur qilmoqchiman; lekin maqsadim seni charchatish emas, boshqa o'ylaringga halaqit berish edi, rostini aytsam, hafsalam pir bo'ldi. Seni qimirlatishning iloji yo'q ko'rinadi. Rost-da, mana, uch kun bo'ldi, bir bahona bilan seni qishloq to'yiga olib bordim. Turli-tuman odamlarni ko'rding, dovul, surnay chalganlarini eshitding, o'yinga tushgan yigitlarni, kurashgan polvonlarni ko'rding. Men rosa maza qildim, sen bo'lsang bez bo'lib o'tirding! Yo'q dema! Ko'zim bor, aqlim, farosatim bor!

— Sizga qanday tushuntirsam ekan, pochcha! Men aslda boshqacha yaratilgan bo'lsam kerak...

— Yo'q, o'g'lim, sen o'zingga durust qaramaysan. Loaql menden ibrat ol: oltmishni urib qo'yibman-u, kundan-kunga yasharib boryapman.

— Hazir bo'ling. Oysha xolam bilib qolmasin.

— Bilsa bilaversin, menga nima! Bu yerga kelganimda qariroq ko'rinnmasmidim?

Komron kulimsiradi.

— Mening Taqirdog'iga kelganimga o'n yil bo'ldi. Hali-hali esimda. Shunaqa avgust kecharidan biri edi...

Azizbey qo'llarini bir-biriga urdi.

— Qara-ya, yo olloh, umr qanday tez o'tadi-ya! Yashavor-e! Mana endi o'g'ling to'rtga

kirib qoldi. Farida bilan ham besh yilcha unashgancha yurding. Eh, Komron, Farida bechoraga shunchalik jabr qilganining hali-hali aqlimga sig'dirolmayman! Choliqushining bulbulday ovozini, gulday yuzini eslasam, yuragim achishib ketadi. Oradan o'n yil o'tib ketibdiyamki, uyimiz orqasidagi boqqa qarashga yuragim dov bermaydi-ya. Ha, jon berayotganingda sening bu gumrohligingni kechirmayman, Komron!

— Pochcha, o'zingiz bahrini ochgani olib ketayotgan bir kasalga shunday so'zlarni aytilib bo'ladi?

— To'g'riku-ya, lekin sendagi dardning bu narsalarga hech aloqasi yo'q-da. Yaxshi ko'rgan xotiningga uylanding-u, aqalli bir yil ham baxting ochilib umr qilolmading. Munavvar betob bo'lib yotib qoldi. Uch yil umringni kasal boqish bilan o'tkazding. Shifo istab qaerlarga olib bormading. Shahzoda oroli qolmadi, Shveytsariya qolmadi... Taqdirga chora yo'q ekan! O'tgan qish xotining o'Iddi, o'zing-chi, boshingni ko'tarolmay qolding. O'zingni mundog' qo'lga ololmaysan. Xuddi kasal odamga o'xshaysan. Bu narsalarning Faridaga nima aloqasi bor? Sen-ku boshqa birovni yaxshi ko'rarding...

Komron yana boyagiday achchiq bir kulimsish bilan javob qildi:

— Yo'q, pochcha, hech kim menga ishonmaydi, siz ham, albatta, ishonmaysiz; devonalik deb hisoblaysiz. Hayotimda ba'zi sarguzashtlar, hatto ancha jiddiy sarguzashtlar ham bo'ldi. Lekin sizga ishontirib aytamanki, men dunyoda hech bir narsani, hech bir kimsani Faridachalik sevgan emasman.

Azizbey g'ijinib gapirdi:

— Yomon savdo, yomon ishq!

— Ishonmaysiz demadimmi, pochcha! Shunaqa, hech kim ishonmaydi. Mujgon o'shandan beri men bilan urish, Faridaning ismini og'zimga ham oldirmaydi. Qoshlarini chimirib: "Yo'q, Komron, undan og'iz ochishga haqqing yo'q!" — deydi. Onam ham shunday, xolam ham, boshqalar ham shunday. Bu yerda Farida to'g'risida faqat Narmin bilangina gaplasha olaman. Mana endi Narmin o't yettiga chiqdi, holbuki, Farida kelganda faqat yettida edi. Faridani es-es biladi. "Meni arg'imchoqda uchirgan qizil ko'ylakli opam" deb eslaydi. Shunday kunlar bo'ladi, Narminni qizil ko'ylakli opasi haqida gapirtirish uchun ozmuncha ter to'kmayman.

— Qiziq odamsan-da, Komron! Yaxshi, unisi-chi?

— Unisi kasal xotin edi. Meni deb o'lib ketishi mumkin edi. Faridadan butun umidim uzilgandan ke- yin unga shafqat yuzasidan bir odamgarchilik qildim, xolos, bo'lgani shu.

— Tushunib bo'lmaydigan narsalar. Chalkash odamsan, Komron!

— Rosti shu, pochcha. Nima xohlaganimni, nima qilganimni hech mahal o'zim ham bilgan emasman. Bilgan, ishongan bir narsam bo'lsa, u ham Faridaga bo'lgan muhabbatimdir. Bu qizning qalbimda qoldirgan shunday xotiralari borki, bir umr unuta olmayman. Menga shunday tuyuladi: o'layotganimda ham esimga olib, yig'lab turib o'laman. Sizga bir dalil keltiray, pochcha. Doktorlar "Havoni o'zgartirishingiz kerak", deyishganda, eng avval o'ylagan joyim Taqirdog' bo'ldi. Siz, Komron mening taklifim bilan keldi, deb o'ylarsiz? Yo qishloq to'ylarida bahrini ochish uchun shu yerda bir oydan beri turibdi, deb o'layotgandirsiz? Xafa bo'lmang. Lekin men bu yerga yoshlik orzu-umidlarimning siniq zarralarini tergani kelganman, bo'lgani shu.

— Xo'p, nodonlik-ku qilbsan, xo'sh, buni tuzatishning iloji yo'qmidi?

— Men xato qildim, pochcha, juda yomon xato qildim. Farida biznikidan shunday bir g'azab va alam bilan ketib qolgan ediki, izini topganidan keyin ro'para kelishdan hayiqdim. Uning faqat qalbigina emas, izzat-nafsi ham yaralangan edi. Yot-begona yurtlarga yolg'iz ketish uchun, kim biladi, qanchalar yuragi ezilgan ekan. Oradan loaqal olti oy o'tmay turib men bilan ko'rishsa, jahli chiqishi, yana battar g'azabga kelishi, bundan

ham yomonroq jinniliklar qilishi mumkin edi. Bahorni kutaverib jonomda jon qolmadı. Choliqushini ishlab turgan qishloq mактабидан tutib kelish uchun yo'l taraddusini ko'ra boshlagan edim. Aksiga olib birdan kasal bo'lib qoldim. Rosa uch oy o'rнимдан turolmay yotdim. Orqasidan qidirib B...ga borganimda esa ish qo'ldan ketgan edi. Faridaning bir kasalmand bastakorga ko'ngil berganligini, vafosiz boshini shalola bo'yida sevgilisining tizzalariga qo'yib, ko'zlariga tikilib turib tanbur chaldirganini aytishdi. O'zingiz o'ylab ko'ring, pochcha, necha-necha yillardan beri bu boshni, bu ko'zlarni "meniki, faqat menikigina" deb intizor bo'lganimdan so'ng mana shunday...

Komron davom etmadi. Marmardan esayotgan salqin oqshom shamolidan qochayotgandek, bo'ynini paltosining yoqasi ichiga yana ham ko'proq tortib, uzoq-uzoqlarda qizarib ko'ringan baliqchi gulxanlariga qarab qoldi.

Azizbeyning ham kayfi buzildi.

— Komron, o'g'lim, ikkinchi xatoni o'sha yerda qilib qo'yamadingmikan, deb qo'rqaman. Choliqushi koshkiydi shunday qiladigan, o'z-o'zini osongina yupata oladigan qiz bo'lsa. Unda baxtli bo'lardi-ku. Lekin men hech ishonmayman.

Komron yana achchiqqina kulimsirab, boshini tebratdi.

— E, pochcha, xo'p deyavering, Faridaning baxti ochilib ketganiga ikki yil bo'libdi, o'z ko'zi bilan ko'rgan odamlardan eshitdim. Eri bir badavlat qari doktor emish. Bitta oshnam bor, xo'jalik inspektori bo'lib ishlaydi. Buning xotini esa Faridaning eski dugonalari dan. Ana shu xotin Faridani o'tgan yili Qushadasida ko'ribdi. Choliqushi burungiday hadeb kular, valaqlar, hazilkashlik qilib yurar emish. Shahardan uch-to'rt soatlik masofadagi bir chorborg'da yigirma chog'lik bolani tarbiya qilayotganini, juda baxтиyor ekanligini aytibdi. Eridan yarim soat ayrilgudek bo'lsa chiday olmas emish. Dugonasi Istambuldan, qarindoshlaridan so'z ochgan ekan, Farida darrov so'zini kesib: "Men u shaharni ham, u yerdagi odamlarni ham esga olishni xohlamay-man!" — debdi. Faridaga nisbatan kam-chiliklarim, insofsizliklarim ko'p, pochcha, bilaman. Lekin siz ham insof qiling, uning ham meni shunchalik tez unutib yuborishi to'g'rimi? Darvoqe, bu bekorchi so'zlarga nima hojat? Bas qilaylik. Men aravadan tushib piyoda bormasam bo'lmaydi. Yomon yo'l ekan, tebrataverib jonomni oldi. Oq yo'll!

— Voy bu xizmatchilar-ey, hamisha dod-voy solishgani solishgan-a! Bu yo'llarni o'zim soldirgamman, anchagina yil bo'lib qoldi. O'zim ish boshida turib, oftobda rosa kuygamman. Yolg'on aytma, Komron, holingni yo'l quritgani yo'q. Yetti yil avval meni mutasariflikdan bo'shatishib xo'p yaxshi ish qilishibdi-da. Tusha qol, o'g'lim, faqat kech qolma, chunki qarilik xolangni ham, meni ham barbod qilgan. Kech qolsang, xolang tashvishdan, men ochlikdan jinni bo'lamiz.

* * *

Komron yana o'sha ko'prik oldida aravadan tushdi. O'n yil avval, yana shunday avgust oqshomlarining birida mana shu ko'prikka kelib, chirik taxta ustida oyoqlarini solintirib o'tirgan edi.

Taqirdog'ida yigirma besh kundan beri turgan bo'lsa, har oqshom shu yerga kelar, kech kirib qosh qoraygandan keyin sekin-asta uyga qaytar, yo'l bo'yi o'ylanib borardi.

Eri Anatoliyaga komandirovka qilingandan beri bolalari bilan Taqirdog'iga kelib o'tirgan Mujgon bir kuni kechqurun Komrondan:

— Juda charchagan ko'rinasan, uzoqqa bordingmi? — deb so'radi.

Komron alam bilan kulimsirab javob qildi:

— Topding, Mujgon, juda uzoqqa bordim — o'n yillik uzoq o'tmishta...

U yana bir nimalar demoqchi bo'ldi-yu, lekin Mujgon hech nima tushunmagandek lablarini burib:

— Shundaymi? — dedi-da, bo'lasiga orqasini o'girib oldi.

Mujgon necha yillardan beri Komron bilan urishib, xotinlar qalbidagina bo'ladigan qat-tiq g'azab bilan arazlab yurardi. Uning yonida Faridadan aslo og'iz ochmasdi.

Komron bog' oralab sekin-sekin yurib kelayotganda anchagini qorong'i tushib qolgan bo'lsa ham, hali ro'paradagi tog'lardan shafaq ketmagan edi. Yaproqlarning chetlari so'lisha boshlagan kechki binafshaga o'xshash tun boshlanmoqda edi.

Yigit bog' orasidagi so'qmoqlardan birining yonida to'xtab, yonar qo'ng'izlarning yulduzchalari ora-sira chaqnab turgan yashil qorong'ilikka uzoq tikilib qoldi. O'sha kechqurun Farida shu so'qmoqdan yugurib chiqib kelgan edi. Choliqushi egnida kaltagina matroscha ko'ylak, boshida tevaragidan sochlari chiqib turgan shapka bor edi. U poshnasisz botinkalarining uchi bilan toshlarni tepib oldinda yugurib borganini Komron hozir ham ko'z o'ngida ko'rganday edi.

Vaqt etagini tutqazmay chopadi. Komron uydagilarning tashvishlarini bilgani holda ketishni istamay, eski bir ro'yoning izlarini axtarayotgandek, yo'llarda kechikadi.

Uzoqda, ko'cha eshigi oldida oq ko'ylakli bir xotin qorasi ko'rindi. Mujgon ko'pincha kechki paytlar kichik o'g'ilchasi bilan ko'chaga chiqar, uni qo'ltiqlaridan ushlab yurishga o'rgatar edi.

Mujgon bo'lasini uzoqdan ko'rib, qo'llarini silkita boshladi.

— Komron, muncha imillamasang? Qayoqlarda qolib ketding?

— O'zim, Mujgon... Havo yaxshi...

Bu safar Mujgonning yonida o'g'ilchasi yo'q edi. Lekin ahvolida bir shoshqinlik, doimiy sokin yuzida hayajon ko'rindari.

— Mujgon, senga nima bo'ldi?

Juvon bir narsalar aytgisi kelar, lekin so'z topolmay qiynalar edi.

Ular eshik tepasidagi chiroqdan ko'kintir nur tushib turgan hovliga kirishdi. Mujgon o'zini bir odim chetga oldi-da, eshik bilan ichkari devor o'rtasidagi burchakka imo qilib:

— Qara-chi, Komron, bugun kim kelibdi! — dedi.

Komron ajablanib qaradi-yu, ichkari eshigi tepasidagi chiroqdan tushib turgan moviy yorug'da, yaqinginasida Faridaning chaqnagan ko'zlarini ko'rди. Ichida moviy o't porlagan bu ko'zlar kular, bir oz so'lg'in, bir oz ozg'in yuzi kular, olti yildan beri sog'inib-sarg'ayib, ko'zlarini yumib turib xayolida qidirgan kezlari ko'rgandagiday yaqinginasida, qalbining ichida kulardi. Komron gandiraklab ketdi, ko'rayotgan shirin tushining tarqalishidan qo'rqqan kishidek bir zumgina ko'zlarini yumdi, suyanib oladigan biron narsa bor-mikan, deb tevaragiga javdirab qaradi. Bir-birlariga aytgulik so'z topolmay titrab turi-shar, lablari bir-birlariga kulishga harakat qilsa ham, ko'zlarida yosh parda tortib borardi. Mujgon bu daqiqaning og'irligini sezdi shekilli, Faridaning qo'lidan ushlab Komronning oldiga olib keldi. Keyin hazil-mutoyiba qilib:

— Xolavachchalar ham bir-birlariga aka-uka bo'ladi,— dedi. — Faridaning akasi yo'qligi uchun sen bunga aka hisoblanasan. Komron, singling bilan ko'rish, "xush kelibsan"de.

Komron hanuz og'iz ocholmay turardi. Mujgonning taklifidan so'ng boshini asta egib, Faridaning sochlari lablarini tegizdi-yu, qulog'iga shivirlaganday nihoyatda past tovush bilan:

— Sizni yana ko'rganim uchun qanchalar suyunganimni ifoda etishga so'z topolmayman, Farida xonim, — dedi.

Bu so'z Faridaga dalda berdi.

— Tashakkur, Komronbey, men ham juda xursand bo'ldim...

Choliqushining burungiday sof, jarangdor ovozida mung bor edi. Billur yorilganda shunday ovoz beradi.

— Qachon keldingiz? — deb so'radi Komron.

— Bugun, choshgohda. Lekin Istambulga kelganimga o'n kun bo'ldi. Uyga borsam

hech kim yo'q ekan. Xolalarimni, hammangizni juda ko'rgim keluvdi. Balki sizlarning ichingizda ham meni ko'rgisi kelganlar bordir deb o'yladim. Innaykeyin, sayohatga o'rGAN-nib qolgan kishilar uchun Taqirdog'iga kelish nima degan narsa, shunday emasmi, Komronbey?

Mujgon yana gapga aralashdi.

— Voy tavba-ey, xonim, bey degan takallufning nima keragi bor-a! Aka-uka o'rnidagi odamsizlar, deb aytdim-ku boyta. Shuning uchun Komronni aka desang ham bo'laveradi, Farida.

Ikkalasi ham yerga qaradi. Farida botinqiramay:

— Rostdan ham seni aka desam bo'laveradimi, Komron? — deb so'radi.

Javob kutib Komronga qaramas, yonar qo'ng'izlar qaynashgan qorong'iliklarda ko'zlari bilan bir narsalar qidirar edi.

Komron tushkun bir tovush bilan javob berdi:

— Ko'ngling nima istasa, shunday bo'lsin, Farida..

Endi o'zlarini birmuncha bosib olib, sekin-sekin gaplasha boshlashdi. Farida sayohatini qisqagina qilib so'zlab berdi:

— Istambulda ba'zi ishlarim bor edi. Innaykeyin, boyta aytdim, sizlarni juda ko'rgim keluvdi. Doktor pochchang ikki oyga ijozat berdi. Xolalarimni, hammangizni sog'u salomat ko'rib, boshim osmonga yetdi. Lekin sening boshingga yomon qayg'u tushibdi, Komron. Istambulda eshitib juda qattiq xafa bo'ldim. Rafiqangdan shuncha tez judo bo'Iganining judayam yomon bo'libdi. Lekin o'g'ling bor ekan. Xudo onasining umrini ham qo'shib Najdadga bersin! O'g'ling biram shirinki, Komron! Menga juda yoqdi. O'g'ling bilan darrov apoq-chapoq bo'lib ketdik. Shu damgacha quchog'imdan tushmay o'tirdi. O, men bolalarni bir zumda elaktirib olaman...

Farida so'zlagan sari sekin-sekin ochilib, so'zlari, qiliqlari bir mahalgi sho'x qizning qaqajonligiga aylanib bordi.

Uning ovozini eshitish, kulimsiragan lablarini, olaqorong'ilikda porlagan shahlo ko'zlarini ko'rib turish qanchalar baxt ediki! Yigit hech narsani o'yamas, hatto u boshqa birovning xotini ekanligini, bu baxtning bir oy yo bir yarim oydan so'ng yana tushga aylani-shini xayoliga ham keltirmas edi. Faqat u o'zining kelganligini ichkaridagilar bilib qolish-masaydi deb qo'rqardi. Axiyri qo'rqqani bo'ldi. Ularning eshik yonida gaplashib turganlarini Narmin ko'rib qoldi. Bu yosh qiz, Komronning kelganligini hammaga chinchirib jar solgandan so'ng, yonlariga yugurib kelib, Faridani quchoqladi.

— Sizni esimdan chiqarmaganimga Komron akam ham guvoh, Farida opa! Komron aka bilan nuqlu qizil ko'yakli opam to'g'risidagina gaplashardik, a, Komron aka? — dedi Narmin.

II

O'sha oqshom kechki ovqat to'y ziyofatiga aylandi. Azizbey dasturxon ustida yosh bolalarday sho'xlik qilardi.

— Voy Choliqushi-ey, meni yomon dardga soldingda,— dedi Azizbey. — Oting qulog'imga chalinsa, yig'lab yuborishimga oz qolardi. Qara, seni shuncha yaxshi ko'rар ekanman!

Oradan ko'p yillar o'tganda, endi hech vaqt ko'rolmaymiz, deb umidlari uzilgan bir kunda uyasiga qaytgan Choliqushi u yerga shunchaki bir xursandchilik emas, balki eski kunlarning harorat va muhabbat to'la parchasini ham birga olib kelganday edi. Butun yuzlar kular, butun qalblarda ochiq derazalardan kechalari uyga kirib, chiroq atrofida aylangan parvonalar, kapalaklarga o'xshash bir narsalar titrardi. Ovqat oxirida esa u yoq-

bu yoqdan gaplashib o'tirgan Basima xonim birdan yig'lay boshladi. Keyin darhol ko'zlarini artib:

— Faridaning onasini, Guzidani eslab ko'nglim buzilib ketdi, — dedi.

Farida Komronning o'g'lini tizzasiga o'tqazib olib, uzum yegizayotgan edi, xolasining so'zidan so'ng boshini solintirib, yuzini kichkintoyning qo'ng'iroq, yumshoq sochlari ichiga yashirdi. Bir ozdan so'ng boyagi chaqchaqlik yana boshlandi.

Bir mahal Basima xonim eri bilan Trapezunda turuvchi Najmiyadan gap ochib qoldi.

— U bechora ham qayg'uda. O'tgan yil bitta qizi difteritdan o'lib qoldi, — dedi.

Farida chuqur xo'rsinib:

— Bu alamning nimaligini men ham bilaman, xola. Mening bolam ham shu kasal bilan ketdi, — dedi.

Dasturxon atrofidagilar bir-birlariga ajablanib qarashib olishdi. Oysha xola esa:

— A-a, bolang bormidi? Biz bilmabmiz ham, — dedi.

Farida qayg'urib boshini tebratdi.

— Ko'rsangiz suqingiz kelardi, biram chiroyli qiz ediki! Bolam bechorani qutqazib qololmadim.

— Nechaga kirgan edi, Farida? — deb Oysha xolasi yana so'radi.

Farida achinib lablarini burdi, keyin soddadillik bilan:

— O'n uchga to'luvdi. Unga atab chodra tikuvdim, qaynana bo'laman deb umid qilib yurardim, — dedi.

O'tirganlar qah-qah urib kulib yuborishdi. Azizbey esa:

— Voy Choliqushi-ey, yuzga kirsang ham jinnililingni, hazilkashligingni qo'ymas ekan-san-da! — dedi.

Faridaning o'n uch yashar qizim bor edi, degani hammani kuldirgan bo'lsa ham, o'zining ko'zlariga yosh chiqardi. U Najdadni yana ham qattiqroq ko'ksiga bosib, Munisaning tarixini aytib berdi. Ovozi so'zlagan sari mungga, alamga to'lib bordi.

III

Shu kecha juda uzoq o'tirishdi. Azizbey gohi-gohida:

— Farida, yo'lda charchab kelgansan, yot endi, qizim,— deb qo'yar edi.

Farida esa allaqachon uqlab qolgan Najdadni bag'rige bosib hadeb kular:

— Mayli, pochcha, sizlar bilan o'tirsam, yaxshiroq dam olaman, meni yolg'izlik charchatgan, — deyardi.

U porillab turgan shahlo ko'zlarini, xushbichim, chiroyli lablarini kulimsiratib uzoq gaplashib o'tirdi. Unda eski Choliqushi uyg'ongan edi. Hamma qiziqib quloq solayotganini ko'rgandan so'ng so'zlarini buzib-cho'zib aytar, faqat arzanda bolalargina biladigan shirin nozlik qiliqlar bilan lablarini burar, tilini cho'chchaytirib chiqarar, betlarining chuqurchalarini ko'rsatib tinmay gapirar edi. Quvonchidan mast bo'lib o'tirgan qari pochchasi shu darajaga yetdiki, eski hazilkashligini qilishdan o'zini tutib qololmadi. Farida kichkinaligida uning ustki labini barmoqlari bilan qisib turib "Voy yaramas Choliqushi-ey! Giloslarimni o'g'irlab olibsan, ber bu yoqqa!" deyar, ushlab olgan labining uchidan o'pib olardi.

Azizbey atrofda ko'tarilgan qahqahalar ichida "Voy, unday qilmang, pochcha!" deb qichqirgan Faridani iyagidan ushlab turib, eski hazilini takrorladi, keyin Faridaning yuziga tikilib turib:

— Menda nima gunoh, Choliqushi? Hamma ayb o'zingda. Uyli-joyli, salobatli xotinsan-u, hali tabiating, yuzing yosh bolanikiga o'xshaydi. Kim sening yuzingni juvon yuzi deydi? — dedi.

Komronning yuzi op-oqarib ketdi. Choliqushi boshqa birovnikи ekanligini u birinchi

marta his etdi.

Shu kechadan keyingi ikki kun ichida Komron Faridani juda oz ko'rdi. Choliqushi o'n yil avval Taqirdog'ida bir necha tengqur qizlar bilan do'st tutingan edi. Endi ular uy-joyli, salobatli xonimlar bo'lib qolishgan. Ana shu do'stlari Faridani holi-joniga qo'yishmas, yo'qlab kelib bir necha soatlab o'tirishgani ham yetmay, qaytishlarida Choliqushini ham sudrab uyma-uy, bog'ma-bog' olib yurishardi.

Mujgon Komronning ichidan ezilayotganini ko'rib quvonar, ko'zlari kulib tursa ham, shikoyatlanib gapirardi:

— Obbo, Faridani hech bizga to'ydirishmas ekan-da. Aslida-ku shunday yurgani yaxshi-ya, nimaga desang, bahri ochiladi, yoziladi.

Komron shu ikki kun ichida Faridani bir marta ovqat mahalida, ikkinchi marta ko'chadan chodraga o'raniq kirib kelayotganida ko'rdi.

Nihoyat, uchinchi kechaning tongi ham keldi. Komron odatiga qarshi bugun juda erta turgan edi. Tong endi-endi yorisha boshlagan, hali hamma uyquda yotgan payt edi. Komron hujrasining derazalaridan birini ochayotganda, birdan ko'zlari bog'da yurgan Faridani ko'rib qoldi. Derazaning ochilganini u ham sezgan edi. Birdan boshini ko'tardi-da, yangi chiqib kelayotgan quyoshga qarshi qo'lini soyabon qilib turib:

— Uyg'ondingizmi, Komronbey? — dedi. — O, odatlaringiz o'zgarib ketibdi. Burunlari sizni uyg'otish uchun derazangizdan yozda hovuch-hovuch toshlar, qishda esa qorlar otish kerak bo'lar edi. Siz ham jindek anatoliyalik bo'lib qolibsiz. Men Anatoliyada shu mahal uyg'onsam "Tanbal, odam ham oftob chiqqandan keyin turadimi!" deb uyaltirishardi.

Eski o'yinqaroq, hushchaqchaq Choliqushini eslatayotgan bu so'zlarni so'ylaguvchining ovozida qalbga sarinlik va musaffolik bag'ishlovchi tiniq oqar suv ohangi bor edi.

Komron yuragi betlamaygina so'radi:

— Men ham chiqaymi, Farida?

Farida qo'lini hamon peshonasida quyoshga soyabon qilib turib, eski vaqtlardagidek yashiriqcha mazax qildi:

— Zax havoning nozik vujudingizga ozor yetkazishidan qo'rmasangiz, yomon bo'lmas edi. Sizni anatoliyachasiga mehmon qillardim.

Farida Komronni kattakon yong'oq daraxtining tagiga olib borib, kecha kechqurun esdan chiqib qoldirilgan bir stulga o'tqazdi.

— Endi meni bir zungina kutasiz, Komronbey.

— Takallufni qo'yamiz degan edik shekilli?

— Bir ozgina sabr qilasiz, vaqt bilan-da. Birdaniga hurmatsizlik qilolmayman, yuragim dov bermaydi.

Komron kului.

— Lekin bu yana ham zo'rroq hurmatsizlik, Farida! Menga "Komronbey!" deb muomala qilsang, meni masxara qilayotganday tuyulasan. Yo'q, ruxsat bermayman bu xilda muomalangga!

Farida ham kulardi:

— To'g'ri, haqqingiz bor, haqqing bor, unday demaslikka tirishaman. Endi menga ruxsat, senga sut qaynatib kelay.

— Farida, qo'y, iltimos qilaman!

— Bekor o'jarlik qilasan! Anatoliyalik xotinning o'z maylichcha ish ko'rishiga, xizmat qilishiyo'l qo'yilishi — uning uchun ko'rsatilgan eng katta hurmat bo'ladi. — U bir oz hazil-mutoyiba, bir oz qayg'uli ohangda so'zini davom qildi: — Axir ko'ngil ovlash uchun uy ishini qilishdan boshqa hech qanday jozibamiz yo'q-ku!..

Farida ketdi. Uning hozirgina o'rnidan turib, bog'da qo'lida mis qumg'on bilan quruq

cho'p yig'ib yurgan qorovul bilan gaplashgani eshitilib turardi.

Axiyri u ichidan bug' chiqib turgan bir kosa qaynoq sut ko'tarib keldi.

— Sutdan ko'nglim to'ljadi, Komron. Lekin uch kundan so'ng, ha, bugun qaysi kun? Bo'ldi, payshanba kuni ertalab seni ziyofatga chaqiraman. Shu qo'y sutini ichasan-u, lekin ko'rason, butunlay boshqa, alomat narsa bo'ladi. Bu mening kattakon sirim, qandayligini bilging kelmaydimi? Qiziqmaysanmi? Voy o'lay, odam ham shunchalik hissiz bo'ladimi! Xo'p, hozirning o'zidayoq aytib bera qolay. Qo'yni uch kun nok bilan boqaman. Nazarimda,sovqotayotganga o'xshaysan, havo bir oz salqin. Nima, meni Basima xolam: "Tentak qiz, o'g'limni kasal qilib qo'yibdi!" deb qarg'asimmi? To'xta, men sovvuqqa, zaxga o'rganib qolganman, ro'molimni beray, o'ranib ol.

Farida to'g'nog'ich bilan bo'yniga to'g'nab olgan qizil yung sharfini chiqardi-da, ertalabki zax havodan ozor tortayotgandek, sekingina titray boshlagan Komronning yelkalari bilan ko'kragini o'rab qo'ydi.

Komronning ko'zları oldida o'n yil avvalgi boshqa bir oqshom gavdalandi. Qo'ztog'ida-gi chorborg'ning tashqari eshididan bir necha odim narida... yana shunday yelkalariga kichkina ko'krang paltosini tashlagan kalta etakli, qora fartug'li mo'jazgina maktab qizini, uning ko'k siyoh bilan bo'yagan barmoqchalarini ko'rdi. O'shanda katta odamlarday: "Endi se-ni asrash mening burchimdir" degan edi. O'sha ovoz hozir yana Komronning quloqlariga eshi-tildi.

— Komron, xuddi qarilarga o'xshaysan-a! Qo'lingdan suting to'kilib, tizzalaringni kuy-dirsaydi. Nega bunaqa o'ychansan?

— Hech, esimga bir narsa tushdi-da...

Farida esiga tushgan narsasini aytdirgisi kelmayotganday so'zini bo'ldi.

— Men ham shunday. Yelkangda ro'mol ko'rib "Komron xonim" deganim esimga tush-di.

* * *

Farida ishini bitirgach, Komronning ro'parasiga, past kursichaga kelib o'tirdi. Qalin, pi-shiq bursa ipagidan choqlari keng yengli qilib tikilgan viloyat bichimidagi ko'y lagi bo'yni-ga, ko'kragiga mahkam yopishib turardi. Tirsaklarini tizzalariga qo'ydi, iyagini qo'llariga tiradi, betlarini hovuchlari ichiga olib, gapira boshladi.

Komron uning yuzini shu qadar musaffo yorug'da, shu qadar yaqindan birinchi marta ko'rmoqda edi. Chehrasi bir oz ozgan, so'ligan edi. Bu ozg'inlik ko'zlarini yana ham kat-taroq qilib, tevaraklaridagi bilinar-bilinmas ko'lkalar ularni yana ham qoraroq qilib ko'rsatardi. Besh yil avvalgi Choliqushining uchqunlar porillab turgan shahlo ko'zlariga endi olov yaqinida qovjiragan gullar sho'ri tushgan edi. Ammo bu ko'zlar yana burungi-day kuladi, yana burungiday mas'um bir dadillik bilan hayiqmay qaraydi. Lekin Komron-ga u ko'zlarning burungi chuqurligini, tubini ko'ra olmayotganday tuyulardi.

Sochlari ham viloyatlardagi singari farqi o'rtadan qo'yilib, ikkita yo'g'on-yo'g'on qilib o'rilgan edi. O'rolganda ham shunday tortib o'rilgan ediki, peshonasi bilan chakkalarining terisi xiyol cho'zilib, qalam qoshlarining uchlari bir oz yuqoriga ko'tarilibdi, yana ham ti-niq, nafis ko'ringan terisida ko'kimtir ingichka tomirlari bo'rtib chiqibdi.

So'zlaridan ziyoda ovoziga mahliyo bo'lib o'tirgan Komron uning yuzini tomosha qilib turib bir narsaga diqqat qildi: Faridaning rangi oilaviy hayot kechirayotgan yosh, baxtli juvonning rangiga o'xshamasdi. Bu yuzda uzilmasadn so'lishga mahkum bo'lgan gullar-da, shuningdek, ishq-muhabbat lazzatini totmay qarib o'tadigan qizlarda ko'rilgan bez-gak qizilligiga o'xshash yashirin bir otash, kasallarga xos bir tiniqlik bor edi.

Tong quyoshi bu yuzni shu qadar nozik, ma'noli qilib ko'rsatardiki, yigit hushidan ket-guday bo'lib havaslanar, yig'lagisi kelib o'tirardi. Iztirob qiz yuzini shu qadar chiroyli qilib

yuborishi mumkinligini Komron hech mahal aqliga keltirmagan edi.

Faridaning lablaridan tabassum arimas edi. Eski ohangiga bir yeridan nozikkina darz ketgan billurning mungli, shikoyatli jarangi qo'shilgan ovozi bilan bolalik chog'larining xotiralaridan gapivardi...

Komron yuragini changallab turib, keyingi hayoti qanday o'tganligini so'radi. Farida birdan jiddiyashib, boshini chayqadi.

— Esimdan chiqdi, Komron. O'n besh yoshimgacha, shu yerga kelgan vaqtlarimgacha bo'lib o'tgan narsalar esimda, qolganlarini esa tuman bosdi, ko'rmayman.

Xotiralarini bosib qolgan tumandan gapirayotganda, ko'zlarini ham tuman bosib borar, boshini bir yonga egib, uzoq-uzoqlarga tikilib o'tirardi.

* * *

Farida eng eski bolalik xotiralaridan so'ng, nihoyat keyingi o'n besh yil izlаридан bahs eta boshladi. U Hoji xalfaning ajoyibligini, Zaynilar oqsoqolining o'gitlarini, mudir Rajab afandining alomatligini hikoya qilib turganda, kuluvchi ko'zlariga, jonli harakatlariga ba'-zan bir sababsiz horg'inlik cho'kar, shunda ovozidagi siniq billurning sezilar-sezilmas ja-rangi yana ham kuchayar, yaralangan qalb fig'oni kabi titrardi.

Farida daryo bo'yidan so'z ochganda, Komron ko'zlarini yumdi-yu: "Farida tanbur chaylayotgan sevgilisining tizzasiga bosh qo'yib, uning ko'zlariga tikilgan o'sha sharshara bo'yi bo'lmasin tag'in!" deb o'yladi.

Choliqushi hayotiga oid bir qancha mayda-chuyda va ahamiyatsiz narsalarni aytib bergandan so'ng, birdan esiga tushganday:

— Komron, senga hali pochchangning suratini ko'rsatganim yo'q, a? — dedi.

U bo'ynidagi tilla zanjirda osig'liq kichkina oltin medalonni olib, Komronga uzatdi.

Yigit sarosimaga tushganini, titray boshlaganini sezdirmaslikka tirishib, suratni oldi. Farida u bilan birga suratni tomosha qilish uchun boshini engashtirdi, yuzi Komron yuziga yaqinlashdi.

— Uning yuziga qara, Komron. Naqadar olijanob, naqadar issiq, a?

Yigit esa ko'z qiri bilan Faridaga sezdirmaygina qarab turardi. Farida qattiq o'yga botgani va suratga butun borlig'i bilan tikilib qolgani uchun uning qarab turganini sezmadni.

Komronning hayotida bu eng achchiq, eng iztirobli isyon minuti bo'lgan bo'lsa kerak. Demak, Faridaning nozli, yoqimli va pok go'zalligi mana shu oq soch, dag'al yuzli so'loqmon cholga nasib bo'libdi-da?

Komronning ko'z o'ngiga dahshatli bir manzara keldi. Farida uyalganidan lavlagiday qizari ketgan yuzida javdirab turgan shahlo ko'zlaridan duv-duv yoshlari to'kib, bolalar-niki singari mas'um lablarida yolborayotganga o'xhash bir titroq bilan chol qo'llarida o'zini urib tipirchilayotganday ko'rindi.

Choliqushi uning yuziga qaramagan bo'lsa ham, lekin xayolidan o'tgan o'ylarni sezganday bir seskandi-yu, medalonni sekin olib ko'ksiga qo'ydi. Keyin:

— Uzr endi, men boray, Komron. Uyda mehmonlar bo'lsa kerak, — dedi.

IV

Choliqushining uyasiga qaytganiga o'n kunga yaqinlashib qolgan bo'lsa ham Azizbey pochchasi har kuni kechqurun:

— Payqayapsizlarmi, bolalar? Uyimizga fayz kirib qoldi. Choliqushi bu safar qaldirg'ochga o'xhash qanotlarida bahor keltirdi. Attang, bahorning yana bir kuni o'tib ketdi-da, — deyishini qo'ymas edi.

Farida bo'lsa kulib:

— Hechqisi yo'q, pochcha, bir necha yildan keyin yana ruxsat olib kelaman. Xafa bo'lman, hali oldimizda ancha kun bor, halitdan o'zimizni dili siyoh qilish juda ham zaurmi? — deyardi.

Choliqushi tamomila eski Choliqushiga aylangan edi. O'tkinchi bo'ronda sovrilgandan so'ng yana quyoshga yetgan toza gul singari kun sayin ochilib borardi.

Choliqushi yana uydagi bolalarga onaboshi bo'lib oldi. Mujgonning uch yashar qizidan va undan xiyol katta Najdaddan boshlab to o'n yetti yoshli Narmingacha katta-kichik bolalarning hammasi uning pinjiga kirib oldi. Bular ertadan-kechgacha Choliqushidan bir odim ham qolmay chorborg'ni to's-to'polonga, qiy-chuvga, o'yin-kulgilarga to'Ig'azishardi. Gohi mahallar ularning to'poloni shu darajaga yetardiki, kattalar tanbeh qilishga majbur bo'lardilar. Lekin kattalarni suyuntiradigan boshqa tomon ham bor edi. Komron bilan Farida har nima bo'lganda ham eski nishonlilar, unashilgan kishilar edi, shuning uchun so'nggi besh yil ichida bitib ketganday ko'ringan eski yaraning yana ochilishidan qo'rqrardilar. Faridaning yosh bolalarcha sho'xligi, uni faqat uzoqdan tomosha qilishdan boshqasini xohlamaganday ko'ringan Komronning halim, sokin baxtiyorligi uydagilarni tashvishdan qutqara boshlagan edi. Shunday bo'lsa ham ular Komron bilan Faridada eski vaqtlardagi "aka" va "singil" hislarini yana ehtiyoti shartdan kuchaytirishga harakat qildilar. Uxlab qolgan kasalning uyida uni uyg'otib qo'yishdan qo'rqb, qanchalik shivirlab gapirilsa, ular oldida ham ehtiyoitsiz bir so'z bilan u alamli o'tmishni uyg'otib yuborishdan shunday qo'rqrar edilar.

Ba'zan Azizbey Faridadan:

— Munchalik shoshilmay, ko'proq tursang bo'lmaydimi? — deb so'rardi.

Choliqushi esa ketish so'zini eshitib, har doim mashqi tushar:

— Iloji yo'q-da, pochcha. Har nima bo'lganda ham Choliqushi boshqa uyaning onasi, uning yo'liga ko'zlari to'rt bo'lib turganlar ham bor, — deyar edi.

* * *

Komronga qattiq tegayotgan bir narsa bo'lsa, u ham Farida bilan Najdad o'rtasidagi ahillik edi. Komron bolaning Choliqushi qo'llarida uxlashini, ana shundan ke- yingina ularning ayrilishini kutishga majbur bo'lardi.

Komron bir kuni Faridaning bola bilan janjal qilayotganini eshitib qoldi. Choliqushi bo'g'ilib:

— Qani, Najdad, ayt-chi, yana bir marta "amma" de-chi, amma, amma... — deyardi.

Lekin Najdad unga bo'ysunmas, o'jarlik bilan sariq boshini silkitib:

— Oyi, oyi, oyi, — deyardi.

Komron hayiqibroq:

— Qo'y, Farida, oyi desa deyaversin, nima ziyoni bor? — dedi. — Kim biladi, balki shunday deyishga ehtiyoj sezayotgandir.

Farida hech nima demadi. Faqat egilib, bolaning boshini silay boshladi.

V

Boshqa bir kuni ertalab Komron yopiq derazaga mayda toshlar kelib urilganini eshitib uyg'ondi. Faqat Faridagina shu taxlit uyg'otishini u bilardi. Choliqushi yana katta yong'oq tagida nonushta qilishga chaqirib kelgan edi. Dasturxonda dastlabki kunlari va'da qilgandek, juda ham yoqimli nok hidi anqib turgan ajoyib sut, buning yonida qishloqlarda yopiladigan mayda kulchalar, murabboga o'xshash pushtirang bir nima solingan likopcha bor edi.

Farida kulchalarga murabbo surtib Komronga uzatdi-da:

— Mana, totib ko'r, keyin mening qanchalik pazanda ekanimni bilasan, — dedi. — Bu

nonlarning otini bilmayman, lekin murabboning oti "gulbashakar".

Farida ishini bitirgandan so'ng yana o'sha past kursichaga, Komronning oyoqlari ostiginasiga o'tirdi.

— Endi ayt-chi, Komron, gulbashakar yoqdimi?

Yigit kulib javob qildi:

— Yoqdi.

— Yaxshi ko'rib qoldingmi?

— Yaxshi ko'rib qoldim.

— Yana bir marta ayt.

— Yaxshi ko'rib qoldim.

— Unaqa emas, Komron, "men gulbashakarni yaxshi ko'raman", de.

Komron bu bolalarcha nozga tushunmay kului-da:

— Ha, men gulbashakarni yaxshi ko'raman, — deb takrorladi.

Faridaning yuzi loladay qizardi, ko'zlarini parpirab yondi, uyalganidan kipriklari pirpiradi, yalinayotgan yosh boladek bo'ynini egib, iltimos qildi.

— Komron, yana bir marta: "Men gulbashakarni juda yaxshi ko'raman", degin.

Yigit, xohlagani berilmaganda yig'lab yuborgan yosh bolaniki singari uning burilib, tit-ray boshlagan lablariga taajjublanib qarab turdi, keyin sababini o'zi ham bilmagan ichki bir hayajon bilan titrab:

— Gulbashakarni juda yaxshi ko'raman, sen xohlaganingcha yaxshi ko'raman, — dedi.

Farida yosh bola sevinchi bilan chapak chalib yubordi. Lablari kulib tursa ham, ko'zlariga yosh keldi. Ahamiyatsiz narsa uchun yig'layotgan boshqa birovni uyat qilayotgandek o'z-o'zidan kulib: "Pazandaligingni maqtagani uchun shunchalik suyunishing qanchalik esi pastlik-a, qanchalik esi pastlik-a!" — deb kular, masxara qilar, barmoqlari bilan ko'zlarini quritishga urinar edi. Lekin yoshlari insofga kelmas, hadeb quyilar, yana quylardi. Bo'g'iq tovush bilan birdan faryod ko'tardi-yu, yuzini qo'llari bilan bekitib, yig'lay-yig'lay uuga qochib ketdi.

* * *

Bir kuni kechqurun Komron pochchasi bilan bozordan qaytib kelayotgan edi. Bolalar ularni uzoqdan ko'rishdi-yu, odatlarini qilib, darvoza oldiga tizilishdi. Bolalar ulardan meva, qand-qurs, shokolad kutardilar.

Komron ularga tegishlarini ularшиб turganda, oyoqlari ostiga bir siqim mayda tosh keilib tushganini sezdi. Bolalardan bo'shab, darhol tevaragiga javdirab qaradi. Nariroqda kattakon bir kashtan daraxti orqasida Choliqushi Komronga qo'li bilan bir nimalar ishora qilib turardi.

— Ma'nosiga tushunsangiz kerak, Komronbey? Biz ham bormiz, — dedi.

Farida kesatganda yoki sho'xlik qilgisi kelganda hamisha bo'lasini "siz"lay boshlardi. Hozir ham kulib turib sizlashda davom etdi:

— Meni barvaqt iste'foga chiqarib yuboribsiz. Qani mening tegishim? Eski qilmishlarining unutilgan deb o'ylayotgandirsiz, afandim? Yo hozir sukut haqini berasiz, yo bo'lmasa o'sha eski gilos voqeasi bugun kechqurun dasturxon ustida jonlanganini ko'rasiz.

Farida bundan o'n yil avval mana shu darvoza oldida qilgandek, hozir ham tilini tishlari orasida qisib, uning pushti uchini chiqarib turib kula boshladi.

Komron paltosining cho'ntagidan bitta quticha chiqardi, keyin kulib turib:

— Ataganim bor edi, Farida, bu ko'p yaxshi bo'ldi,— dedi. — Men ham bugun ichiga rom solingen bir quti shokoladli konfet olgan edim, xilvat qilib o'zim yemoqchi edim, nchora, modomiki, shunday xavfga uchradiq, nima ham deyar edik...

Farida yosh boladek suyunib ketdi.

— Voy, qanday yaxshi-ya, qanday yaxshi-ya!
— Lekin bitta shartim bor, Choliqushi, konfetlarni yana o'zim og'zingga solib qo'yaman.

— Qanday qilib?

— Hov bir vaqtlardagidek-da. O'n ikki-o'n uch yoshingda qanday qillardik.

Komron shu so'zlarni ayta turib, Faridaga bitta konfet uzatgan edi, u bir necha sekund ikkilangandan so'ng sekin boshini cho'zib, xiyol titray boshlagan lablarini ochdi. Lekin Komron har qancha qistasa ham, Choliqushi qolgan konfetlarni bu xilda olishga ko'nma-di.

— Menga ber, ovqatdan so'ng Najdad bilan yeymiz,— dedi.

— Farida, yur, ana shu devorgacha boraylik. Qara, dengiz naqadar chiroyli bo'pti. Bir oz gaplashamiz, tomosha qilamiz.

— Xo'p. Oldin shu qutichani ichkariga tashlab chiqay. Bir zumgina kutib tur.

Komron uning bilagidan ushladi. Bu unga birinchi marta jasorat qilib, qo'l tegizishi edi.

— Yo'q, Farida, senga ishonib bo'lmaydi. Bir zumgina kutib tur, kelaman deysan-u, kelmaysan. Yoki kelsang ham, kim biladi, qachon va qanday kelasan. Shunaqa, senga ishonchim qolmagan, Farida, — dedi.

Choliqushi hech nima demadi, faqat boshini egib, u bilan yonma-yon yurib ketdi.

Komronning shu oqshom mashqi past edi. O'zini bosolmay, kalta-kulta, kelishmagan so'zlar bilan nuqul zorlanardi. Pastda oqshom g'ira-shirasi quyuqlashib borar edi. Komron uchib ketayotgan bir gala qushni ko'rsatib:

— Farida, yaqinda sen ham shu qushlar singari uchib ketasan, a? — dedi.

— ...

— Menga qara, xolalaringni, bo'lalaringni, eski do'stlaringni, bolalik chog'laring o'tgan yerkarni tashlab ketganingda nahotki yuraging achishmasa?

— ...

— Uyangda boshqalarni baxtiyor qilib, o'zing ham baxtiyor bo'lib yashar ekansan, sen qaqshatib ketayotgan boshqa bir uyaning xarob va parishon ahvoli nahotki seni dilgir qilmasa?

Farida javob bermas, hatto eshitmas ham edi. U kaltagina qalamcha bilan qutiga bir nimalar yozish, bir nimalar chizish bilan ovora edi.

Komron nafsi og'rib:

— Javob berging yo'q, a, Farida? — dedi.

Choliqushi unga o'ychan holatda qaradi.

— Kechir, Komron. Es-hushim boshqa yerda edi. Nima deganingni eshitmadim. Bir zamonlar bitta ashula eshitgan edim, so'zi esimdan chiqib ketuvdi, hayronman, hozir bir dan esimga tushib qoldi. Yana unutib qo'yma- yin deb yozib oldim. Xohlasang, mana, o'qi. Sovqotib qoldim, kechir, men kirib ketaman.

Komron qutichaning osti tomoniga Faridaning shikasta qalami bilan yozilgan shu to'rt satrni ko'rdi:

*Bag'rim o'ti, och-tir-ma, me-ning og'zim-ni zinhor,
Zo-lim, me-ni so'ylat-ma-ki, qal-bim-da ne-lar bor.
Bil-may-man-mi, qil-mi-sh-la-ring, ay-la-ma in-kor,
Zo-lim, me-ni so'ylat-ma-ki, qal-bim-da ne-lar bor!*

VI

Bu voqeadan to'rt kun o'tdi. Shu davr ichida Farida Komrondan o'zini olib qochib yur-

di. Komronning u bilan yolg'iz qolish niyatidagi bahonalarini, turli hiylayu nayranglarini puchga chiqarib bordi. Boshqalar oldida gaplashish to'g'ri kelgan paytlarda esa yuziga qaramas, ko'zlarini to'qnashtirmas edi.

To'rtinchi kuni kechki payt uydagilarning hammasi mayda bolalarni olib mehmonga ketishdi. Endi ular xufton namozidagina qaytib kelishlari mumkin edi.

Tashqarida qattiq shamol esib, to'zu tuproqni osmonga sovurganiga qaramay, Komron uydan chiqib aylangani ketdi.

Uzoq tepalarda shamol guvillar, ko'rinnmas yomg'ir savalayotgandek, daraxtlar silkinib shovillar, uzoq-uzoqlarga cho'zilib ketgan yo'llarda to'z-tuproq quyunlari quturardi.

Shamol Komronning yuziga changlarni keltirib urar, ko'zlariga kirar, u har qadamda bir to'xtab, shamolga orqasini o'girib turishga majbur bo'lardi. U yaydoq tepe labida so'ppayib turgan kattakon qoyani ko'rди. Tosh yonida bitgan ingichka, jonsiz bir daraxt shamolda yalang'och shoxlari bilan tinmay larzanglardi. Komron yo'lini o'sha yoqqa bursdi. Toshning bir burchiga, shamol panasiga kelib o'tirdi.

Shuncha guldurosga, to's-to'polonga qaramay, hammayoq unga sahro kabi bo'mbo'sh ko'rindi... Komronga tabiat hech mahal shu bugungiday ruhsiz, uning butun husni-chiroyi hech vaqt luzumsiz, hayoti bunchalik umidsiz ko'rinnmagan edi!

Birdan yo'Ining uzoq-uzoqlarida, uning dengizdan chiqib kelayotgandek tuyulgan suvga yaqin bir nuqtasida inson qorasi ko'rindi. U kiyimlarining rangidan xotin kishi edi. Komron sababini o'zi ham bilmay, pastga tushib qo'raga qarab yurib ketdi. Bir oz bor-gandan so'ng Narminning och pushti rangli chorshafini tanidi. Yosh qiz ham uni ko'rgan bo'lsa kerak, uzoqdan shamsiyasini silkita boshladi.

Komron "Nega Narmin boshqalardan ayrıldi, nega yolg'iz kelyapti?" deb hayron bo'ldiyu, qadamini tezlashtirdi.

Yosh qiz shamolga qarshi engashib, bir qo'li bilan etaklarini, ikkinchi qo'li bilan esa chorshafining yirtqich qush qanotlari singari lapanglab, yuqori ko'tarilgan pelerinasini ushlab kelardi.

Qiz yuzini ko'rар ko'rmas Komronning yuragi qinidan chiqib ketayozdi; Narminning chorshafini yopinib, Farida kelardi!

Ikkalasi bir-biriga yaqinlashgan paytda birdan shamol Faridaning qo'lidagi shamsiyani uchirib ketdi. Choliqushi voylab shamsiyasini ushlaromoqchi bo'lgan edi, shamol bir quturdi-yu, etaklarini ko'tarib, pelerinasini uchirdi, sochlarni to'zg'itib yubordi. Komron vaqtida yetib keldi: shamsiyani bir buta tagida ushlab oldi. Ke- yin Faridaning yoniga chopib kelib, uni paltosining etagi bilan shamoldan to'sdi, chorshafini yopinib olishiga yordam berdi.

— Yaxshiyamki, vaqtida kelib qolding, Komron, — dedi Choliqushi. — Oz bo'lmasa shamol meni chinakam choliqushilar singari uchirib ketardi!

Farida yana bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin shamol quturib, boshini egishga, ko'zlarini og'zini yumishga majbur qildi.

Ular sekin-sekin yurib ketishdi. Komron uni yo'I bo'yи paltosining bag'ri bilan shamoldan to'sib bordi.

Farida endi so'zlay oladigan ahvolga kelgan edi. Lekin u, nima uchundir, gapirishdan ko'ra ko'proq kular edi. Baayni kulgi shamoliga yo'liqqanday o'zini tutolmay nuqul xaxolardi. Kulidan bo'g'ilib, nafasi tiqilib turib, kulgingining sababini anglata boshladi:

— Bilasanmi, nimaga kulyapman, Komron? Mehmondorchilikda o'tiruvdik, birdan bozorga borishim zarurligi esimga tushib qoldi. Egnimda yildirim bor edi, bu ahvolda, al-batta, bozorga borolmasdim. Bechora Narmin bitta yaxshilik qilib yubordi. Bozorga uning chorshafini yopinib bordim. Betim yopiqlik, bozordan chiqib kelayotsam, bir ofitser orqamdan ergashib kelaverdi. Bir mahal yetib kelib: "Narmin xonim, sizmisiz? Naqadar

kutilmagan baxt-a!" desa bo'ladimi? Boyoqish Narmin menga yaxshilik qilaman deb, o'zini sharmanda qilib qo'ygani menga shunaqayam qiziq tuyuldiki, men piqillab kulib yubordim. Bechora ofitser yanglishganini tushunib, qochvordi... Qochmay nima ham qilsin: Narmin o'rnidagi kap-katta xotinni ko'radi-yu...

Komron kulimsirab turib eshitdi. Farida davom etdi:

— Lekin bechora qizning sirini senga aytib, ko'p yomon ish qildim. Tiyilib o'limgan tilim qo'ymadi-da... Jon Komron, xudo haqqi, birovga og'zingdan chiqarma, xo'pmi? Balki kelajakda, kim bilsin, Narmin unga ko'ngil qo'yib qolar... Og'zingdan chiqarmasang, ularga qiladigan yaxshililing shu bo'ladi...

— Va'da beraman, Farida. Lekin Narmin hali juda ham yosh-ku...

Farida:

— Ehtimol. Lekin bunaqa yoshlarning qalbi ko'ringaniday bo'lib chiqavermaydi, — dedi.

Uning so'zlarida zaif bir gina bor edi.

Shu so'zlardan keyin anchagacha jim borishdi. Hamon yonma-yon ketishardi. Shamol asta-sekin susayib, ularning qadamlari ham sekinlashib bordi. Bechoralar yo'lning tuga-shidan qo'rqrar edilar.

Komron ichida ezilib o'ylardi: "Boyagina tabiat menga ma'nosiz, o'zim esam keraksiz bir narsa bo'lib ko'ringan edi... Endi esa pushtirang qizaloq chorshafi ichida titrayotganday ko'ringan nozik, kichik, chiroyli narsani shamoldan bir ozgina himoya qilish menga qanchalik baxt keltirdi. Hamma vaqt shunday bo'lishi mumkin edi. Men bu kichkina, ko'hlikkina vujudni xohlasam baxtiyor qila olar, o'zim ham baxtiyor bo'la olardim... Af-sus!"

Farida xayolga cho'mib, qadamlarini asta-asta sekinlashtirib borardi. U birdan yana gapira boshladi, gapirganda ham hozirgi suhbatlariga hech aloqasi bo'limgan narsalar to'g'risida gapivardi:

— Har nima bo'lganda ham, bu kichkina sayohat bahrimni ancha ochdi. Bir-ikki yil gashtini surib yuraman... Keyin, xolalarimni, hammangizni sog'insam, tag'in kelaman... Ana shunday qilib, yillar o'tadi, sekin-sekin sochlarim oqara boshlaydi, seniki ham shunday bo'ladi, albatta. Bir-birimizni ko'rganimizda yana xursand bo'lamiz, ayrılganimizda esa achinishimiz balki ozayib borar... Kim biladi, bir kun emas-bir kun butunlay qaytib ham kelarman, shunday emassi? Hayot bu, har narsa bo'lishi mumkin... Ana shunda sen mening chinakam akam bo'lib qolasan... Qarilar birin-ketin ketishgan sari biz ham bir-birimizning qadrimizga ko'proq yetadigan bo'lamiz. Mayda, ahamiyatsiz kamchiliklarimizga ortiqcha parvo qilmaymiz. Shunday qilib, umrimizning so'nggi damlarini yoshlik chog'larimiz o'tgan yerlarda...

Ovozining billuridagi ko'rinas darz jarangi kuchayib, so'zlariga yashirin huzun va alam ohangi berib borardi...

Yo'lda bolasi bilan ketayotgan bir tilanchi xotinga duch kelishdi. Yalang oyoq bola Faridaning atrofida parvona bo'lar, ozg'in qo'llari bilan uning etaklarini silardi.

Komron xotinga xayr berdi. Farida esa kichkina yetimchalarini suyib-siypashga o'rganib qolgani uchun gadoy bolaning boshini silashdan jirkannadi.

Ular yana yurib ketishganda, tilanchi xotin orqalaridan duo qilib qoldi:

— Xudoyim bir-biringizdan ayirmasin. Xudoyim shu chiroyli qizni senga ehson qilsin!

Yoshlar ixtiyorsiz to'xtab qoldilar. Komronning qalbidagi alamlı o'tmisht ko'z o'ngida aks etdi.

— Farida, eshitdingmi nima deganini? — deb so'radi u.

Bu savolga Faridaning ko'zlaridan yumalagan bir juft yirik tomchi javob bo'ldi. Endi ular bir-birlariga yaqin kelishga botinishmay, ayri-ayri yurib ketishdi.

* * *

Ular chorboqqa oqshom olaqorong'isida yetib kelishdi. Shamol tinib, havo ochilib ketgan edi. Daraxtlar esa uzoq kurashdan charchab, mudrab qolgandek ko'rindi. Qoyalarda xuddi ichidan sizib chiqayotganday nozik sadaf shu'la goh porillab ko'rindi, goh uchib qoladi.

— Hozir vaqt erta, Farida. Hali ular shahardan qaytib kelishgani ham yo'q. O'sha qoya tomonga borib, aylanib kelsak, nima deysan?

Farida boshini solintirib, majolsizlik bilan:

— Menga ruxsat ber, Komron. Borib yechinmasam bo'lmaydi, shamol boshimni og'ritib yubordi, — deb uzr so'radi.

Halgina Faridaning jonli, o'ynoqi vujudi atrofida xuddi jonli narsaday uchib, ko'ksini, tizzalarini ehtiros bilan quchib turgan pushtirang chorshaf endi jonsiz lattaday yelkalarida solinib turardi.

Farida qimirlashga madori qolmagandek, darvoza yonidagi toshga sekin o'tirdi-da, qumga shamsiyasi bilan umidsizligi qadar chuqur, hayoti kabi shikasta chiziqlar chiza boshladi. Bir ozdan so'ng Komron ham yoniga o'tirdi, yelkasini Faridaning yelkasiga tegizib, qo'lini sekin o'z qo'liga oldi. Qiz bir seskandi-yu, qayoqqa qochsam ekan degandek, atrofiga javdirab qaradi. Komron uning chuqur-chuqur xo'rsinganini, hozirgina yovvoyi-larcha chaqnagan ko'zlariga bir dam mo'minlik, itoatkorlik malohati cho'kkanini ko'rdi. Farida muzlagan, titragan qo'lini eski nishonlisining qo'llariga taslim qildi. Ikkalasi ham ko'zlarini yumdi. Komronning yopiq qovoqlari ichida mayda uchqunlar jivirlashar, u: "Mana, qo'limda Faridaning qo'li titrab turibdi. Demak, odam bolasi ro'yobga chiqmaydi degan tushlar ham amalga oshar ekan-da!" deb o'ylardi. U axiyri ko'zlarini ochdi.

Farida yig'lay-yig'lay uqlab qolgan yosh bola singari ahyon-ahyonda xo'rsinib qo'yar, hamon og'irlashib borayotgan boshini uning yelkasiga qo'yib o'tirardi. Faridaning holida, qo'llarini topshirishida mazlum kishi taslimligi bor edi.

Komron har qimirlaganda uning o'ziga yana ham yaqinroq suqlganini, qo'lini yana ham qattiqroq siqayotganini sezib turdi.

Birdan yigit lablari past, nihoyatda past tovush bilan:

— Men gulbashakarni yaxshi ko'raman, — deb shivirladi.

Eshikning g'itillab ochilishi yoshlarni shirin uyqudan uyg'otib yubordi. Farida o'q ovozini eshitgan qush chaqqonligi bilan o'rnidan sakrab turdi. Oldinda Narmin kirdi. Choliqushi hayajonli sevinch bilan uning bo'yniga osildi. Yosh qizni mahkam-mahkam quchoqlar, sochlidan, ko'zlaridan cho'lp-cho'lp o'pardi. Hech kim bu sevinch sababini bilmas edi. Choliqushining bir zumgina avvalgi horg'inligidan asar ham qolmagan edi. Kichkintoylarni qo'liga olib, boshidan yuqoriga irlitar, ularni chinqirtirardi.

Hamma ichkariga qarab yurganda, Farida o'zini orqada olib qolib, ichkarigi eshik panasida Komronni kutib turdi. Uni ko'rgach, past tovush bilan:

— Mersi, Komron, — dedi.

VII

Ertasiga Farida yana o'zi yolg'iz shaharga tushib, tush mahalida horib-tolib keldi. Charchab, o'zi zo'rg'a turganiga qaramay, bolalarni yana to'pladi-yu, hovlida baland arg'imchoq qildi.

Komron Azizbeyning qari, ezma bir mehmonidan zo'rg'a qutulib, hovliga chiqqanda Farida Najdad bilan arg'imchoq uchayotgan edi. Choliqushi kuchining boricha arg'imchoqni uchirar, Najdad esa mushuk bolasidek bo'yniga osilib chinqirardi.

Komron o'n yil avvalgidek, Oysha xolasining:

— Farida, qizim, jinnilik qilma, bolani yiqitasan! — deb qichqirganini eshitdi.

Choliqushi qulog osmadi, aksincha, butun qalbi bilan quvonib qichqirdi:

— Voy xola-ey, nimaga qo'rzasiz? Najdadning asl egasi zorlanmayapti-yu! Shunday-mi, Komron?

Farida bolalarning eng kattasi, ayni zamonda eng qo'rrog'i bo'lgan Narminni chinqirti-rib, jonini olgandan so'ng o'zi ham arg'imchoqdan tushdi. Sochlari terlab, qizarib ketgan peshonasiga, yuziga yopishib qolgan edi. U qo'liga yopishgan arqon iplarini tushirish uchun hovuchlarini bir-biriga ishqab turib:

— Nazarimda, hamma uchib bo'ldi shekilli, — degan edi, Komron yuragi betlamaygina:

— Meni esdan chiqarding, Farida, — dedi.

Choliqushi beholgina jilmaydi. "Yo'q" deyishga ko'ngli bo'lmas, "xo'p" deyishga esa botina olmas edi. Ana shundan keyin bir arqonga, bir daraxt shoxiga qarab olib:

— Hayronman, qanday bo'lar ekan, — dedi. — Arqon ikkalamizni ko'tara olmas deyman, a, Mujgon?

Mujgon arqonni ushladi, keyin Komronning ko'zlariga sekin tikilib:

— Gap arqonda emas... Farida juda charchagan. Ahvoliga qara, Komron. Charchab zo'rg'a turgan xotinni yana beshbattar charchatish gunoh bo'lar deb o'ylayman, — dedi.

Farida avval "Hechqisi yo'q, nima bo'lardi" deb turgan bo'lsa ham, keyin Mujgonning so'zlari va ko'zlaridagi ma'noni tushundi-yu, gunoh qilib qo'ygan yosh bola singari izza bo'lib, qo'rqib boshini solintirdi. So'ngra past tovush bilan:

— Ha, juda charchaganman, tobim ham joyida emas,— dedi.

Chindan ham ahvoli kasal kishinikiga o'xshardi, haligina ko'zlarida chaqnab turgan sho'xlik o'tlari ham so'ngan edi.

Mujgon haligacha ko'zlarini Komrondan olmagan edi, u past ovoz bilan:

— Men o'ylaganidan ham battarroq bag'ring tosh ekan, Komron! — dedi.

Komron ham Faridaga eshittirmaslik uchun past tovush bilan:

— Nega endi? — deb so'radi.

Mujgon uni xilvatga sudrab ketdi.

— Bechoraning ahvolini ko'rmayapsanmi? Baxtini qora, qalbini yara qilganing ham yetmadimi?

— Mujgon!..

— Uni shuncha yildan beri birontamiz yo'qlamadik. Sog'inib-sarg'ayganiga chidamay, ozorlarini, alam va qayg'ularini unutib qaytib keldi. Kelgan kunlari juda yaxshi edi. Sen bo'lsang, qalbida anchagina bitib qolgan yarasini yana ochib yubording... — Mujgonning ko'zlariga yosh keldi. — Ertaga jo'naydi, lekin bechoraning qanchalik azob, qanchalik iz-tirob ichida jo'nashini men yaxshi bilaman... Shunday, Komron, Farida ertaga ketadi! Hammayog'ini tayyorlab qo'ydi. Men ham bundan bexabar edim. Farida bu safar menga na qalbini ochdi va na hayotiga doir biron narsa aytdi. Tuyqusdan jo'nayotganligini aytdi. Imonim komil, bu gapi yolg'on. Aslida, Farida sendan qochib ketyapti, axir qachongacha azob tortadi? Men bu gaplarni senga shunchaki aytayotganim yo'q, Komron. Men bu ayriliqning Farida uchun juda ham og'ir bo'lishidan qo'rqaman. Farida bardam, odamning aqli ishonmaydigan darajada bardam, lekin har holda xotin kishi. Sen uni juvonmarg qilgan kishisan, shuning uchun undan qarzdorsan! Endi har nima bo'lsa ham shu ayriliq soatlari-da o'zingni bardam, og'ir tut, Faridaga ham iloji boricha kuch ber, quvvat ber.

Komron bu so'zlarni eshitib, yashil ko'zlarigacha oqarib ketdi.

— Faqat Faridaning xazon bo'lgan hayotini gapirasan, xo'sh, meniki-chi? — dedi.

— Seniki o'zingning xohishing bilan bo'ldi.

— Bunchalik bag'ritosh bo'lma, Mujgon!

— Tushungin axir, iloji bo'lganda edi, men bunday tisarilib turmas edim. Nima qilaylik, qo'limizdan hech narsa kelmaydi. Axir Farida boshqa odamning xotini, bechoraning boshi bog'liq. Ko'rib turibman, sen ham juda baxtsizsan. Ilgarigiday sendan xafa emasman. Lekin, nima qilaylik, nochormiz...

* * *

Faridaning ertaga ketishi hammaning qulog'iga yetgan bo'lsa ham, uydagilarning hech bittasi bundan og'iz ochmadi. Kechki ovqat chuqr jimlik ichida o'tdi. Shu oqshom Azizbey yana ham qarib ketganday ezgin ko'rindari. U Faridani yoniga o'tqazib olib, tez-tez yelkalari ni silaydi, iyagidan ushlab yuzini o'ziga o'giradi, ko'zlariga tikilib:

— Oh, Choliqushi! Qariganimda meni xarob qilding-da, — deyar edi.
Shu kecha hamma o'z xonasiga barvaqt kirib ketdi.

VIII

Vaqt yarim kechadan oshgan. Chorbog' dong qotib uxlamoqda. Mujgon xonasidan chiqdi. Boshiga yupqa ro'mol tashlab olgan, bir qo'lida shamdon. Goh oyoqlarining uchini bosib, goh to'xtab, Komron yotgan xonaning eshigiga keldi. Ichkarida na sharpa va na chiroq. Juvon eshikni sekin taqillatdi, keyin juda past tovush bilan shipshidi:

— Komron, u xlabelapsanmi?

Eshik darhol ochildi. Komron yechinmagan edi. Sham yorug'ida yuzi yana ham so'lg'in, yana ham horg'in ko'rindi. Bu xira yorug' ko'zlarini qamashtirayotganday, kiprikilarini pirpirata boshladi.

— Hali ham yotganing yo'qmi, Komron?

— Ko'rib turibsan-ku.

— Nega chirog'ingni o'chirding?

— Shu kecha chiroq ko'zlarimni achishtiryapti.

— Qorong'ida nima qilyapsan?

Komron achchiqqina kuldii.

— Hech, umidsizlik, baxtsizlik zahrini yutib o'tiribman. Xo'sh, o'zing nega bemahal kelding? Nima ishing bor?

Mujgon hayajonini zo'rg'a bosib:

— Bitta g'alati xabar olib keldim. Hovriqma, Komron, o'zingni bos, aytib beraman, — dedi.

Mujgon ichkariga kirdi, shamni stolga qo'yib, eshikni sekin yopdi, keyin gapini nima dan boshlashini bilmayotganday bir oz ikkilanib turgach, yurak dukurini bosishga harakat qilib, vazmin tovush bilan:

— Hovriqma, o'zingni bos, Komron, — dedi. — Yomon xabar olib kelganim yo'q, aksincha, yaxshi xabar. Lekin hayajoning shunday balandki...

Juvon uni bosishga harakat qila turib, o'zi hovriqar, ko'zlariga yosh chiqib, ovozi titrar edi.

— Komron, bir oz avval Farida mening hujramga kirdi. Rangida qon qolmapti, ahvoli allaqanday. "Mujgon, men shu mahalgacha qalbimni faqat sengagina ochib kelganman, — dedi. — Dunyoda sendan yaqinroq hech kimim yo'q. Senga aytadigan yana bitta sirim bor, buni ertaga men ketgunimcha saqlaysan, keyin aytishing mumkin. Bilaman, qo'qqisdan kelib qolganimni ko'rib, hammanglar hayron bo'ldinglar. Sizlarni shunchalik sog'indimki, ortiq chidayolmadim, deb aytdim, to'g'ri aytdim. Lekin asosiy sabab bunda emas. Men bu yerga dunyoda eng yaxshi ko'rgan kishim uch oy avval o'llim to'shagida yotganda unga bergen va'damni bajarish uchun kelganman. Mujgon, sizlarga yolg'on ay-

tishga majbur bo'ldim. Men tulman, erim uch oy avval rak kasalidan vafot etdi".

Farida shu so'zlarni aytib turib, boshini yelkamga qo'ydi, ho'ng-ho'ng yig'ladi. Ko'z yosHLarini to'xtata olmay, hiqillab, nafasi tiqilib turib gapirdi: "Doktorim jon beradigan kuni meni oldiga chaqirib: "Farida, endi muhtojlik chekmaysan, bunisidan qo'rqlayman, chunki hamma narsam senga qoladi. Senday sodda, og'ir bir xotinning umriga bahuzur yetib ortadi. Lekin meni boshqa narsa tashvishga soladi, Farida. Har qancha boy-badavlat bo'lganda ham, kimsasiz xotinning yolg'iz yashashi qiyin bo'ladi. Innaykeyin, pul boshqa-yu, shafqat boshqa. Farida, meni go'rimda tinch yotsin desang, va'da ber: o'Iganidam keyin Istambulga, qarindosh-urug'laring oldiga borasan. Basharti, ular oldida butunlay qolging kelmaganda ham, harholda, ikki-uch oy borib tur. Dunyo bevafo. Balki bir kun emas-bir kun yana o'shalarga ishing tushar. Balki borib-borib qalbingda oila shafqatiga ehtiyoj tug'ilari. Qisqasi, Faridaginam, oilang bilan yarashishingdan ko'nglim to'q bo'lsa, o'Iganidam ko'zim ochiq ketmaydi, go'rimda ham tinch yetaman", — dedi.

Men uning bu so'nggi orzusini yeriga yetkazish to'g'risida yig'lab turib va'da berdim. Lekin doktorimning bu bilan ko'ngli to'lmadi. U eski nishonlim bilan ham yarashishimni istadi, axir bir kun Komron akang bo'lib qolar-ku, dedi. O'z qo'ling bilan Komronga topshirgin, deb menga muhrlangan, bitta paket ham berdi. "Buning ichida bitta eski ko'ngil kitobi bor, meni bir mahallar juda qayg'uga solgan kitob. Eski nishonling ham buni albat-ta o'qishini xohlayman. Buni qanday holda bo'lsa, shunday topshirishga qasamyod qil", — dedi.

Haqiqat shunday, Mujgon. Endi hamma gapni bilding. Boyoqish doktorim juda pok, halol odam edi. U oilam bilan yarashishimni hayotimdag'i yolg'izlikdan, yetimlikdan qutulishimning birdan-bir yo'li deb bilardi. Bechora, bu narsa men uchun naqadar alamli, naqadar og'ir bo'lishini xayoliga ham keltirmagan. Shunday qilib, doktorimni Munisaning yoniga qo'ydim-u, Istambulga qarab jo'nadam. U yerda eshitgan narsalarim doktorimning vasiyatini yeriga yetkazishim mushkul bo'lishini ko'rsatdi. Komronning xotini vafot qilganini faqat o'sha yerda eshitdim. Keyin men to'g'rimda har xil bo'lmag'ur gaplar tarqalganini bildim. Komronning xotini tirik bo'lganda ham boshqa gap edi. Menga eri yaqinda o'lgan tul xotin, deb qarashar, oilasida bir necha kun turib ketishga kelgan, deb o'ylashardi. Mana endi hammangiz, Komron ham, sen ham — meni hammadan ko'proq tushunding. Sen men to'g'rimda qanday yomon narsalar o'ylashing mumkin edi. "Yillarcha yolg'iz, sarson bo'lib yurdi, somondek sarg'aydi, boshidan ne-ne savdolarni kechirdi, mana endi, kim biladi, qanday tuban niyat bilan o'zini bir qari cholga sotdi... Eski nishonlisining boshi ochiqligini eshitib, yana o'sha tuban niyat bilan darrov oramizdag'i, besh yil ilgari o'zi nohaq haqoratlar, la'natlar bilan tashlab ketgan oilasiga, nishonlisi oldiga qaytib keldi", deyishlaringiz mumkin edi. Oralaringizda shunday deb o'ylamaydigan darajada marhamatli, rahm-shafqatli kishilar bo'lsa, ular oldida ham ichimdan ezilib o'lardim.

Mujgon hamon kuchayib borgan hayajon va alam bilan so'zlardi.

— Oh, Komron! Farida bu so'zlarini qanday alam bilan o'zini urib, ko'z yosHLarini to'kib turib aytganini ko'rsayding! Mana, shu oxirgi so'zlarini o'la-o'lguncha esimdan chiqarmayman: "Oila o'chog'imdan qanday dog'u hasratda ketganimni, hayotimning qanchalik alam va ko'z yosHLari bilan to'liq bo'lganini, qaysi bag'ritosh sabablar meni er qilishga majbur etganini so'z bilan aytib berishning imkon yo'q. Yoshi yigirma beshga yetgan, umrining besh yilidan bir qismini mojarolar ichida, bir qismini erining uyida kechirgan xotinning yuziga, badaniga erkak labi tegmagan bokira qiz ekani aytilsa, albatta, hamma kuladi, hamma uni hayosiz, yolg'onchi deydi, shunday emasmi, Mujgon? Buning aksini isbot qilib bo'lmaydi, iloji yo'q. Boshqa aytadigan gapim yo'q. Doktor Komronga tayinlagan paketda nima bor ekan, bilmayman. Ehtimol, ichida kutilmagan biron narsa bordir.

Menga qanchalik og'ir iztirobli bo'lsa ham, rahmatlining so'nggi orzusini yeriga yetkazdim. Lekin paketni o'z qo'lim bilan topshirishga qurbim yetmaydi. Buni ertaga kemaga o'tirganimdan so'ng, oramizdagi hamma narsa bitgandan so'ng Komronga berib qo'yarsan", — dedi.

Mujgon jimidi. Hayotning eng achchiq va alamlı damlarida ham o'zini tetik, bosiq ushlaydigan bu juvon hozir yosh boladek yig'lar edi. U Komronga qaltiroq qo'llarini cho'zib:

— Uni yolg'iz qo'yib yubormaylik, Komron, — dedi. — Kerak bo'lsa, zo'rlik bilan olib qolaylik. O'tgan ishga salavot, nima bo'lган bo'lsa bo'ldi, endi bir-biringizdan ayrilmasligingiz kerak! Ko'rib turibman, ortiq chidolmaysizlar.

Komronning vujudi muzlab borardi. Eng ahamiyatsiz bir tushdan, eng zaif bir xotiradan oylarcha kasal bo'llib, kichikkina umid bilan yashab kelgan bir xayolparast uchun bu umid, bu baxt haddidan ziyod edi. Uzun muddatli hushsizlikdan keyin o'ziga kelgan og'ir kasal singari Komron ham hech nimaga tushunmay qorong'ida ko'zlarini javdiratib tevarakka qarar, nuqul kipriklarini pirpiratardi.

Mujgon ro'moli ichidan qizil muhr bosilgan bir paketni chiqardi.

— Faridaga bergen va'damga qaramay, buni senga hozir topshiryapman, — dedi.

Juvon ro'molini tuzatib, uydan chiqmoqchi bo'lган edi, Komron ushlab qoldi:

— Mujgon, sendan bitta iltimosim bor. Bizning savdoimizni hammadan ko'ra sen ko'proq bilasan. Paketni birga ochib, ichidagi narsani birga o'qiylik.

Mujgon stol ustidagi chiroqni yoqquncha, Komron paketni ochdi. Ichida bitta xatu yana bitta kattakon konvert chiqdi. Yo'g'on, yirik harflar bilan yozilgan maktub Komron ga xitob qilar edi:

"O'g'ilim, Komronbey!

Sizga bu maktubni yozgan odam umrining bir ozini kitoblarga, bir qismini esa hayot deb atalgan chigal mushtlashish yaradorlariga bag'ishlagan tarki dunyo bir cholki, xati qo'lingizga yetmasdan ancha burun olamdan o'tgan bo'ladi. U cholning butun borlig'i bilan yaxshi ko'rgan bir bechoraga oxirgi marta yaxshilik qilib ketish tilagi bu maktubni sizga o'lim to'shagida yotgan joyida yozishga majbur qildi. Quloq soling.

Bir kun uzoq qishloqdagi vayrona maktabda yog'du kabi toza, umid kabi go'zal bir istambullik qizni uchratdim. Qorong'i qish kechasida, qor elab yog'ib turgan bir paytda uyingizning derazasini ochsangiz-u, qorong'ilikdan bulbul nag'masini eshitsangiz, shunda qanday bo'lasiz? Men ham o'shanda shunday bo'ldim. Bu mas'um nozik kibor qizni, tabiatning bu go'zal va nodir xilqatini qaysi la'nati tole va tasodif bu qorong'i qishloq xarobasiga keltirib tashladi? Qalbi yig'laydi-yu, ko'zlari bilan lablari kuladi, fidokorlik haqidagi hangomalar bilan meni aldaydi. Men esam "Oh, bechora qiz! Men seni Istambulda tashlab ketgan nodon, johil yoringmidimki, bu gaplaringga ishonsam!" deb o'yladim. Uyquga qonmay uyg'ongan yosh bolaniki singari xumorli ko'zlari, qaerga qadam tashlashini bilmagan kishiniki singari ahvoli, xayoliy lablarining bo'sasi bilan titrayotgandek ko'ringan dudoqlari, xayoliy quchoqda talpinayotganga o'xshagan atvori, harakatlari menga butun sirni ayon qildi.

Eski zamon dostonlarida Laylisini qidirib, sahrolarda sargardon bo'lган Majnunni goho shukuh va mammuniyat bilan eslab qo'yardim. Faridani ko'rgan kunimdan boshlab u dostonni esdan chiqardim. Endi yangi zamonning mozorlar bilan to'liq qorong'i qishloqlari da ilojsiz ishq ro'yolarini axtargan bu oydin ko'zli, ipakday mayin, mas'um, oljanob "Layli"sin tez-tez eslaydigan bo'ldim. Ikki yildan keyin tag'in uchrashdik. Hamon eski dardi boshida, qalbini ichdan kemirmoqda edi. Eh, attang, dastlab ko'rgan kunim nega uni otimga o'ngarib, zo'rlab bo'lsa ham Istambulga, oilasiga eltilb tashlamadim! G'aflatda qoldim, g'aflatda!

Farida bilan ikkinchi marta uchrashganimizda, fursat qo'ldan ketgan edi. Siz uylanib

olgan edingiz. Faridani hali yosh, esidan chiqarib yuboradi, deb o'ylagan edim. U kasal yotgan paytda ittifoqo qo'limga daftari tushib qoldi, qarasam, eh-ha, qalbining yarasi tu-zaladigan yaralardan emas. Daftarga butun hayotini yozibdi. Ana shundan keyin butun umidim uzildi, holbuki, uni o'z bolamday davolamoqchi edim. Ammo bunga ham odamlarning fisqu fasodlari, tuhmat va g'iybatlari imkon bermadi. Ana shundan keyin menda yaxshiroq odam topib, Faridani o'shangang berish fikri tug'ildi. Lekin bu ham xavfli edi. Eri har qancha odamoxun bo'Iganda ham, Faridadan muhabbat talab qilishi turgan gap edi. Garchi qizginam muhabbat uchun tug'ilgan, muhabbat yo'lida sarg'aygan bo'lsa hamki, begona ishqiga unga go'r azobidan battar bo'lishi aniq edi. Mana shu xavfdan qo'rqiб, chor-nochor o'z nikohimga oldim. Shu tariqa uni o'lgunimcha himoya qilishim mumkin edi. O'lganimdan keyin esa besh-o'n qurushlik davlatim, uch-to'rt yerdagi mulkim uni muhtoj qilib qo'ymas edi. Shuhbali qiz bo'lib yashashdan ko'ra tul bo'lib xotirjam yashash uning uchun ham o'ng'ay bo'lardi. Shunisi ham borki, axir bir kun murodi hosil bo'lishiga imonim ham komil edi. Hayotda nimalar ro'y bermaydi!

Nihoyat, xotiningizning vafoti menga yangi umid bag'ishladi. Sizning to'g'ringizda hammavaqt Istambuldan xat-xabar olib turardim. Xotiningizning vafoti sizni qayg'urtirgan bo'lishi mumkin, biroq meni ham qayg'urtirdi desam tilyog'lomalik qilgan bo'laman. Faridani bu xo'jako'rsinga qilingan yolg'onidakam nikohdan bo'shatib, siz bilan topishtirish uchun o'ng'ay payt poylab yurardim. Bilmayman, odamlar bu harakatimga qanday qarashar ekan? Lekin men odamlarning g'iybatlariga, men to'g'rimda aytgan yo o'ylagan narsalariga al-laqachon tuflagan odamman.

Qarorimni amalga oshiraman, deb turganimda birdan kasalim zo'riqib ketdi. Ana shundan keyin masalaning uch-to'rt oy ichida o'z-o'zidan hal bo'lishiga aqlim yetdi. Qaydam, tafsilotga hojat bormikan? Endi muddaoga o'taylik, Faridani bir bahona bilan Istambulga yuboraman. Xatimni o'z qo'li bilan topshirishiga shubham yo'q. Men uning tabiatini yaxshi bilib oldim, alomat qiz. Ehtimol, injiqlik va yo e'tiroz qilar, lekin sen bo'sh kelma, xazon bo'lmasin desang, javob berma! Zarur bo'lsa, xotin-qizlarni olib qochadigan tog'liklar singari yovvoyi va qo'pol bo'l. Quchog'ingda jon bersa, bilginki, quvonchdan, baxtiyorligidan jon beradi.

Shuni ham eslatib o'tayki, bu ishda seni zarracha ham o'ylaganim yo'q. Ko'nglimning roziligiga qarasam, senga nainki Farida kabi nodira qizni, hatto uyimdag'i mushukni ham bermas edim. Nachora, bu telba qizlarga hech aql o'rgatib bo'lmas ekan. Senga o'xshash quruq, qalbsiz odamlarning nimasini yaxshi ko'risharkin, hayronman...

Marhum Xay-rul-lo.

Eslatma. Paketda Faridaning daftari bor. O'tgan yil Olajaqoyaga ko'chib borganimizda, ichiga shu daftar solingen sandiqchasini bekitib qo'yib, izvoshchilar o'g'irlab ketishibdi, deb aytgan edim. Farida churq etmagan bo'lsa ham, lekin juda qattiq ezilganini ko'rdim. Bu daftarining axir bir kun kerak bo'lib qolishi mumkinligini o'ylab, juda to'g'ri ish qilgan ekanman!"

IX

Mujgon bilan Komron Choliqushining ko'k muqovali qalin daftarini tushirishganda, de-raza orqasi yorishib, daraxtlarda qushlar chirqillasha boshlagan edi.

Komron horg'inlik va ixtirob og'irlashtirgan boshini daftarning sarg'aygan sahifasiga qo'ydi-da, ko'p yerlari ko'z yoshlari bilan yuvilgan bu aziz satrlarni qayta-qayta o'pdi.

Daftarni yopib, bir yoqqa qo'yishmoqchi bo'lib turishganda, Mujgonning ko'zlari daftar muqovasiga tushdi. U ko'k muqovani chiroqqa yaqin keltirib qaradi.

— Daftar tugamabdi, Komron. Muqovasida ham yozuvsalar bor. Lekin daftar ko'k bo'lGANI uchun siyoh yaxshi ko'rINmayapti, — dedi.

Ular chiroqni ko'tarishdi, boshlarini daftar ustida bir-birlariga yaqinlashtirib, shu satrlarni qiyinchilik bilan o'qishdi.

"Kecha daftaramni abadiy yopgan edim. Nikoh kechasining sabohida nainki xotira yozish, hatto eski yuzimni ko'rish uchun oynaga qarashga, eski tovushimni eshitish uchun unimni chiqarishga ham jur'at qila olmas edim. Faqat...

Shunday qilib, kecha men kelinchak bo'ldim. Selga uchragan xazon kabi o'zimni oqimga taslim etdim. Kim nima desa qildim, hech narsani qaytarmadim. Shunchalikki, doktor Izmirdan keltirgan uzun etakli oq ko'ylakni kiydirishlariga, sochlari mingning bir yog'iga bir tutam kumush ip ilashtirishlariga ham qarshilik qilmadim. Faqat oro berish uchun meni katta tosh oynakka olib kelishganda, hech kimsaga sezdirmasdan ko'zlarimni yumib oldim. Bo'lGANI shu. Butun isyonim faqat shundangina iborat bo'ldi.

Meni ko'rgani bir qancha yotu begona keldi. Bular orasida ilgari men bilan ishlashgan muallimalar ham bor edi. Aytgan so'zlari qulog'imga kirmas, hammasiga ham bir xilda ayanch tabassum bilan javob qilishdan o'zgasiga kuchim yetmas edi.

Bir kampir yuzimni ko'rib:

— Choli tushmagurning xo'pam tolei bor ekan-da. Turnaning naq ko'zidan uribdi-ya!
— dedi.

Xayrullobek uyga kechki ovqat mahalida yetib keldi. Semiz gavdasini korset siqib turgan smoking kiyib olgan edi. Qizil galstugi bir yoqqa juda g'alati bo'lib qiyshayib ketibdi. Yuragim ezilib, xafa bo'lib turganimga qaramay, kulib yuborishdan o'zimni tutib qololmadim. Boyoqishni kulgi qilib qo'yishga haqqim yo'qligini o'ylab, qizil galstugini chiqarib olib o'rniga boshqasini, yarashadiganini bog'lab qo'ydim.

Xayrullobek kulib turib:

— Barakallo, qizim, sen ajoyib uy bekasi bo'lsan. Ko'rdingmi, yosh qizga uylanishning fazilatlarini? — dedi.

Mehmonlar tarqalishdi. Biz yemakxona derazasi yonida ro'baro' o'tirardik. Xayrullobek:

— Kichkinam, nega kechikib qolganligimni bilasanmi? — deb so'radi. — Munisaning mozorini ziyorat qilib keldim. Qabriga bir dasta gul va sening kelinchaklik iplaringdan bir siqim qo'yib keldim. Boyaqish sening oldingda gapirishga tortinardi, lekin yolg'iz qolanimizda nuqul: "Opajonim kelinchak bo'lib, sochlari kumush ip taqqanda, men ham taqmoqchiydim", deyardi. Rahmatlining sariq sochlari qipni o'zim taqardim, afsuski bo'lmadi.

Doktor shu so'zlarni aytib turganda, o'zimni tutolmay yuzimni derazaga o'girdim-u, mana shu alamli kuz oqshomining ko'zga ko'rinasmas tumani singari kipriklarimda qurib qolayotgan yoshlar bilan to'lib-to'lib yig'ladim.

Kechaning ilk soatlarini har kungiday pastda, ovqatxonada o'tkazdik. Xayrullobek ko'zoynaklarini taqib olib, burchakda allaqanday kitob o'qib o'tirdi.

— Kelinoyim, yangi kuyovning kitob o'qib o'tirishi yarashmaydi, lekin meni aybga buyurmaysan-da. Qo'rhma, kechalar uzun, yosh kelinchakka ishq dostonlari o'qishga ham vaqt topiladi, — dedi.

Chekkalarini tikib o'tirgan ro'molim ustiga boshimni yana ham ko'proq solintirdim. Eh, bu qari doktor! Uni qanchalar sevardim, mana endi qanchalar nafratlanaman undan! Demak, alamdan, qayg'u-g'amdan behol bo'lib boshimni yelkasiga qo'ygan kezlarimda, u... Demak, oq kipriklar ostida yashiringan bu gunohsiz moviy ko'zlar menga xotin deb, bo'lajak qayliq, deb qarab kelgan ekan-da!..

Soat o'n birga jom urguncha shu xil achchiq alamli o'ylar bilan band bo'ldim. Nihoyat,

doktor kitobini stolga qo'yib, kerishdi, esnadi, keyin:

— Hoy, kelinoyim, yotish kerak, yur, — deb o'rnidan turdi.

Qo'llarimdan ignam, yamab o'tirgan narsam tushib ketdi. O'rnimdan turib stoldagi shamdonni oldim-da, darpardani yopish bahonasi bilan deraza yoniga bordim. Kecha zulmatiga uzoq tikilib turdim. Hozir sen chiq-u, qorong'i yo'llarga tushib qoch, degan o'y keldi miyamga. Lekin doktor:

— Kelinoyim, juda uzoq o'ylanib qolding? Bo'ldi, chiq tepaga. O'nboshiga tayinlaydi-gan ishlarim bor, men ham orqangdan chiqaman, — deb qoldi.

Doktorning qari enagasi bilan bir qo'shni xotin menga kelinlik libosini kiydirishdi. Key-in qo'limga yana shamdonni tutqazishib, meni kuyovimning hujrasiga olib kirishdi. Xayrullobek pastdan chiqmagan ekan. Men javon yoniga kelib to'xtadim, ko'kragimni so-vuqdan saqlayotganday, qo'llarimni qovushtirib oldim. Shu qadar titrardimki, qo'limgagi shamdon tinmay tebranar, goho sochlarimning uchini kiydirardi.

Nihoyat, zinada, keyin dahlizda oyoq tovushi eshitildi. Xayrullobek ashulani ming'illab, yo'l-yo'lakay smokingini yechib kirdi. Kirdi-yu, meni ko'rib hang-mang bo'lib qoldi.

— Hoy qiz, hali yotganing yo'qmi? — dedi.

Javob bergani og'zimni ochgan edim, tishlarim takillab yo'l qo'ymadi.

Doktor yonimga kelib, yuzimga ajablanib qaradi.

— Hoy qiz, nima bo'ldi? Hujramda nima qilib yuribsan?

Birdan hujrani guldiros qahqaha larzaga keltirdi.

— Voy sho'rim, hali sen...

Doktor qahqahadan bo'g'ilib, so'zini tugatolmadid. Keyin shapaloqlarini tizzalariga shapillatib urdi-yu, barmoqlari bilan og'zini yopib turib:

— Demak, sen bu yerga... Voy, sharmanda! Chindan ham eru xotin bo'ldik, deb o'ylabsan-da! Tuf, uyatsiz, beor! — dedi. — Xudo jazongni bersin!.. Otang tengi bir odamni...

Qahqaha zo'ridan devorlar qimirlab, shift boshimga ag'darilgandek bo'ldi.

— Voy, qora yurakli hayosiz-e! Qiz boshing bilan mening hujramga tungi ko'ylakda kiri-shga uyalmadingmi?

O'sha paytdagi ahvolimni ko'rishni istardim, kim bilsin, qanday rangga kirib, qanday rangdan chiqdim ekan.

— Doktorbey, xudo haqi, bilganim yo'q, o'zları shunday deyishdi-da...

— Xo'p, ular-ku shunday noma'qul o'ylashibdi, sen-chi?! Dunyoda har narsa bo'lishi mumkin, bunga aqlim yetadi, lekin shu yoshimda hurmatimga, iffatimga bir yuzsiz qizning hujum qilishi mumkinligini hech aqlimga keltirmagan edim.

Voy xudo, bu qanday qyinoq azobi! Yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Lablarimi-ni qonatar darajada tishlar edim. Qimirladim deguncha, u yolg'ondan lo'lilik qilar, derazaning oldiga kelib ko'ylagini yoqasidan bo'ynini cho'zib, qichqirardi:

— Hoy, qiz, yaqin kelma, qo'rqaman! Hozir derazani ochaman-u dod solaman! "Xaloyiq, qutqazinglar!" deyman! Shu yoshimda menga...

Gapining oxirini eshitmay, hujradan qochib chiqib ketdim. Lekin bilmayman, menga nima bo'ldi, yana qaytib kirdim. Qalbimning hamisha itoat qilishga majbur etuvchi amri bilan:

— Ota! Otajon! — deb faryod qildim, yig'lab turib o'zimni quchog'iga otdim.

U ham quchog'iga oldi, qalbdan chiqqan ayni faryod bilan:

— Qizim! Bolam! — deb peshonamdan o'pdi.

Otalik bo'sasining lazzatini, titrab turgan u lablarni o'lgunimcha esimdan chiqarmay-man!

* * *

O'z hujramga kirdim. U yerda ham yig'lar, ham kular edim. Shu qadar shovqin ko'tardimki, doktor o'z hujrasidan devorimni dukullatib:

— Hoy qiz, uyni yiqitasan, bu qanaqa shovqin! — dedi. — G'iybatchi qo'shnilar menden ko'rishadi. Kelinchakni ertalabgacha baqirtirib chiqdi deyishadi-ya!

Lekin doktoring o'zi ham menden kam shovqin ko'tarmas, hujrasida aylanib yurib, nuqul:

— Bu oxir zamon qizlaridan nomusimizni, iffatimizni o'zing asra, o'zingga omonat, e xudo! — deb baqirishini qo'ymas edi.

Shu kecha u o'z hujrasida, men ham o'z hujramda o'n martacha uyg'ongandirmiz. Devorni dupurlatishib, xo'roz singari chaqirishar, qush singari sayrashar, baqa singari qurullahar, bir-birimizga tinchlik bermay g'udurlashardik.

* * *

Kelinchaklik kechamning butun hikoyasi ana shundan iborat.

Boyoqish doktorim, shu qadar pok vijdonli, toza qalbli odam ediki, xo'jako'rsinga uylanayotganimizni bundoq shipshitib ham qo'ymabdi. Men esam, voy xudo, uning oldida yengiltak nozanin ekanman! Olijanob do'stligimizda u erkakligini unutgan bo'lsa ham, men xotin kishiligidagi unutmabman.

Erkaklarning ko'pchiligi juda yomon, bag'ritosh bo'ladi, bunisi haqiqat. Xotinlarning esa hammasi yaxshi, bag'ri yumshoq bo'ladi, bunisi ham haqiqat. Lekin erkaklar orasida yaxshi niyatli, toza yurakkilari bor, juda oz bo'lsa hamki, harholda bor. Bunday erkaklarning qalb pokligini xotinlardan topib bo'lmaydi".

X

Farida o'sha kecha tongotar paytidagina uyquga toldi. Kechqurungidan yana ham horg'in, yana ham ezgin bir holda uyg'onganda, quyosh ancha ko'tarilib, soat o'n birdan oshgan edi. Maktabga kech qolgan bolalar singari shoshib-pishib o'rnidan turdi.

— Yashavor, Mujgon! Yo'lga chiqadigan kunimda barvaqtroq uyg'otib qo'ysang nima qildi?

Mujgon har kungi sovuqqonligi bilan:

— Bir necha marta uyingga kirdim, qarasam, shirin uxbab yotibsan, ko'zim qiyomadi. Qo'rhma, hali uncha kech emas. Innaykeyin, kemaning bo'lishi ham dargumon emish. Dengiz quturib yotibdi, — dedi.

— Nima bo'lsa ham albatta ketishim kerak.

— Men ham otamga aytdim, sening g'amingni yeb, limanga tushib ketdi. Tayyor bo'lib tursin, kema kelsa yo izvosh yuboraman, yo bo'limasa o'zim kelib olib ketaman, dedi..

Farida jo'nash kunini bunday bo'lar, deb o'ylamagan edi. Mujgonning bolalar bilan ovora bo'lganini, xolalarining har kungiday bemalol gaplashib, kulishib o'tirishganini ko'rди. Ularning beparvoligi Faridani o'ksitdi. Komron ham ko'rinnmaydi.

Mujgon pinhona qilib, Faridaning qulog'iga shipshidi:

— Farida, senga bitta yaxshilik qildim: Komronni uydan xoliroqqa chiqarib yubordim. Seni xayrlashishda azob chekmasin, deb o'zini chetroqda olib turishga rozi bo'ldi.

— Endi kelmaydimi?

— Limanga xayrlashgani kelsa ajab emas. Qalay, yaxshi qilibmanmi?

Faridaning ko'zlariga mung cho'kdi, lablari titray boshladи. Chakkasida og'riq turdi. Og'riyotgan yerini barmog'i bilan bosib:

— Ha, ha, rahmat, juda yaxshi qilbsan, — dedi.

Farida bir qator quruq, ma'nosiz so'zlar bilan Mujgonga javob berayotganda, bolalik chog'larining sevgili do'sti bilan birga ko'nglida abadiy o'Iganini, endi hech mahal u bilan yarashmasligini his etardi.

Tushki ovqatga endi o'tirishganda, qo'shni bog'larning biridan mehmondorchilikka chaqirib kelishdi. Baladiya idorasining raisi shahardagi qishloq uylariga, bola-chaqasini ko'chirib ketish oldidan bog' qo'shnilariga, shuningdek, Farida bilan xayrlashish sharafiga ziyofat bermoqchi bo'libdi.

— le, qanday bo'ladi? Hozir meni olib ketgani odam keladi-ku? — dedi Farida.

Xolalari:

— Uyat bo'ladi, Farida, borish kerak, orasi besh minutlik yo'l. Alovida tayyorlanib o'tirishning keragi yo'q, chorshafingni yopinasan-u, boraverasan, — deyishdi.

Boya unga kasal mushukchalik ham qarashmagan xolalarining hozir onalarcha g'amxo'rlik qilishayotganiga ajablanib, Farida yuzini yerga qaratib oldi.

— Xo'p, boraman, — dedi.

* * *

Soat uchga yaqinlashib borardi. Farida avvonda yaproqlari sarg'aygan chirmov orasidan yo'Iga qarab turardi. Birdan:

— Mujgon, bitta izvosh kelyapti! Menga bo'lsa kerak, — deb yubordi.

Xuddi shu payt uzoqdan, dengiz bo'yidagi daraxtlar orasidan kema ham ko'rinish qoldi.

Farida o'pkasi tomog'iga tiqilib:

— Kelyapti! — deb qichqirib yubordi.

Bog'da g'ovur boshlandi. Xizmatkor xotinlar chorshaflarini keltirgani yugurishdi.

Farida xolalariga:

— Men oldin ketaveray, sizlar orqadan borarsizlar,— dedi.

Mujgon ikkalasi bog' orasidagi so'qmoq bilan chopib ketdi. Goh chetanlardan oshib, goh polizlardan yurib borishdi. Bog' eshigiga yetishganda, qari oshpaz xotin ro'paralari dan chiqib qoldi. Kampir:

— Sizlarga ketayotuvdim, kichik xonimlar, — dedi.— Beylar izvosh olib kelishdi, sizni kutib turishibdi.

Azizbey bilan Komron ularni ikkinchi qavat dahlizida kutib olishdi. Azizbey qo'li bilan uuga ishora qilib:

— Ikkita bemavrid mehmon keldi, shovqin qilmanglar, — dedi. Keyin Faridani boshidan-oyog'igacha suzib chiqdi. — Bu nimasи, kichik xonim, qora terga tushib ketibsan?!

Azizbey kulimsirab, Faridaga yaqin keldi, iyagidan ushlab ko'zlariga tikildi.

— Kema kelishga keldi-yu, lekin senga foydasi yo'q. Ering javob bermayapti, — dedi.

Farida bir qadam orqaga tashlandi, hayratidan ko'zları olaydi.

— Pochcha, nima deyapsiz!

Azizbey barmog'i bilan Komronga ishora qildi.

— Mana ering, qizim, mening daxlim yo'q, — dedi.

Farida voylab yuzini to'sdi. Yiqilib ketishi mumkin edi, biroq allakimning qo'li bilagidan ushlab qoldi. Farida ko'zlarini ochib qaradi: oldida Komron turardi.

Azizbey shodiyona bir qahqaha bilan:

— Ey, xayriyat, axiri qafasga tushdingmi, Choliqushi? Qani, tipirchilab boq-chi, bir ko'ray, qani, tipirchilab boq-chi! Qani, ko'raylik-chi, foydasi bormikan?— dedi.

Farida yuzini to'sishga harakat qilsa ham, bilagini Komronдан qutqazolmas, boshini berkitishga urinsa ham, Komronning ko'ksi va yelkasidan boshqa yerni topolmas edi.

Azizbey yana boyagi qahqaha bilan:

— Atrofingdagilar senga tuzoq qurishdi, Choliqushi, — dedi. — Siringni mana shu xoin

Mujgon fosh qilib qo'ydi. Xudo rahmat qilgur doktoring Komronga daftaringni yuborgan ekan, daftarni olib, to'g'ri qozining oldiga bordim. O'zing yozgan ba'zi narsalarning joylarini ko'rsatdim. Qozi aqlli odam ekan, darrov nikohingga fatvo berdi; tushundingmi, Choliqushi? Mana endi Komron sening ering, endi u hech qachon seni tashlab ketmaydi.

Farida shu qadar qizarib ketdiki, yuzining rangi moviy ko'zlariga ham urib, ko'z qora-chiqlarida o'tlar chaqnadi.

— Bas, Choliqushi, ko'p noz qilaverma! Ko'rib turibmiz, suyunganingdan shunday qilyapsan. Menga qara, "Pochcha, chakki qilmadingiz, ko'nglimdagi bo'ldi", de. Qani, takrorla!

Azizbey uni zo'r lab takror ettirdi. Keyin hujra eshigini ochib, g'olibona bir qahqaha bilan:

— Shariat yo'li bilan vakil otaman, afandim, — dedi. — Choliqushi, e kechirasizlar, Farida xonim nomidan mana shu Komronbeyni kuyovlikka qabul qildim. Fotiha qiling, biz omanni bu yerda turib aytamiz, — dedi. Keyin Faridaga o'girilib hazillashdi: — Endi nima deysan, Choliqushi? Mushtumdek bolasan-u, necha yildan beri jonimizni olib kelasan! Endi xo'p boplab qo'lga tushirdimmi?

Bog'dan bolalarning chug'uri eshitilib turardi.

Azizbey:

— Endi tabriklar, qo'l o'pishlar boshlanadi, — dedi. — Yo'q, yaxshisi, buni kechga qoldiraylik. O'z qo'llim bilan qo'ling o'rgulsin to'y ziyofati tayyorlayman. Qani, o'g'lim! Bizning vaqir-vuqrurimizdan sizlarga foyda yo'q. Bir-biringizga aytadigan gaplaringiz bordir. O'g'lim, anovi orqa yo'lni ko'rdingmi? Barakallo, ana shu tor zina bilan xotiningni olib qoch. Uzoqqa, xohlagan yeringga bor. Keyin birga qaytib kelarsizlar.

Komron Faridani qo'lidan tortib, zina tomonga ketayotganda, Mujgon orqalaridan yetib keldi. Dugonalar yig'lab turib o'pishdilar.

Azizbey ko'zlarida paydo bo'lgan yoshlari bildirmaslik uchun burnini guvullatib qoqdi-da, notiq singari qo'lini siltab turib:

— Hoy, gilosimni o'g'irlagan Choliqushi! Uni boshqaga o'g'irlatsang bormi, naq mendan baloga qolasan-a! Qani, hozir qaytarib ber, shu bilan hisob-kitobimizni tugataylik, — dedi. U haligacha qo'lini Komrondan bo'shata olmagan Faridani baland ko'tarib o'pgandan so'ng yana yigit quchog'iga otdi. — Bugun kechasi dengiz po'rtanasiga yo'liqarding, biz seni qutqarib qoldik. Lekin yoningdagi "sariq po'rtana", nazarimda, yana ham xavfliroq ko'rindi. Xudo panohida asrasin seni, Choliqushi!

Ikki baxtiyor tor zinadan yumalanib ketar darajada pastga uchib tushdi. Komron qo'lini Faridaning belidan o'tkazib olib, uni mahkam qisar, changalidagi nozik barmoqlarni og'ritib ezardi.

Zinapoyalarning birida Faridaning etagi ilashib qoldi. Hansirashib bir nafasgina to'xtashdi. Choliqushi etagini bo'shatish bilan ovora ekan, Komron hayajon ichida nafasi tiqilib:

— Farida, meniki ekanligingga hech ishonolmayapman! Meniki ekanligingga qalbimni ishontirish uchun, vazningni sinab ko'rishim kerak, — dedi.

Komron uni yosh boladay azot ko'tarib oldi. Farida o'zini qutqazish uchun tipirchilar, nafasi bo'g'ilib hansirardi. Chorshafidan to'zib chiqqan sochlari Komronning yuziga urilar, quchoqda talpinishi yigit kuchiga kuch berar, harorati qonini qizdirardi. Komron uni pastgacha ko'tarib tushdi. Qiz esa jarga qulayotgan kishi singari nafasini ichiga olib, ko'zlarini yumib oldi. U goh kular, goh yig'lardi.

Farida tashqari eshigiga yetganda yalina boshladi:

— Ahvolimga qara, Komron! Shu ahvolda qanday tashqariga chiqamiz? Ruxsat ber, yuqoriga chiqib, bir zumda kiyinib tushay.

Komron bo'shatmadi.

— Iloji yo'q, Farida. Bir marta bo'ldi-bo'ldi. Endi zo'rg'a qo'lga kiritganimda yana bo'shataymi, yo'q, — dedi kulib.

Faridaning qarshilik qilishga ortiq madori qolmadi shekilli, boshini Komronning ko'ksi-ga qo'yib, uyala-uyala:

— O'shanda ketib qolganimga o'zimni ham pushaymon bo'limgan deysanmi? — dedi.

Komron uning yuzini ko'rmasdi. Faqat betlarini, lablarini silab-siypagan, suyib ar-doqlagan barmoqlarga issiq ko'z yoshlari tomayotganini his etardi.

* * *

Ular yo'lda ham quchoqlashib ketishdi. Ro'parada kelayotgan ikkita baliqchini ko'rish-gandan keyingina ayrilishdi. Hanuz gaplashmay borardilar. Yonma-yon yurish baxti ularni mast qilgan edi.

Ana bog' yo'li! Komron o'n yil avval Faridani shu yerda birinchi marta ko'rgan edi. Komron qizning yelkasidan sekin ushlab:

— Bu yer esingdan chiqib ketgandir, Farida? — dedi.

Qiz uzoqlarga cho'zilib ketgan yo'lga qarab kulimsiradi.

— Bu qarashingda ma'no bor, demak, esingda?

Farida sekin xo'rsindi. Keyin, bir eski xulyoga kulimsirayotganday, chuqur horg'inlik va o'ychanlik bilan Komronga qaradi.

— O'sha mahal biram suyungan edimki!.. Ajabo, buni esdan chiqarib bo'ladimi? — dedi.

Yigit, qiz boshini teskari o'girib olmasin, ko'zlari ko'zlarimdan ayrilmasin, deb Faridani iyagidan ushлади, og'ir, sokin bir tovush bilan:

— Farida, — dedi, — bizning butun sarguzashtlarimiz mana shu yerdan boshlangan. Bilaman, azizim, sening bu ko'zlarining shunchalar jafo, shunchalar sargardonliklarni ko'rdiki, gaplarimga, dardlarimga, albatta, tushunadi. Senga ko'ngil bergen vaqtlarimda kulishdan, ermak qilishdan boshqa narsani bilmaydigan g'ofil, sho'x qizcha, nurday, ovozday qo'lga kirmaydigan Choliqushi eding. Senga chuqur muhabbatim bor edi. Har kuni ertalab uyg'organimda muhabbatim qalbimda yana ham ulg'ayganini sezardim. Bundan ham uylar, ham qo'rqrar edim. Gohi mahallar menga shunday qarar, shunday so'zlar aytardingki, yuragim shirin umidlar bilan talpina boshlardi. Lekin sen darrov o'zgarib olarding. Hamisha kulib, mazax qilib turgan bola ko'zlarining goho nozik, has-sos qiz qalbi aks etardi-yu, yana darhol yo'q bo'lib ketardi. Ana shunday hollarda «Yo'q, bu qiz meni tushunmaydi, axiyri meni xazon qiladi!» deb o'ylardim. Hayotingni, ko'nglingni shunchalik toza vafo bilan menga bag'ishlashingni umid qilgan edim. Sen, balki meni ko'rganiningda o'chgan rangingni, titray boshlagan shu chiroyli lablaringni yashirish uchungina mendan qochib yurgandirsan? Men esam buni Choliqushining yen-giltakligi deb ich-etimni yeb yurardim. Menga qara, Farida, bunchalik toza vafoni, bunchalik ajoyib qalbni kichkina Choliqushining bag'rige qanday qilib sig'dirding?

Komron bir zumgina to'xtadi. Oppoq, nafis chakkalarida mayda terlar paydo bo'ldi. U boshini solintirib, yana ham past tovush bilan so'zini davom qildi:

— Dardim shu bilan cheklanmadni, Farida. Seni hatto o'zimdan, hayotimning turli soatlarini bir-biridan kunlardim. Dunyoda vaqtning o'tishi bilan bo'shashmaydigan, kuchini yo'qotmaydigan hech qanday his yo'q. "Bordi-yu, bir kun kelib Faridani bunchalik sevmay qolsam, bu shirin hislardan judo bo'lsam-a!.." deb qo'rqardim. Shunday paytlarda yonib tugalishidan qo'rqib, chiroyqlarni qanday o'chirib qo'yishsa, men ham shunday qilar, ya'ni xayolingni ko'zlarimdan uzoqlashtirishga tirishardim. Farida, tog'larda bir o't o'sadi, otini bilmayman. Odam uni qancha ko'p hidlasa, bora-bora hidini payqamaydigan bo'lib qola-

di. Bu ajoyib hiddan mahrum bo'lgisi kelmagan kishi uni ma'lum muddatgacha o'zidan uzoqlashtiradi. Davosi shu. Goho yana o'sha ajoyib hidni qo'msab, har qanday hidni, masalan, yaramas "Sariq gul" hidini ham dimog'iga keltiradi. Ana shu o't o'z hidlari tufayli bemahal xazon bo'ladi: odamlar uzib olishib qo'llarida so'ldirishadi, eza-eza o'ldirishadi. Farida, dog'u hasratda qoraygan ko'zlarining, alam va uqubatdan sarg'aygan go'zal yuzing bilan seni qo'llarda ezilgan sari hidi ortgan o'sha xushbo'y gullarga o'xshataman. Gaplarimga tushunyapsanmi, azizim? Evoh, ko'zlarining ortiq kulmayapti. Demak, mening bema'niday ko'ringan bu so'zlarimni ermak qilyapsan.

Farida uyqu elitgan yosh bola singari ko'zlarini yumib oldi. Kipriklarida yoshlari jilvalnar edi. Bu hayajonli kechinmalar uning madorini quritdi, tizzalari o'z-o'zidan bukila boshladi, u butun og'irligini Komronning qo'llariga tashladi.

Xuddi tushdagiday, yolg'iz lablarining harakati bilan shivirladi,

— Ko'rib turibsan, Choliqushi abadiy o'ldi.

Komron boshini yana ham yaqinlashtirib, ayni ohangda shivirladi:

— Hechqisi yo'q, "Choliqushi"ga bo'lgan butun muhabbatimni boshqasiga, "Gulbasha-kar"ga berdim...

Komron qo'llarida hamon og'irlashib borayotgan bu majolsiz vujudning birdan jonlanganini, hayot zavqi bilan talpinganini sezdi.

— Yo'q, unday dema, jon Komron!

Farida hanuz Komronning ko'ksida yotgan boshini xiyol orqaga tashlab, yuzini unga qaratdi. Kesik, bo'g'iq nafas titratayotgan bo'ynining tomirlari ko'karib borar, yuzi yonib, ko'zlarida qizil uchqunlar o'ynardi.

Komron yana boyagi so'zini takror aytdi:

— Gulbashakar, mening, faqat meninggina Gulbashakarim!

Farida butun vujudi bilan qaltirab oyoqlarining uchiga turdi, yigitning yelkalaridan mahkam quchoqladi, tomirlaridagi hamma qoni lablariga yig'ilganday edi, u bo'ynini cho'zdi...

* * *

Bir minutchadan keyin tin olishdi: Farida uzoq chanqoqdan so'ng tiniq buloqda miriqib suv ichgan qush singari jonlangan edi. U yer tepinib tipirchilar, shovqin solar, Komronga ko'rsatmaslik uchun hadeb yuzini u yoq-bu yoqqa tebratar:

— Qanday uyat ish bo'ldi, voy xudo! Sen sabab bo'lding, xudo haqqi, sen sabab bo'lding!.. — deb chirqirardi.

Yonlaridagi daraxt shoxida bir choliqushi tinmay sayrar edi.

* *So'r* (Soeur) — opa (frantsuzcha). Bu yerda frantsuz katolik tarbiyaxona murabbiysi.

* *Diyorbakir* — Turkiya shaharlaridan biri. *Musul, Bag'dod va Karbalo* — Iroq shaharları; birinchi jahon urushigacha Iroq Usmonli imperiyasida edi.

* *Chorshaf* — arab, turk, eron xotinlari yopinadigan chodira, paranjining bir xili.

* Husayn yomon, Husayn yaramas, adabsiz... oo.

* *Choliqushi* — butazor qushi, chittak.

* *Ma soeur* (frantsuzcha) — mening opam, opa.

* *Hazrati Ayyub qudug'i* — Istambulda Muhammad payg'ambar sahobalaridan Abu Ayyub Ansoriy dafn etilgan mashhur qabriston.

* *Pardon* (pardon) — kechirasiz (frantsuzcha).

* *Qyag'itxona* — Istambul atrofidagi bir tuman va soy nomi.

* *Mersi* (mersi) — rahmat (frantsuzcha).

- * *Grand (grande)* — katta (frantsuzcha).
- * *Suvenir (souvenir)* — esdalik, hadya (frantsuzcha).
- * *Lamoure* — sevgi. Souvenir d` amore — sevgi esdaligi.
- * Frantsuz bolalar ertagi nazarda tutiladi.
- * *Shamsiya* — zontik.
- * *Bonjur* — salom (frantsuzcha).
- * *Xalfa* — bu yerda shogird ma'nosida. Bundan tashqari, peshqadam oqsoch, xizmatkor ma'nolarida ham keladi. Erkak va ayollar ismiga qo'shib aytildi.
- * *Nozir* — ministr.
- * *Istido* — ariza, iltimosnama (arabcha).
- * *Xo'jonim* — muallima, ayol o'qituvchi.
- * *Dorulmuallimot* — xotin-qizlar bilim yurti.
- * "Dames de Sion" — 1843 yilda Alfons va Tador Ratistonlar tomonidan yahudiylarni katolikka aylantirish uchun tashkil qilingan qizlar diniy maktabi.
- * *Rushdiya* — Turkiyada to'rt sinfli boshlang'ich maktab.
- * *Hamshira* — opa yo singil (forscha).
- * *Fondan* — ichiga likyor joylangan shokoladli konfet.
- * *Nagila* — qalyon, chilimning bir turi.
- * *Valiul-ne'mat* — ne'matini beruvchi (arabcha).
- * *Idodiya* — Otaturk islohotigacha Turkiyada mavjud bo'lgan yuqori sinfli maktab.
- * Bu yerda yosh turklarning 1908 yilgi revolyutsiyasi nazarda tutilayotgan bo'lsa kerak. Shu revolyutsiyada Turkiya konstitutsiyali monarxiya deb e'lon qilingan va 1876 yildagi konstitutsiya qaytadan tiklangan edi.
- * Majidiya — yigirma qurushli tanga.
- * Rumeli — Usmonli Turkiyaning Yevropa qismi.
- * *Samatiya* — Istambul tumani.
- * *Meret* — lapashang, anqov (turkcha).
- * *Abo* — dag'al mato yoki kigizdan tikilgan uzun kiyim, chopon.
- * *Fili Mahmud* — mamont.
- * Oldi qisqa, orqasida uzun yirmoch etakli, smokingga o'xshash erkak pidjagi.
- * *Per Loti* — frantsuz yozuvchisi; *dez-an-shan-te (desenshantes)* — umidi puchga chiqqanlar.
- * *Toliba* — o'quvchi qiz (arab-cha).
- * *Organ* — cholg'u asbobi.
- * *Jumba* — qadimiy turk uylarida tashqariga chiqarib qilingan darcha. Ichkaridan turib qaragan kishi tashqaridan ko'rinxaydi.
- * *Beyo'g'li* — Istambulning bir rayoni.
- * *Nishonli* — unashilgan kishi.
- * *Katta xalfa* — xizmatkor xotinlar boshlig'i, oqsoch.
- * Qaymaqom — uezd, shaharcha boshlig'i.